O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“JADIDLARNING O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA SAN’ATI RIVOJIDAGI O‘RNI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

TO‘PLAMI

2025-yil 12-iyun

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“JADIDLARNING O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA SAN’ATI RIVOJIDAGI O‘RNI”

mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari

2025-yil 12-iyun

Toshkent-2025

©O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2025

MAS’UL MUHARRIRLAR: f.f.b.f.d., dotsent **Zulfiya Marufova**
f.f.d., professor v.b. **Guzalxon Isakova**

TO‘PLAMNI NASHRGA TAYYORLAGANLAR:

f.f.n., dotsent **Sevara Mahmudova**
f.f.b.f.d., dotsent **Dilnoza Jumayeva**
katta o‘qituvchi **Dilbar Shomurodova**
o‘qituvchi **Dilfuza Abduxalikova**

Ushbu to‘plamdan 2025-yil 12-iyunda o‘tkazilgan “Jadidlarning o‘zbek tili, adabiyoti va san’ati rivojidagi o‘rni” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari – jadid bobolarimizning o‘zbek tili, alifbosi, adabiyoti, san’ati va madaniyati rivoji uchun olib borgan harakatlari, qoldirgan boy ilmiy, adabiy, madaniy-ma’rifiy merosi va ushbu merosning bugungi kundagi ahamiyati xususidagi ilmiy maqolalar o‘rin olgan.

(Maqolalardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir)

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirining 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2024-yil 27-dekabr 490-sonli buyrug‘i hamda Oz‘DSMIning 2025-yil 22-yanvardagi 29-sonli buyrug‘i asosida nashrga tayyorlandi.

SAYFULLAYEV Nodirbek Baxtiyorovich,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor

JADID MA’RIFATCHILIGI G‘OYALARI - UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida butun Turkiston o‘lkasiga yoyilgan jadidchilik harakati o‘zbek tili, adabiyoti va san’ati rivojlanishiga, millatning uyg‘onishiga turtki bo‘ldi. Jadidlar o‘lka aholisini ilmli, ma’rifatli, shuningdek, hurfikrli bo‘lishini istab, maktab, maorif, adabiyot va san’at sohalarida katta islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilib oldi. Xalqning madaniy va ma’rifiy jihatdan ongini o‘stirishga, dunyoqarashini rivojlantirishga bor e’tiborini qaratdi. Bu borada xalq orasidan chiqqan millat ziyolilari mulkdorlar qatlamining bir qismi jadidchilik harakatining tayanchi bo‘ldilar. Bular qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fayzulla Xo‘jayev, Said Ahmad Vasliy, Sadriddin Ayniy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdulla Badriy, Abdurahim Yusufzoda, Hoji Muin, G‘ozi Yunus, Elbek, G‘ulom Zafariy, Abdulla Qodiriy, Tavallo, Abdulhamid Cho‘lpon, Mirmuhsin Shermuhammedov, Miskin Usmonxo‘ja To‘xtaxo‘jayev kabi xalqning barcha tabaqa vakillari bor edi.

Jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati o‘zbek ta’lim tizimida katta o‘zgarishlarni boshlab berdi. Jadid maktablari yangi usul asosida ta’lim-tarbiya berib, eski maktablar va madrasalardagi yodlash va tushunishga asoslanmagan ta’lim tizimidan farqli ravishda amaliy o‘qitish usullariga urg‘u berdi. Jadid ziyolilari mamlakat madaniy, siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan til, alifbo-imlo masalalariga jiddiy e’tibor qaratdilar.

Fitrat rahbarligida ish olib borgan “Chig‘atoy gurungi” madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy tashkilot sanalgan. Tashkilot madaniy merosimizni to‘plash, o‘rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o‘zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug‘ullangan.

E’tiborlisi shundaki, 100 yil muqaddam millat, vatan, til, adabiyot – hayot va mamot masalasi sifatida kun tartibiga chiqqan edi. Ona tilining boshqa tillar bilan aralashib o‘z jozibasini yo‘qotib borayotganligini Farg‘ona jadidlarining rahnamosi Is’hoqxon Ibrat o‘zining “Tarixi madaniyat” nomli risolasida tanqid ostiga oladi. Binobarin, jadidlar, xorijiy tillarni o‘rganishni inkor etmay, balki o‘zlari ham o‘ndan ortiq tillarni bilgan, bu sohada bir necha tillarni o‘z ichiga olgan lug‘at kitoblar tuzgani holda, milliy til va adabiyot himoyachilari sifatida uning sofligi va taraqqiyoti uchun kurash olib borganlar.

XIX-XX asrlarda jadidlar O‘rta Osiyo hududiga teatr san’atini olib kirdilar. 1914-yilda sahnada ijro etilgan ilk o‘zbek spektakli Behbudiyning “Padarkush” dramasi asosida yaratilgan bo‘lib, o‘zidan keyin o‘nlab, yuzlab spektakllarning dunyoga kelishiga turtki bo‘ldi. Samarqand shahrida birinchilardan bo‘lib yangi O‘zbek jadid teatri ish boshladi, uning ochilishida va qurilishida Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmatlari juda katta bo‘lgan. Toshkent shahrida birinchi jadid teatri 1914-yilda o‘z faoliyatini boshlagan. Bu teatrning ochilishida Abdulla Avloniyning xizmatlari katta edi. U bu teatrni „ Turon teatri“ deb nomlagan. Jadidchilarning yana bir yirik namoyondasi hisoblangan Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining havaskorlar teatrini 1916-yilda Qo‘qon shahrida tuzadi. Toshkentdagi hozirgi Milliy teatr tashkilotchilaridan biri bo‘lgan Mannon Uyg‘ur va O‘zbek jadid teatrining ilk ayol aktrisasi Ma’suma Qoriyeva shu erda o‘z ish faoliyatini boshladilar. Turkistonning boshqa hududlarida – Farg‘onada, Andijonda va Xivada yana shunga o‘xshash teatrlar ochildi. Mannon Uyg‘ur tashabbusi bilan Buxoro shahrida yana bir teatr ochildi. Bu teatrlarda xalqning ko‘ngliga yaqin axloqiy va ijtimoiy jihatlarga aloqador mavzularda sahna ko‘rinishlari ko‘rsatilar edi. Jadidlar milliy teatrni barpo etish orqali xalqni ilmiy-ma’rifiy ruhda tarbiyalashga intilganlar. Teatr jadidlar uchun ma’naviy uyg‘onish maktabi sifatida xizmat qilgan.

Jadid ma’rifatparvarlari ilmiy-adabiy merosida musiqa san’atiga oid asarlar ham alohida o‘rin tutadi. Xususan, Fitratning "O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asari har jihatdan qimmatlidir. Fitrat bu asarida sharq musiqa asboblarining har biriga alohida tavsif beradi. Xalq kuylari, mumtoz qo‘shiqlari haqidagi mulohazalarini bayon qiladi. Maqom san’atini nazariy, estetik va falsafiy jihatdan tizimlashtiradi.

XX asr boshlarida Turkistonda o‘zbek milliy vaqtli matbuoti tug‘ildi va tez sur’atlar bilan rivojlana boshladi. Turkiston jadidlarining etakchi namoyandalari: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniylar demokratik yo‘nalishdagi o‘zbek matbuotini shakllantirishga katta hissa qo‘shdilar. Jadidlar milliy nashrlar faoliyatini tashkil etish va yo‘lga qo‘yishda mahalliy rus matbuoti hamda Rossiyaning turli hududlarida tatar tilida nashr qilingan gazetalarning, xususan, Ismoil Gaspirali muharrirligida chiqqan “Tarjimon” gazetasining ish tajribasiga tayandilar. 1905-yildan keyin chiqa boshlagan jadid gazetalarining qaldirg‘ochi “Taraqqiy” edi. 1913-yildan boshlab bu shaharlarda “Samarqand”, “Turon”, “Buxoroi sharif”, “Sadoi Farg‘ona”, Toshkentda esa “Sadoi Turkiston” gazetalari chiqa boshladi. Jadid publisistikasiga asos solindi. Jadidlar o‘zlarining ma’rifiy dasturlarini matbuot orqali amalga oshirishga harakat qildilar.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida to‘g‘ri ta’kilaganidek: “Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida

kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi. O‘ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi”[1].

Shu bois xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo‘lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish hamda targ‘ib etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Yurtimizda ushbu yo‘nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, har yili 31 avgust – Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda.

“Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda.

Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etilmoqda.

Bu murakkab davr tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar, “Tarixning noma’lum sahifalari”, “Qatag‘on qurbonlari” nomli ko‘p jildli xotira kitoblari nashr etilmoqda. Badiiy va hujjatli filmlar, ko‘rsatuvlar tayyorlanib, namoyish qilinmoqda. Xalqaro konferensiyalar, ko‘rgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari, seminarlar muntazam o‘tkazilmoqda.

Atoqli ma’rifatparvarlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Ularning aziz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta’lim muassasalari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda.

Ayni vaqtda, yurtimizda har yili avgust oyini “Qatag‘on qurbonlarini yod etish oyi” sifatida o‘tkazish, fidoyi vatandoshlarimiz va ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadonlarga yodgorlik lavhalari o‘rnatish, ularning vorislari hamda yaqin kishilariga hurmat-e’tibor ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Mahalla idoralarida “Qatag‘on qurbonlari xotirasi burchaklari” va “Mahalla xotira kitoblari”ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag‘on qurboni hamda jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to‘plam tayyorlash rejalashtirilgan.

Darhaqiqat, jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalari uchinchi Renessansga poydevor bo‘ldi, deyish mumkin. “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz boshlagan ishlarni davom ettirish, ularning ilmiy va madaniy merosini asrab-avaylash, qolaversa, ma’rifatparvar ajdodlarimizning porloq xotirasini hamisha yodda tutish bizning, hozirgi avlod vakillarining muqaddas burchidir.

---

[1] Sh.Mirziyoyevning Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. 06.03.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6007

Normurod AVAZOV,
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Alfraganus universiteti

JADID ADIBLARINING IJODIDA MILLAT TALQINI

Annotatsiya. *Muallif tomonidan Turkiston o‘lkasida jadid adiblarining o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi tadqiq etiladi. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining ta’siri o‘rinli ravishda ko‘rsatib beriladi. Uning Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Abdulla Qodiriy ijodlarida namoyon bo‘lishi tahlilga tortiladi. Ularning ijodida millat talqini masalasi ko‘rib chiqiladi.*
Kalit so‘zlar*: millat, milliyat, o‘lka, ilm, ma'rifat, talqin, g‘aflat, muammo, istiqlol.*

Abstract. *The author studies the contribution of Jadid writers in Turkestan to Uzbek literature. Also, the influence of Mahmudkhodja Behbudi's work is appropriately shown. Its manifestation in the works of Fitrat, Chulpon, Avloni, and Abdulla Qodiri is analyzed. The issue of the interpretation of the nation in their works is considered.*
Key words: *nation, nationality; country; science; enlightenment; interpretation, negligence; problem; perspective, skill.*

Turkiston o‘lkasida jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmagunicha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi” degan xulosasiga qo‘shilgan edilar. Millatning kelajagi uchun kurash milliy g‘oyasi jadid adabiyotining boshqa vakillari asarlarida ham yaqqol namoyon bo‘lganligini ko‘ramiz. Ular Behbudiyning g‘oyasi targ‘ibotchilari hamda bevosita davomchilari hisoblanadilar.

O‘zbek jadid adabiyotida millat taqdiri va uning kelajagi hamda taraqqiyotini o‘zida aks ettirgan shoir va yozuvchilarimiz orasida Abdurauf Fitrat ajralib turadi. Fitrat o‘zbek jadid adabiyotiga she’rlari, nasriy, dramatik, adabiy-tanqidiy, publitsistik asarlari bilan katta hissa qo‘shgan.

Fitrat qaiamiga mansub ijodining mazmunini millat taqdiri, istiqlol mavzusi, yurt qayg‘usi, Vatan tuyg‘usi tashkil qiladi. Jadid adabiyotining etuk vakili hisoblangan Fitrat go‘zal she’rlari bilan barmoq vazniga asos solgan. Uning “Yurt qayg‘usi (sochma)”, “Yurt qayg‘usi (bir o‘zbek tilidan)”, “Yurt qayg‘usi (Temur oldinda)”, “Kim deyay seni?”, “Bir oz kul”, “Achchig‘lanma degan eding”, “Mirrix yulduziga”, “Ovunchoq”, “Yana yondim”, “Shoir”, “Behbudiyning sag‘anasin izladim”, “O‘git”, “Sharq”, “O‘qituvchilar yurtiga”, “Qor”, “Mening kecham” she’rlari shular jumlasidandir.

Haqsizlik shahrining qon hidi eli

Armonim gulidan bir yaproq uzub,
Bahorsiz cho‘llarga sovurib qo‘ydi.
Ul nozli yaprog‘im so‘lib, sarg‘ayib,
Yo‘qsul qolg‘anlarday har yon yugurdi.

Mustabid tuzumning haqsizligidan qon hidlari sezilib turibdi, dunyo qadar bo‘lgan

Abdurauf Fitratning she’rlarida ozor chekkan millat, millatning taqdiri, milliy zulm, yurtning qayg‘usi o‘ziga xos ravishda tasvirlanadi. Uning “Yurt qayg‘usi (sochma)”, “Yurt qayg‘usi (bir o‘zbek tilidan)”, “Yurt qayg‘usi (Temur oldinda)” asarlari shular jumlasidandir.

Behbudiy aytgan “Moziy – istiqbolning tarozisidur” mashhur iborasi, Abdulla Qodiriyning “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar” iborasi o‘rtasida bog‘liqlik tasodif emas, aksincha bu ikki ashrof zotlarning kelajakka bo‘lgan murojaatlari edi. Shu jihatidan bu ikki siymoning ijodiga murojaat qilish, ularni o‘rganish va taqqoslash xayrli ishdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Qodiriy nomlarini bir-birlariga yonma-yon qo‘yar ekanmiz, bu ahli solih insonlarning ijodidagi topqirliklar, jo‘shqinliklar, nozik tuyg‘ular, jasoratlar, islohot uchun kurashlar ularning ijodini yagona maqsadga birlashtiradi.

Behbudiy Turkiston o‘lkasida ma’rifatsizlikdan ota qotiliga aylanib borayotgan farzandlarning tarbiyasini birinchi o‘ringa qo‘ydi. U qadimiylar va mustamlakachilar sirtmog‘idan faqat ma’rifiy yo‘l bilangina qutulishning tamoyillarini ishlab chiqdi. Uning “Padarkush”i o‘lkada mavjud bo‘lgan tarbiyasizlik illati uchun tipik asar bo‘lgan bo‘lsa, Qodiriy ham “Padarkush” ning orqasidan “Baxtsiz kuyov”ni yozdi [1].

Turkiston o‘lkasida xalqning ma’rifatsizligi orqasidan yoshlar xatolarga yo‘l qo‘yayotgan bo‘lsa, A.Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”ida o‘lkada mavjud bo‘lgan illat, ya’ni orzu-havas deb yoshlar hayotlarini qurbon qilishi o‘zbeklar hayotidagi tipik xususiyat ko‘rinishi sifatida tasvirlandi.

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotining buyuk milliy yozuvchisidir. Uning asarlarida chuqur milliylik butunicha yarqirab turadi. Uning ijodi 1913 - 1914 - yillarda she’r yozish bilan boshlangan. Muallifning butun ijodida millat va uning kelajagi muammolari, milliylik aks etib turadi. Jumladan, uning “Ahvolimiz”, “To‘y”, “Millatimga bir qaror”, “Fikr aylag‘il” she’rlari mavjud. “Fikr aylag‘il” she’ri Behbudiyning “Oyina” jurnalining 1915 - yil 12-sonida bosilib chiqqan. Bu ham tasodif emas. Ikki buyuk ijodkorning munosabatini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Millatimga bir qaror” she’ri millatga xitobnoma tarzida yozilgan[2].

Kel, ey millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o‘lsun,
Bu kundan o‘tgan ishlarga pushaymon birla or o‘lsun,
Qilaylik bul kuni g‘ayrat hama birdan qilib himmat,
Jaholat cho‘l sahrosiga minba’d sabzavor o‘lsun.

Abdulla Qodiriy millatga qarata xitob qiladiki, bu kundan e’tiboran maslahatlashib bir qaror qilinsinki, o‘tgan ishlarga pushaymon qilmasdan, birlashib, himmat qilaylik, ishga g‘ayrat bilan kirishaylik, cho‘l sahrosidagi jaholat ham gullagan maydonga aylansin!

Ayashmay kumush-oltunni hama boyonlar aslo,
Solub dorulfununlar ham makotiblar hazor o‘lsun.
O‘qushsun millat avlodi bizni doim duo aylab,
Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o‘lsun.

Millat uchun kumush-oltinlarni ayamasdan ishlatib, ular uchun maktablar va dorulfununlar barpo etaylikki, millatimiz o‘qib, fanlarni o‘rganib, bizni har doim duo qilsinlar. Ularning tahsillari o‘zlariga, millatga buyursinlar.

Qodiriyning “To‘y” she’ri hajviy usulida yozilgan bo‘lib, asarda zamona kulfati, millatning loqaydligi, mustamlakachilik illatlari qoralanadi. To‘y boy-badavlatlar uchun pisand bo‘lmasa-da, millat vakillari ya’ni beva-bechora hamda mehnat ahllari uchun fojeaga aylanayotganligi ochib beriladi.

A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida: “Mavzuni moziydan, yaqin o‘tgan kunlardan, tariximizning eng kir, qora kunlari bo‘lgan keyingi “xon zamonlari”dan belgiladim”, deydi[3]. Bunday deyishiga sabab ayni davrda o‘lkada Chor bosqinchilari va mahalliy amaldorlarning zulmi kuchaygandan - kuchaygani edi. Romanda milliylik masalasi birinchi o‘rinda turadi. Millatning taqdiri masalasi roman mavzusining tub negizini tashkil etadi. Bosqinchi mustamlakachilar o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini va boylik orttirish maqsadini birinchi o‘ringa qo‘yganini millatimizni zalolatda qoldirganlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Asarning “Qipchoqqa qirg‘in” deb nomlangan uchinchi bo‘limida yoziladi: “Yolg‘iz o‘z manfaati shaxsiyasi yo‘lida, bir-birini yeb-ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizga aqlim etmay qoldi... Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo‘lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo‘lsak o‘z qo‘limiz bilan kelgusimizni o‘ris qo‘liga qoldirgan bo‘larmiz. O‘z naslini kofir qo‘liga tutqun qilib topshiruvchi – biz ko‘r va aqlsiz otalarga xudoning la’nati, albatta, tushar, o‘g‘lim!.” [4] Bunday misollarni romanda ko‘plab uchratamiz. Shuni alohida ta’kidlash joizki, roman yetuk milliy asar ekanligi, uning milliy sharoitni, urf-odatni, milliy qadriyatni, milliy qahramonlarni yoritganligiga olimlarimiz ko‘proq e’tibor berib keldilar. Asar mustabid tuzumning ta’sirida yozilganligiga va shu tomondan asarning millatga bo‘lgan ta’siri to‘g‘risida ham ko‘proq to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asarning turli nashrlarida “ulug‘ millat”ga tegib ketadigan o‘rinlarga o‘zgartirish kiritilgan holatlarni kuzatish mumkin. Jumladan, yuqorida keltirilgan matnda: “Chor istibdodi Turkistonimizni egallar” jumlasi asliyatda “o‘ris istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan”[5] tarzida yozilganini ko‘ramiz.

Xullaski, Behbudiyning qahramoni orzu qilgan istiqlolni Qodiriyning qahramoni ko‘rdi. Chunki u butun umrini hurriyat uchun kurashga bag‘ishladi. Hurriyat etib kelganidan, shodligidan yuragi yorilib o‘ldi. Ammo, u niyatiga etdi. Chunki uning xalqi hurriyatga erishdi. Demakki, “Haq olinur, berilmas”.

Abdulla Avloniy o‘zbek jadid adabiyotining zabardast ijodkorlaridan hisoblanadi. Uning Turkiston o‘lkasida millat uchun qilgan xizmatlari nihoyatda kattadir. Uning “Adabiyot yoxud milliy she’rlari” to‘plami, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” singari darsliklari, “Avdokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Biz va Siz”, “Ikki sevgi”,

“Po‘rtugaliya inqilobi” dramalari va hajviyotlari millatning kechinmalarini o‘zida aks ettirgan asarlardir.

Shoir millatning ahvoliga ayni paytdan kelib chiqib yondashdi. Mustabid tuzumning zulmi, qiyinchiliklari, mahalliy mutassiblar ilmning olg‘a tomon borishni istamasliklari, yangiliklarni tan olmasliklari natijasida millatning xo‘rlanayotganligi, ilmsiz bo‘lib qolayotganligi, ularning ahvollari afkor, ya’ni bir ko‘rinishda qolayotganligiga achinadi. Boshqalarni ko‘rarmizki, ular guldasta tayyorlaydilar. Bizning teradigan gullarimiz ham yo‘q. Millatimiz xor bo‘ldi, deb millatning bu ahvolda qolishiga sababni ham aytib o‘tadi, ya’niki o‘lkada jaholatning hukmronligi, uning istiqbolga to‘sqinlik qilayotganligi deb ta’kidlanadi. Shuningdek, millatning g‘aflat uyqusida bo‘lishi hayhot bu bizni yanada g‘am, tashvishlarga solib qo‘ydi. Shuning uchun ham iqrorli va inkorli biz millat, deydi. Aslida jahon Jayhunlariga teng bo‘lishga tayyor bo‘lgan millatmiz. Madaniyatsizlikdan millatda o‘zgalar ruhi mujassam bo‘lgan. Ularning, ya’ni milllatning hayotda zamonga tayyor emasliklari xuddi devorda turgan quruq osig‘liq suratga o‘xshaydi, deb tasvirlaydi.

Dunyoda boshqa millatlar ilm va hunarlarni egallab, taraqqiyot sari intilsalar, bizning millat esa chapon va cholma sotib tirikchiligini o‘tkazayotgan savdogar millatga aylanib qolgan deb, tashvishlanadi shoir. Bu Behbudiy boshlagan millatni taraqqiy toptirish g‘oyasining davomi hisoblanadi.

Tafakkur soyasida o‘zgalar shahdu shakar er-sa,
Tururmiz baqrayib har go‘shada bekor – biz, millat.
May-u minosini tark aylasa ag‘yor, bizlar, oh,
Ichib joimi jaholatdan, hamisha zor – biz, millat [6].

Shoirning she’rida ko‘tarilgan muammo millatning o‘z kelajagi uchun kurashchan emasligi: “Badandan doimo qon olurlar bemorsan, millat; Tiling yo‘q, kar qulog‘ing, surati devorsan, millat”. Chunki, badaningdan qon olaverib, sulayib qolgan bemorga o‘xshaysan, tiling bo‘la turib o‘z tilingda so‘zlasha olmaysan, go‘yoki devorga osib qo‘yilgan surat kabi jimsan, millat, deydi.

O‘tgan asrning boshida Vatan ozodligi, millatning taraqqiyoti uchun kurashgan ilg‘or ma’rifatparvar kurashchilarimiz qatorida Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li ham turadi.

Hoji Muin millatning mustabid tuzumda ilmsizlikdan, qashshoqlikdan, yo‘qchilikdan, zulmning mashaqqatidan ozor chekayotganligini ta’kidlaydi. Millat siz qo‘lingizga berilgan huquqdan o‘z vaqtida, samarali foydalanishingiz lozim. Oldinga ketayotgan millatlar borki, ular saodatga yo‘l boshlab ketmoqdalar. Siz o‘g‘lonlar, millatning kelajagi uchun uyg‘oningiz, uxlab yotishlar millat uchun haromdir, deb millatning taraqqiy etmayotganligidan achinadi:

Yovimiz bor oti “mustamlakachi”,
Yuzi oppoq ko‘rinur, qora ichi.
Ushbu yov birla kurash lozimdur,
Balki uni quvlash lozimdur [7], deb shoir aytadiki, ochiqdan – ochiq millatning dushmani bo‘lgan, mustamlaka bosqinchi yovni bu hududdan quvlab ketkazish kerak. U yovning yuzi oppoq ko‘ringani bilan, uning ichi qop-qoradir. Millatning dushmani bo‘lgan bu – mustamlakachilikdir!

Abulhamid Cho‘lpon XX asr o‘zbek jadid adabiyotining eng yirik siymolaridan biri bo‘lib, o‘zining zamondoshlari Behbudiy, Fitrat, Qodiriylar bilan yangi – o‘zbek milliy adabiyotiga asos soldilar. Cho‘lpon shoir, yozuvchi, dramaturg, tanqidchi, publitsist sifatida ham o‘ziga xos ijodkor sifatida ajralib turadi. U o‘zining butun ijodida millatning milliy ruhini aks ettirdi.

Cho‘lponning “Go‘zal Turkiston” to‘plami mustaqillik yillarida chop qilingan. To‘plamning so‘zboshisida: “U “go‘zal Turkiston”ni mustaqil, erkin holda ko‘rishni shu qadar orzu qildiki, bolshevik mafkurachilari uning og‘zini bekitib, nafasini chiqarmay turganda ham, u “Kishan kiyma, bo‘yin egma, ki se ham hur tug‘ilg‘onsen!” deya millatdoshlarini kurashga chaqira oldi. U kurashga chaqiribgina qolmadi, balki o‘zi ham shu kurashning oldingi saflarida bo‘ldi, oqibat shu kurashda shirin jonini xalqi, Vatani yo‘lida fido qildi. Bu Cho‘lponning fuqarolik burchi, to‘g‘rirog‘i, fuqarolik jasorati bo‘ldi”[8].

Cho‘lponning “Turkistonli qardoshlarim” she’rida millatning ma’rifatsizligi ko‘tarib chiqilgan:

Ilm-u maorif ham hunardan qoldi mahrum bizni xalq,
Ma’rifatsizlik balosig‘a yo‘luqg‘on bizni xalq.
Bir kishi millatparsat o‘lsa, deyurlar “dahriy”deb,
Bir kishi millatni so‘ksa, izzat aylar bizni xalq.
Maktab o‘rniga ochildi har mahallada mayxona,
Nafrat etmak nari tursun, shod-u xondon bizni xalq.
Maktabda yo‘q bir tiyinni to‘yga ming so‘mlab berar,
Chorasi mushkul kasalga mubtalodur bizni xalq,

deb mustamlakachilik oqibatida maktablar o‘rniga mayxonalar ochilib, millatning axloqi buzilayotganligi, ilmga rag‘batning yo‘qligi, millatning to‘y-tomoshaga o‘chligi tanqid qilinadi.

Abdulhamid Cho‘lpon Behbudiy boshlagan millat uchun kurash va qayg‘uruvchi harakatining bevosita davomchisi edi. U Behbudiy o‘ldirilganida millatning karvonboshchisi yo‘qotilganidan qattiq achindi. U Behbudiyning xotirasiga bag‘ishlab “Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi” nomli she’rini yozdi:

Belgisiz qabringni qora tunlarda
Amalimning sham’in yoqib izladim.
Qizil va pok qonning islarin sochgach,
Kuchsiz ko‘yi yurishimni tezlatdim [9].

Jadid adabiyoti to‘g‘risida fikr yuritilganda Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodi alohida ajralib turadi. “Yig‘la, Turkiston”, “Ko‘zni oching, qardoshlar”, “Millat deganlarning oqar ko‘z yoshi”, “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston”, “Past ekanmu iqbolimiz muncha?”, “O‘t olgin, Turkiston”, “Yashanglar, yashaylik, Turon”, “Haq yo‘lda jon bersak”, “Boybachchalar, semiring”, “Hasrat qilay, qardoshlar”, “Yashasun millat”, “Ahvolimiz”, “Shundoq qolurmu?!”, “Ey bulbuli millat, yozdim sana salomim”, “Turkiston muxtoriyatina”, “Uyg‘on!” kabi she’rlarida o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligi, millatning qalbi, yuragi, uning ruhi, xarakteri, psixologiyasi, shuningdek, dard-u alamlari, kelajakka intilishlari, qolaversa, orzulari aks etadi. Shoirning, “Yig‘la, Turkiston” she’ri birinchi jahon urushi arafasida o‘zbek xalqi orasida mashhur bo‘lgan “Lo‘m-lo‘m Mamajon”

ashulasi ohangida yozilgan bo‘lib, mazmunan millat taqdirini aks ettiradi. She’r millatning og‘ir ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli, mustamlakachilik hamda milliy zulm to‘g‘risida yozilgan. Unda:

Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston,

deb boshlanishi ayni davrda mavjud tuzumning munosabatidan kelib chiqqan bo‘lib, bu davrda mustamlakachilik eng avjiga chiqqan pallasi edi.

Xulosaki, jadidlarning otasi sanalmish Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy ozodlik, ijtimoiy o‘zgarishlar, adabiyotda islohot va yaratuvchilik sohasida jadidlarga chin ma’noda “Yo‘lboshi” bo‘ldi. Uning Turkiston taraqqiyoti milliy g‘oyasi kelajak avlodga dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Yuqorida keltirilgan asarlarning va tadqiqotlarning barchasi Behbudiy qo‘ygan tag joyning g‘ishtlari, devorlari hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Қодирий А. Бахтсиз куёв. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 173-194.
2. Қодирий А. Диёри бакр. Ж.III. – Тошкент: Info Kapital Group, 2017. – Б. 7 - 11.
3. Қодирий А. Ўтган кунлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 3.
4. Қодирий А. Ўтган кунлар. Ж. I. – Тошкент: Info Kapital Group, 2017. – Б. 7 - 153.
5. Авлоний А.Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 84.
6. Муин Ҳ. Нима эдик, нима бўлдик, нима қилайлик? Зарафшон. – Самарқанд, 1922 йил 1 декабрь.
7. Чўлпон А. Гўзал Туркистон. – Тошкент: Маънавият, 1997. – Б. 5.
8. Чўлпон. Маҳмудхўжа Беҳбудий хотираси. Тонг. – Тошкент, 1920 йил. №1.

Ma’rufjon YO‘LDOSHEV,
Filologiya fanlari doktori, professor
TIPI
Muyassarxon TO‘XTABOYEVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
JIDU akademik litseyi

JADID ZIYOLILARINING TIL VA TA'LIM TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya. *Jadidlar o'zbek xalqini millat sifatida shakllantirmoq maqsadida harakat qildilar va buni har birining oliy maslagi deb bildilar. Millatning mavjud bo'lishi uchun hududiy va ma'naviy-ruhiy hamda ijtimoiy-siyosiy birliklar qatorida, eng asosiysi til umumiyligi ham yuzaga kelgan bo'lishi zarur. Masalaning mohiyatini teran anglab eta olgan jadidlar o'zbek xalqi uchun mushtarak umumxalq adabiy tilini, uning zamirida milliy adabiy tilni shakllantirish yo'lida harakat qildilar. Ular o'zbek tilining siyosiy va ijtimoiy huquqini tiklash, mavqeini ham ko'tarish borasida samarali faoliyat olib bordilar. Maqolada jadid ziyolilarining til va ta'lim bilan bog'liq qarashlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Jadidlar, til, millat, ta'lim, milliy adabiy til, yangi maktab, yangi alifbo.*

Abstract. *The Jadids aimed to shape the Uzbek people as a nation and considered this their ultimate goal. For a nation to exist, territorial, spiritual-moral, and socio-political unity must be achieved, with linguistic unity being the most crucial. Deeply understanding the essence of this issue, the Jadids worked toward creating a common national literary language for the Uzbek people, rooted in the national literary language. They actively pursued the restoration of the political and social rights of the Uzbek language and the elevation of its status. The article discusses the views of Jadid intellectuals on issues related to language and education.*

Key words: *Jadids, language, nation, education, national literary language, new school, new alphabet.*

Ziyolilarning millatparvarlik g'oyalarini o'sha davrda turli jurnallarda nashr etilgan maqolalaridagi milliy tilga, uning tarixiga, tilni taraqqiy toptirishga, uning tozaligini asrashga qaratilgan fikr va da'vatlarida kuzatishimiz mumkin. Ilmiy-tanqidiy maqolalari ularning teran fikrli olimlar ekanligini belgilasa, milliy adabiy til xususidagi qarashlari til ilmining ham salohiyatli kishilari ekanligindan dalolat berardi. "Turk tili asosan boy til bo'lishi bilan va turk millatining og'zida necha ming yillardan beri yurub, ikki ming yilga yaqin adabiy yo'lg'a kirdi va beshinchi asr hijriydan boshlab o'nlarcha buyuk shoir va adiblarga ega bo'lub, ilmiy va adabiy ishlanib keldi; sharq turk adabiyotining oltun davrlari bo'lg'on Navoiy, Umarxon davrlari bilan g'arb turk adabiyotining Fuzuliy, Boqiy, Nadim, Lola davri va asrimizda Homid, Nomiq va Fikrat kabi eng buyuk shoir va san'atkorlar qo'lida ham keragincha ishlandi va turk tili shuning uchun-da asriy bir holga kirdi" (V. Mahmud, 2007. 36-bet). Ushbu davrdagi ma'rifatparvarlardan birining ushbu fikrlari ham yuqoridagi masala ziyolilarimiz uchun nechog'lik ahamiyatli bo'lganligini isbotlaydi.

Bu davrda umumadabiy tilni shakllantirishda turlicha g'oya va qarashlar o'rtaga tashlandi. Jumladan, bulardan biri og'zaki va yozma umumxalq tilini qayta ishlash, uning zamonaviy normalarini belgilash vahamda shu asosda adabiy tilni

yuzaga keltirish fikri edi. Bu g‘oya “1929-yildagi Til va imlo qurultoyi”da yaqqol ko‘zga tashlandi. “Hujjatlardan op-ochiq ma’lumki, 1921-yilda chaqirilgan Til va imlo qurultoyi oldida o‘zbek adabiy tili masalasida uch yo‘l borliq ko‘rsatardi: 1) chig‘atoy turkchasiga tortish; 2) janub turkchasiga tortish va; 3) shimol turkchasiga tortish.

Shu yillarda nashr etilgan gazeta, jurnallar va kitoblar bu oqimlarning hammasiga ham xizmat qilardi, ya’ni qaysi bir narsa qaysi bir oqim kishilari qo‘lida bo‘lsa, shu tilda bosilardi va oqimlarning hech biri o‘zbek adabiy tili to‘g‘risida gapirilganda, ishlaganda, mehnatkashlar ommasini nazarda tutib shu ommaning manfaati nuqtayi nazaridan hal qilmoqchi bo‘lmasdi. Shuning uchun bularning hammasi to‘g‘ri yo‘ldan ketolmadi. Shunday bo‘luvi ham tabiiy edi” [3, 126].

Keyingisi umumturkiy adabiy til g‘oyasi edi. Buning asoschilari va targ‘ibotchilaridan biri Ismoilbek Gaspirali edi. Sir emaski, u barcha turkiy xalqlar uchun turk va qrim-tatar tili asosida umumiy yozma adabiy tilni joriy etish g‘oyasini ilgari surgan edi [1]. Turkistonlik ziyolilar orasida birinchi bo‘lib Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g‘oyasini keng targ‘ib qildi va quvvatladi. Dastlab u o‘sha davrning aksariyat musulmon ziyolilari kabi Rossiya musulmonlarining yagona tili bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyaga qiziqish bildirdi. Behbudiy bu masala yuzasidan Turkiston shaharlarida o‘ziga xos so‘rovnoma va tajriba ham o‘tkazdi. Aytish lozimki, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Har millat o‘z tili ila faxr etar”, “Til masalasi”, “Sart so‘zi majhuldir”, “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” singari maqolalari va ayrim darslik hamda tilshunoslikka doir maqolalarida ko‘tarilgan masalalar uning zukko tilshunos bo‘lganini to‘la isbotlaydi.

Tayinki, millatning o‘zligini ko‘rsatadigan xossalaridan biri til va maorifdir. Gasprinskiy 1905-yilda yozgan maqolalaridan birida millatning asosi ikkita: tavhidi til (til birligi) va tavhidi din (din birligi) deb yozgan edi. Darhaqiqat, tilning o‘rni beqiyos: “Insonning oti bo‘lmasa, o‘zi ham yo‘q demakdir, shuningdek tili bo‘lmagan inson ham soqovdir”. “Til birligi masalasi bizim hayotimizda hayot-mamot masalasidir va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz, - yozadi I.Gasprinskiy 1906-yil 18-dekabrda. – Biz uchun orqaga chekinmoqqa yo‘l yo‘q” [1]. Umumiy turkiy til masalasi tatar, ozarbayjoi, o‘zbek gazetalari hamda jurnallari sahifalarida muhokama qilib turildi.

Navbatdagi taklif milliy tilni rus tili vositasi, ta’siri asosida shakllantirish va rivojlantirish g‘oyasi edi. Ayrim ziyolilar rus tili, uning lug‘at tarkibi o‘zbek tili leksikasini boyituvchi asosiy manba ekanligini urg‘ulashgan. Ular rus tiliga xos xususiyatlarni o‘zbek adabiy tiliga olib kirish yo‘lida etarlicha tashabbus ko‘rsatishdi, ularning o‘zbek tiliga o‘zlashishi va qo‘llanilishiga xayrixohlik munosabatida bo‘lishgan. [8, 207]. Bunda “Turkiston viloyatining gazeti” muhim ahamiyat kasb etdi. Bu fikr taraqqiyparvar mualliflariga ungacha bo‘lgan davrdagi yozuvchi va shoirlarning asarlari muayyan darajada asos bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, Isoqxonning kuyidagi fikrida rus tili ta’sirida o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan leksik unsurlar yaqqol ko‘rinadi: “*Asrimiz madaniyati bor erdi, chunonchi, otash aroba, tiligrom* (telegramma), *tilifun* (telefon), *iliktr* (elektr) *fanirlari, hatto uchadurgon ayripiloi* (aeroplan), *giramufun* (grammafon), *fatagirof* (fotografiya), *tipogirof* (tipografiya), *litogirof* (litografiya), *anvoyi mash inalar: aftomubel*

(avtomobil), *valisafed* (velosiped), *tilsiz tiligiromlar* (telegrammalar), *necha-necha ashyoyi jadida, anvoyi adidalar hammasi mavjud edi"* ("Turkiston viloyatining gazeti").

Milliy tilni "chig'atoy" tili, ya'ni eski o'zbek adabiy tili asosida yaratish g'oyasi. "... ma'lum bir guruh ziyolilar eski "chig'atoy" tiliga qaytish, uni tiklash g'oyasini qo'ydilar" [8, 57].

To'rtinchi taklif adabiy tilni arab tili asosida rivojlantirish, o'zbek xalqi uchun arab tili ta'lim tili bo'lishi lozimligi g'oyasi edi. Bu g'oya tarafdorlari adabiy til masalasini din bilan bog'lashga urindilar. Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, arab tilidan o'zlashgan so'zlar orfografiyaning an'anaviy prinsipi asosida, ya'ni so'z va morfemalar qadimda qanday yozilgan bo'lsa, mazkur davrda ham shunday yozilgan. Bu davrda arabiy so'zlarning yozilishiga juda bilimdonlik va ziyraklik bilan e'tibor berishgan. Savodxonlik yuqori darajada bo'lgan. Bu qarash tarafdorlari o'z fikrlarini quyidagicha quyidagicha dalillashga harakat qilishgan: "Bizning dinimiz islomdir. Har bir musulmon uchun u arab tilidir. Har bir musulmon arab tilining morfologiyasi va sintaksisini o'rganishi shart" [8, 207]. Maktab va madrasalarda ta'lim tili arab tili bo'lishi kerak edi. 1920-yil may oyida xalq ta'limi bo'lim boshliqlarining I syezdida qilgan ma'ruzasida Munavvar qori diniy ta'lim muassasalarini yo'q qilish emas, balki ta'lim dasturlarini dunyoviylashtirish orqali ta'lim tizimini isloh kerakligini ta'kidlagan edi. Zero, "o'rta asrlarda ham O'rta Osiyo madrasalarida diniy bilimlar bilan bir qatorda arab tili, mantiq, geografiya, astronomiya, matematika, tibbiyot kabi dunyoviy fanlar o'tilgani bois bunday ta'lim dargohlarida buyuk allomalar etishib chiqqan"ligiga Munavvar qori o'z chiqishida urg'u beradi.

Adabiy tilni o'zbek xalq lahjalari va shevalari asosida shakllantirish hamda rivojlantirish g'oyasi. "Turkchaning shu'ba va shox(a)lari bo'lgan o'zbek-chig'atoy, totor, ozarbayjon, qozoq va turkman lahjalarindagi yangi matbuotning eng ahamiyatlik masalalaridan biri, albatta, sheva, lahja, imlo masalalaridur" [2, 184]. Bu nazariya tarafdorlari, o'z navbatida, uch guruhga ajralgan edilar. Birinchi guruhdagilar turkiy tillarning shakllanishiga asos bo'lgan barcha sheva xususiyatlarini inobatga olib, o'zbek xalqi uchun yagona adabiy tilni yaratish kerak, degan fikrni o'rtaga tashladilar. Ikkinchi guruhdagilar muayyan hudud shevalari asosida turli adabiy tillarni yaratish kerak, deb hisobladilar. Uchinchi guruhdagilar esa o'zbek tilining shakllanishi uchun asos bo'lgan qarluq shevalarining adabiy til uchun asosiy manba bo'lishi kerakligini yoqlab chiqdilar. "Chig'atoy gurungi" jamiyatining faol a'zosi bo'lgan Elbek ham o'zbek tili lug'at tarkibini boyitishda tilning ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish va shu orqali milliy adabiy tilni yaratish tarafdori bo'ldi.

Shuningdek, til siyosati borasida ziyolilar o'zining individual fikrlarini ham o'rtaga tashladilar. Jumladan, Vadud Mahmud turkiy-o'zbek tilning tarixi va kelib chiqishiini o'rganishda, uni to'g'ri anglashda, muammolar asosini ochib berishda aniq faktlarni yig'ish va o'rganish, unga yondosh bo'lgan hodisalar bilan solishtirish, qo'yilgan muammoga zarur javobni bevosita real voqelikdan, ba'zan badiiy asarlartilidan izlab topish yo'lidan boradi. Muallif "Adabiy tanqidga bir nazar" maqolasida Abdurahmon Sa'diyning "O'zbek yosh shoirlari" deb nomlangan

maqolasidagi ayrim fikrlarga munosabat bildirib, turkiy til tarixiga oid muhim ma'lumotlarni izohlashga harakat qiladi. Bunda Abdurahmon Sa'diyning XX asr boshlaridagi adabiy tilni "o'zbek tili" deb atab, uning boshlanish davrini Abulg'ozi Bahodirxonga borib taqalishini, "chig'atoy tili"ni esa undan ayro holdagi bir til deb tushunish g'oyasini ma'qullamaydi: "Bu til chig'atoydan ko'b jihatdan ayriladurg'on bir tildir. Buning uslubida o'zgachadir. Abulg'ozining "Shajarai turk"i esa bu til bilan yozilgan emas, balki chig'atoy tili bilan yozilgan. Mana shu keltirgan namuna va dalillarimiz bu da'vomizni isbotiga kifoyat etsa kerak. Bundan shu natija chiqadirki, bu kungi adabiy tilimiz va Behbudiylarning tili va uslubi, A.Sa'diy aytganicha o'zbekcha bo'lmasdan yuqorida ko'rsatganimizcha chig'atoychadir". Muallif o'z fikrini dalillashda "Shajarai turk" va "Boburnoma" asarlaridan namunalar keltirib, ularning tili va uslubini o'zaro qiyoslaydi, dalillar asosida bu ikki manbaning tili va uslubida "hech bir ayriliq emas, balki birlik ko'rinadur", deb ishonchli xulosalarga keladi. Abdurahmon Sa'diy "Shajari turk"da istifoda qilingan bir necha so'zning "Boburnoma"da yoki boshqa chig'atoy tilida yozilgan asarlarda uchramaganligi sababli shunday xulosalarga kelgan, degan fikrni aytadi [6, 53].

Shuningdek, tadqiqotchi "haqiqatan o'zbek tili degan bir til bormidir, yo'qmidir yoki bu faqat yuqorida aytganimiz kabi quruq bir otdan iboratmidir?" (V.Mahmud) degan savolni o'rtaga tashlaydi va unga javob beradi: "o'zbek" atalgan bir qavm bo'lgani kabi "o'zbekcha" degan bir til ham bordir. Lekin u til bugungi gazeta va kitoblarimizning tili emas. Balki u til hali adabiyotimizga kirmagandir. Bu o'zbekcha sof o'zbeklar yashagan joylarda ishlatiladirkim, uning namunasini G'ozi Olim o'rtoq adabiyotimizga birinchi o'laroq hadya etdi" [9] deya "Bilim o'chog'i"ning 2-sonidagi "Alpomish" dostonidan parcha keltiradi va "mana bu til o'zbekchadir. Bu til chig'atoydan ko'b jihatdan ayriladurg'on bir tildir. Buning uslubida o'zgachadir. Abulg'ozining "Shajarai turk"i esa bu til bilan yozilgan emas, balki chig'atoy tili bilan yozilgan. Mana shu keltirgan namuna va dalillarimiz bu da'vomizni isbotiga kifoyat etsa kerak. Bundan shu natija chiqadirki, bu kungi adabiy tilimiz va Behbudiylarning tili va uslubidir" degan xulosani beradi (V.Mahmud). Ya'ni, XX asr boshlaridagi adabiy tilni A.Sa'diy qayd ettganidek, "o'zbekcha" emas, balki "chig'atoycha" deb baholaydi. Albatta, munaqqidning ushbu fikrlarida ba'zi munozarali o'rinlar mavjud bo'lishiga qaramay, masalaga ilmiy yondashib milliy adabiy til va uslub, uning takomil bosqichlari haqida bildirgan ilmiy qarashlari o'sha davr uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Fitrat o'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilashda eski o'zbek adabiy tilining xususiyatlari hisobga olinishi kerak, deb hisobladi. U mumtoz yozma tilni soddalashtirish va soflashtirishga intildi, ya'ni eski o'zbek adabiy tilida iste'molda bo'lgan kitobiy yot unsurlardan voz kechish, ularning o'rniga qadimgi turk tili va xalq shevalaridan mos muqobillarni topib qo'llashni nazarda tutdi (Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. V jildli. –T.: Ma'naviyat, 2006. IV jild). "Eng eski turk adabiyoti namunalari" [4,124], "O'zbek adabiyoti namunalari (1-jild)" [5, 292] majmualarini chop ettirdi. Shundan kelib chiqib, u o'z badiiy asarlari tiliga bir qator unut bo'lgan qadimgi turkiy so'zlarni olib kirdi. Masalan, *ayoq* (qadah, piyola), *og'och* (daraxt),

yozug‘ (gunoh, ayb), *uchmoq* (jannat), *ochun* (dunyo, olam) *usruk* (mast, sarxush) va boshqalar. Shuningdek, Fitrat fe’lga mazmuniy va grammatik nuqtayi nazardan yondashadi. Fe’lning harakat bildirishini hamda shaxs va zamon grammatik ma’nolarini bildiruvchi shakllarga ega bo‘lishini quyidagicha bayon qiladi: *«Har bir fe’l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradir».* Fe’lning bu uch jihati uning uch “butog‘i” sanaladi. Shu uch butoqning o‘zgarishiga qarab, fe’llar turli o‘zgarishlarga uchrashi ko‘rsatiladi. “Harakat” tushunchasi “ish” atamasi bilan, “shaxs” tushunchasi “ishlovchi” atamasi bilan nomlanadi. Masalan, *“Ish ishlovchi tomonidan ishlansa, «men yozdim”* deyiladir. *Eshituvchi tomonidan bajarilsa, “sen yozding”* deyiladir», - deb bayon qilinadi (Nurmonov, 2002). Shuningdek, Abdurauf Fitrat birinchilardan bo‘lib Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etgan olim hisoblanadi.

Aytish joizki, jadidlar – istiqlol kurashining g‘oyaviy ilhomchilari edilar. O‘zbekiston mustaqilligining tiklanishi tasodifiy va favquloddagi hodisa bo‘lmay, uning uchun kurash ildizlari uzoq o‘tmishga, eng yaqini o‘tgan asr boshlaridagi milliy ozodlik harakatiga borib taqaladi. XIX asrning oxirida Turkistonga kirib kelgan jadidchilik harakati ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida o‘lka tarixida zalvarli o‘rin egalladi. Bu harakat tashqaridan qaraganda ko‘proq ma’rifiy g‘oyalarni ilgari surgandek ko‘rinsa-da, mohiyatan ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni ifodalar edi. Chunki millatni ozod etib, o‘z taqdirini o‘zi hal qila oladigan jamiyat tuzmasdan na ijtimoiy na ma’naviy masalada tub islohotlar o‘tkazib bo‘lmas edi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimov B. Ismoilbek Gaspirali. – T.: Ma’naviyat, 1992.
2. Behbudiy. Til masalasi. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2006. – B. 184.
3. Botu. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2004. – B. 126.
4. Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008. – B. 124.
5. Fitrat. O‘zbek adabiyoti namunalari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013. – B. 292.
6. Normamatov S. Jadid munaqqidchiligida til masalasi. 2017 № 1. – B. 53.
7. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.

Abduxalil MAVRULOV,
Tarix fanlari doktori, professor
O‘zDSMI

JADID MA'RIFATPARVARLARINING MADANIYAT HAQIDAGI QARASHLARIGA DOIR

Annotatsiya. *Adabiy-badiiy tafakkurimiz taraqqiyoti tarixida mohiyati va mazmuniga ko'ra tamoman yangi bo'lgan XIX asrning oxiri XX asr boshi adabiyotining roli va o'rni alohida. Ushbu maqolada jadid adabiyotining vujudga kelishi va bunga hissa qo'shgan jadidlar haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar*: jadid, adabiyot, she'r, Turkiston, harakat, xalq, asar, millat, hayot.*

Abstract. *A special place in the history of the development of our literary and artistic thought is occupied by the literature of the late 19th and early 20th centuries, which is completely new in its essence and content. This article examines the emergence of Jadid literature and the Jadids who contributed to it.*

Key words: *Jadid, literature, poetry, Turkestan, movement, people, work, nation, life.*

Ma'lumki, har bir millat va mamlakat tarixida uning taqdiriga, kelajakdagi rivojlanish yoxud tushkunlik holatlariga olib keladigan ko'plab voqea-hodisalar, siyosiy jarayonlar, revolyusion yoki evolyusion o'zgarishlar bo'lib turadi. Ana shunday jarayonlar o'zbek xalqi tarixida ham juda ko'p marotaba sodir bo'ldi. Bunday jarayonlar ko'pincha tashqi kuchlarning ta'sirida yuz bersada, biroq milliy tushkunlik, turli inqirozlarga muayyan ma'noda u yoki bu millat, elatning o'zi ham sababchi bo'lib qoladi. Bunga ham tarixda misollar juda ko'p. Ularning ayrimlari haqida yuqorida fikrlashdik.

Ana shunday tahlikali davrlardan biri O'zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida sodir bo'ldi. Bunday hollarda millat, uning kelajagi uchun qayg'uradigan, mustamlakachilik azoblaridan qutqaruvni maqsad qilib qo'ygan, qorong'lik, zulmatdan ozod etish yo'lida o'zini ham ayamaydigan vatanparvarlar, millatparvarlar albatta maydonga chiqadi.

Ma'rifatparvar jadid bobolarimiz ana shunday elsevar, erksevar, millatparvar, o'z g'oyalariga ega, Vatan ozodligini bukilmas e'tiqodga aylantirgan vatandoshlarimiz edi. Jadid bobolarimiz o'z oldilariga qo'ygan maqsadlaridan biri XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasini Rossiya mustamlakachiligidan ozod etish, xalqimizning hurlik, mustaqillik yo'lida olib borayotgan kurashlarini qo'llab-quvvatlash, ularga ma'naviy-g'oyaviy rahnamolik qilishdan iborat edi. Ularning yana bir yirik, strategik maqsadi xalqimizni qorong'ulik, zulmatdan qutqarish, ilm-fan, madaniyatga keng e'tibor berish, ma'rifatli davlat va jamiyat qurish niyatini amalga oshirish edi.

O'sha davrdayoq jadid ma'rifatparvarlari o'lka aholisi ma'rifatini ko'tarmasdan, milliy ongni o'stirmasdan, xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otmasdan turib milliy mustaqillikni qo'lga kiritish mumkin emasligini yaxshi bilganlar. Shunga ko'ra, birinchidan, millat, xalq, Vatan qayg'usi va istiqboli bilan tashvish chekib yashovchi fidoiy yoshlar xalqni qudratli kuch sifatida oyoqqa turg'azishni ilmu urfondan, ma'rifatdan boshlashga azmu qaror qilganlar. Ma'rifatparvarlar

harakati yuzaga kelishi va rivojlanishining asosiy ijtimoiy-siyosiy sababi aynan shundan iborat edi.

Ikkinchidan, chor hukumati o‘lkamizni bosib olganidan keyin mahalliy aholini madaniyatdan, milliy urf-odatlari, an’analari, tarixiy merosi, milliy qadriyatlari, milliy o‘zlikdan mahrum etish, ma’naviy kamolotni cheklab qo‘yish uchun zo‘r berib harakat qildi. Ana shu harakat 1917-yilning eski sanasi bo‘yicha 25-oktyabrdan, yangi sana bo‘yicha 7-noyabrdan hokimiyat tepasiga kelgan sovet mustabid tuzumi siyosatdonlari tomonidan ham davom ettirildi. Shuni ta’kidlash lozimki, milliy madaniyat, milliy o‘zlikka qarshi kurash sovet mustabid tuzumi davrida avvalgilardan ham daxshatliroq tarzda davom etdi. Ular uchun milliylik degan so‘z haddan tashqari daxshatli ko‘rindi.

Ham Rossiya mustamlakachilari, ham sovet mustabid tuzumi siyosatchilari madaniy qoloqlik, ma’naviy bo‘hron siyosiy va iqtisodiy qoloqlikka asos bo‘lishini, milliy o‘zlikdan judo qilish o‘lkada mustamlakachilik tuzumini yanada mustahkamroq saqlash uchun qo‘l kelishini, ma’naviy tushkunlikka, manqurtlik holatiga kelib qolgan millat hech qachon o‘z manfaatlarini anglab, mustaqillik uchun uyushib kurash olib borolmasligini juda yaxshi bilan edilar.

Mustamlakachilik va mustabid tuzum sharoitida milliy ziyolilarimiz, keyinchalik ulug‘ allomalarimiz mustamlakachilik sabablarini millatning birlashmaganligidan, ilm-fanga e’tiborsizligimizdan, xorij davlatlarining Turkistonning er usti va er osti boyliklarini zo‘ravonlarcha tortib olishlari maqsadida qilgan bosqinchiliklaridan qidirishdi. Ulug‘ alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy bobomiz o‘sha paytlarda millatimizning ma’rifatli dunyodan ajralib bo‘lganining, yurtimizning kuchli davlatlarga qul bo‘layotganimizning sababini birinchidan, ittifoqlikning yo‘qligida, ikkinchidan, zamonaviy ilm-hunarni o‘rganmaganligimizda, har ishning sabablarini imkoniyat boricha to‘liq tahlil qila olmaganligimizda, uchinchidan, dushman qarshisida qo‘rqoq ekanligimizda ko‘radi.

U aytadi: “Afsuski, biz yaqin o‘tmishimizda ham jirkanchli ittifoqsizlik sababli o‘z davlatimizdan ajradik. 1840-yildan boshlab ruslar O‘rta Osiyoni istilo qila boshladilar. Bu erda uchta xonlik bor edi: Buxoro amirligi, Ho‘qand va Xiva xonliklari. Ovrupoda ilm-madaniyat taraqqiy qilib, butun insoniyat olamiga uyg‘onish yog‘dusini socha boshlagan bir davrda bu xonliklar xurofot botqog‘iga botib, johiliyatning nihoyatiga etgan edilar. Ne qobiliyatlik Vatan o‘g‘lonlari o‘zlarining aziz umrlarini Buxoroning qadimgi eski madrsalarida arabiy, forsiy tillarni o‘rganish bilangina o‘tkazdilar.

Inqiroz bo‘lish oldida turishlariga qaramay, ilmsizlik natijasida, buning oldini olish uchun qo‘llarida bor imkoniyatdan ham foydalanolmadilar, kerakli sabablarini qilmadilar. O‘qish-o‘qitish ishlari o‘rta asrdagidan farqi yo‘q edi. Yetarlik iqtisodiy boylik mavjud bo‘la turib, davlatning mudofaa ishlariga hech qanday ahamiyat bermadilar. Askariy tartib shu eski usulda bo‘lib, nizomiy tartib kirgizilmagan va zamonaviy qurollar yo‘q edi. Bunday ongsiz hukumatning inqiroz bo‘lishi tabiiydur. Bular Vatan va millat oldida eng kechirilmas jinoyatchi odamlar, chunki davlatlarning inqirozga, millatlarning qullikka, Vatanlarini xorlikka olib keldilar”[1, 47].

Oktyabr to‘ntarishidan Turkistonliklar juda ko‘p narsani kutdi. Chorizm davridagi rasmiy siyosat, milliy o‘zlik, milliy hisni yo‘q qilishdan iborat harakatlar, 52-yillik “Oq podsho” siyosati bir tomondan milliy-ozodlik haraktlarining kuchayishiga sabab bo‘lgan bo‘lsada, boshqa tarafdan, ongsizlik, qator toifadagi odamlarimizdagi beparvolik, siyosiy madaniyatning kamligi, yana boshqa tarafdan, ayrim mahalliy boylar, amaldorlarning ijtimoiy qo‘rquvi – bularning bari pirovard natijada jamiyatda ijtimoiy mavhumlik, odamlarda mavjud siyosatga ko‘nikish hissini shakllantirdi.

Ammo, shuni aytish kerakki, yurtimizda uyg‘oq qalblar, yurt, millatni turli tashvishlar, mustamlakachilik azoblaridan ozod qilish g‘oyasini o‘zining muqaddas e’tiqodiga aylantirganlar ko‘p edi. Ular o‘z paytida sovet mustabid tuzumining asl mohiyatini anglab etdilar.

Shu o‘rinda muhim bir masala xususida o‘z fikrimizni bayon etishni ma’qul ko‘rdik. Uzoq yillar davomida, asosan sovet mustabid tuzumi sharoitida ko‘plab olimlarimiz jadadchilik harakatini ko‘proq xalqni ma’rifatli qilish, savodini chiqarish ma’nosida tushundilar. Bu fikrga hech kimda e’tiroz yo‘q. Haqiqatdan ham jadidlarning asosiy maqsadi maorif tizimini isloh etishdan iborat edi. Ular milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan, qoloqlikdan chiqish muammolarini biladigan zamonaviy bilimga ega kadrlar zarurligini yaxshi anglashardi. Mana shuning uchun ham dunyoviy bilimlarni o‘rganish ishlari, maorif tizimini tubdan isloh etish masalasi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston ijtimoiy fikrining markazida turar edi.

Ammo, aslida jadid harakatining mazmun-mohiyati yurtni ozod qilish, mustamlakachilikning barcha ko‘rinishlarini yo‘qotishdan iborat edi. Ta’kidlash lozimki, Turkistondagi avval paydo bo‘lgan ma’rifatchilikdan jadidchilik harakati o‘sib chiqdi. Jadid harakatining asl maqsadi esa siyosiy masalalarni hal etish, vatan ozodligi muammosi edi. Biroq, ular shuni yaxshi anglab etar edilarki, uzoq vaqtlar davomida mustamlakachilik zanjirlari bilan mahkam bog‘lab tashlangan, milliy o‘zligini, milliy ongini, milliy madaniyati va san’atini qirg‘in qilgan xalqning siyosiy ongini oshirmasdan, tafakkur tarzini takomillashtirmasdan turib ozodlik va hurlik to‘g‘risida gapirish mumkin emas edi. Jadidalar milliy mustaqillikka xalqning savdxonligini oshirish, ma’rifatini kuchaytirish asosidagina erishish mumkinligini yaxshi bilganlar. Shuning uchun ham jadidlar faoliyatining eng birinchi bosqichi, katta ishning boshlanishi maorifdan ekanligiga urg‘u berdilar.

Jadidlar Turkiston tarixining adolat va ma’rifat emas, jaholat va razolat hukmronlik qilgan bir davrida dunyoga kelib, boy bilimlari va ma’naviy olamlarining yog‘dusi bilan xalq va mamlakatni qurshagan zulmatni parchalab tashlamoqchi bo‘lganlar. Ular nazarida bu zulmatning avj olishiga sabab maktab va maorif tizimning yangi tarixiy davr talablariga mutlaqo javob bermasligi edi. Shuning uchun ham ular yangi usul maktablarini barpo etib, bu maktablarda faqat diniy darslarni emas, balki dunyoviy fanlarni ham chuqur o‘qitish, faqat o‘zbek yoki o‘zbek va tojik tillarini emas, balki rus, ingliz, nemis, fransuz tili kabi birorta xorijiy tilni o‘rganish lozim, degan g‘oya bilan chiqdilar. Behbudiy shu g‘oyani “Ikki emas, to‘rt til” degan maqolasida ilk bor ko‘taribgina qolmasdan, uni o‘z maktabida joriy ham etdi.

Jadidlar xalq va mamlakatni rivojlantirish, ularning oyoqlaridagi mustamlakachilik kishanlarini parchalab tashlash va erkinlikka erishish uchun yoshlarni asosan dunyoviy va qisman diniy fanlar rivojlangan mamlakatlarga o‘qishga yuborishni lozim, deb topdilar. Bu ikki muhim masaladan tashqari, bir tomondan, xalqning og‘ir moddiy sharoitda turmush kechirayotgani, ikkinchi tomondan, mutaassib ruhoniylar ta’sirida va eskirgan urf-odatlar botqog‘ida yashayotganligidan iborat ikkita muhim masala bor ediki, ularga qarshi kurashmasdan turib, yuqorida aytilgan ikki g‘oyani ro‘yobga chiqarish ilojsiz edi.

Millat fidoiylari bo‘lgan jadidlar keng fikrli, milliy va jahon madaniyati, ma’rifatidan ogoh bo‘lganlar edi. Ularning ko‘pchiligi turli sabablar bilan xorij davlatlarida bo‘lgan, o‘sha davr Turkistoni bilan boshqa rivojlangan davlatlar va millatlar holatini solishtirish imkoniga ega edilar. Shuning uchun ham ular birgina maktab, maorifning o‘zi bilangina kifoya qilishning foydasi kamligini tushunar edilar.

Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Biroq, uning dunyo ko‘rishi oson kechmadi. Bunga sabab: birinchidan, Chor hukumati mustamlaka Turkistonining ma’rifat yo‘liga kirib, o‘z huquqini tanishidan manfaatdor emasdi. 1916-yildagi Turkiston general-gubernatori N.R.Kuropatkinning o‘z kundaligida yozgan va bugun juda mashhur bo‘lib ketgan: “Biz tub joy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50-yil chetda tutdik”, degan so‘zlarini eslash kifoya. Ikkinchidan, turg‘unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutaassiblik sharoitida teatr sahnasida “tomosha” ko‘rsatishga din peshvolari jiddiy qarshilik ko‘rsatdilar. “Kimiki sahnada ko‘rsang, oni jasorati bu”, deb yozgan edi Tavallo. Bu bejiz emas [2, 10].

Behbudiy zamonaviy madaniyat, ilm-fanni egallash o‘sha davr o‘zbeklari uchun qanchalar zarur ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, millat taraqqiyotiga jiddiy to‘siq bo‘layotgan illatlarga qarshi kurash ham shunchalar kerakligini anglab etgan. Uning nazarida bu illatlar quyidagilardan iborat:

Birinchisi, to‘y va aza dabdabalariga berilish. Bu illatlar sil yoki moxovlikdan ham yomon, inqirozga, tahlikaga, jahannamga sabab bo‘luvchi, xonavayron va g‘arib etuvchi illatlar sifatida Behbudiy tomonidan juda ko‘p marta qayd etilgan. To‘y xoh nikoh bo‘lsin, xoh xatna – o‘lmaguncha qutilib bo‘lmaydigan balo bo‘lsa, azada go‘yoki o‘likning hurmati sifatida etimlarning yoki bevalarning holi o‘ylanmasdan, ba’zan qarzlarni ado etishni ham unutib, ayniqsa, qarz olib qilinadigan xarajatlar millat uchun kulfat ekanidan nadomat chekadi. Xudoyi, xayrot, yirtish va xokazo sarf-xarajatlar nafaqat isrof, balki katta gunoh sifatida tushuntiriladi. Negaki bu xarajatlar xalqning foydasiga, mamlakatning taraqqiysiga, millatning yuksalishiga emas, uning xorlikka mahkum etilishiga bois bo‘ladi.

“Boshqa millatlarning boylari faqir va etimlar uchun maktab va dorilfununlar soladurlar, faqir va etimlarning o‘qumog‘i uchun vaqf-istipendiyalar tayin qilur. Boshqa millat miliyo‘nerlari maktab ila istipendiyasi-la, idora qilaturgan gazet va

majallasi-la, bino qilgan dorilojizini, barpo qilgan jam'iyati xayriyasi-la faxr qiladur".

Ikkinchisi, soxta obro‘ va hasham ishtiyoqi. Har qanday soxtalik aslida nuqsonni, ojizlikni, notovonlikni xaspo‘shlashga urinishdir. Soxta obro‘ va hashamga ruju qo‘yish kishini haqiqatdan uzoqlashtiradi va oxir-oqibat xorlikka mubtalo qiladi. Behbudiy bu masalada ham juda ko‘p to‘xtaladi. Jumladan, uning "Zo‘raki boy" maqolasida keltirilgan ibratli hikoya nafaqat davr ahli, balki bugungi soxtakorlikka berilgan kishilarga ham tanbehdir.

Uchinchidan, vaqtni zoe qilishdan qaytarish. Behbudiy vaqt qadrini ilm va unga amal qilingan foydali faoliyat bilan bog‘laydi. Lekin hayotda foydasiz harakatlar bilan umrini o‘tkazayotgan kimsalar ham borki, ularning hasratidan jamiyatning ilgari ketishi, taraqqiyotiga zarar etadi. Behbudiy buni ko‘pkari misolida zikr etadi. "O‘n-yigirma chaqirimga to‘y bo‘ladimi, har kim ishini, dehqonchiligini qo‘yub, otlanib ko‘pkariga ketar. Dehqon uchun oltundan aziz vaqt favt ketdi. Ekin birgina kun keyin sepilgani uchun pishmay qolar. Birgina kun so‘ngra yig‘ilgan uchun yog‘inga qolib, ba'zan xirmanlar chirib ketar".

Muallif ma'lum bir shaharda yahudiylar o‘liklarini ko‘mishlarini eslatib, bunga ularni kunduz odamlarni ishdan qoldirmaslik maqsadi sabab ekanini ta'kidlaydi. Bizda bo‘lsa, to‘y, marakalar uchun haftalar, ba'zan oylar uvol ketishidan ozorlanadi u. Shuningdek, yoshlarni vaqtning qadriga etishga, vaqtni imkon qadar ilm-fan o‘rganishga sarflashga da'vat etadi.

To‘rtinchisi, rishva – pora berish. Pora Behbudiy va undan oldin o‘tganlar tilida rishva deyiladi. Ko‘pincha, rishva oluvchilar qoralanadi. Lekin Behbudiy rishva beruvchilarni la'natlaydi. Chunki, ular zamona ilmini bilmaganidan, o‘zga millat vakillari bo‘lgan amaldorlar oldida ojizliklaridan pora berishga majbur bo‘ladi. Ishni pora bilan bitkazgan notavon bir umr shu aqidada qoladi, ya'ni porasiz ish bitmasligiga o‘rganib, kelajagini qorong‘i qilib qo‘yadi.

Beshinchisi, ilm ahliga nopisandlik. Ko‘p bilgan dunyoni ko‘proq anglashi ayni haqiqat. Dunyoni anglagan hamma yutuqlar ortida ilm turganini ham tushunadi. Dunyodagi katta yutuqlarning hammasi ham shundan. Kichik moddiy muvaffaqiyatlar avomnigina emas, haqiqiy ilm ahli bo‘lmaganlarni ham chalg‘itadi. Haqiqiy taraqqiyot, chin yutuqlar uchun haqiqiy ilm ahlini tarbiyalab etishtirmoq lozim. Avom ilm ahliga ergashsagina, haqiqiy taraqqiyga, yutuqqa erishiladi, degan xulosaga keladi Behbudiy va deydi: "Boshqa millat ulamosiga tobe ekan, bizning ulamo bil'aks avomg‘a tobedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma-o‘ttuz sana so‘ngra yana yomonroq bo‘lur, musulmonlik ilm va odob ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur".

Haqiqatdan ham, jadid ma'rifatparvarlarining asosiy maqsadi odamlar bilimini, madaniyatini oshirish orqali jamiyat va xalqni milliy kamolotning yangi ma'naviy-ma'rifiy sifat bosqichiga ko‘tarish va pirovard natijada milliy mustaqillikni qo‘lga kiritish edi. Inson ongiga muayyan bilimlar, g‘oyalar, e'tiqod va ishonch, axloq va odob me'yorlarini singdirish, ta'lim va tarbiya ishlarini takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish maqsadida amalga oshirilgan tadbirlar tizimi ma'rifat deb ataladi. Ma'rifatni hayotga joriy etish, kishilar ongiga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi.

Jadid harakatini yuzaga keltirgan sabablardan bir – o‘sha davrdagi xalqimiz madaniy olamining haddan tashqari sayozligi, zamonaviy dunyo madaniyatidan, masalan, teatr, kino va yana boshqa ko‘plab san’at turlaridan bexabarligi, ularni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning yo‘qligida edi. Shuning uchun ham, jadidlar xalqimizni ilmli, bilimli bo‘lishi bilan birga madaniyatli bo‘lishlarini, milliy va umumjahon madaniyati durdonalaridan bahramand bo‘lishlarini juda istadilar. Ularning haqli ravishda qayd etishlaricha, yangi dunyoga madaniyat va san’atsiz aslo kirish mumkin emas.

Dunyo ko‘rib, yangi madaniyatlar bilan yaxshi tanish bo‘lgan Isohoqxon to‘ra Ibrat (1862-1937-yillar) millatdoshlarini zamondan ortda qolmasliklarini istab shunday deydi: “Madaniyat xotiraga o‘xshagan yangi taomil, yangi so‘z, yangi xat joriy bo‘lib, eski nimarsalar, diniy ishlar, bo‘laklari hammasi bilkul qolib, yangi yurib ketar ekanlar... Uyingizda hozir turubdur ayon... chunonchi: chiroq qoldi – lamfa (chiqdi), chaqmoq qoldi – gurgurd (chiqdi)...choyjo‘sh qoldi – choynak (chiqdi), qumg‘on qoldi – samovar (chiqdi) va hakozo yangi nimarsalar ko‘b joriy bo‘lib qolgan” [3, 19].

O‘zbekiston madaniyati tarixini o‘rganar ekanman, shunday xulosaga keldim: qadim tariximiz boshdan oxirigacha ma’rifat, ma’naviyat, madaniyat uchun kurashlar tarixidan iborat ekan. Ha, haqiqatdan ham yurtimiz tarixi o‘sha fenomen hodisalar uchun jiddiy kurashlar tarixidir. Eslab ko‘raylik, Abu Nasr Forobiy ma’rifatli jamiyatning nazariy asoslarini yaratish uchun qanday asarlar yaratmadi, Birinchi va Ikkinchi Renessans mutafakkir-allomalari bu borada o‘ziga xos tizim yaratmadilarmi?

Ammo, bu g‘oyalar, ta’limotlar ko‘pincha real hayotda amalga oshmay qolaverdi, xalqimiz milliy tariximizning muayyan davrlarida qorong‘ulik, bilimsizlik oqibatida “biri ikki” bo‘lmadi. Forobiy bobomizdan qariyb ming yil keyin ham jadid bobolarimiz xalqimizga madaniy shahar, uning millat va mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni haqida kuyinib gapirdi. Keling, yaxshisi, uning bu haqdagi fikrlariga quloq tutamiz: “Madaniy shaharlar shunday bo‘lurki, anda dorulmuallimin madrasalar va anvoyi funun maktablar (oliy o‘quv yurtlari), har xil ilmu hunarlar, katta do‘xtirlar, tabiblar va mazlumni zolimdan himoya qiladurgan hokimlar o‘z shaharlarida bo‘lur. Qo‘l hunarmandlaridan har xil va hamma xillari, to‘qiladurgan nimarsalar, anvoyi asbob o‘z shaharlarida bo‘lub, bo‘lak kishilarga ehtiyoj bo‘lmasa hamda ul shaharda zavodlar, otash kemalar va foyizlar va ko‘nkalar elektr ilan barpo bo‘lsa. Ham ul shaharda har kuni yurub turadigan foyizlar, chirog‘, shamol sandal (ventilyator yoki xolodilnik) bo‘lsa, katta maktablar bo‘lsa, zavodlar ovozi har kuni necha martadan eshitilub tursa, bir nimarsaga ehtiyojmand bo‘lub chiqsa kishi darhol topilsa, tilfonogramlar bo‘lsa, shaharlar ozoda, changdan, bo‘yi baddan toza bo‘lsa, qaysi ilmni xohlasa, ani ta’lim beradurgan muallimlar bo‘lsa, arz qilganda, arzi holni bilib javobini qaytarsa, yaramas odamlar uchun jazoxonalar, omonat qo‘ymaq uchun xiyonat qilmaydurgan omonatxonalar bo‘lsa, ahli ilmlarning qadri yaxshi bo‘lsa, nodonlarni o‘z holiga qo‘ymasa, fikr va ilmu hunar o‘rgatsa... Har kishi o‘z ishiga mashg‘ul bo‘lub, bekor ko‘chalarda va samovarlarda o‘lturmasa, kasallar oh-zor qilmay va yotmay iloj qiladurgan hakimlar tayyor bo‘lsa, yo‘qotgan

narsalarni omonotxonaga ahli bexilof topshirsa, kechalar ham kunduz kunidek savdo-sotiqlar bo‘lsa” [4, 29].

Jadid bobolarimiz o‘z faoliyatlarida jamiyatni fundamental tarzda takomillashtirishga, jahonda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni o‘zlashtirishga, mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq etib olishiga alohida e’tibor berdilar. Ammo, buning uchun eng avvalo insonning o‘zini o‘zgartirish lozimligi, shaxs tafakkurida yangilik, yaxshilik sari evrilish jarayonisiz bu sifat o‘zgarishlariga erishish aslo mumkin emasligini doimo ta’kidladilar.

Har bir jadid bobomiz jamiyatni, millatni, mamlakatni isloh etish bo‘yicha o‘z qarashlari, bugungi kun ta’biri bilan aytganda, konsepsiyalari bor edi. Masalan, Ibrat domla o‘zining “Mezon uz-zamon” asarida zamondagi evrilishlar va ularga millatdoshlarining munosabatlari masalasiga diqqat qaratadi.

Asar shartli ravishda 9-mezondan tashkil topgan. Har bir mezonda muayyan masala tahlil etilgan. Jumladan, birinchi mezonda yangi paydo bo‘lgan narsalarga munosabat masalasi tahlil etiladi. Adib juz’iy so‘zlar ustida janjal qilib yurgan ulamo va fuzalolarni ummat va millat xizmatini qilmoqqa chaqiradi. Uning fikricha: “ittifoq va ittihod zarurligi hech kimni andishasida...Xudo amrinda ulamolardin amri ma’ruf, ag‘niyodin ehson, binoi xayru imdod, fuqaro va umumun-nosdin harakati kasbi ilm” lozim. Ibrat bunday emasligidan afsuslanadi. Uning ta’kidlashicha: “Ulamo va fuzalo va avom hama nafs xizmatidin bo‘shamay, dunyo qilmoq, imorat, hasham, manfaati nafsiyalarin mubtaloyi”. Vaholanki, ular ummut va millatga xizmat qilmoqlari zarur edi.

Ikkinchi mezon millatni turli firqalarga ajralishdan qaytarish, ittifoq va ittihodga chaqirish mavzusiga bag‘ishlangan. Adib bu mezonda odamlarning ittifoq bo‘lib yashashlari zarurligi haqidagi oyat va hadislardan namunalar keltiradi va ularni sharhlaydi.

Uchinchi mezon sudxo‘rlik, tijoratda xiyonat masalalariga bag‘ishlangan. Bu illatlar millat tanazzulining bosh omillari sifatida talqin etilgan: “paxta tijoratiga o‘rgangan kishilarda shariati islomiyaga muxolif uch katta gunoh muayyandur... Birinchisi, tarozuda kam olmoq. Ikkinchisi, xiyonat. Uchinchisi, paxta berolmagan kishiga summasiga 55 tiyindan ishtrof hisob qiladurlar. Ulamolar bo‘lsa, bul xil ishlar xususida amri bil-ma’rufdan hifz qilib, dam urmaslar. Mashoyixlar bo‘lsa, o‘z maishati joh va hashamlariga ovvora bo‘lub, jam’i molu mulkka banddurlar”.

To‘rtinchi mezonda ilm, badaviyat va tafakkur haqida, avlod tarbiyasi va usuli savtiya maktablarining millat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi. Beshinchi mezonda xalqimizning avvalgi harakatlari va yangi zamondagi ishlari xususida baxs qilingan. “Asrimiz ilmu hunar, harakat asridur, turmoq asri emas. G‘ofil tursa, g‘aflat uyqusidin turguncha, bozori olam o‘tib ketadur. O‘r(g)anmoq darkor. E’tibor qilinglar, ey oqillar!”. Oltinchi mezon bid’at va ortiqcha sarf-xarajatlarga ruju qo‘yish, fikrsizlik illatlarining muolajasi xususida. Yettinchi va sakkizinchi mezonlar libos borasidagi munozaralar xususida, o‘sha davrdagi odamga emas, libosga ixlos qo‘yishning, dunyoparastlikning yomon oqibatlari haqida. To‘qqizinchi mezonda o‘tmish va zamon voqealari muqoyasi qilinadi. Muhim xulosalar qilinadi [5, 30].

Ibrat domlaning Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlik harakati rivojidagi o'rni benihoya katta. U 1908-yilda "Kutubxonai Is'hoqiya" nomli kutubxona ochadi. Kutubxonada ta'lim-tarbiya, o'qitishga oid o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida ko'plab kitoblar bo'lgan. Bu kitoblardan nafaqat o'zi, shuningdek, qishloq ahli ham foydalangan. Ibrat o'zi ochgan maktab o'quvchilarini kutubxonada saqlanuvchi kitoblar bilan doimiy ravishda ta'minlab turgan.

Is'hoqxon Ibrat kutubxona a'zolarining kitob olish va o'qib bo'lgach, uni topshirish daftarlarini ham tashkil etgan, a'zolarning, ayniqsa, yoshlarning kitob o'qishlarini uning o'zi nazorat qilib borgan. Kutubxonadagi kitob fondi yil sayin kattalashib, a'zolar soni ortib borgan. "Kutubxonai Is'hoqiya" kitob fondining kattalashib borishida "Matbaai Is'hoqiya" katta rol o'ynagan. Bu matbaada chop etilgan kitoblarning deyarli hammasidan bir necha nus'ha kutubxonaga topshirilgan. Kutubxonada "Turkiston viloyatining gazeti", "Turkestanskie vedomosti", Ismoilbek Gaspralining "Tarjimon" gazetalarining hamda markaziy Rossiyada chiqadigan gazeta va jurnallarning boylamlari bo'lgan. Afsuski, bu kutubxonadagi ko'plab nodir nashrlar 1918-1920-yillar to'polonida, 1937-yilgi qatag'on davrida yo'q qilindi, yoqildi, daryoga oqizildi, erga ko'mildi.

Millat va mamlakat kelajagi uchun kurashgan taraqqiyparvarlardan yana biri – Elbek (Mashriq Yunusov, 1898-1939-yillar) o'z xalqining milliy istiqloli, turkiy xalqlar birligi yo'lida tinmay kurashdi. Shu bois qizil imperiya huquqni muhofaza qilish organlari uni "aksilinqilobchi, millatchi, xavfli panturkist, panislomist, o'z asarlarida sho'ro hokimiyatiga qarshi kurashgan" degan ayblar bilan xibsga olgan.

Uning ijodida ijtimoiy masalalar ustuvor ahamiyat kasb etgan. She'rlarida xajviy yo'llar bilan o'sha davr mohiyatini ochib berishga millatni uyg'otishga harakat qildi. Birgina misol: 1924-yilda chop etilgan "Armug'on" masallar to'plamidagi "Qaysi biri bo'ri?!" deb nomlangan masalida o'rmonda yolg'iz yurgan qo'y bo'rining tuzog'iga qanday ilinganini juda chiroyli tarzda ko'rsatib beradi. Uning mazmuni quyidagicha: bo'ridan qutilishning ilojini bilmay yurgan qo'y oldiga bir kishi keladi va uni yirtqich changalidan qutqaradi. Qo'yni o'sha kishi o'z uyiga olib ketadi. Bu holdan qo'y juda xursand bo'ladi. Ammo qo'y uchun xursandchilik uzoqqa cho'zilmaydi – haligi kishi uni so'yib, eydi.

Joni tipirchilab yotgan qo'y o'sha kishiga qarab "sen bo'ridan qutqarding, o'zing ham bo'ridan battar ekansan-ku!", deganday qoladi. Shu she'r-masal yaratilganda tiklanib kelayotgan mustabid hokimiyat tomonidan Qo'qonga qo'yib yuborilgan arman dashnoqlari va rus zobitlari beshikda yotgan erli xalq go'daklarigacha bo'g'izlab tashlaganliklariga endigina ikki-uch yil to'lgan edi. Qo'y o'rnida ko'rilgan yuvvosh va andishali kishilarning yirtqich jangarilar tomonidan so'yib tashlanganligini bong tarzda jaranglagan ushbu masal g'oyasi millat va mamlakat istiqloli mazmunini aks ettirar edi.

Shoirning rang-barang, boy ijodi va faoliyati qirralarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin: 1. Muallimlik-tarbiyachilik Elbek ijodining asosiy xususiyatini tashkil etadi. 2. O'tgan asrninng 20-30-yillar bolalar adabiyotida folklor va masalchilikka Elbek asos soldi. 3. Bolalar adabiyotida haqiqat va istiqlol uchun kurash. 4. Ona tilini e'zozlash va unga sadoqat bilan qarash – qadriyatlarimizni hurmatlash asosiga qurilganligi. 5. Tabiat va go'zalikka oshiftalik Elbek lirikasining

asosiy yo‘nalishlaridan ekanligi. 6. Elbek asarlarida milliy urf-odatlarimiz va an’anlarimiz tasviri kelajak avlod uchun obida bo‘lib qolganligi. 7. Elbek sochma va tizma asarlarning mohir tarjimoni sifatida tanilganligi[6, 8].

Jadid ma’rifatparvarlaridan Tavallo (1883-1937-yillar) o‘tgan asrning boshlaridagi mashhur millatparvar, hajviy she’rlar ustalaridan biri edi. Xalq ommasining mustamlakachilik zulmi va zulmatidan xira tortgan ko‘zlarini ochish, uni so‘nggi asrlarda o‘z qa’riga tortgan qoloqlik muhitidan xalos etish uchun avvalo o‘zi kechirayotgan turmushning ayanchli manzaralarini, o‘zining nochor ahvolini, elu yurtni chirmab tashlagan jaholat va nodonlik pechaklarini unga yaqqol ko‘rsatish lozim edi. Buni yaxshi tushungan Tavallo birinchi navbatda hajviy lirika imkoniyatlaridan foydalanishni o‘ziga maqsad qilib oldi. U mumtoz adabiyotimizdagi hajv san’ati an’analaridan tarixiy-madaniy sharoitda mahorat bilan foydalanish va davom ettirish san’atini mukammal egalladi.

Jadid bobomiz o‘zining “Ilm natijalari” deb nomlangan maqolasida iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat sohalarida boshqa xalqlar va mamlakatlardan ortda qolib ketayotganligimiz, buning sabablarini milliy illatlarimizdan qidirishimiz lozimligini qayd etadi. Yaxshi o‘qimasdan, kaptarbozlik, bedanabozlik, qimorbozlik ishlariga rivoj bergan xalqning hech qachon bir ikki bo‘lmasligini bot-bot ta’kidlaydi. “Ey qardoshlarim, – deydi u – yoshlarning baxtli yashamoqlari bizlarning ijtihodimizga bog‘liqdur. Agarda yoshlar tarbiyasiz o‘ssalar, bir kun bular siz bilan bizni duobad qilurlar, nafrat etarlar. Agarda bizlar yoshlikdan yaxshi tarbiyat qilsak, dunyoda rohat yashab, boshqalar kabi dunyodin bearmon ketarlar. Agarda bizlar uxlab yotsak, millatimizning bog‘i hayotiga pechaklar o‘tquzub, umid gullarin quruturmuz. Bizlarga dunyoda na kerak: o‘qimoq, maishatidin bahralanmak, Yovrupo maktablarinda tarbiya ko‘rmak. Yetar bizlarga ulog‘ chopmoq, bachcha o‘ynamoq, to‘y to‘ylamoq”[7, 247].

Millat fidoiylari xalqni mudroq uyqudan uyg‘otishga katta ahamiyat berdilar. Milliy va mahalliy illatlar, bid’atlar shu darajada kuchaygan ediki, jadid bobolarimizning nazaridan ulardan qutilishning hech iloji yo‘qdek. Ammo, butun dunyo, ayniqsa, Yevropa xalqlari asosiy e’tiborni ilm-fan, ta’lim, madaniyatga qaratishi natijasida ular har tomonlama rivojlandilar, texnika va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish esa ularning hayoti, turmush tarzini mutlaqo o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa, jadid mutafakkirlarining turli sabablar bilan xorij davlatlariga tashrif buyurishlari oqibatida Yevropaliklar va o‘zbek jamiyatini solishtirish, taqqoslash imkoniyati tug‘ildi.

XX asrning boshlari, ayniqsa 1917-yilgi Oktyabr to‘ntarishi xalqimiz tarixiy taqdirida eng qora kunlar, sifatida muhrlanib qoladi. Ta’bir joiz bo‘lsa aytish kerakki, sovet mustabid tuzumi davridagi o‘zbek milliy madaniyati holati chorizm davridagidan ham shakl, ham mazmun jihatidan o‘zgardi. Chorizmdan farqli o‘laroq sovet davri madaniyati o‘ta siyosiylashtirildi, bir qobiqqa solishga harakat qilindi. Bir so‘z bilan aytganda allomalarimiz sovet davrida milliy madaniyatimiz katta xavf ostida qolganligini anglab etdilar.

Shuning uchun ham, jadidlar millatni mudroqlikdan uyg‘otish, uni yangiliklar yaratuvchisiga aylantirish, turli illat va bid’atlardan tezroq qutqarish lozimligini ongli ravishda anglab etardilar. Abdulla Avloniy o‘zining “Madaniyat to‘lqunlari”

nomli maqolasida mazkur masalaga juda chiroyli yondashib, madaniyatning yo‘qligi millatning mehnat qilishga bo‘lgan g‘ayratining kamayishiga, ittifoq, insof va adolatning yo‘qolishiga, xalqning ilmu ma’rifatdan uzoqlashishiga, buzuq ishlarga mayl va rag‘batini ortishiga olib keladi, deb ta’kidlagan edi.

O‘sha davr O‘zbekistonidagi ahvolni ko‘rib turib, shunday deydi: “Bu taraqqiy zamoni va madaniyat asri, bilmam, bizni na erga olib borajak, ibrat ko‘zi ila Eski shahrimizning musulmon dahalariga nazar solgan kishi har mahallada yuzdan to‘qson xonalarni(ng) buzilgan, yorilgan, vayrona va inqiroz dunyosiga yuzlangan bir holda ko‘radir. Go‘yo bu xonalarning devorlari, tomlari lisoni hol ila bizni ilmsizlik, tarbiyasizlik, to‘y va minglarcha aqchalarni behuda isrof qilmoq, to‘ylarda jomafurushlik qilmak vayrona va xarobazorlikg‘a soldi, deyurlar. Emdi, vayrona sohiblarini faqir va xorlikda yashagan, bola-chaqalarini qul kuchi ila to‘ydiradirgon, to‘y degan erda muqaddas Vatanini sotib, sarf qilmoqdan tortinmaydirgan “hoziram huzuram” deb istiqbolini o‘ylamagan va bolalarining saodatini tushunmagan bir qavmdan qanday taraqqiy, madaniyat va ma’rifat kutmak kerak? Och-yalong‘och, kulfat, mehnat va zahmat balolari orasida o‘ralib qolgan bir qavmga: “Madaniyatga kiringiz, maktab solingiz, o‘qungiz, taraqqiy qilingiz, kabi so‘zlarning foydasi o‘lmadig‘i oftobdan ham ravshandir”.

Ushbu maqoladan yana bir iqtibos keltiramiz, zero uning dolzarbligi bugun ham yo‘qolgan emas. “Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o‘qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta’limga mohir olim va olima, adib va adibalarimiz muntazam va tartiblik bo‘lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar etushub, zamonaga muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik “Dorul-yatim” – etimxonalar, “Dorul-ojizin” – kambag‘alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkat (tovarishistvo)lar barpo qilinsa, yuqorida dedigimiz kabi, xalqimiz orasida zamonag‘a loyiq ulum va fununda boxabar ulamolarimiz ko‘paysa, och va yalang‘och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o‘qutulsa, axloq va odob o‘rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasindan chiqub, haqiqiy madaniyat bo‘stonig‘a yuzlang‘on hamda madaniyat to‘lqunlaridan qutulub, sohili salomatga chiqg‘on bo‘lur eduk”.

Darhaqiqat, jadid mutafakkirlari Turkistonning so‘nggi ikki-uch asrlik holatini qorong‘ulikdan iborat ekanligini, buning sabablari ko‘proq milliy xususiyatlarimiz bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berdilar. O‘rganilayotgan tarixiy davrda jadid bobolarmizning barchasi bir ovozdan o‘z nuqsonlarimizni baralla ayta boshladilar. Ularning ta’kidlashlaricha, butun ma’rifatli dunyo o‘z kelajagi yo‘lida ilm-ma’rifat izlab, o‘zini qiynab, milliy illatlaridan xalos bo‘lish yo‘lini qidirgan bir paytlarda yurtimiz ahlini to‘g‘rilik, adolat, ilm-fan, madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat, insofga boshlashi kerak bo‘lgan amaldorlarimiz, diniy ulamolarimizning o‘zlari shaxsiy manfaatlarini har narsadan yuqori qo‘yib, o‘z maishatlarini o‘yladilar.

Endi ular o‘z oldilariga butun Turkiston jamiyatini ana shunday xatarli yo‘ldan qaytarishni maqsad qilib qo‘ydilar. Bu yo‘l oson emasligini bilar edilar. Shuning uchun ham mazkur ahamiyati juda katta muammoni madaniyat, ilm-fan vositasida hal etishga kirishdilar. Shu o‘rinda ulug‘ o‘zbek shoiri, dramaturgi va olimi Abdurauf Fitrat (1986-1938-yillar)ning ijodiga ham to‘xtalmaslik mumkin emas. Qayd etish kerakki, milliy uyg‘onish harakati va adabiyoti asoschilaridan biri

bo‘lgan Fitrat o‘tgan asrning boshlarida yozgan “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti” asarlari bilan Buxoro va Turkistonda yashagan xalqlar ijtimoiy-madaniy ongining o‘sishiga katta hissa qo‘shdi.

Fitrat “Hind sayyohi bayonoti” asarida ming yillar davomida butun Sharqning madaniyat o‘chog‘i bo‘lgan Buxoroning bugungi kuni haqida kuyinib yozadi. “Ma’lumungizki, – deydi u, – Buxoro qadimdan g‘oyat dono va zukko bo‘lib etishgan fuzalo ahlini tarbiyalab, voyaga etkazgan. Har kuni bir Abu Ali, Forobiy, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy va Ulug‘bek kabilarni jahonga hadya etib, shu tariq o‘zining sharafli dovrug‘ini jahon xalqlarining quloqlariga zirak qilib taqqan. Ammo mana ikki yuz yildirki, o‘zining ilmiy qimmatini yo‘qotmish. Mirzajon Sheroziyning (Mirzajon Sheroziy – XVIII asr boshlarida Erondan Buxoroga kelib o‘rnashgan ulamo va mudarris. Uning davrida ilohiyot ilmini o‘rgatishda ko‘proq og‘zaki talaffuzga e’tibor qaratilib, matnning mazmuni va sharhiga hamda arab grammatikasining o‘rganilishiga kam e’tibor berilgan) kelishi bilan Buxoro ulamolari “ziyodati lafzi salosin” ma’nisini tahqiq etishdek naf’siz ishga berilib, adashmishlar. Turkistonliklarning ko‘bchiligi ayni shunda tahsil ko‘rganlari bois buxorolilarga ergashib, ular ham jaholat va g‘aflat botqog‘iga botmishlar. Alaloqibat madaniyat osmonining porloq yulduzi, insoniyat kitobining nurli sahifasi bo‘lmish Turkistonni do‘stu dushman oldida eshitish va gapurish bobida uyatliq bir holg‘a etkazmishlar, halokatg‘a mubtalo etmishlar” [8, 135].

Xuddi shunga o‘xshash fikrni XX asrda (1898-1976-yillar) yashab, ijod qilgan yana bir ma’rifatparvar – Vadud Mahmud ham bildiradi. U o‘zining asr boshlarida yozgan “Yangi davr, yangi yo‘l” maqolasida xuddi Fitrat kabi Turkiston o‘lkasining jahon madaniyatida tutgan bebaho o‘rnini alohida ta’kidlaydi. U shunday yozadi: “Turkiston eski madaniy dunyoning baynalmilal chegarasida eng yuqori o‘run tutaturg‘on olimlar, hakimlar, shoirlar, san’atkorlar etishtirgan bir o‘lkadir. Turkiston sharqiy, janubiy va g‘arbiy Osiyoning bir-biroviga to‘qushaturg‘on bir mavzeda bo‘lg‘onidan iqtisodiy nuqtalarga molik bo‘lg‘ondir. Shuning uchun-da bir vaqtlar madaniyatning eng yuqori darajasiga mingandir. Keyingi vaqtlarda ikki dunyo bozorlarining Ovro‘po va Amriqo savdogarlariga ochilishi va savdo yo‘llarining o‘zgarishi mahalliy madaniyatning pastlashishiga sabab bo‘lg‘ondir”[9, 127].

Agar Abdurauf Fitrat va Vahdud Mahmudlarning yuqoridagi fikrlariga e’tibor qilinsa, har ikkilari ham Turkistonni “madaniyat osmonining porloq yulduzi”, “insoniyat kitobining nurli sahifasi” yoki “eski madaniy dunyoning baynalmilal chegarasida” turgan madaniyat va ma’naviyat markazi sifatida ta’rif beradilar. Bu ehtiromlarda mutlaqo bo‘rttirish, soxtakorlik yo‘q. Haqiqatdan ham yurtimiz avval-azaldan nafaqat Sharqning, ayni paytda butun dunyo sivilizatsiyalarining muhim markazlaridan biri bo‘lib keldi. Bunga bizning yuqorida, avvalgi fasllarda keltirgan misollarimiz isbot bo‘lishi mumkin.

Biroq, XX asrning 20-yillaridan boshlab o‘zbek jamiyatidagi ijtimoiy-madaniy, g‘oyaviy-mafkuraviy vaziyat keskin o‘zgara boshladi. Yaratilayotgan asarlarga baho berishning yangicha usullari ishlab chiqila boshlandi. “Partiyaviylik”, “sinfiylik”, “g‘oyaviylik” kabi yangi atamalar shakllana boshladi. Madaniyat, san’atdagi milliylik, umuminsoniylik, ezgulik, samimiylik, adolat,

insonparvarlik kabi mavzular o‘rniga “sotsializmga sodiqlik”, “proletar madaniyati”, “yangi madaniyat”, “san’atdagi ijtimoiy buyurtma” kabi soxta qarashlarga asoslangan “asarlar”ning yuzaga kelishi avj oldi.

Buning oqibatida ming yillar davomida shakllangan, sayqal topgan milliy madaniyatimiz “eskilik sarqiti” sifatida rad etila boshlandi. Hattoki, madaniyat, san’atda yangiliklarni qo‘llab-quvvatlagan jadid harakati g‘oyalari ham tanqid ostiga olina boshlandi. Masalan, Botu taxallusi bilan ijod qilgan Mahmud Hodiev (1904-1938-yillar) “Qizil qalam” va uning galdagi vazifalari” deb nomlangan maqolasida “O‘ktabr inqilobidan so‘ng borliq ko‘rsatgan adabiy oqim “jadid adabiyoti”ni maydondan chiqarib tashladi”, deb yozgan edi. Uning sababini esa milliy madaniyatimiz, xususan adabiyotimizda milliy ruhning kuchayganligi, hukmron doiralarga, sovet mafkurasiga bunday hol “yoqmasligi” bilan izohlash mumkin edi.

Madaniyat va san’atning siyosiylashuvi ayrim hollarda ba’zi ziyolilarning sovet mafkurasini qabul qila boshlaganliklarida ham ko‘rindi. Jumladan, Botu o‘tgan asrning 20-yillari boshlarida milliy adabiyotimizda ham proletar mafkurasi bilan sug‘orilgan asarlar ko‘payib qolayotganini qayd etib, shunday yozadi: “Mafkura jabhasining muhim bir bo‘lagi bo‘lgan san’at va adabiyot bizda orqada qoldi, shu kungacha kerakli e’tiborga muvofiq bo‘la olmadi. San’at va adabiyot ahllari o‘zlari ham bunga uzoqdan qush boqishi bag‘ishladilar. Albatta, bu holning uzun umr ko‘rishini istagan kishi hozirgi zamonda bizning tomonda bo‘lolmaydi, kundan-kun oshmoqda bo‘lgan ehtiyojlar, oshmoqda bo‘lgan talablar san’at va adabiyotimiz sahnasidan parda ko‘tarilishini to‘zumsizlik bilan kutub turadilar. Qani, kim bor?!” [10, 141].

Mustamlakachilarning maqsad-muddaosi xalqni milliy o‘zligidan judo qilishdir. Shu ma’noda, ham chorizm, ham sovet mustabid tuzumi uning uddasidan chiqa oldi. Avval asrlar davomida shakllangan milliy ta’lim tizimi yo‘q qilindi, keyinchalik esa endi shakllanib kelayotgan jadid madaniyati, san’ati, ta’lim tizimiga qiron keltirildi. Abdurauf Fitrat o‘zining “Hindistonda bir farangi ila Buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg‘an munozarasi” asarida “Islom madaniyati qani? Ilmga nima bo‘ldi? Jasur himoyachilar qayga ketdilar?”, deb xitob qiladi.

Asarda Farangi nimidan quyidagilarni yozadi: “Musulmonlar jadid maktabini ochmog‘i kerak! Nega? Chunki bid’ati hasanadir. Qaysi dadilg‘a ko‘ra? Bir qancha dadilg‘a ko‘ra. Birinchi: Sizlarning maktab va madrasangiz tahsil usuli g‘oyat uzoqdir, shu sababdan bechora ayollar ular uchun ham farzi ayi bo‘lg‘an ilm va irfon sharafini qo‘lga kiritishdan mahrum qolmoqdalar. Ikkinchi: ular ilmsiz qolmoqdalar, har (bir) ilmsiz tarbiyasiz bo‘lgani kabi, ular ham tarbiyasiz bo‘lib qoladilar. Ma’lumdirki, kim tarbiyasizning qo‘lida katta bo‘lsa, u tarbiyasiz o‘sadi. Binobarin, Siz hammangiz tarbiyasiz qolmoqdasiz, chunonchi, qolg‘ansiz ham. Uchinchi: Siz nasroniylar ustingizdan g‘alaba qilib, nomingizni olam sahifalaridan o‘chirib yuborishga vosita bo‘lg‘on ilmlarni tahsil olmog‘ingiz lozim. Agar bu ilmlarni hozirgi darslaringizga qo‘shib usuli qadim bilan o‘qisangiz, oltmish yilda xatm qilishingizga to‘g‘ri keladi, buning esa foydasi yo‘q. Agar hozirgi darslarni tark etib, faqat jadid ilmlarini o‘qisangiz, bu ham maholdirki, zero, darslarning

aksari diniy ilmlardirki, ularni tark qilib bo‘lmaydi. Demak, tahsilingiz uchun yangi bir usul topingki, ham qadimgi ilmlar, ham yangi fanlarni kamoli osoyish bilan o‘n ikki yil davomida o‘n sakkiz yoshda xatm qilib, undan so‘ng islom muhofazasining asbobini hozirlamoqqa kirishing. Demak, sobit bo‘ldiki, usuli jadida shunga ko‘ra bid’ati hasanadir va joizdir, lozim va vojib hamdir” [11, 90].

XX asrning 20-30 yillari o‘zbek ziyolilari uchun juda og‘ir davrlar bo‘ldi. Bir tomondan, o‘zbek milliy madaniyati va san’atiga Rossiya mustamlakachilari tarafidan shakllantirilgan siyosat sovet mustabid tuzumi davrida yangi mazmun va shakllarda davom ettirildi. Madaniyat va san’atdagi har bir harakat, jadidlar faoliyatidagi barcha o‘zgarishlar ta’qib ostiga olindi. Barcha yangi asarlar sovet davlatining g‘oyaviy-mafkuraviy mezonlari asosida o‘lchana boshlandi. Milliy madaniyatning eng oddiy, sodda ko‘rinishlari ham, agar u “sinfiylik”, “partiyaviylik” tamoyillariga mos kelmasa reaksion harakat sifatida baholandi.

Masalaning yana bir muhim jihati bor edi. Bu mahalliy aholining siyosiy qarashlari, madaniy-ma’rifiy bilim saviyalari bilan bog‘liq edi. Jadid bobolarimiz qayd etganlari kabi, xalqimizning muayyan qismi hali jamiyatda bo‘layotgan tub o‘zgarishlar mohiyatini yaxshi tushunmas, ko‘proq mutaassib din peshvolarining yo‘q-yo‘riqlariga quloq tutar edilar. Shuning uchun ham jadid mutafakkirlari asosiy e’tiborni xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga qaratdilar. Milliy taraqqiyot faqatgina millat ziyolilarining xohish-istaklari bilangina amalga oshmasligi jadidlarga ma’lum edi.

Yana bir muhim masala bor ediki, bu milliy madaniyat, shuningdek, jahon madaniyati durdonalaridan bahramand bo‘lish masalasi edi. Savodi kam, siyosiy madaniyatni oshirishga ehtiyoji bor xalqni zamonaviy madaniyatga jalb etish ham juda og‘ir edi. Bir tarafdan, avom xalqning ma’naviy olamidagi bo‘shliqlar, boshqa tarafdan har qanday yangilik va madaniyat ko‘rinishlarini “bid’at” sifatida qoralab turgan eskilik tarafdorlari changalidan oddiy kishilarni qutqarishning o‘zi bo‘lmasdi.

O‘tgan asrning 20-yillari O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy hayoti juda tahlikali bo‘lganini, bu borada jiddiy kurashlar ketganligini ta’kidlash lozim. Bir tomondan sovet mustabid tuzumi maddohlari milliy madaniyatlarga qarshi kurashni kuchaytirib yubordilar. Ular o‘z siyosiy hokimiyatlarining dastlabki kunlaridanoq yagona maqsadga yo‘naltirilgan “sovet madaniyati”ni yaratishga bel bog‘ladilar. Bunday madaniyat hech qanday milliy madaniyatni tan olmas, milliy qadriyatlar, ayniqsa diniy qadriyatlarni nazar-pisand etmas, iloji boricha rus madaniyati atrofida siyosiylashgan, mafkuralashgan yangi madaniyatni yaratishni maqsad qildilar.

Boshqa tarafdan, mahalliy boylar-amaldorlar, din peshvolari, aholining mutaassib e’tiqodga ega qismi har qanday yangilikka qarshi turar, jamiyatni isloh etishga tish-tirnog‘i bilan qarshi kurashar edilar. Yangi maktab, yangi madaniyat, yangi turmush, yangi hayot degan tushunchalarni “g‘ayridiniy” e’tiqod sifatida tushundilar.

Shu o‘rinda o‘tgan asrning boshlarida Turkiston ma’rifatparvarlik harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo‘lgan Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining (1883-1942-yillar. Uning taqdiri ham juda fojiali kechdi. 1929-yilda boshlangan qatag‘onda birinchilardan bo‘lib qamaldi. 1932-yilda ozod etildi. Biroq, qo‘shimcha

ma'lumotlar asosida 1938-yili yana qamoqqa olindi. 1942-yilda Solikamsk qamoq lagerida olamdan o'tdi) Vatan, millat yo'lidagi kurashlarini ham eslab o'tish lozim.

U millatni madaniyat, ilm-fan va ta'limgina qutqarish kerakligini, xalqni g'aflat uyqusidan tezroq uyg'otish lozimligini takror-takror ta'kidlaydi. Shu o'rinda uning "Yurt qayg'usi" (Turkiston fig'oni) maqolasidagi quyidagi fikrlarni bayon etishni lozim ko'rdik: "Oh! Qanday baxtiqaro ekanman, nechuk tolesiz ekanmanki, bu kunda manim qo'shnilarim intiboh azonin eshitib uyg'ongan va o'z saodatlari sari yugurmoqda bo'lg'on holda, manim baxtsiz avlodim bir-birlari ilan nifoq va adovat kuchi bilan talashib, yoqalashib, oxiri horib, kuchsizlanib jaholat to'shaginda hanuz uxlamoqda va jonsiz kabi hanuz yotmoqdalar.

Ay turkistonli turk o'g'lonlarim! Endi turingiz! Jaholat uyqusindan uyg'oningizki, kichik qiyomat qo'pdi! Agar bu choqda ham uyg'onmay o'zingizni asorat kishaningizdan, yoqangizni jaholat changalidan, yurtingizni dushmanlar tirnog'idan ajratib qutulmasangiz, so'ngra buyuk qiyomatda sizlarga tamug' erindan boshqa yurt berilmas, zaqqum oshindan bo'lak emak edirilmaski, rasvoi olam bo'lursiz.

Ay turk bolalarim, uyg'oningiz! Uyg'oningiz! Mana, boqingiz, kichik qiyomat bo'lib qoldi. Har kimsaning nomai a'moli o'z qo'lig'a berildi; "A'mol" tarozusi ham qurildi. Mana qarangiz! "A'mali solih"i ortuq kelgan millatlar shodliq bilan uchmox, saodat sari chopmoqda. Ammo yomon amali ortqon qavmlar "sirot" ko'prikidan o'tolmay, tamut sari tushmakda va yiqilmoqdadirlar" [12, 79].

Bunday chaqiriqlar milliy ziyolilar, millatparvar va vatanparvarlarni bir ovozdan yangi hayot, yangi madaniyat uchun kurashga boshladi. Shu ma'noda XX asrning 20-30-yillarini yangi madaniyat uchun kurash yillari deyish mumkin. Aniqroq aytadigan bo'lsak, bu davr o'zbek jamiyatida madaniyat sohasidagi to'g'ri yo'lni tanlab olish, uning asosiy maqsadi, bosh g'oyasini aniqlab olish lozim edi. Shuning uchun ham barcha jadid bobolarimiz o'z faoliyatida ilm-fan va ta'lim bilan bab-barobar madaniyat masalasiga ham katta e'tibor bera boshladilar.

Jadid bobolarimiz eng avvalo oddiy xalqni zamonaviy madaniyat, xususan, teatr, kino kabi yangi ma'naviyat maskanlariga jalb qilishni, ularni o'qish-yozish, kitobga oshno qilishni o'z faoliyatlarining ustuvor yo'nalishi, deb bildilar. Shu asnoda xalqni uyg'otish kerak edi.

O'sha davrdagi mazkur holatni tahlil qilar ekan, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Alixonto'ra Sog'uniy Vatan bolalarining madaniyat haqida tushunchalarini kengaytirish maqsadida shunday, deb yozadi: "Shuni bilishlari kerakki, madaniyat demak nimadan iborat bo'lib, qanday bo'lishi kerak. Mana bu so'zning haqiqati bilan javobiga kim tushunar ekan, asl tuzuk madaniyatni ziyondosh, buzuq madaniyatdan ajrata oladi. Agar madaniyat deb ko'rinishda obodon, haqiqatda xarob, shu dinsizlar, odob-axloqsizlar madaniyatini aytadigan bo'lsak, ulug' xato qilgan bo'lamiz. Chunki dunyodagi borliq narsalar inson turmushiga yordam etkazish uchun yaratilmishdir. Buzuq madaniyatda esa, aksincha, insonlar ul narsalar uchun qurbon qilinadi. Madaniyat taraqqiyotning ilgari-keyin chiqarayotgan butun yangiliklari inson hayotini yaxshilash uchun xizmat qilishi lozimdir. Hayot olamida eng ulug', oliy darajalik narsa – shubhasiz shu insondir.

Shuning uchun inson huquqlarini eng yuqori darajada saqlash haqiqiy madaniyatning ajralmas bir tarmog‘idir” [13, 63].

XX asr 20-yillari ikkinchi yarmidan, ayniqsa 30-yillardan boshlab vaziyat o‘zgara boshladi. Sovet mustabid tuzumi Oktyabr to‘ntarishi amalga oshirilishi bilan barcha millat va elatlarga o‘z milliy madaniyatlarini erkin rivojlantirishga imkon berishini va’da qilgan bo‘lsalar-da, bu va’dalar tezlikda unutila boshlandi.

Turli yo‘llar bilan bo‘lsada sovet davlati tarkibiga kirgan milliy respublikalar va xalqlar o‘rtasida nizo-adovat urug‘ini sepa boshladilar. Ruslashtirish siyosatini keng ko‘lamda amalga oshirish maqsadida majburan sovet davlatiga birlashtirilgan xalqlarning millatparvarlik, yurtsevarlik tuyg‘usini o‘ldirish jarayoni boshladi. Milliy madaniyat, san’at, milliy qadriyatlar, urf-odatlarni eskilik qoldig‘i, “feodalizm sarqiti” deb e’lon qilinishi pirovardida ruslardan boshqa barcha xalqlarning milliy o‘zligini ular ijtimoiy ongidan o‘chirib tashlashdan iborat ishlar boshlandi.

Eng yomoni, yuqorida qayd etganimiz kabi, boshqa xalqlar qatori, Turkiston o‘lkasi xalqlarini o‘z tarixi va madaniyatidan ayirish siyosati kuchaydi. Biz kitobning avvalgi fasllarida o‘lka madaniy boyliklarining yovuzlarcha tashib ketilgani haqida keng ma’lumotlar bergan edik. Bu jarayon sovet mustabid tuzumi davrida ham aslo to‘xtamadi. Mustamlakachilar tomonidan tashkil etilgan turli jamiyatlar, olimlar niqobi ostida kelgan josuslar tomonidan to‘plangan moddiy va madaniy boyliklar, yodgorliklar Moskva, Sankt-Peterburg shaharlaridagi muzeylar, ilmiy muassasalarga jo‘natildi, ko‘plari xorij davlatlariga sotib yuborildi.

Birgina havaskor arxeolog J.Kastane Turkistonda juda katta madaniy boyliklarni to‘pladi. Bu boyliklarning katta qismi Ermitajga, 500 ta buyum Turkiston muzeyiga topshirildi. Madaniy boyliklarning eng saralarini esa o‘zi bilan Parijga olib ketdi [14, 156].

Moskva va Peterburg muzeylarini to‘ldirish ishlari ayniqsa juda jadallik bilan olib borildi. Masalan, sobiq SSSR FAga qarashli Atropologiya va etnografiya muzeyini Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston, o‘zbek xalqi madaniy boyliklari hisobiga to‘ldirishga alohida e’tibor berildi. 1924-yilda muzeyga 514-xildagi noyob yodgorliklar, 1927-yilda 203-buyumdan iborat o‘zbek xalqi hayot tarziga oid etnografik yodgorliklar tashib ketildi. Keyinchalik, etnograf A.K.Pistarchuk tomonidan Farg‘ona va Toshkent madaniy hayotiga doir 300-ga yaqin nodir buyumlar olib ketildi.

Peterburgdagi “SSSR xalqlari etnografiyasi” muzeyiga esa, S.M.Dudin tomonidan 8-yil muttasil ravishda 4000-dan ortiq osori atiqalar “tortiq qilindi”. Moskvadagi Sharq madaniyati muzeyi ham 1918-yilda Markaziy Osiyodan olib ketilgan yodgorliklar asosida tashkil etilgan muassasa hisoblanadi. Bu muzey fondi doimiy ravishda to‘ldirib turildi va 1000-dan ortiq eksponatlarga ega bo‘lib, ko‘pi zargarlik buyumlaridan iborat edi. Moskvadagi tarix muzeyi ham Markaziy Osiyodan keltirilgan mingga yaqin eksponatlar bilan to‘ldirilgan edi[15, 398-399].

Jadid mutafakkirlari bu yovuzliklarini ko‘rmasliklari mumkin emasdi. Chunki, bu talon-tarojlik aynan ularning ko‘z oldilarida bo‘layotgan edi. Qolaversa, bu davrda O‘zbekiston madaniyati, ayniqsa, uning moddiy ko‘rinishlari ham katta zarar ko‘rdi. Tarixiy-madaniy obidalar qarovsiz qoldiriladigan bo‘ldi. Ko‘plab

madaniyat maskanlari boshqa maqsadlarda foydalanila boshlandi. Oqibatda milliy madaniyatimiz katta zarar ko‘ra boshladi. Jadid bobolarimiz bunday ochiq istilochilik siyosatiga qarshi chiqa boshladilar.

Sovetlar o‘z “qaramog‘idagi” xalqlarni o‘z mafkurviy tuzog‘iga ilintirish maqsadida o‘tgan asrning 20-yillari birinchi yarmida “madaniy inqilob” nazariyasini ishlab chiqadilar. Uning natijasida jamiyatning barcha jabhalari, ayniqsa, madaniyat, ilm-fan, ta’lim sohalari o‘ta mafkuralashtirildi. Bu borada sovet mafkurasining negizida “sinfiy kurash” g‘oyasi yotar edi. O‘zgacha fikrlashga bo‘lgan har qanday urinish “sinfiy dushman qarshiligi” deb baholandi. Go‘yo, “sinfiy dushman” ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, ta’limda, madaniyat, san’at, ilm-fan, ishlab chiqarishda mavjud bo‘lib, uni qidirib topish, barchani shubha ostiga olish odat tusiga kirib bordi.

Leninning “madaniy inqilob” nazariyasi eng avvalo sotsializmga sodiq milliy ziyoli kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor berishni talab etar edi. Bunday kadrlarni tayyorlashda sinfiy jihatdan ishonchli, aholining “mehnatkash” tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olish kerak, degan g‘oya ilgari surildi. Chunki, avvaldan yaxshi ma’lumki, aqliy va mantiqiy mushohada etish darajasi qancha past bo‘lsa, savollar ham, noroziliklar ham shuncha kam bo‘ladi. Shuning uchun ham madaniyat xodimlarining tarkibini ijtimoiy jihatdan ishonchli bo‘lgan “mehnatkashlar” hisobiga soddalashtirish, ular orasidagi eng zakovatli va omilkor qatlamni siqib chiqarish maqsad qilib qo‘yildi. Bu “madaniy inqilob”ning asosiy tezislaridan biri bo‘lib, “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat”ni vujudga keltirish lozim edi. Bu g‘oya sovet davlatining barcha o‘n yilliklari davomida yashab keldi.

Mazkur g‘oya talabiga javob bermagan har qanday madaniyat va san’at asari ta’qiq qilindi, ularning mualliflari esa qatag‘on qilina boshlandi. Qatag‘on siyosati sovet davlatining barcha davrlarida, ba’zan o‘ta kuchli, ayrim hollarda sezilar-sezilmas vaziyatda davom etdi. Ammo, qatag‘on siyosatining eng kuchaygan bosqichlari sifatida o‘tgan asrning 20- yillari ikkinchi yarmini, 1937-1938-yillarni, 50-yillarning boshlarini, 80-yillarning o‘rtalarini ko‘rsatish mumkin.

Qatag‘on siyosati sovet mafkurachilari tomonidan atayin o‘ylab topilgan siyosiy o‘yin bo‘lib, undan ko‘zlangan maqsad sovet davlatining g‘oyaviy asoslarini mustahkamlash, mazkur hokimiyatga qarshi har qanday harakatlarni yo‘qqa chiqarish, turli millat va xalqlarning milliy o‘zligini yo‘qotish, shular asosida davlatning ijimoiy-siyosiy, mafkuraviy nufuzini oshirishdan iborat edi.

Shu ma’noda quyida qatag‘on siyosati eng yuqori cho‘qqiga chiqqan 1937-1938 yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan misli ko‘rilmagan xunrezliklar haqida to‘xtalib o‘tishni joiz, deb topdik. Tarixining qora dog‘lari, bu shubhasiz, O‘zbekistondagi 1937-1938-yillarda o‘tkazilgan “Katta terror”, “Katta qirg‘in”, “Quloqlar operatsiyasi” deb nomlangan sovetlarning mudhish qatag‘on siyosatidir.

Bu og‘ir ko‘rguliklarning boshlanishiga o‘sha davr Kompartiyasi Siyosiy byurosining 1937-yil 2-iyuldagi “Sovetlarga qarshi unsurlar to‘g‘risida”gi qarori turtki berdi. Shunday qilib, sobiq ittifoq Ichki ishlar Xalq komissari, “temir narkom” nomini olgan N.Ejov tomonidan 1937-yil 30-iyulda “sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni qatag‘on qilish operatsiyasi to‘g‘risida”gi

00447-sonli mutlaqo maxfiy va operativ buyrug‘i qabul qilindi. Bu buyruq qatag‘onning ommaviy tus olishida bosh omil bo‘ldi. Unga binoan, 1937-yil 10 avgustdan to 1938-yil 1 yanvarigacha bo‘lgan vaqtda jami 10 ming 700 kishi qamoqqa olinib, ulardan 3613-nafari 1-toifa bo‘yicha otishga, 7087-kishi 2-toifa bo‘yicha 8-10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan.

1938-yil 28-martda Siyosiy byuro a’zolari I.Stalin, V.Molotov, L.Kagonovich, A.Jdanov, K.Voroshilovlar imzosi bilan Oliy sud Harbiy kollegiyasiga ishlarini ko‘rib chiqish uchun 165-kishining ro‘yxati taqdim etilgan. Bu ro‘yxatdagi o‘zbek ziyolilari elitasi bo‘lgan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon, Usmonxon Eshonxo‘jaev, Rahim Inog‘omov, Komiljon Alimov, Isroil Ortiqov, Karim Boltaev, Abdulla Karimov, Ramzi Mannon, Usmon Nosirov, Elbek Yunusovlar oliy jazoga hukm etilgan va shu kunning o‘zidayoq otib tashlangan. Umumiy hisobda jami 155-kishi otishga, 10 kishi qamoq jazosiga hukm etilgan.

“Katta qirg‘in” yillarida markaziy hukumatning jazo organlari va uning respublikadagi “nazoratchilari” O‘zbekistonda yirik aksilinqilobiy tuzulmalarni “fosh etdilar” va “tugatdilar”. Bular quyidagilardan iborat edi: respublika rahbarlari Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jaev boshchiligidagi “Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi”, Abdurauf Qoriev rahbarligidagi “Musulmon ruhoniylarining millatchi-isyonchi tashkiloti”, “Aksilinqilobiy o‘ng troskiychi jasuslar tashkiloti markazi”, S.Xo‘janov boshchiligidagi “Aksilinqilobiy millatchi qozoqlar tashkiloti”, “Buxoro va Turkiston baxt-saodati” nomli sovetlarga qarshi aksilinqilobiy tashkilot, respublika komsomoli MK kotibi I.Ortiqov rahbarligida “Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti”, “Uyg‘urlarning aksilinqilobiy josuslik-isyonchilik tashkiloti” va boshqalar[17, 323].

Shu narsa ma’lumki, qatag‘on siyosati eng avvalo o‘zbek xalqining ziyolilari – o‘qituvchilari, olimlari , madaniyat va san’at arboblariga qarshi qaratilgan edi. Buning o‘z sabablari mavjud edi, zero, ziyolilar millatni uyg‘otishi, tarbiyalashi, xalqni milliy o‘zlikni anglashga undashi, jamiyat a’zolarida tarixiy xotirani tiklashga chorlashi mumkin edi. Shuning uchun ham, qatag‘on yillarida millat manfaatini, ozodlik, hurlikni tarannum etgan har bir shaxsga nisbatan turli bo‘xtonlar uyushtirilar va ular yo‘q qilib yuborilar edi. “Qosimovchilik”, “O‘n sakkizlar guruhi”, “Inog‘omovchilik” kabi uydirmalar aynan shu maqsadlarda tashkil etilgan edi.

Ta’kidlash lozimki, har qanday milliylik uchun harakat “aksilinqilobiy josuslik” sifatida baholandi. Masalan, 1931-yilda Samarqand shahridagi Pedagogika akademiyasiga direktor etib tayinlangan Q.Abdullaev ushbu oliy o‘quv yurtini universitetga aylantirish haqidagi o‘z taklifi bilan yuqori idoralarga murojaat qiladi. Universitetda o‘quv va ilmiy ishlarni o‘zbek tilida olib borish, o‘qitish jarayonida mahalliy xalqning ajdodlari merosidan foydalanish, oliy ta’lim muassasalarida dars berayotgan mahalliy millat vakillariga ilmiy unvonlar berish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatadi. Ammo, uning sa’y-harakatlari mavjud tuzum tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi va bu harakatlarga yo‘l berilmadi.

O‘zbekistonning yirik tarixchi olimlaridan B.Soliev ham Vatan, millat tarixini o‘rganishga, tarix fanining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan ziyolilardan

hisoblanadi. “O‘rta Osiyo tarixi”, “Buxoro tarixi”, “Mang‘itlar saltanati davrida Buxoro o‘lkasi”, “O‘zbekiston tarixi: XV-XIX asrning yarmi” kabi asarlar, ko‘plab ilmiy maqolalar muallifi bo‘lgan B.Solievning xalqning milliy o‘zligini anglash, tarixiy xotirani tiklash yo‘lidagi bu harakatlari uni “xalq dushmani”, deb atashga asos bo‘ldi. U qatag‘on qurboni bo‘ldi [18, 86].

O‘sha yillarda oliy o‘quv yurtlari talabalarining “siyosiy tozaligi”ni tekshiruvchi “Oliy o‘quv yurtlarini tozalash bo‘yicha maxsus markaziy komissiya” faoliyat ko‘rsatgan. Har bir oliy o‘quv yurtida mazkur komissiyaning bo‘limlari kelib chiqishi mehnatkash bo‘lmagan, mulkdor sinfga taalluqli bo‘lgan talabalarni “fosh” etish va ularni institut, universitetlardan chetlashtirish kabi vazifalarni bajarganlar [19, 24].

Shuni alohida qayd etish lozimki, ziyolilarni, jadid harakati ishtirokchilarini qatag‘on va qatl etish millatning o‘zligini anlash jarayonini yo‘q qilishga qaratilgan edi. 1936-yilning oxiridan 1940-yilgacha respublika bo‘yicha 5758-nafar ziyoli-yozuvchi, olimlar, rahbarlar, madaniyat va san’at arboblari qamoqqa olindi. Ularning 4811 nafari otib tashlandi [20, 40]. 1937-1939-yillarda jami 41-ming kishi qamaldi. Ularning 37 ming nafari jazolandi, 6920 nafari otib tashlandi. Umuman, 1937-1953-yillar davomida birgina O‘zbekistonning o‘zida 100 ming ziyoli, rahbarlar, oddiy odamlar qatag‘on qilindi, ularning 15 minggi otib tashlandi.

XX asrning 20-30-yillarida sovet davlatining jadidlarni ta’qib etish va ularni ommaviy ravishda qatag‘on qilish siyosati mustabid tuzumning deyarli barcha davrlarida davom etdi. Qatag‘on siyosatining yana bir kuchli bosqichi o‘tgan asrning 50- yillari boshidan boshlandi. Aslida o‘sha paytda O‘zbekiston badiiy va ilmiy ziyolilarini ta’qib qilinishi SSSRda hukm surgan mustabid tuzumning o‘zboshimchaligi va zo‘ravonligining haqiqiy ko‘rinishi edi. Bu tuzum o‘zining oxirgi yillarini yashayotgan stalinizmning eng qabih ifodasi, uning boshqa fikrlovchilarga nisbatan qilgan ommaviy qatag‘onlari bo‘ldi. Boshqacha fikrlovchilarning respublikadagi vakillari sifatida o‘z xalqining manfaatlarini aks ettiruvchi, o‘zbek xalqining ma’naviy merosini, uning tili, madaniyati, asriy urf-odatlari va an’analarini saqlash uchun murosasiz kurash olib boruvchi milliy ziyolilar maydonga chiqdi. Ularning vatanparvarlik kayfiyatidagi ko‘plab vakillari o‘z e’tiqodlari uchun mustabid tuzum yillarida o‘z ozodligi, baxti va hatto hayotlari bilan tavon to‘ladilar.

O‘zbekiston madaniyati tarixida, ziyolilarni qatag‘on qilish borasidagi eng mudhish davrlardan biri sifatida o‘tgan asrning 50-yillari, jumladan, 1952-yilning 20-22-fevral kunlari bo‘lib o‘tgan O‘z KP (b) Markaziy Qo‘mitasining 10-plenumini eslash kerak, deb o‘ylaymiz. Plenumda “Respublika mafkura ishining ahvoli va uni yaxshilash choralari to‘g‘risida”gi masala ko‘rildi, muhokama qilindi.

O‘sha davrdagi O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining sarkotibi A.E.Niyozovning ma’ruzasida respublikada “adabiyotchi xodimlar orasida sovetlarga qarshi millatchilik kayfiyati kuchayib ketganligi” ta’kidlandi. Qayd etilishicha, “O‘zbekistonda shakllangan “millatchi guruh” davlatga qarshi dushmanlik ishini olib borgan. Bu guruh qatnashchilari ilgari fosh qilingan millatchilar bilan yaqin aloqada bo‘lganlar, tushkunlik ruhidagi va mafkuraviy jihatdan zararli mazmundagi she’rlarni targ‘ib etganlar, millatchilarning sovetlarga

qarshi asarlarini ommalashtirganlar. Bu va shunga o‘xshash millatchi unsurlarning maqsadi O‘zbekistonni SSSR dan zo‘rlik bilan ajratib olishdir”.

Ma’ruzada Turob To‘la “qo‘pol millatchilik xatolari”ga yo‘l qo‘yganlikda, Temur Fattoh “milliy mahdudlik”da, Oybek “jiddiy mafkuraviy aynish”da, M.Shayxzoda “o‘tmishni ideallashtirishda, tarixiy shaxslarni noto‘g‘ri tasvirlash”da, ularning hammalari birgalikda “burjua-millatchilik qarashlarining namoyon bo‘lishi”da ayblandilar.

Plenumdagi “fosh qiluvchanlik” o‘zbek ilmiy ziyolilariga ham keng suratda tegib o‘tdi. Ma’ruzada V.Zohidovning asarlariga “jiddiy burjua-millatchilik xatolari” to‘nkaldi, A.X.Boboxo‘jaev panturkizmni targ‘ib qilishda, iqtisodchi O.Aminov esa burjua millatchilari bilan aloqada bo‘lganlikda ayblandilar. Plenum qatnashchilaridan ko‘plarining nutqlari, shuningdek, muhokama etilgan masala yuzasidan qabul qilingan qaror respublikaning badiiy ziyolilari, olimlarini badnom qilish ruhi bilan sug‘orilgan edi. Qarorda olim va adiblardan Oybek, O.Aminov, A.T.Boboxo‘jaev, V.Yu.Zohidov “siyosiy va ishchanlik xislatlariga ko‘ra o‘z vazifalariga mos kelmaydigan” shaxslar sifatida qoralandi. Turob To‘la, M.Shayxzodaning e’lon qilingan she’rlari va qo‘shiqlari “g‘oyasiz va qabih” deb e’tirof etildi [21, 514].

Huddi shunga o‘xshash misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Yuqorida qayd etganimiz kabi, sovet davlatining har bir bosqichi milliy ziyolilarni “turtib turish”, “tergab turish”, lozim bo‘lganda ularni jazolab turishdan iborat bo‘ldi.

Shu o‘rinda bir masalaga e’tibor qaratishni lozim topdim. Biz kitobning avvalgi fasllarda Markaziy Osiyoda yuz bergan, shakllangan Birinchi va Ikkinchi Renessanslar to‘g‘risida muayyan ma’noda gaplashgan edik. Biz mazkur fenomen hodisalar bilan haqli ravishda faxrlana olamiz. Bu bizning buyuk tariximiz. Ayni paytda, milliy tariximizning XIX asr oxirlari, XX asr boshlarida, asrning 30-yillarigacha yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish imkoniyati borligini esga olishimiz kerak.

Darhaqiqat, ushbu davrda jadid bobolarimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish imkoniyati tug‘ilgan edi. Jadidlar mudroq xalqni uyg‘otish, milliy madaniyat, ta’lim-tarbiyani takomillashtirish, ilm-fanning yangi marralariga erishish orqali jamiyatni rivojlantirish, uni dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari qatoriga qo‘shish mumkinligini ongli ravishda anglab etgan edilar. Turli maqsadlarda xorijiy davlatlarga borib kelgan, ma’rifatli dunyoning afzalliklaridan boxabar bo‘lgan ma’rifatparvarlar ilm-fan, ta’lim va madaniyat asosida uxlayotgan omma va davlatni uyg‘otish mumkinligini isbotlashga harakat qildilar.

Ammo, mustabid tuzum buni aslo istamas edi. Biz yuqorida misollar bilan isbotlashga urinib ko‘rgan qatag‘on siyosati aslida jadid harakati, milliy ziyolilarning mudroq xalqni uyg‘otishdan xavfsirash natijasida sovet mustabid tuzumi siyosati tomonidan o‘ylab topilgan va amalga oshirilgan mudhish amaliyot edi. Ayni paytda Uchinchi Renessansning amalga oshirilishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatgan omillardan yana biri – millatning birlashmaganligi, arxaik-konservativ tafakkur tarzining kuchliligi, odamlarimizning muayyan qismida yangilik sari intilishning kamligi, o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan sog‘lom ehtiyojning yo‘qligida edi.

Bularning bari pirovard natijada sovet mustabid tuzumi sharoitida milliy taraqqiyotimizga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xalqimizning milliy o'zlikni anglash, uni shakllantirish yo'lidagi sa'y-harakatlariga putur etkazildi. Bu esa, taraqqiyotda boshqa ko'plab davlatlar va xalqlardan ortda qolishimizga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Alixonto'ra Sog'uniy. Turkiston qayg'usi. – Toshkent, "Sharq", 2003. Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2020. Yangi O'zbekiston", 2023 yil 1 avgust.
2. Is'hoqxon to'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2020.
3. Elbek. Tanlangan asarlar. – Toshkent, "Sharq", 1999.
4. Tavallo. Millat sadosi. – Toshkent, "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2015.
5. "Jadid" gazetasi, 2024-yil 12-yanvar.
6. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2020.
7. Botu. Tanlangan asarlar. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2020.
8. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2000.
9. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2010.
10. Alixonto'ra Sog'uniy. Turkiston qayg'usi. – Toshkent, "Sharq", 2003.
11. Gorjenina S. Strannыy arxeolog Kastane. – M., "Zvezda Vostoka", 1996, №3.
12. Tarix shohidligi va saboqlari. -Toshkent, "Sharq", 2001.
13. "Milliy tiklanish", 2021-yil 10-fevral.
14. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. – Toshkent, "Sharq", 2000.
15. Mavrulov A. Vatanni sevish mas'uliyati. -Toshkent, "Sano-standart", 2015. – 86-bet.
16. Abdurahmonova J. Sovet hokimiyatining ta'lim sohasidagi qatag'on siyosati. – Toshkent, 2002.
17. Uzoqov H. O'zbekistonda mustaqillik uchun kurash tarixi. (1900-1940 yillar). -Toshkent, 1996.
18. "Pravda Vostoka", 1991, 15 sentyabr.
19. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. – Toshkent, "Sharq", 2000.

Sayyora TO'YCHIYEVA,
Falsafa fanlari doktori, professor
O'zDSMI

JADIDLAR: MA'RIFIY-ILMIY QARASHLAR UYG'UNLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Vatan ozodligi, istiqloli yo'lida, millat savodxonligi uchun umrini baxshida etgan ma'rifatparvar ziyolilarimiz, avlodlarni erk va ozodlikka, ma'rifat va taraqqiyotga yetaklab "jadidlar" nomi bilan tarixga kirgan fidoyi vatandoshlarimiz faoliyatlari haqida fikr yuritiladi.*
Kalit so'zlar: *ozodlik, millat, jadidchilik, qadriyat, uyg'onish, matbuot, ma'rifatparvar, ziyolilarimiz, YangiO'zbekiston, millatparvarlar, adabiyot.*

Annonation. *In this article ,freedom of the Motherland,on the way to independence,our enlightened intellectuals who sacrificed their lives for the literacy of the nation ,we will reflect on the activities of our self-sacrificing compatriots who went down in history in the name of Jadids,leading generations to freedom ,enlightenment and development.*
Key words: *freedom,nation,jadidism,value,revival,press, enlightener, our intellectuals, New Uzbekistan, nationalists, literature.*

Qadimgilar "moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlidir" deydilar, zotan yurtimizning uch ming yillik tarixida Vatan va millat uchun qayg'urgan insonlarning boqiy faoliyatlarini bugungi yoshlarga ibrat qilmoq shunday xayrli amallardan hisoblanadi.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining etti yo'nalishida madaniy-ma'rifiy islohotlarning "Yo'l xaritalari" millatparvar, ma'rifatparvar, jadid bobolarimizning boy tarixlarini o'rganmoq borasidagi islohotlarning aks-sadosi sifatida ko'rsatiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, "...bizning insoniy qadr-qimmatimizni, g'urur va sha'nimizni, dinu diyonatimizni, milliy davlatchiligimizni tiklab bergan mustaqillik kuni Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo'lib qoladi" [7].

Jadidlar ta'limoti–o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Bu haqda filolog olim, professor Begali Qosimov Turkiston tarixining XX asr boshidagi eng muhim hodisahisoblangan jadidchilik harakatiga katta baho berdi: "Jadidchilikharakati millatni ham tarbiyalab bordi. Jadidlar millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab etdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar" [5].

Xalqimizning ma'rifatparvar farzandlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlari va ular qoldirgan ulkan ma'naviy-tarixiy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyaviy ta'limotni yoshlar ongiga qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo'lamiz.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, istiqlol g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, noshir, jurnalist edi. Jadidchilik harakatining taniqli namoyandalaridan biri, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yilning 30-yanvarida Samarqandda tug'ildi. U tog'asi Muhammad Siddiq yordamida xat-savodini chiqardi. Eski maktab-madrasada o'qidi.

Arab tilini o‘rgandi. Qozixonalarda mirzalik, qozilik vazifalarida ishladi. 1893-1900-yillarda Yaqin Sharq mamlakatlariga, jumladan, Makkaga haj safariga boradi.

1903-1904-yillarda Moskva, Peterburg, keyinroq Qozon, Ufa shaharlarida bo‘lib, ta’lim-tarbiya maskanlari bilan tanishadi. 1914-yilda Arabiston, Misr, Turkiya kabi bir qator mamlakatlarda bo‘ladi. Behbudiy o‘z davrining yirik allomalaridan biri, muftiy bo‘lishiga qaramay, hamisha bid’at va xurofotga qarshi kurash olib bordi, o‘z asarlarida islom dinining asl mohiyatini to‘g‘ri tushunish lozimligini uqtirdi, milliy masalaga keng e’tibor berdi. Behbudiyning Turkistonda yangi usuldagi maktablarni tashkil etishdagi va jadidchilik g‘oyalarini matbuot orqali targ‘ib qilishdagi xizmatlari g‘oyat katta. U 1903-1904 yillarda o‘zbek va tojik tillarida “Qisqacha umumiy geografiya” asarini, yangi usuldagi maktablar uchun darslik va qo‘llanmalarni yozdi. “Behbudiy” nomli nashriyotni tashkil etib, unda o‘zbek tilida darsliklar bosib chiqardi.

Buyuk Shekspirning “Hayot –sahna har bir inson unda o‘z rolini o‘ynaydi” degan gapi bor. Sahnada ko‘rsatilgan quvonchu kamchiliklar insonni to‘g‘ri yo‘lga solishga xizmat qiladi, xatodan saboq, yutuqdan shukronalik fazilatini beradi. “Teatr bu ibratxonadir” hikmatiga amal qilgan alloma o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib, “Padarkush” (1913) asarini, ya’ni muallifning fikriga ko‘ra “Milliy fojea” deb atagan 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda asar o‘sha davrning katta ijtimoiy voqeasiga aylandi. Cho‘ntagida puli bo‘la turib, xat-savod chiqarmagan, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani, nodonlik va jaholat pand bergani haqidagi drama Samarqandu Farg‘ona vodiysi aholisiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatdi. 1914-yilning 15-yanvarida Samarqandda, Avloniyning “Turon” teatr truppasi tomonidan Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida namoyish qilinadi. Boy rolini Abdulla Avloniy ijro etadi. O‘z maishatiga o‘ralib, dunyoni unutgan millatdoshlarga mazkur spektal kuchli ta’sir ko‘rsatdi. «Padarkush» dramasida turkistonlik yoshlarni Ovro‘po ilmgohlarida o‘qitish g‘oyalariga ham duch kelish mumkin. Mazkur asar o‘z davrida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Mirmuhsin Fikriyning «Befarzand Ochildiboy», Hamza Hakimzodaning «Yangi saodat» kabi asarlarining yaratilishiga ham ta’sir ko‘rsatgan edi. Bu asarni Amerikaning Kaliforniya dorilfununida tarjima ham qilinib, sahnalashtirilganliginini yaxshi bilamiz.

Behbudiy milliy ma’naviyat va madaniyat, san’at va adabiyotni rivojlantirish, ayollarning teng huquqliligi, ruhoniylarning faoliyatini qayta tashkil etish, maktablarda milliy tilda o‘qitish, mamlakatning siyosiy tizimini isloh qilish uchun maqsadida 1913 yil “Samarqand” ro‘znomasini o‘zbek va tojik tillarida nashr etgani, «Oyna» jurnali chiqara boshlagani, haftalik, suratli bu jurnal asosan o‘zbekcha bo‘lib, she’r, maqola, e’lonlar ham berib borilgani va bu jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqalgani o‘sha davrlarda ma’rifatning o‘ziga xos hikmati, o‘ziga xos darsi edi.

Behbudiy “Nashriyoti Behbudiya” atalmish xususiy nashriyotida Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini rus tiliga tarjima qildirib 1913-yilda nashr ettirgani, maqolalarida millat va uning haq-huquqlari, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgani kata voqea sanalgan.

Behbudiy millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo‘ldi. Shuning uchun ham tarixga alohida e’tibor berdi. Umuman Behbudiyning publitsist sifatida faoliyati adib iste’dodini juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o‘z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko‘proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Uning maqolalari 300 dan ortiq. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avval, mana shu maqolalarida aks etgan edi. Bu jihatdan, uning 1906-yil 10-oktyabrda «Xurshid» (6-son) gazetasida bosilgan «Xayrul umuri avsotuho» («Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidur») maqolasi diqqatga sazovordir. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarix fani nuqtai nazaridan baholanib, Behbudiyni qoralash uchun nishon bo‘lib keldi. Gap shundaki, Behbudiy o‘sha 1906-yildayoq sotsialistik ta’limotni va uni Rusiyada amalga oshirishga bel bog‘lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan edi. U hamustozi I. Gasprinskiykabisotsializmni zo‘ravonlikhisoblaydi, sotsial tenglikni adolatsizlik deb bildi. Shaxs manfaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini ko‘rdi. Xuddi shu e’tiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga etakladi.

Samarqandda mahalliy aholi uchun qiroatxona ochishga boshchilik qildi. Behbudiy 1913-yilning aprelida “Samarqand” gazetasini, o‘sha yilning avgust oyidan boshlab esa “Oyna” gazetasini chiqarishga kirishdi. U millat taraqqiyoti va istiqboli, Turkistonning kelajagi haqida o‘ylar ekan, xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog‘idan qutqarib olishning birdan bir yo‘li ilm-ma’rifatli bo‘lishdir, degan xulosaga keldi [6].

Ushbu tarixiy davrda yashagan olim M.Behbudiy va A.Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning milliy taraqqiyot uchun avvalo, dunyo tajribasini o‘rganmoq darkor deb, zamona yoshlarini ilm-ma’rifatga, chet tillarni puxta egallashga chaqirgani, ularning asarlarida aks etadi [2]. Biroq, bu davrda o‘ziga xos yo‘nalish sifatida maydonga kelgan ma’rifatparvarlik harakati mazkur masalada yangilik kiritishga urindi. Ularning asarlarida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj asoslandi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat va ularning boshqa safdoshlari o‘zlarining serqirra faoliyatida til o‘rganish masalasini ilgari surdilar. Behbudiy o‘zi asos solgan va muharrirlik qilgan “Oyina”jurnalining 1913-yil 13-avgust 1-sonida [3] kamida 4 tilni bilish lozim, degan g‘oyani ilgari surdi. Shuningdek, faoliyati davomida jurnalni to‘rt tilda nomlagani ham chet tillarni bilish va egallash favqulotda zarurligidan dalolat beradi. M.Behbudiy bu masalada shaxsan o‘zi ibrat bo‘lgan.

Davriy matbuot sahifalarida zamonasining dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-adabiy maqolalari bilan faol ishtirok etdi. Behbudiyning 1915-yildan boshlab, Rossiya, Turkiya, Turkiston matbuotida 300 ga yaqin maqolasi, 13 ta darslik, badiiy va tarjima asarlari e’lon qilingan. Ushbu maqolalarning asosini ta’lim-tarbiya, madaniyat, ma’rifatparvarlik g‘oyalari tashkil etadi. 1913-yilda u Samarqandda ma’rifat, madaniyat, millat va ozodlik g‘oyalarini targ‘ib etadigan “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini nashr etdi. 1911-yili “Padarkush” nomli birinchi o‘zbek dramasini yaratdi. Behbudiy yangi usuldagi maktablarning ilk

targ‘ibotchisi va asoschilaridan biri, shuningdek, ana shu maktablar uchun darsliklar yaratgan yirik ma’rifatparvardir. Behbudiy 1917-yilgi fevral inqilobi va oktyabr to‘ntarishidan keyin Turkistonning mustaqil va ozod bo‘lishi uchun tinimsiz kurashdi va bu ulug‘ maqsad yo‘lida o‘z jonini fido qildi. U Turkistonda milliy davlat qurish g‘oyasini ilgari surdi. O‘z xalqi taraqqiyotini ma’rifatda, uning siyosiy maqomi yuksalishida, milliy mustaqillikni qo‘lga kiritishida deb bildi. Uning “Haq olinur, berilmas!” degan so‘zlari jadidlarning shioriga aylandi. U Turkiston Muxtoriyatini olqishladi, hukumat a’zoligiga saylandi. Behbudiy o‘z vaqtida chor Rossiyasi va jahon siyosiy sahnasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatadi va vatanparvar inson sifatida Turkistonning kelajagi haqida chin dildan qayg‘uradi. U bor kuch-g‘ayratini millatni uyg‘otishga bag‘ishladi. Behbudiy publitsistik maqolalarida tarix faniga alohida urg‘u berib, “Moziy – istiqbolning tarozusidir”, degan edi.

“Biz o‘z qismatimizni bilamiz... agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz... Mumkin qadar ko‘proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq saodatini taminlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo‘ladi” (M.Behbudiyning qatl oldidan yozgan “vasiyatnoma”sidan).

Vatan taqdiri kun tartibiga qo‘yilgan 1917-yilning 16-23-aprelida Behbudiy Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan qurultoyida hayajonli nutq so‘zladi. Millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo‘lida birlashishga, ittifoq bo‘lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli «mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi.

Shu yili 26-noyabrida Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o‘tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e’lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo‘yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma’naviy otasi, shuhbasiz, Behbudiy edi. Biroq u Sovetlar tomonidan xoinona bostirildi. 19-20-fevral kunlari shahar to‘pga tutildi. 10 ming turkistonlik o‘ldirildi, 180 qishloqqa o‘t qo‘yildi.

Is’hoqxon Ibrat ilmiy asar va maqolalarida zamondoshlariga sharq tillari bilan bir qatorda g‘arb tillarini ham o‘rganishni targ‘ib etdi. Adibning o‘zi ham Sharq mamlakatlaridan tashqari Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida istiqomat qildi [4]**.** Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga kelgan. 1892-1896-yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombey va Kalkuttada yashab, bu erda ko‘p ishlatiladigan arbailisonni, ya’ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rganadi.

Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zbek xalqining milliy ozodlikka erishish yo‘lida faoliyat ko‘rsatgan pedagog, jurnalist, jamoat arbobidir. XX asr boshlarida o‘lkada yuz berayotgan voqealar tufayli xalqning ruhi tushib ketganini, ziyolilarning esa ma’naviy tanazzul tomon yuz o‘girganini ko‘rgan Munavvar qori bu holatlarning ijtimoiy ildizini tekshirishga urinadi. Ushbu urinish uning maktab va madrasa faoliyatini tamoman isloh qilish zarur degan xulosaga kelishiga turtki bo‘ldi. Munavvar qori maktab maorif islohoti, tom ma’nodagi milliy maktab yaratish niyatidan sira qaytmagan. Munavvar qori “*Usuli jadid”* “milliy maktab” asoschisi bo‘lib qolish bilan birga, chet elga bolalarni o‘qishga yuborish masalasini

ko‘tardi. Toshkentda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Munavvar qori, “o‘zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o‘qitishga juda muxtojmiz. Bolalar o‘qib, ilm tahsil qilib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar”, deb ma’ruza qilgan.

Fitrat asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-ma’rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o‘zligini tanishi, ongining o‘sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo‘lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o‘rganish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Abdurauf Fitrat asarlarida chor Rossiyasi tomonidan Turkiston zo‘rlab bosib olinib mustamlakaga aylantirilganligi, keskin qoralangan. U bu haqida o‘zining “Yurt qayg‘usi” she’riy to‘plamida “Ko‘rdim, yozdim, eshitdim, o‘qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir”, deb yozgan edi. Fitrat yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘ldan tarbiyalamasdan jamiyatni isloh qilish uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq, degan g‘oyani ilgari suradi:“har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo‘ladi”, deb yozadi u [1].

Yangi O‘zbekistonda tariximiz, eng avvalo o‘tgan buyuk siymolar, ajdodlarimiz, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Is’hoqxon Ibrat, Munavvar Qori to‘g‘risida badiiy filmlar yaratildi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulhamid Fitrat. Oila. – T.:Ma’naviyat, 2000. – B. 32-37.

2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov). – Toshkent. Ma’naviyat, 1997. – B 60. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild.–T.: Ma’naviyat. 2000. – B 256.

3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar // To‘plovchi, so‘zboshi va izohlar: B.Qosimov. – 2-nashri, tuzatilgan va to‘ldirilgan. – T.: Ma’naviyat, 1999. – B. 150.

4. Ibrat I. Tanlangan asarlar (Ibrat I. Siddiqiy-Ajziy. So‘fizoda). //To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi so‘zboshi va lug‘at mualliflari: B.Qosimov, S.Ahmedov, U.Dolimov. – T.: Ma’naviyat, 1999. – B. 8.

5. Qosimov.B. Milliy uyg‘onish:jasorat, ma’rifat, fidoyilik.– T.:Ma’naviyat, 2002. – B.4.

6. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – T.: Sharq, 2009. – B. 48.

7. https://nrm.uz/contentf?doc=612866_o%E2%80%.

Inomjon AZIMOV,
Filologiya fanlari doktori, dotsent
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

O‘ZBEK ADABIY TILI IMLO QOIDALARINING YARATILISHIDA QAYUM RAMAZONNING O‘RNI

Annotatsiya. *O‘tgan asrning boshlarida o‘z harakatlarini “jadidlar” nomi bilan tarix zarvaraqlariga muhrlagan ma’rifatparvar ziyolilar, birinchi navbatda, alifbo, imlo masalalariga jiddiy e’tibor qaratdilar, ma’lum qonun-qoidalarga asoslangan milliy adabiy til bo‘lishni orzu qildilar. Mazkur masalalar jadidlar faoliyatining muhim yo‘nalishlari edi.*

Ma’lum imlo qoidalariga asoslanmagan arab yozuvi isloh qilinib, dastlabki imlo qoidalari ishlab chiqildi. Dastlabki tajriba sifatida Fitrat boshchiligida tashkil qilingan “Chig‘atoy gurungi” tomonidan ishlab chiqilgan “Bitim yo‘llari” asarini keltirish mumkin. 1929-yil may oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan til-imlo konferensiyasida boshqa turkiy tillardagi kabi o‘zbek tilida ham singarmonizm qonuniyati e’tirof etilib, imlo qoidalari shu asosda ishlab chiqilgan edi. Unga ko‘ra unlilar soni 9 ta etib belgilangan. Afsuski, sovet mafkurasining hukmronlik mavqeyi tilshunoslik sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. May konferensiyasida tasdiqlangan imlo qoidalari millatchilik ruhida tuzilganligi, ishchi-dehqon ommasining savod chiqarishiga to‘sqinlik qilayotgani kabi vajlar bilan inkor qilindi. Singarmonizm yo‘qolib borayotgan qonuiyat sifatida baholanib, unlilar miqdori 9 tadan 6 taga kamaytirildi. Avvalgi imlo qoidalaridan tubdan farq qiladigan, sho‘rolar mafkurasiga mos imlo qoidalari ishlab chiqildi.

Maqolada Qayum Ramazon tomonidan risola holiga keltirilgan mazkur imlo qoidalari xususida so‘z yuritiladi

Kalit so‘zlar: *alifbo, imlo, isloh, unli tovush, undosh tovush, singarmonizm, harf, fonema, yot harflar, yozuv.*

Abstract. *At the beginning of the last century, the enlightened intellectuals who inscribed their movement in history under the name “Jadids” paid serious attention first and foremost to issues of the alphabet and spelling. They dreamed of creating a national literary language based on certain rules and norms. These issues were among the key directions of the Jadid movement.*

The Arabic script, which was not based on established spelling rules, was reformed, and the first orthographic rules were developed. As an early example, one can cite the work "Bitim Yo‘llari" (“Ways of Writing”) created by the “Chig‘atoy Gurungi” circle under the leadership of Fitrat. At the language and spelling conference held in Samarkand in May 1929, just as in other Turkic languages, the principle of vowel harmony (syngarmonism) was recognized in the Uzbek language, and orthographic rules were developed accordingly. According to these rules, the number of vowels was set at nine.

Unfortunately, the dominance of Soviet ideology also extended its influence to the field of linguistics. The orthographic rules approved at the May conference were

later rejected with arguments that they were rooted in nationalism and hindered literacy efforts among the working class and peasants. Vowel harmony was declared a disappearing phenomenon, and the number of vowels was reduced from nine to six. New orthographic rules were developed that were fundamentally different from the earlier ones and aligned with Soviet ideological views.

This article discusses the spelling rules compiled into a treatise by Qayum Ramazon.

***Key words**: alphabet, spelling, reform, vowel sound, consonant sound, singarmonism, letter, phoneme, foreign letters, writing.*

May konferensiyasida imlo qoidalari tasdiqlanib, hayotga tatbiq etilgan bo‘lsa-da, mazkur qoidalarga amal qilsh, uning amaliyotga joriylanishi juda sust ketdi. O‘rta, oliy maktablarda, hatto matbuotda bir so‘zni turli shakllarda yozish, imlo qoidalariga amal qilmaslik holatlari ko‘p edi. Qayum Ramazon imlodagi bunday boshbodoqlikning 2 ta sababi borligini aytadi:

1. 1929-yilgi I Til-Imlo konferensiyasining imlo tog‘risidagi qarorlarini amalga oshirish uchun tashkiliy, idoraviy va rasmiy munosabatlar.

2. Imlo tog‘risidagi qarorda metodologik, lingvistik va amaliy ba’zi kamchiliklar, yanglishliklar [1, 7].

Imlo qoidalarining hayotga to‘liq tatbiq etilmaganining siyosiy sababi ham bor edi. Konferensiyadan so‘ng millat oydinlariga bo‘lgan siyosiy tazyiqlar yanada kuchayadi. Ularga eskilikni qo‘msash, feodal tuzumiga qaytishni targ‘ib qilish, uni ulug‘lash kabi ayblovlar qo‘yiladi.

Otajon Hoshimning fikricha, feodalizm davrida yashagan, o‘z asarlarini chig‘atoy adabiy tilining (Navoiy, Bobir, Lutfiy va hokazolari) feodal mohiyatidan olgan imlo biz uchun yaroqsizdir. Shuningdek, Oktabrgacha hukm surgan, ya’ni jadidizm imlosi ham bizga ma’qul emasdir. Chunki u jadid adabiy tilining yarim feodal, burjua mohiyatiga asoslanganidir. Chunki u o‘z prinsiplarini, imloda goh turk, goh tatar burjua islohchilari imlosiga taqlid qiluvchi jadidlarning liberal burjua, panturkist, panislomist ustanofkalariga asoslanar edi. Nihoyat “Chig‘atoy gurungi”ning imlo prinsiplari ham bizga ma’qul emasdir. Chunki u o‘zbek tili yuksalishini burjua yo‘liga solishga intilgan [2, 22].

Istiqloldan so‘ng jadidlar faoliyatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Lekin o‘sha davrda juda ko‘plab taniqli jadid ziyolilari milliy o‘zbek adabiy tilini, yaratish, alifboni takomillashtirish bo‘yicha jiddiy faoliyat olib borgan bo‘lsa-da, hozirgacha ularning sanoqlilarininggina faoliyati, ilmiy merosi tadqiq qilindi. Jumladan, M.Qurbonova va Y.Sayidovlar tomonidan Fitratning tilshunoslik merosi, adib asarlarining leksikasi tadqiq qilingan bo‘lsa [3, 4, 5], M.Yo‘ldoshev va D.Ne’matova Cho‘lpon [6, 7], Sh.Bobomurodova Elbek [8], T.Tog‘aev Ashurali Zohiriy [9], A.Boboniyozov, Z.Choriyeva, L.Djalolovalar Abdulla Qodiriy [10, 11; 12], S.Normamatov Abdulla Avloniy [13]ning ijodiy merosi, ilmiy faoliyatini tahlil qilganlar.

Maqola obyektini O‘zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan Qayum Ramazon tomonidan nashrga tayyorlangan, 1935-yilda nashr “O‘zbek adabiy tilining birlashgan imlo qoidalari” risolasi tashkil etadi.

1929-yilgi konferensiyani jadid millatparvarlarning milliy tilshunoslik bo‘yicha amalga oshirgan so‘nggi faoliyati deb aytish mumkin. Konferensiya o‘zbek adabiy tili, uning imlo qoidalari, atamalar bo‘yicha tarixiy, o‘zbek tilining o‘z qonuniyatlarini hisobga olgan qarorlar bo‘lishiga qaramasdan, unga siyosiy tus berilib, bu qarorlar markscha-lenincha g‘oyalarga to‘g‘ri kelmasligi, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat qurish jarayonida tilga yangi-yangi so‘zlar kirib kelishi natijasida til qoidalarida ham o‘zgarishlar bo‘lishi, adabiy til tuzishda shahar shevalariga asoslanish zarurligi, singamonizmning tobora yo‘qolib borayotgani, unga bog‘liq ravishda unlilar miqdorini kamaytirish, adabiy tilni kommunistik g‘oyalarga mos ravishda qayta tuzish bo‘yicha tanqidiy maqolalar, bahs-munozaralar avj oldi. Masalan, Otajon Hoshim Fanlar akademiyasining 1933-yil 7-yanvarda bo‘lib o‘tgan imlo kengashida so‘zlagan nutqida o‘zbek tiliga *traktor, flot, shkaf* kabi so‘zlarning kirib kelishi bilan so‘z boshidagi ikki undosh o‘rtasida unlining (bil – bl, kir - kr) tushib qolishi, so‘zning oxirida ikki undoshning kelishi o‘zbek tili uchun me’yorga aylanib borayotgani, shuning uchun imlo qoidalarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini, “Chig‘atoy”chilar tuzgan imlo eski fiodallar manfaatini inobatga olib tuzilgani, Navoiy, Bobirlar tiliga mansub bo‘lgan chig‘atoy adabiy tili eskilik ekanini aytadi [2, 23].

1934-yilning yanvarida Toshkentda Respublika Qurultoyi o‘tkaziladi. Qurultoyda alifbodan 3 ta harf (Ө, y, ь) chiqariladi: “Ө” va “o” o‘rnida bitta “o” ning, “y” va “u” o‘rnida bitta “u” ning, “i” va “ь” ning o‘rnida bitta “i” ning qo‘llanishi qoidalashtiriladi, shu asosda unlilar sonini 9 tadan (a - ə, o - Ө, y - u, ь - i, e dan) 6 taga (a, ə, o, i, u, e ga) keltirish haqida qaror qabul qilinadi [14, 61].

Qayum Ramazonning “O‘zbek tilining birlashgan imlo qoidalari” risolasida ayni shu imlo qoidalari aks etgan. Risolaning dastlabki bo‘limida imlo va adabiy til masalasiga to‘xtalingan. Adabiy til ta’rifida til qonuniyatlariga emas, balki mafkura ustunligiga urg‘u beriladi: “Imlomiz hozirgi adabiy tilimizning yozma shaklining bir xilligini va barcha shevalar uchun qulay bo‘lishini ta’min etishi lozim. Hozirgi adabiy tilimizning o‘sishida ilg‘or sotsialistik industrial shahar proletarlarning shevalari etakchilik qiladi, boshqa shevalar bunga ko‘makchi va to‘ldiruvchi bo‘ladilar. Shu nuqtayi nazardan, bizning hozirgi adabiy tilimiz butun O‘zbekiston ishchi-kolxozchilarning adabiy tili bo‘lib, imlomiz shu birlashgan adabiy til yuzasidan o‘z normalarini belgilaydi”[15, 3-4].

“Ohangdoshlik. Yo‘g‘on, ingichkalik” bo‘limida o‘zbek tilida singarmonizmning yo‘qola borayotgani, boshqa turkiy tillar kabi muhim qonuniyat emasligi ta’kidlanib, shunga asoslanib, unlilar miqdori ham 9 tada 6 taga qisqartirilgani izohlanadi.

1931-yilda shu muallif tomonidan e’lon qilingan “O‘zbek adabiy tilining imlo qoidalari” risolasida tovushlar uyg‘unligi, yo‘g‘on va ingichka so‘z masalasiga katta o‘rin berilib, singarmonizm boshqa turkiy tillar kabi o‘zbek tilida ham asosiy qonuniyat ekanligi e’tirof etilgan: “So‘zning birinchi bo‘g‘unida keluvchi unli tovushlar so‘nggi bo‘g‘unlarda o‘z jinslaridan bo‘lgan unlilarni istaydir. Shunga unlilar ohangi (uyg‘unligi) deymiz. Unlilar ohangi tubandagicha bo‘ladir: o‘zak so‘zlarning birinchi bo‘g‘unida ust unlilari (a, ə), ostinlar (ь-i, e) bo‘lsa, so‘nggi bo‘g‘unlarda o‘tru (u, y) lar kelmaydir, bundan boshqalari kela beradir: *xatьn, pətir,*

qьрьq, tirik, kelim kabi” [16, 11]. Unli tovushlar yo‘g‘on-ingichkaligiga ko‘ra 2 guruhga ajratilgan.

Oradan to‘rt yil o‘tmasdan esa tovushlar uyg‘unligi, yo‘g‘on-ingichkalikka mutlaqo teskari ta’rif beriladi: “Boshqacha xulosalaganda, ba’zilar yo‘g‘onlik, ingichkalik unli tovushlarning uyg‘unligi deb ta’riflaydilar, biz uchun bu to‘g‘ri kelmaydi, chunki bizning adabiy tilimiz talaffuzida unday yo‘g‘onlik-ingichkalikni ta’minlaydigan unli tovushlar bo‘lmagani kabi, alifbemizda ham unday harflar yo‘qdir. Imlomizda yo‘g‘onlik-ingichkalik *q-k, g‘-g* tovush (harf)lardan biri bilan yozish mumkin bo‘lgan qo‘shimchalarning o‘zak va negiz bilan bo‘lgan munosabatlari va ba’zan *ə-a* unlilarning o‘zaklardagina belgili o‘rin olishlaridan iboratdir” [15, 8-9]. Ammo mualliflar qoida tuzish jarayonida unlilar uyg‘unligi masalasidan chiqib keta olishmaydi, o‘z-o‘zidan yo‘g‘onlik-ingichkalik masalasi o‘rtaga chiqaveradi: “ “o” harfi asosan yopiq va “u” ga ko‘ra yoyiq lab tovushini ifodalab, yo‘g‘onlik-ingichkalik yog‘idan o‘rtacha aytiladi, ya’ni burungi yo‘g‘on “o” bilan ingichka “ө” o‘rtasidagi bir tovushdir:

Qol, kol, tor, zor, bol, kor, koz, soz, boz, soz, oz, ozbek, komsomol, kommunist, proletar, sotsial kabi.

1. “u” harfi asosan yig‘iq, yopiq qisqa lab tovushini ifodalab, yo‘g‘onlik-ingichkalik yog‘idan o‘rtacha aytiladi: *qul, kul, surgun, qurt, kuz* kabi”[15:14-15].

E’tibor qilinsa, *ə-a* unlilari ma’no farqlash vazifasini bajarishi, boshqa unlilarda bunday holat mavjud emasligi aytiladi, bu ham tilshunoslar o‘rtasida jiddiy munozaralarga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, arab tilidan o‘zlashgan “iy” qo‘shimchasi uchun 1931-yilda nashr qilingan imlo qoidalarida “ii”, “ьь” shakllari olingan: “Tilimizga kirib qolgan arabcha so‘zlardagi “nisbat yosi” (yoyi nisbiy) ayrim sarfiy shakl etib qabul qilinadir va shuning uchun maxsus shakl olinadir, ya’ni nisbat yosi – “ii, ьь” kabi ikki harf bilan yoziladir: *sьjasьь, ьqtьsadьь, ьçtьmaьь, ilmii, ədəbii, nəzərii* kabi” [15:29].

Keyingi imlo qoidalarida esa “ij (iy)” tarzida berilgan: “Arab nisbat yosi, ruscha familiya va o‘rin otlari oxirida keladigan *-ский, ий – skij, ij* lar ham “ij” bilan yoziladilar: *iqtisadij* (iqtisadii emas), *sijasij* (sijasii emas), *xajalij* (xajalii emas), *Ivanovskij, Alajskij, Lunacarskij* kabi” [15, 24].

Ma’lumki, arab yozuviga asoslangan o‘zbek yozuvida qisqa unlilarni yozuvda ifodalamaslik oddiy holat edi, bu qoida jadidlar tomonidan isloh qilingan yozuvda ham davom etdi. Keyinchalik rus tilidan so‘zlar o‘zlashtirilishi natijasida so‘zning boshida ikki undoshning kela olishi hodisasini ma’qullab, ularni aynan o‘zlashtirish, o‘zbek tilida ham birinchi bo‘g‘indagi unlini tushirib qo‘llash tarafdorlari paydo bo‘ldi. Amirof ham so‘z boshidagi qisqa unlilarning tushib qolishini quvvatlab, unga qo‘shimcha ravishda *-dir, -ning, -miz* qo‘shimchalarini keltirib, ularda ham unlilarni tushirib qoldirishni, *-dr, -nng, -mz* tarzida yozishni tavsiya qiladi. Uning fikricha, bu qo‘shimchalar tilimizda ko‘p qo‘llaniladi, unlilar tushirib qoldirilganda ham o‘quvchilarning ko‘zi tez o‘rganadi va savod chiqarishda muammo bo‘lmaydi. Shu bilan birga, ularni tushirib qo‘llash madaniy, iqtisodiy va texnik jihatdan foyda beradi deb hisoblaydi [1, 8]. Bunday qoida imloni soddalashtirmaydi, aksincha o‘quvchini chalg‘itadi, chunki savod chiqarishda so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib

o‘rgatish eng samarali yo‘l hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tilida bir bo‘g‘inda bir unli bo‘lishi muhim qoida hisoblanadi. *-dr, -nng, -mz* qo‘shimchalarida umuman unli yo‘qligini, bo‘g‘in tuzilish qoidasiga qanday to‘g‘ri kelishini o‘quvchilarga tushuntirishda o‘qituvchining noqulay ahvolga tushib qolishi aniq. Lekin mana shunday munozaralar natijasida bu qoida imlo qoidalariga kiritiladi: “Bo‘g‘inlar unli tovushsiz tuzilmaydi. Bo‘g‘in boshida (so‘z boshida) ikki unsizning brik kela olishi tilimizda bordir, faqat, ikki unsiz brik kelishi uchun qo‘shimchalar qo‘shganda yoki qo‘shimchalarni o‘zakdan ayirganda, o‘zak va negizda o‘zgarish bo‘lmasligi, ya’ni so‘z qo‘shimcha bilan turganda, garchi bo‘g‘in unli tovushli bo‘lsa-da, qo‘shimchani ayirganda, o‘zak (so‘ngra qoluvchi bo‘g‘in) unsiz tovushsiz qolmasligi shartdir:

Braq, snaq, sna, cnaq, cgit, blan, bla, Blal, Hrat, Srac, bradar, Stalin, Kronberg, Sverdlov, proletar, traktor, gvardija, tramvaj, zrak, trak, tradi, cniq, cniqdi, cniqqan, zɑqir, zɑqirdaj, zɑqirca, kra, krakaş, bqin, sgir, smir, qmiz, qmizak, qzil, qzar, qtiq, pcaq kabi” [15, 33].

“A” tovushining 4 xil, ya’ni ortgi (yo‘g‘on) lablashmagan, ortgi (yo‘g‘on) lablashgan, o‘rta (yo‘g‘on-ingichkalikda o‘rta) lablashmagan, oldgi (ingichka) lablashmagan tovush sifatida talaffuz qilinishi, lekin ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi tip tovushlari talaffuzda farqlanmay ilg‘or rayon shevalarida bir xil talaffuz qilinishi ta’kidlanadi: “Lablashmagan ortgi “a” (qazi-qarta), lablashmagan o‘rta “a” (bari bir, sana, jara) va oldgi “ə” *kana* (kənə), *kasal* (kəsəl), *Karimga* (Kərimgə) tovushlari ilg‘or ishlab chiqarish rayon vakillari shevalaricha bir tovush bo‘lib tasavvurlanadi va ularcha har uch xili ham o‘rta bir vaziyatda talaffuzlanadi. Ya’ni har uch tip tovush bir xil aytiladi: 1) *qazi-qarta*, 2) *jara*, 3) *Karim* kabi” [15, 18-19].

2. Arab, fors tillariga xos bo‘lgan lablashgan, qattiq “ٰ -a” unlisi bo‘yicha alohida qoida kiritilgan. Bu tovushni mazkur tillardan xabardor bo‘lgan domlalar o‘quvchilarga noto‘g‘ri o‘rgatayotgani tanqid qilinadi, bu tovush ham yuqoridagi kabi talaffuz qilish lozimligi uqtiriladi: “Shuning uchun eski alifbe traditsiyasi va eski maktab domlalarining yanglish o‘rgatish kasofati o‘laroq, saqlanib qolgan “ٰ -a” ni har vaqt lablashgan ortqi deb o‘rgatish hozirgi birlashgan adabiy tilimiz talaffuziga muvofiq bo‘lmaydi. Bu “a” harfini lablashgan ortqi “a” li so‘zlar va bo‘g‘unlardan boshqa o‘rinda, ayniqsa, barcha qo‘shimchalarda o‘zagida “k, g, ə, e” bo‘lgan so‘zlarda (ingichka so‘zlarda) mutlaqo adabiy til talaffuziga muvofiq (yasamalikka berilmasdan) oldgi “ə” yoki o‘rta “a” kabi o‘rganish, o‘qitish lozimdir” [15, 19].

Risolada chetdan kirgan so‘zlar imlosiga ham to‘xtalingan. Masalan, ba’zi qoidalarni keltirib o‘tamiz:

3. Sovet, internatsional (rus va boshqa Avropa tillaridan kirgan) so‘zlar tubandagi shakllarda yoziladi:

a) rus imlosida “o” bilan yoziladigan tovush har vaqt bizning “o” bilan yoziladi, garchi ba’zan talaffuzda “a” “ə” bo‘lib eshitilsa (*kəmsəmal, kəmunist* kabi), yoki ba’zan “i” kabi eshitilsa-da (*traktor-traktir* kabi), har choq “o” orqali yozilaveradi: *kommunist, komsomol, traktor, kolxoz* kabi;

b) ruscha “э” va unsiz tovushdan so‘ng kelgan “e” harfi bizning “e” orqali yoziladi: *elektron, elektr, telefon, telegram, Engels, effekt* kabi. Ammo bo‘g‘in boshi

va so‘z boshida keladigan ruscha “e” bizda “je” orqali yoziladi: *subjekt, objekt, Jenukidze, Jermilov, Jevgenija* kabi;

c) ruscha “e” so‘z boshi, bo‘g‘in boshi, ba’zan talaffuz etilishiga ko‘ra unsiz tovushlardan so‘ng ham “jo” orqali yoziladi: *jolka* (daraxt oti), *Pjotr, Budjonij, Semjon* kabi. Ammo bo‘g‘in orasida (ko‘prak unsizlardan so‘ng) “o” orqali yoziladi: *scot, samolot, pulemot, slot, suflor* kabi;

d) bo‘g‘in va so‘z boshida keladigan ruscha “ю”, “ju” orqali yoziladi: *jurist, jubilej, ijun, ijul, sojuz* kabi; bo‘g‘in o‘rtasida (ko‘prak unsizlardan so‘ng) “o” orqali yoziladi: *bulleten, revolutsija, evolutsija, budzet, absolut* kabi.

Biroq *bjurokrat, bjuro* kabi so‘zlarda garchi unsizlardan so‘ng bo‘lsa-da, “ju” ochiq eshitilganlikdan shu shaklda yoziladilar.

e) so‘z boshi va bo‘g‘in boshidagi ruscha “я” “ja” orqali yoziladi: *jaşik, jacejka, jasla, Zoja, Jaroslavskij, Jarotskij* kabi.

Bo‘g‘in o‘rtasida va oxirida (unsizlardan so‘ng) “a” orqali yoziladi: *Alaska, Jaxov, knaz* kabi.

Ba’zi atoqli otlarda esa, unsizdan so‘ng “ja” keladi: *Galja* kabi;

f) rus va Avropa tillaridan kirgan so‘zlarda qo‘llaniladigan, rus yozuvida “*uo, ua*” – *io, ia, ea, oo, eo* shaklida keladigan unlilar bizda ham qator ikki unli bilan yozilaveradi: *sotsial, natsional, fiziolog, ratsional, koopertativ, teatr, teorija* kabi [15, 25-26].

Sho‘rolarning barcha jabhalarda sovet mafkurasini singdirishi milliy til siyosatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. 1934-yilda qabul qilingan o‘zbek adabiy tili imlo qoidalarida singarmonizmning inkor qilinishi, unlilar miqdorining qisqartirilishi, milliy til tabiatiga mos bo‘lgan, 1929-yilda tasdiqlangan imlo qoidalarining chiqarib tashlanishi ayni shu siyosatning ta’siri edi. Shu tariqa jadidlar boshlagan barcha xayrli ishlar yo‘qqa chiqarildi, o‘zlari jismonan yo‘q qilindi yoki uzoq yillarga qamoq jazosiga hukm qilindi, asarlarini o‘qish taqiqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Adabi tl və imla toǫrisida maqala va qararlar, II toplam, 1-nci serija. Toplavci Q.Ramazan. – Taşkent: Ozdavnaşr, 1934. – 80 b.
2. Ataçan Haşьmof. Өzbek jaŋь adbii tili va uniŋ imlasь haqьda. Adabi tl va imla toǫrisida maqala, qararlar, II toplam 1-nci serija. – Taşkent: OZDAVNAŞR, 1934. – 80 b.
3. Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1993. – 120 б.
4. Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз. дисс... – Бухоро, 2001. – 204 б.
5. Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси. Филол. фан. док. дисс... – Бухоро, 2013. – 302 б.
6. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида). Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2000. – 120 б.
7. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. … дис. автреф. – Тошкент, 2004. – 24 б.

8. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2002. – 132 б.
9. Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... автореферати. – Тошкент, 2005. – 24 б.
10. Бобониёзов А. А.Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти: Филол. фанлари ном. … дисс. автореф. – Тошкент, 1995. – 24 б.
11. Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: : Филол. фан. ном. … дис. автореф. – Тошкент, 2006. – 23 б.
12. Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. … дис. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.
13. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. … дис. автореф. – Тошкент, 2011. – 25 б.
14. Жамолхонов Ҳ., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Тошкент, 2007. – 192 b.
15. Q.Ramazan. Ozbek tilinin birlaşgan imla qaidalari. – Taşkent: Oznaşr davlat naşriyati, 1935. – 60 b.
16. Q.Ramazan. Өzbek ədəbii tiliniң ьmla qaьdalarь. – Taşkent: Өznəşr, 1931. – 32 b.

Ikromiddin OSTONAQULOV,
Tarix fanlari doktori, dotsent
Fan va texnologiyalar universiteti

SALOHIDDIN SOQIB VA UNING “MA’MULOTI SOQIBIY” RISOLASI HAQIDA

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod etgan mutasavvif olim, shoir va tariqat murshidi Salohiddin Sirojiddin o‘g‘li Soqibning hayoti va adabiy-ma’rifiy merosi, xususan, uning “Ma’muloti Soqibiy” risolasi mazmuni ochib beriladi.*

Tayanch so‘zlar: *O‘zbek adabiyoti, Salohiddin Soqib, adabiyotshunoslik, shoir va alloma, Sirojiy, Sirojiddin, Xolmuhammad O‘shiy, Xojamnazar Huvaydo, naqshbandiya tariqati, jadidlar, tasavvuf ta’limoti.*

Abstract. *The article examines the life and literary and educational heritage of Salahiddin Sakib, son of Sirajiddin, a Sufi scholar, poet and spiritual leader who lived and worked in the second half of the 19th - early 20th centuries, in particular, the content of his treatise “Mamulati Sakibi”.*

Key words: *Uzbek literature, Salahiddin Sakib, literary criticism, poet and scholar, Siroji, Sirojiddin, Kholmukhammad Oshi, Khodjamnazar Khuvaido, Naqshbandi order, Jadids, Sufi teachings.*

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda Salohiddin Soqib hayotini va adabiy merosi ahamiyatga egadir. Uning hayoti va ijodi adabiyotshunoslikda hali o‘rganilmagan. Allomaning nasabi payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) qizlari Fotimai zahro (r.a.) va kuyovlari Hazrat Aliga borib ulanadi. U kishi shoir va alloma Sirojiy, ya’ni mavlono Sirojiddinning farzandi bo‘lgan. U esa xalifa shayx Xolmuhammad O‘shiyning o‘g‘li edi. U kishi esa ulug‘ o‘zbek shoiri Xojamnazar Huvaydoning o‘g‘li edilar. Bundan ko‘rinadiki, Mavlono Salohiddin din peshvolari, shayxlar, murshidlar, shoirlar sulolasiga mansubdir.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda uning otasi Sirojiddin O‘sh shahrida tavallud topgan. Vodiydagi bir qator ustozlardan ta’lim olib, Qo‘qon, Toshkent, Samarqand va Buxoro ma’naviy muhitida kamol topib, Movarounnahr va Turkiyada tanilgan naqshbandiya tariqati murshidi maqomiga ega bo‘lgan. Makka va Madina shaharlarida yashagan, keyinroq Turkiyada madrasalar ochib, minglab shogirdlar etishtirgan. Turkiyaning taniqli jamoat arboblari, buyuk allomalar, din peshvolari, naqshbandiya tariqati pirlari orasida katta obro‘ va e’tiborga ega bo‘lgan.

Adabiyotshunos To‘xtasin Jalolov “O‘zbek shoiralari” asarining Samarbonuga bag‘ishlangan maqolasida Sirojiy va Soqibiylar to‘g‘risida ham to‘xtalib, kelguvsida ularning she’riy merosi alohida o‘rganishga moliklik ekanligini ta’kidlab o‘tgan [1]. Shuningdek, Po‘latjon Domullo Qayumovning “Tazkirai Qayyuumiy” tazkirasida Huvaydo, Sirojiy va Soqibiy ijodi haqida umumiy ma’lumotlarlar ham keltirilgan [2]. Ammo Sirojiy va Soqib ijodi bo‘yicha adabiyotshunoslikda ilmiy tadqiqotlar qilinmagan deyarlidir.

Soqib, ya’ni yorug‘, ravshan ma’nolarini beruvchi taxallus bilan ijod qilgan Salohiddin hazratlari 1843-yili O‘sh shahrida tug‘ilgan. Avval O‘shda so‘ng Qo‘qon madrasalarida ilm olib, adabiy davralarda qatnashib, etuk olim va iste’dodli shoir bo‘lib etishadi. Makka va Madina shaharlariga safar qilib, Madinada bir necha yil istiqomat qiladi. Rasululloh shahrida asli chimyonlik bo‘lgan Miyon Mazhar hazratlari huzurida naqshbandiya tariqati bo‘yicha mukammal ilm va adab sohibiga aylanadi va irshodnoma olib Turkiyaga keladi. Turkiyaning bir necha shaharlarida mahalliy aholi va musofir vatandoshlar bilan muloqot qilib, o‘z ilmiga muhtoj qavmlarga din sabog‘ini, tariqat tarbiyasini berishga qaror qiladi va bir necha madrasalar ochishga muyassar bo‘ladi. Turkiyadagi etuk bir muridiga tariqatda suluk tebratish ijozatini berib, 1900-yillari o‘z shahriga qaytib, shayxlik rutbasiga o‘tirib, xalqni haq yo‘liga boshlab, ijodiy ishlarini davom ettirib umrguzaronlik qiladi. 1910-yili O‘sh shahrida vafot etadi. Uning xoki O‘shning Sarmozor qabristonida qo‘nim topgan. 2021-yili turkiyalik ma’rifat xomiylari ko‘magi bilan O‘sh shahrida islom instituti tashkil etildi va uni Salohiddin eshon nomi bilan atadilar.

Hozircha allomaning uch nomdagi merosiga egamiz. Ularning biri “Ma’muloti Soqibiy” (Soqibiyning joriy qilinadigan amallari) risolasi tariqat

ahlining boshlovchi toliblariga qo‘llanma sifatida yozilgan. Risola Salohiddinning farzandi Muhammadxon eshon va Mirzo Umid Marg‘inoniylar tomonidan nashrga tayyorlanib, milodiy 1908 yili Toshkentda “G‘ulomiy” litografiyasida chop etilgan. [3] Ikkinchi asari qo‘lyozma holida saqlanib qolgan “Ma’quloti Soqibiy” risolasidir. [4] Shuningdek, qo‘lyozma holidagi “Mo‘jami ash’ori Soqib” nomli she’rlar to‘plami ham bor [5].

Bu maqolada birgina “Ma’muloti Soqibiy” risolasi mundarijasi va mazmuni haqida to‘xtalamiz. Risola o‘z davri turkiy adabiy uslubida yozilgan bo‘lib, jadid adiblari tilidan unchalik katta farq qilmaydi. 2001-yili “Farg‘onalik valiylar” kitobida ilk marta “Ma’muloti Soqibiy”dan tanlangan matnlar hozirgi adabiy tiliga moslashtirilgan holda e’lon qilindi [6]. Aslida mazkur risolani marhum filologiya fanlari nomzodi Ahmadjon Madaminov tabdil qilib, nashrga tayyorlagan, ammo ma’lum sabablarga ko‘ra uni maqola muallifiga (I.O.) foydalanish uchun taqdim etgan. Buni eslashdan maqsadimiz A.Madaminov o‘zbek adabiyotshunosligida soqibiyshunoslikni boshlab bergan zahmatkash olim ekanligini ta’kidlashdir.

Risolani mavlono Salohiddin Soqib shunday so‘zlar bilan boshlaydi: “Ey farzandlarim, mushfiqi mehribonlarim! Bizning yo‘limiz naqshbandiyadur. Sayri filallohdur va zulmoniy (inson nafsiga qattiq riyozatbuyuruvchi) yo‘ldur va qutb yo‘lidur. Sayri filalloh yo‘lini tab’at yo‘li deydilar. Buning ma’nosi Xudo yo‘liga payg‘ambar sunnati bilan tobe’ bo‘lish, payrovlik qilishdir.

Ahli tariqat toliblariga ma’lum bo‘lsinki, iroda qo‘lini pirga topshirgan murid o‘z pirini bir oydan ziyoda ko‘rmay yurmog‘i joiz emas. Shu bois muridlar o‘z pirlari huzuriga har oyda bir kelmoqqa vaqt topolmay, ko‘pincha iztirob chekadilar. Pirlar esa o‘z muridlarining g‘amini eb, har yilda bir bor sayohat qilib, muridlarini ko‘rgani boradilar. Har ikki holat ham piru muridlikka durust kelmaydi. Endilikda ikki tarafga oson bo‘lsin deb so‘fiylar qiladirgan vazifalar va amallarni risola qilib, qo‘llariga bir dona, bir dona topshirilsa, pirning gardanidan soqit bo‘lsa kerak. Muridlar bu risolaga mayl ko‘rgizib, amal qilsalar bay’atlari va muridliklari joyiga kelib, tariqatdan bahra topsalar kerak” [7].

Ushbu so‘zlardan Soqibiyning ajdodlar an’anasidan farq qiluvchi ijtihodchi, jadid tariqat murshidi bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Ya’ni, Soqibiy muridlarni tarbiya qilishda zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti natijalaridan unumli foydalanib, yangicha metodni joriy qilgan. Pir-muridlik munosabatlarini osonlashtirish uchun tariqat ahli foydalanadigan uslubiy qo‘llanma ishlab chiqib, har kim individual tarzda undan foydalanishini ko‘zda tutgan.

Soqibiy so‘fiylik yo‘liga kirgan solik doim Ollohni zikr qilib yurishini, ismi zot, ya’ni “Olloh”, “Olloh”, “Olloh” lafzini o‘tirganda, turganda, yonboshlab yotganda, so‘zlashganda va birovlarni tinglaganda zikr qilishini, zikrni qalb tili bilan aytib yurish sozligini ta’kidlaydi. Bunga dalil sifatida “Yod qilgin Parvardigoringni ichingda zoriy va tazarru’ birla, nihoyatda pinhonlik birla. Aslo oshkora bo‘lmasin. Erta birla va shom vaqtida g‘ofillardan bo‘lmanglar” oyatini keltiradi [7, 3].

Muallif tariqat tarbiyasini bayon qilishda Xojamnazar Huvaydo, Xolmuhammad eshon baytlari va so‘zlaridan ko‘p foydalangan. Chunonchi, “Holmuhammad eshon bobomiz rahmatulloh aytar ekanlar: “Kishi besh vaqt farz

namozlarini, namozi ishroqni, namozi tahajjudni, namozi choshtni (choshtgoh) tark qilmay, doim tahorat birla yursa, bunday odamni mashoyixlar qatorida sanasa bo‘lur” [7, 3].

Yana bu vazifalar ustiga uyquga yotish oldidan behojat tahorat olib, ikki rakaat namoz ado qilib, uyqu kelguncha yuz marta “Subhonalloh”, yuz marta “Alhamdulilloh”ni aytib, “Chor qul” o‘qib, kaftiga dam solib, badaniga uch marta surib, to‘rt marta “Oyatal kursi”ni o‘qib atrofiga dam urib, dunyo tashvishidan dilini xoli qilib, “kalimai Shahodat” va “kalima Istig‘for” aytib, dil zikriga mashg‘ul bo‘lib, “kalimai Toyyiba” aytib, Xudoning yodi bilan uyquga borsa avliyolar va mashoyixlar qatoridan bo‘lmog‘i muqarrar ekanligini keltirib o‘tadi.

Soqibiy avvalgi murshidlar ta’limiga suyanib, har bir mo‘min to‘q qorin bilan ibodat qilishi yaxshi emasligini, betahorat kishiga doim shayton va jin hamroh bo‘lishini ta’kidlaydi. Uyqudan turganda darhol tayammum qilib, “La iloha illolloh” desa imoni o‘zi bilan hamroh bo‘lishini yodga soladi. Musulmon kishi istinjo qilgan erda tahorat qilmasligini va tahorat qilgan joyga bavl qilmasligi lozimligini eslatadi.

Soqibiy duo qilishning fazilati haqida quyidagi hadisi sharifni keltiradi: “Duo ibodatning mag‘zidir. Kishi ibodat qilsa-yu duo qilib qabulini Xudodan tilamasa, ul ibodatning mag‘zi yo‘qdir, balki po‘choqdir”. Shuningdek, shariat yo‘lidan tajavvuz qilmay tariqatga amal qilmoq solikka vojibligini eslatar ekan, “Shariat yo‘li hamma amallarning afzali va osonidur. Shariat yo‘lidan chiqmaslik esa hamma amallarning, riyozatlarning qattiqrog‘idur. Shariat yo‘li birla ishi yo‘q odam e’tibordan soqitdir” deydi [7, 17].

Muallif yoshlarni ustozlardan ilm olishga chaqirar ekan, ularni ma’naviy halokatdan qattiq ogohlantiradi: “Kimki ulamo va mashoyixlar suhbati birla ishi bo‘lmasa, birovdan ilm va odob o‘rganmasa, kitob va nasihat birla ishi bo‘lmasa, ko‘nglining xohishiga qarab, yomonlar birla yursa, pandu nasihatni eshitmasa ul odamni hayvondan battar desa bo‘lur” [7, 18].

“Ma’muloti Soqibiy”ning xulosalarida muallifning etuk psixolog ekanligini ko‘rsatuvchi falsafiy mulohazalari keltiriladi: “Dunyo to‘la odam. Necha firqa, necha mazhab, necha fe’l, necha xayolda odamlar bor. Ularni avlodi Odam dermiz. Ammo Yaratgan va parvarish qilgan, boshu aql bergan, onani mehribon qilgan, ko‘ksidan xo‘ragiga loyiq sut chiqarib bergan, ikki qo‘l, ikki oyoq, ikki ko‘z bergan, tish va quloq, idrok va ishtaha berib, ikki peshobini mahkam qilib bergan zotni tanimay, bilmay, o‘z fe’licha yursa unday odam nafsi ammora va shaytonning do‘stidir.

Xudoyi taolo o‘zini tanimaganni, nafsni va shaytonni dushman tutadi. Bu uchalasi do‘st tutgan narsa dunyoga mehr qo‘yishdir. Dunyo, nofarmon banda, nafs va Shayton gapiga kirgan odam Xudoning dushmani bo‘lur. Shaytonning va nafsning gapiga kirgan, dunyo firibiga aldanish sharmandalikdir” [7, 18].

Soqibiy toliblarga qarata so‘zlar ekan, o‘z davridagi barcha turkistonli yoshlarga qarata matbuot orqali murojaat qilayotgandek bo‘ladi. Bu xitoblarda publitsistik ruh, ziyolilik iltijolari bo‘y ko‘rsatib turadi, bu xitoblarda Behbudiy so‘zlariga hamma’no fikrlarni ham anglash mumkin: “Insof qilinglar, ey mushfiq va mehribon farzandlarim! Ey ko‘zimning nuri, ravshan chiroqlarim! Uch kunlik foniy dunyoga mag‘rur bo‘lib, umringizni zoe’ qilmang. Doim oxiratingizni mulohaza

qiling. Bemulohaza ish pushaymonlik keltirur. Pushaymon o‘ti do‘zah o‘tidir. Xudoyi taoloning buyrug‘i bandalarga farzdur. Farz – bandalarga qarz. Ammo oshiqcha ishlar ham borki, o‘ziga va joniga oro kirib, rohat va osoyishga sabab bo‘lur. Buni “nofila” derlar.

Oshiqcha namoz, oshiqcha ro‘za, oshiqcha ehson, oshiqcha yaxshilik, binoi xayr - masjid, maktab, ko‘prik nofiladir. Qabul bo‘lsa - jonga rohat. Nofilaning afzali salovat va tasbehdur. Barcha ibodatlar o‘n qismdur. To‘qqizi haloldan rizq talab qilishdadur, biri boshqa hamma ibodatlardir” [7, 18].

Risolada hadislardan ham o‘rinli foydalanilgan bo‘lib, jumladan “So‘z kumush bo‘lsa ham sukut tillodir” hadisi keltiriladi va uning sharhi sifatida “Ko‘p so‘zlik aslo ilhomi ilohiy bo‘lmas. Ko‘p so‘zlik odam necha balog‘a mubtalodir. Avvalo, majlis ahliga ozor beradi, ikkinchi, ko‘ngli o‘lik bo‘lur, uchinchi, beadab bo‘lur, to‘rtinchi, beaql bo‘lur, beshinchi esar (parishonxotir) bo‘lur, oltinchi, bee’tibor bo‘lur, ettinchi besabot bo‘lur” [7, 19].

Risolada inson jamiyatda bekorchi va tekinxo‘r bo‘lmasligi, aksincha g‘ayratli va himmatli bo‘lishi lozimligi uqtiriladi: “Mard uldurki, xaloyiq ichida yursin, xalqqa aralashsin, oldi-berdi qilsin, savdo-sotiq qilsin va xotin olsin, lekin bir lahza ham Xudodan g‘ofil bo‘lmasin, shariatga va sunnatga xilof qilmasin” [7, 21].

Salohiddin Saqibiyning quyidagi fikrlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga egadir. “Farzandlaringga xushmuomala bo‘lsanglar, ular odobli bo‘lurlar, ota-ona farmonidan chiqmas, farzandlaringga qo‘pol muomala qilsangizlar, sizlarga osiy bo‘lur, do‘zahiy bo‘lmog‘iga ota-ona sabab bo‘lur. Farzandlaringni ilmli va adabli qilmoq uchun molu jon sarf qilsangizlar joyiz bo‘lur. Farzandlar ilmsiz bo‘lsalar o‘g‘ri, qaroqchi, bosmachi bo‘lurlar, yana beadab, otabezori, dilozori bo‘lsa kerak” [7, 22].

Risola muallifi ushbu asarini amri ma’luf va nahyi munkar uslubida yaratganligini ta’kidlab, “Qiyomatda ulamo va mashoyix amri ma’ruf qilgan yoki qilmaganidan savol qilinadi. Shu bois ikki kalima amri ma’ruf qilindi” deydi va ajoyib she’riy baytlarda o‘z fikrini yakunlaydi:

Ota-bobomning shiori nasihat etmoqlik,
Aning uchun manam ikki kalima vo qildim.
“Alarning amri – Xudoning amri” deb shior ettim,
Bo‘yunda qarz edi, xat bila ado qildim.
Ayo o‘qig‘uvchilar, etmasin sizlarga malol,
Xudoyu do‘sti Xudo so‘zlarini jo qildim.
Otam – Sirojiy, Huvaydo nabirasidur,
Alar shiori ushbu erdi, man bajo qildim.
Alarning o‘rnida Soqib so‘z aydi tolibg‘a
Alarg‘a shoyad asar qilsa pand, to qildim [7, 22].

Xulosa qilib aytganda, Salohiddin Soqib o‘zbek adabiyoti va pedagogikasining yirik vakili bo‘lib, uning asarlarini tasavvuf ta’limoti va qadriyatlari sifatida o‘rganish lozim. Salohiddin Soqib she’riy to‘plamini mutasavvif shoir sifatida tadqiq etish va nashr etish zarur.

Alloma asarlari Xojamnazar Huvaydo ijodini o‘rganishda birlamchi manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jalolov T. O‘zbek shoiralari. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – T.: 1974.
2. Qayyumiy, Po‘latxon Domullo. Tazkirai Qayyumiy. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat Adabiyot muzeyi tahririy nashriyoti. – T.: 1994.
3. Salohindin Soqib. Ma’muloti Soqibiy. O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi. Inv.№ 8175.
4. Salohiddin Soqib. Ma’quloti Soqibiy. O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi. Inv.№ 5347.
5. Salohiddin Soqib. Mo‘jami ash’ori Soqib. O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi. Inv.№ 13075.
6. Avliyolar sultoni. Turonlik valiylar. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. – T.: 2004. – 257 b.
7. Salohildin Soqib. Ma’muloti Soqibiy. O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi. Inv.№8175. – B 2.

Guzalxon ISAKOVA,
Filologiya fanlari doktori, dotsent
O‘zDSMI

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING “SART” SO‘ZI BORASIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya. *Mahmudxo‘ja Behbudiy dramaturg, publitsist, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati etakchilaridan biri sifatida mashhurdir. Uning ma’rifatni kuchaytirish, farzandlar ta’lim-tarbiyasi, millat va uning haq-huquqiga, tarixiga hamda til-adabiyot masalalariga doir qarashlari alohida o‘rin tutadi. Maqolada Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati, til masalalari hamda milliy o‘zlikni anglash haqidagi fikrlari borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zalr: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, publitsist, matbuot, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, millat, til-adabiyot, “Oyna” jurnali.*

Abstract. *Makhmudhoja Bekhbudi is famous as a playwright, publicist, religious and public figure, and one of the leaders of the Jadidist movement. His views on strengthening the enlightenment, children's education, the nation and its rights, history, and language and literature issues have a special place. The present article discusses Bekhbudi's works as a publicist, his language issues, and views on national identity.*

Key words: *Makhmudkhoja Bekhbudi, publicist, press, enlightenment, education, nation, language and literature, the magazine "Oyna".*

Mahmudxo‘ja Behbudiy dramaturg, publitsist, din va jamoat arbobi hamda jadidchilik harakati etakchilaridan biri sifatida mashhurdir. U jamiyatda ma’rifatni kuchaytirishga tinmay harakat qildi, farzandlar ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor berdi. Ularning savodli, zamon talabidagi mutaxassis bo‘lib etishishini chin dildan istagan. O‘zi muharrirlik qilgan nashrlar va asarlari yordamida turkey xalqlarning ijtimoiy, siyosiy ongini oshirishga, jahon madaniyati, taraqqiy etgan mamlakatlar erishgan yutuqlarga e’tibor qaratishga bor kuch-g‘ayratini bag‘ishladi va bor mablag‘ini sarflagan haqiqiy jonkuyar shaxs hisoblanadi.

Ma’lumki, OAV taraqqiyotini ta’minlash, butun jamiyat va har bir insonning haq-huquqlarini, manfaatlarini himoya qilish vositasi hisoblanadi. Behbudiy ham insonlar ongiga mana shu haqiqatni singdirish yo‘lida ijod qildi. U o‘sha davr odamlari dunyoqarashiga mos masalalarni matbuot yordamida etkazib bera oldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 44 yillik umri davomida dramaturgiyaga, jadidlar harakatiga, O‘zbek publitsistikasiga asos soldi, yangi maktablar barpo etdi va yangi darsliklar yaratdi. Behbudiyning hayot yo‘li biz uchun katta maktab, katta ilmdir. Uning maqola va risolalari nafaqat jurnalistika balki boshqa soha vakillari uchun ham dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Behbudiyning matbuot ishlari ayniqsa, tahsinga sazovordir. U 1913-yil apreldan “Samarqand” gazetasini chop ettirdi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan, 45 ta sonidan keyin moddiy jihatdan tanqislik tufayli nashr etilishi to‘xtagan. 1913-yilning 20-avgustidan u “Oyna” jurnalini nashr ettira boshlaydi. Bu haftalik jurnal, asosan, o‘zbek tilida yoritilgan va unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar ham berib borilgan. Mazkur jurnal dastlab haftada bir marta va keyingi yildan boshlab ikki haftada bir marta chiqarilgan hamda turli o‘lkalarga, jumladan, Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalgan.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg‘in shug‘ullanib, “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi. Shuningdek, kutubxona ishini yo‘lga qo‘ydi va “Kutubxonai Behbudiya”ni boyitish uchun xorij mamlakatlarining manzaralari, imoratlari, kishilarning suratlari, turli-tuman ma’lumotlar to‘plash maqsadida Istambul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Yunoniston, Bayrut, Rossiya mamlakatlariga sayohat qiladi.

Sayohat xotiralari har jihatdan g‘oyat muhim bo‘lib, Behbudiy ularni o‘z jurnali “Oyna”da ketma-ket berib boradi.

Behbudiyning “Oyna” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishga juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga doir qiziqarli maqolalar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblagan. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust sonida “Ikki emas, to‘rt til lozim” degan maqolani nashr ettiradi.

Jurnalning 1915-yil 11-12-sonlarida bosilgan Behbudiyning “Til masalasi” maqolasida tillarning o‘zaro munosabati haqidagi bahs davom etadi. Ulug‘ ma’rifatchi tillarning bir-biridan o‘rinli lug‘at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Eng boy tillardan bo‘lgan ingliz tili ham boshqa tillardan minglab so‘zlarni o‘zlashtirib olganligini dalillab ko‘rsatdi va masalaning boshqa jihatiga — yagona adabiy til, til birligiga diqqatini qaratdi.

Turkiston zabt etilgach, ruslar mahalliy xalqqa “sartlar” deb nom berdilar. Rus olimi, sharqshunos, tarixchi va etnograf Nikolay Ostroumovning bir kitobi xuddi shunday nomlanganligi hammaga ma’lum. Bu so‘z, aslida turli vaqtda turli etnik qatlamga, goho ijtimoiy qatlamga nisbatan aytilgan. Yillar o‘tib bu so‘z xususida yana bahs ketdi. Masalan, Buxoro amirining rus tili bo‘yicha tarjimoni Bahrombek 1911-yilda “Sho‘ro” jurnaliga “Biz, Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma'lum bo‘la turib nima uchun sart deb ataydilar?” degan savol bilan murojaat qiladi. Jurnalning 19-sonida Behbudiyning “Sart so‘zi majhuldur” degan maqolasi bosiladi. 24-sonida esa Samarqandlik Baqoxo‘ja “Sart so‘zi aslsizdur” degan maqola bilan chiqadi. Bu bilan bahs bosilganday bo‘ladi. Biroq, oradan 2-3 yil o‘tib, “Sadoyi Farg‘ona”ning 1914-yil 30-sonida Mulla Abdullabek degan kishining “Sart so‘zi ma’lumdir” degan maqolasi bosiladi. Tabiiyki, Behbudiy undan qanoatlanmaydi, chunki unda mavzuga doir biror yangi gap aytilmagani holda, “ma’lum” deb da’vo qilingan edi. Shu sababli Behbudiy “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” degan maqola yozib, “Sadoyi Farg‘ona”ga yuboradi. Biroq gazeta maqolani bosmaydi. Shundan so‘ng muallif maqolani o‘z jurnalida (1914-yil 39-son) berishga majbur bo‘ladi.

Behbudiy mazkur maqolada Mulla Abdullabekning maqolasini chop etilganini ko‘rib, o‘qimasdan avval “sart” so‘zi hal qilinibdi, deb xursand bo‘lganini yozadi. Lekin maqolani o‘qib ko‘rib, muallifning bergan ma’lumotlari mazmunidan “sart” so‘zining ma’nosi asoslanmaganligini, oldingi majhul holida qolganligini aytadi. Chunki muallifning “sart” haqida yozgan ma’lumotlari asoslanmagan, og‘zaki eshitgan noma’lum ma’lumotlardan iboratligini ta’kidlaydi. Behbudiyning fikricha, “sart” so‘zining haqiqiy ma’nosi tarixchi va sharqshunoslar tomonidan o‘rganilib, aniq ma’nosi asoslanishi lozim. Agarda “sart” so‘zi ma’lum bo‘lganida, ya’ni Turkistondagi xalqlarning barchasi yoki ma’lum bir qismining “sart” atalishi isbotlanganida edi, unda hech kim bu xususida bahs yuritmas edi.

Shuningdek, Behbudiy nizom va qonunlardan chiqmagan holda, diniy, milliy va maishiy masalalar xususida har doim bahs va muzokara qilib turish kerak deb hisoblaydi.

Behbudiy sinchkovlik bilan, Mulla Abdullabekning “Sart so‘zi ma’lumdur” mavzusi ostida: “Bir zamonlarda Turkistonda sahroyi qirg‘iz va qazoq…”, – deb naql va rivoyat etgan ma’lumotlari qaysi tarix kitobidan va yoki qaysi tarixchi so‘zidan olinganligini bila olmaganligini, agar bu rivoyatlar og‘zaki hikoya va so‘zlar jumlasidan iborat bo‘lsa, “sart” so‘zi ma'lum bo‘ldi yoki “sart” masalasi hal qilindi, deb hukm chiqarish to‘g‘ri emasligini va aslida noma’lum bir rivoyat bilan katta bir tirixiy masalani hal etish jinoyat sanalishini bayon qiladi.

Behbudiy maqoladagi asossiz, dalilsiz ma’lumotlardan hayrat va taajjubdaligini yashirmaydi. Jumladan, maqolada “sart”ning asli “shart” ma’nosini

anglatishi, shuningdek, har kimni “sart” desa, xursand bo‘lib, faxrlanishi kerakligini, chunki “sart” degani, masjid va madrasa ko‘rganlik, bozorni biladigan ozoda, madaniyatli shaxsni bildirishi ta’kidlangan. Behbudiy “shart” ma’nosini keyingi ma’nolar bilan umuman mos kelmasligini uqtiradi va Sherali Lapin tomonidan “sart”ga “sarig…” deb bergan ma'nosi kabi ushbu berilgan ma’no ham nomunosib ekanligini aytadi.

Behbudiy ba’zi asarlarda “sart”ning ma’nosi karvonboshi yoki savdogar mazmunida berilgani, lekin bu ham bir sharqshunosning so‘zi ekanini yozadi va “sart” so‘zining ma’nosi to‘liq yoritilmaguncha uni qabul qilmaslikka haqli ekanini bildiradi va “sart” so‘zi hanuz majhuldur, deb fikr bildiradi.

Maqolaning hajmi katta bo‘lib, jurnalning bir necha sonida davom etgan. Adib ushbu kalimaning xalqona etimologiyasidan tortib, turli davrlardagi asarlarda, lug‘atlarda berilishini to‘plab, xulosalaydi. Chunonchi, “sart” so‘zining ma’nosi davrlar osha boyib borgan. Masalan, sart deganda dastlab savdo axli tushunilgan, so‘ng hunarmand va dehqonlar ham sart deb atalgan. Sart erli, o‘troq bo‘lgan turkiylashgan sug‘diylar, xorazmiylarga nisbatan ham qo‘llangan. Arab manbalarida sart deganda Movarounnahrdagi barcha musulmonlar ko‘zda tutilgan. Mo‘g‘ullar Xorazmshohning barcha fuqorolarini “sart” deb ataganlar. Navoiy zamonida barcha tojiklarni “sart” deb atashgan. Demak, “sart” so‘zi dastlab aholining etnik nomi bo‘lmagan. Bu nom aholining kasb-koriga qarab farqlovchi ifodaligi bois elat nomini anglatmagan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mazkur so‘z: 1) Qadimda O‘rta Osiyodagi shahar va qishloqlarda yashab, dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan turkiy xalqlar; 2) Chor Rossiyasi hukmronligi davrida hozirgi O‘zbekiston hududidagi mahalliy xalqqa Yevropaliklar tomonidan berilgan nom, deb izohlangan

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste’dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o‘z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq hamda milliy o‘zlikni anglash borasidagi fikrlarini maqola va chiqishlarida yorqin ifoda etdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi. “Oyna” jurnali, 1914-yil, 39-son.

2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zME” Davlat ilmiy iashriyoti. –164 b. www.ziyouz.com kutubxonasi.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-5 jildlar. – Toshkent: “O‘zME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

Qo‘chqor NORQOBIL,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist,
shoir, yozuvchi, dramaturg
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,

O‘zDSMI dotsenti

TEATR KO‘ZGUSIDA JAMIYAT AKS ETADI

Annotatsiya. *Millat ruhiga erk va ozodlik tushunchalarini singdirish, o‘zlikni asrash uchun ulug‘ bobolarimiz bo‘lgan jadidlar teatr san’atining o‘rni ham benihoya katta ekanligini yaxshi anglashgan. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zbek teatri shakllanishidagi roli va bugungi kunda ushbu san’at turiga munosabat haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *teatr, jadid, pyesa, Behbudiy, spektakl, san’at, jaholat, ma’naviyat.*

Annotation. *The jadids, our great-grandfathers for instilling the concepts of erk and freedom in the spirit of the nation, to preserve the self, were well aware that the role of theatrical art is also great in benihoya. The article reflects on the role of Mahmudhaja Behbudi in the formation of the Uzbek theater and the attitude to this type of art today.*

Key words: *Theatre, jadid, play, Behbudiy, performance, art, ignorance, spirituality.*

Yevropa va dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida san’atning bu turi naqadar rivojlanganini his qilgan jadidlar teatr sahnasi mavjud tuzum va hayotning in’ikosi bo‘lishini anglab etadilar va teatr ayni chog‘da millatning shuurini yoritajak nur maskani, ibratxona bo‘lishini isbotlashga urinadilar. Ayniqsa Behbudiyning dav’ati – “Teatr – ibratxona”, deya ommani teatrga jalb etishi yurtimizda teatr san’ati poydevori qo‘yilishiga asos bo‘ldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo‘lgan jadidchilik harakati asoschilari yurtimizda xuddi o‘sha davrdagi Yevropa davlatlaridagi kabi teatr binolari bo‘lishinini istaydilar. Shu istakning qat’iyligi tufayli bobomiz Behbudiyning “Padarkush” pesasi 1914-yil fevralida Toshkent va Samarqand sahnalarida ilk bor namoyish etildi va Turkistonda teatr san’atiga tamal toshi qo‘yildi. Shundan so‘ng Nusratulla Qudratulla, Abdulla Qodiriy, Abdulla Badriy, Hoji Muin singari dramaturglar paydo bo‘ldi. Bu iste’dodlar o‘zbek san’ati tarixida “Jadid teatri”, degan o‘lmas va o‘chmas tarixiy bobni yaratdilar. Shu o‘rinda Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi gapini aynan keltirib o‘tmoqchiman**:** *“Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur, deyurlar. Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof va munaqqidi derlar. Umumiy odatlarni naf’i va zararidan paydo bo‘la turgon natijalarni teyotrxonada aynan ko‘rsaturlarki, har kim mundin ta’sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg‘a sabab bo‘lur...”*

Anglayapsizmi, oradan yuz yillar vaqt o‘tsa-da ulug‘ Behbudiyning bu gaplari hamon dolzarbligicha turibdi. Bizning davrimizda ham bu fikrlar o‘z ahamiyatini sira yo‘qotmagan. Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat teatr targ‘ibotchisi, uning o‘zi ham etuk dramaturg sifatida bu soha ravnaqiga bemisl hissa qo‘shdi. Teatr jonkuyari Behbudiy o‘zining o‘lmas asari “Padarkush” dramasini yaratdi. Asarda jamiyatning eng og‘riqli nuqtasi ilimsizlik va jaholat mavzusi bo‘lib, hayotiy

voqeyliklar misolida, juda ta'sirli holda sahnaga olib chiqiladi. Behbudiy bu asarida yoshlarning bilim olmasligi, o'qimasligi nafaqat tubanlikka qulashiga sabab bo'ladi, balki jaholat va yovuzlik sari boshlashi, ular o'z yaqinlari, hatto ota - onalari o'limlariga ham sababchi bo'lib qolishiga ishora qiladi.

Shuningdek, ulug' adibimiz Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasida to'ylardagi isrofgarchiliklar qalamga olinadi. Dabdabali to'ylardan so'ng odamlarning og'ir ahvolga tushayotganlari, iqtisodiy jihatdan qiynalib qolayotgani, qarz-havola qilib to'y o'tkazgan kishilarning ayanchli ahvoli o'ta ta'sirchan holda, teatrning tarbiyaviy kuchi orqali namoyish etilgan.

Xo'sh, ayting-chi, bu asarlarda ko'tarilgan og'riqli masalalar bugun o'z ahamiyatini yo'qotganmi? Yo'q, albatta. Bu mavzular bugun ham dolzarb! Ulug' bobolarimizning teatrni *ibrat* va *namuna* maktabi sifatida targ'ib qilishi ham bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xalqimiz bugun ham teatrga tushyaptimi? Teatrga munosabat hozir ham ko'ngildagidaymi, ayni zamonimizda ham teatr muqaddas dargoh sifatida millat tomonidan tarbiya maskani deb e'tirof etilayaptimi, degan savollar kishi ko'ngliga og'riq solyapti...

Ba'zida Prezidentimizning davlat ahamiyatiga molik nufuzli bir yig'inda vazir-u nozir, katta - kichik rahbarlarga qarata oxirgi bir oy ichida qaysi teatrga kirib, qanday spektakl tomosha qilgansizlar, desam ko'pchillik javob berolmay, uyalib qoladi, degan ma'nodagi gaplari qulog'im ostida jaranglaganday bo'ladi. Ha, davlatimiz rahbari bu gapni bekorga gapirmagandilar. Bu tagdor gapni eshitganda "kattakonlar" tanasiga o'ylab ko'rishadi, teatrga kirishga vaqt topishadi; hech bo'lmasa, yakshanba kunlari ibrat maskanida spektakl tomosha qila boshlashadi; mayli, rasmiy emas, odmi kiyimlarda, galustuksiz bo'lsa ham tomosha zallariga kirishadi, oilasi va farzandlarini ham olib kelishadi; bulardan ko'rsa, o'sha tizimdagi xodimlar ham rahbaridan qo'rqqani yo uyalganidan teatrga borishadi, axir katta arava qaysi yo'ldan yursa, mayda "g'ildirakcha"lar ham uning izidan boradi-ku! Tomosha zallari ham gavjumlashib qoladi endi, degan xushyoqim xayollarga berilgandim. Teatrlar jamoalarining falon vazir yo vazir o'rinbosari bizning teatrimizga kelib spektakl tomosha qilarkan, deb xursand bo'lishlarini tasavvur qilib, ko'nglim ko'tarildi. Bir gapni aytib qo'yay: agar teatrga biror kattakon borib spektakl ko'rsa, o'sha maskanning farroshidan tortib sahnadagi aktyori-yu teatr rahbariyatigacha o'zgacha bir surur bilan faxrlanishi aniq! Afsus, bunday holatlar onda - sonda bo'ladi...

Men ba'zi xorijiy davlatlardagi teatrlarga tushganman. Ochig'i, men bilgan davlatlarning hech birida teatr sohasiga bizning yurtimizdagiday e'tibor qilinmaydi. Qator yillardan beri teatrlarni vazirlik va davlat idoralari tomonidan qo'llab quvvatlash, xodimlarni teatr tomoshalariga jalb etishni yo'lga qo'yish, iqtisodiy baqquvvat idoralarni teatrlarga biriktirib "Do'stlar klub"larini tashkil qilish kabi ishlar tizimli ravishda amalga oshirib kelinayapti.

O'tgan yili noyabr oyida Prezidentimizning teatr sohasini rivlojlantirish borasida chiqargan tarixiy qarori, aytish joizki, madaniyat ahli hayotida har jihatdan mislsiz ahamiyat kasb etadi. Bu qaror mohiyati haqida xorijlik ijodkor do'stlarim, teatr sohasi odamlariga so'zlab berganimda hayron qolishdi. Davlat teatrni tashlab qo'ymaganiga havas qilishdi.

Teatrda biz hayotni, o‘zimizni, o‘tmish va kelajagimizni ko‘ramiz. Odamzotning ma’naviy qashshoqlik chohiga tushib ketmasligi borasida bong uradi teatr. Ayniqsa, bugun bani basharda ezgulik tushunchalari oyoq osti bo‘lib, axloqsizlik odatiy hol sanala boshlagan, turli xil ijtimoiy tarmoqlarda kelajak avlod ruhiyatiga tajovuz qilinayotgani yaqqol sezilib qolgan, bu falokatni hamma ham payqamayotgan, befarqlik va loqaydlik urchiyotgan bizning zamonimizda, ha, shu ayni damda, teatr biz uchun najot sahnasiga aylanishi lozim. Behbudiy bobomizning gapi bugun ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Xullas, teatr odamiylik haqida saboq beradigan ziyo sahnasi ekanligi o‘zini bilgan odamga kunday ravshan bo‘lib qoldi.

To‘g‘ri, teatrga kirmasangiz ham kuningiz o‘taveradi. Lekin, o‘tayotgan kunning qandayligini bilish uchun ham teatrga kirib turish kerak.

Yuqoridagi gaplar ayrim teatrni yoqtirmaydigan insonlarning ko‘ngliga og‘ir botishi mumkin. Biroq bir gapni yana takror aytaman: siz uyingizdagi ko‘zguga ishonmang, u sizning tashqi ko‘rinishingiznigina namoyon etadi. Teatr esa sizning ichingiz, ko‘nglingizni ham ko‘rsatib beradi. Bu oddiy ko‘zgu emas... O‘z botinini bilmagan odam o‘zligini topishi qiyin. Teatr, kerak bo‘lsa, jamiyatning qon tomirini ushlab tashxis qo‘ya oladi. Xayriyatki, buni tushungan rahbarlar ham, oz bo‘lsa-da, bor.

Bir kuni Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatri rejissyori xursand holda qo‘ng‘iroq qilib qoldi:

– Teatrimizda Maktab va maktabgacha ta’lim vaziri Hilola Umarova jamoasi bilan kelib, spektakl tomosha qildi. Hatto spektakl tugagach, u kishi ustoz murabbiyalar bilan birgalikda sahnamizga chiqib aktyorlarimizni tabrikladi. Rosa xursand bo‘ldik. Baribir vazirlarning teatrga kelishi boshqachada-a, jamoamiz ham xursand bo‘ldi, – dedi u hayajonlanib.

Uning aytishicha, vazirning tashrifidan so‘ng tizimdagi barcha tashkilotlar jamoasi teatrga spektakl ko‘rgani kelishgan. Bu hol hanuzgacha davom etyapti. Men vazirning ijtimoiy tarmoq orqali ham soha xodimlarini teatrga kirib turishlari lozimligi haqidagi chiqishini o‘qib, xursand bo‘ldim, hurmatim yanada oshdi.

Yana bir ziyoli rahbar, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi direktori Otabek Hasanovning o‘z jamoasi bilan teatrlarga muntazab borib turishlari, respublika teatrlari faoliyatini keng targ‘ib qilishi, ayrim viloyat hokimlarining o‘z hududidagi teatrlar bilan samimiy aloqada ekanligini eshitib, xursand bo‘laman. Xayriyat, deyman, xayriyat, teatrni sevadigan ziyoli rahbarlar ham bor.

Lekin baribir, ko‘nglimning bir burchida boshqalarning qachon, qaysi zamonda teatrga tushganini bilgim kelaveradi...

Bugungi ilmiy - amaliy anjumanimizda muhokoma etilayotgan dolzarb mavzu – jadidlarning teatr va san’at rivojiga qo‘shgan hissasi va ularning millat ruhi y uksalishida teatrning o‘rni borasidagi qarashlari talqin etilayotgan pallada teatrning omma ma’naviy hayotidagi o‘rni naqadar beqiyosligiga yana bir bor ishonch hosil qildik, deb o‘ylayman.

Матлуба МУРОДОВА
Доктор философии (PhD) и.о. профессор ГАХУз

ОБРАЗОВАНИЕ КАК КЛЮЧ К ПРОСВЕЩЕНИЮ

Аннотация. *Статья исследует вклад Исмаила Гаспринского в развитие мусульманского просвещения и культуры в конце XIX - начале XX века. Рассматриваются основные аспекты его деятельности, включая внедрение педагогических инноваций, активное участие в общественной жизни, влияние на литературу и искусство, а также его наследие в современных образовательных системах. Работа подчеркивает актуальность идей Гаспринского в свете современных вызовов.*

Ключевые слова: *образование, литература, культура, значительное влияние, развитие мусульманского просвещения, социальные реформы, общественное сознание, мыслитель, педагог, журналист, сотрудничество.*

Annotation. *This article examines the contribution of Ismail Gaspirali to the development of Muslim education and culture in the late 19th and early 20th centuries. It discusses key aspects of his activities, including the introduction of pedagogical innovations, active participation in public life, influence on literature and art, and his legacy in modern educational systems. The paper emphasizes the relevance of Gaspirali's ideas in light of contemporary challenges.*

Key words: *Education, literature, culture, significant, influence, development of Muslim, Enlightenment, social reforms, public consciousness, thinker, educator, journalist, collaboration.*

Введение. Сегодня, когда мир сталкивается с множеством вызовов, таких как экстремизм и культурные конфликты, идеи Гаспринского о диалоге и взаимопонимании между различными культурами становятся особенно актуальными. Его призыв к единству мусульман и сотрудничеству с представителями других культур может служить основой для мирного сосуществования и преодоления предрассудков.

Исмаил Гаспринский (1851-1914) — выдающийся крымскотатарский мыслитель, педагог, журналист и общественный деятель, оказал значительное влияние на развитие мусульманского просвещения и культуры в России и за ее пределами. Его жизнь и деятельность пришлись на переломный период в истории мусульманского мира, когда традиционные ценности вступали в конфликт с новыми реалиями, вызванными модернизатsieй и колонизатsieй.

Основная часть. Гаспринский понимал, что образование — это основа для социального и культурного прогресса. Он считал, что мусульмане должны адаптировать свои традиции к современным требованиям, что требовало создания образовательных учреждений, которые бы сочетали религиозные и светские дисциплины. Гаспринский инициировал открытие новых школ, которые стали центрами просвещения и культурного обмена.

Гаспринский также поднимал вопросы женского образования, что стало важным аспектом его философии. Он понимал, что просвещение женщин имеет решающее значение для развития общества в целом. В современных мусульманских странах, где активно обсуждаются права женщин и их роль в обществе, идеи Гаспринского остаются важным ориентиром для реформаторов и активистов.

Создание и редакция журнала «Терджиман» стали важной вехой в истории мусульманской журналистики. Журнал стал платформой для обсуждения социальных, политических и культурных вопросов, а также способствовал распространению идей модернизации среди мусульман. Он публиковал работы известных ученых и мыслителей, что способствовало формированию общественного мнения о необходимости реформ.

Гаспринский активно выступал за социальные реформы, включая улучшение положения женщин и детей. Он понимал, что для достижения прогресса необходимо обеспечить равные права и возможности для всех членов общества. В своих статьях он поднимал вопросы необходимости образования для женщин, что тогда было актуально и часто воспринималось как радикальная идея.

Гаспринский был сторонником панисламизма и единства мусульманских народов. Он подчеркивал важность сотрудничества между мусульманами разных стран и народов для достижения общих целей. Его идеи о единстве и культурном взаимодействии остаются актуальными и сегодня, когда мир сталкивается с проблемами экстремизма и культурных конфликтов.

Гаспринский также занимался научными исследованиями и публиковал работы, посвященные истории и культуре мусульман. Его исследования помогли сохранить и распространить богатое культурное наследие мусульманского мира, что имеет важное значение для понимания его места в мировой истории.

Исмаил Гаспринский не только создавал новые образовательные учреждения, но и внедрял инноватsionные методы обучения. Он считал, что традиционные методы преподавания, основанные на механическом заучивании, не соответствуют потребностям современного общества. В его школах применялись активные методы обучения, которые способствовали критическому мышлению и развитию самостоятельности у учащихся. Это было новаторским подходом для мусульманского образования того времени.

Гаспринский активно участвовал в общественной жизни, организовывая различные мероприятия, конференции и культурные программы. Он понимал важность общественного обсуждения вопросов, касающихся мусульманского общества, и стремился создать платформу для обмена мнениями и идеями. Это способствовало формированию нового общественного сознания среди мусульман.

Заключение. Исмаил Гаспринский остается одной из самых значительных фигур в истории мусульманского просвещения. Его идеи и деятельность не только повлияли на развитие мусульманского общества в его время, но и продолжают вдохновлять новые поколения на пути к знаниям,

культурному взаимодействию и социальной справедливости. В условиях современного мира, где вопросы образования, прав человека и культурного взаимодействия становятся особенно актуальными, наследие Гаспринского служит важным ориентиром для мусульманских обществ, стремящихся к устойчивому развитию и гармонии.

Список литературы

1. Гаспринский, И. Собрание сочинений. Симферополь: Таврия. 1990.
2. Сулейманов, А. Исмаил Гаспринский: жизнь и деятельность. Москва: Наука. 2014.
3. Канафиева, А. Гаспринский и его влияние на крымскотатарскую культуру. Симферополь: Крымский педагогический университет. 2019.
4. Асанова, Р. Образование и его роль в мусульманском обществе: традиции и современные подходы. Алматы: Издательство Абай. 2021.
5. Муслимов, И. Исмаил Гаспринский: культурный деятель и реформатор. Ташкент: Узбекское издательство. 2022.

Bo‘ri KADIROV
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat
markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy
tadqiqotlar instituti

ASHURALI ZOHIRIY: MA’RIFATPARVARLIK VA TIL SOFLIGINI SAQLASH YO‘LIDA KURASHCHI

Annotatsiya. *Mazkur maqola jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan targ‘ibotchilaridan biri, “O‘zbek tili” darsligini yaratgan atoqli olim, fidoyi pedagog, elning ertasi uchun kurashgan ma’rifatparvar inson Ashurali Zohiriyning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *matbaachilik, ma’rifatparvar ziyolilar, ilmiy-ijodiy meros, lug‘atshunos, jadid maktablari, rus adabiyoti durdonalari, milliy istiqlol.*

Abstract: *This article is dedicated to the life, scientific and creative activities of Ashurali Zohiri, one of the prominent propagators of the Jadid movement, an outstanding scholar who created the textbook "Uzbek Language", a devoted teacher, and an enlightened person dedicated to serving the future of the nation.*

Key words: *printing, enlightened intellectuals, scientific and creative heritage, lexicographer, Jadid schools, masterpieces of Russian literature, national independence.*

Uyg‘onish davri ma’rifatparvar ziyolilari hayot taqozosi bilan ijtimoiy-ma’naviy hayotning turli sohalarida ish olib borganlar. Ular ayni paytda pedagog-olim, yozuvchi-shoir, jurnalist-noshir sifatida va yana boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatishgan. A.Zohiriy ham bundan mustasno emas. Olim ilmiy-ma’rifiy, pedagogik, adabiy-publitsistik faoliyati bilan o‘zbek xalqi madaniyati tarixida munosib o‘rin tutadi.

Jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri Ashurali Zohiriy o‘zining qizg‘in ijtimoiy-siyosiy faoliyati, salmoqli ilmiy-ijodiy merosi bilan o‘zbek xalqining istiqlol yo‘lidagi kurashi, yuksak madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan siymolardan biridir. U o‘z davrida jadid ijtimoiy harakatchiligining etakchilaridan biri, Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon singari mashhur edi.

Taniqli ma’rifatparvar, yirik tilshunos, lug‘atshunos, adabiyotshunos olim, jurnalist va tarjimon Ashurali Zohiriy 1885-yili Qo‘qon yaqinidagi Oyim qishlog‘ida tug‘ilgan. U boshlang‘ich ma’lumotni eski maktabda oldi. 1897-1914-yillar davomida Qo‘qon shahridagi Muhammad Alixon (Madalixon) madrasasida tahsil ko‘rdi. Bu erda diniy bilimlar, tarix, mumtoz adabiyotni chuqur o‘rganish bilan birga zamonning ilg‘or fikrlaridan bahramand bo‘ldi. O‘z zehni bilan arab, fors, turk, ozarbayjon, tatar va rus tillarini puxta egalladi. Madrasa tahsilini davom ettirish baravarida Qo‘qon shahridagi 2-rus-tuzem maktabida o‘zbek tili va adabiyotidan dars berdi [1].

Ashurali Zohiriy 1912-1913-yillarda Qozonda yashab, tatarlar foydalanayotgan ta’lim jarayonidagi innovatsion yo‘llarni o‘rganib kelgan. Qo‘qonga qaytgach, “G‘ayrat” kutubxonasini ochgan va jadid maktablarida o‘qituvchilik qilgan. “Oyina” jurnalining 1914-yil 12-sonida e’lon qilingan “Ho‘qandda usuli savtiya muallimlari” maqolasida Qo‘qon jadid maktablarida dars berayotgan 22 nafar ziyoli nomi ko‘rsatilgan bo‘lib, ro‘yxat boshida Ashurali ibn Muhammadzohirning turgani, u nafaqat rus-tuzem maktabida, balki yangi usul maktabida ham muallimlik qilganligini isbotlaydi.

Shuningdek, 1917-yilning 1-iyunidan Qo‘qonda o‘z muharrirligi ostida “Yurt” jurnalini chiqara boshlaydi. Jurnal sahifalarida ozodlik, mustaqillik buyuk ne’mat ekanligini e’tirof etuvchi hamda Turkiston xalqlarini birlashuvga chorlovchi maqolalarini e’lon qilib borgan. Uning 100 yil oldin aytgan “Maqsadga etmoq uchun ittifoqlik har nav zulmdan qutulmoqning muqaddimasidur, ammo bunday muhim fursatda g‘aflat ulug‘ bir jinoyatdur”, degan fikrlari bugungi kunda ham eskirmagan haqiqatdir. Ashurali Zohiriy 1917-yil noyabrda tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatining ishlarini yo‘lga qo‘yishda va milliy hukumatni saqlab qolishda kuch-g‘ayratini ayamagan.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi Ashurali Zohiriy matbuot sohasida ham samarali mehnat qilib, “Sadoyi Farg‘ona” (1914), “Xalq gazeti” (1918-1919), “Mehnat bayrog‘i” (1921), “Farg‘ona”, “Yangi Farg‘ona” (1921–1930) gazetalarida adabiy xodim bo‘lib faoliyat olib borgan.

Ashurali Zohiriy 1910-yillardan Turkiston vaqtli matbuotida faol qatnasha boshlagan. “Ona tili” (“Sadoyi Farg‘ona”, 1914-y.13-aprel), “Marhum Ismoilbek qanday ishlar qilgon?” (“Sadoyi Farg‘ona”, 1914 y., 60-son), “Hukumat o‘zgarishi”

(“Yurt”, 1917-y., 1-son), “Milliy ishlar komissari Tojxo‘ja afandining “Fiqha jamiyati”ga bergan savoli munosabati ila” (“Ulug‘ Turkiston”, 1918 y., 110-son), “Imlo masalasi haqida ikkinchi turli mulohaza” (“Ishtirokiyun” 1919 y.19-iyun.), “12-firqa qurultoyida millatlar masalasi” (“Farg‘ona”, 1923-y.13-may), “O‘tkanlarga bir qarash” (“Farg‘ona”, 1923 y., 100-son), “Bir yil to‘ldi” (“Farg‘ona”, 1924 y., 199-son), “Olti oylik o‘zbek adabiyoti (bosma so‘zi)ga bir qarash” (“Farg‘ona”, 1924-y., 21-iyun), “O‘zbeklar” (“Farg‘ona”, 1926 y., 346-son), “Turkiyot qurultoyi to‘g‘risida” (“Farg‘ona”, 1926-y., 384-son), “Kelurnoma” (“Maorif va o‘qitg‘uchi”, 1927 y., 9-10 sonlar), “Til va imlo masalasi” (“Qizil O‘zbekiston”, 1929-y., 29-mart) kabi ko‘plab maqolalar yozgan. Ularda zamonning eng dolzarb masalalari: ona tili muhofazasi, madaniy-dunyoviy ma’rifat, yangicha ta’lim-tarbiya, milliy uyg‘onish, hurriyat, taraqqiyot, milliy davlatchilik g‘oyalari, shuningdek, olimning tilshunoslik, adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan [3, 24].

Prezentimiz Shavkat Mirziyoyevning farg‘onalik saylovchilar bilan uchrashuvda Ashurali Zohiriyni yodga oldi: “Yurtimizda ilk bor “O‘zbek tili” darsligini yaratgan atoqli olim, jurnalist va tarjimon, jamoat arbobi Ashurali Zohiriy bo‘lganini sizlar albatta yaxshi bilasizlar. Butun umrini el-yurtni, millatimizni ma’rifatli va madaniyatli qilishga bag‘ishlagan, 1937-yili “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qurboni bo‘lgan bu betakror insonning xotirasini munosib qadrlash, nomini abadiylashtirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsak, o‘ylaymanki, tarixiy adolat qaror topadi”.

“Imlo” darsligi bilan tanishib chiqqan Abdurauf Fitrat o‘zining “Sarf” kitobi so‘z boshisida ona tilini o‘qitish tamoyillari, o‘zbek adabiy tilining qonun-qoidalarini belgilash, tilning taraqqiyot yo‘nalishlarini aniqlash haqida fikr yuritar ekan, Ashurali Zohiriyning xizmatlarini alohida e’tirof etib o‘tgan. Tatar ma’rifatparvari Abdurahmon Sa’diy esa o‘zbek adabiy tilining maydonga kelishi, milliy matbuotning yo‘lga qo‘yilishi, o‘zbek tilida kitoblar chop etilishida jadid ma’rifatparvarlarining hissalarini munosib baholab, “Uyg‘onish davrida bu ishlarni Behbudiy turg‘azib, Hoji Muinlar, Zohiriylar ishlaguchi bo‘ldilar”, deb ta’kidlagan [5].

Ashurali Zohiriyning Cho‘lpon bilan hamkorlikda “Adabiyot parchalari” darslik-xrestomatiyasini tuzib, 1926-yilda nashr ettirdi. Mazkur darslikdagi Navoiy, Farobiy, Fuzuliy tarjimai holiga oid maqolalar, “Bobolar so‘zi” sarlavhasi ostida to‘plangan o‘zbek xalq maqollari A.Zohiriyga tegishli. Hozirgacha maktab adabiyot darsliklaridan tushmay kelayotgan Navoiyning “Hayratul abror”, “Majolisun nafois”, “Saddi Iskandariy” kabi asarlaridan ko‘plab hikoyatlar, boblardan parchalarni dastlab mana shu kitobda uchratamiz.

Ashurali Zohiriy zukko tilshunos sifatida o‘tmish allomalarimizning til sohasidagi ilmiy merosidan yaxshi boxabar bo‘lgan. Ularni faqat o‘rganib qolmasdan, bu noyob asarlardan keng xalq ommasini bahramand etishda katta ishlarni amalga oshirgan. Olimning Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarini nashr ettirgani fikrimizning dalili bo‘la oladi. Ushbu kitobni o‘z muharrirligi ostida chiqargan “Yurt” jurnali (1917) sahifalarida keng targ‘ib va tashviq qildi. Jurnalning ilk sonlari orqa muqovasida reklama yo‘sinida berilgan matnda shunday jumlalarni o‘qiymiz: “Chig‘atoy shoirlaridan mashhur amir Nizomiddin Alisher Navoiyning

“Muhokamatul lug‘atayn” nomidagi noyob asari Rusiyada birinchi martaba tab’ etilib sotilmoqqa qo‘yildi. Bu kitob turk tili bilan forsiyning muhokama va muqoyasasidan iborat bo‘lub, turk tilining forsiyg‘a nazaran nihoyatda boylig‘ini yuz lug‘atlar bilan isbot etmishdur. Turk tilining unutilg‘on lug‘atlarini ham “sart” deb avvalda kimlarni atag‘onlig‘ini bilgusi kelgan har bir zot uchun muhim bir asardur. Turkistondagi mashhur kutubxonalarda ham noshirning o‘zida sotilur”. Shuningdek, A.Zohiriy Muhammad Yusuf Chingining “Kelurnoma” nomli chig‘atoycha-forscha lug‘atini O‘zbekistonda birinchi bo‘lib ilmiy istifodaga olib kirganini qayd etish lozim. Olim ushbu asar haqida “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida salmoqli maqola chop etgan A.Zohiriy tomonidan o‘zbekchalashtirilib, 1927-1928-yillarda O‘zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan chop etilgan ikki jilddan iborat 690 sahifalik “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at” ham madaniyatimiz tarixida birinchi yirik leksikografik asar hisoblanadi. 1983-yilda nashr etilgan Ruscha-o‘zbekcha lug‘atning so‘z boshida A.Zohiriyning lug‘atchilik xizmatlariga munosib baho berilgan. Unda ushbu lug‘atning o‘zbek-rus leksikografiyasi taraqqiyotida alohida o‘rin tutishi qayd qilingan [3, 11].

Ashurali Zohiriy lug‘atni tuzishda quyidagi ishlarni amalga oshirganligini ko‘rishimiz mumkin:

1) “Ruscha-tatarcha mukammal lug‘at”dagi so‘z va birikmalar so‘zma-so‘z tarjima qilingan;

2) lug‘at maqolalariga jiddiy o‘zgartirishlar kiritgan, ya’ni undagi o‘zbek o‘quvchisi uchun zarur bo‘lmagan ayrim so‘z va birikmalarni tushirib qoldirgan, lug‘at maqolalariga yangi so‘zlar qo‘shgan, notanish so‘zlar o‘rnida yangi tushunarli so‘zlar ishlatgan;

3) iboralar tarjimasi, asosan, o‘zbekcha ifoda etilgan;

4) Ashurali Zohiriy birinchi marta lug‘atga xalq jonli so‘zlashuv tilidan juda ko‘p so‘z va birikmalarni olib kirgan;

5) lug‘atdagi ayrim kamchiliklar qatorida ba’zi so‘z va iboralar noto‘g‘ri tarjima qilingan, ayrim so‘z ma’nolari ajratib ko‘rsatilmaganini keltirish mumkin [4, 176].

Haqiqatan, Ashurali Zohiriyning bu xizmati o‘tgan asrning 20-yillar madaniy hayotida katta voqea bo‘ldi. Yoshlar, ilm-ma’rifat kishilari, ziyolilar lug‘at vositasida dunyo, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lib, o‘z bilimlarini oshira bordilar. U oliy o‘quv yurti talabalarining zarur o‘quv qo‘llanmasiga aylandi. Lug‘at vositasida talabalar nafaqat ilm-fanning murakkab sirlarini o‘rganishni, ayni chog‘da, rus adabiyoti durdonalari, rus tilining bitmas-tuganmas boyligidan bahramand bo‘la boshladilar. Ushbu lug‘atni isloh qilingan alifboda nashr etilishi kitobdan foydalanuvchilarga ko‘p qulaylik yaratdi [3, 82].

Ashurali Zohiriy milliy uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan ma’rifatparvar ziyolisi va istiqlol kurashchisidir. U o‘zidagi bor iste’dod va iqtidorini milliy mustaqillik yo‘liga baxshida etdi. Xalqni ma’rifat yo‘li bilan tarbiyalashda muhim bo‘lgan milliy maktab-maorifni tashkil qilishda, matbaachilik, jurnalistika va yana boshqa sohalarda fidokorona xizmat qilgan. Olim ona tili - milliy o‘zbek tili jonkuyari, himoyachisi, etuk tilshunos olim sifatida munosib nom qoldirgan.

Zohiriy Turkiston mustaqilligi yo‘lida o‘lkada kechgan barcha ijtimoiy va siyosiy harakat va kurashlarning faol ishtirokchilaridan biri edi.

Ashurali Zohiriyning nomi milliy istiqlol uchun kurashganlar qatoridan munosib o‘rin olgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Международная Тюркская академия. Материалы IV форума гуманитарных наук “Великая Степ”. Нур-Султан – 2019. С. 414
2. https://oyina.uz/kiril/article/1160
3. Tog‘ayev T. M. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi.-Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021, B. 24.
4. Normatov S.E. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni. Fil. f. b. f. d.DSc) diss. 2019, B. 176.
5. https://oyina.uz/kiril/article/1160

Xamdamjon ISMOILOV,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O‘zDSMI

JADIDLAR – BIRINCHI O‘ZBEK ZIYOLILARI - MILLIY OZODLIK UCHUN KURASHCHILAR

Annotasiya. *Ushbu maqolada olim Naim Karimovdan eshitgan ma’lumotlar asosida jadidlarning shakllanishi, ularning davr siyosati borasidagi qarashlari, o‘sha davr siyosatiga nisbatan noroziliklari, aholini savodxon qilish yuzasidan intilishlari, yurt mustaqilligi yo‘lida olib borgan kurashlari haqida bayon qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *tarix, ilmiy, jadidlar, g‘oyalar, qarshilik, zulm, o‘choq, yo‘lboshchi, sahna, hushyorlik*

Abstract. *In this article, based on information he heard from scholar Naim Karimov, the author tells about the formation of the Jadids, their views on the politics of the time, their dissatisfaction with the politics of that time, their efforts to educate the population, and their struggle for the country's independence.*

Keywords: *history, scientific, modern, ideas, resistance, tyranny, hearth, guide, stage, vigilance*

O‘tgan asrning 80-yillarida Naim aka Karimov bilan birga O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va Adabiyot ilmiy tadqiqot institutida birga ishlagan edik. Biz yosh ilmiy xodim edik, Naim aka filologiya fanlari doktori ilmiy darajali etakchi ilmiy xodim lavozimida ishlardi. O‘sha paytlarda jadidlar haqida gapirish ko‘p ham ma’qullanmasa ham, Naim akadan jadidlar haqida gapirib berishlarini iltimos qilar edik, ular nihoyatda hushyorlik bilan jadidlar haqidagi ba’zi faktlarni gapirib berar edi.

Jadidlar XIX asr oxirlari – XX asrning boshlarida maydonga chiqdilar. Ularning tarix sahnasida paydo bo‘lishida tarixiy-ijtimoiy sharoit va davrning yangi g‘oyalarini ilgari surgan gazetalar bilan birga Muqimiy va Furqatlar boshlab bergan ma’rifatparvarlik adabiyoti muhim o‘rin tutdi. Lekin bu so‘zlar Muqimiy va Furqatlarning ham jadid bo‘lganligini anglatmaydi.

Jadidlar paydo bo‘gan ilk kunlardan boshlaboq ular ham chor hukumati, ham mahalliy hukmdorlarning qarshiliklariga duch keldilar. Binobarin, ular xalqni shu ikki zulm o‘chog‘idan, shu ikki qoloqlik botqog‘idan xalos etmoqchi bo‘ldilar.

Dastlab asosan ma’rifiy vazifalarni amalga oshirish maqsadi bilangina maydonga kelgan jadidlarning birlashishi va qanot yoyishida o‘zbek jadidchiligi yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. U kelajakda milliy bosmaxona va nashriyotni tashkil etish, qo‘shni xaqlar hayoti, jumladan, maktab va maorifi bilan tanishish, bu mamlakatlardagi taraqqiyparvar kuchlarining tajribalarini o‘rganish va o‘zbek jadidlarining xalqaro aloqalarini yo‘lga solish uchun Rossiyaning bir qancha sanoat markazlariga va Yaqin Sharq mamlakatlariga bordilar. Buxoroda tashkil etilgan “Tarbiyai atfol” jamiyatining sa’y-harakati bilan Fitrat ikki birodari bilan birga Turkiyaga tahsil ko‘rgani bordi. Chor xufiyalarining maxfiy xatlariga qaraganda, u Turkiyada bo‘lganida “Ittihod va taraqqiy” tashkilotiga a’zo bo‘lib kirdi va hatto Buxoroga qaytib kelganidan keyin ham shu tashkilot bilan aloqasini uzmay, islomparastlik yo‘nalishidagi gazetalarga qatnashib turdi. Fitratning yosh usmonlilar harakati bilan yaqinlashib, Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitdan keskin farq qiluvchi Turkiyadagi milliy ozodlik harakati bilan yaqindan tanishishi uning o‘zbek jadidchilik harakati uchun dasturiy ahamiyatga ega bo‘lgan “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti” singari asarlarini yozishga imkoniyat yaratdi. Turkiyada chop etilib, Buxoroda yashirin ravishda tarqatilgan bu asarlar buxorolik yoshlar dunyoqarashida inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ana shu tarzda jadidlar tajriba orttirib va saflarini tobora kengaytirib bordilar.

Shunday qilib jadidchilik XIX asr oxirlari – XX asrning boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashagan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish hamda pirovardida erk va hurriyat g‘oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqazosi bilan vujudga keldi. Bu harakat o‘zining shakllanish yo‘lini bosib o‘tar ekan, asr boshlaridan 1917 yil fevral inqilobiga qadar bo‘lgan birinchi bosqichida nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy harakat sifatida ham uzil-kesil rasmiylashdi. Fevral inqilobining ro‘y berishi va chor hokimiyatining falajlanishi bilan u o‘zining pirovard siyosiy maqsadi – mustaqil davlatni barpo etish g‘oyasini amalga oshirishga kirishdi. Lekin bu harakatning kuchli va birlashgan partiya yo tashkilotga ega bo‘lmaganligi hamda xalq ommasini hali uyg‘ota olmaganligi sababli uning mustaqil o‘zbek davlatini barpo etish orzusi ro‘yobga chiqmadi. Hali oyoqqa turib ulgurmagan yosh sovet davlati Turkiston Muxtoriyat hukumatini go‘daklik paytidayoq majaqlab tashladi.

O‘z oldilariga Turkiston xalqlarining taqdiri uchun muhim ahamiyatga tegishli vazifani qo‘ygan jadidlar 1906-yil yanvarida Peterburgda bo‘lib o‘tgan

Umumrusiya musulmonlari qurultoyiga o‘z vakillarini yashirincha yuborib, Rossiya tarkibida yashagan boshqa musulmon xalqlar va ularning peshqadam arboblari bilan aloqa o‘rnatmoqchi bo‘lganlar, har tomonlama shakllangan milliy dasturga ega bo‘lganlar, rus istibdodiga jiddiy zarba berishga tayyorgarlik ko‘ra boshladilar. Ammo Osipov qo‘zg‘alonidan keyin ko‘plab jadidlarni qirib tashlagan. O‘z mustabid davlatining dushmani deb bilgan Buxoro amiri ham jadidlarni qirishda bolsheviklardan sira orqada qolmadi.

Jadidchilik harakatining paydo bo‘lish va yakunlanish tarixi faqat shu nuqtalardangina iborat emas. O‘zbekistonning yaratilajak yangi tarixida xalqimiz hayotining bu muhim davrini to‘g‘ri va har tomonlama mukammal yoritish uchun nafaqat respublikamizning ochiq va yopiq arxivlari, balki Moskvadagi FSB va boshqa arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarni puxta o‘rganishimiz, ularda mavjud bo‘lgan fakt va ma’lumotlardan to‘g‘ri xulosalar chiqara olishimiz lozim. Bunday yangi ma’lumotlarni xorijda faoliyat ko‘rsatayotgan olimlarning ishlaridan topishimiz mumkin. Masalan, Boymirza Hayitning “Turkistonda jadidchilik va uning tugailishi” nomli maqolasida islom dinining taniqli tashviqotchisi Abdurashid Ibrohimov haqida ma’lumot berilgan. U hattoki Yaponiyaga borib mahalliy xalq orasida islomni targ‘ib qilgan va Tokioda musulmon masjidini ochgan. Binobarin, bizga noma’lum bo‘lgan bunday kishilar faoliyatini o‘rganish jadidchilik harakatining mumkin qadar to‘la mazarasini tiklash imkonini beradi. Xuddi shuningdek, jadid matbuotining boy materiallarini ham hozirgi joriy yozuvga ko‘chirmay va ulardan keng foydalanmay turib, jadidchilik harakati tarixini xolisona va haqqoniy yoritish mumkin emas.

Jadidchilik harakati va jadid adabiyoti tarixini tadqiq etish yangi manbalarni o‘rganish hisobiga davom etishi maqsadga muvofiq. Ana shunday tarixiy-ijtimoiy davr taqozosi bilan harakatga kelgan jadidchilik xalq hayotida kechayotgan qashshoqlanish jarayonining oldini olish hamda jaholat va safohat botqog‘ida yashayotgan xalqqa madad qo‘lini cho‘zishni o‘ziga maqsad qilib oldi. Jadidlar xalqni har tomonlama ayanchli ahvoldan xalos etishning birdan-bir yo‘lini ilm-ma’rifatda ko‘rdilar.

Sovet hokimiyati davrida xuddi shu narsa jadidlar dunyoqarashi va faoliyatining cheklanganligi sifatida baholanib kelindi. Holbuki, qo‘llarida na davlat idoralari, na sarmoyalari bo‘lgan jadidlar o‘zlarining fidokorliklari ortida faqat yangi usuldagi maktablar ochib, jadid matbuoti, adabiyoti va teatriga asos solib, ular orqali o‘z g‘oya-maqsadlarini targ‘ib qilishlari va xalq ko‘ziga haqiqat ko‘zgusini tutishlari mumkin edi. Ular o‘z qo‘llarida bo‘lgan ana shu yagona imkoniyatdan g‘oyat samarali foydalanib, ma’rifiy inqilob yo‘li bilan xalqni moddiy farovonlik va boyliksari etaklashga urindilar. Moddiy farovonlik va boylik esa, ularning fikriga ko‘ra, kapitalizm bag‘rida edi. Ular xalqni feodal turmush tarzidan kapitalistik munosabatlar bosqichiga olib chiqish orqali kelajakda uni mustamlaka kishanlaridan xalos etmoqchi bo‘ldilar. Shuning uchun ham jadidchilik harakati maydonini faqat ma’rifat jabhasi bilangina chegaralab olish to‘g‘ri emas. Zero, jadidlar harakati dasturining muhim nuqtasi milliy muxtoriyat va ijtimoiy taraqqiyot bilan bevosita bog‘liqdir.

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining qanot yozishida Rossiya, Turkiya va Eron inqiloblaridan tashqari, Qrim va Volgabo‘yi tatarlarining matbuoti, tatarlarining matbuoti, birinchi navbatda, Ismoilbek Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasi muhim ahamiyatga ega. Matbuotning taraqqiyparvar kishilar qo‘lida qudratlt qurol ekanligini sezgan Behbudiy 1901-yildan boshlab turli gazeta va jurnallarda 200dan ziyod maqolalar e’lon qildi.

1916-yil qo‘zg‘oloni o‘zbek xalqining milliy ozodlik uchun olib borgan kurashi tarixining yorqin sahifalaridan biridir. Nafaqat Turkiston, balki Markaziy Osiyo va Qozoqistonning ham ko‘pgina shahar va qishloqlarida gurillab yongan qo‘zg‘alon olovi, bir tomondan, chor hokimiyati o‘tkazgan zulmning haddan oshgani, ikkinchi tomondan, XX asrning 10-yillariga kelib mo‘min-musulmon xalqlarning ijtimoiy ongi o‘sib, o‘z haq-huquqini tiklash va mustamlakachilik kishanlarini parchalash uchun kurashga astoyidil otlanganidan darak berdi.

Jadidlar Turkistonning XX asrdagi ijtimoiy-madaniy hayotida qanchalik muhim o‘rin tutgan bo‘lmasin, ularning siyosiy partiyalarga xos belgilar, ya’ni rahbarlik qiluvchi markaz, qat’iy harakat dasturi, nizom va a’zolarga ega bo‘lmaganligini nazardan qochirmaslik kerak. Jadidchilik harakati 1905-1917 yillarda yangi usuldagi maktab, matbuot, adabiyot va teatr,shuningdek, namoyishlarni tashkil qilish orqali xalq ommasiga muayyan ta’sir o‘tkazdi. Lekin bu ta’sir doirasiga xalq ommasining barcha qatlamlari jalb etildi deyishga asos yo‘q. Shuning uchun ham na qurolli kuchlari, na boshqa imkoniyatlari bo‘lgan jadidlarning qo‘zg‘alonning pirovard natijasini bila turib, unga rahbarlik qilishlari mumkin emas edi. To‘g‘ri, jadidilar “oq podsho”ning mardikorlikka olish haqidagi farmoni munosabati bilan stixiyali boshlangan qo‘zg‘alondan chetda turishlari, uni ko‘rmaslikka olishlari mumkin emas edi. Shuning uchun ham ular qo‘zg‘alonningdastlabki davrida isyonchilar tomonida bo‘ldilar, hatto ularning xatti-harakalarini qo‘llab-quvvatlab turdilar. Lekin Turkistonda harbiy holat e’lon qilinishi bilan aniq harakat dasturiga ega bo‘lmaganommaning stixiyali harakati ko‘ngilsiz oqibatlarga olib borishi mumkinligini yaxshi bilgan jadidlar isyonchilarga rahbarlik qilishni o‘z zimmalarida soqit qilib, qo‘zg‘alonni tinch o‘zanga burib yuborishga urindilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirzayev S. XX asr adabiyoti. – Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2005.
2. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004.
3. Ulug‘ov A. Jahon adabiyoti. – Toshkent, “Muharrir nashriyoti”, 2021.
4. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.

Muxtorjon AMONOV,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
FarDU

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING XAT YOZISH QOIDALARI XUSUSIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Mahmudxo‘ja Behbudiyning xat yozish qoidalari haqidagi qarashlari “Tarbiyayi atfol” nomli asarida keltirilgan xat yozish shartlari misolida tahlil qilinadi. Bu risolada Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan yozma va og‘zaki so‘zlashuv madaniyatiga doir mulohazalar yuritiladi. U xatni faqat ma’lumot vositasi sifatida emas, balki ruhiy va tarbiyaviy ta’sir quroli sifatida baholaydi.*

Kalit so‘zlar: *“Tarbiyayi atfol”, xat, san’at, xat yozish madaniyati, madaniy va ruhiy qurol.*

Abstract: *This thesis analyzes Mahmudkhoja Behbudi's views on the rules of letter writing, using his work "Tarbiyayi Atfol" as an example. In this treatise, Mahmudkhoja Behbudi discusses the culture of both written and oral communication. He regards a letter not merely as a means of conveying information, but also as a tool for spiritual and educational influence.*

Key words: *“Tarbiyayi Atfol”, letter, art, letter writing culture, cultural and spiritual tool.*

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) – jadidchilik harakatining etakchi vakili sifatida o‘zining ma’rifiy, adabiy va siyosiy faoliyati bilan davrining ilg‘or ziyolisi bo‘lib tanilgan. U o‘zining “Tarbiyayi atfol” nomli asarida hamda “Oyina” gazetasida e’lon qilgan maqolalari va ma’rifiy chiqishlarida xat yozish madaniyati va uslubi masalasiga katta e’tibor qaratgan. U xat yozish madaniyatini kishlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabat va milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida baholagan.

Jadid sifatida u o‘zbek tilining yozma shaklini isloh etish, uni zamonaviy va xalq uchun tushunarli qilish tarafdori edi. Shuning uchun xat yozishda imlo qoidalariga qat’iy amal qilinishi, jumlalarning grammatik jihatdan to‘g‘riligi, fikrlarning mantiqiyligi, izchil bog‘langanligi va ravon uslubni muhim hisoblagan. Behbudiy xat yozishni nafaqat aloqa vositasi, balki insoniy fazilatlar va axloqiy mezonlar ifodasi deb bilgan. U xatlarda hurmat, izzat va odob saqlanishi kerakligini ko‘rsatib, murojaat shakli, ohang va so‘z tanlovi kishining ilmiy va madaniy saviyasini aks ettirishini ta’kidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tarbiyayi atfol” risolasida xatlarni mazmun jihatiga ko‘ra umumiy va shaxsiy kabi turlarga ajratadi. Shuningdek, u xat yozish shartlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. **Kotibning yozmoqchi bo‘lgan mavzusini yaxshi tushunib olishi**. Albatta, har qanday yozma nutq (xat, maqola, ariza) o‘zaro muloqot vositasidir. Effektiv muloqot esa ma’lumotning aniqligi, ishonchliligi va mantiqiy izchilligi bilan uzviy bog‘liqdir. Agar yozuvchi mavzuni chuqur tushunmasa, xat noto‘g‘ri,

chalkash, tushunarsiz bo‘ladi. Bu esa muloqot maqsadiga erishilishiga to‘sqinlik qiladi. Tushunmagan mavzuda yozilgan matn noto‘g‘ri yoki yolg‘on axborotga sabab bo‘ladi. Bu esa xatni qabul qiluvchi bilan ishonchli aloqa o‘rnatilishiga xalaqit beradi.

2. O‘zi bilmaydigan tilda yozmaslik. Bu o‘rinda muallif, bizningcha, kitob ko‘chirish bilan shug‘ullanadigan insonlarga ishora qiladi. Bilmagan tilda yozish – bu tilning shaklini ko‘chirish, lekin mazmunini tushunmasdan amalga oshirishdir. Kotib tildagi semantik, sintaktik va pragmatik qonuniyatlarni idrok etmasdan matn yozsa, bu xatolik, noto‘g‘ri tarjima, madaniy noaniqlik kabi holatlarga olib keladi.

3. Har tilga oid so‘zlarni o‘sha til qoidalari bo‘yicha yozish. Bu qoidada eski o‘zbek yozuvida arabcha, forscha va ruscha so‘zlarning imlosiga jiddiy e’tibor berilishi kerakligiga ishora qilinadi. Har bir til fonetik, morfologik va orfografik qonuniyatlarga ega. Har bir tilning o‘z imlo va talaffuz qoidalariga rioya qilinmasligi til aralashuviga, hatto til buzilishiga olib keladi. **Masalan,** arabcha so‘zlar arab imlosida yozilmasa, ularning ma’nosi buziladi.

4. Xatni qabul qiluvchining ijtimoiy mavqeyi va tushunish darajasiga munosib tarzda yozish. Pragmatikada “tinglovchiga moslashish” tamoyili mavjud bo‘lib, u o‘zaro muloqotda samara, izzat va tushunarlilikni ta’minlaydi. Har bir matn auditoriyasiga qarab shakllanishi kerak: rasmiy, norasmiy, ilmiy yoki badiiy.

5. Ma’nosiga har kim tushunmaydigan so‘zlarga harakat qo‘yish. Harakat – bu arab yozuvida tovushlarni aniqlashtiruvchi belgilardir. Harakatlar ayniqsa notanish yoki ko‘p ma’noli so‘zlarning to‘g‘ri o‘qilishi va tushunilishi uchun zarur. Harakatsiz yozilgan so‘z noto‘g‘ri o‘qilish va tushunilishga olib keladi. Bu esa xat yozish qoidasiga muvofiq emas, chunki noaniqlik – muloqotdagi eng katta xatodir.

6. Xatni yozib bo‘lgandan keyin xat savodi yaxshi bo‘lgan biror kimsaga ko‘rsatish, imloviy va uslubiy xatoliklarni aniqlash va tuzatish. Muharrirlik nazariyasiga ko‘ra birinchi qoralama doimo qayta ko‘rib chiqiladi. Ikkinchi shaxs nazariy jihatdan xatoni yaxshiroq ko‘radi, chunki u matnga hissiy-emotsional jihatdan bog‘lanmagan bo‘ladi. Yozuvchi o‘z xatolarini ko‘rmasligi mumkin. Boshqa kishi esa xolis ko‘z bilan xatolarni aniqlaydi, bu esa yozuv sifatini oshiradi.

7. Xatni kam so‘z bilan, ma’noli qilib yozish. Tildagi tejamkorlik tamoyiliga ko‘ra, keraksiz ortiqcha so‘zlar matnni og‘irlashtiradi. Xat qisqa, aniq, lo‘nda va mazmunli bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchining vaqtini tejaydi, e’tiborni asosiy mazmunga qaratadi va muloqotni aniq qiladi.

Xat yozish texnikasi – bu nafaqat yozuvchining savodxonligi, balki uning muloqotdagi madaniyati, tilga bo‘lgan e’tibori va ijtimoiy mas’uliyatining ifodasidir. Samarali va aniq yozilgan xat axborotning aniqligini ta’minlaydi, muloqot samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Umuman olganda, xat yozish – bu oddiy ko‘rinadigan, ammo ichki qatlamlarida tilshunoslik, stilistika, psixologiya va ijtimoiy madaniyatni o‘zida mujassam etgan murakkab jarayondir. Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan xat yozishga qo‘yilgan ushbu me’zon va talablar har qanday yozuvchining saviyasini oshirish, muloqotda aniqlik va ishonchlilikni ta’minlash uchun zarur nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qila oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tarbiyayi atfol (eski o‘zbek yozuvida). – Samarqand: Behbudiy nashriyoti, 1914. – Б 31.
2. Qodirov A. O‘zbek tilining uslubiy jihatlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
3. Yo‘ldoshev M. Jadidlar ma’naviy merosi va zamonaviylik. – Toshkent: Sharq, 2011.
4. Tojiboyeva G. Xat janrining tilshunoslik jihatlari. – Toshkent: Fan, 2014.
5. Asqarov A. Jadid adabiyoti va til madaniyati. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2014.

Ziyodullo ISOKOV,
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
O‘zDSMI

TURKISTON JADIDLARNING MILLIY TEATR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlar ularning o‘lka madaniyatiga ta’siri haqida so‘z boradi. Muallif asosan o‘sha davrda Turkiston o‘lkasiga kirib kelgan Milliy teatr san’ati va uni taraqqiy etishida jonbozlik ko‘rsatgan taraqqiyparvar jadidlar faoliyati haqida ba’zi ma’lumotlarni keng yoritgan.*

Kalit so‘zlar: *jadid, teatr, spektakl, matbuot, kolizey, gazeta, jurnal.*

Abstract. *This article discusses the social changes that took place in Turkestan at the end of the 19th and the beginning of the 20th century, and their impact on the region’s culture. The author primarily focuses on the development of national theater art in Turkestan during this period and provides detailed information on the activities of progressive Jadids who played a significant role in its development.*

Key words*: jadid, theater, performance, press, coliseum, newspaper, journal.*

XIX asr oxiri XX asr boshlari Turkiston tarixida madaniy o‘zgarishlar turli innovatsion yangiliklarga boy davr bo‘lgan. Bu davrda madaniy sohadagi eng katta yangilik shubhasiz yurtimizga Teatr san’atining kirib kelishi bo‘ldi. Ma’lumki, Teatr san’ati insoniyat o‘zining ming yillik tarixida yaratgan eng buyuk kashfiyotlardan biri hisoblanib, u umuminsoniy madaniyatning nodir mahsuli hisoblanadi. Yurtimiz milliy teatri ham o‘zining qariyb bir asrdan ortiq tarixiga ega bo‘lib, san’atning ushbu turi o‘z taraqqiyoti jarayonida bosib o‘tgan tarixiy jarayonlarni o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Teatr – millat madaniyatining ko‘zgusidir. Zero bugungi kunda mamlakatimizda bu sohaga jiddiy

e’tibor qaratilayotganligi ham bejiz emas albatta. Hozirgi kunda yosh avlodni tarbiyalashda, ularni turli tashqi qora kuchlar ta’siridan himoyalashda ham teatr san’ati muhim ahamiyatga ega. Yurtimizda teatr san’atining paydo bo‘lishi aynan mustamlaka davriga to‘g‘ri kelib, millat fidoyilari va taraqqiyparvarlarining sayi xarakatlari bilan bu yo‘nalishda dastlabki qadamlar tashlangan. O‘zbekistonning mustamlaka davri tarixini o‘rganishda esa davriy matbuot materiallari katta ahamiyat kasb etadi. Ularda muhim tarixiy ma’lumotlar bilan birga, unda voqea zamondoshlarining va guvohlarning fikr-mulohazalari hamda jarayonlarga munosabati mujassamlashganligi uning nafaqat tarihiy manba sifatida, balki o‘sha davrdagi ijtimoiy siyosiy qarashlarni aks ettirgan obyekt sifatida ularga nisbatan jamiyatning turli toifa vakillari munosabatini aniqlash imkoniyatini beradi. Matbuot materiallarining bu xususiyati o‘sha davrdagi murakab va ziddiyatli jarayonlar dinamikasini kuzatishga, uning o‘zgarib borishini o‘rganishga yordam beradi. Ayniqsa o‘sha davr matbuotida, xususan milliy matbuotda taraqqiyparvarlarning turli ijtimoiy voqealarga bildirgan munosabatlari tarixiy haqiqat ildizlarini, ziddiyatlar sabablarini aniqlashga, tarixning murakkab, ko‘p qirrali jarayonlarini xolisona baholashga yordam beradi [1].

O‘sha davr o‘lka matbuotida jamiyatning boshqa sohalari bilan bir qatorda miliy teatr va halq tomoshalari haqida ham juda qiziqarli va e’tiborga molik ma’lumotlar berib borilgan. Bu paytda Turkistonning jadal rivojlanayotgan mahalliy matbuoti bilan birga, o‘lkada chop etilayotgan rus tilidagi gazetalarida ham ushbu sohaga oid ma’lumotlar berib borilgan. Milliy teatr yangiliklariga oid ilk ma’lumotlar ilk bora 1911-yilda Behbudiy tomonidan Turkiston viloyatining gazetida e’lon qilingan. Ushbu maqolada Samarqandda birinchi marotaba “musulmoncha” teatr o‘ynalganligi, ushbu tomoshada Kavkazlik, mahalliy hamda tatar musulmonlari, shuningdek arman erkak va ayollaridan iborat dasta ishtirok etib, undan olingan foyda (300 so‘m) Samarqanddagi musulmon qiroatxonasi, usuli jadid maktabi va Yettisuv zilzilasidan zarar ko‘rganlarga taqsim qilib berish ko‘zda tutilganligi ma’lum qilingan [2, 21].

Matbuotda milliy teatr uchun yozilgan dastlabki asar haqida ham fikrlar bildirilgan. Masalan, Hoji Muin Turkiston viloyati gazetining 1912-yil 12-sonida Behbudiyning sahna asarida Turkiston hayotidan olingan voqealar aks ettirilganligini ta’kidlaydi va unda mazkur asar nashr etilmasdan qo‘lyozma holatida qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketganligini yozadi. Milliy teatrning ahamiyatini tushungan jadidlar uni yuqori baholaydilar. Munavvar qori Abdurashidxonov Turkiston viloyati gazetining 1914-yil 18-sonida berilgan “Toshkentda o‘lka tilidagi birinchi spektakl” nomli maqolasida Milliy teatrga yuqori baho berib teatrni “Oyna”, “Padarkush ” asarini esa shu oynaning birinchi qaldirg‘ochi sifatida baholagan. Mirmuhsin Turkiston viloyati gazetining 1914-yil 65 va 70-sonlarida berilgan “Toshkentda yana milliy teatr” hamda “Teatrga ahamiyat kerak” nomli maqolalarida yuqoridagi asarni Toshkentning “Kolizey” teatrida ham 2 marotaba qo‘yilib tomoshabinlarda katta taa’surot qoldirganligini ta’kidlaydi. O‘sha davrda “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 48-sonida berilgan “Andijonda musulmoncha teatr” nomli maqolada Andijonda Padarkushni xavaskorlar dastasi mahorat bilan o‘ynaganliklarini teatr ko‘rishga kelgan Yevropa qatlami vakillari ularni xavaskorlar

emas, balki tajribali artistlarga o‘xshatganliklari haqida yoziladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘sha davr Turkiston taraqqiyparvarlari faqat “Padarkush” bilan cheklanib qolmasdan, o‘lka xayotining dolzarb masalalarini ko‘tarib chiquvchi sahna asarlari bo‘lishining tarafdori edilar. O‘sha davr taraqqiyparvarlaridan bo‘lmish Rauf Muzaffarzoda “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 31-sonida berilgan “Milliy hayot va Turkiston musulmonlari” nomli maqolasida bir necha tanqidiy fikrlar ham bildirib, shunday yozadi “... Teatr masalasiga qarasak, yana ma’lum “Padarkush”dan ortiq bir narsa ko‘rsatib bo‘lmaydur. Bu ham qaysi shaharda o‘ynalsa, o‘ynovchilar eskilarning takfir va tal’inlaridan qutula olmaydurlar“.

O‘lkada rus tilida chop etilgan gazetalar ham mahalliy aholi tomonidan uyushtirilgan teatr tomoshalari to‘g‘risida xabarlar berib borgan. Shuningdek ushbu xabarlarda mahalliy aholi ziyolilari tomonidan teatr tomoshalari qo‘yilib, ularda jamiyat xayotidagi nuqsonlar tanqid ostiga olinayotganligi ta’kidlanadi. Rus tilida chop etiladigan gazetalarda “Padarkush” keyingi Qosim Saidiyning “To‘y”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”spektakllarining mazmuni bilan gazeta o‘quvchilari batafsil tanishtiriladi. Shuningdek ushbu tomoshalarda nafaqat mahalliy aholi vakillari balki aholining evropalik qismi ham qatnashganligi xaqida yoziladi [3;210]. Biroq o‘sha murakkab davrda teatr san’ati fidoyilari ko‘plab to‘siqlarga duch kelganligin o‘z xotiralarida ham yozib qoldirganlar. Jumladan, Abdulla Qodiriy keyinchalik “mushtum” jurnalida “Chapani” taxallusi bilan “Hovadarg‘a desang shar-shar, maorifga desang zambar” nomli maqolasida xalqni “asl bir ibratxona” bo‘lgan teatrga jalb qilish naqadar mushkul ekanligini kuyinib yozadi. Maqolada To‘ytepa qishlog‘idagi mufti mullo Ya’qub ismli kishining to‘yidagi bazmda o‘rtadagi “raqqos” va chirmondachiga 300 so‘mni hadya qilgan qishloq ahli, o‘sha davrda Toshkentga kelib o‘qiydigan talabalar tomonidan qishloq aholisi uchun qo‘yilgan spektaklga 20 tiyinlik chiptani qimmatligini bahona qilib hech kim kirmaganini, natijada tomosha qo‘yilmagani keltiriladi [4, 6].

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki yurtimizda teatr san’ati ham o‘z taraqqiyoti mobaynida ko‘plab murakkab jarayonlarni boshidan kechirgan. Bugungi kunda esa Respublikamizning har bir viloyatida kerak bo‘lsa, tumanlarida ham muhtasham teatr binolari qad ko‘targan. Bugungi kunda o‘zbek milliy teatr maktabi yaratilgan bo‘lib, unda ko‘plab ijodkorlar faoliyat ko‘rsatmoqdalar. 2014-yilda esa O‘zbek milliy teatrining 100 yilligi keng nishonlandi. Shuni ta’kidlash joizki teatr bu tarbiya o‘chog‘i bo‘lib, milliy urf-odat va an’analarimizni avaylab asrashda, ayniqsa yosh avlodning ma’naviy ongini yuksaltirishda beqiyos o‘ringa ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qarang: S.Shodmonova “Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida.” – Toshkent.: Yangi nashr 2011-yil.
2. Samarqandda musulmoncha teatr // Turkiston viloyatining gazeti. – 1911. – № 21.
3. Андреев Г.Сартовский театр. Бахтсиз кияу –ТВ. – 1915. – № 210.
4. Hovadarg‘a desang shar-shar, maorifga desang zambar // “Mushtum” 1925-yil. № 6-son.

Zulfiya MARUFOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O‘zDSMI

ABDULLA QODIRIY PUBLISISTIKASIDA XALQ IBORALARINING QO‘LLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning publitsistik maqolalaridagi so‘z qo‘llash mahorati haqida so‘z yuritiladi. Xususan, “Mushtum” jurnalida bosilgan maqolalarida xalq iboralarining qo‘llanishi, ularning mazmun ifodalashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *maqola, hajviy, ibora, maqol, ifoda, publitsistika, davr, jadid.*

Abstract. *This article discusses the skill of using words in the journalistic articles of Abdulla Qodiriy. In particular, the use of folk expressions in the journalistic articles published in the magazine "Mushtum" and their importance in expressing the content are analyzed.*
Key words: *article, satire, expression, proverb, expression, journalism, era, jadid.*

XIX asrga kelib Turkistonda jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi O‘rta Osiyo xalqlarining tili, adabiyoti, san’ati va madaniyatining yangi bochqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Shu jumladan, 20-yillarning boshlarida jadid publitsistikasida ham mazmunan o‘zgarishlar, yangilanish jarayonlari boshlandi. Qisqa qilib aytganda, demokratiya kurtaklari paydo bo‘ldi. Matbuot materiallaridagi quruq pand-nasihat, sodda va jo‘n fikrlar o‘rnini qiziqarli badiiy ifodalar, dolzarb mavzular, jiddiy hayotiy masalalarni bo‘yoqdor tarzda tasvirlash motivi kuzatiladi. O.Sharafiddinovning ta’kidlashicha: “...bu sohadagi tajribalarning g‘oyat kambag‘alligiga qaramay, yangi o‘zbek publitsistikasi 20-yillarning boshida o‘z rivojining eng yuksak cho‘qqilariga ko‘tarildi. Bu davriy publitsistikaning o‘sishi, birinchi navbatda, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon nomlari bilan bog‘liq. Ular vaqtli matbuotda o‘nlab maqolalar e’lon qildilar va ularda benihoya o‘tkir ehtiros bilan, so‘nmas bir jo‘shqinlik bilan millat hayotining eng muhim masalalarini ko‘tarib chiqdilar” [1].

O‘zbek publitsistikasiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan ijodkorlardan biri Abdulla Qodiriy o‘zining yuksak saviyadagi maqolalari, feletonlari va o‘tkir tig‘li hajviyalari bilan o‘zbek tilining serjilva jozibasini namoyon qildi. Uning “Mushtum” jurnalida chop etilgan ko‘plab hajviyalari xalq dardini kinoyali kulgi ostida bayon etishi, tilining boyligi va xalqchilligi bilan xarakterlidir. Filologiya fanlari doktori Bahodir Karim: “Julqunboyning hajviyalari, feleton va hangomalarida ayovsiz tanqid, aybliga yuzing-ko‘zing demay tortilgan tarsaki, “so‘z

o‘nqovi” kelganda chapanicha do‘q-po‘pisa, “ovsarona, daliyona” tajahilu orifona so‘z aytish san’ati bor”, – deb yozadi [2].

Abdulla Qodiriy hajviyalarini o‘qishli qilib turgan vositalardan biri uning xalq iboralaridan mohirona foydalanishidir. Iboralar matn mazmuniga jon kirituvchi, uning “maza-ta’mini” kuchaytiruvchi vositadir. Adibning asarlarida o‘zbek xalq ma’naviy durdonalari “jonlanish”dan tashqari o‘ziga xos tarzda jilolanadi, yangi, ohorli qirralari namoyon bo‘ladi. Ijodkorning **“Maslaku maqsaddan shammai izhor”** (1925) hajviyasida xalq iboralaridan shunday satrlar bor: *“Durust, oyoq olishimni ko‘rgach, dushman sinfning “Notavon ko‘ngilga qo‘tur tog‘ora”, deyishida shubha yo‘q...* Iboraning asl varianti – *Notavon ko‘ngilga qo‘tir jomashov*. Jomashov tojik tilida “tog‘ora” degani. Adib xalq iborasining transformatsiyaga uchragan shaklini qo‘llash orqali iborani “turkiylashtiradi”, ya’ni xalqning aksariyat qismiga tushunarli bo‘lgan so‘zni ishlatadi. Mazkur birlik qurbi yetmaydigan, o‘ziga munosib bo‘lmagan narsalarni orzu qiluvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi. A.Qodiriy hajviyasining qahramoni ham dabdabali hayotga yetishish ilinjida “yozg‘uchilik” kasbini qo‘yib, o‘zini har xil kasbga urib ko‘radi. Qo‘lidan hech narsa kelmaydigan xayolparast.

Nafsilamrga qarag‘anda, Toshkandda o‘zining oliy binolar solishi bilan mashhur bo‘lg‘an To‘xtajonboy va Orifxo‘ja eshonlarni bir cho‘qishda qochiraturg‘an bino bo‘libdir.

Bir cho‘qishda qochirmoq iborasi “osonlikcha yengmoq” ma’nosida ishlatiladi. Asl kelib chiqishiga xo‘roz urishtirish musobaqasi sabab bo‘lgan bu ibora bitta hamla bilan holib bo‘lish mazmunini obrazli qilib berishga xizmat qiladi. Qodiriy bu iborani jonli mavjudotga emas, binoga nisbatan ishlatishi ham o‘ziga xos mahorat kasb etadi. Ya’ni, *To‘xtajonboy va Orifxo‘ja eshonlarning* qurgan binolari bu binoning oldida hech gap emas. Mazkur iboradan o‘zbek adiblari o‘z asarlarida unumli foydalanganlar. “Durust, miyang to‘libdi, – dedi kulib Tantiboyvachcha, – yaqin o‘rtada uncha-muncha ulamoni bir cho‘qishda qochirasan” (Oybek. Qutlug‘ qon). Mulla Mamajon o‘z davrida yalqovlik bilan “Alif layli”dagi Abutanbalni bir cho‘qishda qochiradigan kishi bo‘lgan ekan. (G‘.G‘ulom. Tirilgan murda).

Maqolada yana shunday jumlalar bor:*“Qalam guftoki…” ning shoiri to‘ng‘uz qo‘psa-chi, mani etti yildan beri bekorga sarson va sargardon qildi, harom tukimga turmayturg‘an xashpara maxsimlar yorug‘ dunyo orzu-havasining arshi a’losigacha borib yetkanlarida, man qo‘tir itning keyingi oyoqi ham bo‘lolmadim.* Xalqimizda hammadan oxirida qolib ketadigan odamni “itning keyingi oyog‘i” deyishadi. Qodiriyning o‘ziga xosligi shundaki, u odatdagi xalqona so‘z va iboralarga ijodiy yondashadi. Yuqoridagi iboraga “qo‘tir” sifatining qo‘shilishi birlik mazmunini boyitib yuboradi, o‘quvchi tasavvurini kuchaytiradi. Hajv “ulushi”ni orttiradi. Aslida oxirida qolish ma’nosini ifodalash uchun oddiy it yoki *qo‘tir it* bo‘lishining farqi yo‘q. Ammo muallif itga “sifat” berish bilan qahramonning o‘zi haqidagi sub’ektiv bahosini ham anglatadi. Shu kichkina detal kitobxonga obrazning fe’lidagi noshudlik, omadsizlik, yalqovlik belgilari borligi haqida ma’lumot beradi.

“Eshonlarimiz” maqolasida Abdulla Qodiriy o‘tkir tili bilan zamonasining din peshvolarini fosh qiladi. Ularning aysh-ishratdan bo‘shamasligi, ikkiyuzlamachiligi, oqposhshoning odamlariga quldek egilishlari hajv yo‘li bilan tasvirlanadi.

Ammo man sizga shuni aytamanki, tarjumai hol degan gap shamoldan yoki havodan olinmaydir, ahvoli bayon qilinaturg‘an shaxsning o‘z hayotidan olinadir. *Qozonda nima bo‘lsa, cho‘michqa ham shu narsa chiqadir.* Man ham shu qonundan chetka chiqmasman, qozonda moshova pishkan bo‘lsa, albatta, palov suzmasman. Adib “Qozonda bori cho‘michga chiqadi maqolini o‘ziga xos tarzda “qayta ishlab”, ketidan o‘z harakat rejasini shunga mos tarzda majoziy izohlaydi. Moshova (qaynatilgan mosh) va palov orasida katta farq bor. Moshova kambag‘alning ovqati bo‘lsa, palov – ovqatlarning podshosi. Qodiriy har ikki taomni zidlantirib keltirish orqali “yomon sifatlaringni yaxshi deb aytmayman” (Qozonda moshova pishgan bo‘lsa, palov suzmasman) degan mazmunga ishora qiladi.

Pora yo‘li bilan katta amallarga o‘tirib olgan ulamolarning nechog‘li savodsiz ekanligi quyidagi jumlalarda yorqin tasvirlanadi:

Bir tomondan boylarning ko‘magi, ikkinchi jihatdan pristaf va elliboshilarg‘a kanvert orqaliq ulashilgan “badal”lar yordami bilan tuppa-tuzuk “Qoziyi islom” ham bo‘lub oldi. *Biz qornini yorg‘anda alif o‘rniga loaqal kaltak chiqmayturg‘an* dardisarning qoziliqqa nechuk o‘lturib olish yo‘sunini shunda ko‘rdik.

“Alifni kaltak demoq” iborasi xalq orasida xat-savodsiz, bilimsiz kishilarga nisbatan qo‘llanadi. Buning asosi arab alifbosidagi birinchi harf – alifning shakli kaltak, tayoq shaklida bo‘lishidir. Ushbu iborani transformatsiyalash natijasida adib o‘ziga xos obrazli ifoda yaratgan. Qozi – insonlar taqdirini hal qiladigan, ilmli, adolatli, mulohazali odam bo‘lishi lozim. Ammo maqolada ta’riflanayotgan qozilar shu qadar ilm-u savoddan uzoqki, *qornini yorg‘anda alif o‘rniga loaqal kaltak chiqmaydi.* Iboraning asl holatida alifni kaltak deyilsa, Qodiriy iborasida o‘sha kaltak ham yo‘q. Bu ijodkorning ta’rif darajasini kuchaytirish uchun topgan san’atkorona ifodasidir.

Boshqa eshonlarimiz nechoqliq isqirt, qancha mumsik bo‘lsalar, bu kishi ularning ziddiga shuncha sermaishat va serzavqdirlar. Uylarida durust maishat kechira olmag‘anlari fursatlarda tuzukrak kishilarnikiga “Aytmagan joyg‘a, yo‘nmagan tayoq” ham bo‘lub oladirlar.

Eshonlarning xislatlaridan biri – mehmondorchilikni yoqtirishlari. Ular hatto aytilmagan joyga ham boraveradilar. Muallif bu holatni “Aytmagan joyg‘a, yo‘nmagan tayoq” tarzida ifodalaydi.

Ushbu maqolada, shuningdek, “Egasini siylag‘an itiga suyak tashlar” “Aytmagan joyg‘a, yo‘nmagan tayoq” kabi maqollar ham o‘z o‘rnida ishlatilgan va ular zamon ulamolarining kirdikorlarini serbo‘yoq tarzda ochib berishga yo‘naltirilgan.

Abdulla Qodiriy “Do‘stlarga uzrim” maqolasida ham xalq ma’naviy xazinasi durdonalaridan unumli foydalangan. Quyidagi parchada o‘zbek maqol va iboralarining bir nechtasini ko‘ramiz:

Yaxshi onglaki, matbuot dunyosida kulgandan kulish qonuni hali ham bor. *Ishtoni yo‘q tizzasi yirtiqdan kulgan bo‘lsa-da*, ajab emas… o‘zing ham kulguchining mas’uliyati to‘g‘risida hech bir nazariya o‘qug‘an emasdirsan!

Bu kunda kulguluk hajviyotning chin egasi yo‘qlig‘idan foydalanib, *“Suv yo‘g‘ida tayammum”*, *“Eshagiga yarasha tushovi*”, deganlaridek, mardi maydon sifatida ikir-chikirlar yozib “Arzimasa-da, arzitarsiz” umidida kelaman. Kelasidagi kulguluk bog‘imizning bulbuli emas, zag‘izg‘oni, guli emas, tikoni bo‘lmog‘imni-da iqror etaman. Gul yog‘ochida boshlab, chechak emas, tikanak o‘sadirkim, eng ozi shu holni kuzatib ajzimni iqror qilishqa majburman. *Julqunboy (A. Q.).*

Adib maqolada “Mushtum” jurnalining 25 yillik yubileyi, o‘z davrining yozuvchi va shoirlariga munosabat xususidagi fikrlarini bayon qilar ekan, hajviy asar yozgan odamning ustidan kulganlar haqida “Ishtoni yo‘q tizzasi yirtiqning ustidan kulibdi” iborasini qo‘llaydi. Bunda o‘zi yumoristik asar haqida biron ma’lumotga ega bo‘lmay, shunday asar yozganlardan kulgan savodsiz odamlar xususida gap boradi.

O‘zining hajviy maqola va hikoyalarini tuzukroq tahlil qiluvchi odam yo‘qligi uchun “yo‘qdan ko‘ra bor” qabilida yozayotganini kamtarlik bilan ta’kidlab, bu holatni “Suv o‘rnida tayammum” iborasi bilan ifoda etadi. Tayammum – suv bo‘lmagan joyda tuproq kabi narsalardan foydalanib olinadigan shartli tahorat, bu ibora kerakli narsa yo‘g‘ida boshqa narsadan foydalanishga to‘g‘ri kelganda aytiladi.

“Eshagiga yarasha tushovi” – “o‘ziga yarasha” ma’nosida kelib, Qodiriy o‘zi yozayotgan hajviy asarlarni bahosini biladigan odam yo‘qligidan foydalanib, shunga yarasha, ya’ni “Arzimasa-da, arzitarsiz” umidida bitilayotganiga ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotining zabardast yozuvchisi, jadidi Abdulla Qahhor nafaqat o‘zbek romanchiligining asoschisi, balki publitsistika, xususan, hajviy maqolalar, feletonlar ustasi sifatida ham o‘zidan katta maktab qoldirdi. “Abdulla Qodiriy adabiy merosining bir qismi hajviy asarlardan iborat. Julqunboy XX asr o‘zbek hajviy adabiyotining maktabdorlaridan biri. Buyuk adibning o‘g‘li Habibulla Qodiriy yozishicha, “Qodiriy “Mushtum”da va keyingi yillardagi turli gazeta-jurnallarda bosilgan hajviy tanqidiy maqolalarida ellikdan ortiq maxfiy taxallus (laqab)larni qo‘llagan edi. “Kuldirib yig‘latadigan, yig‘latib kuldiradigan” Julqunboy 1924-yildayoq “fel’etonlar qiroli” nomini oldi. “Yig‘indi gaplari” uchun qamaldi, achchiq va haq so‘zi uchun jabr ko‘rdi” [2].

Uning “Mushtum” jurnalidagi faoliyatiga nazar tashlasak, bir-biridan qiziqarli, maqol, ibora va qochirimlarga yo‘g‘rilgan, xalq donoligining eng serqaymoq qatlami bilan to‘yintirilgan, o‘quvchida beixtiyor kulgi uyg‘otish barobarida jamiyatdagi illatlarni tig‘dor jumlalar bilan fosh qiladigan maqolalarga guvoh bo‘lamiz. Eng muhimi, bu asarlarda xalq og‘zaki ijodining betakror namunalari o‘ziga xos tarzda jilolanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Шарафидинов О. 20-30 йилларда жадид адабиёти. 1996. https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/maqolalar/263-jadid- adabiyoti.html

2. Абдулла Қодирий. Маслаку мақсаддан шаммаи изхор. *Жулқунбой, "Муштум", 1925 йил, 20 январ, 2-сон.*

3. Абдулла Қодирий. Эшонларимиз (1924). *"Муштум", 1924 йил, 8 апрел, 25-сон.*

4. Абдулла Қодирий. Дўстларга узрим.*"Муштум", 1924 йил, 8 апрел, 25-сон.*

Dilrabo ANDANIYOZOVA
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent
O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

O'ZBEK TILI PUNKTUATSIYASI TARAQQIYOTIDA JADID MATBUOTINING O'RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tili punktuatsiyasi taraqqiyotida jaded matbuotning o'rni, xususan, O'zbekistondagi ilk gazetalarda qo'llangan tinish belgilar haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar*: "Turkiston viloyatining gazeti", o'zbek tili punktuatsiyasi tarixi, tinish belgilari, nuqta, vergul, qavs, ko'pnuqta, jadid matbuoti, o'zbek yozuvi.*

Abstract. *This article discusses the role of the jaded press in the development of Uzbek language punctuation, in particular, information about the punctuation marks used in the first newspapers in Uzbekistan.*

Key words: *"Turkiston region newspaper", history of Uzbek language punctuation, punctuation marks, period, comma, parentheses, colon, jaded press, Uzbek script.*

Ilmiy manbalarda o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llanish davri sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi ko'rsatiladi [2]. "Unga qadar ham o'zbek yozuvida tinish belgilari bo'lganmi?" degan, savol tug'iladi.

O'zbekcha matnlarda tarixda hozirgidek shakl va mazmundagi tinish belgilari qo'llanmagan, ammo qadimgi qo'lyozmalarda tugal fikrni yoki uning ayrim qismlarini bo'laklarga ajratuvchi maxsus ishoralar ishlatilgan [3]. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari qo'lyozmasida (Istanbuldagi Millat kutubxonasi, arabcha asarlar bo'limi, inv. №4189) turkiy so'z va unga berilgan turkiy misollarni matnda ajratish uchun tepasiga qizil chiziq tortilgan. Bob nomlari, misollar, izoh uchun keltirilgan harflar qizil siyohda berilgan. Asardagi har bir so'z-maqola bargsimon belgi bilan ajratilgan [4].

Shuningdek, professor Q.Sodiqov ham tinish belgilarining qo'llanish tarixiga diqqat qaratib, quyidagilarni keltiradi: "Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari

Namangan (TDShI qoshidagi Sharq qo‘lyozmalari markazi, inv. №1809) hamda Qohira (Misr milliy kutubxonasi, inv. №168) nusxalarida bob nomlari alohida qatordan berilgan. Namangan nusxasida bob nomlari almashtirilib, qora va qizil siyohda bitilgan. Qohira nusxasida asar ichidagi bob nomlari asosiy matndan katta harflar va qalinroq siyoh bilan ajratilgan. Asarning Hirot nusxasida (Vena milliy kutubxonasi, A.G‘.13) matndagi so‘zlar va ba’zi harflarni to‘g‘ri tushunish uchun, o‘rni bilan, arab yozuvidagi harflardan foydalanilgan” [5].

Umuman, o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, taraqqiyot yo‘llari hamda ilmiy nazariy asoslari masalasi ancha murakkab. Mutaxassislar bu murakkablikning sabablarini quyidagi omillar bilan bog‘liq deb hisoblaydi:

1) o‘zbek punktuatsiyasi tarixining keng va chuqur tekshirilmaganligi va ilmiy asosda etarlicha o‘rganilmaganligi;

2) qadimgi o‘zbek tili yodgorliklarining arab alifbosida bo‘lganligi, ulardan ma’lum qismining umumturkiy tillarga mansubligi;

3) o‘zbek tili yodgorliklarining yakka shaxslar – xattotlar tomonidan ko‘chirilganligi;

4) O‘zbekistonda matbaachilikning paydo bo‘lishi, matbuot va nashriyot ishlarining rivojlanishi [2].

Punktuatsiya tarixini belgilashda xalqning yozuv tarixi muhim o‘rin tutadi, chunki yozuv tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar punktuatsiya tarixini davrlashtirishda asosli ma’lumotlar beradi.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida so‘g‘d, o‘rxun-enasoy, uyg‘ur, arab, lotin va kirill yozuvlaridan foydalangan va ularda ham muayyan belgilar, ishoralar qo‘llanganki, bularning barini hozirgi o‘zbek tili punktuatsiyasining asoslari deyish mumkin. Masalan, V – VIII asrlarda O‘rta Osiyoda keng ishlatilgan runik yozuvlarda “ajratuvchi belgilar”dan foydalanilgan.

Qadimgi manbalar tadqiqi bo‘yicha izlanish olib borgan olimlarning ma’lumot berishicha, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari orasida “Irq bitigi” turli ishoratlarga boyligi bilan ajralib turgan. Undagi ishoralar haqida quyidagi fikr aytiladi: “Asardagi bo‘limlar bir-biridan qora siyohli qo‘shaloq kelgan bir, ikki, uch hamda to‘rtta kichik dumaloqlar tizimi bilan ajratilgan. Dumaloqlarning ichi qizil siyoh bilan bo‘yalgan. Bu tartibga asarning boshidan oxirigacha amal qilingan. Asarning har bir bo‘limi yangi qatordan boshlangan” [4].

Shuningdek, bu davr yodgorliklarida ikki nuqta (:) bilan bir qatorda, bir nuqta (•) ham qo‘llangan bo‘lib, ushbu belgilar (qizil siyohda) so‘z va jumlalarni bir-biridan hamda qo‘shimchalarni so‘zlardan ajratishga xizmat qilgan.

VIII asrga kelib arab yozuvi qo‘llana boshlangach, “ajratuvchi belgilar” bilan bog‘liq an’ana buzilgan va ularning o‘rniga arab yozuviga xos boshqa ishoralardan foydalanilgan.

Manbalarda arab yozuvida “yordamchi vositalar” sifatida quyidagi ishoralar qo‘llangani haqida ma’lumotlar uchraydi:

a) “ta’kid belgilari” – tik to‘g‘ri chiziq, qizil va quyuq qora ranglar;

b) “ma’no belgilari” – Qur’ondagi turush va determinativlar;

v) “bezak belgilari” – bular XIV – XIX asrlarda yozuvda keng qo‘llangan bo‘lib, bu davrda arab yozuvini isloh qilish, shuningdek, so‘zlarni ajratib yozish an’anasi yuzaga kelgan;

g) tinish belgilari. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, arab grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvida maxsus tinish belgilari qo‘llana boshlagan [2].

O‘zbek tili punktuatsiyaga doir tadqiqotlardagi fikrlarga tayanib, o‘zbek punktuatsiyasi tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin [2, 6]:

1. I – VIII asrlar. Bu davrga oid oromiy va turkiy runik yozuvdagi manbalarda ishlatilgan tinish belgisi xarakteridagi vositalarning dastlabki vazifasi ajratish bo‘lgan, ya’ni gap qismlari ma’lum oraliq belgi – probel bilan ajratilgan. Bu belgilar hech qanday ma’no ifodalamagan, shunchaki so‘zlarning o‘zaro qo‘shilib qolmasligiga xizmat qilgan.

2. IX – XIX asrlar. Punktuatsiya taraqqiyotidagi bu davrda arab grafikasiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi amalda bo‘lgan va ajratuvchi belgilar tugallanganlik, xabar, so‘roq, buyruq kabi qo‘shimcha vazifalarni bajara boshlagan. Ma’nolarni yoki gap mazmunini farqlash uchun nuqtaning turli ko‘rinishlaridan foydalanilgan.

3. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning oxirlarigacha bo‘lgan davr. Bu vaqtga kelib tinish belgilari tizimi va ularning vazifalari aniqlashtirilgan va til egalarida tinish belgilarini qo‘llash malakasi shakllangan. Bosmaxonalar, nashriyotlar paydo bo‘lib, kitob, gazeta va jurnallar nashr etilgan. Tabiiyki, bunda nashr etilgan ishlardagi har bir fikrni o‘quvchiga aniq va to‘g‘ri etkazish zaruriyati tug‘ilgan. O‘zbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojida, ayniqsa, 1871-yilning 28-aprelidan boshlab, 1917-yilning boshlarigacha (deyarli 50 yil mobaynida) muntazam ravishda nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazeti” muhim o‘rin tutgan. Bu davrda tarjimachilik ham juda rivojlangan va ayni jarayonda asliyatdagi tinish belgilari ham o‘zbekcha nusxaga o‘tgan.

4. XX asrning oxiridan hozirgacha bo‘lgan davr. Sohada izlanishlar olib borgan tilshunoslar tomonidan punktuatsiyaning nazariy va amaliy masalalari o‘rganilgan, tinish belgilarini qo‘llash bo‘yicha qoidalar takomillashtirilgan.

Umuman, qadimgi turkiy matnlarda hozirgi davrdagidek punktuatsion belgilar qo‘llanmagan bo‘lsa-da, ularda o‘quvchi uchun matnni anglash va undagi fikrni tushunish uchun turli ishoratlardan foydalanilgan. Bularga matnning turli ranglarda berilishi, matnosti va matnusti belgilari, matn orasida joy qoldirish, so‘zlar orasida turli belgilarning ishlatilishi va boshqalarni keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘zbek punktuatsiyasi taraqqiyotida o‘zbek vaqtli matbuotining birinchi qaldirg‘ochi bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazeti” salmoqli o‘rin tutadi. Bu gazeta o‘sha davr o‘zbek madaniyati, o‘zbek adabiy tili va o‘zbek grafikasining namunasi sifatida ham muhim tarixiy hujjat hisoblanadi. Ta’kidlash kerakki, gazeta o‘zbek yozuv madaniyatining yanada rivojlanishi va takomillashuvida, o‘zbek adabiy tili me’yorlarining shakllanishi va takomilida muhim o‘rin tutgan. Shu sababli o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, uning shakllanishi va rivojlanishi, taraqqiyot qonunlarini o‘rganishda tadqiqotchilar mazkur manbaga asoslanadilar. Jumladan, K.Nazarov o‘z tadqiqotida “Turkiston viloyatining gazeti”ga ko‘p murojaat qilgan [1].

Olimning yozishicha, “o‘sha davr yozuvida qo‘llanuvchi barcha yozuv belgilari “Turkiston viloyatining gazeti”da ham ishlatilganini ko‘ramiz. Bularni shunday guruhlab o‘rganish mumkin:

a) harflar;

b) raqamlar;

d) turli fanlarga oid ilmiy belgilar;

e) tinish belgilari (punktuatsiya);

f) transkripsion va diakritik belgilar;

g) turli shakldagi “bezak” belgilar” [1].

Tinish belgilarining ayni gazetadagi qo‘llanilish holatlariga tayanib, o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, tinish belgilarining o‘zbek matbuotida ishlatilish davri yuzasidan quyidagilarni aytish mumkin: Tinish belgilari “Turkiston viloyatining gazeti”da 1870-yildan, ya’ni gazeta nashr etilgan yildanoq qo‘llana boshlangan, rus tili punktuatsiyasining tajribalaridan ijodiy foydalanilgan. Biroq hozirgi kunda ishlatilayotgan yozuvimizdagi tinish belgilarining hammasi ham gazeta sahifalarida bir vaqtda boshlab ishlatila boshlangan emas, ya’ni ular birin-ketin qo‘llana boshlangan.

1. “Turkiston viloyatining gazeti”da dastlab ishlatilgan tinish belgisi tire bo‘lgan. U gazetaning 1871-yildagi 20-sonidan qo‘llangan bo‘lib, undan dastlab ish qog‘ozlari va e’lonlarda foydalanilgan.

2. Ko‘pnuqta “Turkiston viloyatining gazeti”ning 1872-yilgi 18-sonidan boshlab qo‘llangan. Dastlab rasmiy qog‘ozlarda (turli hujjatlar, hisob-kitob, pochta qog‘ozlari va e’lonlarda) ishlatilgan. 1901-yildan esa so‘roq va undov belgilari bilan birgalikda (qo‘shaloq) qo‘llangan.

3. Qavs “Turkiston viloyatining gazeti”da eng ko‘p foydalanilgan tinish belgi bo‘lib, u 1873-yilning 6-sonidan boshlab qo‘llanila boshlangan. Shuningdek, qavsning o‘sha davrdagi shakli, vazifasi, qo‘llanish o‘rni hozirgidan farqlangan. Manbalarda qavsning besh xil shaklda ishlatilgani haqida ma’lumot berilgan, ya’ni odatdagi qavs, katta qavs, o‘rta qavs, gulli qavs, “bezak” qavs (bunda “bezak” belgisi qavs vazifasida ishlatilgan).

4. Nuqta vazifasini dastlab, bo‘sh joy – jumlalar orasidagi probel bajargan. 1875-yildan boshlab, turli xil “bezak” belgilardan nuqta vazifasida foydalanilgan. Nuqtaning hozirgi shakli gazetada 1881-yildan qo‘llangan.

5. Tinish belgilarining o‘zbek vaqtli matbuotida dastlabki qo‘llanish usuli va shakli hozirgidan farqlangan. Masalan, so‘roq, vergul, nuqtali vergul kabi tinish belgilari arab yozuviga mos ravishda o‘ngdan chapga tomon yo‘naltirilgan. Qo‘shtirnoqning uch xil shaklda bo‘lgani haqida ma’lumotlar keltirilgan: odatdagi qo‘shtirnoq (“ ”); burchak shaklidagi qo‘shtirnoq (« »); “yarim oy” yoki qo‘shqavs shaklidagi qo‘shtirnoq.

6. Hozirgi o‘zbek yozuvida amalda qo‘llanayotgan tinish belgilarining hammasi “Turkiston viloyatining gazeti”da 1901-yildan qo‘llana boshlangach, ularning vazifalari, qo‘llanish o‘rni qat’iylashgan. Yozuvda ishlatish odat tusiga kirgan.

Tinish belgilari haqidagi dastlabki ilmiy ma’lumotlar Ashurali Zohiriy va Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydi. Jumladan, Fitrat tinish belgilarini turish

belgilari nomi ostida o‘rganib, “Nahv” asarida 12 ta tinish belgisini keltiradi hamda quyidagicha nomlaydi: nuqta (.), bir tinish (;), yarim tinish (,), so‘rash belgisi (?), undash belgisi (!), qo‘sh nuqta (:), tirnoqlar (« »), yoylar ( ), to‘rtkul yoylari [ ], ulkan yoylar { }, chiziq (–), nuqtalar (...).

Fitrat “Nahv” asarida tinish belgilari haqida shunday deydi: “Turish belgilari – so‘zlarni to‘plab, bir-biriga boylab gap tuzishda o‘y qulay anglansin deb turli belgilar ishlaymiz. Bularning hammasi birdan turush belgilari yoki soddacha turushlar deyiladi” [7].

Hozirgi o‘zbek tilida 10 ta tinish belgisi amalda qo‘llanadi, ularning o‘z tarixi, grafik shakli va qo‘llanishining ilmiy asoslari mavjud.

Umuman, o‘zbek tili punktuatsiyasi taraqqiyotida har bir tinish belgi o‘zining hozirgi aniq shakli va vazifasiga ega bo‘lguncha ma’lum muddat va tajriba jarayonidan o‘tgan. Tinish belgilar tarixini o‘rganishda jaded matbuoti muhim manba sifatida olimlarning e’tiborini tortgan hamda O‘zbekistondagi ilk gazeta va jurnallar ob’yekt sifatida tadqiq etilgan. Xususan, “Turkiston viloyatining gazeti”ning alohida o‘rni bo‘lib, mazkur gazeta tinish belgilarning shakllanishi va qo‘llanish doirasi kengayishiga xizmat qilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – Toshkent, 1974. – B. 17-22.
2. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent, 1976. – B. 31;
3. G‘oziev H. O‘zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. – Toshkent. 1979.
4. Alimuhammedov R. Qadimgi turkiy bitiklarda punktuatsiya va matnni anglash uchun ishlatilgan ishoralar haqida // Xorijiy filologiya. 1-son. – Toshkent, 2016. – B. 49.
5. Sodiqov Q. “Qutadg‘u bilig”ning uyg‘ur yozuvli Hirot nusxasi. – Toshkent. 2010. – B. 16-18.
6. Bahriddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 8–9.
7. Fitrat. Nahv. Samarqand – Toshkent. O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1927– B.6.

Вера МУХАМЕДЖАНОВА,
Кандидат исторических наук, доцент
Университета науки и технологий

ДЖАДИДЫ О НЕВЕЖЕСТВЕ И ПРОСВЕЩЕНИИ ЖЕНЩИН

Аннотация. *В статье описывается положение женщины, жёсткие нормы шариата и адатов, строгое разделение полов, ранние браки, отсутствие правового статуса в публичной сфере конец XIX - начало XX века в Центральной Азии, в том числе в Узбекистане. Эта статья является*

попыткой воспроизвести семейный, социальный, правовой и имущественный статус женщины эпохи джадидизма, а также реконструировать биографии выдающихся представительниц этого мира. Перед нами встаёт величественный образ соединения силы духа и политического мастерства с нежностью, заботой и духовной чистотой. На протяжении истории культурные установки о «природе» женщины закреплялись через законы и обычаи, что создавало устойчивые социальные стереотипы.

Ключевые слова: *женщины, джадидизм, невежество, просвещение, правовой статус, реформаторские идеи*

Abstract: *The article describes the status of women, strict norms of Sharia and adat, strict separation of the sexes, early marriages, lack of legal status in the public sphere in the late 19th - early 20th centuries in Central Asia, including Uzbekistan. This article is an attempt to reproduce the family, social, legal and property status of women in the Jadidism era, as well as to reconstruct the biographies of outstanding representatives of this world. We are faced with a majestic image of the combination of fortitude and political skill with tenderness, care and spiritual purity. Throughout history, cultural attitudes about the "nature" of women were reinforced through laws and customs, which created stable social stereotypes.*

Keywords: *women, Jadidism, ignorance, education, legal status, reformist ideas*

История женщин — это особая и многослойная ветвь исторического знания, требующая бережного отношения к фактам, критического осмысления источников и глубокого понимания социокультурного контекста. История женщин - это история борьбы за место в обществе, история достижений в культуре, науке, экономике и политике. Это история о тех, кто, несмотря на ограничения эпохи, находил способы влиять на развитие общества, передавать культурные традиции, воспитывать поколения, защищать родные земли. Именно женщины, зачастую оставаясь в тени крупных событий, оказывались настоящими хранительницами коллективной памяти, социальных норм, устоев родовых и этнических общностей. Образ идеальной женщины — это безмолвная, покорная, целомудренная хранительница очага, не проявляющая инициативы и не претендующая на участие в социальной жизни. Даже в классической поэзии и литературе, несмотря на воспевание женской красоты и добродетелей, женская фигура оставалась пассивной.

До появления джадидской реформаторской мысли система образования и общественное положение женщин в Центральной Азии определялось симбиозом религиозных норм и традиционных обычаев (адатов), укоренившихся в повседневной жизни [1]. Женщина воспринималась прежде всего, как объект семейного уклада и носитель «чести рода», а не как самостоятельная социальная или интеллектуальная единица. Согласно исламскому праву (шариату), женщины обладали определёнными правами — в частности, на наследство, брак по согласию, содержание и развод. Однако в

реальной практике эти нормы интерпретировались крайне ограничительно. Девочек выдавали замуж в возрасте 12–14 лет, зачастую без их согласия, что рассматривалось как социальная норма. Брак заключался между семьями, и воля девушки практически не учитывалась. Развод был возможен в одностороннем порядке по инициативе мужа (талақ), в то время как женщине было почти невозможно реализовать это право без вмешательства родственников или авторитетного посредника. В рамках адатов, особенно в сельских районах и махаллях, женщине запрещалось появляться на людях без сопровождения мужчины. Её передвижения ограничивались стенами дома, а основные жизненные функции сводились к ведению быта, деторождению и поддержанию репутатsiи семьи. Нарушение этих «норм чести» часто вело к общественному осуждению, насилию и даже изгнанию. Абдулла Авлоний (1878–1934)-просветитель, поэт и педагог, автор учебников и трудов по педагогике. В книге «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» (Туркестанский сад или нравственность, 1913) он подчёркивает: «Просвещение женщин есть не блажь, а необходимость. Без знающей матери не будет нравственного народа». В своей поэзии он часто использовал метафору "тьмы", ассоциируя невежество с болезнью, а знание — со светом и исцелением: «Аёллар зийоси йўқ халқ — қабрда ётар турмусдир» («Народ, где нет света женщин — живёт как в могиле»). Параллельно с правовыми ограничениями существовало устойчивое культурное представление о женщине как о существе, неспособном к самостоятельному мышлению, принятию решений и общественному участию [2]. Это отражалось в поговорках, пословицах, песнях и литературе.

Среди наиболее распространённых были: «Женщина должна быть молчаливой, как тень», «У женщины нет ума — у неё сердце», «Где женщина рассуждает, там разлад в доме». Её голос отсутствовал как субъектный — он звучал только через мужское восприятие. Женщина не имела права быть носителем знания, истины или творческого порыва. Она могла быть музой, но не поэтессой, могла быть матерью пророка, но не пророком. Таким образом, к моменту возникновения джадидских идей общественная и культурная картина представляла женщину как зависимое и молчаливое существо, полностью погружённое в частную сферу жизни. Именно против этой концепции — не напрямую, а через реформу образования и представлений о культуре — и выступили джадиды, положив начало медленному, но фундаментальному сдвигу в восприятии женщины как личности [3]. Девочек редко обучали грамоте, и такое обучение чаще всего осуществлялось в пределах семьи — матерью, бабушкой или, в исключительных случаях, приглашённой наставницей (устоз), которая сама ранее получила минимальное религиозное образование. В городских районах девочек иногда допускали к начальному обучению в мектебах — начальных религиозных школах. Однако это происходило крайне редко и преимущественно в самых либеральных семьях. Учебная программа ограничивалась элементарным чтением арабского алфавита, заучиванием сур из Корана и основ религиозного поведения. Ни о каком светском знании, навыках письма, арифметике, истории или литературе речи не шло. Махмудходжа Бехбудий (1875–1919) - один из лидеров

джадидского движения, в своей статье «Рахбар-и нажат» («Путь к спасению», 1909) писал: «Если женщина остаётся в невежестве, как можно ожидать, что её сын вырастет знающим? Общество, где женщина не учится, не может быть живым». В устной культуре бытовали выражения вроде: «Письмо женщине - как меч младенцу», что подчёркивало страх перед тем, что грамотная женщина может выйти из-под контроля. В деревнях и аулах ситуatsiя была ещё более суровой: большинство женщин оставались полностью неграмотными на протяжении всей жизни. Их мир ограничивался домашним хозяйством, рукоделием, соблюдением ритуалов и воспитанием детей. Образованная женщина, особенно в среде ремесленников и купцов, считалась исключением, зачастую вызывающим недоумение или даже осуждение.

Интересно, что даже в правящих кругах ханств Бухары, Хивы и Коканда образование женщин не считалось приоритетом. Женщины из элиты могли получить доступ к частным урокам по чтению Корана, рукоделию, иногда - каллиграфии, но чаще всего это образование также сводилось к религиозному наставничеству и подготовке к роли «жены, достойной хана». Главная цель такого «образования» заключалась не в развитии интеллекта, а в воспитании покорной, набожной и скромной девушки, готовой к замужеству и выполнению семейных обязанностей. Умение читать и особенно писать воспринималось как ненужная или даже опасная роскошь для женщины. Фитрат (Абдурауф Фитрат) (1886–1938)-интеллектуал и реформатор, видел женское образование как условие hatsiонального пробуждения. В работе «Руҳи жадид» (1914) он отмечал: «Не женщина виновата в своей тьме - виновато общество, которое закрыло ей глаза и уши». Он писал о необходимости создания школ для девочек, и осуждал "двойную мораль", по которой мужчине дозволено всё, а женщине — только молчание и служение.

Таким образом, к концу XIX века женское образование в Центральной Азии практически отсутствовало как институт. Женщина была исключена из системы получения знания, не имела доступа к книге, письму, patsiональной мысли – именно это положение и станет одной из первых целей критики и реформ джадидского движения, которое выступило за признание образования не только как права, но и как средства освобождения. Именно в этот период начинают появляться первые женщины-учительницы, писательницы, поэтессы. Хотя их имена известны плохо, это были первые ростки женской интеллектуальной активности. Сарахон Зиё – одна из первых известных узбекских женщин-просветительниц. Даже при общем мраке положения, некоторые женщины стали символами стремления к знанию: Тухтабайим — известна как женщина, обучавшая девочек чтению Корана в Ферганской долине, несмотря на сопротивление мулл. Сарахон Зиё — одна из первых учительниц новой школы для девочек в Самарканде, активно поддерживала идеи Авлония и Бехбуды Таджибаева. Джадиды, несмотря на осторожность в формулировках из-за давления консервативных кругов, настойчиво поднимали тему женского невежества как одной из ключевых причин отсталости мусульманского общества. Они подчёркивали, что без грамотной

матери невозможно воспитать образованное поколение, а общество, в котором половина населения живёт в темноте, обречено на деградацию.

Список литературы

1. Kamp Marianne. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. University of Washington Press, 2006.
2. Ходжаева М. Паранджа и реформа: борьба за новый образ женщины в эпоху джадидизма. Ходжаева М. Паранджа и реформа: борьба за новый образ женщины в эпоху джадидизма. // «История и культура Центральной Азии». №4, 2012.
3. Камп Мюриэль Аткинс. Мусульманская Центральная Азия: между традицией и переменами. М.: Логос, 2001.
4. Бехбудий Махмудходжа. Рахбари нажат (Путь к спасению). Ташкент, 1910.
5. Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ (Турецкий цветник, или Нравственность). Ташкент, 1913.
6. Фитрат Абдурауф. Руҳи жадид (Дух джадида). Бухара, 1914.
7. Авлоний А. Мектеб ва маориф ҳаққида (О школе и просвещении). Ташкент, 1916.

Musallam ABDUJABBAROVA,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
O‘zDSMI

AYOLLAR MA’RIFATI VA IJTIMOIY FAOLLIGI JADIDLAR ORZUSIDA (ZEBO G‘ANIEVA TIMSOLI)

Annotatsiya. *Maqolada, jadid ma’rifatparvarlarining qizlarni ta’lim olishlari, oilada ona ilm nuri singdiruvchi, madaniyat, ma’rifat tarbiyachilari bo‘lishi kerakligi haqidagi qarashlari hamda o‘zining san’at va madaniyat sohasida qo‘shgan hissalari bilan yorqin namoyon bo‘lgan Zebo G‘anievaning jasoratli mehnatlari misolida ilmiy fikrlar keltirilgan. Turli manba va arxiv hujjatlari asosida ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jadid, ma’rifatparvarlar, ayol, xotin, qizlar, maktab, ta’lim, tarbiya, oila, manba, xulosa.*

Annotation. *The article presents scientific opinions on the example of the courageous labors of Zebo Ganieva, which are vividly manifested by the views of the Jadid enlightenment on the education of girls, the fact that the family should contain the light of Mother science, culture, enlightenment educators, and his contributions in the field of art and culture. Scientific conclusions were made on the basis of various source and archival documents.*

***Key words**: Jadid, enlightenment thinkers, women, girls, school, education, upbringing, family, sources, conclusions.*

Yangi O‘zbekistonni barpo qilishda yoshlar zamonaviy bilim bilan birga ajdodlarimizning madaniy merosini o‘rganishlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa, necha yillardan beri bizgacha etib kelgan yozma merosimizdagi oila bilan bog‘liq bo‘lgan qimmatli ma’lumotlar, ajdodlarimizning hayotiy tajribalari asosida yozilgan. Ularni o‘rganish va hayotga tatbiq qilish shaxsning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda zarur ahamiyat kasb etadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga etkaza bilishimiz kerak” [1].

XX asr boshlarida xotin-qizlarning o‘qimishli, ilmli, madaniyatli, o‘z jamiyati uchun zarur va foydali insonlar bo‘lib etishishlari kabi masalalar jadid ma’rifatparvarlarining qarashlarida ham namoyon bo‘lgan. Bu mavzuda ko‘plab maqolalalar, she’rlar, badiiy asarlar nashr etib borilgan. Jumladan, So‘fizodaning “O‘qunglar onalar” [11], Tavalloning “Hamshiralardin tilindin” [12] she’rlarida Turkiston ayollarinig “mute joriyalar”ga aylanib qolganligi, ularning ma’rifatli bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatayotgan “chalasavodlar”ga qarshi chiqiladi va ularning xulosasi ma’rifatni keng joriy etish zarurligi bilan yakun topadi. Abdulla Avloniy xotin-qizlarning ilm olishiga, kasb-hunar o‘rganishiga targ‘ib qilib yozgan she’rlari bilan bir qatorda, bu masalada tanqidiy qarashlarini keltirish joiz: “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?” – degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchisi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz boshi pahmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar” der [2, 37]. Chunki, deydi u, “onalarimiz bilim va tarbiya o‘rnig‘a erlari ila urushib-talashub qizlarig‘a mol qilmakni yaxshi ko‘rurlar” [6]. “Biz bechoralarni shu xollarga (jaholat demoqchi) qolg‘onimiga birinchi sabab ilmsizligimiz, dunyodin xabarsizligimizdur. Ey otalar ushbu nuridin bahravor qilurga harakat qilingiz ... Ma’suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg‘a oshiqingiz” [14], deydi. Qizlarga turli ziynatlar emas, aksincha ilm, hunar lozimligini uqturadi, u: “Qizlarimizg‘a marjon bo‘yun tumor va qo‘ltuqtumor kabi ziynat asboblarini hech bir lozimi yo‘q. To‘g‘risi avom qizlaringizni munday ziynat asboblar ila ziynatlamangiz. Juda aqchangiz tashlabilmay turgon bo‘lsangiz maxallangizdan biror qizlar maktabi ochib durustroq bir muallima keltirungiz. Endi bizni o‘quturg‘a va kishi qatorig‘a kiriturga g‘ayrat qilingiz. G‘ayrat!!!”. Maqolada o‘g‘il bolalarga nisbatan qiz bolalarga ilm, hunar ko‘proq zarurdir, degan fikr ilgari suriladi, chunki ular millat tarbiyachilaridir.

Shu o‘rinda Sora Muzaffariyaning “Ayb o‘zimizda” nomli maqolasi diqqatga sazovor. Unda Turkiston xotin-qizlarining haq-huquqlari masalasi haqida fikr yuritiladi: “Bizda iste’dod ham bor, qobiliyat ham bor. Ong va fikr ham bor. Bir uy ichigina emas, ba’zi erlar ham o‘rniga keltira olmaydigan, mamlakatlar idora qiladurg‘on quvvat ham bor” [9]. Muallif chor devor asirasiga aylangan, mute,

kundosh azobdan ezilgan Turkiston ayollarini birlashishga, eskicha hayot tarzini buzib, yangicha hayot kechirishga chaqiradi. Muallifning ushbu tashabbusli da'vatlari ta'siridan, oradan ancha yillar o'tib, millat ayollari orasidan jasorat bilan Zebo G'anieva (1923-2010) timsoli paydo bo'ldi. O'zbek san'at va madaniyatida ko'plab ajoyib va tarixiy shaxslar mavjud bo'lib, Zebo G'anievaning o'rni alohidadir. Zebo G'anieva nafaqat san'atkor sifatida, balki ikkinchi jahon urushi davrida ko'rsatgan jasorati bilan ham tarixda qolgan noyob ayoldir. Uning hayoti va ijodi o'zbek ayollarining milliy ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z ijodini san'at sohasida boshlagan bo'lib, professional raqs va sahna san'atiga qiziqqan. Ammo urush boshlangach, o'z xohishi bilan frontga ketgan. Bu qaror uning hayotida muhim burilish nuqtasi bo'lgan. Jangovar faoliyati davomida Zebo G'anieva frontda razvedkachi sifatida xizmat qilgan va bir necha bor og'ir jarayonlarda qatnashib, jasorat namunasi ko'rsatgan. Shu sababli, u "Jasorat" medali va ko'plab salmoqli mukofotlar bilan taqdirlangan. 2020-yilda Toshkentdagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hududida "Mangu jasorat" deb nomlangan ulug'vor monument barpo etildi. Bu monumentda Ikkinchi jahon urushida fidokorona xizmat qilgan 14 nafar o'zbekistonlik qahramonlar siymosi tasvirlangan bo'lib, ular orasida snayper va razvedkachi Zebo G'anievaning haykali ham o'rnatilgan. Bu tashabbus Prezident Shavkat Mirziyoevning tarixiy adolatni tiklash va milliy qahramonlarning xotirasini abadiylashtirish borasidagi sa'y-harakatlarining yorqin namunasidir . Bu tarixiy voqealar nafaqat uning shaxsiy hayotini, balki butun o'zbek xalqining faxriga aylangan bir timsolga aylantirgan. Uning frontdagi jasorati O'zbekiston madaniyatida ham o'z aksini topgan. Harbiy xizmatdan so'ng Zebo G'anieva o'z ijodiy faoliyatini davom ettirib, teatr va san'atda o'ziga xos yo'nalish yaratdi. Uning hayot yo'li va qahramonligi O'zbekistonda ayollar faoliyatini kengaytirishda muhim ramz bo'lib xizmat qiladi desak arziydi. Zebo G'anieva o'zbek ayoli qanday qilib nafaqat san'at va madaniyat sohasida, balki eng qiyin davrlarda ham o'zini ko'rsata olishi mumkinligini amalda namoyish etdi. Bu esa jamiyatda ayollarning o'rni va imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim tarixiy hujjatga aylandi. Xulosa o'rnida aytish lozimki, Zebo G'anievani tarixiy nuqtai nazardan bevosita jadidchilik g'oyalarining davomchisi va natijasi sifatida tan olish to'g'ri. Chunki uning hayoti va ijtimoiy faolligi jadidlar boshlagan ma'rifatparvarlik harakatining davomli ta'siri natijasida yuzaga kelgan yangi ijtimoiy muhitda shakllangan. Bugun uning hayot yo'li, jasorati va merosi, o'zbek xalqining milliy g'ururi va jamiyatdagi faolligini oshirishda yorqin namuna timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: mamlakatimizdagi boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo'q // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018-yil 21-dekabr soni.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq // tanlangan asarlar. 37-bet.
3. Bir musulmon // Turkiston viloyati gazetasi, 1912-yil 20-sentyabr
4. Dur al-ajoyib. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 2674.

5. Yoqubova S., Maqsudova M. Muallimalik masalasi // Sadoi Turkiston. 1914-yil 20-may.
6. Muzaffariya Sora. Ayb o‘zimizda // Sadoi Turkiston. 1914-yil 23-avgust.
7. So‘fizoda. O‘qunglar onalar // Sadoi Turkiston. 1914-yil 17-may.
8. Tojiboev R. Ma’rifat fidoyisi / Sog‘lom avlod uchun, 1999-yil. № 4-5, B. 46.
9. Zebo G‘anieva. **“**Xotiralarim”, Toshkent: “O‘zbekiston”, 1985.
10. Safarov S. “O‘zbekistonning mard va jasur qizlari”, Toshkent, 1995
11. Qodirov P. “Jasorat timsoli” (O‘zbekistonlik ayollar frontda), Toshkent, 1989

Шоира РАМАЗАНОВА
Кандидат филологических наук, доцент
ГИИКУз

ВЕЛИКАЯ ЗАСЛУГА ДЖАДИДОВ И ИХ НОВАТОРСКИЕ ИДЕИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются общественно-политические воззрения джадидов. В Российской империи население делилось не по национальному, а по религиозно-конфессиональному принципу. Поэтому одним из сегментов Российского общества были мусульмане, объединённые в духовные управления. Общая модернизатsiя России в XIX веке (индустриализатsiя, распространение просвещения) ставили перед российскими мусульманами выбор: либо модернизироваться со всей страной, либо уйти в изоляцию. Соответственно, произошел неявный раскол на джадидов и кадимистов.*

Ключивые слова*: основоположник, потомком тюркского шейха, мусульманский модернизм, просветитель, джадид, духовенство, конституционные идеи, педагогические курсы.*

Abstract*. This article examines the socio-political views of the Jadids. In the Russian Empire, the population was divided not according to nationality, but according to religious and confessional principles. Therefore, one of the segments of Russian society were Muslims united in spiritual administrations. The general modernization of Russia in the 19th century (industrialization, the spread of enlightenment) presented Russian Muslims with a choice: either modernize with the whole country, or go into isolation. Accordingly, there was an implicit split into Jadids and Kadimists.*

Key words: *founder, descendant of a Turkic sheikh, Muslim modernism, educator, Jadid, clergy, constitutional ideas, pedagogical courses.*

Джадиди́зм (от араб. جدد jadīd «новый», араб. جديدية jadīdiyya «обновлен чество», крымскотат. UsulCedid, тат. Җәдитчелек, башк. Йәдитселек, узб. Jadi

dchilik) —идеология исламского модернизма в Российской империи конца XVIII. Во второй половине XVIII в. наметился поворот мусульманского сообщества России на путь современного развития. Становление буржуазных отношений в России, обусловившее общее направление социально-экономического развития, повлекло за собой существенные изменения в массовом сознании. Религиозно-политическая реакция мусульман на эти процессы выразилась в реформаторском движении, известном как джадидизм. Обновленцы призывали к религиозно-нравственному возрождению, основанному на возврате к основным источникам ислама — Корану и Сунне, и социально-экономическому обновлению.

Иногда джадидизм понимают широко как синоним мусульманского модернизма в целом и тогда к нему относят даже таких людей как Джамалуддин аль-Афгани.

Слово «джадид» в составе словосочетания «Усул джадид» (*новый метод*) появилось в 1898 году в связи с обновлением учебных программ в татарских медресе. Введение нового метода происходило спонтанно по инициативе молодых учителей («мугаллимов»). Однако консервативные круги мусульманского духовенства из Оренбургского управления увидели в этом потерю своего авторитета и обвинили сторонников «нового метода» в замене арабского языка на татарский, в «европеизации», а также в потенциальных секулярных и революционных настроениях.

В Российской империи население делилось не по hatsionaльному, а по религиозно-конфессиональному принципу. Поэтому одним из сегментов Российского общества были мусульмане, объединённые в духовные управления. Общая модернизatsia России в XIX веке (индустриализatsia, распространение просвещения) ставили перед российскими мусульманами выбор: либо модернизироваться со всей страной, либо уйти в изоляцию. Соответственно, произошел неявный раскол на джадидов и кадимистов. Неизбежным примером для российских мусульман XIX века была Османская империя, что обуславливало пантюркистский уклон в джадидизме. Непосредственным основоположником джадидизма был крымско-татарский просветитель и политик Исмаил Гаспринский, который в 1883 году начал издавать газету «Переводчикъ-Терджиман» на крымскотатарском и русском языках. В том же году он открыл первую джадидскую школу в Бахчисарае. Большое внимание Гаспринский придавал и образованию женщин.

15 августа 1905 года джадидистам Гаспринского удалось создать Иттифак аль-Муслимин (بك فاق ل مسلمين Союз мусульман), первый конгресс которых прошел в Нижнем Новгороде на пароходе «Густав Струве» и включал 150 делегатов из Крыма, Закавказья, Урала, Туркестана и Сибири [1, 34]. Данная партия была представлена в Российской Государственной Думе. В работе партии активное участие принимал муфтий Самарканда Махмудходжа Бехбуди при поддержки интеллигенции во главе с Исаходжа Ширинходжаева, для которого примером просвещенного правителя был Тамерлан. Другой представитель партии «Иттифак» Муса

Бигеев перевёл в 1912 году Коран на татарский язык за что получил прозвище «Мусульманский Лютер». Ещё один представитель партии Абдурашид Ибрагимов предлагал преодолеть распри между шиитами и суннитами и предлагал ориентироваться на Японскую империю.

В 1905 году сподвижник Гаспринского Насиб-бек Усуббеков создает в Елизаветполе подпольную организatsiю Дифаи. Младотурецкая революция 1908 года дала определённый стимул развитию джадидизма и способствовала их окончательной политизatsiи. В 1908 году джадиды начали в Оренбурге издавать журнал Шуро (اروش, Совет), где Ризаитдин Фахретдинов проводил идею преемственности Волжской Булгарии, Золотой Орды и Казанского ханства. В 1917 на волне дезинтеграtsiи Российской империи в Ташкенте была образована Шура-и-Ислам (*Совет Ислама*), а в Коканде была провозглашена Туркестанская автономия. Локальной версией джадидистов были младобухарцы, который исповедовали аналогичные идеи на территории Бухарского эмирата, а также младохивинцы [2, 14].

Джадиды находились под огромным влиянием европейской политической мысли, особенно конституционных идей, а также младотурецкого движения в Османской империи. Они выступали за парламентаризм, полагая, что принцип представительной власти закреплен в Коране под термином *Шура* (совет).

Женщинам декларировались избирательные права. В начале джадиды исповедовали принцип конституционной монархии, но с 1917 года они стали склоняться к республиканским идеям (перс. جمهوری, Джумхурии). Классические джадиды выступали за культурно-территориальную автономию (*мухтариат*) Туркестана в рамках России, однако в эпоху Первой мировой войны радикальное крыло начало выступать с протурецких позиций. Радикальные джадиды отстаивали идеи революции (перс. انقلاب *инкилаб*) [4, 9].

Начало движения связано с введением в мектебах и медресе звукового метода обучения грамоте взамен буквослагательного, так называемого «усул-и джадид», то есть новый метод. Джадидисты критиковали религиозный фанатизм, требовали замены устаревших религиозных школ hatsiональными светскими, ратовали за развитие науки и культуры, выступали за издание газет на родном языке, за открытие культурно-просветительских учреждений, что способствовало сплочению демократических сил общества. Был установлен учебный год с экзаменами и осуществлен переход к классно-урочной системе преподавания. Кроме этого в новометодных школах вводились стандартные европейские способы обучения – парты, журналы успеваемости, скамьи, доски, деление учеников на классы, и учебного времени на уроках. В старометодных школах ученики обучались грамоте за 3-5 лет, в джадидистских – за год. Преподавание перешло с арабского и тюрки на татарский язык, который обрел также статус учебного предмета; существенно расширилось изучение и других светских дисциплин. В школах помимо религии изучался русский язык, фарси, история (*тарих*), география и арифметика.

Впервые новый метод обучения был введен в медресе «Гусмания» (Уфа), «Хусаиния» (Оренбург) и «Мухаммадия» (Казань). Первые татарские, башкирские и казахские преподаватели, последователи джадидизма, были выпускниками медресе братьев Хусаиновых «Хусаиния», а также реформированных медресе Каира и Стамбула, педагогических курсов в городах Бахчисарай и Касимов.

Со 2-й половины 1890-х годов профессиональных учителей стали готовить медресе «Расулия», «Галия», медресе в Стерлибаше и др. К началу XX века звуковой метод обучения прочно утвердился в ведущих мектебах и медресе Башкирии. В 1897 году в Оренбурге открылась первая в крае новометодная женская школа. В 1916 г. в Российской империи существовало уже более 5000 джадидских школ, основанных на «новом методе». В Азербайджане выразителем идей джадидизма был азербайджанский учёный, философ, художник и врач Али-бек Гусейнзаде. Джадидизм имел влияние и в Дагестане (Нухай Батырмурзаев). В период Российской империи духовным центром Казахстана был Оренбург (впоследствии центр Киргизской автономии), где в 1891 году была открыто джадидское медресе Хусаиния. При медресе было организовано «Общество изучения казахского языка». Лидером Туркестанских джадидов был Махмудходжа Бехбуди (1875-1919) известный просветитель, один из идеологов и лидеров джадидизма, издатель и политик. Он был потомком тюркского шейха Ходжа Ахмеда Яссеви. В формировании мировоззрения Махмудходжи огромную роль сыграл основоположник движения джадидизма Исмаил Гаспринский. Махмудходжа Бехбудий был автором, в частности, «Мунтахаби жугрофияи умумий» — «Кискача умумий жугрофия» (1903), «Китоб-ул-атфол» — «Болалар учун китоб» (1904) и мн. др. В 1913 году Бехбуди начал выпуск газеты «Самарканд». В своих произведениях Бехбуди использовал термин тюркский язык как синоним узбекского языка. Бехбуди, как и другие джадиды, выступал за развитие hatsionального искусства и литературы, равноправие женщин, реорганизatsiю деятельности духовенства, преподавание в школах на hatsionальном языке, за реформы политического устройства страны. Он боролся за введения в мусульманских школах нового метода обучения, ряда светских предметов. Бехбуди выступал за создание истории своей родины Туркестана. Другим лидером туркестанских джадидов был Мунаввар Кары Абдурашидханов (1878-23.05.1931)– узбекский просветитель. Он был основателем hatsionально-просветительского движения джадидов и руководителем организatsiи Шура-и-Ислам в Туркестане. Костяк так называемого «Бухарского джадидизма» составляли выходцы из самой Бухарского эмирата, в основном представители интеллигенции, муллаваччи (ученики медресе, и недавно окончившие обучение в медресе), купцы и торговцы, а также ремесленники. В 1908 году бухарскими джадидистами была создана организatsiя «Бухорои Шариф ширкати», которая в основном занималась изданием, печатанием и продажей книг и учебников на территории Бухарского эмирата. Наиболее известными представителями бухарского джадидизма являются Абдурауф Фитрат, Файзулла

Ходжаев, Усман Ходжаев, Абдулкадыр Мухитдинов, Муса Саиджанов. В Ташкенте печаталась джадидистская газета Азия [5, 334].

В отличие от бухарского джадидизма, хорезмский или хивинский джадидизм возник совершенно в других условиях, в начале XX века, когда на территории Хорезма существовало Хивинское ханство. Первая джадидская школа была открыта в Ургенче в 1904 году. Впоследствии, хорезмский джадидизм раскололся на два крыла. В так называемое правое крыло входили промышленники, купцы и торговцы. Руководителем правого крыла являлся главный визирь (премьер-министр) Хивинского ханства в 1907—1913 годах — Ислам-ходжа, известный своими либеральными взглядами. Правое крыло хорезмских джадидистов выступала за сохранение монархии в государстве, осуществление масштабных либеральных и общественно-политических реформ, создание и развитие промышленности в экономике ханства, а также за свободные рыночные отношения.

Левое крыло объединило ремесленников, часть купцов, а также различные слои хорезмцев, в том числе и бедняков. Главой левого крыла являлся кази-калян (главный шариатский судья) Бабаахун Салимов. Силами левого крыла была создана сеть мактабов (школ) с совершенно новым современным методом обучения, названная «Янги усул мактаби» (с узбекского языка буквально дословно переводится как *Школа нового метода*). Для создания этих школ, им был организован специальный фонд под названием «Джамияти хайрия» (*Общество благотворительности)*. Первая такая школа была открыта в ноябре 1904 года.

Список литературы

1. Брагинский И. С. О природе среднеазиатского джадидизма в свете литературной деятельности джадидов // История СССР, –1965. № 6.
2. Валиханова В. С. Джадидизм: возникновение и сущность // История национальных политических партий России. – М., 1997.
3. Вахабов М. Г. О социальной природе среднеазиатского джадидизма и его эволюции в период великой октябрьской революции// История СССР, -1963.-№ 2.
4. Гафаров Н. У. Культурно-просветительская деятельность джадидов в Бухарском эмирате, начало XX века. Душанбе, 1999. (автореферат)
5. Маликов А. М. Самаркандские реформаторы начала XX века: Исаходжа Ширинходжаев // XXX международный конгресс по источниковедению и историографии стран Азии и Африки: к 150-летию академика В. В. Бартольда (1869-1930). Материалы конгресса. т.1. Спб.: Студия «НП-Принт», 2019.
6. Ходжаев Ф. Джадиды // Очерки революционного движения в Средней Азии, - М.,1926.

Sevara MAHMUDOVA,
Filologiya fanlari nomzod, dotsent
O‘zDSMI

ABDULLA AVLONIY DARSLIKLARINING MAORIF ISLOHIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada Abdulla Avloniyning yaratgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari va ularning xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.Avloniy tomonidan yaratilgan o‘quv adabiyotlarining XX asr boshlaridagi maorif islohida tutgan o‘rni misollar bilan tahlil qilinadi*
Kalit so‘zlar: *Abdulla Avloniy, jadid maktablari,”Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”.*

Abstract*. The article examines the textbooks and teaching aids created by Abdullah Avloni and their features. The role of educational literature created by Avloni in the educational reform of the early 20th century is analyzed using examples.*
Key words: *Abdullah Avloni, Jadid schools, "First teacher", "Second teacher", "Turkic Gulistan or Morality".*

XX asr boshlarida jadidchilik harakati o‘zbek ta’lim tizimida katta o‘zgarishlarni boshlab berdi. Jadid maktablari uangi usul asosida ta’lim-tarbiya berib, eski maktablar va madrasalardagi yodlash va tushunishga asoslanmagan ta’lim tizimidan farqli ravishda amaliy o‘qitish usullariga urg‘u berardi.

Jadid maktablari taraqqiyotining uangi davri – bunday maktablar uchun zamon talablariga to‘la javob bera oladigan pedagoglar guruhini tarbiyalab etishtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, uangi texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish XX arsning 10-yillaridan ko‘zga tashlana boshladi. Buning uchun endi ushbu maktablarning nazariy asoslarini yaratish, uangi zamonaviy o‘qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o‘qituvchilarini bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etish Abdulla Avloniy kabi zamonasining ulug‘ mutafakkirlari zimmasiga tushdi.

Yangi maktab go‘yasi Turkistonda dastlab XIX asr boshlarida paydo bo‘lgan. Jadidshunos Begali Qosimov fikricha: “Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi. Bu tabiiu. Hamonki maqsad jamiuatni uangilamoq ekan, uni uangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, uetishtirmoq lozim. Eski, an’anaviu usulda bu ishni amalga oshirish qiuin, chunki zamon o‘zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o‘quvchi zamonaviu fanlarni bilishi kerak. Ya’ni tarix, jug‘rofiua, iqtisod, fizika, kimuo, matematika va h.k.

So‘nggi uch-to‘rt asr dunuo taqdirini boshqa o‘zanga solib uubordi. Ovruponi oldinga olib chiqdi. Uning qo‘lini sarbaland qildi. Endi Ovrupo ilm-fanini

egallamasdan dunuo bilan barobar uashab bo‘lmaudi. Bu ilm-fanni o‘zlashtirmoq uchun Ovrupo tillarini bilmoq kerak. Auni pautda o‘zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diuonat ham zarur. Xullas, uashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak bo‘ladi. Ushlaganda ham hech birini suiste’mol qilmasdan. Aks holda muvozanat buziladi” [1].

Ana shunday zamonasining ilg‘or, fidoyi ziyolilaridan biri Abdulla Avloniydir. XX asr boshlarida O‘zbek istonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o‘rin egalladi, butun faoliyati davrida u o‘z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni etishtirish, uning ma’naviyatini shakllantirishga alohida e’tibor berdi.

U 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida uangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o‘quv asbob-jihozlarini o‘zgartirdi, o‘z qo‘li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag‘al kishilarning bolalari bo‘lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta’minlash maqsadida, do‘stlarining ko‘magida “Jamiyati xayriya” tashkil etadi va bu jamiyatga o‘zi raislik qiladi.

Abdulla Avloniy “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug‘lab, o‘z xalqini ilmli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi.

Bu darsliklar avvalo, bolalarbop maxsus asarlar ijod etish an’anasini boshlab berganligi bilan diqqatga sazovor. Negaki, xalq bolalarini ma’rifatli qilishni ko‘zlab ochilgan uangi usuldagi maktablar uchun o‘zlari tuzgan bu kabi darsliklarda hayotiy voqelikning badiiy ifodasida bolalarning yosh xususiyatiga alohida e’tibor qaratiladi.

XX asr boshlarida uangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning “Birinchi muallim”i ham o‘ziga xos o‘ringa ega; “Birinchi muallim” 1917- yil to‘ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi). “Birinchi muallim” kitobi boshlang‘ich maktabga mo‘ljallangan bo‘lib, ta’limning oddiydan murakkab tamoyili asosida yozilgan. “Ikkinchi muallim” asari esa birinchi kitobning davomi va takomillashtirilgan shakli edi.

Jumladan, shoirning “Ikkinchi muallim”dagi “Maktabga da’vat” she’rida muallif bevosita yosh kitobxonga murojaat qiladi:

Boqdi gunash panjaradan bizlara,
Yotma deyur barcha o‘g‘il qizlara.
Nolayi faryod qilib barcha qush:
Maktabingiz vaqti, deyur sizlara.
Boshladi har kim o‘z ishin ishlara,
Siz-da turing, maktabingiz izlara.
Siz-da kitoblarni oling shavq ila,
Tez yuguring, ilm yo‘lin gezlara. [2, 140]

She’rda tong otishi, uyqudan uyg‘onish vaqti etganligi o‘z ma’nosidan tashqari, ramziy ma’no ham tashiydi. Avvalo, erta tong quyoshi shiringina uxlab yotgan kichkintoy o‘g‘il-qizlarni nurlari bilan erkalab uyg‘otarkan, ularni tong qushlar-u chug‘urchuqlar, bolari-yu buzoqlardan andaza olishga, ularning kundalik “mashg‘ulot”lari bor bo‘lgani kabi o‘quvchilar ham kitob-daftarini qo‘lga olib, ilm yo‘lini izlashga borishlari lozimligi uqdiriladi. Shuningdek, she’r mazmunidan gunash-quyosh hurlik va ozodlik ramzi, uyqu esa jaholat, g‘aflat timsoli bo‘lib, bolalar uyg‘onishga, o‘zligini anglashga da’vat etilayotir, degan ma’no ham anglashiladi

Ma’rifatparvarlikning uetakchi tamoyillari mazlum xalqni uyg‘otish, ilm-ma’rifat nuridan bahramand qilish, o‘zligini tanitish sari etaklashda aks etar ekan, bunda asosiy e’tibor bolalarga qaratilishi aniq. Chunki jaholat botqog‘iga botib bo‘lgan avom xalqni uyg‘otish va qayta tarbiyalashdan ko‘ra qalbi va ongi toza, pokiza yosh avlodni avval boshdan to‘g‘ri tarbiyalash osonroq va maqbul yo‘l bo‘lsa kerak. Ammo “Turkiston maktablarida o‘z ona tilimizda yozilgan mukammal “Axloq” kitobining yo‘qligi, afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtojligi” Avloniyga qattiq ta’sir qiladi. “Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘ngidan adibi muhtaram Shayx Sa’diy usulinda yozmakni, garchi og‘ir ish bo‘lsa ham” o‘ziga muqaddas bir vazifa deb hisoblagan Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini yozib tugallaydi va 1913-yilda chop ettiradi.[3, 48-b]

Bu kitob zamonaviu pedagoglar etishtirish, uangi darsliklar yaratish va majmualar yaratish uchun asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tadi. Abdulla Avloniy bu asari haqida shunday deydi: ”Men bu asari nochizonimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta’lim bermak ila barobar ulug‘ adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim” [4, 20].

Asar “insonlarni yaxshilikg‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilm” Axloq xususidadir. Biroq “Turkiy guliston” Shayx Sa’diy “Guliston”iga shunchaki nazira yoxud ergashish natijasi emas, balki o‘z davri va kitobxoni xususiyatlarini to‘la hisobga olgan tom ma’nodagi uangicha bir asar hamdir.

Har tomonlama etuk, barkamol insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlash bevosita tarbiya bilan bog‘liqdir. Bolaning saodati uchun uni yaxshi tabiya qilmoq kerak ekanligini, tanasini pok tutmoqlikni, hali yoshlikdan boshlab yaxshi xulqlarni o‘rgatish lozimligini hamda yomon xulqlardan uzoqda saqlash kerakligi haqida aytib o‘tgan bo‘lib, bu fikrlar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, ya’ni yosh avlod tarbiyasidagi asosiy g‘oyalardan biridir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq erdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur”, — deydi.Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ahamiyatga ega.

Avloniy bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, – degan chuqur ma’noli so‘zlari bu fikrning naqadar

muhimligini, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmasligini tasdiqlaydi.

Avloniy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ham ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudu biriga boylangan jon ila tan kabidur" – deydi.

U insonga xos xulqni ikkiga – yaxshi va yomonga ajratadi. "Yaxshi xulqlar" deb nomlangan birinchi qismida u 31 fazilat, "Yomon xulqlar" deb atalgan ikkinchi qismda esa 18 illatga ta'rif beradi. Har bir axloqiy kategoriyaga o'z munosabatini bildirgach, o'sha fikr mazmunini ifodalovchi bayt, yo biror maqol – hikmat ilova qiladi. Biroq muallif inson xulqini shunchaki ikki guruhga ajratib tasnif qilish bilan cheklanmay, "bu sanagan yomon xulqlarning fanoliklarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go'zalligini insof muvozanasi ila o'lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tanlab amal qilmak, yomonlarini anglab hazar qilmak lozimdur",–deydi. Ko'rinadiki, Avloniy insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi so'zlarni eshitib va ko'rib undan ibrat olish, yomon xulqlarni bilib olgach, ulardan o'zini tiymoq zarurligini uqdirib, yosh avlodni insoniylik sari etaklaydi. Shu sababli muallif har bir yaxshi yoki yomon xulq xususida fikr yuritar ekan, uning sifatlarini bittalab sanaydi, fikr dalili uchun o'tmish donishmandlari hikmatlaridan misollar keltiradi hamda "qissadan hissa" tariqasida she'riy xulosa bilan yakunlaydi.

A.Avloniy darsliklarining asosiy xususiyatlari:

1. O'quvchilar uchun sodda va tushunarli tilda yozilgan – matnlar tushunarli qilib yozilib, ko'pchilik o'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan tez o'zlashtirilgan.

2. Axloqiy-tarbiyaviy yo'nalish – Avloniy darsliklarida ilm-fan bilan bir qatorda axloqiy tarbiya ham muhim o'rin tutadi.

3. Amaliy va hayotiy bilimlar – darsliklarda hayotiy tajribalar, qiziqarli hikoyalar va maqollar orqali o'rgatilgan.

4. Jadid maktablarida uangi usul bilan o'qitish – eski maktablar bilan solishtirganda, uangi darsliklar aniq metodikaga asoslangan holda o'qitilgan.

A.Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari nafaqat o'z davri uchun, balki hozirgi ta'lim tizimi rivojlanishi uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, zamonaviu fan yutuqlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish, yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish borasidagi fikrlari bugungi ta'lim islohotlari bilan mushtaraklik kasb etishini inobatga olib, A.Avloniy asarlaridan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik ruhida shakllantirish uchun muhim manba sifatida foydalanish o'rinlidir.

"Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" va "Turkiy guliston yoxud axloq" darsliklari orqali bolalarga o'qish, yozish, axloqiy tarbiya va ilm-fan asoslari o'rgatilgan. Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan keng qamrovli foydalanish tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi. Avloniyning darsliklari nafaqat bilim berishga, balki yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga ham xizmat qilgan.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida ilgari surgan ta'limiy- tarbiyaviy g'oyalari, ko'plab nazariy mulohazalari ushbu asarlaridan joy

olgan bo‘lib, ularni mufassal tadbiq etish milliy ma’naviyatimizni xolis anglab etishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo‘lib xizmat etadi

A.Avloniy ilgari surgan tamoyillar hozirgi kompetensiyaviy yondashuv bilan hamohang bo‘lib, bugungi ta’lim tizimida ham ahamiyatli bo‘lib qolmoqda. A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini elektron shaklda tayyorlash va zamonaviu texnik vositalar (kompyuter, android telefon va b.q) orqali talabalarga etkazish ishlarini amalga oshirish samarali natijalarni beradi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini darsliklar orqali kichik maktab yoshidan bosqichma bosqich o‘rgatib borsak, bugungi kun ta’lim-tarbiyamizda uchrayotgan noxush holatlarga ma’lum darajada echim topgan bo‘lardik.

Adabiyotlat ro‘yxati

1. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Universitet va pedagogika institutlari uchun darslik. – T.: Ma’naviyat, 2004.

2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 1-jıld – T.: Ma’naviyat, 1998, – B 140.

3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 1-jıld – T.: Ma’naviyat, 1998, – B 48.

4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 1-jıld – T.: Ma’naviyat, 1998, – B 20.

Nargiza PAZLITDINOVA,
PhD, dotsent
University Business and Science
Namangan

JADIDCHILIK HARAKATIDA BOTUNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi Botu (Botirxon Zokirov)ning o‘zbek adabiyoti va matbuotidagi o‘rni, uning milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, diniy islohot, ayollar erkinligi va istiqlol g‘oyalari targ‘ibotidagi xizmatlari yoritiladi. Maqolada Botu asarlaridan iqtiboslar asosida uning g‘oyaviy-estetik qarashlari, jadid adabiyotiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Botu, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, matbuot, istiqlol, diniy islohot.*

Abstract. *This article discusses the role of Botu (Botirkhon Zokirov), an active participant in the Jadid movement that emerged in the early 20th century, in Uzbek literature and the press, his services in promoting the ideas of national revival, enlightenment, religious reform, women's freedom and independence. The*

article analyzes his ideological and aesthetic views and contribution to Jadid literature based on excerpts from Botu's works.

Key words: *Botu, Jadidism, enlightenment, national revival, press, independence, religious reform.*

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati o‘zbek adabiyoti, madaniyati va ijtimoiy hayotini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan yirik uyg‘onish davri bo‘ldi. Bu harakatda Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori kabi yirik vakillar bilan bir qatorda, Botu taxallusi bilan tanilgan Botirxon Zokirov ham o‘ziga xos o‘rin egallagan. U adabiyot va matbuot orqali jadidchilik g‘oyalarini keng yoyishga xizmat qilgan ijodkor sifatida tanilgan.

Botu kim edi? Botirxon Zokirov (taxallusi Botu) — XX asr boshlarida yashab ijod qilgan oek jadid shoiri, jurnalisti, nosiri va ziyolisi. U asosan milliy uyg‘onish, istiqlol, ma’rifat, diniy islohot va madaniy yangilanish g‘oyalarini ilgari surgan. Botu o‘z faoliyatini asosan matbuot, she’riyat va publitsistika sohalarida olib borgan.

Botuning jadidchilik g‘oyalari

1. Milliy uyg‘onish va vatanparvarlik

Botu jadid adiblariga xos bo‘lgan asosiy g‘oyani — milliy uyg‘onish va istiqlolni o‘z ijodining asosiga aylantirgan. U millatni “uyqudan uyg‘otish” zarurligini ta’kidlab, o‘z she’rlarida xalqni mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashga da’vat etgan.

“Yetti yuz yildan beri uyquda qolgan elimsan,
Endi uyg‘onmasang, yo‘qolur noming, bil, ey inson! [Botu, “Istiqlol”, 1920-yillar]

Ushbu satrlarda Botu millatni o‘z tarixini eslashga, uyg‘onishga va mustaqillik yo‘lida harakat qilishga undaydi.

2. Ma’rifatparvarlik va jaholatga qarshi kurash

Botuning jadidchilikdagi o‘rni uning ma’rifatparvarlik faoliyatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. U xalq orasidagi savodsizlik, dinni noto‘g‘ri talqin qilish, jaholat va xurafatga qarshi qattiq tanqid bilan chiqqan.

“Johil elning boshida qon, yuragida qorong‘u,
Bilimdan nur olgan el — bo‘lur osmonu er yoru.”
[Botu, “Ma’rifat nuri”, 1919]

Ushbu she’riy ifodada Botu bilimning najot manbai ekanini, savodsizlik esa halokat sari etaklashini ta’kidlaydi.

3. Diniy islohot va musulmonchilikni yangicha tushunish

Jadidlar singari Botu ham islomni zamon ruhiga mos holda yangicha talqin qilish tarafdori bo‘lgan. U diniy johillikka qarshi chiqqan, islomni taraqqiyotga xizmat qiladigan din sifatida targ‘ib qilgan.

“Dindan nomi bor, ammo ichida jaholat,
Payg‘ambari ilm degan — unutdi bu haqiqat.”
[Botu, “Haqq yo‘li”, 1921]

Bu erda shoir diniy e’tiqodni bilim va haqiqatga asoslanmagan holda emas, balki ongli va zamonaviy shaklda anglash kerakligini ilgari suradi.

Botu “Inqilob bayrog‘i”, “Turon”, “Ishtirokiyun”, “Mushtum” kabi nashrlarda faol qatnashgan. Ayniqsa uning satirik maqolalari orqali ijtimoiy illatlar, mansabparastlik, jaholat va mustamlaka siyosati tanqid ostiga olingan.

“Kimki mansabda bo‘lsa — xalqni unutdi darrov,
Kursiga mingan kishi — cho‘ktirur orzni yorov.”

Bu misralar orqali Botu jamiyatdagi ijtimoiy nohaqlik va adolatsizliklarga nisbatan o‘tkir tanqidini bildiradi.

Botuning she’riyatidagi badiiylik va jadidlik ruhiyati

Botuning she’rlari til jihatdan sodda, ammo mazmun jihatdan chuqur falsafiy va ijtimoiy ruhda yozilgan. U qadimiy aruz vaznidan foydalangan bo‘lsa-da, mazmunan o‘z davrining dolzarb masalalarini ko‘taradi. Jadid adabiyotiga xos bo‘lgan quyidagi jihatlar uning ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi:

ma’rifiylik;
ozodlik g‘oyalari;
xalqning uyg‘onishiga da’vat;
ijtimoiy adolat masalalari;
diniy va siyosiy tanqid.

Botu va Fitrat o‘z davrining ikki etuk jadid adibi sifatida bir-biriga yaqin g‘oyalarni ilgari surgan. Fitrat bu g‘oyalarni nazariy va ilmiy jihatdan asoslagan bo‘lsa, Botu ularni xalq orasida ommalashtirishga, publitsistika va she’riyat vositasida targ‘ib etishga xizmat qilgan. Ikkovining ijodida milliy uyg‘onish, ma’rifat, istiqlol va diniy islohot ustuvor o‘rin tutadi.

Botu o‘zbek jadidchilik harakatining muhim vakillaridan biri sifatida millatni uyg‘otish, ma’rifat va istiqlol g‘oyalarini adabiyot va matbuot vositasida targ‘ib etgan. Uning she’riyati, maqolalari va publitsistikasi bugun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Jadid adabiyoti va g‘oyalarining xalq orasiga singdirilishida Botuning hissasi beqiyos bo‘lgan va o‘zbek madaniy-ma’naviy merosida o‘chmas iz qoldirgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Botu. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1995.
2. Salohiy D. Jadid adabiyoti taraqqiyoti. Toshkent: Fan, 2002.
3. Rajabov A. O‘zbek matbuoti tarixidan. Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
4. G‘afurov N. Jadidlar merosi va milliy uyg‘onish. Toshkent: Ma’naviyat, 2014.
5. Yusupova D. Jadidlar she’riyati poetikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.

Mirali MAXMUDOV,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
O‘zDSMI

USULI JADID MAKTABLARI VA ULAR UCHUN O‘QUV ADABIYOTLARINING YARATILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Usuli jadid maktablari va ular uchun adabiyotlar yaratilishining ba’zi bir masalalari tarixini yoritishga bag‘ishlangan.*
Kalit so‘zlar*: jadid, usuli jadid maktablari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar.*

Abstract. *This article is devoted to highlighting the history of the Jadid schools of thought and some issues related to the creation of literature for them.*
Key words: *jadid, method jadid schools, textbooks, training manuals.*

XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asrning boshlarida Turkiston shahar va qishloqlarida masjidlar, oliy, o‘rta va quyi madrasalarning, ular qoshidagi boshlang‘ich maktablarning, shahar va qishloqdagi musulmon jamoalarini, maqbaralar va xonaqolar qoshida ommaviy foydalanishi uchun mo‘ljallangan kutubxonalar (kitoblar to‘plami) mavjud edi. Ularning aksariyati vaqf mulki mablag‘lari yoki boy kishilarning xayr-ehsonlari hisobiga kun ko‘rardi.

XIX asrning 80-yillari oxiri - 90-yillarining boshida masjidlar, madrasalar, xonaqo va shifoxonalar qatori, yuqorida zikr etilgan kutubxonalar ham qattiq iqtisodiy inqirozga uchradi. Bu inqirozni mustamlakachi ma’murlarning vaqf erlari va boshqa mol-mulkning katta qismini markaziy Rossiyadan ko‘chirib kelingan aholiga berish bo‘yicha ko‘rgan chora-tadbirlari keltirib chiqardi. Buning natijasida vaqf muassasalari ta’sischilarining moliyaviy ajratmalari mikdori qisqardi, xayriya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, masjidlar, madrasalar, shifoxonalar va xonaqolarni qo‘llab-quvvatlab turuvchi mahalliy boylar soni kamaydi[4]. Kutubxonachilik ishini davlat tomonidan tartibga solish va unga rahbarlik qilish tizimi mavjud bo‘lmagan sharoitda bu tabiiy bir hol edi.

Butun Turkiston hududida masjidlar va madrasalar qoshida minglab maktablar faoliyat ko‘rsatgan, o‘z uylarida domla va otinlar bolalarni o‘qitgan, yuzlab madrasalar ish olib borgan bo‘lsa-da, ularda ta’lim eski usulda berilar, o‘qitiladigan fanlar doirasi ancha tor bo‘lib, ularning mazmuni XI—XSh asrlardagi jahon fani darajasini aks ettirar edi. Maktablarda ta’lim berishning birdan-bir maqsadi o‘quvchilarga harf tanitish va ularning savodini chiqarish, shuningdek o‘quvchilarni turkiy va fors tillaridagi she’riyat namunalari, hadislar va payg‘ambarlar hayoti haqidagi hikoyalar bilan tanishtirishdan iborat edi.

Madrasalarda ta’lim dasturi matematika asoslari, adabiyot tarixi, arab-musulmon dunyosi mamlakatlari tarixi, arab tilini o‘rganish, Qur’oni karim suralarini yodlash, alohida tafsirlar (Qur’oni karimga sharhlar)ni, uni mutolaa qilish, ya’ni qiroat usullarini, Qur’oni karim imlosi va matni masalalari tajvid, islom qonunshunosligi - fiqhni o‘rganish bilan cheklanardi.

Jadidchilik asoschilaridan biri Ismoil Gasprali ham bu muammo ustida juda ko‘p mushohada qilgan. O‘zi nashr etgan “Tarjimon” gazetasida u Buxoro va Xiva xonlariga murojaat etib, jumladan, shunday deb yozadi: “Fuqaroi islom sizlardan mol istamas, osh istamas. Siz, davlatlik xonlardan xalqqa ehson etiladigan narsa nashri maorifga, taraqqiyot va kamolotga omil bo‘luvchi oliy darajalik maorif

maktablaridir. Ko‘hna madrasalar ko‘p Buxoroyi sharifda va Xivada. Endi biror dorilfununi islomiya ta’sis etmoq lozim. Bu dorilfununlarga bir daraja ilm olgan talaba qabul qilinib, tarix, jug‘rofiya, kimyo, handasa, ilmi huquq, usuli idorai davlat, ilmi iqtisod va boshqa lozim fanlar, turkiy, forsiy, rusiy va fransaviy tillar o‘rgatilsa, ushbu dorilfununlarda muallif va mudarrislik qila oladigan axdi kamol topiladi” [5].

Ushbu vaziyatning fojiali tomoni shunda ediki, bu so‘zlar jahonning rivojlangan mamlakatlarida maktab o‘quvchilari, kollej va universitetlarning talabalari aniq fanlar, ijtimoiy va tabiiy fanlarning to‘liq majmui asoslarini uzoq yillardan beri o‘rganayotgan bir vaqgda yozilgandi. Bu davrda Yevropada jamiyat, fan va texnika o‘z taraqqiyotida juda katta olg‘a qadam tashlagan edi. Ta’lim tuzilishi, usullari va uni tashkil etish tarzida ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan edi. Turonzamin xalqi qarshisida hayotning barcha sohalarini yangilash vazifasi ko‘ndalang bo‘ldi. Ayniqsa, xalq ta’limi sohasida katta sifat o‘zgarishlari yasash talab etilardi.

Turonzaminda ijtimoiy, iktisodiy, madaniy va siyosiy hayotning barcha tomonlarini yangilash harakati aynan ta’lim, xalqqa madaniy, mafkuraviy va siyosiy bilimlar berishning kechiktirib bo‘lmaydigan, dolzarb vazifalarini hal qilishdan boshlandi. Bu harakatga ilg‘or milliy ziyolilar - jadidlar boshchilik qildi, uning mafkurasi jadidchilik degan nom oldi. Arabchadan tarjima qilganda bu so‘zning o‘zagi - “jadid” – yangi, yangilik degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik harakati va uning mafkurasiga tatbiqan olganda, bu so‘z zamirida bir qancha ma’nolar, chunonchi, “yangi tafakkur”, “yangilik tarafdori”, “yangicha turmush tarzi”, “yangi maorif” degan ma’nolar mujassamlashgan [3].

Ismoil Gasprali 1884-yildayoq Qrimda, Boqchasaroy shahrida o‘z mablag‘iga bolalar uchun maktab ochgan bo‘lib, unda, eski maktabga taqqoslaganda mutlaqo boshqa, yangi ta’lim usullarini qo‘llagan edi. “Xojalarga ta’limot” (“Muallimlarga yo‘llanma”) qo‘llanmasida u yangi maktabning mohiyatini va “usuli qadim”dan “usuli jadid”ning farqi va afzalliklarini tushuntirib berdi. Kitobda, shuningdek, oddiydan murakkabga yoki xususiydan umumiyga yuksalish, o‘qish bilan yozishni qo‘shib olib borish, har bir harfni tovush usuli (usuli savtiya) asosida (ya’ni sadosi bilan, ovoz chiqarib) o‘rgatish, quruq yodlatishdan voz kechish, har bir so‘z, har bir tabiiy hodisaning va ijtimoiy hayot hodisalarining mazmunini tushuntirish, uy vazifalari hamda olingan bilimlarni tekshirish uchun savollar berish usuli, sinovdan o‘tkazish va imtihon qilish usulining mohiyati ochib berilgan.

Ismoil Gasprali o‘z qo‘llanmasida maktabda bolalarga necha yoshdan boshlab ta’lim berish lozimligi (6-7 yoshdan), o‘quv yili choraklarida o‘quv soatlarining taqsimlanishi va choraklar oralig‘idagi ta’tillar, dars jadvali tuzish va darslar oralig‘ida tanaffuslar belgilash tartibi, maktabning joylashishi va dars xonalarining o‘rni, sinflarni jihozlash va hatto ularni yoritish darajasi to‘g‘rissda ham so‘z yuritadi. Bu qo‘llanma yangi milliy maktabning ham dasturi, ham modeli edi. XX asr boshida bunday maktablar butun Turonzamin bo‘ylab keng tarqaldi va “usuli jadid maktabi” nomi bilan dong taratdi [5].

Usuli jadid maktablari Turon zaminida ilk bor Samarqand va Buxoro shaharlarida paydo bo‘ldi. Ularni Ismoil Gaspralining o‘zi bu erga 1893-yilgi safari vaqtida mahalliy ziyolilar ko‘magida ochgan edi. Uning hamrohi va shogirdi Majid

G‘anizoda Samarqandda qirq kun qolib, “usuli savtiya”ni (savod chiqarishning yangi tovush usulini) qator o‘quvchi va o‘qituvchilarga o‘rgatdi.

Samarqand va Buxorodan keyin usuli jadid maktablari 1898 yilda To‘qmoqda, Qo‘qonda (Saloxiddin domla tashabbusi bilan), 1899 yilda Toshkentda Mannon qori tomonidan va Andijonda Shamsiddin domla tomonidan ochildi. 1901 yilda Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda usuli jadid maktabini ochdi. Bu maktabdagi o‘qitish darajasi Munavvarqori Abdurashidxonovniig zamondoshlari tomonidan ancha yuksak baholangan. Masalan, jadidchilik ruhidagi “Oyna” jurnalining 1914-yilgi sonlaridan birida mushtariylarning Turkistonda oliy-milliy ta’lim istiqboli haqida bergan savoliga jurnal noshiri va bosh muharriri Mahmudxo‘ja Behbudiyning javobi bosilgan. M.Behbudiy unda Toshkentdagi Munavvarqori Abdurashidxonov maktabi mana shunday oliy tahsilga zamin bo‘la olishi mumkinligini qayd etgan.

1903-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida ma’rifatparvar shoir va pedagog Abdulla Avloniy usuli jadid maktabini tashkil etdi. “Maktabimda er, odamlar, tog‘-toshlar, daryo, osmon haqinda suhbatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo‘lding deb, maktabimni yopdilar”, deb yozadi A. Avloniy o‘z tarjimai holida [1].

1904-yilda Samarqand adabiy muhitidan chiqqan iste’dodli shoir, fors, turk, rus, ozar tillarida erkin so‘zlashish va yozish salohiyatiga ega bo‘lgan, Ovrupa madaniyatini mustaqil o‘zlashtirgan hoji Muin 1903 yilda o‘z mahallasida usuli jadid maktabi ochgan. Ushbu maktab uchun 1908 yili “Rahnamoi savod” nomi bilan alifbe nashr eggirgan. 1914-yilda u o‘z uyida “Tarbiyat” nomi bilan yana bir xususiy usuli jadid maktabi ochgan.

Yangicha maktab ta’limi ishiga o‘zbek shoiri va dramaturgi Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o‘z hissasini qo‘shdi. O‘zining birinchi usuli jadid maktabini u 1910 yili Toshkentdagi Qashqar mahallasida ochdi. 1911-1914-yillarda u Qo‘qon va Marg‘ilonda yana uch usuli jadid makgabining ishini tashkil etdi. Hamza o‘zi tanshkil etgan maktablarda dars beribgina qolmasdan, “O‘qish kitobi”, “Yengil adabiyot”, “Qiroat kitobi” kabi darsliklar ham yozdi [2].

1918-yilda Toshkentning Langar mahallasida “Ta’limi alifbe”, “Ta’limi soniy” darsliklarining muallifi Rustambek Yusufbekov xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan dastlabki jadid maktablaridan birini ochdi.

1911-yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo‘lib, ularda 4106 bola o‘qigan. Toshkentning o‘zida 24 ta jadid maktablarida 1740 bola tahsil olgan. 1917-yil boshlarida o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o‘quvchi bo‘lgan. Bunday maktablarning har birida vaqt o‘tishi bilan muayyan miqdordagi kitoblar to‘plami shakllanar, u keyinchalik kutubxona fondiga aylanar edi. Adabiy-badiiy, ijtimoiy va tabiiy ilmiy mazmundagi kitoblar bilan bir qatorda, mazkur maktab kutubxonalari o‘zagini milliy o‘quv adabiyotlari - darsliklar va qo‘llanmalar tashkil etardi.

Usuli jadid maktablari uchun darsliklar va qo‘llanmalar o‘sha davrda Turonzamin ziyolilarining eng ilg‘or vakillari tomonidan yaratilardi. Turonzamin ziyolilari ilgor vakillarining o‘zagini esa jadidlar tashkil etardi. Yangicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari, shuningdek, fan va ishlab chiqarishning o‘sha davrda mavjud

barcha tarmoqlari bo‘yicha ularning rivojlanishi va holatining zamonaviy darajasini aks ettiruvchi, maktab yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallangan ilmiy-ommaboi adabiyotlarning yaxlit tizimini yaratish zarurligini jadidlar juda yaxshi his qilar edilar.

Toshkentning etuk ziyolilaridan biri, taniqli o‘lkashunos va etnograf olim Saidrasul Saidazizov tomonidan 1902-yilda nashr etilgan “Ustodi avval” kitobi yangi avlod darsliklarining birinchisi edi. Garchi bu kitob rus-tuzem maktablari uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, u usuli jadid maktablarida qabul qilingan ta’lim qoidalariga muvofiq yozilgan edi. Bu darslik o‘n martaga yaqin qayta nashr etildi.

Turonzaminda jadidchilik harakatining etakchilaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy usuli jadid maktablari uchun oltita darslik yaratdi. Bular: “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy" (“Aholi geofafiyasiga kirish”, 1905), “Muntahabi jug‘rofiyai umumiy" (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobatul-atfol" (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909). Bu darsliklar ham bir necha marta qayta nashr etildi [2].

Turonzamin jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablari uchun “Adibi avval” (1907), “Adib us-soiiy” (1907), “Usuli hisob", “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo", “Tarixi islomiya” (1912) kabi darslik va xrestomatiyalar, “Qur’on qiroati”, “Yer yuzi” (1916-17) singari qo‘llanmalar tuzib nashr etadi. Bu darsliklar va qo‘llanmalar 1907-1917 yillar oraligida kamida 2-3, ko‘pi bilan 9—10 martagacha alohida holda nashr etilgan [6].

Otashin o‘zbek ma’rifatparvari, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy yangi maktablar uchun o‘ndan ortiq nomda darslik, qo‘llanma va o‘qish kitoblari yozib, nashr qildirdi. “Birinchi muallim” (1911), “Ikkinchi muallim” (birinchi kitobning bevosita davomi, “Alifbe”dan keyin o‘qitish uchun mo‘ljallangan, 1912), axloqiy hikoyalar, adabiy she’rlar ila ziynatlangan, tarbiya va axloq masalalari birinchi marta XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan kitoblar —“Turkiy guliston yoki axloq” (1913), 4 juzd (qism)li “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to‘shgami (1909-15), “Maktab gulistoni” (1915) shular jumlasidan. Avloniy Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo‘jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo‘jayev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda tashkil qilgan “Nashriyot” (1914), “Maktab” (1916) shirkatlari orqali usuli jadid maktablariga yordam tariqasida o‘nlab nomdagi o‘quv adabiyotlarini nashrga tayyorladi va choi etdi [2].

Shunday qilib, jadidchilikning aksar vakillari yoshlarga dastavval diniy ta’lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o‘qitish masalasini kun tartibiga qo‘ydilar. Ular musulmon maktablarining ta’lim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangicha usuldagi maktablarni ochdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar yangi usul maktablari uchun darsliklar yozib, nashr etdilar. Bu kitoblarning aksariyati maktab kutubxonalari fondining o‘zagini tashkil etdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Avloniy A.Tanlangan asarlar, 1-2 –j., Toshkent, 1998.

2. Oxunjonov E.Vatan kutubxonachiligi tarixi: Darslik/ E.Oxunjonov; Ma'sul muharrir A. O. Umarov; Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekistan Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – B. 308.

3. Qosimov B. Milliy uygonish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik.Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 250.

4. G'afforov Sh. Chorizmning Turkistonga aholini ko'chirish siyosati va uning oqibatlari // O'zbekiston tarixi. 2002. №3. B. 20-28.

5. Ahmedov,S. Jadidchilik / S.Ahmedov,Q.Rajabov // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 3-jild. Gidrofiliya–Zebra / tahrir hay'ati M.Aminov, B.Ahmedov va boshq. – Toshkent: O'Zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. B. 518–523.

6. Chabrov G.N. Iz istorii poligrafii i izdatelstva literaturi na mestnix yazikax v dorevolyusionnom Turkestane (1868—1917). V kn.: Istoriya nauki. Kn. 7. Tashkent, 1954, s. 82 / Trudi SAGU. Novaya seriY. Vip. 57.

Faxriddin ABDUVOHIDOV,
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zDSMI

MA'RIFATPARVARLARNING MILLIY TEATR VA TEATR TANQIDCHILIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI HARAKATLARI

Annotatsiya. *Maqolada Jadid ma'rifatparvarlarining professional o'zbek teatrini tashkil etishdagi harakatlari, bu jarayonda milliy dramaturgiyadan keng foydalanilganligi hamda teatr tanqidchiligini shakllantirishdagi izlanishilari xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *jadidlar, ma'rifatparvarlar, dramaturgiya, teatr tanqidchiligii, rejissura, aktyorlik mahorati, ma'rifiy tarbiya, badiiy talqin masalalari.*

Annotation. *The article discusses the efforts of Jadid intellectuals in establishing a professional Uzbek theater, the extensive use of national dramaturgy in this process, and their explorations in shaping theatrical criticism.*

Key words: *jadids, enlighteners, dramaturgy, theatrical criticism, directing, acting skills, educational upbringing, issues of artistic interpretation.*

XIX asrning oxirigacha o'zbek yozma adabiyotida teatr tanqidchiligi mavjud bo'lmagan. Bu yo'nalishning tashkil topishiga, Turkistonni rus mustamlakasiga aylantirilishi hamda Yevropa teatr san'ati bo'y ko'rsata boshlashi bilan erishildi, deyish mumkin. Shu bois XIX asrning boshlaridan o'lkada rus teatrlarining gastrollari boshlanishi bilan bir vaqtda rus teatr tanqidchiligi ham ko'rina boshladi. Bu borada 1870-yildan boshlab o'lkamizda tashkil etilgan vaqtli matbuot, jumladan, "Turkistanskiy kuryer", "Ruskiy Turkistan", "Okraina", Sredni Aziatskaya jizn" kabi rus tilidagi gazetalar hamda 1871-yildan chiqa boshlagan eski o'zbek

yozuvidagi “Turkiston viloyati gazetasi”, “Sadoiy Farg‘ona”, “Samarqand”, “Hurriyat”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallar bag‘oyat katta rol o‘ynadi. Ayniqsa, o‘zbek teatr tanqidchiligining shakllanishida “Turkiston viloyati gazetasi” hamda “Oyna” jurnalining o‘rni alohida. Dastlab mazkur gazeta va jurnallarda rus va o‘zbek ziyolilarining rus teatrlariga oid bo‘lgan qarashlari, maqola va taqrizlari, mahalliy tilda yoritilib boriladi. Bu esa o‘zbek teatr tanqidchiligi to‘g‘risida tasavvurlarini shakllantirishga asos bo‘ldi. “Jahon teatr tarixida teatr tanqidchiligi milliy teatrning barpo topishi bilan bir vaqtda tug‘ilgan. Lekin o‘zbek teatr tanqidchiligining boshlanishi Turkistondagi o‘ziga xos shart sharoitlar asosida vujudga keldi. O‘zbek teatr tanqidchiligi evropa usulidagi o‘zbek milliy teatri yaratilinmasidan ilgari tug‘ildi” [1, 16]. Shu bois akademik M.Rahmonov o‘zbek teatr tanqidchiligi kelib chiqish tarixini ikki davrga bo‘lib o‘rganish lozimligini taklif etadi. Xususan;

1. O‘zbek milliy teatri tashkil topguncha bo‘lgan davrda o‘zbek teatr tanqidchiligining ilk qadamlari.

2. Yevropa usulidagi o‘zbek milliy teatri yaratilingandan so‘ng o‘zbek teatri tanqidchiligining shakllanishi va rivoji.

Birinchi davr o‘zbek teatr tanqidchiligida o‘zbek va boshqa halqlar ziyolilarining evropa tipidagi teatr targ‘ibotidagi olib borgan izlanishlarini o‘z ichiga oladi. XIX asr oxirida boshlangan o‘zbek teatr tanqidchiligining mana shunday targ‘ibotchilik ishlari XX asr boshiga kelib Yevropa usulidagi yangi o‘zbek milliy teatri yaratilishida zamin xozirlab bordi va ulkan ahamiyat kasb etdi. Bu borada Ahmad Donish, Furqat, Hoji Mo‘in Shukrullo, Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi o‘zbek ziyolilari faol qatnashdilar. Dastavval, teatr tanqidchiligi na’munalari rus teatri spektakllariga yozilgan madxiyalar, odalar va maqtab yozilgan she’rlardan tashkil topdi. Bu hol Ahmad Donish va Furqat ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek o‘zbek teatrini rivojlanishida, rus madaniyati, rus teatr san’ati bevosita rol o‘ynaganidek, o‘zbek teatr tanqidchiligining shakllanishida ham rus ziyolilarining ishtiroki sezilarli darajada kechdi. Rus va Yevropa san’ati va madaniyatini targ‘ib etish va intilish istagi o‘tgan asrning 70-90 yillarida samarali ijod qilgan Ahmad Donish va Furqat kabi demokratik shoirlarning ijodida yaqqol ko‘zga tashlandi. Ular Yevropa teatri to‘g‘risida zavqlanib qalam tebratganda Yevropa teatrining o‘ziga hosligi bilan Turkiston xalqini tanishtirishni maqsad qilgandi.

O‘zbek teatr tanqidchiligining dastlabki shakllarini o‘rganishda Furqatning 1890-yilning 11-oktabrida “Turkiston viloyati” gazetasining 44-sonida bosilgan rus spektakliga bag‘ishlangan “Suvorov” nomli she’riy taqrizi muhim ahamiyat kasb etadi. She’r mazmunan boy va hajman katta bo‘lib, unda pesaning to‘liq mazmuni, g‘oyasi, sahna qurilishlari batafsil tasvirlanadi. Buni rus spektakli to‘g‘risida o‘zbek shoiri tomonidan birinchi marotaba she’r bilan yozilgan taqriz deyish mumkin. Furqatni “Suvorov” spektakliga yozgan birinchi taassurotlari o‘quvchiga spektakl va uning dramaturgiyasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot bera oladi. Furqatnining yozib qoldirgan she’riy taqrizlari va yozmalaridan shuni anglash mumkinki, u madaniyat va san’atni yaxshi his qilgan va buni boshqalarga ham ulashishda, nafaqat o‘zbek teatri, balki boshqa san’at turlarini rivoji yo‘lida sobit qadam tashlagan, samarali

mehnat qilgan ijodkordir. Furqat va Ahmad Donishlarning ilk namunalari misolida aytish mumkinki, o‘zbek teatr tanqidchiligining bismillosi spektaklga yozilgan taqrizlar bilan boshlandi. E’tiborlisi shundaki, Ahmad Donish, Furqatlarning dastlabki Yevropa teatrlariga, spektakllariga bag‘ishlangan qarashlarda, asosan, ularning teatr va san’at saroylariga sahnaviy makoni, muhiti, me’morchiligiga dekoratsion qurilmalariga, ssenografiyasiga bo‘lgan hayratlari bilan boshlangan edi.

XX asrning boshlariga kelib, xalqimizni Yevropa tipidagi teatr bilan oshno bo‘la boshlashi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini anglashida ulkan hissalarini qo‘shgan ko‘pgina o‘zbek ziyolilari qatorida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mirmulla Shermuhammedov, Hoji Muhammad Zuhur kabi ma’rifatparvarlar ham samaralai izlanishlar olib bordilar. Ularning fikr-mulohazalaridan professional evropa teatri bilan milliy an’anaviy o‘zbek teatri o‘rtasidagi tafovutni anglash va mazkur tafovutni bartaraf etishga intilish istagi mavjudligi sezilib turadi.

1914-yili “Sadoiy Turkiston” gazetasining 4-iyun sonida 16 yoshli Abdulhamid Cho‘lponning “Adabiyot nadur” nomli tanqidiy moqolasining nashr etilishi ko‘plab Turkistonlik ziyolilar o‘rtasida muhim voqeaga aylandi. O‘sha vaqtlarda adabiyot va uning jamiyat hayotidagi o‘rni borasida qizg‘in baxs va munozaralar kechayotgan bir pallada yoshgina Cho‘lponning bu boradagi qizg‘in mulohazalari bu san’atning qanchalar jamiyat hayotida muhim ekanligini, mardonarlarcha ta’kidlab o‘tdi. “Adabiyot yashasa – millat yashar”, “Adiblar etishtirayluk, adiblar etishtirmagan millat ohiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekininqiroz bo‘lur”.

Yangi teatrning uziga hosligi, yutuq va kamchiliklari, uning olib borayotgan faoliyati, kishilik jamiyatida to‘tgan o‘rni va ahamiyati borasidagi maqolalar vaqtli matbuotda birin-ketin bosila boshladi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna” gazetasining 1914-yil 16-may sonida chop etilgan “Teatr nadur?” nomli maqolasi bilan o‘zbek halqini yangi tipdagi teatr va uning jamiyat hayotidagi muhim ahamiyatiga molik sirlari bilan oshno etadi. Muallif mazkur maqolada “Teatr nadur” degan savolni o‘rtaga tashlar ekan, bunga javoban teatrni haqiqat ko‘zgusiga qiyos etadi va ta’lim berib, o‘rnak bo‘luvchi “ibratxona” deya ta’riflaydi. “Teatr– ibratxonadir. Teatr – va’zxonadir. Teatr – ta’zir(i) adabdir. Teatr – oynadirki, umumiy xollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rib, va’z va tanbeh etuvchi hamda zarali odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko‘rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir” – “Shu bilan birga o‘zbek millliy teatr san’atining tarbiyaviy-ahloqiy, etik-yestetik, ma’naviy-ma’rifiy, kerak bo‘lsa, ijtimoiy-falsafiy tamoyillari belgilab berildi” [2].

1914-yil 15-yanvarda Ali Asqar Asqarov sahnalashtirgan “Padarkush” va “Aldadik va aldandik” spektakllari hususida “Oyna” jurnalining 1-fevral sonida noma’lum muallif tomonidan yozilgan “Turkistonda birinchi milliy teatr” nomli maqolasi bu o‘zbek spektakli haqida teatr tanqidchiligining birinchi bismillosi edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Birinchi o‘zbek dramasining yaratilinishi va uning ko‘plab sahnaviy talqinlari bevosita o‘zbek milliy teatri tug‘ulganligi bilanoq, o‘zbek dramasiga bag‘ishlangan maqola va taqrizlarning bo‘y ko‘rsata boshlashi

o‘zbek teatr tanqidchiligining qaysidir ma’noda kelajagini belgilab berdi. “Shunday qilib, XX asrning ikkinchi o‘n yilligidayoq o‘zbek teatr tanqidchiligi jamiyat hayotida Yevropa teatrini targ‘ib qilishda faol qatnashdi. Turkistonda Yevropa Teatrini targ‘ib qilishda faol qatnashdi.Turkistonda Yevropa usulidagi yangi milliy teatrning shakllanishida kurash olib boradi” [1].

Ma’lumki, jahon teatr tarixida teatr tanqidchiligi milliy teatr tashkil etilishi bilan bir vaqtda tug‘ilgan. Rus teatr tanqidchiligining kelib chiqish tarixi ham xuddi shunday bo‘lgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida rus milliy teatrining tashkil topishi bilan aynan bir vaqtda rus teatr tanqidchiligi ham dunyoga keldi. Lekin o‘zbek teatr tanqidchiligining boshlanishi Turkistondagi o‘ziga xos sharoitlar asosida vujudga keldi. O‘zbek teatr tanqidchiligi Yevropa usulidagi o‘zbek milliy teatri yaratilmasdan ilgari tug‘ildi. Shu sababdan o‘zbek teatr tanqidchiligining kelib chiqish tarixini uch davrga bo‘lish maqsadga muvofiq bulardi.

1. O‘zbek milliy teatri tashkil topgunigacha bo‘lgan davrda o‘zbek teatr tanqidchiligining ilk qadamlari.

2. Yevropa usulidagi o‘zbek milliy teatri yaratilgandan so‘ng o‘zbek teatr tanqidchiligining shaqllanishi va rivoji.

3. Mustaqillik davri o‘zbek teatr tanqidchiligining zamonaviy jarayonlariO‘zbek teatr tanqidchiligining birinchi davri erli halqlar o‘rtasida Yevropa teatri ahamiyati to‘g‘risida keng tag‘ribot ishlari olib borishdan iborat bo‘ldi.Bu davr XIX asrning oxirgi o‘n yilligidan boshlab, to XX asrni ikkinchi o‘n yilligigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. To yangi o‘zbek teatri dunyoga kelguniga qadar aholi o‘rtasida mana shunday targ‘ibiy ishlar olib borish, dastlabki o‘zbek teatr tanqidchiligi oldida turgan eng sharafli vazifalardan biri edi. Chunki, feodal va ruhoniy unsurlar bu yillarda rus madaniyati ta’sirida kirib kelayotgan har bir yangilikka, ayniqsa yangi Yevropa teatrini o‘zbek halqi hayotiga kirib kelayotganiga qarshi tish tirnoqlari bilan kurashmoqda edilar. XIX asr oxirida boshlangan o‘zbek teatr tanqidchiligining mana shu targ‘ibotchilik roli XX asr boshida Yevropa usulidagi yangi o‘zbek teatri yaratilishida zamin hozirlab bordi va juda katta ijobiy rol o‘ynadi.

Yerli aholi o‘rtasida Yevropa teatrlari fazilatlarini targ‘ib qildi va unga bo‘lgan qiziqishning o‘sishida o‘zbek demokratik shoirlari ham qatnashdilar. Bu rus teatri spektakllari, aktyorlar va rus musiqa va balet san’ati to‘g‘risida madhiyalar, odalar va maqtab yozilgan she’lardan iborat bo‘lgan. Bu hol avval boshlab Ahmad Donish va Furqat ijodida namoyon bo‘ldi.

O‘tgan asrning 70-90 yillarida Ahmad Donish (1827-1897) 1856, 1873-74 yillarda Buxoro amirligi elchilari safida Petrburgga qilgan safarida ko‘rgan spektakl va konsertlar to‘g‘risida juda qiziqarli ma’lumotlar beradi. Ahmad Donishning Yevropa teatrining badiiy kamolati haqida zavqlanib yozgan har bir misrasi o‘rta davrda hali Yevropa teatri bilan tanish bo‘lmagan mahalliy halqlar uchun juda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.Ahmad Donish 1873-74 yilda Peterburgga tashrif buyurganda Fransiyadan kelgan opera ashulachisi Potiy nomli aktrisaning gastroli o‘tmoqda ekan. Ahmad Donish shu aktrisa qatnashgan bir konsertda bo‘lgan. Bu to‘g‘risida quyidagilarni yozadi; “...uning qaddi-qomati kelishgan, husni jamoli etgan edi. U Parij parisi shunday yasanish-bezanib chiqar ediki, aql uning unsuriy

jasadining nima ekanligini bila olmay hayronlikda qarab qolar edi. G‘oyib olamidan kelgan farishtami yoki jasadlangan ruhmi deb o‘ylar edilar”.

Nayrangxonaga kirib o‘ltirganimizdan so‘ng nayrangxonaning pardasini k o‘tardilar. Parda k o‘tarilishi bilan ko‘m-ko‘k, sof, tiniq osmon ko‘rinadi. Sharqiy yoki g‘arbiy tomonida oy ham chiqib turgan bo‘ladi. Panjara oldida yashnagan ko‘katlar, ochilgan gullar ishq pechakdek bo‘lib har tomondan osilib turadi. Shu orada havoda ko‘ringan ayvon ichida gul va giyohlar oralab nihoyatda xusn jamolli oppoq kiyingan. oyoqlari tizzasigacha ochiq, qo‘llari elkalari bilan yalong’och, bo‘yin-boshlari esa turli gullar, inju-marvaridlar bilan bezangan bir parizod chiqib keladi. Uning ikki yuzidan ikki to‘lin oy yaltirab ko‘rinadi. Lekin bu oylar parda ortiga qo‘yilganidan o‘zlari ko‘rinmay, ularning nurlari ul gulandomga shu’la sochib turar edi. Mana shu zebi ziynatlar bilan ko‘rinib, ...ovozini turli kuylarga solib qo‘shiq aytganda, tomoshabinlar oh-voh sadolarini ko‘tarib to‘xtovsiz chapaklar chalar edilar...

Amad Donish Petrburgda ko‘rgan, bir balet spektakli nihoyatda go‘zal o‘ynalgani to‘g‘risida “...qizlar raqsu samoga tushib o‘ynadilar, shohsupa sahnani bir oyoqlab bir necha qayta aylandilar. Ikki oyog‘ini juftlab olib charx urib, ikki gazcha yuqoriga ko‘tarildilar. ... Ajabo, bu qanday nafis san’at va ulug‘ qudratki, inson tog‘ining bulog‘idan chiqqan bir qatra loyqa suvdan bunday ajoyib gullar bu qora tuproq ustida ochilmishdir”.

Ahmad Donish bu Yevropa teatri to‘g‘risida zavqlanib yozganida, Yevropa teatrining badiiy fazilatlari bilan Turkiston xalqini tanishtirishni maqsad qilib olganday edi. Shunisi xarakterliki, rus teatr tanqidchiligi ham xuddi shu yo‘nalishda boshlangan edi. Chunonchi XVIII asrda boshlangan dastlabki rus teatr tanqidchiligi N.A.Rjevskiyning Liberi Sakki rahbarligidagi Italyan teatri aktyorlari o‘yinini maqtab yozgan she’ridan iborat edi. Sumarakovning Dmitrevskiy ijodiga bag‘ishlangan madhiyasi ham teatr tanqidchiliginining boshlang‘ich shakllaridan hisoblanadi.

Rus san’atiga ixlos Furqatning 1890-yilning 11-oktabrida “Turkiston viloyati gazegasi”ning 44-sonida bosilgan “Suvorov” nomli she’ri bilan boshlanadi. Bu she’rni o‘z mazmunining boyligi va hajmining kattaligi jihatidan rus spektakliga bag‘ishlangan qasida deb bo‘lmaydi. Bunda pyesaning to‘la mazmuni, g‘oyasi, sahna ko‘rilishlari batafsil tasvirlanadi. Buni rus spektakli to‘g‘risida o‘zbek shoiri tomonidan birinchi marotaba she’r bilan yozilgan taqriz deyish mumkin. Furqat spektakl to‘g‘risidagi o‘z mulohazalarini shunday boshlaydi: Suvorovga muqallid bir tomosho, Erur boshidan oyog‘i hayrat afsho, Na ishkim qildi u o‘tgan zamonda, Anga bo‘ldi muqallid bul makonda. She’rda pyesaning to‘la mazmunini bayon qiladi. Furqat o‘z qasidasida spektaklda o‘ynagan aktyorlarning nomlarini ko‘rsatmaydi, lekin sahnada aktyorlar ijrosida ko‘rgan ayrim obrazlarni to‘g‘ri xarakterlab beradi. Chunonchi aktyorlar ijrosidan olgan taassurotlariga tayangan holda shoir Suvorovni vatanparvar sifatida tasvirlaydi va, shu bilan bir qatorda, Napaleonning bosqinchilik harakatlarini qoralaydi.

Furqat tomonidan yozilgan she’r Yevropa teatri va musiqa san’atining o‘zbek tomoshabini o‘rtasida targ‘ib qilishni, ularni yangilikka chaqirishni ko‘zda tutgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, royalda ijro etilgan rus va g‘arbiy Yevropa

kompozitorlari asarlarini ma'nosiga tushunishi va musiqa tilini o'zbeklar ham his etishini keltirib o'tadi. Uning o'zbek musiqa bilimidan xabardorligi, ikki xalqding musiqa madaniyati rivojidagi tafovutni to'g'ri his etganganligi yorqin ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari Furqat ayrim ashulachilarning vokal va ijrochilik san'atiga ham to'g'ri baho beradi. Chunonchi, bir ayol ashulachi mahoratiga baho berarkan: "Maqomi qilur har nav bunyod, gohi qattiq fig'on, goh narmi faryod, gohi naydek chiqar ohista nola. Kelturur goh navo mashqin xayola, Ofarin ovozi to'ldi zalga. Tushtilar ham zavqnak ahvolga. Furqatning musiqaviy "sluxi" ham juda o'tkirligi she'riy taqrizda o'z isbotini topadi. U ashulachining soz pardasidan chiqmay qilgan ijrosini ham munosib baholaydi. "Nag'mai ovoz ikov bir pardada, ya'ni savtu soz ikov bir pardada" deb yozadi. Yevropa musiqasi to'g'risidagi ulug' progressiv fikrlar o'sha yillardagi reaksion kuchlarning "Furqat o'z milliy san'atini mensimaydi" degan gapi emas edi. Aksincha, bu fikrlar o'z xalqining musiqa madaniyatini sevish, kelajak rivoji haqida g'amxo'rlik va vatanparvarlikdan kelib chiqqan edi. U uzoqni, keljakni qurdi, **o'z** xalqi madaniyatini Yevropaning ilg'or xalqlari qatorida ko'rgusi keldi.

Furqat va Donish boshlagan o'zbek teatr tanqidchiligining dastlabki ko'rinishlari, asosan, Yevropa teatri va musiqasini targ'ib qilishdan iborat bo'ldi. Shuning orqasida Yevropa san'atining olamshumul mohiyati uzoq burchaklarga, keng o'zbek ommasining fikr dunyosiga kirib bordi va ularda Yevropa teatr madaniyatiga havas uyg'otdi. Furqat orqali o'zbek tili lug'atiga "teatr", "konsert", "royal", "zal", "klub", "antrakt", "kreslo" kabi Yevropa teatrining birinchi so'zlari kirib keldi.

Afsuski, Furqatning rus madaniyati, shu jumladan, Yevropa teatri sohasidagi otashin targ'ibotchilik faoliyati ruhoniylarini g'azablantirmay qo'ymadi. Ular Furqatga qarshi kurashdilar va uning ustidan tuhmatlar uyushtirdilar. Furqat bunday reaksion kuchlarga nisbatan "Men har narsani kim ko'rdim, fikrim yuritib yozdim. Ba'zi odamlarga meni o'shandoq mazmunlarim ma'qul bo'lmagandir va lekin meni ko'nglimdagi ahvol bu odamlarga ma'lum emasdir, mening ko'nglimning ichidan xabardor bo'lmaganlarga tashqaridan qiyos birlan nimalarga hukm qilmoqlari mushkuldir" deb yozgan edi.

XX asr boshida Yevropa teatri ahamiyati to'g'risida Mahmudxuja Behbudiyning (1874-1919) 1914-yil 16-mayda "Oyna" jurnalida bosilgan "Teatr nadir?" nomli maqolasi o'zbek teatri rivojida juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Maqolada Behbudiy shunday misralarni keltiradi: "Teatr ibratxonadir. Teatr va'zxonadir. Teatr ta'sir(i) adabdir. Teatr oynadirki, umumiy xollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rib, va'z va tanbeh etuvchi hamda zararli odat, urf va taomilni, qobix va zararini aynan ko'rsatguchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir".

Behbudiy teatrni tomoshaviyligi haqida ham alohida to'xtalib "Ayni zamonda teatr ya'ni tomoshagoh, yoinki ko'ngul ochuvchi milliy va adabiy jamiyatlarning asosiysidir. Taraqqiy qilgan millatlar teatr xonalarni ulug'lash uchun maktabiy adab va ibrat deb ataydilar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab boislaridan biri teatr deyurlar". Teatrxona sahnalarida quyulaturg'on asarlar fojia, ya'ni qayg'ulik, mazxara ya'ni kulgu, drama ya'ni hangomalik bir voqea va

xodisani tasvir etib haloyiqqa ko‘rsatilur. Ul voqeadagi yomonlik va yaxshilikni paydo bo‘lgani va sababini har kim ko‘rib, anglab, ibrat olur va yomonlikdan qochib, yaxshilikka harakat qilmoqga teatrda ko‘rsatilgan voqealar sabab bo‘lur”... “Xulosa teatr bir nav maktab hukmindadir”.

Behudiy o‘z maqolasida teatrning janrlari, dramaturgiya, aktyor san’ati to‘g‘risida, shuningdek, Yevropa mamlakatlarida teatr san’atining taraqqiyoti va ularda aktyorlar tayyorlaydigan maxsus maktablar to‘g‘risida ham ma’lumotlar beradi.

1914-yilning 2-martida “Turkiston viloyati gazetasi”ning 29-sonida Munavvar qori Abdurashidxonovning teatr haqidagi maqolasi ham diqqatga sazovor. Muallifning yozishicha “Hozirgacha teatrga mazxarabozlik deb qarab keldilar. Aslida teatr tarbiyaviy joydir. Teatr bir oynakdor xona bo‘lib, bu xonaga kim kirsa, o‘z aksini ko‘radir. Ya’ni o‘z kamchilik va xatosini ko‘rib undan ibrat oladirlar”.

Umuman olganda, bu ikki maqola yangi teatrning estetik xususiyat va vazifalarini belgilab berishga qaratilgan muhim vosita hisoblandi.

Ma’rifatparvarlarning bu maqolalari bekorga yozilmagandi. Chunki bu davrda ham yangi o‘zbek teatri yaratilishi sohasida ma’rifatparvarlar bilan “Qadimlar” va Muxofizakor boylar o‘rtasida og‘ir janglar boshlanib ketgandi.

“Turkiston viloyati gazetasi”ning 1912-yil 16-fevral sonida Olimxo‘ja Turdixujayev nomli ulamo “Teatr shariatda yo‘q; taqiqlansin deb yozadi. Shu gazetaning 1914-yil 13-mart 22-sonida “Musulmon” tahallusi bilan yozilgan maqolada Toshkentda birinchi spektakl o‘ynalganda Mutassib ruhoniylarning teatr qo‘yilishiga halal berganlari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu yillarda er va xotinlarning sahnaga chiqishi mumkinmi, yo‘qmi degan masala ham jiddiy tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Ayrim gazetalarda, hatto xotinlar uchun alohida teatr ochilsin, ularni erkaklar bilan birga teatrda o‘tirishlari taqiqlansin, degan fikrlari bayon qilinadi.

Bu xususda, ayniqsa, Behbudiy bilan Turkistonning eng Zakiy ulamolaridan Saydahmat Vasliy o‘rtasidagi mafkuraviy kurash juda keskin kechadi. Vasliy Behbudiyning teatr haqidagi fikrlariga qarshi “Sadoiy Farg‘ona” ning 1914-yil 83-sonida bosilgan “Shariati islomiya” maqolasida va “Oyna” jurnaliga yo‘llagan maktubida (1915-yil, 7-son) teatr anvoiy o‘yin va la’biyotlar kabi haromdir, degan fikrlarini bayon etadi.

Behbudiy Vasliyning “Shariati islomiya” maqolasiga javoban “Oyna” jurnalining 1915-yil 5-sonida “Teatr, musiqa, she’r” maqolasini e’lon qiladi, unda mudarris janoblaridan “har nov la’biyot va o‘yin harom degan so‘zlaridan munozaraga borib Vasliyning fikrlarini hadis, diniy rivoyat va payg‘ambarimiz hayotlaridan iqtiboslar keltirib inkor etadi”.

Bu kurash yigirmanchi yillarning boshlarida ham davom etdi. Cho‘lpon o‘zining “Adabiyot nadir” maqolasida teatrni ko‘ngilxushlik joy bo‘lgani uchun harom sanagan “Qadim” ruhoniylardan teatrni himoya qilib, chapga aylansa kofirlik, o‘nga burilsa dinsizlik, ta’naga yo‘liqib, din talqin qiluvchi dinsizlarning har turli hujumlari ostida nodonlarning changalidan xalqni qutqazib olmoqqa tirishqon teatrdir” deb yozgandi.

Umuman olganda, yangi o‘zbek teatrining tashkil topishi va o‘zbek teatr

tanqidchiligining birinchi davridagi asosiy vazifasi Yevropa teatrining jamoat va tarbiyaviy rolini, uning badiiy va estetik ahamiyatini targ‘ib qilish va sharat peshvolari va ruhoniylarining xurujlariga qarshi kurashdan iborat bo‘ldi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmonov M. Hamza. (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi.) Birinchi kitob (1914 – 1960 yillar). – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
2. Rahmonov M., To‘laxo‘jayeva M. T., Muxtorov I. A. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T., 2003.
3. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Tursunboyev S. Teatr tarixi. – T.: Bilim, 2005.
5. Qodirov M. Mehr va sehr. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
6. Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
7. Tulyaxodjayeva M. Rejissura uzbekskogo dramaticheskogo teatra. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1995.

Машхура ЮЛДОШЕВА
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zR IIV Namangan akademik litseyi

BEHBUDIYNING “PADARKUSH” DRAMASIDA IJTIMOIY MAQOM VA TIL BIRLIKLARINING SOTSIOPRAGMATIK IFODASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi asosida personajlar nutqida ijtimoiy maqom, sotsial kuch munosabatlari va madaniy qadriyatlarning til orqali qanday ifoda etilishi sotsiopragmatik va pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot dramatik til orqali sotsial struktura va kommunikativ strategiyalarning ifodalanishini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zla: *Behbudi, “Padarkush” dramasi, sotsiopragmatika, pragmatika, ijtimoiy maqom, dramatik nutq, nutqiy akt, hurmat, hurmatsizlik, muloqot strategiyasi, kontekst.*

Abstract. *This article analyzes how social status, social power relations, and cultural values are expressed through language in the characters' speech based on Mahmudkhoj Behbudi's drama “Padarkush” using a sociopragmatic and pragmatic approach. The study serves to shed light on the expression of social structure and communicative strategies through dramatic language.*

Key words. *Behbudi, drama "Padarkush", sociopragmatics, pragmatics, social status, dramatic speech, speech act, politeness, impoliteness, communication strategy, context.*

Til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ifoda shaklidir. Shuning uchun tilshunoslikda sotsiopragmatika fani paydo bo'lib, til birliklarining nafaqat semantik, balki ijtimoiy kontekstdagi kommunikativ funktsiyalarini ham tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Sotsiopragmatika nutqning qanday sharoitda, qanday ijtimoiy maqomga ega shaxslar o'rtasida yuzaga kelishini va bu jarayonda ishlatilgan til vositalarining qanday ijtimoiy signal berishini o'rganadi [1, 112-118]. Xususan, ijtimoiy maqom – bu shaxsning jamiyatdagi o'rni, vakolati, yoshi, jinsi, diniy mansubligi yoki kasbiy holatiga qarab nutqdagi muomala shakllarini belgilovchi omildir. Masalan, o'zbek madaniyatida keksa kishilarga "sizlab" murojaat qilish, muhtaram so'zlari bilan gap boshlash kabilar shaxsning yuqori maqomga egaligini ko'rsatuvchi sotsiopragmatik indikatorlardir [2, 77-82]. Shu nuqtayi nazardan, badiiy matnlar, ayniqsa dramatik asarlar, ijtimoiy maqomlarning nutqiy ifodasini ko'rsatishda boy empirik manba hisoblanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi o'zbek milliy uyg'onish davrining muhim asari bo'lib, unda avlodlar to'qnashuvi, madaniy transformatsiyalar, e'tiqod va sivilizatsiya ziddiyatlari dramatik nutq orqali ko'rsatiladi. Asarda obrazlar orasidagi muloqotda til vositalari orqali ijtimoiy maqom hamda muloqotdagi kuch muvozanati aniq ifodalanadi. Bu jihatlar sotsiopragmatika yondashuvi doirasida tahlil qilinishu uchun boy manba bo'la oladi.

DOMULLA. Assalomu alaykum.

BOY. Vaalaykum assalom, marhamat qilsinlar. (Turib mulolot qilub, domullaga joy ko'rsatib, o'ltirur.)

DOMULLA. Boy davlatini Ollohi taolo mundan ham ziyoda qilg'ay. (Fotixa qilur.)

BOY. Nafas(lar)i muborak, inshoolloh, duolari qabuldir.

DOMULLA. Balli, juma oqshomi duoni qabul vaqtidir.

BOY. Xush keldinglar, taqsir.

DOMULLA. Salomat, salomat. (qo'lini ko'ksiga qilib)

BOY. Xayrullo! Choy va la'li keltir.

XAYRULLO. Xo'sh! (Choy va la'li keltirar, choy suzar, alar tanavvul aylar, Toshmurod kirar, salomsiz, beadabona.)

TOShMUROD. Ota, tomoshag'a boraman, pul bering.

BOY. O'g'lim, kim ila borasan?

TOShMUROD. Tursun akam ila.

BOY. (Kissasidan pul berib.) Albatta, vaqtli kelinglar va yomon erlarga bormanglar.

TOShMUROD. Xayr, xayr. (Ko'p gapura(r) siz-da, chiqib ketar. Domulla boy va Toshmurodg'a badbinona boqib, boshini solar.)

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasidan olingan sahnadagi personajlar nutqi orqali o'zbek jamiyatiga xos ijtimoiy maqom, subordinatsiya, muomala odobi va madaniy qadriyatlarning til orqali qanday ifoda topishi yaqqol

namoyon bo‘ladi. Boy domullani hurmat bilan kutib oladi, unga joy ko‘rsatadi, duo va diniy salomlashuvlar bilan muomala qiladi. Bunday nutqiy xatti-harakatlar sotsiopragmatik jihatdan muomala etikasiga asoslangan maqom tasniflovchi til birliklari sifatida baholanadi [3, 354-360]. Diniy leksik vositalarning *“duoyingiz qabul bo‘lsin”, “inshoalloh”* muloqotda faol qo‘llanilishi esa nutqning ijtimoiy-madaniy yukini oshiradi va milliy-madaniy pragmatika doirasida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, xizmatkor Xayrulloning *“xo‘jayin”* deya murojaat qilishi subordinatsiyani ochiq bildiradi; bu ijtimoiy maqomni ko‘rsatuvchi indeksikal birlik sifatida qaraladi. Toshmurodning otasiga bevosita *“pul bering”* deb murojaat qilishi esa yaqin oilaviy kontekstda sotsiopragmatik jihatdan maqbul bo‘lsa-da, an’anaviy muomala me’yorlariga zid bo‘lgan engil hurmatsizlik shaklida baholanishi mumkin. Boyning *“O‘g‘lim, kim bilan borasan?”* degan savoli esa presuppozitsiyaga asoslangan holda shubha, nazorat va ijtimoiy mas’uliyat yukini bildiradi, ya’ni bu ifoda sotsiopragmatik kontekstdagi bilvosita nazorat shaklidir. Domlaning Toshmurodga va boyga nisbatan *“boshini egishi”* esa og‘zaki bo‘lmagan pragmatik vosita sifatida norozilikni bildiradi va bu orqali verbal bo‘lmagan sotsiopragmatik signal hosil bo‘ladi. Umuman olganda, bu sahnadagi har bir nutqiy akt, leksik birlik va intonatsion vosita Behbudiy dramatik tilining sotsiopragmatik boyligini, ijtimoiy-ma’naviy qatlamlar bilan qanday uyg‘un ekanini ochib beradi.

ZIYOLI. Assalomu alaykum.

BOY (karaxtlik ila). Va alaykum assalom. Xayrullo, kursi keltur. Bu kishi erga o‘turolmaydur. (Kelturur, ziyoli o‘lturub, papirus chekar.)

ZIYOLI. Janob boy, sizni kayfsiz ko‘raman, mumkinmi sababini bilsam?

BOY. Bir mullo keldi edi, o‘g‘lingni o‘qutmaysan deb juda jonimni oldi, quvlagandek qilib zo‘rg‘a qutuldim, faqat mushtlashmadik.

ZIYOLI. Ah-ha, qiziq ha, bu interesnıy hodisa emish (odamlarga qarab), bu shaharda boylarga amri ma’ruf qilaturg‘on mulla bor ekan, Xudoga shukur…

“Padarkush” dramasidagi ushbu sahnada ijtimoiy maqom, jamiyatdagi bilvosita tanqid, impoliteness va nutqiy strategiyalarning sotsiopragmatik ifodasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ziyoli va boy o‘rtasidagi muloqotda til vositalari orqali zamonaviylik va an’anaviylik, erkin fikr va jamiyatda hukmron ijtimoiy nazorat o‘rtasidagi qarama-qarshilik dramatik intensifikatsiya bilan ifodalanadi. Ziyolining salom berib kirishi hamda boyning *“Bu kishi erga o‘turolmaydur”* deya ko‘rsatmasi, sotsiopragmatik nuqtayi nazardan qaralganda, ziyolining jamiyatda maqomga ega, obro‘li, teng munosabatda bo‘lishi kutilayotgan shaxs ekanini ko‘rsatadi. Bu erda boyning til xatti-harakati orqali ijobiy yuzni tan olish strategiyasi qo‘llanilgan [4, 101]. Ziyolining so‘rovli jumlasi – *“Janob boy, sizni kayfiyatsiz ko‘raman, mumkinmi sababini bilsam*?” — bu bilvosita nutq akti [5, 79], shuningdek, madaniyatga xos muloyim muomala usulidir. So‘rov zamirida shubha, ehtiyotkorlik va empatiya mavjud bo‘lib, bu sotsiopragmatik jihatdan O‘zbekiston madaniyatiga xos muloyim tanqid shaklidir. Boy domullaning o‘g‘il o‘qitilishiga to‘sqinlik qilganini bevosita aytadi. Bu presuppozitsiyalashgan hurmatsizlik bo‘lib, unda boy diniy doiraning zamonaviy dunyoqarashga to‘sqinlik qilayotganini anglatadi [6, 349]. Ziyolining “…*Bu shaharda boylarga amri ma’ruf qilaturg‘on mulla bor ekan, Xudoga shukur…*” kabi kinoyali ifodasi esa sotsiopragmatik

kinoyaning kuchli namunasidir. U bu jumla orqali diniy doira hamda ijtimoiy befarqlikni tanqid qiladi, ammo bu tanqidni kinoya shaklida, ya'ni *bilvosita hurmatsizlik* tarzida bildiradi [6, 357]. Bu strategiya Wierzbickaning [7, 320] ta'kidlashicha, Yaponiyada hurmatsizlikni yumshatgan holda aytish uchun qo'llaniladi. Bundan chiqdi, sharq davlatlarida bilvosita hurmatsizlik strategiyasi ochiq hurmatsizlikdan ko'ra yaxshiroq deb qabul qilinadi.

Sahna yakunida boyning *"chilim chekishi", "sukut saqlashi"* esa nonverbal sotsiopragmatik signal sifatida baholanadi. Garchi u nutq orqali o'zini oqlagandek bo'lsa-da, tana tili orqali norozilik, ikkilanish yoki noxolis fikr ifodalanadi. Bu Ekman (2003) ko'rsatganidek, og'zaki va og'zaki bo'lmagan kommunikatsiyaning psixopragmatik uzviyligini bildiradi [8, 342].

Bundan ko'rinib turibdiki, "Padarkush" dramasidagi bu sahna orqali muallif til yordamida jamiyatdagi muhim masalalarni ochib beradi. Ziyoli va boy o'rtasidagi suhbatda ijtimoiy maqom, hurmat, tanqid va norozilik kabi holatlar har kimning tilidan o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ziyoli o'z fikrini kinoya bilan, boy esa o'zini oqlash orqali bildiradi. Ularning harakati, ohangi va so'z tanlovi orqali jamiyatdagi kuch, e'tiqod va qarashlar to'qnashuvi yaqqol seziladi. Bu sahna shuni ko'rsatadiki, til – bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki odamlar o'rtasidagi munosabat, madaniyat va fikrning ifodasidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Jo'rayev, O. (2020). "O'zbek tilida maqomga asoslangan nutqiy aktlar: sotsiopragmatik yondashuv." O'zMU Ilmiy axborotnomasi, 2(78), – B 112–118.
2. Toirova, D. (2021). "Verbal va noverbal vositalarning ijtimoiy tafakkurdagi roli." Til va adabiyot ta'limi, 4(46), – B 77-82.
3. Hamidova, M. (2024). "O'lmas Umarbekov asarlari tilining gender xususiyatlari." O'zMU xabarlari. Filologiya, 1(12), – B 354–360.
4. Brown, P. & Levinson, S.C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
5. Searle, J.R. (1979). Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. Cambridge University Press.
6. Culpeper, J. (1996). "Towards an Anatomy of Impoliteness." Journal of Pragmatics, 25(3), – B 349–367.
7. Wierzbicka, A. (1991). Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Berlin: Mouton de Gruyter. – Pp. 1–375.
8. Ekman, P. (2003). Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. New York: Times Books. – Pp. 1-304 b.

Xurshida XASHIMOVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
University of Business and Science. Namangan.

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING MOHIYATIDA CHO‘LPONNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jadidchilik harakatining tarixiy, madaniy mohiyati, uning o‘zbek milliy tafakkuri va adabiyotiga ta’siri yoritilgan. Ayniqsa, Cho‘lpon shaxsiyati va ijodi misolida jadidchilik mafkurasining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada jadidchilik harakatining asosiy yo‘nalishlari: ta’lim islohoti, matbuot rivoji, madaniyat orqali uyg‘otish, ayollar huquqlari va milliy o‘zlikni anglash masalalari chuqur yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, uyg‘onish, millat, Cho‘lpon, adabiyot, istiqlol, o‘zlikni anglash, ayollar huquqi, matbuot, ma’rifat.*

Annotation. *This article examines the historical and cultural essence of the Jadid movement that emerged in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries, and its influence on Uzbek national consciousness and literature. Special attention is paid to the personality and works of Cho‘lpon as a literary interpreter of Jadid ideology. The article also explores the key directions of Jadidism: educational reform, press development, awakening through culture, women’s rights, and the formation of national identity.*

Key words: *Jadidism, revival, nation, Chulpan, literature, independence, self-awareness, women’s rights, press, enlightenment.*

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-ma'rifiy va madaniy harakat bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi xalqni jaholatdan qutqarish, ilm-fan, texnika va taraqqiyot yo‘liga boshlash edi. Ushbu harakat vakillari – jadidlar – o‘z asarlari, maktablari, gazetalari orqali o‘zbek xalqining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. Harakatning ilg‘or namoyandalaridan biri – Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon bo‘lib, u o‘z ijodi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati orqali jadidchilik mafkurasining yuksak badiiy ifodasini yaratdi.

Jadidchilik harakatining asosiy yo‘nalishlari

1. Ta’limni isloh qilish va yangi usul maktablarini ochish

Jadidlar xalqni o‘qitish, savodli qilish orqali milliy taraqqiyotga erishish mumkinligini angladi. Ismoilbek Gaspirali tomonidan ilgari surilgan usuli jadid maktablari orqali zamonaviy fanlar: arifmetika, geografiya, tarix va tabiiyot o‘rgatila boshlandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu borada: “Millatni o‘qitishsiz, ilm-fansiz taraqqiy etish mumkin emas” degan [1, 58].

2. Milliy matbuotni rivojlantirish.

Jadidlar matbuot orqali xalq ongini uyg‘otishga intildilar. 1906-yildan boshlab “Taraqqiy”, “Hurriyat”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston” kabi gazetalarda ma’rifiy, siyosiy maqolalar e’lon qilindi. Ismoilbek Gaspiralining “Tarjimon” gazetasi butun musulmon dunyosiga ta’sir ko‘rsatdi.

3. Teatr, adabiyot va san’at orqali xalqni uyg‘otish

Behbudiy, Hamza, Fitrat, Qodiriylar teatr va adabiyot orqali xalqni jaholatdan chiqarishga harakat qildilar. Cho‘lpon o‘z asarlarida milliy uyg‘onish va ozodlik

g‘oyalarini ilgari surdi. “Adabiyot millat ko‘zgusidir” degan fikri orqali u adabiyotning ma’naviy-mafkuraviy qudratini ta’kidlagan [2, 103].

4. Ayollarni savodxon qilish va gender tengligini ilgari surish.

Jadidlar ayollar ta’limi, huquqi va jamiyatdagi o‘rni haqida faol targ‘ibot olib bordilar. Munavvarqori, Fitrat, Hamza ayollar huquqi uchun kurashdilar. Fitrat yozadi: “Ayol tarbiyasiz millat baxtli bo‘la olmaydi”. [4]

5. Milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik g‘oyasini shakllantirish

Jadidlar mustamlakachilikni tanqid qilib, milliy mustaqillik g‘oyasini ilgari surdilar. Cho‘lpon asarlarida istiqlol g‘oyasi asosiy mavzuga aylandi. Turkiston Muxtoriyati (1917) siyosiy mustaqillik istagini namoyon etdi.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon (1897–1938) jadidchilik mafkurasining badiiy ifodachilaridan biridir. U ijodida o‘zbek xalqining ozodlik, o‘zlikni anglash, ruhiy uyg‘onish g‘oyalarini aks ettirgan. “Adabiyot — millat ko‘zgusi” maqolasida u shunday deydi: “Adabiyot millatni ko‘rsatadi. Millat qalbini ochadi. Kimki adabiyotga qarasa, o‘z millatini ko‘radi”. [2, 103]

Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romani, “Bodom gul”, “Uyg‘on” kabi she’rlari xalq qalbidagi iztirob va orzularni badiiy ifodalagan asarlardir. Adabiyotshunos A. Oripov shunday yozadi: “Cho‘lpon — jadidchilik ruhining eng badiiy, eng og‘riqli, eng falsafiy talqinini bergan shoirdir”. [3, 88]

Cho‘lpon nafaqat shoir, nosir va dramaturg, balki o‘zbek adabiyoti tarixida ilk yirik tarjimonlardan biri sifatida ham katta iz qoldirgan. U rus, g‘arb va sharq adabiyotidan ko‘plab asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali o‘zbek xalqining dunyoqarashini kengaytirish, madaniy tafakkurini rivojlantirish yo‘lida xizmat qilgan.

Eng avvalo, Cho‘lpon A.S.Pushkinning mashhur “Boris Godunov” tragediyasini o‘zbek tiliga mohirona tarjima qilgan. Ushbu tarjima 1936-yilda sahnaga qo‘yilib, o‘zbek teatr san’atining yuksalishiga turtki bo‘lgan. Shuningdek, u Lev Tolstoyning “Inson nima bilan yashaydi?” hikoyasi, Maksim Gorkiy, Jorj Bayron, Genrix Geine kabi klassiklar asarlarini ham tarjima qilgan [6, 112]

Cho‘lpon tarjimalari o‘zbek adabiy tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy adabiy tilni shakllantirishda muhim vosita bo‘lgan. Ayniqsa, g‘arb adabiyotidagi insonparvarlik, erkinlik va shaxs qadriyatlarini aks ettiruvchi g‘oyalar o‘zbek o‘quvchisiga yangi dunyoqarash olib kirgan.

Tarjimalar orqali u jadidchilikning asosiy tamoyillaridan biri — ma’rifat orqali taraqqiyot g‘oyasini amalda ro‘yobga chiqargan. Shu bois, uning tarjimalari nafaqat adabiy meros, balki madaniy uyg‘onish vositasi sifatida ham baholanadi. Adabiyotshunos G‘. Karimov ta’kidlaganidek: “Cho‘lpon tarjimalari orqali o‘zbek xalqi jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘z ona tilida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa xalq tafakkurining shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi”. [5, 57]

Cho‘lpon jadidchilik g‘oyalarini ilgari surish bilan birga, rus va g‘arb adabiyotidan ko‘plab asarlarni tarjima qilib, o‘zbek madaniyatini boyitdi. A.S. Pushkin, M. Gorkiy, L. Tolstoy, J. Bayron kabi mualliflar asarlarini tarjima qilib, xalqning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qildi [7, 41].

Cho‘lpon 1920–30-yillarda jadidlar ta’qibga uchragan davrda ham o‘z qarashlaridan voz kechmadi. U milliy istiqlol, madaniy uyg‘onish g‘oyalariga sodiq

qolgan holda, adabiyot orqali bu kurashni davom ettirdi. 1938-yilda u “xalq dushmani” sifatida ayblanib qatag‘on qilingan va otib tashlangan. Biroq uning millatparvarlik ruhidagi asarlari mustaqillikdan keyin o‘z munosib bahosini oldi.

Jadidchilik harakati o‘zbek xalqining yangi davrga qadam qo‘yishida tarixiy burilish yasagan harakat bo‘lsa, Cho‘lpon uning badiiy ruhini, milliy ifodasini yaratgan ulkan shaxsdir. Cho‘lpon ijodida jadidchilik faqat ma’rifat emas, balki ruhiy uyg‘onish, o‘zlikni anglash va milliy mustaqillik uchun kurash ramziga aylandi. Uning merosi bugungi kun o‘zbek adabiyoti va tafakkuri uchun ham ibratlidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.: Ma’naviyat, 2006. – 245 b.
2. Cho‘lpon A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2017. – B 328.
3. Oripov A. Millat va Cho‘lpon // Sharq yulduzi. – 1990. 6-son. – B. 87–89.
4. Fitrat A. Tarbiyai atfol. – Buxoro, 1918.
5. Karimov G‘. Cho‘lpon tarjimon sifatida // Til va adabiyot jurnali. – 2019. – №3. – B. 57
6. Qarshiyev S. Cho‘lpon tarjimalarining badiiy xususiyatlari // Adabiyotshunoslik masalalari. – Toshkent: 2021. – B. 112–115.
7. Qarshiyev S. Cho‘lpon ijodida uyg‘onish motivlari // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2022, 4-son. – B. 40–42.

Aliboy QAHRAMONOV,
Filologiya fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi
ISFT instituti
M. ZOKIROVA,
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-kurs talabasi
ISFT instituti

JADID MATBUOTI VA TIL MADANIYATI: TIL ISLOHOTI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI RIVOJI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchilik harakati doirasida shakllangan matbuot faoliyatining o‘zbek tilini isloh qilish va til madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil etiladi. Jadid matbuotining asosiy maqsadi xalqni uyg‘otish, savodxonlikni oshirish va milliy ongni yuksaltirish bo‘lgan. Maqolada jadidlarning*

til islohoti borasidagi sa'y-harakatlari, yozma nutqdagi soddalik va tushunarlilik tamoyillari, shuningdek, bu yondashuvlarning zamonaviy ommaviy axborot vositalariga ta'siri xolis ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.

Kalit so'zlar: *jadid matbuoti, til madaniyati, til islohoti, o'zbek tili, ommaviy axborot vositalari, jadidchilik harakati, milliy uyg'onish, soddalashtirilgan uslub, jurnalistika, til siyosati.*

Abstract: *This article analyzes the role of the press formed within the framework of the Jadid movement in reforming the Uzbek language and developing language culture. The main goal of the Jadid press was to awaken the people, increase literacy, and elevate national consciousness. The article provides a scholarly analysis of the Jadids' efforts in language reform, their principles of simplicity and clarity in written speech, and the impact of these approaches on modern mass media.*

Key words: *Jadid press, language culture, language reform, Uzbek language, mass media, Jadid movement, national awakening, simplified style, journalism, language policy.*

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tub burilishlar yuz berdi. Rossiya imperiyasi ta'sirining kuchayishi, yangi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, jahon taraqqiyotidan ortda qolish holati xalq ziyolilarini chuqur o'yga toldirdi. Ana shu tarixiy jarayonlarda yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatning ijtimoiy-ma'naviy uyg'onishi uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Jadidlar "yangi usul"dagi maktablar ochish, zamonaviy fanlarni joriy etish, ma'naviy islohotlar orqali xalq tafakkurini o'zgartirish g'oyasini ilgari surgan ma'rifatparvar ziyolilar edi.

Jadidchilik harakatining eng samarali va ta'sirchan vositalaridan biri bu matbuot bo'ldi. Chunki matbuot orqali xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, ularga yangicha dunyoqarashni singdirish, ilm-fanga, til va madaniyatga munosabatni shakllantirish imkoni mavjud edi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan gazeta va jurnallar qisqa muddat ichida keng auditoriyaga ega bo'lib, o'z davrining ilg'or fikr-mulohazalarini targ'ib qila boshladi. Bu matbuot vositalari orqali xalqni savodli qilish, ma'naviy uyg'otish, milliy g'ururni oshirish, ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash kabi g'oyalar ilgari surildi.

Shu bilan birga, jadidlar til madaniyatini oshirish, o'zbek tilini sodda, tushunarli va ommaga yaqin shaklda rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratdilar. O'sha davrga kelib, diniy-madaniy risolalar asosan arabcha va forscha aralash til bilan yozilgan, xalqning aksariyat qatlami uchun tushunarsiz bo'lib qolgan edi. Jadidlar esa matbuot tilini xalq tiliga yaqinlashtirish, arabcha va forscha aralashmalarni kamaytirish, o'zbek tilining grammatik asoslarini ishlab chiqish, adabiy tilni zamonaviylashtirish yo'lida harakat qildilar. Tilni isloh qilish orqali ular nafaqat savodxonlik darajasini oshirishga, balki milliy o'zlikni anglashga ham xizmat qildilar.

Jadid matbuotining shakllanishi va uning tarixiy zaminlari. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy

hayotda muhim burilish yuz berdi. Bu jarayonda jadidchilik harakati asosiy intellektual kuch sifatida namoyon bo‘lib, xalqni uyg‘otish, zamonaviy bilimlarni singdirish, islohotlar zaruratini tushuntirishda faol ishtirok etdi. Ushbu harakatning eng muhim vositalaridan biri sifatida **matbuot** maydonga chiqdi. Jadidlar ilk matbuot orqali zamonaviy tafakkur, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini xalq orasida yoyishni ko‘zlagan edilar [1].

Bu davrda “Taraqqiy” (1906), “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, “Hurshid”, “Isloh”, “Oyna” (1913–1915) kabi gazeta va jurnallar nashr etila boshladi. Ushbu nashrlar nafaqat yangiliklar, balki ta’lim, tarbiya, ayollar huquqi, milliy uyg‘onish, diniy islohotlar kabi mavzularni ko‘tarib chiqdi. Jadid matbuoti milliy matbuot tariximizda yangi sahifa ochdi – u zamonaviy jurnalistik tafakkur va jurnalistik madaniyatning ilk shakllarini yaratdi [2, 74].

Til islohoti va til madaniyatining shakllanishi. Jadidchilik harakatining eng muhim jihatlaridan biri – bu **til islohoti e**di. Bu islohot jadidlar faoliyatida faqat lingvistik jarayon emas, balki ijtimoiy-ma’rifiy taraqqiyotning vositasi sifatida qaraldi. O‘sha davr matbuoti (ayniqsa “Oyna” jurnali va “Sadoi Turkiston” gazetasi) tili xalq tiliga yaqin, sodda va tushunarli bo‘lishi bilan ajralib turardi. Jadidlar murakkab arabcha-forscha iboralardan tozalangan, xalq ongiga yaqin, aniq va qisqa ifodali tilda yozishga intildilar [3, 98].

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalarida oddiy xalq uchun maqbul, ravon tilda yozishni birinchi galdagi vazifa sifatida belgilagan edi. U tilni isloh qilishni – jamiyatni isloh qilishga teng deb bilgan: “Biz tilni soddalashtirmas ekanmiz, matbuotimiz xalq uchun emas, ulamolar uchun bo‘lib qolaveradi”, – deb yozgan edi [4, 56]. Behbudiy bu orqali tilning ijtimoiy xarakteriga, matbuot tili orqali ongli jamiyat shakllanishiga urg‘u bergan.

Abdurauf Fitrat esa o‘zining “Til va adabiyot” haqidagi qarashlarida o‘zbek tilining zamonaviy taraqqiyotini ta’minlash uchun grammatika, fonetika va uslub masalalarini chuqur o‘rganishni, so‘z boyligini kengaytirishni taklif qilgan edi [5, 122]. Fitrat matbuot tilida mantiqiylik va izchillikni muhim deb bilib, uni ilmiy-ijodiy til darajasiga ko‘tarishga harakat qildi. Shu tariqa, jadidlar matbuot orqali tilni xalq ongiga moslashtirish, adabiy tilni zamonaviylashtirish, til madaniyatini shakllantirish yo‘lida ilg‘or ishlarni amalga oshirdilar. Bu esa milliy adabiy tilning rivojlanishiga, madaniy yuksalishga turtki bo‘ldi.

Jadid matbuoti — zamonaviy OAVning ildizi. Jadid matbuoti ommaviy axborot vositasi sifatida bir necha asosiy vazifalarni bajargan: xalqni ma’rifatga chorlash, siyosiy va ijtimoiy ongni uyg‘otish, zamonaviy g‘oyalarni targ‘ib qilish va eng muhimi — **milliy o‘zlikni anglashga zamin yaratish**. Ushbu bosma nashrlar o‘sha zamonda o‘zbek xalqi orasida demokratik fikrlar, tenglik, erkinlik, ilm-fan, texnika, savdo-sotiq, tarbiya, sog‘liqni saqlash kabi dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqdi. Ayniqsa, “Oyna” jurnalining ayollar masalasidagi faoliyati matbuotning ijtimoiy rolini yana-da oshirdi [6, 113].

Jadid matbuotining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri — jurnalistik janrlarning paydo bo‘lishidir. Bu davrda maqola, ocherk, murojaat, tanqid, nasihat, muhokama shakllari rivoj topdi. Bu janrlar orqali jurnalistikaning mavzu doirasi va ta’sirchanligi kengaydi. Muhokamali maqolalar, jamiyatda mavjud muammolarning

ochiq bayoni, bahs-munozaralar, ochiq maktublar orqali matbuot ommaviy fikr shakllanishiga xizmat qildi [7, 95].

Bugungi O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining shakllanishida aynan mana shu jadidlar merosi, ularning jurnalistik faoliyati, tildagi islohotlari asos bo‘lib xizmat qilgan. Jadid matbuoti zamonaviy OAV uchun poydevor bo‘ldi: xalq bilan aloqadorlik, ijtimoiy faollik, sodda va lo‘nda uslub, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, axborotning yangiligini ta’minlash — bularning barchasi bugungi ommaviy axborot vositalari faoliyatida dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Matbuot orqali milliy ong va til uyg‘onishi. Jadid matbuoti shunchaki yangilik tarqatuvchi vosita bo‘lib qolmadi. U milliy o‘zlikni anglash, o‘z tiliga, tarixiga, qadriyatlariga hurmat bilan qarash, islohot zarurligini anglashning asosiy manbaiga aylandi. O‘z tilida, o‘z qadriyatlariga tayangan holda matbuot nashr qilish — bu davr uchun jasorat edi. Shuning uchun ham, jadid matbuotining har bir sahifasi milliy uyg‘onish tarixining muhim hujjati sanaladi [8, 66].

Jadid matbuotining eng muhim xususiyatlaridan biri bu – u orqali xalq bilan bevosita muloqot o‘rnatilishidir. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston vohasida boshlangan jadidchilik harakati millatning o‘zligini saqlab qolish va ilm-ma’rifat orqali taraqqiyot sari yo‘l ochishni asosiy vazifa qilib olgan edi. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarishda matbuot vositasida xalqqa sodda, tushunarli va lo‘nda til orqali murojaat qilish dolzarb masalaga aylandi. Matnshunos olimlar qayd etadiki, jadidlar yozgan maqolalar til jihatidan ilgari qo‘llanilgan eski uslubdan farqli o‘laroq, tushunilishi oson, grammatik jihatdan soddalashtirilgan bo‘lib, arabcha-forscha atamalardan iloji boricha voz kechilgan [1]. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilar o‘z maqolalarida zamonaviy muammolarni xalq tilida yoritishga intildilar. Bu esa o‘sha davr matbuotining yangi bosqichga chiqishiga turtki bo‘ldi.

Til islohoti doirasida jadidlar lotin yozuviga o‘tish g‘oyasini ham ilgari surgan edilar. Ular o‘zbek tili fonetikasiga mos yozuv tizimini joriy qilish orqali savodsizlikni kamaytirish, darsliklar va gazeta-jurnallarning o‘qilishini osonlashtirishni ko‘zlagan edilar. Bu boradagi faoliyat ularning “Oyna”, “Sadoi Turkiston”, “Taraqqiy”, “Hurshid” kabi nashrlarida yaqqol ko‘rinadi [2, 110].

Shuningdek, jadidlar matbuot orqali axborot tarqatish, fikr bildirish va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish madaniyatini ham shakllantirdilar. Ularning gazeta sahifalaridagi bahs-munozaralar, ochiq maktublar, ijtimoiy tanqidlar bugungi jurnalistikaning asosi sifatida baholanishi mumkin. Bu jihatlar, ayniqsa, o‘zbek adabiy tili rivojida muhim o‘rin tutdi.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari, ayniqsa internet jurnalistikasi va blogerlik faoliyati ham aslida jadidlar asos solgan til madaniyati tamoyillaridan ilhomlanishi mumkin. Jumladan, matnda soddalik, fikrda aniqlik, uslubda xalqchil yondashuv bugungi OAV uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda matbuot tili, OAV orqali olib borilayotgan ijtimoiy-ma’naviy ishlar, til siyosati, madaniy yondashuvlar — barchasi jadidchilik harakatining tarixiy ildizlariga tayanadi. Til islohoti — bu faqat grammatik me’yorlarni to‘g‘rilash emas, balki xalq bilan til topishish, uni ma’rifat sari etaklashning eng asosiy vositasidir.

Jadidchilik harakati XX asr boshlarida o‘zbek jamiyatida uyg‘onish va yangilanishning bosh harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan bo‘lsa, jadid matbuoti esa bu harakatning asosiy targ‘ibotchisi va kuchli vositasi sifatida shakllandi. Jadidlar nafaqat matbuotni tashkil etdilar, balki uning mazmun va shaklini milliy taraqqiyot, ma’rifiy yuksalish va ijtimoiy ongning o‘sishiga xizmat qiladigan darajaga olib chiqishga harakat qildilar.

Til islohoti ularning faoliyatida markaziy o‘rin egalladi – murakkab, xalq tushunmaydigan uslubdan voz kechib, sodda, xalq tiliga yaqin, lekin ifodali va adabiy jihatdan boy tildan foydalanish orqaligina ommaga murojaat qilish mumkinligini angladilar. Bu esa nafaqat o‘zbek adabiy tilining takomiliga, balki ommaviy axborot vositalarining xalqchillik ruhida shakllanishiga asos soldi.

Bugungi zamonaviy matbuot va jurnalistika, davlat tilining rivoji, madaniy-ma’naviy siyosat, til siyosatidagi ijobiy yondashuvlar tarixiy ildizlarini aynan jadid matbuotidan olganini inkor etib bo‘lmaydi. Jadidlar boshlab bergan bu yo‘l – axborot orqali ongni uyg‘otish, til orqali jamiyatni yangilash, matbuot orqali islohotni ilgari surish — bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Shu bois, jadid matbuotining tajribasi va til madaniyatini shakllantirishdagi yondashuvlari zamonaviy OAVda, ta’lim tizimida, jurnalistika sohasida chuqur o‘rganilishi va amaliyotga joriy etilishi lozim. Bu nafaqat tarixiy merosga hurmat, balki uni zamon talablari asosida qayta tiklash demakdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimov, B. Jadidchilik: tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2003.
2. Tursunov, H. Jadidlar va matbuot. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 74.
3. Hayitmetov, A. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1992. B. 98.
4. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 56.
5. Fitrat, A. Til va adabiyot. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – B. 122.
6. Ubaydullayev, O. Jadid matbuoti va ayollar masalasi. – Samarqand: Zarafshon, 2014. – B. 113.
7. Nurmonov, A. O‘zbek matbuoti taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 95.
8. Yo‘ldoshev, A. Jadidlar merosi va ijtimoiy ong. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005. – B. 66.

Dilnoza JUMAYEVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O‘zDSMI

HAMID OLIMJON – ILK FITRATSHUNOSLARDAN BIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atoqli o‘zbek shoiri va olimi Hamid Olimjonning 1936-yili yozgan “Fitratning adabiy ijodi haqida” tadqiqoti mazmuni tahlil etilib, shoirni ilk fitratshunos ekanligi ochib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *Hamid Olimjon, Abdurauf Fitrat, jadidlar, burjua adabiyoti, Fitrat dramalari, madaniy qoloqlik, ilm-ma’rifat.*

Annotation. *This article analyzes the content of the study of the famous Uzbek poet and scientist Hamid Olimjon "On the literary work of nature", written in 1936, and reveals that the poet is the first naturalist.*
Key words: *Hamid Olimjon, Abdurauf Fitrat, modernists, bourgeois literature, Fitrat's dramas, cultural backwardness, knowledge.*

O‘zbek adabiyotining XX asrdagi yirik vakili Hamid Olimjon ijodi to‘g‘risida adabiyotshunoslikda juda ko‘p tadqiqotlar yaratilgan. Bu o‘rinda S.Azimov, S.Mamajonov kabi olimlar asarlarini eslash o‘rinlidir[1]. 2018-yili nashr etilgan falsafa fanlari doktori S.To‘ychiyeva “Vodiylarni yayov kezganda” kitobida shoirning adabiy biografiyasini juda ko‘p manbalarga suyangan holda bayon etib bergan. Bu kitob orqali biz Hamid Olimjonning shoir, jamoat arbobi va ulkan adabiyotshunos, folklorshunos ekanligini chuqur his etamiz. Ammo kitobda shoirning Fitrat ijodiga bag‘ishlangan maqolasi to‘g‘risida ma’lumot berilmagan [2, 188]. Buning o‘ziga xos sabablari bor, albatta. Bugun mana shu masala xususida fikr yuritmoqchimiz.

Ma’lumki, Hamid Olimjon iste’dodli shoir bo‘lish bilan birga sermahsul adabiyotshunos va publitsist ham edi. 1960 yili nashr etilgan 3 jildlik “Tanlangan asarlar”ining 3-tomida uning prozaik asarlari, ocherk, maqola va ilmiy tadqiqotlari bosilgan. Mana shu jildning 220-261-betida “Fitratning adabiy ijodi haqida” tadqiqoti bor [3, 220-261]. Ammo jadidshunoslar bu manbani ko‘p ham esga olavermaydilar. Go‘yo bu haqda gap ketsa, Hamid Olimjonning Fitratga simpatiyasida sho‘rocha qarash ustivor bo‘lgani uchun Fitratga bildirilayotgan ijobiy fikrlarga soya solishi mumkin. Holbuki, Hamid Olimjon Fitratning ijodiy faoliyati va asarlari tahlilida juda obyektiv pozitsiyada turgan va Fitratni juda yaxshi bilgan kishi sifatida namoyon bo‘lgan (Filologiya fanlari doktori Izzat Sultonning suhbatlaridan ma’lum bo‘lishicha, Hamid Olimjon Samarqandda o‘qigan paytlari Fitrat unga adabiyot tarixi va she’r ilmi bo‘yicha ustozlik qilgan).

Ushbu tadqiqot 5 qismdan iborat bo‘lib, ilk qismda O‘rta Osiyoda jadidizm harakatining paydo bo‘lish sabablari, jadidlarning maqsadi, kurashi, ularga Chor Rossiyasi va Sho‘ro davlatining munosabati bayon etilgan. Tadqiqot avvalida Fitrat asarlari tasnifi ham keltirilgan. Jumladan, u shunday yozadi: “Oktabr inqilobigacha bo‘lgan davr ichida Fitrat “Munozara”, “Sayho”, “Sayyoh hindi”, “Tarixi islom”, “Rahbari najot”, “Mavludi sharif”, “Abu Muslim”, “Begijon” singari adabiy, publitsistik xarakterdagi asarlar yozadi”[4, 223]. Muallif Fitratning dunyoqarashi, maqsad-amoli va ijodiy niyatlarini ochiq-oydin ko‘rsatib beradi. “Fitratning vatanparvarligi chuqur dinchilik bilan bog‘langan edi. Shuning uchun u “Sayho”da dinni va vatanni saqlashga chaqiradi, din nomi bilan vatanni

qo‘shiqlashga, vatan nomi bilan dinni saqlashga undaydi. Fitrat ulamolarga tamoman qarshi bo‘lib ham chiqmaydi. “Sayyoh hindi”da u ulamolarni ikkiga bo‘lib qaraydi: “Shu kungacha usmonli, tatar, Eron va Hindiston ulamolarining ko‘pi ham millat qonini ichar edilar. Lekin u millatlar sizdan oldinroq ishning haqiqatini tushuna boshlaydilar. Ularning asosini tezroq yiqitmoq uchun tirishib, bir oz zamon ichida haqiqatparast ulamolarni qorinparvar ulamolardan ajratib oldilar. Haqiqatparast ulamolarni boshlariga toj qilib, qolganlarni er bilan yakson qildilar” [4, 232]. Bu so‘zlarni keltirar ekan, H.Olimjon Fitrat “haqiqatparastlar” deganda, erli sarvatmandlarni himoya qiluvchilarninazarda tutishini, mustamlakachilarga yon bosib tinch yashashni istovchi ulamolarni esa “qorinparvarlar” deyishini ta’kidlaydi.

H.Olimjon Fitratning deyarli barcha asarlariga alohida-alohida to‘xtalib, ularning asosiy mazmunini, ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rsatib beradi. Ko‘p o‘rinlarda u Fitratga achinib qaraydi, ya’ni uning millatparvarligi uni boshi berk ko‘chaga olib kirgan deb hisoblaydi. Maqolada Fitratning yosh buxoroliklar qatorida olib borgan ishlari tahlil qilinadi. Fitratning asl maqsadi revolyusiya emas, balki Turkiston boylari va jadidlari o‘zlarining milliy davlatlarini islohot yo‘li bilan qurib olish bo‘lganligini ta’kidlaydi. Maqolaning ikkinchi qismida jadidlarning madaniy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish uchun matbuotga butun diqqat-e’tiborlarini qaratganliklarini tahlil qiladi. Bu tahlillarda muallif o‘sha davrda “Ulug‘ Turkiston” va “El bayrog‘i” gazetalari juda qizg‘in faoliyat olib borganligini, biroq bu kabi nashrlar o‘zbek millatchilik adabiyotini vujudga keltirganligini salbiy hodisa sifatida keltirib o‘tadi. Shundan so‘ng muallifi Fitratning “Chig‘atoy gurungi” adabiy tashkilotiga rahbarlik qilishi va bu tashkilotga o‘zbek millatchi ziyolilari, tilchilari, adabiyotchilari, yozuvchi va shoirlari to‘planganligini ta’kidlaydi. “Bu tashkilot til va adabiyot bobida millatchilik nazariyasini kuchaytirib ilgari suradi” deb yozadi [4, 234]. O‘sha davrda bu fikrlar Fitratni qoralash, sho‘ro davlati siyosatini to‘g‘ri deb talqin qilish uchun aytilgan bo‘lishiga qaramay, bugun Fitratning olijanob maqsadlarini yuzalantirish uchun o‘ziga xos manba bo‘lib xizmat qiladi. Fitrat 1917-yil fevral inqilobini katta quvonch bilan kutib olgan. Chunki bu inqilob xususiy mulkchilikni himoya qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan ijtimoiy o‘zgarishlar edi. Ammo ko‘p o‘tmay bolsheviklar tomonidan otktyabr inqilobi amalga oshirilganda Fitratning orzulari sarobga aylanadi. Negaki, vayronkor inqilob boylar va ruhoniylarni mavh etish hisobiga amalga oshirilgan edi. Hamid Olimjon bu holatni shunday bayon qiladi: “Haqiqatan, Oktabr inqilobining har bir g‘alabasi Fitrat oziqlanib kelgan borliqning negizlarini emirar, uning suyangan tog‘lari er bilan yakson qilinar edi. Shuning uchun shoir o‘tmishni qaytarish, uning yaxshi-yomon xususiyatlariga qaramasdan, yoppasiga maqtash va o‘tmish xayollarida qanoatlanar edi.

Proletar inqilobiga qarshiligi, mantiqiy, patriarxal turmushni ideallashtirish, sharqchilik tuyg‘ularini kuchaytirish, Sharqni G‘arbga qarshi qo‘yish, G‘arbga nafrat, Sharqqa muhabbat uyg‘otishga olib kelar edi. O‘tgan Sharqni, umuman, Turkistonni yovuzliklar makoni sifatida unga qarshi qo‘yadi” [4, 234]. Bu fikrlar asar yozilgan davrda Fitratni qoralashga xizmat qilgan bo‘lsa ham, aslida Hamid Olimjon o‘z ustozining botiniy niyatlari juda ulug‘vor ekanligini ko‘rsatib bera olgan. Nazarimizda Hamid Olimjon Fitratning barcha asarlarini uning o‘zidan olib

o‘qigan. Aks holda, u Fitrat haqida bu qadar keng qamrovli, manbaviy puxta tadqiqot yoza olmagan bo‘lar edi. Buni biz tadqiqotning ikkinchi qismi boshidagi so‘zlardan ham bilishimiz mumkin: “Siyosat bobidan surilib chiqqan, fevral inqilobi davridagi jonsarak urinishlari xayolga aylangan o‘zbek burjua ziyolilari butun kuchni madaniyadabiy maydonga tashladi. Ular taxminan butun gazeta va jurnallarga orinlashib oldilar” [4, 232]. Darhaqiqat, bugun biz organayotgan jadidlar merosi ayni shoir ta’kidlagan jarayonning mahsuli edi.

Tadqiqotning 3-qismida muallif Fitratning 1921-1924-yillari yozgan “Qiyomat”, “Shaytonning Tangriga isyoni”, “Abulfayzxon” va “Bedil” asarlari mazmunini sharhlaydi. Bu sharhlarni berishda muallif pozitsiyasi qanday bolishidan qat’iy nazar biz mazkur asarlarning umumiy mazmuni, maqsadi va syujetidan etarli ma’lumotlar olamiz. H.Olimjon oz talqinida Fitratni dahriy ham emas, mutaassib dinchi ham emas, balki donishmand metafizik bolganligini isbotlab beradi. Tadqiqotning 4-qismida muallif Fitratning Buxoro tarixiga mansub mavzuda yozgan “Abulfayzxon” tragediyasi va “Arslon” dramasi haqida toxtalib otadi. Bunda biz H.Olimjoning dramaturgiya nazariyasini juda yaxshi egallaganligini bilib olamiz. Tadqiqotning 5-qismida H.Olimjon Fitratning “Arslon” dramasini tahlil qiladi. Muallifning mavzu tanlashdagi maqsadini, dramaning syujeti va kompozitsiyasini, bosh qahramon va personajlarning tasviriy holatlarini osha davr ozbek dramaturgiyasi va jahon sahna san’ati talablari asosida tekshiradi. Muallifning ushbu tahlillari bugungi kun dramatik asarlarini tekshirishda ham ma’lum ma’noda ornak bola oladi. Tadqiqot songida Hamid Olimjon Fitratning adabiyot nazariyasi va adabiyot tarixi, madaniyat va san’at sohasidagi asarlari alohida organishga loyiqligini ta’kidlaydi: “Fitratning adabiy ijodi juda murakkab, u adabiy ijodning butun sohalari boyicha ish korgan va adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi borasida ham ma’lum qarashlarni ilgari surgandir. Shuning uchun bu ish bir boshlang‘ich, xolos va Fitratning ijodini tola-tokis tasvirlab berishda’vosini qila olmaydi. Bu ishni davom ettirish va maqolani oqib chiqqan ortoqlarning komak va yordamlari zarurdir” [4, 261]. Hamid Olimjonning mazkur ilmiy tadqiqoti XX asr ozbek adabiyotshunosligida jadidchilik tarixini organish boyicha noyob bir namuna sanaladi. Tadqiqotning bugungi kun mezonlari bilan olchanganda ba’zi kamchiliklari bor bolishiga qaramay, atigi 27 yoshli yigit tomonidan yozilganligi uning qanchalar bilim va mahoratga ega bolganligini his etish uchun kifoya qiladi. Tadqiqotni qayta nashr etish zaruriyati tug‘ilganda uni tegishli sharh va izohlar bilan ta’minlagan holda oquvchilar e’tiboriga havola qilish lozim. Bunda zamonaviy mahalliy va xorijiy fitratshunoslar xulosalari va talqinlariga suyanish kerak. Ushbu tadqiqot jadid dramaturgiyasi boyicha olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim manba bolib xizmat qilishi, shubhasiz.

Adabiyotlar royxati

1. Azimov S. Hamid Olimjon abadiyati. T.1961.
2. Mamajonov S. Lirik olam, epik kolam. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1978.

3. Toychiyeva C. Vodiylarni yayov kezganda. Alisher Navoiy nomidagi Ozbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T.: 2018. – B. 188.
4. Hamid Olimjon. Uch tomlik tanlangan asarlar. 3-tom. Badiiy adabiyot nashriyoti. T.: 1960. – 430 b.

Marufjon KARIMOV,
PhD, Namangan davlat chet tillar instituti dotsenti
Muxtasar BEGMATOVA,
Namangan davlat chet tillar instituti 1-bosqich talabasi

"O'TKAN KUNLAR" ROMANIDAGI SINEKDOXANING BADIIY FUNKSIYASI VA TARJIMALARDA AKS ETISHI MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llangan sinekdoxa vositasining badiiy funksiyasi va tarjimada tiklanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Asarda sinekdoxa orqali muallif milliy obraz yaratish, jamiyatdagi muayyan qatlamlarni ifodalash hamda umumiy g'oyani chuqurroq yoritishga erishadi. Maqolada ushbu uslubiy vositaning o'zbek adabiyotidagi o'rni va ularni boshqa tillarga tarjima qilishdagi muammolar ko'rib chiqiladi.*
Kalit so'zlar: *sinekdoxa, badiiy vosita, tarjima, milliy obraz, uslubiy vosita, adabiy tahlil, til vositalari, matn.*

Abstract. *This thesis explores the artistic function and translational reconstruction of synecdoche used in Abdulla Kadiri's novel "Days Gone By." Through synecdoche, the author conveys national imagery, represents specific social layers, and deepens the main idea of the work. The annotation discusses the role of this stylistic device in Uzbek literature and the challenGES associated with translating it into other languaGES.*
Key words: *Synecdoche, artistic device, translation, national image, stylistic device, literary analysis, linguistic tools, context.*

Badiiy asarlar tarjimalarini amalga oshirishda mohir va bilimdon tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar asosida yuzaga kelgan holisona nazariy umumlashmalar [1], ilmiy xulosalar [2] badiiy asarlar tarjimalarini amalga oshirishda va ularni asliyatga muvofiq tarjima bo'lishini ta'minlaydigan etakchi omillardandir. "O'tkan kunlar" romanida tasviriy vositalarning tarjimalarida qayta tiklanish masalalarini o'rganish bugungi kun tarjimashunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. "O'tkan kunlar" dagi sinekdoxalar tasviri asarning ilk sahifalaridayoq ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Asliyat matnida: "Ul bir tomondan shunday orzu-havas uchun bola o'sdirg'an ota-onani mukofotlandirmakchi va otasi aytkan xijolat chekdirmayturg'an o'g'ullardan bo'lmoq-chi edi ersa ham, ikkinchi yoqdan o'zini asir etkan **shahlo**

ko‘zlar unga nafratlanib qarag‘andek bo‘lurlar, go‘yoki vafosiz, va’dasiz, deb qichqirarlar edi. To‘g‘risi ham uni ota-ona mukofotiga qarshi oyoqlandirmoqchi bo‘lg‘an narsa haligi **ko‘zlar**gina, ammo uning bu isyonnamo harakatidan boshqa unsurlar qidirish va chiqarish o‘rinsiz tushar edi”. (O‘tkan kunlar. 2009; 149) Romandagi bosh qahramon bo‘lmish Kumushga berilgan ta’rifdan muallif badiiy tasviriy vosita, ya’ni sinekdoxadan mohirona foydalanish orqali yoritib bergan. Bu yerda “asir etkan shahlo ko‘zlar” hamda “haligi ko‘zlar” birikmalarida sinekdoxa leksik-stilistik vosita qo‘llangan. Shu o‘rinda Kumushga ta’rif berishni ma’qul topdik, Kumush – “quyuq [11] (quyuq- to‘kin-sochin, mo‘l, serob; Ko‘p miqdorda bir yerga to‘planib, zichlashib, qalin qatlam hosil qilgan, zich, qalin holati) jinggila kiprik” lari ostidan “timqora ko‘zlari” boqib turguvchi, “qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi” ko‘ringuvchi, “to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuz” (ta’riflarni adib tilidan keltirdik- K.M) lik o‘n etti-o‘n sakkiz yoshlardagi, marg‘ilonlik Mirzakarim qutidor qizi, Otabekning ma’shuqasi; roman oxirida kundoshi Zaynabning taomga qo‘shib bergan zaharidan o‘ladi.

Yuqoridagi sinekdoxa T.I. tarjimasida: “He couldn’t give up his parent’s wishes and he wasn’t such a son who puts his parents into trouble, but on the other hand it seemed to him that **beautiful dark eyes which cast a glamour** over him were staring at him with indignation and as if she was saying: “Disloyal, unfaithful you are” [10]. Actually, only these **charming dark eyes** got him to go against his parent’s desires- intentions.” (T.I. 2017; 135) (…lekin boshqa tomondan unga jozibali go‘zal qora ko‘zlar unga nafrat va g‘azab bilan tikilayotgandek tuyuldi, go‘yo uni vafosiz, bevafo degandek. Darhaqiqat, faqat shu maftunkor qora ko‘zlar uni ota-onasining xohish-istaklariga qarshi chiqishga majbur qildi- K.M [9])

Y.K. tarjimasida: “Yet the same time, he could not help thinking of those **beautiful eyes which had so captivated him**, which would look at him so disdainfully, reproaching him, a traitor, unable to defend his love…In truth, it was only **those eyes** which prompted him to oppose the wishes of his father and mother, the rest was of no import.” (Y.K. 2018; 135) (Shu bilan birga, u o‘zini o‘ziga maftun etgan, unga nafrat bilan qarayotgan, uni haqorat qilayotgan, sotqin, sevgisini himoya qila olmaydigan deguvchi o‘sha go‘zal ko‘zlar haqida o‘ylashga jur’at qilolmasdi... u otasi va onasining xohishlariga qarshi chiqdi, qolganlari hech qanday ahamiyatga ega emas edi) (K.M) tarzida beriladi.

R.M.: “Yet those **imploring eyes** imprisoned his heart, reproaching him: "You are unfaithful... with a false… **Those eyes** remained the only real obstacle to capitulating to his parents’ wishes” [6] (iltijoli nigohlar; mana shu ko‘zlar- K.M)

Asliyat matnida keltirilgan “asir etkan shahlo ko‘zlar” birikmasi I.To‘xtasinov tarjimasida “beautiful dark eyes which cast a glamour” (jozibali go‘zal qora ko‘zlar) deb beriladi. Bunda “asir etmoq” fe’li ko‘chma ma’noda qo‘llanib, “o‘ziga tortmoq, jalb etmoq, maftun, shaydo qilmoq” [11] mazmunlarini kasb etishini inobatga olsak, o‘zbek tarjimonlari birikma tarjimasini berishda biroz g‘alizlikka yo‘l qo‘ygan. K.Yermakova tarjimasida esa yuqoridagi birikma “beautiful eyes which had so captivated him” (uni o‘ziga maftun etgan go‘zal ko‘zlar) tarzida beriladi. Ko‘rinadiki, K.Yermakova [3] bunda birikma tarjimasini asliyatga aynan [7]

muvofiqini aks ettiradi. Mutarjim muvaffaqqiyatli tarjima matniga so‘zma-so‘z tarjima usuli orqali erishadi. Parchaning ikkinchi sinekdoxa ifodalagan “haligi ko‘zlar” birikmasi I.To‘xtasinov tarjimasida “charming dark eyes” (maftunkor qora ko‘zlar) tarzida beriladi. Asliyatda ikkinchi marta qo‘llanganligi sababli muallif Kumush ta’rifini takrorlamasdan “haligi ko‘zlar” tarzida keltiradi. “Haligi ko‘zlar” esa “asir etkan shahlo ko‘zlar” edi. Yuqorida izohli lug‘atdagi so‘z mazmuniga asosan, “asir etkan shahlo ko‘zlar”ning o‘zbek tarjimonlari tomonidan “maftunkor qora ko‘zlar” deb berilishi asliyatga deyarli muvofiq bo‘ladi. Tarjimonlar natjima (so‘zma-so‘z tarjima) usulidan foydalangan. K.Yermakova tarjimasida esa “haligi ko‘zlar” birikmasi “those eyes” (o‘sha ko‘zlar) tarzida aynan beriladi. Bunda mutarjim birikmani so‘zma-so‘z tarjima yo‘lida o‘girgan.

M.Riz esa yuqoridagi birikma tarjimasini imploring eyes- iltijoli nigoh tarzida adekvatlik usuli bilan qayta tiklaydi. Bunda tarjimon K.Yermakova singari har bir detal tarjimasiga xijjalab to‘xtalmagan bo‘lsa ham, bitta imploring- iltjoli, yalingan leksik birligi orqali asliyatdagi birikmani muvaffaqqiyatli aks ettira olgan.

Tarjima jarayonida asarning g‘oyasi uning uslubiy jihati bilan chambarchas tarzda bog‘liq bo‘lib, asar yozilgan davr ruhini, qahramonlar ijobiy va salbiy jihatlarini ijodiy qayta yaratish uchun tarjimon nafaqat badiiy mahorat, iste’dod va boy tajriba sohibi bo‘lishi, balki badiiy tarjima amaliyoti dalillari asosida vujudga kelgan nazariy bilimlar bilan puxta qurollangan filolog olim sifatida faoliyat ko‘rsata bilishi ham lozimdir. Asliyat va tarjima tillari badiiy-uslubiy vositalarni chuqur matniy va lisoniy tahlil qilish asosida qiyosiy o‘rganishgina san’atkorni tarjima amaliyotida uchrab turadigan qator illatlardan saqlab qolgani holda, unga asliyat lisoniy-uslubiy hodisalari vazifalarini ijodiy tiklash imkoniyatini beribgina qolmay, bularni barchasini uddalash mas’uliyatini ham yuklaydi. Sinekdoxaning umumiy ko‘rinishlari quyidagilardan iborat:

Butun o‘rnida qism ifodalanishi: Sinekdoxa-grekcha “birga anglamoq” demakdir. Qism orqali butunni yoki aksincha butun orqali qismning ifodalanishi sinekdoxa deyiladi. Masalan, tirnoq so‘zining “bola” ma’nosida bosh, tuyoq so‘zlarining “qo‘y”, “sigir” ma’nosida ishlatilishi qism orqali butunni ifodalashdir.

Asliyat matnida: “Arzimagan sabablar bilan talaf bo‘lgan (talaf bo‘lmoq-qurbon bo‘lmoq, aziyat chekmoq) **jonlar**ni hamisha ko‘z oldingda tut!” (O‘tkan kunlar. 2009; 40) Ushbu matnda sinekdoxa leksik-stilistik vositasi “talaf bo‘lgan jonlar” birikmasida qo‘llangan hamda ko‘chma ma’no ifodalagan. “Talaf bo‘lgan jonlar” birikmasi orqali aslida “qurbon bo‘lgan kishilar” nazarda tutilmoqda, ya’ni “qism” (jonlar) orqali “butun” (insonlar) ifodalanmoqda. Romanda Yusufbek xoji purviqor siymo sifatida juda ko‘p o‘rinlarda muallif tomonidan o‘rnak etilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bunda adibning badiiy mahoratiga qoyil qolmasdan iloj yo‘q.

I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidovlar tarjimasida: “Always remember the **innocent victims**!” [11]. (Har doim begunoh qurbonlarni yodingda tut!- K.M) deb beriladi.

Kerol Yermakova tarjimasida: “Always remember those **innocent who died**!” [7]. (Har doim begunoh o‘lganlarni yodingda tut!) (K.M) shaklida beriladi.

Mark Riz tarjimasida esa: “Remember the **past victims** who have been killed for the same miserable reasons.” (o‘tmishda o‘ldirilganlar- K.M)

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki bunda o‘zbek hamda ingliz tarjimonlari so‘zma-so‘z tarjima usulida sinekdoxani tarjimada muvaffaqqiyatli aks ettirganlar.

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida asar ta’sirchanligini oshirish, obraz yaratish, voqelikni tanqidiy baholash, shaxs, predmet, voqea-hodisaning muayyan jihatlarini tasvirlashda ironiya hodisasidan mahorat bilan foydalangan. Kinoya-ironiya zimdan kulish, kesatish bo‘lib, badiiy matndagi inkor etish usullaridan biri hisoblanib, jiddiy holda gapirilgan so‘zlar o‘z asl ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda qo‘llanadi hamda shaxs va uning xatti-harakati ustidan kesatilib, masxaraomuz kulinadi.

“Nutqda so‘z va iboralarning kesatiq va piching orqali o‘z ma’nosiga qarshi qarama-qarshi (ko‘chma) ma’noda ishlatish usuli ironiya deyiladi. Ironiyada so‘zlovchi voqeani jiddiy bayon qilganday bo‘ladi, ammo til vositalarini ko‘chma (okkazional) ma’noda qo‘llab, biron shaxs yoki voqelik ustidan kesatiq bilan kuladi” [12]. Boshqacha qilib aytganda, so‘zlovchi nutqining zamirida haqiqiy ma’noga zidlashuvchi asosiy maqsad – kulgi yoki kinoya ma’nosi yashiringan bo‘ladi. Ironiyaning satiradan farqi shundaki, satira modallikni ochiq namoyon etsa, ironiya sub’ektiv munosabatni yopiq holda, yashirin ifodalaydi. Tildagi juda ko‘p badiiy vositalar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarni, so‘zlovchining biror maqsad uchun mo‘ljallangan mazmunni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladigan hodisa ironiya hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Pirs Ch.S. Prinsipы filosofii. – Sankt Peterburg, 2001. – S.313
2. Morris Ch.U. Osnovaniya teorii znakov // Semiotika: xrestomatiya: ucheb.metod. modul / pod red. L.L. Fedorovoy. – M., 2005. – S. 45–98.
3. Yermakova K. The Days Gone by. – Yengland, 2018. –P. 60
4. Cafarov Sh. Ppagmalingvistika. Monogpafiya. – T., 2008. – B. 59-241
5. Mey J.L. Rragmatics: An Introduction. 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2001. – P.148.
6. Reese M. Bygone Days. – The United States of America, 2018. –P. 60
7. Kim D. et al. The Role of an Interactive Book Reading Program in the Development of Second Language Rragmatic Sompetence // The Modern Language Journal. Vol. 86, № 3, 2002. – P. 328-332.
8. Levinson S.C. Rragmatiss. – Sambridge: Sambridge University Press, 2008. –R. 9-236.
9. Karimov M. The etiquette and the literary descrirtion of sharaster used in the novel “Days Gone By”//Turkish Journal of Rhysiotherary and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451. – 2022. – P. 35336-35344.
10. Tukhtasinov I. The Days Gone by. – Tashkent, 2017. –P. 61
11. Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкаов Н., Мирзаев Т., Тўхлиев Н., Умаров Э., Худойберганова Д., Ҳожиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – Б.395

12. Қодирова Ҳ. Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм. –Тошкент, 2013. –Б. 22-25

To‘ychi BAYTURAYEV,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
O‘zDSMI

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogikaga oid firklari, ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari haqida so‘z yuritiladi. Uning darslik va qo‘llanmalari, tarbiya turlari mazmuni tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *pedagogika, didaktik asar, ta’lim, tarbiya, ma’rifat.*

Abstract. *This article discusses Mahmudkhodja Behbudi's ideas on pedagogy, his views on education and upbringing. The content of his textbooks and manuals, types of upbringing are analyzed.*
Key words: *pedagogy, didactic work, education, upbringing, enlightenment.*

Behbudiy xalqni savodli, ma’rifatli qilish uchun jadid maktablarini ishonchli vosita deb bilgan. Matbuotni esa ma’rifatni yoyish quroli sanadi va uning kuchidan unumli foydalanilishiga ishongan. Jadidlarning manaviy - ma’rifiy qarashlarida, ta’lim-tarbiya uyg‘unligi uchun kurashish masalalari keng o‘rganilgan. Shuning uchun ham O‘rta Osiyolik jadidlar o‘zlari bevosita ham noshirlik, ham muharrirlik qilganlar. M. Behbudiy Samarqandda “Samarqand”(1913 yil aprel oyida chiqqan) gazeti va “Oina” (1913-yil avgustdan) jurnalini nashidan chiqarib, ularning sahifalarida jadidlarning g‘oyalari o‘z aksini topgan. O‘rta Osiyoning barcha mamlakatlarida jadid nomoyondalarining pedagogik qarashlari ijodiy o‘rganilib, keng tahlil qilingan. Ularning deyarli ko‘pchiligi o‘z davrining ilg‘or namoyondalari, publitsistlari, jamoat arboblari, buyuk murabbiy-pedagog sifatida shakillanishgan.

Shulardan biri samarqandlik M.Behbudiy bo‘lib, u o‘z davrida yosh bolalarning tabiatini chuqur o‘rganadi, o‘z maktabining o‘quv dasturlariga bolaga har tomonlama puxta bilim beruvchi ilmlarni kiritishga harakat qiladi. O‘quv dasturidan odob, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, til, fiqh labi bir qancha zamonaviy bilimlar o‘rin oldi. Uning ta’lim-tarbiya tizimi:

-aqliy tarbiya ;
- axloqiy tarbiya ;
-diniy tarbiya;
-estetik tarbiya;
-huquqiy tarbiyani o‘z ichiga olgan. .

Behbudiy inson tarbiyasi, uning tafakkur rivoji haqida gapirar ekan, aqliy tarbiyaning rolini yuqori qo‘ydi. Aqliy tarbiya, u ta’kidlagandek, aqlni yuksaklikka ko‘taruvchi maktab vositasi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu borada dunyoviy bilimlar masalasiga jiddiy yondoshdi. “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan lozim”ligini uqtirdi. Jug‘rofiya, handasa, riyoziyot, tabiiyot, chet tillarini o‘rganmoq dunyoni bilishning kalitlaridan hisoblanadi. Insonning axloqiy shakillanishi uning oilasida yoshlikdan shakllanishi,uning ota-onasi so‘ng maktabda ustozlar sababchi bo‘ladi, deb ko‘rsatilgan. Jadidlar qarashida ota-ona bolalarning har bir harakatini, yurish-turishini kuzatib borishlari lozimligi ko‘rsatilgan. Maktabda ustozlar esa o‘zi ta’lim berayotgan kitoblarning mohiyatiga etib saboq bersinlar. Behbudiy o‘sha vaqtlari o‘quv dasturlaridagi ba’zi shoirlarning ishqiy g‘azallarini o‘qitishga qarshi chiqdi. Bunday g‘azallarga bolalarning aqli yetmay, to‘g‘ri tushunmasligi oqibatida noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Shuning uchun Behbudiyning dasturidan joy olgan darsliklar faqat bola aqlini emas, balki axloqiy jihatlarini ham e’tibordan chetda qoldirmagan edi.

Estetik tarbiya. Behbudiyning o‘quv sistemasi doirasida estetika so‘zi tilga olinmagan bo‘lsa-da, bolalarga bunday tarbiya berish fikri etakchi o‘rinlarda turadi. Uning “Madxali jug‘rofiyai umumiy” va “Muxtasari jug‘rofiyam Rusi”, “Kitobat ul-atfol” darsliklari bolalarni atrof-muhitga, voqea-hodisalarga estetik munosabatda bo‘lishga undaydi. Jug‘rofiya dunyoni bilishning kalitlaridan. Dunyo xalqlarining hayot sharoitlari, mehnati, ilm-u hunaridan xabardor bo‘lish, odamning bilimini oshirish bilan birga ular yaratayotgan muhtasham imoratlar, qulay asbob-uskunalar, jozibador buyumlardan zavq oladi. Bular esa insonning muayyan darajada estetik didini o‘stiradi.

M.Behbudiyning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlarini quyidagi bosqichlarda o‘rganish mumkin:

ta’limning ongliligi;
ko‘rgazmalilik;
sistemalilik va izchillik;
asoslanganlik;
nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi.

Ta’limda, albatta, onglilik talab qilinadi. Muallif davrining ko‘pchilik eski maktab darslari quruq mexanik ravishda yodlashdan iborat edi. Behbudiy bunday o‘quv sistemasiga qarshi chiqdi. Har bir o‘quvchi ta’limga ongli, ijodiy yondoshmog‘i zarurligini uqtirdi. Shuning uchun ham uning maktabi shogirdlari ba’zi maktablardagi 10-15 yillab o‘qib savodi chiqmagan shogirdlardan farqli o‘laroq, olti oyda o‘quv-yozuvdan to‘la xabardor bo‘lar edi.

Behbudiy didaktikasida ko‘rgazmalilik muhim o‘rinda turadi. Chunki, bu jarayon ta’limni ishonchli, aniq va qiziqarli qiladi, bolaning kuzatish qobiliyatini va tafakkurini rivojlantiradi. Behbudiy o‘z maktabida ko‘rgazmali qurollardan keng foydalangan. Masalan, geografiya darsini o‘tishda dunyo xaritalari, daryo va dengizlar, turli irqdagi odamlarning suratlari va juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan globusdan foydalangan. Ko‘pchilik avom ota-onalar globusni bolalarga ko‘rsatishni shariatga zid deb bilganlar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ayniy S. Eski maktab. Toshkent: G‘afur g‘ulom. 1988 yil, B.183.
2. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish. T.: O‘zbekiston. 1960. – B.550.
3. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent:-Yozuvchi. 1994. –B. 32.
4. Aliyev A. Ijod va izlanishlar. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1976 yil. –B. 187 .

Zulfiya MARUFOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O‘zDSMI
Mashhura OLIMOVA,
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti 1-bosqich talabalasi
O‘zDSMI

JADID MADANIYATIDA AYOLLAR MASALASI

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragidagi ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning tutgan o‘rni va jamiyat taraqqiyotidagi ishtiroki, bu masalalarning jadid matbuotida yoritilishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, matbuotda musulmon ayollarining bevosita ishtiroki xususidagi mulohazalar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *jadid matbuoti, tarbiya, savodxonlik, ayollar ozodligi, ijtimoiy huquq, ilm, gazeta, jurnal.*

Abstract. *The article discusses the role of women in social life and their participation in the development of society in the late 19th and first quarter of the 20th centuries, as well as the coverage of these issues in the modern press. It also presents observations on the direct participation of Muslim women in the press.*

Key words: *modern press, education, literacy, women's freedom, social rights, science, newspaper, magazine.*

XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragidagi ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning tutgan o‘rni, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ishtiroki masalalari Turkiston ma’rifatparvarlarining e’tibor markazida bo‘ldi. Shu davrda musulmon ayollariga haq-huquqi cheklangan, eriga qaram bo‘lib o‘tiradigan, faqat bola tug‘ib, tarbiyalab, oilaga qarash uchun uchun yaratilgan insonlar sifatidagi qarashlar mavjud edi. Tarix fanlari doktori, professor **Sanobar Shodmonova** bu haqida o‘z fikrini quyidagicha bayon qiladi: *Mazkur obrazning kishilar ongiga singib qolishiga asosiy sabab ularning islom olamiga mansubligi edi. Musulmon xotin-qizlarining huquqsizligi haqidagi tasavvurlar mustahkam o‘rnashib qolgan edi. Haqiqatda esa*

bunday qarashlar evropaliklarning musulmonlar an'analari va qadriyatlarini boshqacha qabul qilganligidan kelib chiqadi [1].

Jadid adabiyotida ayollarning jaholat botqog'idan chiqib, ilm-ma'rifat yo'liga kirishi mavzusiga bag'ishlangan asarlar ko'paydi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi, Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasidagi Maryam, Behbudiyning "Padarkush" dramasidagi Boybucha va Liza, A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi Ra'no timsollarini bunga misol qilish mumkin.

XIX asr oxiridan boshlab matbuotda turkistonlik xotin-qizlar ahvoli ijtimoiy muhokama mavzusiga aylandi va bu munozaralar, asosan, islom qadriyatlari asosida olib borildi. Musulmon ayollarini savodli va ma'rifatli qilish, ijtimoiy hayotda faolligini oshirish masalalari qizg'in muhokamalarga sabab bo'luvchi maqolalar soni ko'paya boshladi.

Jadid matbuotidagi ayollar o'rnini ikki nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin:

1. Jadid matbuotida xotin-qizlar mavzusi
2. Jadid matbuotida ayollarning ishtiroki.

Xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o'rni, ularning huquqlari va vazifalari o'lkadagi birinchi o'zbek tilidagi gazeta «Turkiston viloyatining gazeti» sahifalarida ham munozara qilindi.

1911-yilda ushbu gazetada chop etilgan «Musulmon ayolining ahvoli» maqolasida o'sha davrda Fransiyada chop etilgan «Musulmon» nomli jurnalda e'lon qilingan «Xotun» sarlavhali maqola ko'chirib bosiladi. Bu maqolaning muallifi noma'lum bo'lib, unda musulmon xotin-qizlarini ozod qilishga da'vat etiladi, ayollarning jamiyatda faol ishtirok etmasligi musulmonlarni taraqqiyot yo'lidan to'xtatganligini ta'kidlab, bu holni hukm surayotgan turg'unlik va qoloqlikning sabablaridan biridir, deb qayd etiladi. Mazkur maqola muallifi jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvoli hamda xotin-qizlar ahvoli o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatishga urinadi.

Biroq bu davrda jamiyatda xotin-qizlar masalasi bo'yicha ziddiyatli fikrlar mavjud edi. 1912-yilda «Turkiston viloyatining gazeti»da chop etilgan «Xotin kishi erkaklar bilan barobar emas» nomli maqolada ayollarning huquqlarini erkaklar bilan har sohada tenglashtirishga harakat qilayotgan taraqqiyparvarlar fikri qattiq tanqid ostiga olinadi. Jadidlar Amerika va Yevropa aholisiga taassub qilib, yosh turklar kabi xotin-qizlarning huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirish masalasini ko'tarayot-ganligi Turkiston sharoiti uchun muvofiq emas, deb baholanadi. Muallifning fikricha, xotin-qizlarning hayotdagi o'rni butunlay boshqa – faqatgina farzandni dunyoga keltirish va ularni sut berib tarbiya qilmoq bo'lgan. Albatta ayollarga ham ilm va tarbiya kerakligini inkor etmaydi, lekin ularga har xil erkaklarga munosib ishlar va huquqiy bilim berish loyiq va munosib emas, deb ta'kidlaydi. Bunday fikrlovchilar jamiyatda ko'pchilikni tashkil etar edi.

«Turkiston viloyatining gazeti»ning 1913-yildagi bir nechta sonida «Vaqt» gazetasining muharriri Fotih Karimovning Toshkentdan Orenburgga borgan 16 yoshli Toyfa xonimning safari to'g'risidagi xabari beriladi. Toyfa xonim evropacha kiyimda Orenburgga safar qiladi, u yerda ikki hafta istiqomat qiladi, bir qancha maktab va madrasalarni, masjidlarni, shuningdek «Vaqt» gazetasining idorasini,

musulmonlarning xayriya kutubxonasini borib ko‘radi. Muxbir Toyfa xonimning Orenburgga tashrifini sahroda ochilgan birinchi gulga o‘xshatib, keyin sahroda ko‘p gullar ochilishi – musulmon yoshlari ittifoq bo‘lib, «qorong‘ida qolgan millatlarni yoriqqa chiqarib, ularni taraqqiy yo‘liga solishini, o‘z Vatanlariga manfaat etkazishiga sabab bo‘lurlar erdi» [2], deb yozadi. Toshkent shahar qizlar gimnaziyasida o‘qigan Toyfa xonimdan boshqa qizlar ham ibrat olishlariga chaqiradi.

«Vaqt» gazetasining maqolasiga javoban «Turkiston viloyatining gazeti» sahifasida Toyfa xonimni ibrat qilib ko‘rsatish boshqa musulmon qizlarini yo‘ldan ozdirishdir, degan mazmunda noma’lum muallifning maqolasi e’lon qilinadi va Fotih Karimovdan bunday targ‘ibot uchun uzr so‘rash talab qilinadi [2]. Maqolada islom qonunchiligiga binoan, musulmon xotin-qizlari mahram erkaksiz uch kundan ortiq uzoq joyga safar qilmoqligi mumkin emas, degan ko‘rsatmasi ro‘kach qiladi.

Ma’lumki, bu davrda o‘lkaga teatr san’ati kirib keladi, unda xotin-qizlar ham ishtirok eta boshladi. Lekin ayollarning ochiq ravishda teatr o‘yinlarida ishtirok etishini o‘lka musulmonlari ziddiyatli qarshi oldi. 1909-yil 29-noyabrda Olimzoda degan muallifning «Turkiston viloyatining gazeti»da maqolasi chop etiladi. Unda ayollarning paranjisiz yurishlari qattiq tanqid ostiga olinadi.

XX asrning boshiga kelib, ayollarning jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki masalalari ham ko‘tarila boshlaydi. 1912-yilning 15-iyulida «Turkiston viloyatining gazeti» e’lon qilgan «Xotinlar qozi bo‘la oladimi?» nomli maqolasida taraqqiyparvar kuchlarning musulmon ayollari qozilik mansabiga tayinlanishi fikri yuzasidan munozara olib boriladi. Maqola muallifi taraqqiyparvarlarning fikriga qarshi chiqadi hamda xotunlar qozilik mansabiga tayin etilish mumkin emas, chunki ular majlislarda erkaklar bilan muomala qila olmaydi, degan fikrni keltiradi.

Umuman olganda, matbuotda ayollar qismatidan norozi bo‘lib yozilgan maqola va xabarlar paydo bo‘lgan, ayollarning ham ilm olishi va saylovlarda ishtirok etishi kerakligi ta’kidlangan bo‘lsa-da, amalda XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Turkiston ayollarining huquqiy ahvolida deyarli o‘zgarishlar ro‘y bermadi. Asrlar mobaynida ayollarning qon-qoniga singib ketgan aqida – ayollar faqat uy ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishi kerakligi norozilik uyg‘otsa-da, ular o‘z ozodligi uchun kurashish masalasini ko‘tarib chiqishmagan, ular ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishmagan. Zero, fikri ozod, erki qo‘lida bo‘lgan, ilmli ayolgina erkin fikrlovchi farzand, jamiyatning etuk shaxsini tarbiya qila oladi. Buni yaxshi anglagan Turkiston taraqqiyparvarlari matbuot sahifalarida ayollar masalasini ko‘tarib chiqdilar, birinchi navbatda ularga ilm berish kerakligini ta’kidladilar. Rauf Muzaffarzoda o‘zining “Yangi yildan eski tilaklar” nomli maqolasida milliy matbuot qanday bo‘lishi va qaysi yo‘nalishda rivojlanishi haqida fikr bildirar ekan, “erlarimiz ham, xotin-qizlarimiz ham maishat, tarbiya va dunyo ila tanishtursun va onlarning fikrlari ochub ahvoli olamdin xabar bersun”, deb davr uchun eng zarur bo‘lgan muammolarni yozishga da’vat etadi.

Hoji Muinning “Yoshlarimiz va qizlarimiz tarbiyasi” maqolasida qizlarni o‘qitish masalasi ko‘tariladi. Halimiy nomli muallif «Ishtirokiyun» gazetasida: «... Go‘zal tabiatli bir ona o‘zi kabi bir bola etishtiradir, axloqsiz xotun jamiyat shar’iyaga o‘zi kabi bola etishtiradi! Yaxshi bir maktabda o‘qigon bir ona bir bola

vujudga ketursa, u holda buningda qiz bolalarda maktablarga rag‘bat etmagingiz lozimdur», deya ayollarni bilim olishga targ‘ib qiladi. Yukoridagi chiqishlar maxalliy millatlar ayollarining ham ijtimoiy faolliklarini oshirishga ma’lum darajada ta’sir etgan. Chunki ilm-ma’rifatli bo‘lgan kishi albatta o‘z ayolining shunday bo‘lishini xohlaydi va uning ham ma’rifatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratib berishga intiladi.

1875-yilda “Turkestanskie vedomosti” gazetasi sahifalarida P.Mayevning “O‘rta Osiyo xotin-qizlarining huquqlari” sarlavhali maqolasi bosilib chiqadi, unda “O‘rta Osiyo ayollari bir qarashda huquqlari toptalgan, hech kim ular bilan hisoblashmaydigan bo‘lib ko‘rinsa ham, chuqurroq tahlil qilinsa unday emasligi ko‘rinadi. Qur’onda ham ayollarning haq-huquqlariga alohida e’tibor berilgan, ularga qul sifatida qaralmagan, ularning ajrashish huquqi, merosdagi huquqlari cheklanmagan, hatto nikohsiz tug‘ilgan bolalarning ham merosiy huquqlari cheklanmagan”, degan fikr bildiriladi.

O‘rta Osiyoda ancha yashagan, mahalliy xalq hayoti bilan yaxshi tanish bo‘lgan, hatto mahalliy qizlardan birini asrab olgan er-xotin V. Nalivkin va M. Nalivkinalar ham musulmon ayollarining huquqlari shariat va odat bo‘yicha qattiq himoya qilingan, Yevropadagiga nisbatan bu erda erkaklar zulmkorligi kamroq va ayollar ko‘proq huquqga egadirlar, deb yozganlar [3].

So‘fizodaning “O‘qing onalar”, Tavalloning “Hamshiralar tilidan”, Rauf Muzaffarzodaning “Yangi yildan eski tilaklar”, ayol jadidlaridan Sora Muzaffariyaning “Ayb o‘zimizda”, Salima Yoqubova va Mahfuza Maqsudovalarning “Muallimalik masalasi” kabi maqolalarda xotin-qizlarni o‘qitish borasidagi turli fikrlari berilgan.

Lekin musulmon ayollari orasida teng huquqlik istagi alanga olgan ilg‘or fikrli kishilar ham yo‘q emas edi. Asta-sekin bunday munozaralarda ayollarning o‘zlari ham ishtirok eta boshladi. Ular gazetalarga o‘z ahvollarini bildirib xat yozib murojaat qildilar va shu tariqa Turkistondan boshqa joylarda ham ommani o‘z ahvolidan boxabar qilishni maqsad qildilar. Chunki, ular murojaat qilayotgan gazetalar, xususan «Turkiston viloyatining gazeti» nafaqat Turkiston, balki Rossiyaning boshqa shaharlarida ham tarqalgan edi. Bu harakatlarni, asosan, tatar ayollari boshlab berdilar.

«Turkiston viloyatining gazeti»ning 1913-yil 28-noyabr sonida tatar ayollarining musulmon ayollariga erkaklar bilan teng huquq berish va ozodlik talab etilib yozilgan *“Musulmon xotin-qizlarning teng huquqlik to‘g‘risidagi xati”* bosib chiqariladi. Ushbu murojaatga javoban ayol mualliflarning Turkiston xotin-qizlari hayoti, kundalik turmushi bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni kengroq yoritgan maqolalari vujudga keldi. Shu o‘rinda Sora Muzaffariyaning “Ayb o‘zimizda” nomli maqolasi diqqatga sazovor. Unda Turkiston xotin-qizlarining haq-xuquqlari masalasi haqida fikr yuritiladi: “Bizda iste’dod ham bor, qobiliyat ham bor. Ong va fikr ham bor. Bir uy ichigina emas, ba’zi erlar ham o‘rniga keltira olmaydigan, mamlakatlar idora qiladurg‘on quvvat ham bor”. Muallif chor devor asirasiga aylangan, mute, kundosh azobdan ezilgan Turkiston ayollarini birlashishga, eskicha hayot tarzini buzib, yangicha hayot kechirishga chaqiradi. Maktubda “Ammo xotin-qizlarimiz ko‘p qo‘zg‘olmaydurlar, qo‘zg‘olsalar ham matlub darajada emas. Ey

islom xotunlari! O‘n uch asrlik tajriba bizga bunday yashashning natijasi nima va qanday bo‘lishini emdi ko‘rsatdi.

«Siz Sharqiya xalqlarini erkaklari bilinglarki, bizlar johillikdin chiqmaguncha sizlarga ittifoqlik yo‘qdur», deb yoziladi. Dinimiz va payg‘ambarimiz bizga ham ilmni farz qildi» deya, mahalliy ayollarni ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi. Yevropa va Amerika davlatining taraqqiy etganligiga, xalqi yaxshi yashashiga sababchi «ta’limlik onalar» ekanligi, musulmon xalqlarining «qora kunlari onalarning qorong‘ida qolganlikdandur» deb ta’kidlanadi. Ayollarni jaholatda tutish jamiyatga juda qimmatga tutishini aytib, ularga maktablar ochib berishni, ilm o‘rganishni talab qiladilar. Ilm va taraqqiysiz qolgan xalq nobud bo‘ladi, degan fikr aytiladi.

Ta’kidlash joizki, tatar ma’rifatparvar ayollari o‘z davrining mashhur bilim dargohlarida ta’lim oldilar va Turkiston zaminidan xam shu darajadagi yukori bilimga ega bo‘lgan etuk mutaxassislar etishib chiqishiga umid bog‘ladilar. Bunday mazmundagi maqolalarni maxalliy gazetalarning deyarli barchasida kuzatish mumkin.

Qo‘qondagi kizlar maktabi muallimasi, tatar ayoli Komila Muzaffariya «Suyumbeka» jurnalining ta’sis etilishi va keyingi faoliyatining davom etishini Turkistonda turib qo‘llab-quvvatlagan, uning taraqqiyoti yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan mushtariylardan biri hisoblangan va unda o‘z maqolalari bilan ham qatnashib turgan.

Mazkur davrda mahalliy xotin-qizlarga siyosiy huquqlar, jumladan, saylov huquqini berish bo‘yicha sa’y-harakatlar ham bo‘lgan. Buning in’ikosi ham matbuotda e’lon qilingan maqolalarda o‘z aksini topdi.

Sobiq sovet hukumati maorif sohasiga imkon qadar mablag‘ ajratishga harakat qilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad savodsizlikni tez sur’atlarda tamomlab, ayollardan o‘z tarafdorlarini tayyorlash bo‘lgan. 1922-yilning kuzida Turkiston Respublikasi “Ko‘mak” jamiyati tomonidan 16 nafar o‘zbek xotin-qizlari Germaniyaga tahsil olish uchun yuborilgan. Maryam Sultonmurodova (jurnalist), Matluba Muhammad xonim (shoira), Diloro Yusupova (huquqshunos), Xayriniso Majidxonova (hamshira) kabi jadid ayollar xorijdan qaytgach, o‘lkaning ahvoli naqadar xarob ekanligini anglab etganlar. Turkiston xalqini uyg‘otish, savodli qilish, madaniyat o‘choqlarini ochish yo‘lida qilgan harakatlari, matbuotdagi chiqishlari uchun qatag‘onga uchrab, ayanchli taqdir topganlar.

Iste’dodli shoir, dramaturg, pedagog, jurnalist, o‘zbek madaniyati va adabiyotining asoschilari vakili Abdulla Avloniy xotin-qizlarning ilm olishiga, kasb-hunar o‘rganishiga targ‘ib qilib yozgan she’rlari bilan bir qatorda, bu masalada tanqidiy qarashlarini keltirish joiz: *“Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?” – degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchisi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz boshi pahmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar” der.* Maqolada o‘g‘il bolalarga nisbatan qiz bolalarga ilm, hunar ko‘proq zarurdir, degan fikr ilgari suriladi, chunki ular millat tarbiyachilaridir [6].

Xulosa kilib aytganda, XX asr boshlaridagi Turkiston milliy matbuoti o‘lka xalqlarining intilishlari, muammolari, yutuqlarini ochiq-oydin o‘zida aks ettirganligi

bois, bugungi kunda tarix fani uchun qimmatli manba hisoblanadi. Mazkur davr matbuotida shu yillarning asosiy ijtimoiy muammolaridan biri bo‘lgan ayollar masalasi keng yoritib borilgan. Matbuot sahifalarini o‘rganish tahlili shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar masalasi bo‘yicha e’lon qilingan maqolalar soni yillar ketma-ketligida o‘sib borgan. Ayni paytda, manbalar tahlili ayollar tomonidan e’lon qilingan maqolalarning aksariyati tatar ayollariga tegishli ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shodmonova S**.** XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston matbuotida xotin-qizlar huquqlari haqidagi munozaralar. https://einfolib.uz/post/xix-asr-ohiri-xx-asr-boshlarida-turkiston-matbuotida-hotin-qizlar-huquqlari
2. Musulmon xotin-qizlarning teng huquqlik to‘g‘risidagi xati. //Turkiston viloyatining gazeti. 1913. 5 dekabr.
3. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женьщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань: Типография императорского Университета, 1886. С. 138.
4. Права среднеазиатской женьщины //Туркестанские ведомости. 1875. 3 июня.
5. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоq. .ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-avloniy-1878-1934/
6. Андреев Г. Сартовская печать // Туркестанские ведомости. 1916. 14 феврал. 83
7. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Universitet, 1999.
8. Hoji Muin. Oila tarbiyasi. «Mehnatkashlar tovushi» gazetasi, 1918- yil-9 iyul.
9. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2006.
10. Abdujabbarova M. Ma’rifatparvar jadidlarning qizlarni o‘qitish, ilm olish masalalariga bog‘liq qarashlari. International scientific journal science and innovation special issue: “Transformation of education: the role of Women in the development of science”, February 16, 2024. – P.104.
11. Tojimamatova M. Xorijda o‘qigan ayollarnng “aybi” nima edi?. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2023-yil 8-mart.

Mirsoat ISXAKOV,
Kutubxona - axborot faoliyati kafedrasi dotsent v.b.
O‘zDSMI

JADIDC MA’RIFATPARVARLARINING KUTUBXONA PEDOGOGIKASI SOHASIGA QO‘SHGAN HISSASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchi ma’rifatparvarlarning kutubxona sohasi pedagogikasiga qo‘shgan hissalari ilm-marifat tarqatishda hamda*

maktablar, kutubxonalar tashkil qilishdagi bebaho xizmatlari yoritilgan. Jadidchilarning noshirlik sohasidagi faoliyatlari ham diqqatga sazovor.

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, kitobatchilik madaniyati, kommunikatsiya, fikrlash, komil inson, jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik.*

Abstract. *This article highlights the contributions of Jadidist enlighteners to library pedagogy, their invaluable services in the dissemination of knowledge and the organization of schools and libraries. The activities of Jadidists in the field of publishing are also noteworthy.*

Key words: *education, book culture, communication, thinking, perfect person, physical, mental, moral and aesthetic.*

XX asr boshlarida Namangan shahrida olti uyezd matbaasidan tashqari "Matbaa uyi Is'hoqiya"(1909-1913 yillar), so'ngra M.N.Abdusattorboyev (1909-1917 yillar)ning tosh bosmaxonalari faoliyat yuritgan.

To'raqo'rg'onlik taraqqiyparvar ziyoli Is'hoqxon Junaydullayev (taxallusi Ibrat) rus tili bilan birga arab, fors, hindi, turk, o'zbek, rus tillarini o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta al-sinna" ("Olti til lug'ati") asarini yozib tugatdi. Uning mazkur lug'atini tuzishdan maqsadi o'zbek xalqiga rus tilini o'rgatish, unga qiziquvchilarni talabini qondirishdan iborat bo'lgan. Shuning uchun ham u rus tili qoidalarini bilmaydigan kishilarga tushunarli bo'lishi uchun ruscha so'zlarni arab alifbosi bilan ham ifodalaydi. Is'hoqxonning lug'ati podsho hukumatining Turkistondagi nashriyot ishlari bo'yicha noziri, missioner N.Ostroumovning bir necha yillik to'sqinlik qilishlaridan so'ng 1901-yilda Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan V.M.Ilchin bosmaxonasida chop etiladi. Is'hoqxon "Lug'oti sitta al-sinna" kitobini nashr ettirgandan so'ng bosmaxona ochish mo'ljallini olib, uning anjomlaridan qaysi turini o'zi yashayotgan sharoitda ishlatish qulay ekanligini hisob-kitob qilib ko'rgandan so'ng Turkiston general-gubernatori mahkamasiga litografiya, ya'ni toshbosma ochish uchun iltimosnoma yozadi.

Sankt-Peterburgdan ruxsatnoma kelmasa-da, u o'zining navbatdagi asari "San'ati Ibrat qalami Mirshabi Badiiy"ni tayyorlab, uning nashriga ruxsat olish uchun Sankt-Peterburg senzorining Bosh boshqarmasiga yo'llaydi. Is'hoqxon Junaydullaev bosmaxona ochishga ruxsatnoma olmagan bo'sa-da, tavakkal qilib 1907-yilda Orenburgdan litografiya uskunalarini katta mablag' va mashaqqatlar evaziga avval Qo'qonga poezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'ongacha tuyalarda yetkazib kelishga muvaffaq bo'ladi Xuddi shu yilda nashr etishiga ruxsat so'ralgan yuqoridagi nomdagi kitobini chop etish uchun ruxsatnoma qo'lga tekkach, ushbu kitobni nashr etishdan o'z faoliyatini boshlaydi.

Toshbosma matbaa "Matbaa Is'hoqiya" deb nomlanib, o'sha paytda poligrafiya ishidan yaxshi xabardor bo'lgan Husayn Makayev matbaani ishga tushirishda Ibratning asarini chop etishda yaqindan yordam bergan edi. Is'hoqxon toshbosmaning shaxsiy muhrini ham ishlab chiqqan bo'lib, uning ko'rinishi nur sochayotgan quyoshni eslatar va o'rtasida "ilm" so'zi o'yib yozilgan edi. Ana shu ramziy tamg'a mazkur litografiyada nashr etilgan barcha bosma mahsulotlarda aks

ettirilgan. Is'hoqxon ishini yo'lga qo'yish jarayonida litografiyani yanada kengaytirish maqsadida qo'shimcha matbaa anjomlari keltirdi.

Kitobga talabning ortib borishi natijasida litografiya Namangan shahriga ko'chirildi. Unda katta hajmdagi kitoblar nashr qilina boshlanishi "Matbaayi Is'hoqiya"ning Turkiston miqyosiga ko'tarilishiga olib keldi.

Farg'ona vodiysidagi bosmaxonaning mahsulotlari yil sayin oshib borishi shahar va qishloqlarda kitob do'konlarining ko'payishiga olib keldi. Jumladan, Namangan shahrida 1879-yilga qadar faqat bitta kitob do'koni faoliyat yuritgan bo'lsa,1908-yilga kelib ularning soni 16 taga etdi.

Ma'rifatparvar ziyoli bo'lgan Ibrat o'zining bizgacha etib kelgan "Ibrat lirikasi", qadimgi hindi, yunon, arman va boshqa millatlarning yozuvlari tarixiga bag'ishlangan ilmiy asari "Jome ul-xutut" ("Yozuv tarixi to'plami") kabi asarlarini ham 1909-1911-yillarda nashrdan chiqardi.

"Matbaayi Is'hoqiya" 1913-yildan boshlab M.Abdusattorboyev ixtiyoriga o'tdi. 1917-yilga qadar faoliyat yuritdi. 1918-yilda esa matbaa davlat ixtiyoriga o'tkazildi.

Ko'p yillar davomida ushbu matbaa Namangan viloyatining gazetalari turli nomlarda nashr etilib turilgan, 1958-yildan viloyatlar miqyosidagi matbaa darajasiga ko'tarilib, nomi "Udarnik" deb o'zgartiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgach, matbaa nomi qayta tiklanib, "Ibrat" deb nomlandi. Unda vaqtli matbuot nashrlaridan tashqari turli kitoblar va boshqa bosma nashr mahsulotlari ham chop etila boshlandi.

Ibratning hayot yo'li ham ibratli bo'lib, 15 yil qozilik qilgan, ijod bilan shug'ullangan, maktablar ochish, o'qituvchi kadrlar yetishtirish, savodsizlikni tugatish kabi tadbirlarda ham faol qatnashgan, o'z uyida maktab ochgan. Uning tashabbusi bilan 1918-yilda Namangan o'zbek xotin-qizlari uchun birinchi maktab ochiladi va Husayn Makayevning rafiqasi Fotiha Makayeva o'zbek ayollariga dars bera boshlaydi. Ibrat 1937-yilda 3-fevralda tuhmat orqali qamalgan, qamoqda kasallanib, shu yilning 19-iyunida 75 yoshida vafot etgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida "Usuli jadid" maktablari uchun alifbo va o'qish kitoblari chop ettirishga alohida e'tibor berganini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, Turkiston maktab maorifi tuzilishining tashkilotchisi va targ'ibotchilaridan biri Saidrasul Saidazizov (Aziziy) tashkil etgan Usuli savtiya (Jadidiya) maktablari Toshkent, Qo'qon, Samarqand va boshqa shaharlarda shu singari yuzlab maktablarning ochilishiga sabab bo'lgan edi.

Xuddi shuningdek, uning ilk bora 1902-yilda chop etilgan va 1917-yilgacha juz'iy o'zgarishlar bilan 17 marta nashr qilingan "Ustodi avval" alifbosi o'zidan keyin ellikka yaqin alifbo va o'qish kitoblarining yaratilishiga yo'l ochib berdi.

1. Alifbolar. 2. O'qish kitoblari (majmualar). 3. Axloq kitoblari (pandnomalar). 4. Diniy adabiyotlar namunalari.

Birinchi guruhga Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval"i (1902), Munavvarqorining "Adibi avval"i (1910), Qori Usmon Abdulxoliq Shoshiyning "Ta'limi avval"i (1910), Abduvahob ibn Abdullo Xo'qandiyning "Tahsili alifbo"si (1912), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim"i (1912), Mullo Rustambek ibn Yusufbek Hojining "Ta'limi avval"i (1914) va boshqa o'nlab alofbolar kiradi.

Ularning o‘ziga xosligi birinchi qism dars o‘qitish uslubiyoti va alifboni o‘rgatishga bag‘ishlangan hamda harflarni o‘rganish jarayonida xalq og‘zaki ijodining eng kichik janrlari maqol, topishmoq va hikmatli so‘zlardan foydalanganligida. Ikkinchi qismi esa, kichik hajmli she’riy va nasriy ibratli hikoya va masallardan tashkil topganida namoyon bo‘ladi.

Alifbolar tarkibidagi she’r, hikoya, masallar hamda she’riy va nasriy usullardagi turli kichik asarlarning tuzilishi va mavzusiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Tuzilishiga ko‘ra: xalq og‘zaki ijodi, Sharq qayta yaratilgan an’anaviy xarakterdagi asarlar; rus adabiyotidan tarjimalar; mualliflarning o‘zlari yaratgan kichik asarlar.

2. Mazmuniga ko‘ra: ilm-ma’rifat mavzusidagi asarlar; axloq-odob mavzusidagi asarlar; masallar; diniy xarakterdagi asarlar.

Alifbolar tarkibiga kiritilgan asarlarning bir qismi sof adabiy xarakterda bo‘lib, bunday nasriy va nazmiy hikoyalar Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”ida 16 ta, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”ida 6ta, Munavvarqorining “Adibi avval”ida 8 tani tashkil etadi.

Alifbolar tarkibining ikkinchi qismi esa maktab va ilmning xosiyati, ota-onaga xurmat, xulq va adab, yaxshi va yomon sifatlar haqidagi publitsistik ma’lumotlardan tashkil topgan. Uchinchi qismi esa Payg‘ambarimiz Muhammad Alayhissalom e’tiqod va islom dini haqidagi dastlabki diniy ma’lumotlardan iborat.

Jumladan, Saidrasul Aziziy Muhammad Alayhissalomning hayoti haqida qisqacha ma’lumot berib, nima uchun musulmon hisobidagi yilboshi Muharram oyining avvalidan boshlanishigacha izoh berib o‘tadi.

Bundan tashqari, u Iso Alayhissalomning hayoti xususida ham ma’lumotlar berib, milodiy hisobning Isoning tug‘ilishidan boshlanishi haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga etkazgan.

XX asr boshlaridan maktab darslari yo‘nalishining ikkinchi guruhini o‘qish kitoblari (majmua, xrestomatiyalar) tashkil etadi. Aliasqar ibn Bayramali Kalinanning “Muallim us-soniy” (1903), Munavvarqorining "Adibi avval" (1909), Sadriddin Ayniyning “Taahlib us-sibyon”(1909), Serinboy Akayevning “Xrestomatiya", ya’ni terma kitob (1901), Mulla G‘ulomiddin Akbariy (Kabirzoda)ning “Ta’limi soniy” (1912), Abdulla Avloniyning "Ikkinchi muallim" (1912), “Adabiyot” (Milliy she’rlardan 1-4 juzlar) (1905-1915), Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yengil adabiyot", "O‘qish kitobi"(1914), Muhammadamin Faxriddinovning "Rahbari soniy" (1916) kitoblari va boshqa o‘nlab o‘qish kitoblari ushbu guruhga kiradi. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, tabaqalashtirilgan tarzda bosqichma-bosqich, soddadan murakkabga tomon rivojlantirib borish ushbu darsliklarning asosiy maqsadi bo‘lgan.

Ushbu tarixiy davrdagi kitobatchilik madaniyatiga bilimlar tarqatishda Mahmudxo‘ja Behbudiyning faoliyati alohida o‘rin tutadi. Uning ushbu faoliyati o‘zi tomonidan tashkil etilgan "Samarqand" gazetasi, "Oyna" jurnali va boshqa ko‘pgina gazeta-jurnallarda nashr etilgan 300 ga yaqin maqolada aks ettirilgan.

Ayniqsa, "Oyna" jurnali nafaqat Turkiston o‘lkasida, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Avg‘oniston, Turkiyada ham keng tarqalgan.

Maktab ishi xalq orasida ma’rifat tarqatish Abdulla Avloniy faoliyatining bosh yo‘nalishlaridan biridir. Yangi maktabning afzalligini shunchaki targ‘ib qilish o‘z o‘quvchilari misolida ko‘rsatish kifoya qilmasligi, yangi o‘quv tizimining tamoyillaridan kelib chiqqan holda darsliklar yaratish zarurligini chuqur anglab Avloniy 1909-1917-yillar davomida maktablar uchun maxsus 10 dan ortiq kitoblarni yaratdi.

Uning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” , “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darsliklari, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to‘plami inqilobga qadar bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko‘p yangi usul maktablari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lum sabablarga ko‘ra bosilmay qolgan “Uchunchi muallim”, “Maktab jo‘g‘rofiyasi”, “Hisob masalalari” singari darslik kitoblari haqida ham adibning zamondoshlari juda iliq fikrlarni bildirganlar.

Darhaqiqat, bu asarlar inqilobgacha bo‘lgan o‘zbek maktabi, pedagogik fikri taraqqiyoti tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Abdulla Avloniy 1910-yil yillarda “Nashryot”, “Maktab“ kabi turli shirkatlarning dunyo yuzini ko‘rishida ham juda katta xizmatlarni amalga oshirdi .

1914-yil 19-sentabrda ta’sis etilgan “Nashryot” shirkatining 28 punktli rus va o‘zbek tillarida yozilgan shartnomasida uning asosiy maqsadi Turkiston o‘lkasidagi musulmon aholisi o‘rtasida

Umumyevropa madaniyati va ma’rifatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyishidan iborat deb ko‘rsatiladi. 1916-yil 18-martda tuzilgan notarus Degarov tasdiqlagan “Maktab” shirkatining 37 banddan iborat bo‘lgan shartnomasida ham shu maqsad tilga olinadi. Ushbu shirkatning muassislari orasida Abdulla Avloniy bilan birga M. Podshoxo‘chayev, Nizomiddin Xo‘chayev, Shokirjon Rahimov.

1907-1910-yillarda “Ta’lim alifbo”, “Ta’limi soniy” kabi darsliklar yozib, 1918 yilda Toshkentda Langar mahallasida xotin-qizlar maktabi ochgan Rustambek Yusufbekov singari taraqqiyparvarlar ham bor edi.

Shu davrda ko‘plab kitoblari bilan madaniyatni rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan, zabardast adabiyoshunos va olim Fitratning ijodi alohida o‘rin egallaydi. (1886-1938)

Fitrat tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra 18 yoshiga qadar eski maktablardan birida, so‘ng mashhur Mir Arab madrasasida o‘qidi. 1909-1913-yillarda Istanbuldagi “Dorulmualliman”da tahsil oldi. Turkiyadagi muhit uning siyosiy qarashlariga qattiq ta’sir ko‘rsatishi natijasida u siyosat va badiiy ijodga berildi.

1909-yilda “Munozara” (Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilg‘on munozarasi) asari Istanbulda nashr qilindi. 1911-yilda “Sayha” to‘plami, 1912-yilda “Sayyoh hindi” (Bayonoti sayyohi hindi) kitoblari bosilib chiqdi.

1913-yilda u Buxoroga maorif va ijtimoiy-madaniy qurilishiga oid yangi g‘oyalar bilan qaytib keldi. Biroq ushbu g‘oyalarni mutaassib Buxoroda amalga oshirish imkoniyati bo‘lmaganligi uchun Shahrisabz va Karkida yangi maktablar ochish bilan shug‘illandi.

Fitrat qisqa muddatda Buxoro jadidchilik harakatining etakchilaridan biriga aylandi.

Uning shu paytda yaratilgan “Rahbari najod” (1915), “Oila” (1915), “Begijon” (1916), “ Mavludi sharif” (1916), “Abo Muslim” kabi asarlari publisistika va dramaturgiyaning nodir namunalari bo‘lib qoldi. Ayni paytda Fitrat yangi maktablar uhun darsliklar ham yozdi. “Muxtasar islom tarixi” (1915, Samarqand), “O‘qu” (1917, Boku) kitoblari shular jumlasidandir.

Fitrat 1919-1920-yillarda Afg‘onistonning Toshkentdagi Elchixonasida tarjimonlik qildi. Uning bu paytdagi katta xizmatlaridan biri “Chig‘atoy guruhi” jamiyatini tashkil etganligi bo‘ldi.

O‘tmish merosimizni o‘rganish va ulardan xalqni bahramand etish, ajdodlar va avlodlar o‘rtasida ruhiy bog‘liqlikni hosil qilishda jamiyat katta rol o‘ynadi

Fitrat Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan birga mualliflikda 1918-yilda “Ona tili” darsligini nashr ettirdi.

1919-yilda “Bitim yo‘llari” degan o‘quv qo‘llanmasini chop ettirdi. “Bitim yo‘llari” unlilar imlosi haqidagi kitob bo‘lib, “Chig‘otoy guruhi” qoshida ham maxsus imlo guruhi ish olib bordi.

Til va imlo masalasida, uning sofligi va tozaligi masalasida 1920-yildan chiqa boshlagan “Tong” jurnali katta ishlarni amalga oshirdi. Ushbu jurnalning tashkilotchisi va muharriri Fitrat, tahrir hay‘ati esa Botu va Elbekdan iborat edi.

Rus pedagoglaridan biri, shoir Karion Istomin kitobni maktab bilan bir qatorda ta’lim-tarbiyani yoyishning qudratli vositasi deb hisoblagan, uning ta’biri bilan aytganda, qalbga shodlik, ko‘ngil musaffoligi keltiradi, chunki “Kitob o‘qish shirin lazzat beradi…" [7]. U tarbiyaning asosiy vazifasini odob-axloq, mehr-oqibat, ma’naviy poklik, xayrixohlik, mehnatsevarlikni shakllantirishda ko‘rdi. Bularning barchasi u yaratgan o‘quv va bolalar kitoblarida o‘z ifodasini topdi. K. Istomin ijodiga xos xususiyat bola dunyosini, bolalik davrining xususiyatlarini, bolalar tomonidan adabiy asarlarni idrok etishga intilishdir.

Shuni ta’kidlash joizki, yosh avlod tarbiyasi uchun butun sivilizasiyalashgan dunyo madaniy xazinalaridan o‘zlashtirilgan asarlar: Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Hindiston, Vizantiya, Eron, Arab Sharqi, turkiy tilli xalqlar, o‘rta asrlar Fransiyalari keng qo‘llanilgan, Italiya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlar. Ayniqsa XVII asr rus bolalari o‘zlarining tushunishlari uchun maxsus moslashtirilgan ertak-qissa, ertak-roman, publisistik asarlar, tarixiy va ma’rifiy asarlarni o‘qiydilar. Bularning barchasi bolalarni jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanshtirish, kitob va o‘qishga qiziqishni uyg‘otishga harakat qilganliklaridan dalolat beradi. O‘qish to‘garagiga adabiyot tanlashda bolalarning yosh imkoniyatlari hisobga olinadi.

XIX-asrning oxiriga kelib talabalar o‘quv kutubxonalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar, garchi bunday kutubxonalarning zahirasi hali ham kichik edi. To‘shkentda eng yaxshi kitoblardan tashkil topgan “Turon” kutubxonasiga asos solindi. Ilm va madaniyatini tarqatish markazi ziyolilar kutubxonasi edi.

Shaxsiy kutubxonalar ta’lim va ma’rifatda muhim rol o‘ynadi. Ular, asosan, hukmron tabaqa vakillari yoki ziyolilar tomonidan to‘plangan. 1913-1915-yillarda

Behbudiyning noshirlik, kitobatchilik ishi sohasidagi faoliyati ham to‘la namoyon bo‘ldi. Jumladan, u shu yillari Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Qo‘qon, Namanganda kitob do‘konlari tarmog‘ini ham tashkil etdi.

Samarqanddagi kitob do‘koni uning o‘z hovlisida joylashgan edi. Uning tomonidan Samarqandda "Kutubxonayi Behbudiya" ham tashkil etilgan bo‘lib, bundan Turkiston o‘lkasida madaniy hayot sohasida ulkan hodisa bo‘lgan edi.

"Kutubxonayi Behbudiya" o‘z vazifasidan tashqari kitob savdosi bilan ham shug‘ullangan. Mazkur muassasaga tashrif buyurgan har bir kishi o‘ziga ma’qul bo‘lgan kitobni xohlasa kutubxonaning alohida fondidan pulga sotib olishi ham mumkin bo‘lgan.

Bu fondga joylashturilgan kitoblarning bir qismini Behbudiy o‘zining 1899-1900 yillardagi va 1914-yilda amalga oshirilgan safarlaridan, qolgan qismini esa Turkiston o‘lkasining turli hududlaridan, Rossiya imperiyasining Sank-Peterburg, Qozon, Bog‘chasaroy, Boku, Orenburg shaharlaridan, Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Hindiston, Misr, Livandan yuborilgan edi. Ular orasida "Qur’on"ning har xil nashrlari, hadislar to‘plamlari, dunyoviy mazmundagi, turkiy, fors, arab, rus, nemis, fransuz, ingliz tilidagi kitoblar mavjud bo‘lgan.

"Kutubxonayi-Behbudiya" kutubxonasi fondida mavjud bo‘lgan va kitob do‘konida sotuvda bo‘lgan kitoblarning ro‘yxatlari "Oyna" jurnali muqovasining ichki va tashqi tomonlarida berib borilgan. "Oyna" jurnalining 1913-1915 yillarda chiqqan 70-80 nomdagi kitoblar va boshqa bosma nashrlar ro‘yxati mavjud bo‘lgan.

Ro‘yxatlarga ko‘ra tarix (umumiy tarix, jahon tarixi, alohida minataqalar va mamlakatlar tarixi, musulmon madaniyati tarixi), geografiya (fizik geografiya, jahon geografiyasi, Rossiya geografiyasi, Yaqin, O‘rta, Uzoq Sharq mamlakatlari geografiyasi), nazmiy va nasriy, adabiy asarlar, dramaturgiya, iqtisodiyot, joriy jahon siyosati va mintaqaviy siyosat, jamiyashunoslik, jahon madaniyatiga oid nashrlar mavjud bo‘lgan. Bundan tashqari medisina, ximiya, zoologiya, botanika, turli xalqlar etnografiyasiga oid kitoblar va risolalar ham bo‘lgan.

Tarixga oid kitoblar kitubxona va sotuvdagi adabiyotlarning qariyb uchdan ikki qismini tashkil etganligi Behbudiyning "Moziy istiqbolining tarozisidir" degan so‘ziga qanchalik amal qilganini ko‘rsatadi.

Tarixiy adabiyotlar ichida "Buyuk umumiy tarix", 3 jildlik "Madaniyat tarixi", "Islom tarixi", "Islom olami va Ovrupo XX asrda", "Amir Temur", "Eron tarixi", "Amerikaning kashf etilish tarixi" singari kitoblar bo‘lgan.

Bularning hammasi Behbudiyning noshirlik va matbaatchilik ishidan tashqari bilimlar targ‘ibotiga ham alohida ahamiyat berganligini ko‘rsatadi.

Folklor-(xalq donishmanligini sevish) oxalq amaliy san’ati asarlari bilimlarni tarqatish va bolalarni tarbiyalashda katta yordam berdi. Tadqiqotchilar O‘zbekistonda qo‘shiqlar, ertaklar, afsonalar, dostonlar, ertaklar qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lganligini aniqladilar. Hikoyachilar va baxshilar nafaqat dehqon oilalari, balki shoxlar va zodagonlar orasida ham juda mashhur edi. Deyarli har bir badavlat xonadonda kutubxonalar mavjud edi.

O‘zbek oilalarida ertak aytish yaxshi an’anaga aylangan. Tarixiy rivoyatlar ham bolalarga qiziqarli va tushunarli qilib, ularning tarixga bo‘lgan tabiiy qiziqishini qondirib aytilgan. Birinchi o‘zbek o‘qituvchilari buni yaxshi

tushunishgan. XV-XVI asrlarda bolalar uchun qahramonlik ertaklarni o‘z ichiga olgan "Janggnoma-yilnomalar" tuzilgan.

Shunday qilib, XX asrning oxiriga kelib, bolalar o‘qish pedagogikasi haqidagi dastlabki g‘oyalar rivojlandi. Ular yosh avlodni tarbiyalash, ularni o‘qish va yozishga o‘rgatish zaruratidan kelib chiqqan va o‘qish jarayonini yanada qulay va jozibali qilish masalasini hal qilgan. Bolalarni mamlakatimiz va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobga chuqur qiziqish uyg‘otish, o‘qishni bilim va o‘z-o‘zini tarbiyalash manbai sifatida shakllantirish zarurligi asoslab berildi. Bolalar o‘qishi etakchilari uchun bola dunyosini, bolalik xususiyatlarini va bolalar tomonidan adabiy asarlarni idrok etishni tushunish muhimligi tasdiqlandi. Bu talablar bolalar adabiyotining o‘zida ham, o‘qituvchilar va kutubxonachilar faoliyatida ham amalga oshirildi. O‘qishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishda shaxsiy, oilaviy, diniy va ta’lim kutubxonalari muhim rol o‘ynadi. Bolalarning kitobxonlik doirasi kengayib, ularning kitob va mutolaa bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Bolalarni “tinglovchi” va kitobxon qilib tarbiyalashda oila kitobxonligi alohida o‘rin tutgan.

Jadidlar g‘oyasi Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang. Bu haqda Shavkat Mirziyoev 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida aytib o‘tdi. “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, dedi prezident.

Davlat rahbarining qayd etilishicha, yaqinda Toshkentda o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi konferensiya jahon ilm-fan va madaniy jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish va e’tibor uyg‘otdi. Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida prezident qarori qabul qilinadi. “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayot-gan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyevning 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida so‘zlagan nutqi //Xalq so‘zi, 2023-yil 22-dek.
2. Karimova H. Axborot–kutubxona sohasidagi islohotlar.//Ma’rifat.-№32(9357). – 2021-yil 11-avgust.
3. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: «Sharq» NMAK, 2004. – 496 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.II. – T.: «O‘zbek milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.
5. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari /Mas’ul muxarrir N.Komilov. – T.:Shark, 1996.-144 b.
6. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar.1-jild. – Toshkent, 2023 yil.

7. Zunnunov A., Sulaymonov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integrasiyalash omillari. – T.: 2004.
7. Davlatov S. va boshqalar. Kutubxonashunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2021y. – 4 23 b.
8. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Darslik –Toshkent, Ma'naviyat. – 2004-yil.

ЦАЙ Ирина КОНСТАНТИНОВНА,
И. о. доцента кафедры «Библиотечно-информационная деятельность»
ГИИКУз

Книгоиздательская и библиотечная деятельность джадидов в Средней Азии: цели, реализация, наследие

Аннотация. *В докладе рассматривается культурно-просветительская и общественно-политическая деятельность представителей джадидизма в Средней Азии конца XIX – начала XX века с акцентом на их вклад в развитие книгоиздания и библиотечного дела.*

Ключевые слова: *джадидизм, книгоиздательство, библиотечное дело, Средняя Азия, просвещение, новые школы, типографии, кироатхона, Исмаил Гаспринский, Бехбуди, Ибрат*

Abstract. *This paper examines the cultural, educational, and socio-political activities of the Jadid movement in Central Asia at the turn of the 19th and 20th centuries, with a particular focus on their contribution to the development of publishing and librarianship.*

Key words: *Jadidism, publishing, librarianship, Central Asia, enlightenment, new-method schools, printing houses, kiroatkhona, Ismail Gasprinsky, Behbudi, Ibrat*

Впервые джадидизм возник в 1880-х годах в Крыму среди крымских татар под руководством Исмаила Гаспринского. С 1890-х годов начал распространяться в Средней Азии. Сначала джадидизм был культурным движением. Представители этого течения призывали бороться за прогресс, развивать тюркские языки, обогащать литературу на этих языках, изучать светские науки, использовать достижения науки, а также отстаивать равенство женщин и мужчин. Позже джадиды начали пропагандировать идеи пантюркизма.

Представители движения часто называли себя прогрессивными реформаторами, а затем – джадидами. Передовая интеллигенция того времени осознавала, что местное население отстает от общемирового развития, и

понимала необходимость реформирования общества. Джадидизм по своей сути был политическим движение

Прогрессивные интеллигенты осознали, что народ необходимо пробуждать от вековой отсталости, и начали борьбу за перемены через просвещение. В этих условиях джадидизм нашел благоприятную почву для распространения в Туркестане.

Среди джадидов были выдающиеся ученые, специалисты в области промышленности и сельского хозяйства, деятели культуры, которые мечтали видеть свой край процветающим и независимым. В их борьбе за независимость Туркестана выделялись следующие направления: расширение сети новых школ; отправка талантливой молодежи на учебу за границу; создание различных просветительских обществ и театральных трупп; издание газет и журналов; повышение общественно-политического сознания народа для создания hatsiонально-демократического государства. Именно развитие этих направлений по мнению джадидов должны были способствовать развитию Народов Туркестана.

Основными целями и идеями джадидизма были: освобождение Туркестана от средневековой отсталости и религиозного фанатизма; реформа шариата; просвещение народа; борьба за автономное правительство в Туркестане; введение конституционной монархии и парламента в Бухаре и Хиве; позже – создание демократической республики и свободного, процветающего общества; введение стабильной hatsiональной валюты и создание hatsiональной армии. Достижение этих целей возможно было только через распространение просвещения среди народа.

В таких городах, как Ташкент, Фергана, Бухара, Самарканд и Хива, джадидизм формировался благодаря просветительским обществам и объединениям, созданным прогрессивными людьми.

Сильное влияние на мировоззрение джадидов оказали русско-японская война 1904-1905 годов, Первая русская революция 1905-1907 годов, Иранская революция 1905-1911 годов и младотурецкая революция 1908 года в Турции. Джадиды объединялись вокруг своих газет и журналов, школ нового образца, различных библиотек и читален, а также любительских театральных трупп [1].

Одним из важных направлений деятельности джадидов в Средней Азии была пропаганда в печати своих идей, составной частью которой являлось книгоиздательское дело и библиотечное дело. Они на свои средства издавали научные и литературные труды, учебники и учебные пособия на родном языке, религиозную литературу, а иногда печатали художественную переводную литературу для школ нового типа, созданного ими же. Печатное слово нужно было джадидам, прежде всего для распространения грамоты и просвещения, нужда в которых диктовалась экономическими и политическим развитием региона. Поэтому джадиды всячески способствовали широкому распространению литографии, которая не требовала больших материальных затрат, но благодаря которой можно было увеличить книжную продукцию.

В марте 1909 года по инициативе джадидов и других представителей передовой интеллигенции в Бухаре было создано акционерное товарищество «Ширкати Бухорои шариф» (Товарищество благородной Бухары), задачей которого было в основном издание учебников для школ нового типа. Литературовед Сохиб Табаров отмечает, что издательское товарищество «Ширкати Бухорои шариф» в Бухаре и за ее пределами было известно под названием «Типография Мунзима» [2].

Под руководством А. Мунзима работала библиотека «Маърифат», здесь необходимо подчеркнуть вклад в организatsiи этой библиотеки, а также товарищества «Баракат» представителя эмирской власти Насруллы-кушбеги, который дал бухарским джадидам официальное разрешение на их создание [3].

С. Табаров отмечает, что «члены товарищества «Баракат и библиотеки «Маърифат» собрали вокруг себя группу младобухарцев (бухарских джадидов) и распространяли среди народа газеты, журналы и книги, а также мысли о свободе и в известной степени достигали своей цели в области распространения политического и просветительского образования [4].

Товарищество «Баракат» и библиотека «Маърифат» тесно сотрудничали с издательством бухарского еврея Л. Н. Левинв «Нашриет кутуби исломия» («Издательство мусульманских книг»), которое издавало и распространяло новые литературные и религиозные книги в духе того времени. Так, более 30 наименований книг этого издательства безвозмездно было передано библиотеке «Маърифат» для всеобщего пользования бухарцев. Среди них: «Гул ва булбул» («Цветок и соловей»), «Девони бузурги Хофиз» («Великий диван Гафиза»), «Бедил», «Юсуф ва Зулайхон», «Хикмат», «Тухфат-ул-обидин ва анис-ал-ошикин», «Фикхи Кайдони», «Девони Машраб», «Достони Зайн-ул-араб», «Фарзи айн», «Юсуфбек», «Баёз», «Джангномаи Зуфунун» и др.

Представитель джадидского движения в Ферганской долине – народный казий, просветитель и общественный деятель Исхакхон Джунайдуллоходжа Ибрат (1862-1937) в 1907 г. привозит из Оренбурга литографическую машину и в 1908 г. открывает в родном кишлаке Туракурган близ Намангана типографию «Матбааи Исхокия», что было весьма необычно, учитывая время и отдаленность кишлака. Ибрат издавал учебники, художественную литературу, открытки и открыл несколько книжных магазинов в Туракургане, Намангане, Янгикургане, Чусте и Попе. Позднее при типографии он устроил библиотеку. В типографии «Матбаи Исхокия»были изданы литографированные книги самого Исхакхана Ибрата «Санъати Ибрат» (1908), «Илми Ибрат» (1909), «Джомеъ-ул-хукут» (1912), также «Фикхи Кайдони» (1908) и др [5].

В 1914 году по инициативе и при непосредственном руководстве ведущего представителя ферганских прогрессистов Обиджона Махмудова (1858-1936) в Коканде была открыта типография, где литографическим способом издавались разного рода учебники, религиозные книги, листовки, также газета ферганских джадидов – «Садои Фаргона» и другие печатные издания. Также следует отметить, что в начале XX века в Коканде по

инициативе местных джадидов были открыты библиотеки «Хайрат» («Изумление») и «Мадоро» («Учтивость»).

Большой вклад в деле возрождения книгопечатания в Средней Азии внес лидер туркестанских джадидов Махмудходжа Бехбуди. Его деятельность, направленная на модернизatsiю традиционного уклада жизни общества и просвещения народа, стала олицетворением уникального опыта в сфере книгоиздательства и библиотечного дела в регионе. Он учредил специальное издательство «Нашриёти Бехбудия» («Библиотека Бехбудия») названные в честь его отца. «Нашриёти Бехбудия»выпускал в основном учебные книги и брошюры самаркандских джадидов для новометодных школ. В библиотеке имелась книжная лавка, где можно было продавать издаваемые книги этой типографии.

Другая библиотека «Кутубхонаи Бехбудия» была открыта им в русской части Самарканда по улице Решетникова. Это была не просто библиотека в современном понимании, а библиотека-магазин, где посетители могли купить книги. По свидетельству современника, эта библиотека после смерти М. Бехбуди стала самой большой библиотекой в Туркестане по обилию ценных книг и библиографических редкостей. В этой же библиотеке была открыта «кироатхона» – читальный зал. По распоряжению М. Бехбуди, по воспоминаниям его внука Надима Бехбуди, всем кто приходил читать книги и журналы, в кироатхоне подавали чай с сахаром, необходимый, по его мнению, для питания мозга во время научной работы [7]. В коммерческой библиотеке Бехбуди по доступным ценам в пределах от 20 копеек до 4 рубля 25 копеек можно было приобрести книги и руководства по медицине и здравоохранению: «Тибби нубуви ва табъи оли» («Пророческая медицина и превосходный темперамент»), «Хифзи сихати димог» («Здравоохранение носа»), «Вазъи хамл» («Беременность»), «Киёфатнома» («Книга о физиономии»), «Микруб» («Микроб»), «Илми ахвол-ал-рух» («Наука о сосотоянии духа»), « Рахбари муомилоти завджия» («Руководство по супружеству») и много др.

Абдулло Авлони для оказания помощи новометодным школам и просветительским учреждениям в августе 1914 году в Ташкенте организовал благотворительный фонд, создал кооперативное товарищество «Нашриет» («Издательство») и открыл книжный магазин под названием «Мактаб кутубхонаи» («Школьная библиотека»), который находился на площади Хадра города Ташкента [8].

Известно также о существовании библиотеки «Турон» в Ташкенте, организованной местными джадидами, где было много турецких и крымских изданий новейшей литературы [9].

Тринадцать активистов движения джадидов во главе с М. Бехбуди в Самарканде в 1908 году основали общественную читальню под названием «Кироатхона ва мутолиахонаи» («Мусульманский читальный зал»), который посещали 125 подписчиков [10].

Деятельность джадидов по созданию типографий, библиотек и читальных залов стала значимым шагом в развитии информatsionно-

просветительской среды в Средней Азии. Благодаря их усилиям распространялась грамотность, формировалась hatsionальная самоидентичность, создавались условия для дальнейшего развития культуры и образования. Несмотря на сопротивление со стороны традиционалистов и официальных властей, движение джадидов оказало значительное влияние на модернизatsiю региона и оставило после себя богатое культурное наследие.

Список литературы

1. Джадиды http://mgjxu.uz/ru/menu/dzhadidys
2. Табаров С. Мунзим – руководитель области джадидов и председатель партии младобухарцев. – Душанбе, 2006. – с. 59
3. Табаров С. Мунзим – руководитель области джадидов и председатель партии младобухарцев. – Душанбе, 2006. – с. 80-81
4. Табаров С. Мунзим – руководитель области джадидов и председатель партии младобухарцев. – Душанбе, 2006. – с. 80-81
5. Вохидов К. Л., Исхакхан Жунайдуллайходжа Ибрат и его научно-историческое наследие// Автореф. Дисс. Канд. Ист. Наук. – ташкент, 2002. – С. 14
6. М. Ф. Махмуд Ходжа Бегбуди // Наука и просвещение. – 1922. - №1. – С. 23-25
7. Алимова Д. Рашидова Д. Махмудходжа Бехбудий и его исторические воззрения. – Ташкент: Маънавият, 1998. – С. 10
8. Алимова Д. А. История как история, как наука. – Т.: II. – Ташкент, Узбекистан, 2009. – С. 155
9. Касымова А. Г. Дореволюционные библиотеки Узбекистана // Из истории книгоиздательского и библиотечного дела в Узбекистане. – Ташкент, 1964. – С. 69
10. Махмудходжа (Бехбуди). Кироатхона ва мутолиахонаи исломия // Самарканд. – 1913. 11 июня.

Islombek MOKSUDOV,
Fan va texnologiyalar Universiteti
ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

JADIDCHILIK HARAKATINING O‘ZBEK XALQI TAFAKKURI RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Bu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan Jadidlar harakati va uning O‘zbekiston tarixida tutgan o‘rni tahlil etiladi. Jadidlarning milliy uyg‘onishdagi o‘rni, ularning ma’rifiy faoliyati va*

zamonaviylikka intilishi tadqiq etiladi. Shuningdek, ularning ta'lim, matbuot, teatr san'ati va ijtimoiy sohadagi islohotlari yoritiladi.
Kalit so'zlar: *jadidlar, ma'rifat, islohot, milliy uyg'onish, ta'lim, matbuot.*

Abstract. *This article analyzes the Jadid movement that emerged in the late 19th and early 20th centuries and its role in the history of Uzbekistan. The educational efforts, pursuit of modernity, and social reforms of the Jadids are examined, including their influence on national awakening and development in education and the press.*
Key words: *Jadids, enlightenment, reform, national awakening, education, press.*

Jadidlar harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik harakati bo'lib, uning asosiy maqsadi xalqni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash, eskirgan usuldagi ta'limni isloh qilish va milliy o'zlikni uyg'otish edi. Ushbu maqolada mazkur harakatning asosiy tamoyillari, vakillari va ularning jamiyatga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy zaminlari. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgach, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan mustamlaka tuzumiga duch keldi. Bu davrda mahalliy aholi madaniy va ta'limiy jihatdan orqada qolgan, ijtimoiy hayotda inqiroz holatlari yuzaga kelgan edi. Jadidchilik ana shu tarixiy zarurat mahsuli sifatida vujudga keldi [1].

Jadidlarning asosiy g'oyasi – jamiyatni isloh qilish orqali uni ilg'or va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga olib chiqish bo'lib, bu yo'lda ular din, ta'lim, madaniyat va matbuot kabi sohalarga e'tibor qaratdilar. Ismoil G'aspirinskiyning "Til birligi, fikr birligi, ish birligi" shiori Turkiston jadidlarining asosiy ideologik tamoyiliga aylandi [2, 130].

Ta'lim sohasidagi islohotlar. Jadidlarning eng katta yutug'i ta'lim sohasidagi yangilanishlar bo'ldi. Ular eski usuldagi madrasalarda faqat diniy bilimlar berilishi va fikr yuritish o'rgatilmasligini tanqid qilib, yangicha ta'lim usullarini joriy etdilar. "Usuli jadid" (yangi usul) maktablarida darsliklar, didaktik materiallar ishlab chiqildi va o'quvchilarni hayotga tayyorlovchi fanlar o'rgatila boshlandi – matematika, geografiya, tarix, jismoniy tarbiya kabi [3].

Muxtor Qori Abdurashidxonov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilari o'z maktablarini ochib, o'quv dasturlarini yozdilar. Masalan, Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" nomli darsligini o'quvchilar uchun ma'naviy-tarbiyaviy manba sifatida yaratgan [4].

Bu maktablar orqali xalq savodxonligi oshdi, ayollar o'rtasida ham ma'rifat kengaydi, natijada jamiyatda modernizatsiyaga intilish kuchaydi.

Matbuot va adabiyotdagi jadidlar harakati. Jadidlar ijtimoiy fikrni uyg'otish va aholining ongini yangilash uchun matbuotni asosiy vosita deb bildilar. "Taraqqiy", "Shuhrat", "Hurriyat", "Shuro", "Sadoi Turkiston" kabi gazeta va jurnallar xalqni siyosiy va ijtimoiy voqealardan xabardor qilib bordi [2, 132].

Ular orqali xalq ichida zamonaviy tafakkur, milliy g‘urur, erkinlik va taraqqiyot g‘oyalari tarqatildi. Jadid adiblar she’r, hikoya va dramalar yozib, ularni sahnalashtirish orqali ham xalq ongini uyg‘otishga xizmat qildilar. Fitratning “Hind ixtilochi”, Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot” asarlari bunga misol bo‘la oladi [3].

Ijtimoiy faoliyat va milliy uyg‘onish. Jadidlar faqat ma’rifat bilan cheklanmay, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy adolat g‘oyalarini ham ilgari surdilar. Ularga ko‘ra, xalq erkinligi, til va madaniyatni rivojlantirish mustahkam fuqarolik jamiyati barpo qilishning asosi edi. Turkiston o‘lkasida tashkil topgan muxtoriyat g‘oyasi, ya’ni “Turkiston muxtoriyati” harakati ham jadidlarning siyosiy ongining etukligidan dalolat beradi [2, 134].

Biroq bu harakatlar mustamlakachi Rossiya va keyinchalik sovet tuzumiga yoqmaganligi sababli, ko‘plab jadid ziyolilari 1930-yillarda qatag‘on etildi. Ularning faoliyati esa uzoq yillar davomida e’tibordan chetda qolib ketdi [4].

Jadidlar merosining zamonaviy qiymati. Mustaqillik yillarida jadidlar faoliyati qayta baholandi. Ularning milliy uyg‘onishdagi roli e’tirof etildi va ularning asarlari nashr qilina boshlandi. Hozirgi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi, ma’naviy-ma’rifiy siyosati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jadidlarning yondashuvlari katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda [1].

Zamonaviy o‘zbek pedagogikasi va ma’naviyat targ‘iboti aynan jadidlar boshlab bergan yo‘nalishlarni davom ettirmoqda. Ularning bilimga, mehnatga, erkinlikka bo‘lgan intilishi hozirgi yosh avlod uchun ham dolzarbdir.

Jadidlar va teatr san’ati. Jadidlar harakati faqat ta’lim va matbuot bilan cheklanmay, san’at, ayniqsa teatr orqali ham xalq ongini uyg‘otishga harakat qildi. Teatr ular uchun nafaqat madaniy ko‘ngilochar vosita, balki ijtimoiy-tarbiyaviy va ma’rifiy g‘oya tashuvchisi edi. Jadidlar “sahna — xalq maktabi” degan tamoyilga asoslanib, sahna san’atini ijtimoiy o‘zgarishlar vositasi sifatida qo‘lladilar [2, 135].

Ularning fikricha, teatr orqali savodsizlik, kamsitish, bid’atchilik, isrofgarchilik, ayollar erksizligi kabi illatlarga qarshi kurashish mumkin edi. Ayniqsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining dramatik asarlari bilan bu yo‘nalishda peshqadam bo‘ldi. Uning “Zaharli hayot”, “Yangi saodat”, “Boy ila xizmatchi” kabi pyesalari o‘zbek teatrining shakllanishiga asos soldi va jamiyat muammolarini dadil ochib berdi [3].

Shuningdek, Abdulla Avloniy ham o‘zining “Advokatlik osonmi?” asari orqali xalqning adolat, qonun va inson huquqlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga harakat qildi. Ularning pyesalari ommaviy teatr to‘garaklarida, maktab sahnalarida, ko‘chalarda sahnalashtirilib, xalq bilan bevosita muloqotga kirishdi [4].

Bundan tashqari, jadidlar teatrni madaniy birlashuv va milliylikni targ‘ib qiluvchi vosita sifatida ham ko‘rdilar. Ular orqali milliy libos, til, urf-odat va qadriyatlar targ‘ib qilindi. Jadidlar tomonidan teatr orqali ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini ko‘rsatish ham maqsad qilingan bo‘lib, bu ayniqsa Hamza asarlarida yaqqol ko‘rinadi. Bu esa ayollarni sahnaga olib chiqish orqali ularni hayotda faol ishtirokchi sifatida ko‘rsatish istagidan dalolat beradi [2, 137].

Biroq, sovet davrining dastlabki yillarida ham bu san'at shakli siyosiy maqsadlarda ishlatilgan bo'lsa-da, 1930-yillar qatag'onlari natijasida jadidlarning teatrga oid faoliyatlari ham to'xtatildi. Bugungi kunda esa ularning bu boradagi merosi qayta tiklanmoqda, spektakllari sahnaga qaytmoqda va san'atshunoslar tomonidan o'rganilmoqda [1].

Jadidlar va din: islohotparvarlik yondashuvi. Jadidlar diniy masalalarga oddiy islomiy an'analardan farqli yondashgan bo'lib, ular dinni inson ma'naviyatini tarbiyalovchi, ilm-fan va taraqqiyotga yo'l ochuvchi manba sifatida ko'rganlar. Boshqacha aytganda, ular dinni jamiyat hayotidan ajratmagan, balki uni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish tarafdori bo'lgan [2, 130].

Jadidlar eski uslubdagi madrasalarda berilayotgan diniy ta'limni tanqid qilganlar, chunki u erda tanqidiy tafakkur emas, faqatgina yodlashga asoslangan, hayotdan uzilgan bilimlar berilar edi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Avloniy va Fitrat kabi ziyolilar dinni yangicha tushunish zarurligini ta'kidlab, "ma'rifatli din" tamoyilini ilgari surdilar. Ularningcha, haqiqiy dindorlik — bu ilm, adolat va axloq asosida yashashdir [1].

Jadidlar dinni jaholat, bid'atchilik, xurofot va fanatizmga qarshi kurash vositasi sifatida ko'rganlar. Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Paranji sirlari" kabi asarlari orqali ular diniy do'ppilab qo'yilgan ijtimoiy tengsizlik va zo'ravonliklarga qarshi chiqdi [3].

Shuningdek, jadidlar Qur'on va hadislarni xalqga zamonaviy tafsirlar asosida tushuntirishga harakat qildilar. Ularning asarlarida Allohni tanish, iymon, sabr, halollik kabi mavzular bilan bir qatorda, ilm olish, ijtimoiy mas'uliyat, davlatga sadoqat, jamoaviylik kabi qadriyatlar targ'ib qilindi. Bu yondashuv, an'anaviy ulamolarning konservativ qarashlaridan farqli ravishda, diniy yangilanishga yo'l ochdi [2, 136].

Biroq, jadidlarning bu islohiy qarashlari ba'zi an'anaviy dindorlar tomonidan rad etilgan, hatto ularni "bid'atchi", "kofir" deb atash hollari ham bo'lgan. Shu sababli, jadidlar ikki frontda — mustamlakachilikka va ichki jaholatga qarshi kurash olib bordilar [4].

Mustaqillikdan so'ng, ularning diniy qarashlari yana qayta o'rganila boshlandi. Jadidlarning islohotparvar diniy qarashlari bugungi kunda ham dinni zamonaviy hayotga uyg'unlashtirish masalalarida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda [1].

Taklif va tavsiyalar:

1. Jadidchilik harakatining tarixiy merosini yanada chuqurroq o'rganish va targ'ib qilish zarur. Bugungi kunda jadidlarning ma'rifiy va ijtimoiy faoliyatlari, ularning zamonaviy O'zbekiston ta'lim va madaniyatiga qo'shgan hissasi haqida keng ommaga ma'lumot berish uchun ilmiy tadqiqotlar, seminarlar va konferensiyalar ko'paytirilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Ta'lim tizimida "usuli jadid" maktablarining pedagogik yondashuvlarini zamonaviy ta'lim metodikalari bilan uyg'unlashtirish taklif etiladi. Jadidlarning yangicha o'qitish metodlari – fanlarni hayotiylashtirish, tanqidiy tafakkurga rag'bat berish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish – hozirgi ta'lim jarayonida ham samarali qo'llanilishi mumkin.

3. Jadidlarning matbuot va teatr san'ati orqali milliy uyg'onishga qo'shgan hissasini yuksaltirish uchun davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan madaniy-ma'rifiy loyihalar ishlab chiqilishi zarur. Xususan, jadid adabiyoti va teatr asarlarini qayta nashr qilish, spektakllar tashkil etish va yoshlar orasida milliy ongni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

4. Jadidlarning diniy islohotparvarlik qarashlarini zamonaviy din va jamiyat munosabatlari nuqtai nazaridan qayta o'rganish va targ'ib qilish muhimdir. Bu orqali yoshlar orasida dinni ilmiy asosda tushunish va zamonaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga ko'maklashish mumkin.

5. Jadidchilik harakatining siyosiy va ijtimoiy merosini mustahkamlash maqsadida, ularning faoliyatini o'rganish bo'yicha xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu esa O'zbekistonning tarixiy va madaniy jihatdan yanada boyroq tasvirini yaratishga xizmat qiladi.

6. Milliy uyg'onish va taraqqiyot yo'lida jadidlarning ilgari surgan g'oyalari va tajribalarini hozirgi demokratik va ma'rifiy jarayonlarga qo'llash, yangi avlodni milliy va zamonaviy qadriyatlar asosida tarbiyalash uchun ilmiy-amaliy markazlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir

Xulosa qilib aytganda, jadidlar harakati O'zbekistonda zamonaviy ta'lim va madaniyatning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Ularning g'oyalari nafaqat o'sha davr, balki keyingi avlodlar uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib, milliy uyg'onish va mustaqillik yo'lida asos bo'ldi. Bugungi kunda ham jadidlarning ma'rifatparvarlik, millatparvarlik va yangilikka intilish g'oyalari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jadidlar harakati milliy uyg'onish tarixining muhim sahifasi bo'lib, ularning ma'rifiy faoliyati bugungi o'zbek jamiyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ularning ezgu g'oyalari bugun ham dolzarbligini yo'qotmagan, balki yangi bosqichga ko'tarilgan. Jadidchilik tajribasi milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot uyg'unligining yorqin namunasidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimov, Sh. Jadidchilik va taraqqiyparvarlik. Toshkent: Fan, 2012.
2. Saidov, A. O'zbek jadidlari: ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Toshkent: O'zbekiston, 2004.
3. G'afurov, B. Ismoil G'aspirinskiy va jadidchilik harakati. Samarqand, 2018.
4. Allayeva, M. Jadidlar merosi va zamonaviy ta'lim. Toshkent, 2020.

Mukaddam SADIKOVA,
Senior Lecturer at Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

THE CONTRIBUTION OF THE JADIDS TO THE DEVELOPMENT OF FOREIGN LANGUAGES IN CENTRAL ASIA

Abstract. *The article deals with the history of national-progressive movement of the late 19th and early 20th centuries called "Jadidism" and their contribution to the development of foreign languaGES in Central Asia. The history of Jadidism and its evolution from enlightenment to powerful political movement are retraced in the article.*

Key words: *national, progressive, movement, ideology, memorization, independence, experience, foreign, translation, newspapers, magazines, enlightenment.*

Annotatsia. *Mazkur maqolada 19-asr oxiri va 20-asr boshlaridagi "jadidchilik" deb nomlangan milliy-taraqqiyparvarlik harakati tarixi va ularning O'rta Osiyoda xorijiy tillar rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi. Maqolada jadidchilik tarixi asosida uning ma'rifatparvarlikdan kuchli siyosiy harakatga bo'lgan evolyutsiyasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *milliy, ilg'or, harakat, mafkura, xotira, mustaqillik, tajriba, xorijiy, tarjima, gazeta, jurnal, ma'rifat.*

Scientific research shows that Jadidism had a significant influence on the development of foreign languaGES in Central Asia, especially in the context of education and cultural exchanGES. Now, there appears the possibility of restoring the historical truth in the conditions of profound chanGES in the historical science. The need for resolute revision of former aims about role and place in historical process of national-progressive movement has ripened as the unique social and political phenomenon in the early 20th century. This phenomenon promoted a national consciousness growth and is of the essence in formation and development of national-liberation ideology, in struggle for independence.

Jadidism (from the Arabic jadid - "new"), which emerged in the late 19th and early 20th centuries was a movement of Muslim intelligentsia aimed at reforming traditional society in the context of modernization and pressure from the Russian Empire. One of the key aspects of Jadidism was the introduction of a new method of teaching based on the sound principle, which replaced the traditional memorization of Arabic texts. This method promoted a deeper understanding of the language and facilitated the study of foreign languaGES such as Russian, Arabic, and Ottoman. The Jadidists played a pivotal role in the modernization of education and the promotion of foreign languaGES across Muslim-majority regions of the Russian Empire, particularly in Central Asia, the Volga-Ural region, and Crimea. Their movement sought to reform traditional Islamic education by incorporating modern, secular subjects—including **foreign languaGES**—to better equip Muslims to compete in an increasingly globalized and Russian-dominated world. They sought to renew Muslim society through reform of education, culture and language.

Ismail Gasprinsky, one of the founders of Jadidism, emphasized the importance of learning foreign languaGES for the development of the nation and culture. He believed that mastering foreign languaGES opens access to world knowledge and promotes cultural progress. Russian and Arabic were actively taught

in his schools, which contributed to their dissemination and strengthening of their positions in the region.

In addition, the Jadids actively used foreign experience in the field of education, which included borrowing methods of teaching foreign languaGES. The Jadidists created teaching aids and books, including grammars and phrasebooks for Russian and other foreign languaGES. This contributed to the wider dissemination of languaGES among young people. This contributed to improving the quality of education and expanding the language horizons of students. The Jadidists advocated the rejection of exclusively religious education and introduced secular subjects in madrasas (religious schools) The representatives of the movement reformed the traditional madrasah and maktabs system by introducing secular subjects, including foreign languaGES. For instance: in the schools founded by Ismail Gasprinsky, the Russian language was taught, and textbooks with parallel text in Turkic and Russian were created. The Jadid schools ("usul-i jadid" - "new method") provided an opportunity to study:

• Russian became a compulsory subject in the new schools, as the state language. This helped the Turkic-speaking population interact with the authorities, receive an education in Russian educational institutions, and participate in public life. As well as, for integration into society and obtaining professions;

• Arabic and Persian - for religious and cultural development;

• some schools began teaching European languaGES - French, German - as access to world science and culture part of modernization and familiarization with world culture;

• geography, mathematics, natural science - all this was taught using foreign-language literature; European languaGES (mostly French).

For the development of a bilingual press Ismail Gasprinsky and his followers - the Jadidists actively published newspapers and magazines that published materials in Turkic, Arabic, and Russian (or French). Jadidist newspapers and journals, such as *Terjiman* by Ismail Gasprinski, included articles in multiple languaGES and promoted language learning.

Bilingual publications encouraged literacy in both native and foreign languaGES. Some publications included translations from European languaGES. These translations helped local populations access modern knowledge and promoted interest in learning the source languaGES. This contributed to increasing interest in foreign languaGES among Muslim youth; expanding the vocabulary of readers; developing a translation culture and the broadening of readers' horizons.

To install the psychological and cultural reorientation the Jadidists contributed to a change in attitude towards foreign languaGES: from hostile or wary to pragmatic and open. Jadidists actively interacted with reform movements in the Ottoman Empire, Egypt, and India. To do this, they needed: Ottoman Turkish, which was considered the language of science and modernization; knowledge of Arabic (traditionally religious), but in a reformed, secular context; some Jadidists also studied English or French to gain access to European science and culture. Foreign languaGES began to be perceived as: a means of career advancement; a tool for modernization; a path to enlightenment.

Zhadidism had a profound impact on the Turkic-speaking peoples of Russia and Central Asia, laying the foundation for:

• the widespread spread of bilingualism;

• the creation of a translation school;

• the emergence of educators and reformers who were fluent in several languaGES. Jadidists viewed foreign language acquisition as a **tool for empowerment**, allowing Muslims to: engage in political discourse, participate in the economy, assert their cultural identity in a multi-ethnic empire.

Key figures of Jadidist movement and their contribution to the development of the nation:

Ismail Gasprinsky (Gaspirali) (1851–1914) – *Crimean Tatar intellectual, who was known as the Father of Jadidism*. His contributions: published the newspaper "Tercüman" ("The Interpreter"), the first Turkic-language newspaper in the Rus-sian Empire (1883–1918), advocated "Unity in language, thought, and action" among Turkic peoples; promoted modern education (*usul-i-jadid*), emphasizing secular subjects and critical thinking alongside religious teachings; supported the empowerment of Muslim women and interethnic cooperation.

Mahmud Khoja Behbudi (1875–1919) – *Uzbek reformer, playwright, and scholar*. His contributions: founded the first Jadid newspaper in Central Asia, "*Shuro"*; established modern schools (*usul-i-jadid*) in Samarkand; wrote plays like "*Padarkush"* ("Parricide"), using drama as a tool for public enlightenment and cri–ticism of outdated traditions; martyred by conservative forces for his reformist views.

Abdullah Avloni (1878–1934) - *Uzbek educator, poet, and journalist*. His contributions: authored influential textbooks, including "*Maktab gulistoni"* and "*Adabiyot yoxud milliy she'rlar"*, to modernize Uzbek education; promoted civic education, ethics, and hygiene in the curriculum; was a key figure in organizing Jadid schools in Tashkent and beyond.

Munawwar Qari Abdurashidkhanov (1878–1931) – e*ducator and linguist.* His contributions: promoted educational reforms and teacher training in Central Asia.Advocated for teaching in the vernacular languaGES: compiled text-books and participated in developing a new Uzbek alphabet; was persecuted and executed during Stalin's purGES.

Soviet Uzbekistan; promoted national identity, modern literature, and educational reform; wrote critical and philosophical works like *"Munazara"* and *"Indian Let-ters"*; executed during the Stalinist repressions.

Sadriddin Aini (1878–1954) – *Tajik writer and historian.* His contributions: considered the founder of modern Tajik literature; supported Jadid ideals through his memoirs, novels, and history writings; advocated for linguistic reform, education, and cultural modernization.

It is very important to point out the contribution to the development of the society of the Jadid Movement representatives. They helped modernize Muslim society under the Russian Empire and early Soviet Union; played a key role in forming national consciousness among Central Asian peoples; many Jadids became

early leaders in the Soviet republics of Central Asia, though many were later repressed or executed during Stalin's purGES.

Despite the positive influence of Jadidism, certain problems arose. In particular, there was competition between the idea of creating a common Turkic language and the development of national languaGES. There was also instability in language policy, associated with the introduction of the Russian language into the educational process and its influence on national languaGES.

The Jadidists played an important role in the dissemination and development of foreign languaGES in Central Asia promoting their dissemination and strengthening through educational reforms and cultural exchanGES. Through educational reform, the publication of textbooks and newspapers, international relations and cultural exchanGES, they contributed to the local population's entry into the international arena. The Russian language became especially important as a means of social mobility and integration into a modernizing society. The Jadidist legacy influenced language policies and education systems even after the Soviet takeover.

Their emphasis on multilingual education laid a foundation for cross-cultural communication and the modernization of Central Asian societies.

References

1. Alimova D., Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformy, borba za nezavisimost, T., 2000; New history of Uzbekistan. Book 1 [Turkistan during the colonial period of Tsarist Russia], T., 2000; Book 2 [Uzbekistan during Soviet colonialism], T., 2000;

2. Yusupov P., History of Young Khiva (Memories), Urganch, 2000; Turkestan and the beginning of the 20th century: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti, T., 2000;

3. Abdurashidkhanov M., From my memories, T., 2001; Essays on the history of the statehood of Uzbekistan, T., 2001; Central Asia at the beginning of the 20th century: reforms, modernization, development and struggle for independence, T., 2001.

4. https://tavorix.islamonline.uz/

5. https://tavorix.islamonline.uz/site/item/1338

Sohiba ARZIKULOVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

JADID ADABIYOTDAGI YANGILANISHLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mumtoz adabiyotga jadid ma'rifatparvarlari tomonidan olib kirilgan bir qator yangilanishlar yuzasidan batafsil ma'lumotlar berilgan. Xususan, adabiyotda vazn, janr va obrazdagi o'zgarishlar, dramaturgiyaning shakllanishi, teatrlar taraqqiyoti kabi masalalar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jadid adabiyoti, publitsistika, dramaturgiya, vazn, obraz, adabiyotdagi yangilanish, ma’rifatparvarlar.*

Annotation. *This article provides detailed information about a number of innovations introduced to classical literature by the Jadid intellectuals. In particular, issues such as chanGES in meter, genre, and imagery in literature, the formation of dramaturgy, and the development of theaters are discussed.*

Key words: *Jadid literature, journalism, dramaturgy, meter, imagery, innovations in literature, enlightenment thinkers.*

XX asr boshlaridayoq milliy ozodlik bayrog‘ini baland ko‘tarib jahon jamoatchiligini o‘ziga qaratgan jadidchilik adabiyoti hamisha e’tiborga loyiqdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi” [1, 211]. Yurtimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, XX asr adabiyotini chuqur o‘rganish uchun yo‘l ochildi. XX asr boshlari o‘zbek she’riyatining yangilanish tamoyillarini, undagi janr, vazn masalalarini, ramziylik va g‘oyaviy konsepsiyalarini o‘rganish yuzasidan bir qator tadqiqot ishlari olib borildi. Shunday bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning ochilmagan qirralarini ko‘rsatib berish o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda, chunki jadid she’riyati katta dengiz bo‘lsa, unga suv quygan daryolar – jadid shoirlari yuksak mahorat egalari ekanligi tadqiqotlarda isbotini topgan haqiqatdir.

“Tarixiy manbalardan ma’lumki, ilgari Turkistonda mahalliy xalq yozish va o‘qish uchun fors-tojik va turkiy-o‘zbek tillardan keng foydalangan. Maktablarda fors-tojik, arab va turkiy-o‘zbek tili asosiy o‘qish tili bo‘lgan. Fors-tojik, arab tillari asrlar davomida adabiyotda, xususan, she’riyatda juda keng qo‘llanilib kelinib, mustahkam o‘ringa ega bo‘lib ulgurgan edi” [2, 76]. Chunki she’riyatning vazn xususiyatlari shunga moslangan edi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy ma’naviyatimizni anglash ruhida tarbiyalashda adabiyot asosiy qurol vazifasini o‘taydi. Adabiyot millat taqdirini har jihatdan tasvirlab bera oladi, bu xoh ma’naviy hayot bo‘lsin, xoh siyosiy. Qadim-qadimdan rivojlanib kelgan turkiy adabiyotimiz juda boydir. Ayniqsa, Alisher Navoiy o‘z davrida turkiy til, turkiy adabiyot takomili yo‘lida o‘ziga xos jonbozlik ko‘rsatgan. So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning bu harakatlari turkiy adabiyotni yanada jonlantirib yubordi. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aniq dalillar bilan ko‘rsatib bera oldi.

Xonliklar davrida shakllangan va rivojlangan Toshkent, Xiva, Buxoro, Qo‘qon adabiy muhiti ta’sirida yaratilgan adabiyot namunalari madaniyat rivojining ko‘rinishi bo‘ldi. Madaniy-ma’naviy hayot xonliklardagi siyosiy-ijtimoiy ahvolga qarab turli notekisliklar bilan davom etdi. Ayniqsa, Xivada, Buxoroda,

Samarqandda bir qancha madrasa, xonaqohlar qurildi, turli hududlarda o‘nlab shoirlar, tarixchilar, xattotlar, tazkiranavislar, tarjimonlar yashab, faoliyat ko‘rsatdilar.

“XX asr o‘ziga xos tabiatga ega bo‘ldiki, bu bir tomondan, insoniyat hayotida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi keskin burilishlar natijasida hayotning og‘irlashuvi bilan kechishi, ikki jahon urushining davlatlar hayotini izdan chiqarishi bilan, ikkinchi tomondan esa mana shu ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi o‘zgarishlarning salbiy oqibatlariga qarshi kurash yo‘lida kelib chiqqan yangilanisharga boy bo‘lgan bilan ifodalanadi” [3, 17]. Xuddi shunday yangilanishlar adabiyotda ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Is’hoqxon Ibrat kabilar chinakam jadidchilik adabiyotini yaratishda jadal odimladilar. Ular turkiy adabiyotning barcha turlarida qalam tebratishdi. Nasrni rivojlantirishdi, o‘zbek romanchiligini boshlab berishdi, (birinchi o‘zbek romani Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ekanligi barchaga ma’lum), lirikaga yangi ruh kiydirishdi, dramatik turni o‘zbek adabiyotiga (o‘zbek adabiyotidagi birinchi drama Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi hisoblanadi) olib kirishdi. Jamiyatda teatrning yaratilishi va mustahkam o‘ringa ega bo‘lishi bilan dramalar soni ko‘paydi.

Adabiyotning ijtimoiylashuvi kuchaydi. Bu holat barcha adabiy turlarda bo‘y ko‘rsatdi. Nasrda yangi ijtiomiy muhit yaratishga urg‘u berildi. Dramalarda ilmsizlikning fojiali yakunini ochiq ko‘rsatish boshlandi.

“XX asrga kelib odamlarning dunyoni tushunish tarzi, badiiy didi, olamni estetik idrok etish yo‘sini o‘zgardi. Adabiyotning obrazlar tizimi ham, ifoda tarzi ham, qahramonlar ko‘rinishi ham o‘zgardi, hayotdagi ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy muammolarni hal etishga urina boshladi” [4, 19]. Avvallari badiiy asarlarga, asosan, hukmdorlar, favqulodda sifatlarga ega kishilar qahramon qilib olingan bo‘lsalar, XX asrga kelib, adabiy personajlar, ko‘proq, oddiy kishilar orasidan qidiriladigan bo‘ldi, chunki adabiyotdagi ijtimoiylashish doirasi kengaygan edi. Shuni unutmaslik kerakki, o‘zgarishlar birdaniga emas, balki asta-sekinlik bilan amalga oshirilgan. Sababi bu davr adabiyoti ham klassik adabiyotimizning davomi, avlodi edi, mumtoz adabiyotning janr, unsurlaridan, tasvir uslublaridan, vaznlashishlardan shunchaki yuz o‘girib bo‘lmasdi. Biroq uning mavzu, g‘oyalariga, tasvir uslublariga qo‘shimcha yangiliklar kiritishni zamona talab qilib qoldi. Jamiyat hayoti adabiyotni bunga majbur qildi. Zotan, jamiyat va adabiyot hamma zamonlarda ham hamnafas bo‘lgan. Hali ko‘p qismi savodsiz, ilmdan bebahra, g‘aflat uyqusida ko‘lanka ostida qolgan millatga adabiyot orqali xitob qilindi. Chunki adabiyot katta ta’sir kuchiga egadir. Shu bois ham adabiyotda soddalikka, osonlikka qarab siljish qilish davr talabi bo‘lib qoldi.endi adabiyot ahliga insonlar tushunishiga qulay, quloqqa yoqimli, ongga tez ta’sir qiladigan adabiy o‘zgarishlar kerak edi. Shu boisdan ham yozuvchi, shoirlar ba’zi yangiliklarga qo‘l urishdi va ularni amaliyotda qo‘llashni boshlashdi. Shu tariq adabiyot yangi bosqichga o‘ta boshladi. Endi yangi adabiyot bevosita yangi hayotni aks ettiradi. Bu adabiyot hayotdagi barcha muhim voqealarga faol aralashadi va ular haqida o‘z fikrini obrazli qilib aytadi. “Yangi o‘zbek adabiyotining mavzular doirasi va g‘oyaviy mazmuni yangi bo‘lgani singari uning

asosiy qahramonlari ham yangi bo‘lishi tabiiy hol edi. Bu adabiyotning asosiy qahramonlari, ko‘p hollarda, ishchilar, dehqonlar, ziyolilardir. Adabiyot endi faqat so‘z san’ati sifatida yashay olmasdi, yani adabiyotdan faqatgina chiroyli tashbehlarni, tashxisu tanosublarni qidirish xatodek ko‘rina boshladi, jadid shoirlari bu kabi she’riy san’atlar zamiriga ko‘proq ijtimoiy ma’no yuklay boshlashdi. Nasr endi hukmdorlarni ulug‘lashdan yiroqlashdi, lirika esa yor-oshiq-ag‘yor o‘rtasidagi munosabat bilan birga millat, erk, zulm kabi masalarni yorita boshladi. Mumtoz lirikada ham ma’rifatga chorlovlar bor edi, biroq ishq mavzusining ulushi ko‘p edi. Yangi o‘zbek adabiyotida esa mustaqillik, ma’rifat mavzusining o‘rni kengaya boshladi” [5, 47]. Shuning uchun ham XIX asrning 70-yillaridan boshlab adabiyotimizda necha asrlardan buyon amal qilib kelingan estetik an’analar buzildi. Badiiy ijod Alloh bilan sirlashish, ruhiyat injaliklarini aks ettirish, komil insonni ulug‘lash, ma’shuqaning, oshiqning azoblari, illatli kimsaning kirdikorlarini tanqid qilishdangina iborat emasligi, unda yangi mavzularni ham kengroq yoritish imkoni mavjudligiga ko‘proq e’tibor qaratila boshlandi. Hamisha ham yangilanishlarga osonlik bilan erishib bo‘lmaydi. Adabiyotimizning taraqqiyoti ham silliq, bir tekkis davom etmagan. Bu yo‘lda ham bir qancha to‘siqlar bo‘lgan. Yangi o‘zbek adabiyoti paydo bo‘lgandan boshlab to hozirgi bosqichga etib kelguncha murakkab yo‘lni bosib o‘tdi.

1910-yilga qadar o‘zbek adabiyotida drama janrida yaratilgan asar yo‘q edi. U XX asrning 10-yillarida vujudga kela boshladi. Bunda jadid yozuvchilarining xizmati katta bo‘ldi. Adabiyotimizda 1910-yildan to 1917-yil fevral oyigacha bo‘lgan vaqt ichida “Padarkush” (M. Behbudiy), “Zaharli hayot”, “Ilm hidoyati” (Hamza), “Baxtsiz kuyov” (A.Qodiriy), “Qozi ila mulla”, “Ko‘knori”, “Juvonbozlik qurboni”, “Eski maktab – yangi maktab”, “Mazluma xotin” (Hoji Muin Shukrullo), “Mahramlar” (A.Samadov), “Advokatlik osonmi”, “Pinak” (Abdulla Avloniy) kabi qirqtacha sahna asari yuzaga kelgan. Bu pyesalarning deyarli hammasida ma’rifat va ilmsevarlik masalalari aks ettirilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ma’rifatparvarlik adabiyotidan suv ichib XX asrning boshida keng tarqalib, faol kuchga aylangan jadid adabiyoti – xalq va mamlakat hayotida muhim o‘rin tutgan. Qisqa muddatda yangi adabiyot shakllandi. Adabiyotga “Millat” va “Vatan” tushunchalari yanada mustahkam o‘rin egalladi. Avloniy, Hamza, Cho‘lpon va Fitratlar ma’naviyat maydoniga chiqdi. Jadid adabiyoti milliy adabiyotimizga bir qator yangilanishlar olib kirdi. Nasrda asosiy qahramon qilib oddiy xalq vakili yarusga olindi, o‘zbek romanchiligiga asos solindi. Publitsistika, matbuot rivojlandi. Milliy adabiyotimiz tarixida dastlabki dramalar paydo bo‘ldi. She’riyatda vazn, poetik obraz, ramziylik, badiiy ifodada yangilanishlar kuzatildi. XX asrda so‘z san’ati sohasida erishilgan ana shunday yutuqlarni avaylab-asrash, bu davrda yaratilgan asarlarni tanqidiy o‘rganib, keng targ‘ib etish, ularni tom ma’noda xalq mulkiga aylantirish hozirgi kunning eng muhim vazifasidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –490 b.

2. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: Ma’naviyat, 2004.
3. B. Qosimov. Uyg‘ongan millat ma’rifati. –T.: Ma’naviyat, 2011. – 320 b.
4. Karimov N. Istiqlolni uyg‘otgan shoir. –T.: Ma’naviyat, 2000. –88 b.
5. Arzikulova S.A. Jadid she’riyatida ijtimoiy mavzular. T.: “Book-print”, 2024. – 86 b.

Дильфуза АБДУХАЛИКОВА,
старший преподаватель ГИИКУз

РОЛЬ И ВКЛАД ИСМАИЛА ГАСПРИНСКОГО В РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ПРОСВЕЩЕНИЯ МУСУЛЬМАН

Аннотация. *Статья посвящена роли Исмаила Гаспринского в развитии культуры и просвещения мусульман в конце XIX - начале XX века. Рассматриваются основные аспекты его деятельности, включая вклад в образование, создание журнала «Терджиман», социальные реформы и идеи панисламизма. Исследуется влияние его работы на последующие поколения мусульманских мыслителей и актуальность его идей в современном мире.*

Ключевые слова*: мыслитель, развитие, культура, реформа, наука, общество, национальное самосознание, мусульманское просвещение.*

Annotation: This article is dedicated to the role of Ismail Gaspirali in the development of culture and education among Muslims in the late 19th and early 20th centuries. It examines the main aspects of his activities, including contributions to education, the creation of the journal "Terdzhiman," social reforms, and the ideas of pan-Islamism. The article explores the impact of his work on subsequent generations of Muslim thinkers and the relevance of his ideas in the modern world.

Key words: Thinker, development, culture, reform, science, society, national, consciousness, muslim Enlightenment.

Введение. Гаспринский, или Исмаил-бей Гаспринский, является одной из ключевых фигур в истории мусульманского просвещения и культуры в конце XIX - начале XX века. Его деятельность оказала значительное влияние на развитие мусульманского общества в России и за ее пределами. В этой статье мы рассмотрим роль и вклад Гаспринского в развитие культуры и просвещения мусульман.

Основная часть. Исмаил Гаспринский родился в 1851 году в Крыму и стал одним из первых представителей мусульманской интеллигенции, активно занимающихся вопросами просвещения и культурного возрождения. Он понимал, что для того чтобы мусульмане могли успешно интегрироваться в современное общество, необходимо развивать образование и культуру.

Гаспринский стал инициатором создания новых учебных заведений, которые сочетали традиционные исламские знания с современными науками. Он основал первую мусульманскую школу в Симферополе, где преподавались не только религиозные, но и светские дисциплины. Его подход к образованию стал образцом для подражания и распространился по всему мусульманскому миру.

Одним из наиболее значительных вкладов Гаспринского в культуру стало создание и издание журнала «Терджиман». Это издание стало важным мостом между восточной и западной культурами, предоставляя читателям информatsiю о современных научных, культурных и социальных достижениях. «Терджиман» способствовал распространению идей просвещения, модернизatsiи и hatsiонального самосознания среди мусульман.

Гаспринский активно пропагандировал идеи реформ в мусульманском обществе. Он выступал за необходимость модернизatsiи системы образования, введение новых методов преподавания и адаптatsiю мусульманской культуры к современным условиям. Его работы и статьи часто поднимали вопросы социального неравенства, женского образования и прав мусульман в Российской империи.

Гаспринский стал символом мусульманского просвещения. Его идеи о необходимости образования и культурного развития стали основой для многих последующих движений. Он вдохновил новое поколение мусульманских интеллектуалов, которые продолжили его дело, развивая исламскую культуру и науку.

Гаспринский уделял особое внимание молодежи, считая ее основным двигателем изменений в обществе. Он инициировал создание молодежных организatsiй и кружков, где молодые мусульмане могли обсуждать актуальные вопросы и обмениваться знаниями.

Одной из важнейших идей Гаспринского было создание единого мусульманского пространства, основанного на общих культурных и религиозных ценностях. Он подчеркивал важность единства мусульман всех стран и народов, что способствовало развитию панисламизма.

Исмаил Гаспринский оставил глубокий след в истории мусульманского просвещения и культуры. Его деятельность в области образования, издательской работы и пропаганды реформ сыграла ключевую роль в формировании современного мусульманского общества. Он не только стал символом эпохи, но и заложил основы для будущих поколений мусульманских интеллектуалов, стремящихся к знаниям и культурному самосознанию. Его наследие продолжает жить и по сей день, вдохновляя новых лидеров и мыслителей на пути к просвещению и культурному развитию.

Работы Гаспринского вдохновили целое поколение мусульманских мыслителей и реформаторов, которые продолжили его дело. Такие фигуры, как Алишер Наваи в Центральной Азии, Абдурахим-бек в Крыму и другие, заимствовали его идеи о необходимости образования и культурной модернизatsiи. Они стремились адаптировать исламские ценности к

требованиям современного общества, что стало основой для множества реформ в мусульманских странах.

Гаспринский активно участвовал в международных конференциях и форумах, где поднимал вопросы прав мусульман и культурного взаимодействия между разными народами. Он стал одним из первых мусульманских интеллектуалов, который выступал на международной арене, что открыло новые возможности для диалога между Востоком и Западом.

Вдохновленный успехом своей школы, Гаспринский способствовал созданию сети образовательных учреждений в различных регионах России и за ее пределами. Эти школы не только обучали детей, но и становились центрами культурной жизни, где проходили лекции, дискуссии и культурные мероприятия. Таким образом, Гаспринский заложил основы для создания мусульманской образовательной инфраструктуры.

Идеи Гаспринского о необходимости реформирования образования и культурного развития остаются актуальными и сегодня. В современных мусульманских странах продолжаются обсуждения о необходимости адаптatsiи образования к новым требованиям времени, что подтверждает его дальновидность и актуальность.

Заключение. Исмаил Гаспринский является одним из величайших деятелей мусульманского просвещения, чье наследие продолжает жить и по сей день. Его вклад в образование, культуру и социальные реформы оказал глубокое влияние на развитие мусульманского общества в России и за ее пределами. Гаспринский стал символом стремления к знаниям и культурному развитию, вдохновляя новые поколения на пути к просвещению и социальной справедливости. В условиях современного мира, где вопросы образования, культурного взаимодействия и женских прав остаются актуальными, идеи и принципы Гаспринского продолжают служить важным ориентиром для мусульманских обществ, стремящихся к устойчивому развитию и гармонии.

Список литературы

1. Гаспринский И. Собрание сочинений. Симферополь: Таврия. 1990.

2. Сулейманов А. Исмаил Гаспринский: жизнь и деятельность. Москва: Наука. 2014.

3. Кульшарипова Г. История мусульманского образования в России. Казань: Казанский университет. 2015.

4. Тенишев Е. Панисламизм и его влияние на мусульманский мир. Санкт-Петербург: Алтейя. 2016.

5. Руденский В. Культура и просвещение мусульман в Российской империи. Москва: ИНИОН РАН. 2018.

Marhabo ISMOILOVA,
TAFU Pedagogika kafedrasi

katta o‘qituvchisi

ABDURAUF FITRATNING “OILA” ASARI ORQALI TALABALARNING AXLOQIY MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Maqolada Fitratning “Oila” asari orqali talabalarga axloqiy madaniyatni takomillashtirishga doir innovatsion texnologiyalarga e’tibor qaratilgan. Pedagogikaning tarmoq fanlarida axloqiy qadriyatlarga keng e’tibor qaratiladi. Xulosa qismida Fitratning “Oila” asari orqali talabalarga axloqiy madaniyatlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan*

Kalit so‘zlar: *axloq, yoshlar, oliy ta’lim, talaba, odob, ilmiy-nazariy, ta’lim-tarbiya, asos, takomillashtirish, interfaol, rolli o‘yin, interfaol.*

Annotation. *The article focuses on innovative technologies for improving moral culture to students through Fitrat's “family”. In the branch Sciences of pedagogy, a wide emphasis is placed on moral values. In the summary part, through Fitrat's work "family", students are given recommendations for improving their moral culture*

Key words: *ethics, Youth, Higher Education, student, etiquette, scientific-theoretical, Educational, Foundation, improvement, interactive, role-playing game, interactiveю*

Abdurauf Fitrat o‘zining asarlari orqali milliy o‘zlikni, tarbiya va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga katta hissa qo‘shgan jadid ma’rifatparvaridir. Uning “Oila” asari oilaviy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va jamiyatning ijtimoiy o‘zgarishlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur yoritadi. “Oila” asari asosida talabalarning axloqiy madaniyatini takomillashtirishga doir innovatsion yondashuvlar haqida so‘z yuritilar ekan, bugungi kunning talabi ham innovatsion yondashuvlar asosida jamiyatni rivojiga erishishni nazarda tutadi. Tarixga nazar tashlasak, bir kishining innovatsion fikrlashi butun boshli xalqni halokatdan saqlab qolganiga misollar bor. Dunyodagi eng katta gonorar II asrda Rim imperatori Mark Avreliy tomonidan shoir-metodist Oppianga berilgan. Oppian baliqchilik va ov qilish qoidalari haqida 20 000 baytli ikki doston yozgan edi. Imperator dostonlarning har bir satri uchun bir oltin tangadan qalam haqqi beradi . Chunki odamlar bu dostonlarni o‘qib, kuylab, eshitib, baliq tutish, ov qilish qoidalarini o ‘rganib olishdi. Mana shu bitta artpedagogik innovatsiya xalqqa baliq tutish mahoratini o‘rgatib, uni ochlikdan saqlab qolgan.

Abdurauf Fitratning “Oila” asari ham insonlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga, talabalarda vatanparvarlik, mehr-oqibat, insoniylik fazilatlarini shakllantirishda, innovatsion yondashuv asosida butun bir millatning tarbiya topishida yillar davomida xizmat qilib kelmoqda. Fitratning “Oila” asari oila institutining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini keng yoritib beradi. Asarda ma’naviyat, axloq va oiladagi muhitning yosh avlod tarbiyasiga ta’siri haqida

muhim fikrlar ilgari surilgan. Talabalarni axloqiy jihatdan shakllantirish uchun Fitrat tomonidan ilgari surilgan asosiy tamoyillar:

1. **Oiladagi mehr-muhabbat va hurmat** – Talabalarni insoniy qadriyatlarni hurmat qilishga o‘rgatish.

Oila –muqaddas dargoh. Oilaning farzand uchun qanday ahamiyatga egaligi xususida juda ko‘p olimlarimizning fikrlari bizgacha etib kelgan. Nafaqat fikrlar ota-bobolarimizning bizga namuna qilib ko‘rsatib kelayotgan ibratli oilalari bugun yoshlarimizga tayyor namunadir. Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o‘z farzandi uchun ko‘zgudir. Ularning muomala va munosabati, o‘zini tutishi farzandiga bo‘lgan e’tibori alohida ahamiyatga ega.

2. **Halollik va mas’uliyatlilik** – Har bir shaxsning jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglash.

Halollik haqida juda ko‘p asarlarda chiroyli fikrlar keltirilgan, xususan hadislarda halollikning ko‘rinishlari ochiqlab berilgan. Insonlarning bir-birlarini haqlariga xiyonat qilmaslik, halol luqmada baraka borligi, halol va haromning farqlari vahokazo

3. **Milliy an’analarga hurmat** – Milliy madaniyat va qadriyatlarga e’tiborli bo‘lish.

Ma’naviyat va ma’rifat, mafkuraviy tarbiya bizga Vatanning o‘gil-qizlari sifatida, ishlash va yashash burchini eslatadi. Milliy an’ana va urf-odatlarimiz asosida tarbiyalangan talaba yoshlarimiz kelajak poydevori, Vatanni asrab-avaylab, milliy mentalitetimizni saqlab, kelajak avlodgga etkazuvchilardir. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda ularning hayotda o‘z o‘rnilariga ega bo‘lishlarida innovatsion yondashuvlar asosida quyidagicha yondashuvlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

1. Interfaol metodlar yordamida talim berish

Talabalarning axloqiy madaniyatini shakllantirish uchun interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Fitratning asaridagi misollar va qahramonlarning hayotiy holatlari orqali muhokama va tahlil mashg‘ulotlarini tashkil etish mumkin. Masalan:

“Rol o‘ynash” usuli: Talabalar Fitrat asaridagi qahramonlar rolini o‘ynab, axloqiy dilemmalar haqida o‘z fikrlarini bildiradilar.

Debatlar: “Oila”dagi oilaviy qadriyatlar va zamonaviy oilaviy masalalar haqida bahs tashkil qilish.

2. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash

Fitratning asari asosida o‘quv dasturlar va ilovalar yaratish:

“Oila” asari asosida interfaol o‘yin va testlar.

Oila tarbiyasiga oid qisqa video va animatsiyalar yaratish va ularni dars jarayonida qo‘llash.

3. Madaniy-tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish

Talabalarni Fitrat g‘oyalari bilan yaqindan tanishtirish uchun quyidagi tadbirlar samarali bo‘lishi mumkin:

Adabiy kechalar: “Oila” asaridagi qahramonlar va voqealarni talqin qilish.

Ma’naviyat kunlari: Talabalarning oilaviy qadriyatlar va milliy madaniyatni targ‘ib etishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etishi.

4. Psixologik treninglar. Talabalar uchun oiladagi sog‘lom muhit va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan treninglar tashkil etish. Treninglar Fitrat asaridagi axloqiy holatlar asosida tuzilishi talabalarni yanada qiziqtiradi.

Xulosa qilinsa, Abdurauf Fitratning “Oila” asari o‘zining dolzarbligi va chuqur falsafiy mazmuni bilan hozirgi zamon ta’limi uchun muhim manba hisoblanadi. Talabalarning axloqiy madaniyatini rivojlantirish uchun ushbu asardan foydalanish innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va madaniy tadbirlarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, yoshlarni ma’naviy yuksak, axloqan barkamol inson qilib tarbiyalashda katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Renessans ma’naviyati yoshlarimizni, xalqimizni innovatsion fikrlashga, o‘ylashga, yashashga o‘rgatishni talab qiladi. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning dolzarb masalalari, buning uchun nafaqat bolalar bog‘chalari, maktab, litsey, oliy ta’lim dargohlari, balki oilalarda ham bolalarimizni innovatsion fikrlashga o‘rgatish ham farz, ham qarzga aylanmog‘i maqsadga muvofiqdir. Milliy g‘oya – xalq orzusi, niyatining ifodasi. U milliy rivojlanishning yangi talablaridan kelib chiqib yangilanib turadi. O‘z chiqishlaridan birida Prezidentimiz ―Milliy g‘oya nima uchun kerak?, degan savolni o‘rtaga tashladi. Javobini ham bir jumlaga jo qilib, Vatanni sevish uchun, dedi. Uchinchi Renessans bizdan ana shu sevgini - Vatanni uyimizdek, xalqimizni oilamizdek sevishni so‘rayapti. Chunki faqat sevgi insonni yangi, yaxshi kelajak yaratishga safarbar qiladi, madadkor bo‘ladi. Uchinchi Renessansni kim amalga oshiradi? O‘zida Vatanga sodiqlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlikni mujassam qilgan o‘zbekistonliklar. Uchinchi Renessans bizdan jon, sog‘liq, mablag‘ emas, yuqoridagi fazilatlarni har kuni amalda ko‘rsatishni so‘raydi. O‘z ishimizni halol-pok, sifatli, vijdonimiz nazoratida bajarishni so‘raydi. Ajdodlarimiz asrlar davomida ana shunday ezgu maqsadlar bilan farzandlarini tarbiyalab kelmoqdalar va bu an’anaviy tarbiya usullarimiz bundan keyin ham davom etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1 Эргашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев: Тарих фанл. докт. ... дисс.автореферати. – Тошкент, 1993.

2. Qosimov B. Milliy uyg‘ onish. - Toshkent, Ma’naviyat, 2002. B. 349-373.

3. Karimov N. So‘nggi so‘z. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2 jild. – Toshkent, Ma’naviyat, 2000. B. 203-206.

4. G‘aniyev I. Abdurauf Fitrat. E’tiqod va ijod. – Toshkent, Kamalak, 1994. Abdurauf Fitrat dramalari poetikas Fil.fanl.dokt...diss. – Toshkent, 1998.

5. Boltaboev H. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi:fil.fanl.dokt.diss.avtoreferati. -Toshkent, 1996.

6. G‘oyibova Sh.O.Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini pedagogika fanlari nozodlik dissertatsiyasi. T.1998 y. B. 143.

7. Olimov Sh. Fitrat merosini o‘rganish. Turkiya 2022 yil. – 314 b.

8. Xoshimov K. Hasanov R. Abdurauf Fitrat. Pedagogika tarixi. – Toshkent,

O‘qituvchi, 1996. B. 307-320.

Xumora USMANOVA,
“O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrasi dotsent.v.b
O‘zDSMI

ABDURAUF FITRAT SHE’RIYATIDA RAMZLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shoir va olim, nosir va dramaturg Abdurauf Fitrat ijodi haqida fikr yuritilib, uning she’riyatidagi ramzlarning badiiy va ma’naviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ramzlar orqali shoir milliy ozodlik, ma’rifat, muhabbat va ijtimoiy adolat g‘oyalarini ifoda etgani ko‘rsatiladi.*
Kalit so‘zlar*: olim, shoir, ramz, milliy uyg‘onish, yulduz, badiiy obraz.*

Annotation*. This article reflects on the work of the poet and scholar, Nazarene and playwright Abdurauf Fitrat and analyzes the artistic and spiritual characteristics of the symbols in his poetry. Through symbols, it is shown that the poet expresses the ideas of National Liberation, enlightenment, love and social justice.*
Keywords: *scientist, poet, symbol, national awakening, star, artistic image.*

Abdurauf Fitrat adabiyotimiz tarixida shoir va olim, nosir va dramaturg, o‘qituvchi va ma’rifatparvar sifatida muhim o‘rin egallaydi. U 1886-yilda Buxoroda ziyoli oilasida tug‘ilgan bo‘lib, Buxoro, Istambul madrasalari va dorilfununlarida o‘qiydi. U arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o‘zlashtiradi. Adibning otasi savdogarchilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, 1918-yilgacha Qashqarda turib qoladi. U, asosan, onasi Mustafo bibi (Bibijon) tarbiyasida bo‘lib, undan Navoiy, Uvaysiy, Zebunniso, Bedil, Fuzuliy kabi ulkan shoirlar g‘azallarini birinchi tinglagan.

Abdurauf Fitrat 1909-yilda Turkiyaga o‘qishga borib, 1913-qilgacha Istambul dorilfununida tahsil ko‘rgan. Turkiyada tashkil bo‘lgan “Buxoro ta’limi maorifi” uyushmasida faollik ko‘rsatgan. Behbudiy asos solgan jadid usulidagi maktablar takomiliga xizmat etgan Uning ilk to‘plami 1911-yilda “Sayha” (“Chorlov”) nomi bilan chop etiladi. “Sayyohi hindi”, “Munozara” kabi asarlari ham shu yillarda nashr etilgan. 1909-1913-yillarda Turkiya dorilfununida o‘qiyotganda uning zukko, bilimdonligi professor-o‘qituvchlarni hayratga soladi. Unga Fitrat – Donishmand taxallusini beradilar.

Fitrat ijodi Turkistonda inqilobiy harakatlar kuchaygan, “Sharq uyg‘ongan” davrlarga to‘gri keladi. U ham o‘z salaflari kabi, avvalo, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi. Uning1913-yilda tojik tilida yaratilgan “Munozara” nomli asarida o‘z xalqini zulm botqog‘idan qutqarib, “najot yo‘li”ni izlaganligi seziladi.

Bu davrda rus tili va rus madaniyatini targ‘ib qilish ham Fitrat ma’rifatparvarligi yo‘nalishining muhim tarmog‘i bo‘lgan. Bunday qarashlar uning o‘zi tashkil etgan va muharrirlik qilgan “Hurriyat” ro‘znomasida keng targ‘ib etiladi. Xuddi shu yillar “Hayot yo‘lida birinchi masala - maktab masalasidir” (“Hurriyat”, 1917-yil, 1-son) degan shior bilan chiqadi. Uning “Hurriyat” (1917, 31-son) ro‘znomasida bosilgan “Yurt qayg‘usi...” nomli lavhasida Turkiston uchun, uning ayollari ozodligi uchun kurashga bel bog‘laganligini aytadi.

“Men sen uchun tug‘ildim, sen uchun yasharman,

Sening uchun o‘larman, ey turning muqaddas o‘chog‘i!” degan da’vat eshitiladi. “Ulug‘ Turkiston” (1917, 2-son) ro‘znomasida “Yashasin turklik, yashasin Islom” shiori bilan chiqadi. Uning “Hind ixtilolchilari”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘izxon”, “Abo Muslim”, “Turk tili” kabi asarlarida ham hurfikrlar, qarashlar, ko‘zga tashlanadi. Shular qatorida “Qon”, “Begijon”, “Chin sevish”, “To‘lqin”, “Vose’ qo‘zg‘oloni”, “Ro‘zalar” kabi dramalari yaratildi.

Abdurauf Fitratning 1922 yilda nashr etilgan “O‘zbek shoirlari” to‘plamiga kirgan “Kecha”, “Behbudiy mozorini izlab”, “Sharq” kabi she’rlarida izlanish jarayoni uchraydi. Shoir she’rida “o‘zim uchun ko‘p umidlar to‘qidim” degan xulosaga keladi. Uning 1920 yilda yozilgan “Kim deya seni” kabi she’rida oshiqning ma’shuqqa katta umid bilan intilishi, kutishi, suyishi lirik bir ohangda kuylanadiki, shoir endi ijodning yangi pog‘onasiga ko‘tarilayotganligidan dalolat beradi. Shoir ijodida, dunyoqarashida siljish, yangilikka, go‘zallikka intilish seziladi.

Abdurauf Fitrat shuningdek, tilshunoslikka ham befarq bo‘lmagan holda “O‘zbek tili” darsligi, “O‘zbek tili sarfi” (grammatikasi) kitoblarini 1925-1930 yillarda besh marta chop etildi. Uning “Tilimiz”, “O‘zbekcha til saboqlari”, “Imlo konferensiyasi munosabati bilan” maqolalari ham yaratildi.

Abdurauf Fitrat o‘zbek olimlari orasida birinchilardan bo‘lib professor degan yuksak ilmiy unvonga sazovor bo‘lishi bilan birgalikda — o‘zbek adabiyotining XX asr boshlaridagi eng yorqin va ilg‘or vakillaridan biri sifatida she’riyatda ham, nasr va dramaturgiyada ham chuqur mafkuraviy va badiiy mazmun yaratgan adib hisoblanadi. Uning she’riyatida ramzlar katta o‘rin tutadi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari uning ijodiy uslubini belgilab beradi.

Abdurauf Fitratning she’riyatida ramzlarning o‘ziga xos xususiyatlari uning ijodining muhim jihatlaridan biridir. U ramzlar orqali ma’naviy, ijtimoiy va siyosiy mazmunlarni ifodalagan, shu bilan birga, o‘zbek adabiyotida yangi estetik va g‘oyaviy yo‘nalishlarni shakllantirgan.

Ta’kidlab o‘tish joizki, Fitrat she’riyatida ramzlarning quyidagi xususiyatlari kuzatiladi.

- Ma’naviy va ijtimoiy mazmunning ramzlar orqali ifodalanishi;
- Mustamlakachilik va milliy ozodlik ramzlari;
- Islomiy va sufiy ramzlarining ishlatiladiganligi;
- Tabiat va inson munosabatlari ramzi.

Fitrat she’rlarida *qorong‘u kecha, nur, yulduz, bahor* kabi ramzlar orqali *jaholat, ilm, umid* va *ozodlik* kabi ma’naviy va ijtimoiy tushunchalar ifodalangan.

Bu ramzlar shoirning ma'rifatparvarlik va milliy ozodlik g'oyalarini targ'ib qilishda muhim vosita bo'lgan.

Fitratning "Sharq" va "Mirrix yulduziga" kabi she'rlarida mustamlakachilikka qarshi nafrat va milliy ozodlikka intilish ramzlar orqali ifodalangan. Masalan, "Mirrix yulduziga" she'rda yulduz orqali mustamlakachilarning zulmlari va xalqning azoblari ko'rsatilgan.

Fitratning she'rlarida islomiy va sufiy ramzlari, masalan, *sham'* va *parvona, safar* va *haqiqat yo'li* kabi ramzlar orqali ma'naviy izlanish va nafsni tarbiyalash g'oyalari ifodalangan. Shuningdek, tabiat elementlarini, masalan, *qush, suv, bahor, yulduzlar* kabi ramzlar orqali insonning ichki holatlari, umidlari va qayg'ularini ifodalagan. Bu ramzlar uning lirik she'rlarida keng qo'llanilgan.

Go'zal, yulduz, erimizning eng qadrli tuvg'oni,
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarga tushibsan?
Tuvg'oningga nechun sira gapurmasdan turibsan,
So'yla, yulduz, holing nadur, nechuk topding dunyoni?

Bu she'rda yulduz ramzi orqali mustamlakachilik va xalqning azoblari ifodalangan. Yulduzning uzoqlashishi va unga murojaat qilish orqali shoir mustamlakachilarning zulmlariga qarshi nafratini bildirgan.

Go'zalim, bevafo gulistonim,
Bog'i umrimda toza rayhonim.
G'am-u qayg'ularim hujumindan
Sen eding mehribon, nigohbonim.

Shoirning yuqorida keltirilgan "Go'zalim" she'riy parchasida go'zal ramzi orqali shoirning ichki qayg'ularini, muhabbat va ishq tuyg'ularini ifodalagan. Go'zalim ramzi orqali shoir o'zining ichki dunyosini, qayg'u va umidlarini tasvirlagan.

Fitrat she'riyatida ramzlar bevosita badiiy obraz bilan uyg'un holda keladi. Ularning tasviriyligi va falsafiy yuklamasi birgalikda ta'sirli ma'no yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning she'riyatida ramzlar nafaqat badiiy bezak, balki g'oyaviy-estetik vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu ramzlar orqali shoir o'z zamonasining murakkab muammolarini ifoda etadi, ma'naviy uyg'onish va milliy ozodlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Shu bilan birga, uning ramzlari umuminsoniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, o'quvchini chuqur mulohazaga undaydi.

Abdurauf Fitratning she'rlarida ramzlar nafaqat badiiy obrazlar, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy mazmunlarni ifodalash vositasidir. U ramzlar orqali xalqni jaholatga, zulmga qarshi kurashga, ma'rifat va ozodlik sari yo'naltirishga chaqirgan. Shu bilan birga, uning she'rlarida milliy o'zlik, ma'naviy qadriyatlar va inson huquqlari masalalari ham muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurauf Fitrat" (1886-1938) – www.ziyouz.uz
2. Abdurauf Fitrat. "Mirrix yulduziga". Abadiyot manzaralari. 26-sentabr. 2012-y.
3. Abduraf Fitrat. "Go'zalim". tafakkur.net

Hikmat HIKMATOV
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti katta o‘qituvchisi

ZULLISONAYN SHOIR – AMIR UMARXONNING TOJIK TILIDAGI ASARLARIDA USLUBIY VA BADIIY IZLANISHLAR

Annotatsiya. *Aytish kerakki, mumtoz adabiyot namoyandalari bo‘lgan buyuk shoirlarning she’rlari yuksak ma’no, yangi mazmun bilan bezanish bilan birga, badiiy zeb-ziynat orqali ham yangicha iboralar kasb etib, o‘zgacha go‘zallik, tarovat kasb etadi. Ular o‘z o‘quvchilarining didi va bilimiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda mazmun va badiiy shakl qo‘shilsa, to‘liq adabiyot yaratish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *kalom, hikmat, an’ana, nisbat, individuallik, bog‘lanish, shior, fikr, mazmun, ta’sir, tahlil, janr.*

Annotation*. It should be said that the poems of great poets, who are representatives of classical literature, are not only decorated with high meaning and new content, but also acquire new expressions through artistic embellishment, acquiring new beauty and freshness. They also have a great influence on the taste and knowledge of their readers. Here, if content and artistic form are combined, it is possible to create complete literature.*

Key words: *Word, theme, friends, wisdom, tradition, proportion, individuality, connection, motto, idea, direction, content, impact, analysis, genre.*

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, nutq insonga ta’sir eta oladigan, ya’ni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi bo‘ladigan tarzda yaratilishi kerak.

Badiiy ifodaning keng qo‘llanilishini mumtoz va zamonaviy shoirlarning butun ijodida kuzatish mumkin. Darhaqiqat, atoqli zullisonayn adiblardan biri Amir Umarxonning she’rlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, badiiy san’at va ma’naviyat san’atlari, jumladan, tashbeh, o‘xshatish, murojaat, savol-javob, mubolag‘a, kinoya, ta’rif, tavsif, diagnostika kabilarning boy asarlari namunasi sifatida keng qo‘llanilganiga bevosita guvoh bo‘lamiz. Aytish joizki, Amir Umarxon har ikki tilda – tojik va o‘zbek tillarida badiiy san’atlardan deyarli teng foydalangan.

Badiiy san’at turlaridan savol-javob san’ati o‘ziga xos talablari bilan alohida xususiyatlarga ega. Bu borada zullisonayn shoir she’riyati ham uni qo‘llanishdan xoli emas. Amir Umarxon ijodida savol-javob san’ati uning ayrim misralarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu san’at shoirning ichki tuyg‘ularini ifodalashda yaxshi vosita bo‘lib, nozik mantiq va aniqlik bilan foydalanilgan va she’rda o‘z maqsadiga etishga arzigulli xizmat qilgan. Amir Umarxon qissalarida savol-javob san’ati ikki xilda qo‘llangan. Birinchidan, shoir ayrim g‘azallarida o‘z maqsad va niyatlarini shu

san’at orqali ifodalaydi. Bunday holatlar bir misra yoki uch-to‘rt misrada uchraydi. Jumladan, “Burd dil az dasti man on sanami dilfireb” (ko‘nglimni mendan olib keti ul sanam) misrasi bilan boshlangan g‘azalda ikkinchi baytda savol-javob san’ati qo‘llanib, shoirning keyingi fikr va mulohazalari shu orqali ifodalanadi:

Guftamash: Az hajri tu so‘xtam, ey dilrabo,

Guft: Turo vasli man shod kunad anqarib. [2, 28].

(Tarjima: dedim: sening hajringdan kuyib ketdim, ey dilrabo, dedi: senga meni vaslim yaqinda shod etur)

Adabiyotshunoslikda keng tarqalgan san’at turi bo‘lmish tachnis san’ati Amir Umarxon she’riyatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Yana shuni aytish kerakki, Amiriy she’riyatidagi badiiy ifodaning bu turi Shayx Kamol Xo‘jandiy didi va iste’dodi ta’siridadir. Keyingi g‘azalida u o‘z tilini rang-barang qilish uchun og‘zaki jinsdan foydalangan. Chunonchi, quyidagi baytdagi “xumor” (rohat) va “xum or” (xum ni olib kel) so‘zlari asosiy arab yozuvida bir xil bo‘lsa-da, shoirning so‘zlashuv uslubida turli ma’nolarda ifodalangan.

Nabvad digaram toqati xamyoza kashidan,

Xum or, ki betobiyam az dardi xumor ast. [2, 43].

(Tarjima: shohidlarga sening abro‘ying ko‘p sitamdir, asirlarga esa, mast nargising ko‘p jafodir).

Amir Umarxon ijodida allegoriya (tashbeh, o‘xshatish) san’ati alohida o‘rin tutadi. U bu san’at turidan ham tojik, ham o‘zbek she’riyatida keng foydalangan va bu san’at uning barcha asarlarida mavjud desak xato bo‘lmaydi. Mumtoz adabiyotimizda metafora san’ati o‘xshatish san’atidan keyingi o‘rinda turadi. Chunki mana shu san’at orqali notiqlar o‘zlarining yuksak mahoratini namoyon etadilar. Ta’kidlash joizki, adabiyotda metafora bir so‘z o‘rnida qo‘llanadigan badiiy san’at turi hisoblanadi. Masalan, “Devoni Amiriy”dan majoz san’ati mazmunida qo‘llangan ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Bu baytda shoir “ko‘z”ni mast nargisga o‘xshatadi:

Bo shahidon teg‘i abro‘i tu shodob dar sitam,

Bo asiron nargisi masti tu sarshori jafo. [2, 14].

(Tarjima: shohidlarga sening abro‘ying ko‘p sitamdir, asirlarga esa, mast nargising ko‘p jafodir).

Amiriy she’riyatida yaqqol ko‘zga tashlanadigan yana bir badiiy uslub tazod, ya’ni qarama-qarshilikdir. Bu san’atlar ikki fikr qarama-qarshi qo‘yiladigan, boshqacha aytganda, ikki shaxs yoki ikki narsaning sifat va xususiyatlari qiyosiy jihatdan qarama-qarshi qo‘yiladigan badiiy ifoda vositalaridan eng samaralisi hisoblanadi. Masalan, u bir satr yoki misra ichidagi fikrni ifodalash uchun ikki qarama-qarshi so‘z ishlatgan. Jumladan, quyidagi baytda “girebon” (yoqa) va “doman” (yubka) so‘zlari bir-biriga qarama-qarshi qo‘llanib, nozik ma’no hosil qilgan.

Tu bo tavqi vafo nozivu man bo didai giryon,

Turo gul dar girebonu maro dar doman, ey qumri. [2, 237].

(Tarjima: sen vafo tavqi bilan xursand bo‘lsang, men didagiryonman, senda gul giriboningda bo‘lsa,meni domonimda qumriy).

Amir Umarxon ikki tilda –tojik va o‘zbek tillarida so‘zlashuvchi bo‘lganligi sababli uning asarlarida tillarning ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. U o‘zining tojik tilidagi asarlarida asosan Kamol Xo‘jandiy, Jomiy, Bedilga ergashgan bo‘lsa, o‘zbekcha asarlarida A.Navoiy, Lutfiy, Fuzuliyga ergashgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kifoyaki, zullisonin adib Amir Umarxon o‘z she’riyatida qarama-qarshilik va qarama-qarshilik, tashbeh, o‘xshatish, tashbeh, tashbeh, takror, savol-javob, mubolag‘a kabi turli san’atlardan keng va mo‘l-ko‘l foydalangan va shu orqali asarlarining badiiy sifatini oshirgan. Og‘zaki va ma’naviy metaforalarning qo‘llanilishi uning badiiy jihatini yuksaltirish, shoir nutqini ta’sirli va maqbul qilish imkonini berdi. Uning ikki tilda ijod qilgani, mana shunday olijanob va olijanob she’rlar yaratgani Amir Umarxonning bunday material yaratishda yuksak notiqlik mahoratiga ega bo‘lganligi, fors, tojik, o‘zbek adabiyotini boyitishga munosib hissa qo‘shganidan dalolat beradi. Shuning uchun ham uning asarlari bugungi kunda ham o‘rta maktab darsliklariga, ham O‘zbekiston va Tojikiston oliy o‘quv yurtlari o‘quv qo‘llanmalariga kiritilgan va o‘qitilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qayyumov, P. (Po‘lotjon Qayyumi) Tazkirai Qayyumiy / Po‘lotjon Qayyumi - Nashrga tayyorlovchi Aziz Qayyumov.- Toshkent, 1998.
2. Амирӣ. Девон. Нусхаи хаттии Китобхонаи Миллии Ҷумҳурии Тоҷикистон, тақти рақами 11/92.-220 с.
3. Амирӣ. Девон. Нусхаи хаттии Китобхонаи Миллии Ҷумҳурии Тоҷикистон, таҳти рақами 11/92.
4. Возеҳ, Қорӣ Раҳматуллоҳ. Туҳфат-ул-аҳбоб фи тазкират-ил-асҳоб. /Матни интиқодӣ бо муқаддима ва тасҳеҳи Асғари Ҷонфидо. Зери назари Абдулғанӣ Мирзоев. - Душанбе: Дониш, 1977.
5. Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан: китоби дарсӣ / Воҳид Зоҳидов. - Тошканд, 1961.
6. Қаюмов А. Қўқон тарихи ва адабиёти. - Т. 1. / А.Қаюмов. – Тошканд, 1998.
7. Қаюмов А. Қўқон тарихи ва адабиёти. - Т. 2. / А.Қаюмов. – Тошканд, 1998.
8. Брагинский И. С. Из истории таджикской и персидской литературы / И.С.Брагинский. - Москва: Наука, 1972.
9. Ҳикмат Султонович Ҳикматов. Як назар ба намунаҳои ашъори дузабона дар адабиёти бадеии асрҳои XVII-XIX. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 8 | 2023.

Dilbar NASRIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani

o‘qituvchisi

JADIDLARNING MILLAT MA’NAVIYATI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX-XX asrlar oralig‘ida o‘lkamizga yoyilgan jadidchilik harakati, uning paydo bo‘lish sabablari, maqsad va vazifalari haqida atroflicha mulohaza yuritilgan. Millat ziyolilarining madaniyatimiz tarixida tutgan o‘rni, til, adabiyot, san’at sohasidagi qarashlari, birdamligi va shu yo‘ldagi mashaqqatli mehnatlari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ziyoli, madaniyat, ma’naviyat, jaded, til, adabiyot, san’at, savod.*

Annotation*. This article provides a comprehensive reflection on the jadidism movement spread across the country between the 19th and 20th centuries, the reasons for its emergence, its goals and objectives. The role of the intellectuals of the nation in the history of our culture, their views in the field of language, literature, art, solidarity and hard work in this way are described.*

Key words: *intellectual, culture, spirituality, jaded, language, literature, art, knowledge.*

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida butun Turkiston o‘lkasiga yoyilgan jadidchilik harakati o‘zbek tili, adabiyoti va san’ati rivojlanishiga, millatning uyg‘onishiga turtki bo‘ldi. Jadidlar o‘lka aholisini ilmli,ma’rifatli, shuningdek, hurfikrli bo‘lishini istab, maktab, maorif, adabiyot va san’at sohalarida katta islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilib oldi. Xalqning madaniy va ma’rifiy jihatdan ongini o‘stirishga, dunyoqarashini rivojlantirishga bor e’tiborini qaratdi. Bu borada xalq orasidan chiqqan millat ziyolilari mulkdorlar qatlamining bir qismi jadidchilik harakatining tayanchi bo‘ldilar. Bular qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiy,Abdulla Avloniy, Fayzulla Xo‘jayev, Said Ahmad Vasliy, Sadriddin Ayniy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdulla Badriy, Abdurahim Yusufzoda, Hoji Muin, G‘ozi Yunus, Elbek, G‘ulom Zafariy, Abdulla Qodiriy, Tavallo, Abdulhamid Cho‘lpon, Mirmuhsin Shermuhammedov, Akmal Ikromov, Miskin Usmonxo‘ja To‘xtaxo‘jayev kabi xalqning barcha tabaqa vakillari bor edi. Jadidlar orasidan etuk olimlar, madaniyat arboblari, sanoat va ziroatchilik sohasining zamonaviy bilimdon mutaxassislari etishib chiqib, yurtni obod, vatanni mustaqil ko‘rishni istadilar va shu yo‘lda sobitqadam bo‘lib kurashdilar. Ularning eng oliy maqsadlari, ezgu g‘oyalari quyidagilar edi:

-Turkiston o‘lkasini qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish;

-xalqqa ma’rifat tarqatish;

-Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;

-shariatni isloh qilish;

-maktab, maorifni isloh qilish va hokazo.

Yuqoridagi ulug‘ maqsad va g‘oyalar atrofida birlashgan jadid harakati a’zolari tezkorlik ,aniqlik va albatta, adolatni o‘zlariga mayoq deb bildilar.

Xalq ongini tarbiyalash, uni qoloqlik botqog‘idan chiqarish, millatni ma’naviyat sari etaklash maqsadida harakati vakillari ilg‘or va tezkor o‘qitish usullari bilan qurollangan maktablar tashkil eta boshladilar. Bunday maktablarda millat bolalari bir yilcha savod chiqarib, o‘qish va yozishni o‘zlashtirib, xat-savod chiqarardi. Bu maktablarda diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unlashgan holda o‘qitilar edi. O‘quvchilar maktab partalarida o‘tirib, diniy va dunyoviy bilimlarni o‘zlashtirishga kirishar, „Qur’oni Karim‘‘ va „Hadisi Sharif’’ sahifalari nurlaridan bahramand bo‘lish barobarida matematika, jug‘rofiya, til-adabiyot, rus tili, arab tillarini, shuningdek, ashula va jismoniy tarbiya kabi fanlarni o‘rganishardi. Maktabni tugatgan yoshlar zamonaviy va diniy bilimlarni mukammal egallab, jadid maktablarida o‘qituvchilik, masjidlarda imomlik qilish imkoniyatiga ega bo‘lar edi.

Millatning ma’naviyatini rivojlantirish uchun bel bog‘lagan ziyolilar maktablar uchun dastur, darslik va qo‘llanmalarni o‘zlari yozganlari barchamizga ayon. Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Tajvid”, “Usuli hisob”, “Tarixi islom”, Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, Behbudiyning “Qisqacha umumiy geografiya”, “Bolalar maktubi” va boshqalar shular jumlasidandir. Bobolarimizning bu kabi harakatlari millatni qoloqlik, xurofot botqog‘idan olib chiqish uchun qilingan ishlarning amaliy ko‘rinishidir. Ma’rifat, bilim, yuksak ma’naviyat orqali rivojlanishga yuz tutish ularning oliy maqsadi edi. Ma’naviylik shundan iborat ediki, ular ozodlikka, mustaqillikka turli nizolar, qon to‘kilishlarga olib keluvchi to‘polon-u qirg‘inbarot urushlar bilan emas, aholining savodini chiqarish, ma’naviyatini yuksaltirish orqali har qanday qaramlikni keltirib chiqaruvchi omillarni yo‘qotishga harakat qildilar.

Yuqorida aytganimizdek, jadidchilik harakatining maqsadi xalqni ma’rifat tomon etaklash, ongini milliy ozodlik g‘oyalarini singdirish, yoshlarni har sohada ilg‘or va hurfikrli ko‘rish edi. Ammo jadidchilik harakati oqibatlari juda qimmatga tushdi. Millatimiz yoshlarini zamon bilan hamnafas yashashga, bilim olish, chet tillarni o‘rganish, dunyo ko‘rishga chorlagan jadidlarimizning taqdiri, afsuski, ayanchli bo‘ldi.

Fojiali yakuniga qaramasdan jadidlar asos solgan milliy o‘zlikni anglash yo‘lidagi milliy ozodlik harakatlari xalqning ruhiyatiga yangiliklar olib kirdi. Yillar o‘tib, ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan oziqlangan millat orasidan haqiqiy va fidoyi farzandlar etishib chiqdi.

Xurofot va qoloqlik botqog‘idan chiqishning eng samarali yo‘li ma’rifat ekanligini targ‘ib qilgan jadidlarimizning bu g‘oyalari yillar, zamonlar o‘tib ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgan emas. Ma’naviyat -har qanday yovuzlikkka qarshi tura oladigan, oqni qoradan ajrata olishda asqatadigan,hayotda to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata oladigan mayoqdir.

Yosh avlodning qadriyatlarga sodiq, g‘ururli o‘zbek farzandlari ta’lim-tarbiyasi uchun millati tarixi, tili imlosi, urf-odatlari haqida bilim beruvchi fanlarning ahamiyati katta. Buni to‘g‘ri anglagan jadidlar XX asrning boshidayoq Turkistonda 9 oylik maktablarni tashkil qilgan. XIX asrning 80-yillaridan boshlab ma’naviy uyg‘onish sari yuz tutgan turkiy xalqlar millat ko‘zgusi, taraqqiyot omili bo‘lgan til masalasiga jiddiy e’tibor berdi. Ma’rifatparvar adib Fitrat boshchiligidagi

millatparvarlar Turkistonda ilk bora o‘zbek tilini o‘rganishga kirishdilar. Til qoidalari, arab va rus grammatikasi qoidalari, ularning ichki tuzilishi o‘rganib chiqildi. Ular alifbo va imlo muammolarini o‘rganib,t urkiy tillar grammatikasini tuzdilar. Shu jarayon sabab o‘zbek tili grammatikasiga oid asarlar yaratildi. Til bilan birgalikda adabiyot va san’atga ham e’tibor kuchaydi.

Abdulhamid Cho‘lpon o‘zining „Adabiyot nadur? nomli maqolasida shunday deydi: Har bir millatning hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik) ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda etishgan, fayzli til birla taqdir etila olmaydurg‘on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda aning to‘lquni odamning har xil maishatiga qarab o‘zgaradur”. Bu borada Cho‘lpon bilan hamfikr maslakdoshlari, hurfikrli jadidlarimiz, millatni har tomonlama etuk ko‘rishni istab ,hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan,noyob adabiyot durdonalarini xalqqa taqdim etdilar. Bunga Fitratning “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni”, “Munozara”, Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani, “Turkistonli qardoshlarimga” she’ri, “Qurboni jaholat”, “Do‘xtir Mahammadyor” kabi bir qator asarlar misol bo‘ladi. Ular taraqqqiyot ilm-fanga bog‘liq ekanligini o‘z asarlari bilan targ‘ib qildilar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev adabiyotimizga alohida e’tibor qaratar ekan, unda milliy uyg‘onish adabiyotining yirik vakili Abdulla Avloniyning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Darhaqiqat, maktab va maorif sohasida Avloniyning alohida mehnati, alohida nomi bor U „Adabiyot yoxud milliy she’rlar’’ to‘plamida Vatan va millat dardini o‘z tanasida his etib, bu dardni millat bolalari bilan bo‘lishadi. Vatan va millat taqdiri, yoshlar tarbiyati haqida qayg‘uradi:

“Na millat yodi moziying vor,
Na istiqloling ummidi
Vujuding panjayi vahshat ichinda
Tor-u mor o‘lmish”

Millatning “tor-mor” bo‘lishini esa bilimsizlikda deb xulosalaydi. Jadid bobolarimiz xalqni ma’naviyat, ma’rifat bo‘stonlariga chorlash maqsadida badiiy va ilmiy adabiyotlar, darsliklar, gazeta va jurnallar nashr ettirdilar. Xalqni adabiyotga, san’atga yaqinlashtirish uchun sahnaga mo‘ljallangan asarlar yaratdilar. Teatr truppalari tashkil etib, millat dunyoqarashini, ongini yangilashga harakat qildilar.

Bugun bobolarimiz orzu qilgan, armon qilgan dorilomon kunlar keldi.

Shukurlar bo‘lsinki, yurtimizga mustaqillik shabadalari esa boshlagan kundan boshlab, vatanimiz, millatimiz ozodligi, hamjihatligi yo‘lida fido bo‘lgan, ma’naviyati, tili, adabiyoti va san’ati rivojiga, yangilanishiga, asrlar osha bezavol umr ko‘rishiga jonbozlik ko‘rsatgan va shu yo‘lda yosh umrlarini xazon qilgan ajdodlarimiz Vatanimiz tarixiga sharaf bilan yorqin ranglarda bitib qo‘yildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jalolov.A. Jadid adabiyotida ozodlik va istiqlol g‘oyalari. O‘TA. 1996, 4-son.
2. Quronov. D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.; ,”Xalq merosi” – 2004.
3. Xurshid Davron kutubxonasi. (kh-davron.uz)

4. Avloniy. Tanlangan asarlar. Istiqlol qahramonlari. Ma'naviyat-1998.
5. Internet ma'lumotlari.

Adhamxo'ja ABDULLAXO'JAEV,
Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi
adhamxojaabdullaxojaev@gmail.com

IS'HOQXON TO'RA IBRAT G'OYALARINING YANGI O'ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR BILAN UZVIYLIGI ("TARIXI MADANIYAT" ASARI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Maqolada jadid ziyolisi, millat fidoiysi Is'hoqxon to'ra Ibrat tomonidan yozilgan "Tarixi Madaniyat" asarida ilgari surilgan madaniyat, rivojlanish, islohot, yangilik singari g'oyalarni tahlilga tortiladi.*
Kalit so'zlar: *madaniyat, tarix, islohot, Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, yuksalish.*

Annotation. *The article draws on the analysis of ideas such as Culture, Development, Reform, innovation, which were put forward in the work "culture of history", written by Jadid intellectual, is'hoq Khan Tora Ibrat, the devotee of the nation.*
Key words: *culture, history, reform, New Uzbekistan, spirituality, ascension.*

Is'hoqxon To'raning ilm-fan, talim-tarbiya, ma'rifat va madaniyat masalalariga bag'ishlangan "Tarixi madaniyat" asari mustaqil davlatning moddiy va ma'naviy zamini hamda tarixiv taraqqivot muammolarini qamrab olgan.Unda tarixiy taraqqiyot 1918-yildan Farg'ona vodiysida bo'lib o'tgan istiqlolchilar va hukumat o'rtasidagi qonli to'qnashuv haqida qisqacha ma'lumot berilgan bo'lib, muallif tarixga bo'lgan munosabatini shunday ifodalagan: "Tarix degan narsa har qaysi zamonni o'ziga muvofiq ahvoliyasini aytur" [1, 124.] Ibrat safarlar uyushtirganligi va uning hayotida yangi bir burilish yasagan kashfiyotlarini ko'rganligi,Turkiston hali uyquda ekanligini uni uyg'onishga davatla boshlanganligiga qaramay,hanuz islohi zamon etmaganligini qalamga oladi.Madaniyat barcha millati zamoniyda katta kuch bo'lgan bo'lsa bu davr kishilari madaniyatni madaniyatsizlik deb baholab,yomonotliq qilishganligini birgina Ibrat domlaning tashabbusi va zamona talabi o'laroq tashkillangan "Istirohat bog'i" nopok er va borish mumkin emas degan tamg'alar bilan xalq ongiga singdirilganligi,madaniy tushkunlik qay yo'sinda ekanligidan dalolat beradi.Is'hoqxon To'ra Ibrat xorijda bo'lgan vaqtida texnika va madaniyat jadal taraqqiy etayotgan shaharlarda yashagan. Bu shaharlarda yashayotgan kishilarning turmush tarzi, dunyoqarashi, madaniyati, ma'naviyati bilan yaqindan tanishgan Ibrat ona yurtining baxtu iqboli, taraqqiyoti haqida orzu qilib, ona vatanidagi

shaharlarning har jihatdan yuksalishiga ishongan. Ezgu orzularni amalga oshirishning birdan bir yo‘li ilm-fan, o‘qish-o‘rganish ekanini yurakdan his etgan Ishoqxon To‘ra Ibrat “Bizning Rusiyada Petrograd, Maskov, Ades (Odessa) va shunga o‘xshash shaharlar bor. Fransiyada (Evropada deyilmoqchi) Faris, Berlin, Vena va Madrid, London, Rumo, Vashington, Sharqda Tokio, Istanbul. Mundan bo‘lak necha-necha shaharlar bor, o‘zi kichkina bo‘lsa ham madaniyat topgan. Bu madaniyat shaharlari madaniyatni nima birlan topgan? Ilm birlan, o‘qub... Madaniyatni topadurgan va yurguzadurgan asbobi ilm ekan” [2, 112.] deb, ilm-ma’rifatga katta e’tibor qaratgan. Asar 1926 yilda yozilgan. Bu haqda muallifning o‘zi shunday yozgan: “1344 hijriyda, milodiy 1926 yil 10 yanvarda tamom qildim” [18, 139.]

Madaniy hayot barcha sharoitlar muhayyo, davlat tomonidan fuqaro xizmati uchun ham ijtimoiy, ham siyosiy institutlarni tayyorgarligi bilan baholandi. Islom falsafasida inson rohat-farog‘ati uning kamoloti va bezagi, husni xulqi bo‘lib, unga munosib er esa, tabiiyki, firdavs bo‘lganidek, Madaniyatning shahrida hayot misoli jannatdek bo‘lishi, har tur ashyo-yu, anvoyi gullar bilan burkangan hayot bo‘lishini qiyos qilib beriladi. “Madaniyat haqida masnaviy”da Is’hoqxon To‘ra Ibrat madaniyatga erishgan shaharlar va ulardagi afzalliklarini aytib, madaniy shaharda kishi o‘zini xuddi jannat ichra deb bilishi, madaniy hayot barcha sharoitlar muhayyo, davlat tomonidan fuqaro xizmati uchun ham ijtimoiy, ham siyosiy institutlarni tayyorgarligi bilan baholandi. Islom falsafasida inson rohat-farog‘ati uning kamolati va bezagi, husni xulqi bo‘lib unga munosib er esa, tabiiyki, firdavs bo‘lganidek, Madaniyatning shahrida hayot misoli jannatdek bo‘lishi, har tur ashyo-yu, anvoyi gullar bilan burkangan hayot bo‘lishini qiyos qilib beriladi. Madaniyat jahonda osoyish bo‘lsa, xulq husni unga oroyish berishi, madaniyat kishiga rohat keltirishi, madaniyat shahrida bo‘lgan inson xuddi guliston ichida yurgandek bo‘lishi, shahardagi barcha ne’matlar inson manfaati uchun xizmat qilishi, bu shaharda yozin-qishin hayot qaynashi, shahar ko‘chalari musaffo ekani, borish-kelish mashaqqatlari yo‘qligi, bu erning aholisi ilm-ma’rifatda taraqqiyga erishganlari, axloq-odoblari bilan barchaga manzur bo‘lishlari, *elektr, samovar, sandal, telegramm, tramvay, avtomobil, temir yo‘l, samolet, telefon, pechka, ventilyator, poezd, konka* odamlar xizmatida ekani, bemorlar dardiga malham bo‘ladigan shifokorlarning ko‘pligi, jarrohlar murakkab operatsiyalarni ham bir zumda o‘tkazishlari, muhandis va arxitektorlarning sa’y-harakati bilan shaharlarga go‘zal va naqshinkor, ko‘p qavatli imoratlar qurilishi, ilm dargohlari ko‘pligi, har kim o‘z ishi bilan ovoraligi, bekorchi, tanbal, beish odamning yo‘qligi, hatto ayollar ham ish bilan mashg‘ulligi, xalq baxtiyor va xotirjam ekanini bayon qilib, madaniy shaharlar nomini darj qilgan:

Madaniy shahar hozir olamda, o‘n ikkidur hisob odamda.

Misr, Istanbul, Farish, Berlin, Lundun va Madrid, Vashulg‘itun. Vena, Petergrod ham To‘kiyo, madaniyatda bo‘lg‘uvchilar bu.

Birisini oti erur Rumo, madaniyatni(ng) eri erur Doniyo [4, 50].

Madaniyat xaloyiqqa rohat,

Kormagay gamni hech soat.

Madaniyatni(ng) shahri ichra tur,

Dashtda yurma, guliston ichra yur.

Millatning saodati va iqbol, uning farovonligi bugun ham eng katta maqsad va vazifalardan biri sanalishini hisobga olib, xalq rohati va tinchligi shaharlarni ozod va obodligi, zamona bilan hamnafasligiga uzviydir. BMT global tashabbusi bo‘lgan The Shorld Happiness Report nashri tomonidan har yili tayyorlanadigan “Baxt indeksi”ning yangi natijalari e’lon qilindi. Unda O‘zbekiston 53-o‘rinni egalladi. Mamlakat 2020-yildagi natijalarga ko‘ra 15 pog‘onadan joy oldi.

Safar aylarga kob temir yollar,
Ham havo foyzin alar qollar.
Hama uylarda tilifun bolur,
Pechka issiq, sovuq solum bolur.

Madaniyat shahrida avvalo transport infratuzilmasi mukammal yo‘lga qo‘yilganligi bilan izohlanadi. Hali Turkiston temir yo‘llari qurib bitmasidan avval uning ajoyibotlarini ko‘rgan Ibrat ayni shu madaniy hayotning bir parchasi hisoblaydi.

Yozda uyda sovuq pech ila shamol,
Barcha iliktr ila otgay hol.
Sandalu samovar iliktriydur,
Lampa yorug‘lari ani(ng) eridur.
Bosh yorub, ich ochub turar jarroh,
Necha minglar muhandisu tarroh.
Shahar butkul imoratidur oliy,
Kocha keng, ming kishigadur xoli.

Yangi O‘zbekiston-ma’rifarli jamiyat degan oliyjanob g‘oya atrofida butun xalq bugun birlashishida xalqning maqsadlari, orzu-istaklari,ming yillik tarixiy qadriyatlari, urfi, an’ana va asori-atiqalari, pok va sof dini, adabiyoti va san’atiga tayangan ilm-u ma’rifati yotganini e’tirof etishimiz mumkin.Madaniy jamiyat avvalo xalqni ziyoli qilishga kamarbasta bo‘ladigan ishlar sari odim boradi.

Hama oz ishi birla ovora,
Kochada yoqki xalq bekora.
Anda xotunlar ham qilurlar ish,
Demagaylarki, butun yozu qish.
Barchasini maishati tayyor,
Yegaylar taomni me’yor.

Ibrat ilgari surgan shunday ijtimoiy masalalar borki, ularni bugun biz hayotimizda ko‘rib, ayni shuning ichida yashayotganligimiz va zamona Ibrat zamonasi (Turkistonni ozod va obod, farovon va buyuk bo‘lishini ta’kidlanmoqda) bo‘lganligi jadidlar kutgan hur kunlar bugun Yangi O‘zbekistonning islohotlar shabbodasi bilan keldi. Is’hoqxon To‘ra Ibrat horijda yurganida o‘ndan ortiq tilni, jumladan, arab, fors, pushtu, turk, lotin, grek, hind, xitoy, rus, frantsuz, ingliz, arman tillarini o‘rgangan. Safardan “Santur” [8.] nomli musiqa asbobi, shuningdek, grammafon va plastinka, fotoapparat, kinoapparat kabi ashyolar keltirgan. Is’hoqxon To‘ra Ibrat shaharlarning taraqqiyotga erishish sabablari va Turkistondagi qoloqlik, ijtimoiy va mustamlakachilik zulmining asosiy sababi sifatida savodsizlik va jaholatni ko‘rsatib, “bu rivojlangan shaharlarning xalqlari ilmni o‘qib, qalamni

o‘ziga bir asbob qilganlari uchun madaniyatga erishgan. Ketmonsiz dehqonchilik bo‘lmaydi, o‘roqsiz o‘rilmaydi, do‘konsiz to‘qilmaydi, bularga albatta asbob darkor. Madaniyatni topadigan va yurgizadigan asbobi ilm ekan, buni albatta o‘zlashtirish zarur” [9, 113], ya’ni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini taraqqiy ettirish lozim, degan xulosaga kelgan. Is’hoqxon To‘ra Ibrat mamlakat taraqqiyotining ma’naviy zamini bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga alohida e’tibor qaratib, madaniyatni ilm bilan o‘zlashtirilishi, ilm bo‘lsa – maktab ham bo‘lishi, “maktab bo‘lmasa, olamni butun vahshiyat tutib, hamma xarob bo‘lib, ish qo‘ldan ketishi”, buning oldini olish uchun maktablarni ko‘paytirish mamlakatda majburiy ta’limni joriy etish lozim, degan xulosaga kelgan: “Maktab bo‘lmasa, bu olamda madaniyat joriy bo‘lmaydi” [10, 114].

Is’hoqxon To‘ra Ibrat qizlar maktabi tashkil etish haqida fikr yuritib, bu ishning qiyin kechishini ta’kidlagan. Buning sababini qishloqdagi milliy urf-odat va an’analardan kelib chiqqan holda tahlil qilgan: “xalqning ilm qudratini bilmagani xusus xotinlarda taassuf bo‘lib, bu taassufni yo‘qotishiga kamida ellik yillar kerak bo‘ladi” [12, 135]. Is’hoqxon To‘ra Ibrat qizlarning savodini chiqarish uchun qishloq otinoyilardan foydalanish lozimligi, “besh-o‘n yillar ichida har qishloqda besh-o‘n muallima tayyor bo‘lishi” [13, 136] ni umid qilgan. Is’hoqxon To‘ra mamlakat taraqqiyotida yangi yo‘nalish bo‘lgan hunar maktablari tashkil etish g‘oyasini ilgari surgan. Zero, mamlakatda ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun zavod-fabrikalarda ishlaydigan ishchi kuchi, mutaxassis kadrlar kerak. Hunar maktablarini tashkil etish orqali mamlakatning sanoat tarmog‘idagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji bartaraf etilishi ko‘zda tutilgan. Is’hoqxon To‘ra Ibrat mamlakatda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratib, joylarda oliy ta’lim maktablari tashkil etish dolzarbligini ta’kidlagan: “Oliy kurslar o‘z shaharlarimizda ham ochilsa ko‘proq talabalar kirishi umidlikdur. Musofirat ila muvojiratni ancha farqi bordur. O‘z joyida ota-onasining oldida tavofsiz o‘qiydur, bul ham bo‘lur, inshaalloh” [14, 118]. 1920-yilda Toshkentda O‘rta Osiyo davlat universiteti, keyinchalik Farg‘ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Jizzax, Qarshi va Urganch shaharlarida oliy o‘quv yurtlari tashkil etilgani Ibratning bu fikrlari naqadar ahamiyatli bo‘lganidan dalolatdir. Zero, mamlakat taraqqiyotini zamonaviy bilimlarni egallagan etuk mutaxassislar birlashib yaratgan ilmiy kashfiyotlar samarasi orqali amalga oshirish mumkin. Is’hoqxon To‘ra Ibrat maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari, mablag‘ muammosi, maktab jihozlari haqida ham jon kuydirib, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta maktab va oliy maktab, hunar maktablari, kechki maktablar, ilmiy-tadqiqot muassasalarida bu ishlarni tashkillashtirishda hukumat bosh islohotchi bo‘lishi zarurligini ta’kidlagan: “hozir hamma xalq ilm nimaligini bilib qoldilar. Bunga hozir hukumatimiz harakati bilan yaxshi harakatlar bor. Ammoki, davom ettirilishi darkor, ilmsiz bir bola olim bo‘la olmaydi. Maorif sho’bamiz, maktablarimiz shu xilda ketib tursa, o‘n yil ichida madaniyatga kirgan bo‘lar edik” [14, 135]. Is’hoqxon To‘ra Ibrat katta yoshlilar maktabini ochish haqida ham fikr bildirib, ularni mustaqil ilm olishga chaqirgan. Zero, hukumatdan mablag‘ kutib o‘tirish noo‘rin ekani, bu ishlarni tashkillashtirishda o‘qishni istagan kishilar o‘zlarining harakatlari ham bo‘lsa, maktab va maorifga yordam bo‘lishini aytgan. “Tarixi madaniyat”da milliy madaniyatni rivojlantirish kontseptsiyasi aks etganki,

unda ilgari surilgan ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, ta'limiy, madaniy taraqqiyot maqsadlari mustaqillik yillarida amalga oshirilgan va hozirda ham davom etayotgan islohotlar poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
2. Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasining shakllanishi va ravnaqi. – T., 1997.
3. Abduazizova N. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Akademiya. 2007. 53
4. Babaxanov M. Iz istorii periodicheskoy pechati Turkestana. – Dushanbe: Irfon. B. 17.
5. Сулаймонов, Ж.Б. Взгляды Абдуррахмана ибн Халдуна о развития общества и цивилизации// Международный научно-практический журнал "Экономика и социум". (79)2020 г.
6. Sulaymonov, J. B. (2021). Ibn xaldunning „muqaddima "asarida jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar talqini.
7. Sulaymonov, J. Karimov, N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
8. Sulaymonov, J. B. (2021). Abu Zayd Abdurahmon ibn xaldunning „Muqaddima" asarida davlat tushunchasiga yondashuvlar talqini. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(6). B. 9-14.
9. Sulaymonov, J.B. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar//Falsafa va huquq jurnali. 2019 yil 1-soni. B. 42-45.
10. Sulaymonov, J.B. Ibn Haldun qarashlarida geografik determinizm ildizlari //Sharqshunoslik jurnali. 2018 yil 4-soni. B. 124-128.
11. "Vaqt" gazetasi, 1913-yil, 1324-son.
12. //https://iupr.ru//a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdfb.
13.Ziyouz.uz/Ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/Ulugbek-Dolimov-Isxoqhon Ibrat-1862-1937.

Dilbar SHOMURADOVA,
Senior Lecturer at Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

THE ROLE OF JADIDS IN LANGUAGE EDUCATION: A HISTORICAL AND PEDAGOGICAL PERSPECTIVE

Abstract. *This article examines the significant role of Jadid intellectuals in the transformation of language education in Central Asia during the late 19th and early 20th centuries. The study explores the pedagogical innovations introduced by*

the Jadids, their approach to multilingual education, and the long-term legacy of their educational reforms.

Keywords: *jadidism; language education; Central Asia; usuli jadid; multilingualism; cultural identity; educational reform; Turkic languages; pedagogical innovation; national awakening*

JADIDLARINING TIL TA'LIMI SOHASIDAGI O'RNI: TARIXIY-PEDAGOGIK TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida Markaziy Osiyoda jadid ziyolilarining til ta'limini isloh qilishdagi muhim roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidlar tomonidan joriy etilgan pedagogik yangiliklar, ularning ko'p tilli ta'limga yondashuvi hamda bu islohotlarning uzoq muddatli ta'siri yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik; til ta'limi; Markaziy Osiyo; usuli jadid; ko'p tillilik; madaniy o'zlik; ta'lim islohoti; turkiy tillar; pedagogik innovatsiya; milliy uyg'onish*

The Jadid movement, which arose in Central Asia during the late 19th and early 20th centuries, was a reformist intellectual and socio-political initiative that emerged as a response to the dual forces of colonial domination notably by the Russian Empire and the perceived intellectual stagnation of the traditional Muslim educational system. The Jadids, inspired by enlightenment ideals and influenced by reformist currents across the broader Islamic world (particularly the Ottoman Empire and the Russian Tatars), saw education as the principal vehicle for societal renewal [1, 45]. Their overarching objective was to modernize Muslim society by rethinking and reconstructing its foundational structures, especially in the domains of education, language, and cultural expression. Among their key priorities was the transformation of language instruction, which they believed should serve not only religious or ceremonial purposes but also practical, cognitive, and national development functions. Language, in the Jadid worldview, was not merely a medium of communication, but a powerful tool of intellectual emancipation, cultural revival, and collective identity formation [2, 130].

Consequently, the Jadids sought to reform the curriculum, pedagogy, and goals of language education to make it more responsive to the demands of a modernizing world. They introduced new-method schools (usuli jadid), developed modern textbooks, promoted multilingual literacy (including in Russian and Turkic languages), and emphasized the need for accessible, secular, and culturally rooted instruction. These efforts aimed to equip the younger generation with the linguistic competencies necessary for participation in contemporary intellectual, administrative, and scientific spheres [3, 28].

Prior to the Jadid reform movement, education in Central Asia was largely monopolized by traditional maktabs and madrasahs, which functioned as the main institutions for the transmission of knowledge. These institutions adhered strictly to classical Islamic curricula, with an overwhelming emphasis on rote memorization of religious texts, particularly in Arabic and Persian. Educational content was

predominantly theological and linguistic in nature, focusing on the memorization of Qur'anic verses, classical poetry, and grammar rules—often without ensuring genuine comprehension or practical application [4, 12].

Although these institutions played a critical role in preserving Islamic scholarship and cultural heritage, by the late 19th century, they were increasingly seen as ill-suited to the demands of modern life. They neither addressed the emerging socio-economic realities under Russian colonial influence, nor equipped students with skills necessary for civic participation, technological literacy, or intellectual autonomy. The Jadid reformers, in response, recognized a profound disconnect between the content and methods of traditional education and the competencies required for progress in a modernizing society. Their critiques were rooted in the belief that the prevailing system stifled creativity, discouraged critical inquiry, and marginalized the use of native Turkic languages in formal education.

The Jadids thus proposed a radically new vision of education—anchored in linguistic functionality, cultural relevance, and modern pedagogy. In particular, they argued that language education should fulfill the following key objectives:

Practical literacy in the native tongue: Enabling learners to read, write, and communicate effectively in their own language (e.g., Uzbek, Tatar, Kazakh), thereby enhancing self-expression, cultural continuity, and civic inclusion.

Access to scientific and secular knowledge: Opening the gates to modern disciplines such as geography, mathematics, hygiene, and history through accessible language instruction that bridges traditional and contemporary worldviews.

Development of national and cultural consciousness: Cultivating a sense of belonging and identity rooted in one's own linguistic and cultural heritage, while simultaneously fostering openness to global intellectual developments.

In this context, language education was reimagined as a strategic instrument of social transformation, not merely a medium of religious instruction. It was intended to foster critical thinking, intercultural competence, and national awakening. The Jadids envisioned a new generation of learners who would be both literate in their native language and capable of engaging with international discourses—a goal that required innovative approaches to both content and method in language instruction.

New-Method Schools and Pedagogical Innovation – A cornerstone of the Jadid educational movement was the establishment of so-called **"new-method schools"** (*usuli jadid maktablari*), which marked a radical departure from the rigid, memorization-based practices of traditional Islamic education. These institutions embodied the Jadids' vision of a modern, dynamic, and learner-centered approach to schooling—one that integrated progressive pedagogy with national cultural values. Unlike conventional maktabs, where students primarily recited Qur'anic verses and classical poetry without contextual understanding, the *usuli jadid* model emphasized **structured, goal-oriented instruction** that prioritized comprehension, critical thinking, and real-world applicability. Several key innovations characterized these schools:

At the heart of the *usuli jadid* pedagogy was a **phonetic method of teaching reading and writing**. Rather than rote memorization of words, students were taught to recognize and pronounce individual letters and sounds, building up to words and sentences. This **analytical approach to literacy** accelerated students' acquisition of reading and writing skills and made language learning more intuitive and engaging, especially for early learners. One of the most transformative elements of Jadid schools was the **inclusion of secular subjects**—such as **arithmetic, geography, history, hygiene, and natural sciences**—alongside language instruction. These subjects were carefully selected to equip students with the knowledge and skills needed to thrive in a modern socio-economic context. This was a deliberate challenge to the exclusivity of religious instruction and an attempt to broaden the intellectual horizons of young learners. In contrast to madrasahs that relied heavily on Arabic and Persian, Jadid educators promoted instruction in **vernacular Turkic languages**, such as **Uzbek, Tatar, Kazakh**, and others. This shift had both **pedagogical and ideological implications**. Pedagogically, it made instruction more accessible and relatable; ideologically, it represented an assertion of cultural and linguistic identity in the face of both colonial Russification and linguistic elitism.

Recognizing the absence of suitable teaching aids, Jadid intellectuals undertook the **creation of original primers, textbooks, and instructional guides** that aligned with their new pedagogical philosophy. Figures such as **Abdulla Avloni**, **Mahmudhoja Behbudi**, and **Ismail Gasprinsky** were at the forefront of this movement. Their publications, such as *Turkiy guliston yoxud axloq* (Avloni) and *Maktab kitobi* (Behbudi), combined language instruction with moral education, civics, and practical knowledge. Moreover, these texts were **written in clear, simplified language**, often incorporating illustrations and real-life examples to enhance comprehension. In doing so, they laid the groundwork for a standardized, modern educational literature in Central Asian languages.

Promotion of Multilingualism-A defining feature of the Jadid educational reform was its forward-thinking approach to multilingualism. In a period marked by colonial subjugation, increasing global interconnectivity, and the encroachment of foreign cultural influences, the Jadids recognized that mastery of multiple languages was not merely a linguistic skill, but a strategic necessity for survival, advancement, and cultural resilience. Their language policy was grounded in both pragmatic utility and ideological conviction. The Jadids envisioned a well-educated individual as

someone capable of navigating diverse linguistic, cultural, and political domains while remaining firmly rooted in their national identity. Consequently, the curriculum of usuli jadid schools deliberately incorporated several languages, each serving distinct and complementary purposes:

Russian Language: The Jadids pragmatically accepted the functional importance of Russian as the language of governance, law, and access to European science and technology. By incorporating Russian language instruction into their curricula, Jadid schools sought to empower Muslim youth to participate in public life, pursue secular education at higher levels, and engage with the modern scientific and administrative discourse that was largely disseminated through Russian.

Arabic and Persian: Preserving Islamic and Classical Cultural Legacy While modernizing education, the Jadids did not reject traditional learning outright. They maintained instruction in Arabic and Persian, recognizing these languages as crucial for accessing Islamic scholarship, classical literature, and ethical thought. Arabic remained important for Qur'anic studies and religious literacy, while Persian retained its prestige as the literary and poetic language of Central Asian intellectual history. In this sense, Jadid multilingualism was not subtractive, but additive and integrative, reflecting a desire to harmonize tradition with progress.

Western European Languages: Gateways to Global Scientific Discourse Although less common, some Jadid schools particularly in urban or elite contexts—experimented with the introduction of Western European languages, most notably French and German. These languages were regarded as gateways to global scientific, philosophical, and cultural achievements. By exposing students to European languages and ideas, the Jadids aimed to cultivate globally literate individuals capable of critical engagement with both Western and Islamic intellectual traditions.

Instrumentally, it provided students with the tools to navigate multiple socio-political and epistemological spaces, from mosques and local markets to imperial bureaucracies and international scholarly circles.

Ideologically, it reflected a belief in the coexistence of national identity and global participation. The Jadids rejected insularity and instead promoted an educational cosmopolitanism rooted in Turkic-Muslim cultural foundations but open to cross-cultural enrichment.

In practical terms, this multilingual framework enhanced the educational quality and social relevance of Jadid schools. It prepared students not only to be functionally literate in several languages, but also to act as bridges between cultures, capable of synthesizing diverse worldviews and mediating between tradition and modernity.

The educational, linguistic, and ideological reforms initiated by the Jadids had a **profound and enduring influence** on the intellectual and cultural trajectory of Central Asia. Although their movement was relatively short-lived—having been suppressed during the 1930s Stalinist purges—the foundational principles they advanced continued to resonate across generations, shaping the region's approach to education, language policy, and cultural identity throughout the 20th and into the 21st century. One of the most significant linguistic legacies of the Jadid movement

was its role in the **standardization and modernization of Turkic languages**, including **Uzbek, Kazakh, Tatar, and others**. The Jadids were among the first to propose codified, simplified, and pedagogically functional versions of these languages, advocating for the replacement of ornate, Persianized literary styles with **clear, accessible prose** suitable for mass education. Their efforts also laid the groundwork for the **Latinization movement** of the 1920s and early 1930s, during which the Arabic script was replaced by a modified Latin alphabet in many Turkic-speaking regions. Though this was later reversed under Stalin in favor of Cyrillic, the initial momentum for **linguistic modernization** can be directly traced to Jadid intellectual initiatives.

The Jadid movement played a pioneering role in transforming language education in Central Asia. By advocating for new methods, multilingual education, and national consciousness through language, they laid the groundwork for modern pedagogical practices. Their legacy underscores the enduring importance of culturally responsive and reform-minded approaches to language teaching.

List of used literature

1. Khalid A. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press.1998.
2. Gasprinsky I. *Tercüman* [Bilingual educational newspaper].1883-1914.
3. Avloni A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Tashkent. 1913.
4. Behbudi M. *Maktab kitobi*. 1911.
5. Khalid A. *Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia*. University of California Press. 2006.

Madina AXMADJANOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi tayanch doktoranti
A.Navoiy nomidagi TDO‘TAU

TURKISTONDA TIL VA GRAMMATIKA (JADID OLIMLARI TADQIQOTLARI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakatining grammatika va ta’lim sohasiga ta’siri tahlil qilinadi. Jadidlar nafaqat tilni o‘rganish vositasi sifatida, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, milliy uyg‘onish va madaniy tiklanishning muhim omili deb hisoblaganlar. Maqolada jadidlar ta’lim tizimini isloh qilish, lotin yozuvini joriy etish, grammatikani milliy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘z davrining siyosiy va madaniy muhitiga qanday ta’sir ko‘rsatgani ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: j*adidchilik, grammatika, ta’lim islohoti, til siyosati, milliy ong, yozuv islohoti, zamonaviy tilshunoslik.*

LANGUAGE AND GRAMMAR IN TURKESTAN (ON THE EXAMPLE OF THE RESEARCH OF JADID SCIENTISTS)

Abstract. *This article analyzes the impact of the Jadid movement, which emerged in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries, on grammar and education. The Jadids viewed language not merely as a tool for communication, but as a vital means for shaping social consciousness, fostering national awakening, and driving cultural revival. The article explores how the Jadids influenced the educational system by reforming grammar teaching, introducing the Latin script, and integrating linguistic instruction with national identity and cultural values.*

Key words: *jadidism, grammar, educational reform, language policy, national identity, script reform, modern linguistics.*

Markaziy Osiyoda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalq ma'naviyati va tafakkurida tub burilish yasagan tarixiy hodisadir. Bu harakat vakillari o'z zamonasining ilg'or musulmon ziyolilari bo'lib, jamiyatni yangilash, ayniqsa ta'lim va til sohasini isloh qilish g'oyasi bilan yashaganlar. Ular tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki jamiyatni uyg'otish, o'zligini anglatish va zamonaviy taraqqiyotga etaklovchi kuch deb bilganlar. Xususan, grammatikani milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar bilan uyg'un holda o'rganish zarurligini ilgari surganlar. Jadidlarning bu boradagi sa'y-harakatlari arab grammatikasidan voz kechib, turkiy tilga xos yondashuvlarni ilgari surishga, yozuv tizimini yangilashga va yangi ta'lim metodlarini joriy etishga qaratilgan edi. Mazkur maqola ana shu harakatning til va grammatika sohasidagi izchil va chuqur ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan.

Jadidlar ta'lim paradigmasining markazida zamonaviy grammatik yondashuvlarni qo'yishgan. Bu yondashuv an'anaviy arab grammatikasidan keskin farq qilgan va o'sha davr ta'lim tizimida hukmron bo'lgan uslublarga qarshi turardi. Islohotchilar tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki shaxsiy va ijtimoiy ongni shakllantirish, jamiyatni siyosiy jihatdan safarbar etish vositasi sifatida ko'rishdi. Diniy an'anaviy tuzilmalardan farqli ravishda, ular zamonaviy haqiqatlar va mahalliy sharoitlarni aks ettiruvchi til va grammatikaning qo'llanilishini targ'ib qildilar [4, 149].

Jadid mutafakkirlari grammatikani ikki tomonlama vazifani bajaruvchi vosita deb ta'rifladilar: u bilimlarni tarqatish vositasi ham, milliy ongni shakllantirish usuli ham edi. Ular klassik grammatikalarning sust va o'zgarmas tabiatini rad etib, tilning dinamik va funksional jihatlarini qamrab olgan yondashuvlarni ilgari surdilar. Bu fikr zamonaviy tilshunoslik nazariyalari bilan uyg'unlashib, tildagi tuzilma va funksiyaning o'zaro bog'liqligiga urg'u beradi [3, 119]. Mazkur yondashuv turkiy grammatik tuzilmalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli kiritishga imkon yaratib, o'quvchilarning tilni tushunishi va o'zlashtirishini sezilarli darajada osonlashtirdi.

Shuningdek, mahalliy til grammatikasining o'quv dasturlariga kiritilishi mustamlakachilik va diniy konservatizmga qarshi qarshilik sifatida namoyon bo'ldi. Jadidlar tilning mahalliy o'zlikka asoslangan bo'lishi jamiyatni kuchaytirishi, islohot va yangilanish ruhini shakllantirishi mumkinligiga ishondilar. Ular dunyoviy fanlarni an'anaviy islomiy ta'lim bilan uyg'unlashtirishni ilgari surib,

zamonaviylashuvning islomiy tushunchalar bilan uyg‘unlashishiga imkon beruvchi modelni taklif etdilar [6]. Natijada grammatika o‘qitilishi madaniy uyg‘onish va milliy orzular bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoldi.

Xususan, O‘zbekiston hududida jadidchilik harakati doirasida til va ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarda bir qator yirik ziyolilarning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, **Mahmudxo‘ja Behbudiy** Samarqand va boshqa hududlarda yangi usul maktablarini tashkil etib, zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy qilgan va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilgan. **Abdulla Avloniy** o‘zining **“Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq**” kabi darsliklari orqali o‘zbek tilini zamonaviy metodlar asosida o‘rgatish va uni axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirishga intilgan. **Munavvarqori Abdurashidxonov** esa arab alifbosini isloh qilish, imlo qoidalarini soddalashtirish hamda lotin yozuviga o‘tish bo‘yicha faol tashabbus bilan chiqqan va bu borada o‘quvchilar uchun imlo qo‘llanmalarini yaratgan. **Abdurauf Fitrat** esa **“O‘zbek tili grammatikasi”** singari asarlar orqali grammatikani milliy tafakkur va ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi sifatida talqin etgan. Ushbu mutafakkirlarning ilmiy-ma’rifiy faoliyati O‘zbekistonda jadidchilik harakatining til va ta’lim sohasidagi islohot mazmunini shakllantirib, zamonaviylik va milliylik uyg‘unligiga asos solgan.

Jadidlar zamonaviy ta’lim tamoyillarini ilgari surib, arab yozuvi o‘rniga lotin yozuvini joriy etishni qo‘llab-quvvatladilar. Bu harakat ularning turkiy xalqlar orasida milliy uyg‘onish va madaniy tiklanish maqsadlariga muvofiq edi. Yozuv tizimidagi o‘zgarish nafaqat savodxonlikni oshirishga, balki turkiy tillarni global kontekstga moslashtirish va Yevropa tilshunoslik tamoyillari bilan aloqani mustahkamlashga qaratilgan edi [1, 1287].

Yozuv islohoti uchun olib borilgan harakatlar ko‘pincha inqilobiy harakat sifatida qabul qilindi. Bu esa mahalliy tillarning mustamlaka va diniy kuchlar tomonidan qo‘yilgan cheklovlarsiz rivojlanishiga yo‘l ochdi. Ushbu jarayon ayniqsa Ismoil Akbayev kabi ziyolilarning faoliyatida aniq namoyon bo‘ldi. U Jadidchilik g‘oyalarini ta’lim sohasiga muvaffaqiyatli tatbiq etib, mintaqaning madaniy va til manzarasini boyitdi [2, 109]. Dastlabki jadid islohotchilarining bir qismi grammatikani zamonaviy tilshunoslik standartlariga mos tarzda ishlab chiqish va o‘qitish zarurligini ta’kidlab, islomiy ta’limotlarga asoslangan eskicha uslublardan voz kechdi . Bundan tashqari, jadidlarning qarashlari kengroq ijtimoiy-siyosiy lug‘atga ega bo‘lib, til va faollik o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Masalan, "Mehrobdan chayon" kabi asarlar o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy qarashlari va orzularini aks ettirib, tilning o‘zgarish vositasi sifatidagi kuchini namoyon qildi [5, 44]. Ushbu ta’limiy harakat zamonaviy ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga hamohang tarzda o‘quv dasturlarini yangilashni maqsad qilib, turkiy tillar va mahalliy tafakkurni xorijiy andozalardan ustun qo‘yishni ko‘zlagan

Ta’lim tizimini o‘zgartirish yo‘lida jadidlar Sovet siyosatining yozuvga oid qarorlariga duch keldi. Lotin alifbosining joriy etilishi nafaqat savodxonlikni oshirish, balki mustamlakachilikka qarshi turuvchi kollektiv ongni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qildi. Bu tashabbus zamonaviy tafakkurni omma orasida yoyishga qodir bo‘lgan asosiy grammatika tizimini faol holga keltirishni maqsad qilgan. Jadidlar til islohotini keng ijtimoiy-siyosiy uyg‘onish va global

jarayonlarga qo‘shilish bilan bog‘lab, Markaziy Osiyoda til amaliyotining shakllanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatdilar.

Bugungi kunda Jadidlar harakatining Markaziy Osiyodagi grammatika ta’limiga ta’siri hanuz sezilmoqda. Ularning ilgari surgan zamonaviy grammatika va til islohoti g‘oyalari hozirgi ta’lim mazmuni, til o‘zligi va madaniy ong haqidagi muhokamalarga asos bo‘lmoqda. Ularning sa’y-harakatlari hozirgi ta’lim islohotlarida, mahalliy til merosini global zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirishga intilayotgan harakatlarda o‘z aksini topmoqda. Bu jarayon Markaziy Osiyoda mustamlakachilikdan keyingi murakkab o‘zlik izlanishlarini aks ettiradi. Jadidlar Markaziy Osiyoda til va grammatika haqidagi qarashlarni tubdan o‘zgartirib, grammatikani ijtimoiy ehtiyojlar va madaniy orzular bilan uyg‘unlashtirgan islohotlarning asoschisi bo‘ldilar. Ularning harakati tilning tarixiy va siyosiy sharoitlarda jamiyatni o‘zgartirish va o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rnini anglashda muhim tajriba sifatida qolmoqda.

Jadidchilik harakati Markaziy Osiyoning madaniy va ta’limiy tarixida chuqur iz qoldirgan islohotlar harakatidir. Ushbu harakat til va grammatikaga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirib, uni jamiyatni uyg‘otish, milliy ongni shakllantirish va zamonaviylik sari etaklovchi kuch sifatida talqin qildi. Jadidlar grammatika orqali faqat tilni o‘rganishga emas, balki tafakkur tarbiyasi, milliy birlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga erishmoqchi bo‘lganlar. Ularning arab grammatikasiga tayanmagan, balki turkiy tilning o‘ziga xosliklariga mos zamonaviy yondashuvlari ta’lim tizimiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, lotin yozuvining joriy etilishi savodxonlikni oshirish bilan birga mustamlakachilikka qarshi ongni shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi kunda jadidlarning g‘oyalari, xususan, milliy til asosida zamonaviy va integratsiyalashgan ta’lim tizimi yaratish istagi, dolzarbligini yo‘qotmagan. Ularning merosi hozirgi o‘zlik izlanishlari, ta’lim islohotlari va til siyosatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, jadidlar tomonidan boshlangan til va ta’limdagi o‘zgarishlar hali-hanuz o‘z qiymatini saqlab kelmoqda va ilmiy tahlilga loyiq mavzudir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Musayev, V. (2019). Script reforms in early Soviet ethnic policy. *Vestnik of Saint Petersburg University History, 64*(4), 1287–1300.

2. Muslim, B., & Rustam, B. (2022). Ideas of jadidism and attempts to implement them in Karachay and Balkaria (1870s–1920s). *Kavkazologiya, 2022*(4), 109–119. https://doi.org/10.31143/2542-212x-2022-4-109-119

3. Nilsson, T., Harjanne, P., & Steuer, P. (2019). Between theory and practice. *Apples - Journal of Applied Language Studies, 13*(1), 113–131.

4. Nurmatov, Z., Abdrassilov, T., & Hwang, I. (2022). An analysis on the formation of jadidism in Central Asia in the late 19th and early 20th century (1870–1917). *Al-Farabi, 78*(2), 149–166.

5. Ziyotova, S. (2022). Socio-political vocabulary expressed in the work “Mehrobdan chayon”. *Computer Linguistics Problems Solutions Prospect, 4*(2), 44–60. https://doi.org/10.52773/tsuull.uzlc.2022.4.2/glxe7864

6. Zakirov, A., Мухаметшин, P., & Ravilevich, K. (2022). Religious reformism and jadidism in the Volga-Ural region (XIX–XX centuries). https://doi.org/10.15405/epsbs.2022.12.164

Umida GAFUROVA,
University Business and Science
o'qituvchisi

JADIDCHILIK HARAKATI: TARIXIY ZARURAT VA MA'NAVIY YANGILANISH MANBASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkiston hududida vujudga kelgan jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari, tarixiy-siyosiy sharoit bilan bog'liqligi, shuningdek, madaniy va adabiy hayotdagi o'rni yoritilgan. Fitratning millat uyg'onishiga qo'shgan hissasi, yangi maktablar, matbuot, teatr va adabiyot orqali jamiyatni uyg'otish harakatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, islohot, milliy uyg'onish, yangi maktab, matbuot, adabiyot, Cho'lpon, Fitrat, Munavvarqori.*

Abstract. *This article examines the Jadid movement that emerged in Turkestan at the beginning of the 20th century, its goals and objectives, its connection with historical and political conditions, as well as its place in cultural and literary life. Fitrat's contribution to the national awakening, his efforts to awaken society through new schools, the press, theater and literature are analyzed.*

Key words: *jadidism, reform, national awakening, new school, press, literature, Chulpon, Fitrat, Munavvarqori.*

XX asr boshlarida Turkiston zaminida yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ongini uyg'otish, ma'rifatparvarlik asosida yangi jamiyat barpo etish g'oyalari bilan bog'liq bo'ldi. Ushbu harakat eski usuldagi maktab va madrasalarning samarasizligini tanqid qilib, yangi usuldagi (jadid) maktablarni tashkil etdi. Bu harakat namoyandalari orasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi ma'rifatparvarlar faoliyat ko'rsatgan.

- Milliy ongni shakllantirish: Tarixiy, diniy va madaniy merosga murojaat qilinib, milliy birlik va g'urur hissi uyg'otildi.

Jadidchilik harakati nafaqat ta'lim, siyosat, matbuot, balki adabiyot orqali ham millat ongini uyg'otishga intilgan edi. Bu harakatning eng ilg'or vakillaridan biri – Abdurauf Fitrat bo'lib, u o'zining keng qamrovli ilmiy, adabiy va siyosiy faoliyati orqali o'zbek jadid adabiyotining asoschilaridan biri sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Fitratning ijodida ma'rifatparvarlik, millatparvarlik, uyg'onish, diniy-islohotchi qarashlar va erkinlik g'oyalari ustuvor o'rin egallaydi.

Fitrat – jadid adabiyotining g‘oyaviy yo‘lboshchisi

Fitratning ijodi jadidchilik mafkurasining aksariyat yo‘nalishlarini qamrab oladi. U o‘z asarlarida ma’rifatparvarlik, diniy islohot, milliy uyg‘onish, ayol erkinligi, jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurash, badiiy so‘z vositasida xalqni uyg‘otish kabi g‘oyalarni ilgari surdi.

Fitratning ijodiy merosini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalari.
2. Diniy islohotchilik va ijtimoiy tanqid.
3. Adabiyotda yangi badiiy shakllar va janrlar izlanishi.
4. Til, she’riyat, drama va publitsistikadagi yangiliklar.

Fitratning “Oqbilak va Qoracho‘qay” (1912), “Munozara” (1911), “Hind sayyohi bayonoti”, “Milliy sho‘rolar”, “Chin sevish” kabi asarlari o‘zbek adabiyotida yangicha fikrlash, obraz yaratish va dramatik shakllarni joriy etgan ilk tajribalardan hisoblanadi.

Ijodiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.

1. Ma’rifiy-didaktik asarlar:

Fitratning ilk asarlarida islom dini, tarixiy shaxslar, xalqni uyg‘otish g‘oyasi ustuvor:

“Xalqlar savodsiz bo‘lsa, zulmatda yashar. Yozuvsiz, kitobsiz millat — ko‘r millatdir.” *[Fitrat, “Millat”, 1916]*

Bu fikr Fitratning asosiy qarashini, ya’ni ma’rifat vositasida milliy uyg‘onishga erishish g‘oyasini ifodalaydi.

2. Adabiy dramatik asarlar:

Fitrat jadid adabiyotiga drama janrini olib kirgan. Ayniqsa, “Chin sevish” (1912) asari o‘zbek dramaturgiyasida ilk sevgi dramasi sifatida e’tirof etiladi. Unda ijtimoiy to‘siqlar, inson erkinligi, ayol masalasi kabi mavzular ilgari suriladi. “Qachonki sevgi haqiqiy bo‘lsa, u hech qanday to‘siqdan qo‘rqmaydi!” [*"Chin sevish", Fitrat*] Bu fikrlar orqali Fitrat o‘z davrining konservativ qarashlariga qarshi kurashganini ko‘rish mumkin.

3. Diniy islohotlar va diniy-axloqiy asarlar

Fitratning “Tazkirai asfiya”, “Islom tarixiga bir nazar” kabi diniy asarlari musulmonlar orasida jaholatga qarshi kurashish, dinni yangicha talqin qilish zarurligini ilgari suradi:

“Islom – hayot dini. Uni o‘lik holatda emas, hayotga tatbiq etib yashash lozim”. *[Fitrat, “Islom tarixiga bir nazar”]*

Fitrat o‘z asarlarida soddalashtirilgan, xalqchil tilda yozishga harakat qilgan. U forsiy-arabiy jumla tuzilmalaridan voz kechib, o‘zbek tilining milliy ifoda vositalarini kuchaytirishga intildi. Uning badiiy tili tajriba maydoni bo‘lib, keyinchalik Cho‘lpon va boshqa adiblar uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi.

“Til bizning ruhi millatimizdir. Uni asrab-avaylamoq – vijdon ishidir” [3].

Abdurauf Fitrat o‘zbek jadid adabiyotining ideologik va estetik poydevorini yaratuvchi siymolardan biridir. Uning adabiy merosi – bu xalqni uyg‘otishga, millatni o‘zligiga qaytarishga qaratilgan ijtimoiy-hissiy, axloqiy-falsafiy dasturdir.

Fitratning o‘rni nafaqat o‘z davri, balki bugungi mustaqil o‘zbek adabiyoti va ma’naviy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Fitrat A. “Oqbilak va Qoracho‘qay”. Istanbul, 1912.
2. Fitrat A. “Chin sevish”. Toshkent, 1920.
3. Fitrat A. “Til to‘g‘risida maqolalar”. // Turon jurnali, 1920-yillar.
4. Sirojiddin Ahmad. Fitrat – ma’rifatparvarlik bayrog‘dori. – Toshkent: Fan, 1998.
5. Salohiy D. Fitrat ijodi va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.

Nargiza PALVANOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

JADID ADABIYOTINI LINGVOPOETIK TAHLILI ASOSIDA O‘RGANISH

Annotatsiya. *Maqolada san’at va madaniyat yo‘nalishi talabalariga adabiyot o‘qitishda lingvopoetik tahlil usulidan foydlanish metodikasiga doir fikr mulohazalar, ayrim she’riy matnlarda qo‘llanilgan so‘z va tushunchalarning badiiy va lingvistik tahlili berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetik tahlil, usul, metod, so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi, talaffuzdosh so‘zlar, so‘zning, she’rning poetik tahlili, qofiya, turoq.*

Abstract. *The article provides comments on the methodology of using the linguopoetic analysis method in teaching literature to students of the arts and culture department, as well as an artistic and linguistic analysis of words and concepts used in some poetic texts.*

Key words: *linguopoetic analysis, method, literal and figurative meaning of a word, synonyms, poetic analysis of a word, poem, rhyme, stanza.*

Adabiyotning asosiy vazifasi – insonni tarbiyalash, komillikka yetaklashdir. Biroq davr o‘tishi bilan barcha fanlar, sohalarda bo‘lgani kabi badiiy adabiyot ham o‘z vazifalarini kengaytirib boradi. Milliy mafkura – bu xalqni birdamlikda taraqqiyot sari olg‘a yurishga undar ekan bunda barcha sohalar o‘z maqsadini ma'lum ma'noda shu yo‘nalishga moslashtiradi.

Bugungi badiiy adabiyotning oldiga davr yana qanday vazifa qo‘ymoqda?! Albatta, hamma zamonlarda ham adabiyot jamiyatni ma'naviy jihatdan tarbiyalash vositasi bo‘lib kelgan, ammo bugun xalqning jahon xalqlari bilan bir darajada rivojlanishi, raqobatbardosh bo‘lishi, dunyo hamjamiyati bilan faqat jismoniy

mehnat asosidagi mahsulot emas, balki aql, intellektga asoslangan mahsulotlar borasida oldi-berdi qilishni rivojlantirish lozim.

Qadimdan ajdodlarimiz g‘oya va fikr tarqatgan. Biz ham tafakkur mahsullarimizni sotib, mamlakatni boyitish, aholi farovonligiga hissa qo‘shmog‘imiz lozim. Buning uchun har bir kishi o‘z intellektual imkoniyati darajasida fikrlay olishi lozim bo‘ladi. Matematika o‘ylashga majbur qiladigan fan. Buni hamma yaxshi biladi. Adabiyot, esa zavqlantiradigan, ta'sirlantiradigan, zerikishning oldini oladigan bir vosita, yoki ermakka aylanib qolayotgandek go‘yo.

Aslida badiiy adabiyot o‘quvchini o‘ylantirishi kerak. Milliy adabiyotimizga doir bo‘lgan ayrim nasriy asarlar, jumladan, she'riy asarlar ham kishini mushohada qilishga majbur qilmaydi. Voqealar ketidan yuraverib, oxiri nima bo‘lar ekan, degan o‘y bilan kitobni tugatasan.

Shu o‘rinda, Alisher Navoiyning mashhur "Xamsa" asaridagi, "Farhod va Shirin" dostonini olaylik. Bunda ham voqea, syujet muhim, ammo Navoiyning buyukligi shundaki, u zot o‘quvchini o‘ylashga, fikr qilishga majbur qiladi. Ramzlar orqali o‘z fikrlarini ifoda qiladi. Farhodning qanday qilib komil inson bo‘lish jarayonini batafsil tasvirlab beradi, dostonda qanday qilib nafsni yengish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Navoiy dostonda hamma gapni ochiq-oshkor bayon qilmaydi, tafakkuri teran, zukko o‘quvchi anglab olaveradi.

Shakl va mazmun o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. Ularning qaysi biri asosiy va etakchiligi borasida professor Q. Yo‘ldoshev shunday fikr yuritadi: “odatda, shakldagi o‘zgarishlar mazmun tufayli va undan keyin deb tushuniladi. Sinchiklab qaralsa, san’at xususan, badiiy adabiyotda shakl va mazmun munosabati falsafadagi shakl va mazmun munosabatidan farq qilishi ayon bo‘ladi. Badiiy mazmun muayyan badiiy asarda aks etgan shaxs, voqea-hodisa, xatti-harakat, his-tuyg‘u va ruhiyat-kayfiyatdan iboratdir.

Badiiy mazmun esa, muayyan badiiy asar mohiyatining badiiy tasvir vositalari orqali estetik mazmunga ega tarzda ifodalanish yo‘sinidir”.

V. V. Vinogradovning asarlarida alohida filologiya fanini — badiiy adabiyot tili fanini yaratish zarurligi g‘oyasi rivojlanadi, badiiy asar tilini o‘rganadigan filologiya sohasi sifatida lingvopoetikaning predmeti va vazifalari shakllantiriladi.

V. V. Vinogradovning fikricha, lingvopoetik tadqiqotning vazifasi og‘zaki-badiiy ijod asaridagi til birliklarining estetik funksiyasini o‘rganishdir. Shunday qilib, lingvistik va adabiy stilistika chorrahasida ikkita yondashuvning yaqinlashishi natijasida filologiyaning yangi bo‘limi paydo bo‘ldi – lingvopoetika, uning mavzusi "badiiy asarda ishlatiladigan til vositalarining to‘plami, uning yordamida yozuvchi o‘zining g‘oyaviy va badiiy rejasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan estetik ta’sirni ta’minlaydi".

Lingvopoetik tahlilning maqsadi tilning u yoki bu birligi (so‘z, ibora, grammatik shakl, sintaktik tuzilish) muallif tomonidan og‘zaki va badiiy ijod jarayoniga qanday kiritilganligini, qanday qilib til vositalarining u yoki bu o‘ziga xos kombinatsiyasi ushbu estetik effektni yaratishga olib kelishini aniqlashdir.

Lingvopoetik tahlilning asosi V.Zadornova tomonidan ishlab chiqilgan toifalar va parametrlarning ma’lum bir tizimiga asoslanishi mumkin. Lingopoetik transformatsiya toifasi lingopoetik tahlilning eng asosiy va muhim toifasidir.

Og‘zaki va badiiy ijod sohasida aks etadigan tilning turli elementlari o‘zgartirilib, ularga obyektiv ravishda kiritilgan estetik ifoda imkoniyatlarini ochib beradi.

A. Lipgart ham lingvopoetika konseptual apparatini ishlab chiqish bilan shug‘ullangan. Uning fikriga ko‘ra, “lingopoetika — bu filologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, uning doirasida badiiy matnda ishlatiladigan stilistik jihatdan belgilangan birliklar ularning funktsiyalari va ma’lum bir badiiy quvvatini etkazish va estetik effekt yaratish uchun qiyosiy ahamiyati masalasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi”. A. Lipgartning shubhasiz xizmatlari uning asarlarida batafsil tasvirlangan lingvopoetik tadqiqotning aniq usullarining batafsil tavsifidir. Bundan tashqari, olim birinchi marta lingopoetik tahlilni sinxron va diaxronik jihatdan qo‘llash imkoniyati haqida yozadi.

M.Yo‘ldoshev o‘z monografik tadqiqotlarida badiiy matnning lingvopoetik jihatdan tadqiq etishdagi muhim va o‘zak nuqtalar sifatida matn ta’rifi, tipologiyasi va matn birliklari, badiiy matn va unga lingvopoetik yondashuv tamoyillari, badiiy matnda til vositalarining poetik aktuallashuvi, badiiy matnning asosiy kategoriyalari masalalari sifatida belgilaydi.

Bunday holat Hazrat Navoiyning she'riy asarlarida ham mavjud, uning g‘azallarini o‘quvchi bir o‘qiganda to‘liq tushuna olmasligi ham kishining fikrlash darajasiga bo‘liq. Nega Navoiyni tushunmaymiz, deya ko‘p savol beriladi. Buning javobi ham, menimcha, tafakkur qilish bilan bevosita bog‘liq.

Lingvopoetik tahlilning muhim jihatlaridan biri kontekstual tahlil bo‘lib asar voqealarini qahramon yashagan davr, zamon va makonga nisbatan o‘rganishdir.

Jadidlar davri adabiyoti haqida gapirganda ham xuddi shu tendensiya davom etadi. Xalq orasida, ko‘p kitob mutolaa qiluvchilar tilida tez-tez uchrab turdi: bu asarni 30 yoshimda o‘qiganimda boshqacha fikrda edim, 60 yoshimda qayta o‘qidim endi boshqa fikrdaman, deyishadi. Aynan Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" iga tegishli bu gaplar. Xuddi shunday jahon adabiyoti durdonalari hisoblangan “Telba”, “Usta va margarita”, “Faust”, “Ilohiy komediya” kabi nodir asarlar ham bir o‘quvchi tomonidan qayta-qayta mutolaa qilinishi ham fikrlash ko‘nikmasining rivojlanishi bilan bog‘liq, mazkur asarlar tassurotdan ko‘ra ko‘proq teran tafakkur mahsuli hisoblanadi, bizningcha.

Shu o‘rinda, Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasini yodga olsak. Asar o‘zbek hikoyachiligida dastlabki realistik asar, deya e'tirof qilingan. Darhaqiqat, keyingi davrda mubolag‘a va bayonchilikdan holi bo‘lgan hayoti va ibratli asardir.

Badiiy adabiyotning vazifasi jamiyatda sodir bo‘layotgan duch kelgan maishiy voqeaga badiiy bezak berish orqali o‘quvchini qiziqtirish emas, balki uni mushohada qilishga yo‘naltirish, eng muhimi, yashashi o‘rgatishdir. Yashashni o‘rgatish uchun asar qahramoni benuqson va bardoshli bo‘lishi kerak. Badiiy adabiyot bugun jamiyat a'zolarida qaysi insoniy sifat etishmayotgan bo‘lsa, o‘sha sifati orttirilgan qahramon yaratishi kerak.

"Uloqda" hikoyasiga adib o‘quvchiga hech qanday ishora bermaydi. Hayotiy voqeani bor bo‘yicha tasvirlaydi, uloqning inson uchun ahamiyati, uning foyda va zararlari tasvirlab beriladi.

Achinarli joyi shundaki, mazkur hikoya uzoq yillar maktab darsliklarida umumta'lim maktablarida o‘qitib kelindi. Shu hikoya misolida ona tili va adabiyot

fani o‘qituvchilarining fikrlash darajasini tekshirib ko‘rish mumkin. Xizmat taqozosiga ko‘ra o‘rganib ko‘rilganda deyarli 90 foizdan ko‘proq o‘qituvchi hikoya orqali muallif nima demoqchi ekanligini ilg‘ab ololmagan. Bu o‘qituvchlarning fikrlash darajasini ko‘rsatadi. Asosiy qismi hikoya orqali Qodiriy uloqni milliy qadriyat sifatida ulug‘lamoqda, degan javobni bergan. Bu ayanchli holat aslida. 3-4 o‘qituvchi hikoya umrni behuda o‘tkazmasdan foydali ishlar bilan shug‘illanish kerakligiga urg‘u berilgan degan fikrni bildirgan.

Demak, o‘quvichiga ham, o‘qituvchiga ham fikrlashni o‘rgatishimiz kerak.

Endi nasrda bugun davr talab qilayotgan tafakkurni boyitadigan, charxlaydigan, yashashga ishtiyoq beradigan, yashashni o‘rgatadigan asarlarga ham to‘xtalish joiz.

Masalan, jahon adabiyotida Jek Londonning "Hayotga muhabbat", Alfons Dodening "So‘nggi saboq", Nadar Dumbadzening "Hellados" asarlari ham yashashni o‘rgatadi, ham tafakkurni o‘stiradi.

O‘zbek adabiyotida ham keyingi yillarda o‘quvchi tafakkurini o‘stirishga xizmat qiladigan nodir asarlar yaratildi. Jumladan, Murod Muhammad Do‘stning "Dasht-u dalalarda", Nazar Eshonqulning "Maymun etaklagan odam", Javlon Jovliyevning "Qo‘rqma", Isajon Sultonning "Genetik" va "Boqiy darbadar" asarlari o‘quvchini bezovta qiladi. Hayot, tiriklik mazmunini anglashga o‘rgatadi.

Ayniqsa, Isajon Sulton o‘z asarlarida o‘quvchisiga zalvorli, hayot uchun muhim bo‘lgan savollar beradi. Bugungi kun adabiyoti ham yangi renessansning sodir bo‘lishida hissa qo‘shishi kerak, ya'ni teran tafakkurli, ijodiy fikr sohiblarini etishtirishga xizmat qilmog‘i lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish zarurki, zamon hamma sohalar oldiga o‘z vazifasini qo‘yadi. Adabiyot, ruhiyat tarbiyasidan tashqari tafakkur, fikr tarbiyasiga ham o‘tishi kerak. Shundagina olamshumul asarlar dunyoga keladi.

Qodiriyni anglash. Abdulla Qodiriy ijodini ta’lim tizimida yangicha yondashuvlar asosida o‘qitish kerak. Asar qahramonlari o‘quvchilar uchun ideal darajasiga chiqishi kerak. Yusufbek hojining ota sifatida oilada paydo bo‘ladigan muammolarni qanday bosiqlik, ustalik va yumshoqlik bilan hal etishi har birimizga ibrat bo‘la olmaydimi?! G‘arbda xizmatkorga qanday munosabatda bo‘linishi hammamizga ma’lum. Ammo Yusufbek hoji xonadonida nega boshqacha?! Bu o‘zbek xalqining buyukligi, yuqori madaniyat, yuksak ma’naviyat sohibi ekanini anglatmaydimi?

To‘g‘ri, Abdulla Qodiriyni o‘zbek tili va adabiyoti, ma’naviyatiga katta hissa qo‘shgan buyuk ijodkor sifatida bilamiz, ammo bu etarli emas!!! Uni shu millatga mansub har bir kishi yaxshi bilishi, asarlarini puxta o‘rganishi lozim.

Qodiriy o‘z asarlarida millatning asl ma’naviy qiyofasini tasvirlab beradi. Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, O‘zbekoyim, Oftob oyim, Hasanali va boshqa qahramonlar orqali o‘zbek milliy mentaliteti aniq tasvirlab berilgan. "O‘tkan kunlar" asarini hali ham etarlicha o‘rgana olganimiz yo‘q. Biz Otabekning yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi ekanligini tushunganimiz yo‘q, tushuntirib bera olmganimiz yo‘q.

Yusufbek hojini komil shaxs sifatida o‘rganishimiz kerak. Ularning nutq madaniyati, muloqot odobi haqida ona tili va tarbiya darslarida uzluksiz misollar keltirish mumkin.

Bugun qizlarimiz, o‘g‘illarimiz o‘zlari uchun namuna sifatida Otabek va Kumushni tasavvur qila olishi kerak. Hozircha ularni asar qahramoni sifatida qabul qilishadi. Ta’lim tizimida Otabekning yurish-turishi, ota-onasiga, qo‘l ostidagi insonlarga, ayollarga, jamiyatga munosabati yaxshi ochib berilishi kerak. Buning uchun Adabiyot darsliklarida o‘quvchiga asar yuzasidan beriladigan savollar hayotiy, mantiqli va asar mazmunini ochib beruvchi kalit bo‘lishi kerak.

Masalan, Otabek Hasanaliga boshqacha muomala qilishga haqqi bormidi? Nega u bek bo‘la turib qulga bunday marhamat ko‘rsatmoqda? kabi muhim savollar berilishi kerak.

Bunday savollar qahramonning xarakterini aniqroq ochib beradi. Agar biz Otabek Qutidornikiga borganda uning uyida necha kishi bor edi, degan keraksiz, qiymatsiz savollar berib o‘tiraversak, Qodiriyni tushunmay o‘tib ketaveramiz.

Qodiriyni yangicha tadqiq etish, yangicha o‘qitish metodikasi ishlab chiqish lozim. Shunda biz bugungi globallashuv komidan omon chiqib o‘zligimizni saqlab qolamiz.

Muayyan asar haqida istalgan kishi xohlagancha munosabat bildirishga haqli, biroq o‘zbek xalqi yuz yillardan beri qo‘lma-qo‘l o‘qib, o‘z hayotlarida zarur o‘rinlardan dasturul amal sifatida, farzandlar tarbiyasida foydalaniladigan bir asarni sayoz, deb baholash, romanni emas, xalqni sayoz fikrlashda ayblash bilan barobar.

Roman boshqa asarlarga qaraganda shariat qoidalarini aniqroq o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

Qodiriy roman orqali bir paytlar odam o‘rnida ko‘rilmagan muqaddas ayollarimizning fojeali taqdirini tasvirlab bergan.

Otabek, Homid va Rahmatning xotin kishi haqidagi fikrlarni qiyosan keltiradi va Otabekning tilidan xotin kishi nafaqat erkak kishing ko‘ngliga mos bo‘lishi, balki erkak kishi ham xotinga munosib bo‘lishi haqida fikr bildiradi. Bu romandagi eng muhim fikrlardan biridir.

“O‘tkan kunlar” nafaqat badiiy asar sifatida adabiyotimiz gultoji, balki uning muallifi asar orqali o‘zbek tilini ham bir karra yuksakka ko‘tardi.

Xalqning ma’naviy mulkiga aylangan “O‘tkan kunlar” asaridagi jumlalar milliy mentalitetni aks ettirgani uchun ham undagi jumlalar yod bo‘lib ketgan. Asarda jamiyatni, millatni jarlikka etaklayotgan katta illat bor fojeasi bilan tasvirlab berilgan. U faqat sevgi tarixi emas, unda katta ijtimoiy-siyosiy masalalar sodda qilib bayon qilingan.

Qodiriy va uning badiiy merosi haqida istagancha fikr bildirish mumkin, ammo “O‘tkan kunlar” milliy qadriyat – o‘zbek madaniyati, ma'naviyatining ajralmas qismiga aylanib bo‘lgan. U haqda biror yangi fikr aytish oson ish emas. Ayniqsa, shuncha yillardan beri ruhiy ozuqa manbayi bo‘lib kelayotgan mazkur roman oilaviy munosabatlar, jumladan, ota-o‘g‘il, er-xotin, ona-bola, kundoshlik xo‘jayin-xozmatkor, xullas odamiylik borasida ibratli manba bo‘lib keldi. Xalq mulki, ma'naviy ustunlari hisoblangan bunday asarlarni xolis tadqiq etish, ularni tushunish yo‘llarini ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Степанов Г.В. О границах лингвистического и литературоведческого анализа художественного текста // Известия АН СССР. Сер. Литература и язык. 1980. Т. 39. № 3. С.195—205.
2. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 122-b.
3. Виноградов В.В. Язык художественного произведения // Вопросы языкознания. 1954. №5. С. 9; С.5-38.
4. Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоетического исследования. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. М.,1992. С. 19; 49с.

D.BAXRONOV,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Dildora RAXIMOVA,
Kafedra o‘qituvchisi
Fan va texnologiyalar universiteti

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY QARASHLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada jadid olimlarimizdan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarining ijtimoiy va falsafiy tahlili borasida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar**: falsafiy, jadidchilik, ijtimoiy, mafkura, Turkiston, ma'rifatparvarlik, tuzum.*

***Annotation.** This article provides feedback and feedback on the social and philosophical analysis of the views of one of our jadid scholars, Mahmudhaja Behbudi.*

***Key words:** philosophical, jadidism, social, ideology, Turkestan, enlightenment, arrangement.*

Jadidlar harakatida ta’lim-tarbiya masalasining boshlanishi avvalo milliy ozodlik g‘oyalarining ildizi edi. Jamiyatda biror bir g‘oya o‘zining namoyon bo‘lishini o‘sha jamiyatda bo‘layotgan ijtimoiy tuzumning mahsuli sifatida o‘zining ta’sirini ko‘rsatib boradi. Jadidlar harakati ham mana shunday o‘z davrining reaksion g‘oyasi edi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy muhitning bir tasodifiy hodisasi bo‘lmay, balki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning natijasi bo‘ldi. Ma’lumki, har qanday ijtimoiy-siyosiy tuzumdagi hurfikrlik imkoni, darajasi o‘sha davrning ilg‘or milliy ziyolilari qarashlari orqali namoyon bo‘ladi. Ularni sinchiklab

o‘rganish va tahlil etish bilano‘z davri hukmron mafkurasining ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy hayotga qay darajada ta’sir etganligini, shuningdek, jamiyat taraqqiyotidagi salbiy hamda ijobiy taraflarni aniqlash imkoni kengayadi. XX asr boshlarida Turkiston milliy ziyolilarining fikr-mulohazalari xalq taraqqiyoti hamda dunyoqarashining kengayishiga xizmat qildi va ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma’naviy hayotda muhim o‘rin egallay oldi. Ular nafaqat nazariy jihatdan fikr-mulohazalar bildirdilar, balki amalda ham o‘z sa’yi harakatlarini ayamadilar.

Shunday insonlardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy edi. Turkistonda jadidchilik harakatiga asos slogan buyuk ziyoli Mahmudxo‘ja ko‘plab sohalarda qimmatli fikrlarini aytgan. Uning publitsistika, teatr, adabiyot, bosma ishi, turkistonliklarning siyosiy ong iborasidagi qarashlari va amaliy ishlari yaxshi o‘rganilgan. Lekin Behbudiy til haqida hamfikrlarini aytib o ‘tgan. Uning o‘zbek tili, umuman mintaqadagi til siyosat iborasidagi fikrlari bugungi kunga qadar eskirmagan. Turkistonlik ziyolilar orasida birinchi bo‘lib Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g‘oyasini keng targ‘ib qildi va quvvatladi. Dastlab u o‘sha davrning aksariyat musulmon ziyolilari kabi Rossiya musulmonlarining yagona tili bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyaga qiziqish bildirdi.Jadidlarning ma'rifatparvarlik yo‘lida amalga oshirgan harakatlari borasida fikr yuritsak, bu borada Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan olib borilgan g'oyalar, harakatlarga alohida e’tibor qaratishimiz lozim.

Avvalo shaxsiy hayotiga nazar solsak, Behbudiy boshqa jadid namoyondalari singari ma’rifatli oilada tavallud topgan. Jadidshunos olim Begali Qosimovning Fikriga ko‘ra “Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi.Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh qilinishini millatning isloh etilishiga qiyosladi va uni umummilliy g‘oya deb bildi. Millatga o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”, deya murojaat qilib, o‘zi ilgari surgan milliy g‘oyani barcha targ‘ib qilishi zarurligini ta’kidladi. Behbudiyning umummilliy g‘oyasi targ‘iboti uchun milliy matbuot kerak edi. Jadidlar chiqara boshlagan gazeta-jurnallar rosmanasiga fikr almashish, ilg‘or g‘oya va fikrlarni targ‘ib etish, bahslashish maydoniga aylangan, demokratik qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan, fikrlar qarama-qarshiligini ko‘tara oladigan, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi tanqidiy maqolalarni yoritadigan matbuot nashrlari edi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirlik qilgan “Oyina” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatish maqsadida millat va uning haq-huquqlariga, tarixiga, til a adabiyot masalalariga, dunyodagi ahvolga oid turlituman maqolalarni chop etdi. Shuningdek, ayni yo‘nalishlardagi bahslar uchun minbar vazifasini o‘tadi. Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi”, degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi

shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatru sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”, deb yozgan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy g‘oyasining yana bir targ‘ibot quroli, bu – adabiyot edi. Jadidlar Navoiy, Fuzuliy, Sa’diy singari buyuk zotlar hayoti va ijodini chuqur bilgani sababli adabiyotni xalqqa yaqinlashtirishga, uning tilida yozishga intildilar va bu ishni uddaladilar.Ular tomonida ko‘plab asarlar yaratildi. Shulardan biri Behbudiyning “Padarkush” dramasi hisoblanadi. Bu birinchi o‘zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali u asar mazmunan sodda bo‘lib, o‘qimagan, johil va nodon bolaning o‘z otasini o‘ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini “milliy fojia” deb atagan.Behbudiyning Turkiston jadidchiligida tutgan o‘rni, uning bu harakat g‘oya va fikrlarining yoyilishida, ijtimoiy-siyosiy sohaning turli jabhalarida islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyatini baholashda, tabiiyki, u yozib qoldirgan fikrlar, asarlar katta ahamiyatga ega.

Behbudiy Turkiston uchun turkiy bilan bir qatorda forsiy tilning “o‘rta sheva”sini ilgari surdi. Bu taklifning amaliy natijasi sifatida 1913–1915-yillarda Samarqandda Behbudiy nashr etgan “Oyina” jurnalini ko‘rsatish mumkin. Behbudiyning bu tashabbusini o‘z o‘quvchilari bilan hamfikr va hammaslak ekanini bildirish va ko‘rsatish deb baholadi.

Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy “Oyina”ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili “Tarjimon”ga yo‘llagan “Turkistonda maktab lisoni” nomli maqolasida ko‘targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tillarning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e’tibor qaratmoqchi bo‘ldi va ikkala tilning maktab tahsiliga kiritilishi tarafdori ekanini ilgari surdi. Behbudiy fikrlarini quyidagi argumentlar bilan isbotlashga harakat qildi:

1. Turkistondagi aksariyat shahar aholisi turkiy va forsiyda bemalol muloqot qiladi;
2. Ba’zi hududlarda bu ikki tilning qorishiq shakli ishlatiladi;
3. Rasmiy idoralarga arizalar turkiyda yoziladi;
4. Shar’iy fatvolar forsiyda yozilib, turkiyda qayd qilinadi va bu usulga butun Turkistonda amal qilinadi

Behbudiy maqolasining so‘ngida keltirgan isbot va dalillariga tayangan holda Turkiston maktablarida ham turkiy, ham forsiy birga o‘qitilishi maqsadga muvofiq degan xulosa berdi.

Behbudiy (umum)turkiy tilni “Tarjimon” gazetasi vositasida o‘zlashtirganini bayon qilar ekan, “ona tilim forsiydir, yozgan turkchamni ruhoniy hojam ‘Tarjimon’ sahifalaridan tahsil etdim”, degan fikri bilan o‘rtoqlashadi. Bu esa Gasprinskiy taklif qilayotgan (umum)adabiy yoki (umum)turkiy til yaratilganidan darak beradi. Shuningdek, Gasprinskiy nashr etgan “Tarjimon” gazetasining Turkiston o‘lkasidagi e’tiborini “usuli jadida nomi bilan isloh qilingan va ochilgan maktablar muhtaram ‘Tarjimon’ ta’sirida alifbodan oxiriga qadar turkcha dars berib, Turkistonda turkchaning yoyilishiga xizmat qilgan”ida ham ko‘rish mumkin. Bu so‘zlar ham Behbudiyga taalluqli.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Munozara” maqolasi o‘sha davrda ham hozirgi kunda ham ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan maqolalardan biridir. "Munozara" maqolasida buxoriylar uchun "yangi usul" maktablarining foydaliligi, bunday maktablarda yoshlarni o‘qitish lozimligi ta’kidlangan. Bu maqola farangiy afandi va mudarris Buxoriy janoblari o‘rtasidagi bahs va suhbat asosida vujudga kelgan. Haqiqatdan ham, buxoriylar mana shunday maktablarda o‘qib, ta’lim-tarbiya olsalar kelgusida ulardan bilimli, aqlli, har tomonlanma mukammal bo‘lgan "komil insonlar" etishib chiqardi. Buxoriylar yuqori cho‘qqilarni zabt etib, balki "Munozara"asariga rahmatlar aytib, bu asarni xotirasida saqlar, deb aytiladi maqolada. Bu bahsni boshlagan farangiy afandining maqsadi buxoriylarni ruscha o‘qitish va ularni rus madaniyatidan xabardor bo‘lishlarini xohlardi. Ya’ni ularni faqat o‘z qobig‘ida qolib,ketmasliklari uchun boshqa til, boshqa madaniyatlar bilan hamohang bo‘lishini istagan. Agar farangiy afandi, ularni bu yangiliklardan xabardor qilmaganida ularning hayotlari o‘zgarishsiz bir xil turgan bo‘lar edi. Buxoriylarni tom ma’noda uyg‘otgan va ularni ilm yo‘liga boshlagandir farangiy afandi. Maqolada aytiladiki, har bir bilimli, ilmli, tushunadigan inson buxoriylarning rus maktablarida o‘qishlarini chin dildan xoxlardi. Buxoriylarni rus tilini o‘rganishlarida "Munozara "maqolasi o‘ziga xos yo‘riqnoma bo‘lgan desak, adashmagan bo‘lamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ilg‘or kishisi sifatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi echilishi lozim bo‘lgan muammo va kamchiliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, jamiyat tanazzulini his etdi. U o‘z fikr-mulohazalarini xalqqa tanqidiy, xalqchil ruhda etkazishga harakat qildi, bartaraf etish yo‘llarini izladi. Taraqqiyparvar boshqa xalqlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirmay turib, jahon madaniyatiga, milliy taraqqiyotga erishib bo‘lmasligini, o‘zga millatlar turmush tarzining ibratli jihatlaridan foydalanish zarurligini to‘g‘ri anglab etdi. Shuningdek uning qarashlarida taraqqiyotning moddiy asosini mustahkamlash, ya’ni, eng avvalo, iqtisodiy madaniyatni yaratishga asosiy e’tiborni qaratgan holda ma’naviy zaminni mustahkamlash masalasi bosh o‘ringa olib chiqildi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 2-jild.
2. X.S.Ashurova. Jadidchilik g‘oyalarining vujudga kelish tarixiga oid falsafiy qarashlar. SamDU. Ilmiy axborotnoma. 2020. 6-son.
3. Herman Vamberi. Ma’rifat yo‘lidagi uyg‘onish. Tafakkur. 2000.2-son.
4. Mahmudxo‘jaBehbudiy. Muhtaramyoshlarg‘a murojaat. “Oyina”. 1914. 41-son.
5. B.Qosimov. Jadidchilik. O‘zbek tili va adabiyoti. 1990. 4-son.
6. Shamsutdinov R. Jadidchilik: Haqiqat va uydirma. Muloqot. 1991. 1-son.

Людмила МУМИНХОДЖАЕВА,

старший преподаватель кафедры
“Библиотечно-информатsionная деятельность”
ГИИКУз

ВКЛАД ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В КУЛЬТУРНУЮ И ИНФОРМАЦИОННУЮ СФЕРУ ТУРКЕСТАНА

Аннотация. *В статье рассматривается значительная роль джадидского движения в трансформатsiи культурной и информатsionной среды Туркестана в конце XIX - начале XX веков. Основное внимание уделяется деятельности джадидов как просветителей, стремившихся модернизировать традиционную систему образования, и расширить доступ к знаниям среди мусульманского населения региона.*

Ключевые слова*: джадидизм, просвещение, Туркестан, культура, информация, библиотеки, модернизация, натsionальное самосознание.*

Abstract. *The article examines the significant role of the Jadid movement in the transformation of the cultural and information environment of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. The main focus is on the activities of the Jadids as educators who sought to modernize the traditional education system and expand access to knowledge among the Muslim population of the region.*

Key words: *jadidism, enlightenment, Turkestan, culture, information, libraries, modernization, national identity.*

Начало эпохи Возрождения Нового Узбекистана ознаменовалось мощным импульсом к развитию натsionальной культуры, традиций и ценностей. В этом процессе особая, всё возрастающая роль отводится книгам и библиотекам, которые выступают фундаментальной основой формирования натsionальной духовности. Современная эпоха, характеризующаяся беспрецедентным научно-техническим прогрессом, привела к значительному расширению сфер влияния прессы, телевидения и цифровых медиа. Однако, несмотря на стремительное развитие новых технологий, культура чтения книг и использование библиотечных ресурсов не только сохраняется, но и активно развивается, находя новые формы и способы взаимодействия с аудиторией. Библиотеки адаптируются к современным реалиям, предлагая новые сервисы и расширяя доступ к информатsiи. Обращаясь к историческому опыту, необходимо отметить яркий пример самоотверженного служения просвещению в лице джадидов Туркестана. Эти просветители, действуя по собственной инициативе и зачастую за собственный счёт, заложили прочный фундамент для развития образования, науки и культуры на территории Туркестана [1]. Их вклад в становление натsionальной идентичности неоценим. Они не только создавали новые школы, но и инициативно строили типографии, театры, а также университеты и библиотеки, такие как «Турон», «Маърифат», «Гайрат» и «Зарафшон», которые стали центрами интеллектуальной жизни и распространения знаний. Эти учреждения,

возникшие благодаря энтузиазму и самопожертвованию джадидов, воплощали их стремление к модернизatsiи и просвещению, закладывая основы для будущего развития Узбекистана. Сегодняшнее возрождение hatsiональной культуры во многом опирается на наследие джадидов, их веру в силу образования и важность доступа к информatsiи. Активная поддержка библиотек и продвижение чтения являются логичным продолжением этой исторической миссии, направленной на создание просвещенного и развитого общества. Президентская политика в сфере культуры и образования нацелена на сохранение и развития hatsiонального достояния, при одновременном использовании современных технологий для распространения знаний и формирования критически мыслящего гражданина. Это синтез традиций и современности, обеспечивающий устойчивое развитие Узбекистана и его hatsiональной идентичности.

Движение джадидов в Туркестане представляло собой мощную волну hatsiонального пробуждения, стремившуюся к освобождению от колониального гнета. Участники этого движения понимали, что путь к независимости лежит через просвещение и модернизatsiю общества. Для достижения этой амбициозной цели они использовали целый комплекс стратегий, активно внедряя инноватsiи, заимствованные из зарубежного опыта. Ключевым элементом их деятельности стало создание новых школ, где преподавание велось на родном языке и включало современные предметы, не свойственные традиционной системе образования. Параллельно с этим джадиды отправляли способных студентов учиться за границу, предоставляя им возможность освоить передовые знания и технологии в ведущих мировых университетах и научных центрах. Эти образованные молодые люди по возвращении в Туркестан стали движущей силой перемен, внедряя новые методы в образовании, сельском хозяйстве, и других сферах жизни [5].

Одним из самых ярких представителей джадидского движения был Махмудходжа Бехбудий, фигура поистине выдающаяся. Его вклад в развитие просвещения в Туркестане неоценим. В 1912 году он основал частное издательство «Издательство Бехбудий», ставшее настоящим центром распространения знаний и прогрессивных идей. Именно это издательство впервые опубликовало на русском языке знаменитое произведение Фитрата «Байоноти сайёхи хинди», делая его доступным для широкой аудитории, включая представителей русской интеллигенции, что способствовало культурному обмену и пониманию туркестанской культуры. Более того, «Издательство Бехбудий» выпустило первую печатную карту Туркестана, что само по себе являлось значительным достижением для того времени, способствуя формированию национального самосознания.

Но деятельность Бехбудий не ограничивалась только издательской деятельностью. В 1913 году он основал «Библиотеку Бехбудий», ставшую настоящим оплотом просвещения в Самарканде [2]. Эта библиотека была не просто хранилищем книг, а центром интеллектуальной жизни, местом встречи ученых, писателей и просветителей. Идея создания этой библиотеки принадлежала именно Бехбудий, который активно призывал других деятелей

науки и культуры объединиться для реализatsiи этого проекта. Он лично вложил значительные средства и усилия в создание и поддержание библиотеки. Бехбудий не только собирал книги, но и обеспечивал условия для их доступности, создав удобный читальный зал. Важно отметить, что существование и деятельность «Библиотеки Бехбудий» были широко освещены в ведущей газете того времени «Туркистон Вилояти Газети», что свидетельствует о значимости этого проекта для общественной жизни Туркестана.

Бехбудий предложил создать специальное общество, которое бы занималось управлением библиотекой, деятельность которой была организована на высоком уровне. Члены этого общества регулярно встречались, обсуждая вопросы пополнения фонда, организatsiи работы с читателями и расширения деятельности. В журнале «Ойна», издаваемом самим Бехбудий, было опубликовано подробное описание работы библиотеки, указывалось, что библиотека располагалась в собственной комнате Махмудходжи Бехбудий в редакции журнала, и что она имела богатый фонд книг, журналов и других изданий. Читальный зал работал в две смены, обеспечивая доступ к книгам для большого числа людей. Библиотека «Бехбудий», как её впоследствии стали называть, играла важную роль в культурной жизни Самарканда, предоставляя жителям города доступ к знаниям и способствуя распространению просвещения. Таким образом, Махмудходжа Бехбудий не только организовал издательство и библиотеку, но и лично участвовал в формировании культурной среды Туркестана, внося значительный вклад в движение джадидов и борьбу за hatsiональное освобождение.

Библиотека, созданная по инициативе выдающегося деятеля Бехбудий, продолжает активно развиваться и привлекать внимание общественности с каждым днем. В своем стремлении к просвещению и распространению знаний Бехбудий сформулировал основную цель этой библиотеки: «Мы стремимся эффективно использовать средства, которые могут выделить мусульмане». Это высказывание стало основополагающим для создания и функционирования библиотеки, которая впоследствии была названа в честь самого Бехбудий. Он не только стал инициатором этого важного культурного проекта, но и взял на себя основную финансовую ответственность за его содержание.

Кроме того, Бехбудий обладал значительной коллекцией книг и брошюр, которая составила основу библиотечного фонда. В одной из своих статей, посвященной Вадуду Махмуду Абдукадиру Шакури, он упоминает, что «Бехбудий был владельцем богатой библиотеки, в которой находился читальный зал, содержащий около 1000 томов». Этот читальный зал был открыт для всех желающих, и в то время каждая из книг, находившихся в нем, имела огромную ценность. Бехбудий также финансировал строительство и все сопутствующие расходы, связанные с созданием этого культурного пространства из своих собственных средств.

С течением времени библиотека привлекла к себе повышенное внимание, что открыло возможности для организatsiи продаж книг. Учитывая растущий интерес и потребности прогрессивных людей Самарканда в литературе, как отечественной, так и зарубежной, Бехбудий принял решение отправиться в путешествие по Кавказу, Крыму, Турции и другим странам, чтобы привезти оттуда новые книги для своей библиотеки. В своей статье под названием «Осознанное путешествие» он делится своими планами и целями.

В результате этой инициативы было получено разрешение на открытие книжного магазина в редакции «Ойна» [5]. Это стало важным шагом в развитии библиотеки и её роли в культурной жизни региона. Путешествие Бехбудий началось 29 мая 1914 года и охватило множество городов, включая Кавказ, Крым, Турцию, Грецию, Болгарию, Австрию и Германию. В ходе этого обширного путешествия он собрал значительное количество книг и брошюр, которые впоследствии пополнили фонд библиотеки Бехбудий.

Таким образом, библиотека, основанная Бехбудий, не только стала важным центром знаний и культуры, но и символом стремления к просвещению и развитию общества. Благодаря усилиям Бехбудий и его приверженности делу, библиотека продолжала оставаться значимой частью культурной жизни региона, предоставляя доступ к ценным ресурсам и знаниям для всех желающих.

Завеса молчания окутывает историю библиотеки Бехбудий после революционных потрясений 1917 года. Пресса, словно по указке неизвестной силы, хранит молчание, не оставив ни одной статьи, ни единого упоминания, способного пролить свет на судьбу этого важного культурного центра. Это молчание особенно прискорбно, если учесть масштаб деятельности библиотеки и людей, стоявших за её созданием. Ведь Бехбудий и его единомышленники, ярые сторонники Просвещения, воспринимали свою работу как священный долг, как миссию, призванную рассеять тьму невежества светом знания. Они верили в силу идеи, в силу слова, и неустанно трудились, невзирая на противодействие, на бушующие вокруг политические бури.

В 1913 году, как маяк надежды в непроглядной ночи, зажглась новая звезда на культурном небосклоне Туркестана – театральная труппа «Турон», возглавленная выдающимся деятелем Абдуллой Авлони. Параллельно с театром, на улице Максидозлик, в самом сердце старого Ташкента, распахнула свои двери библиотека-читальня «Турон». Это было место, где жажда знаний могла быть утолена, место, где семена просвещения падали на благодатную почву пытливых умов.

1917 год стал переломным моментом в истории библиотеки «Турон». Благодаря неустанным усилиям прогрессивных интеллигентов, членов общества «Турон»: Мунавваркори Абдурашидханова, Шокирджона Рахимия, Юсуфа Алиева, Абдуллы Кадыри, Гулома Зафари, Чулпона и Маннона Уйгура библиотека пережила невероятный расцвет. Из скромной читальни она превратилась в солидное учреждение с богатейшим собранием книг и просторным читальным залом, способным вместить множество жаждущих

знаний посетителей. Каждый из этих людей внёс свой бесценный вклад, каждый работал самоотверженно, каждый верил в силу просвещения. Их имена заслуживают того, чтобы быть увековечены, чтобы служить вдохновением для будущих поколений.

С 1920 года библиотека «Турон» перешла под покровительство Ташкентского городского отдела народного образования и Департамента по делам фондов. Даже в условиях смены политической системы, библиотека продолжала свою важную миссию. До 1927 года её стены украшали портреты великих мыслителей исламского мира: Исмаилбека Гаспрали, Джамолиддина Афгани, Ризауддина ибн Фахриддина. Эти портреты служили не просто украшением, а символом непрерывности знаний, связывающим прошлое, настоящее и будущее. Полки библиотеки были заполнены бесценными сокровищами: редчайшими рукописями Востока, книгами, газетами и журналами, прибывавшими из самых разных уголков мира, создавая невероятное многообразие источников информatsii.

Культурно-просветительские организatsii, созданные джадидами, играли огромную роль в жизни туркестанского общества. Эти смелые новаторы ставили перед собой грандиозные цели, стремясь изменить мир к лучшему. Их энтузиазм, вера в силу образования, их готовность противостоять укоренившимся традициям – всё это заслуживает глубокого уважения и восхищения. Истинная суть их деятельности заключалась в искоренении средневекового невежества и суеверий, которые цепкими корнями вросли в жизнь общества, в широкой пропаганде образования и культуры, в создании нового, более прогрессивного общества. Они боролись за грамотность, за развитие критического мышления, за создание условий, которые позволят каждому раскрыть свой потенциал. Они видели будущее в образованном и просвещенном народе, и неустанно стремились к этой цели. Их деятельность, хотя зачастую и встречала сопротивление, стала фундаментом для развития культуры и образования в Туркестане, и её важность трудно переоценить.

Возвращение к изучению истории библиотеки Бехбудий и библиотеки «Турон» - это не просто удовлетворение исторического любопытства, но и важный шаг к пониманию сложных процессов, происходивших в Туркестане в начале XX века [4]. Только всестороннее и беспристрастное рассмотрение данного этапа истории даст возможность современному поколению почерпнуть из опыта предшественников идущие от них знания, а также способствовать сплочению различных поколений.

Список литературы

1. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. – Тошкент: Академнашр, 2011. – С. 267.

2. Аҳророва З. Беҳбудий кутубхонаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1995. – 17 февр.

3. Гафаров Н.У. Джадидизм в Средней Азии в конце XIX в. - начале XX автореферат дис. … докт. ист. наук. – Душанбе, 2013. – 47 с.

4. Кучиев И. Возрождение добрых традиций джадидизма в «Новом Узбекистане». – Ташкент, 2024. - Режим доступа: https://nuz.uz/2024/03/05/vozrozhdenie-dobryh-tradiczij-dzhadidizma-v-novom-uzbekistane-okonchanie/

5. Shodiyeva G.X. Turkistonda ta'limga oid islohotlarning davriy matbuotdagi ifodasi ("Oyna" jurnali misolida) // Boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribala: Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi. – Qarshi, 2024. – B. 142.

Marg'uba QODIROVA,
"O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi
O'zDSMI

ELBEK (MASHRIQ YUNUSOV): XX ASR BOSHLARIDAGI O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING SHAKLLANISHI, MASALCHILIK JANRINING RIVOJI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr boshlarida o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib, ko'plab darsliklar yozgan, o'sha davr o'zbek adabiyotida masalchilikni boshlab bergan, tilshunoslik ilmida yangi imlo qoidalarini ishlab chiqqan va shoir sifatida jadidchilik adabiyotini rivojiga salmoqli hissa qo'shgan Elbek – Mashriq Yunusovning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyatiga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *masalchilik, masal janri, Sharq mumtoz adabiyoti, imlo qoidalari, xalq og'zaki ijodi, darsliklar, nozik kulgu va yumor.*

Annotation. *This article is devoted to the life, scientific and creative activities of Elbek -Mashriq Yunusov, who made a great contribution to the formation and development of Uzbek children's literature at the beginning of the 20th century, wrote many textbooks, introduced parables in Uzbek literature of that period, developed new spelling rules in linguistics, and as a poet made a significant contribution to the development of Jadid literature.*

Key words: *parables, parable genre, Eastern classical literature, spelling rules, folk oral literature, textbooks, subtle laughter and humor.*

Jadidlar XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanishi va Turkiston xalqlari achinarli ahvolining ijtimoiy ildizlarini tahlil etib, birinchi navbatda, ta'lim tizimini isloh etish va xalq ommasini ma'rifatlashtirish lozim, degan qarorga keldilar. Ular nazarida, Turkistondagi mavjud tarixiy sharoitni o'zgartirishning birdan-bir yo'li ma'rifat o'choqlarini barpo etish va xalq ommasining qalblariga ma'rifat nurlarini olib kirish edi.

Agar ma’rifat o‘zbek xalqi va madaniyati tarixining avvalgi davrlarida xalq ommasini bilimli qilish vositasi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, jadidlar ma’rifatdan ijtimoiy qurol sifatida ham foydalanmoqchi bo‘ldilar. Ularning fikriga ko‘ra, ma’rifatlashgan xalq yaqin kelajakda o‘z haq-huquqlari uchun, Vatan hurligi va mustaqilligi uchun kurashishi ham lozim edi. Binobarin, jadidlar ma’rifatning xalq va Vatan taqdiridagi rolini mumkin qadar oshirish kerak ekanligini yaxshi anglab etgan edilar.

XX asr boshlarida o‘z xalqini ma’rifatli qilish yo‘lida jon fido qilgan pedagog, qatag‘onlik davri o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Elbek — Mashriq Yunusovdir.

Elbek faoliyatiga xos fazilat shundaki, u etuk ijodkor sifatida pedagogik faoliyatini olimlik va badiiy ijod bilan baravar olib bordi. 1918–1920-yillarda yangi ochila boshlagan sovet maktablari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari yo‘q darajada edi.

Elbek 2,4-sinf o‘quvchilari uchun “Yozuv yo‘llari” (1bo‘lak, 1921), “O‘rnak”, “Boshlang‘ich maktabda ona tili” (1923), “Go‘zal yozg‘ichlar” (1925) kabi o‘quv qo‘llanmalari va majmualarni yaratgan. Xalq og‘zaki ijodi materiallarini to‘plash va o‘rganish maqsadida 1921-22-yillarda Bo‘stonliq tumaniga, 1932-yilda esa Ohangaron va Chirchiq tumanlariga hamda Farg‘ona vodiysiga ekspeditsiya uyushtirgan. Elbek ilmiy safarlar natijasida to‘plangan materiallardan 1,3-sinflar uchun “Bilim” to‘plamida keng foydalangan. “Ashulalar to‘plami” (1934-35-yillarda 2 marta nashr etilgan), “Laparlar” va “Ertaklar” (1935) to‘plamlarini e’lon qilgan.

Elbekning yangi imlo qoidalarini ishlab chiquvchilar uchun qo‘llanma sifatida yaratilgan birinchi asari “Imlo masalasi” nomi bilan 1920-yilda bosmadan chiqdi. Unda muallif tilshunos-pedagoglar e’tiborini quyidagi muhim masalalarga qaratadi: “Endi biz qo‘rqmaylik. Mumkin bo‘lganicha, turkiycha yozganimiz kabi, yot so‘zlarni-da, chog‘li o‘laroq o‘z negizimiz ostiga olib boraylik. Biz bu to‘g‘ridagi siylamaslikni (hurmatsizlikni), boshqalarni qo‘yay, arablarning o‘zlaridan o‘rgandik. Ular o‘z tillarida bo‘lmagan harflarni o‘z harflari bilan yozganlari kabi (“g” o‘rnida “j”, “ch” erida “s”, general – jeneral, chin – sin kabi). Bu yo‘l allaqancha yot so‘zlar arab kiyimi, arab qolibida yoziladurgan bo‘lib, o‘z o‘g‘itlarini (shakllarini) yo‘qotdilar: “geografiya” erida “jug‘rofiya” yozilgani kabi”.

Darhaqiqat, bu tilshunoslik ilmining juda muhim qonuniyati edi: har qanday millat “yot so‘zlar” (boshqa tillardan kirgan so‘zlar)ni olgan vaqtda o‘z artikulyatsiyasi (talaffuz qoidasi)ga moslashtiradi. SHo‘rolar davrida tilshunoslikning mazkur qonuniyati, ayniqsa, rus so‘zlarini qabul qilishda qo‘pol ravishda buzilgan edi: majburiy ravishda o‘zbek talaffuziga xos bo‘lmagan “s”, “ь” kabi harf belgilari ham kiritilgan edi. Elbek shu ma’noda, boshqa tillardan so‘z olishda ona tilining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda tilshunoslikning umumiy qonuniyatlarini e’tibordan soqit qilmaslik kerakligini alohida ta’kidlaydi: “Shubhasiz, biz boshqa tillardan so‘z olamiz va bunga qarshi bo‘lish tilning tarixidan xabarsizlik bo‘lar edi. Ammo so‘z olishning chegarasi bo‘lishi kerak va shu bilan birga, o‘z tilining xususiyatini, uning o‘sishi, rivojlanish yo‘llarini ham ko‘zda qattiq tutish kerak”.

Elbekning ushbu “Imlo masalasi” asari yangi imlo qoidalarini ishlab chiqishda va ona tilidan maktablar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda o‘z davrida nazariy asos vazifasini bajardi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, hozirda ham yangi yozuv tizimiga o‘tishimizda, yangi imlo qoidalarini ishlab chiqishda bu asarning ahamiyati beqiyos. Elbek yangi imloning mukammal hamda xato va kamchiliklardan xoli bo‘lishini istab, tanqidchilarni, tilshunoslarni munozarada faol ishtirok etishga da’vat etdi: “Belgilidurkim, dunyoda bo‘lg‘on har bir ishning yaxshigina negiz olib, bir yo‘sin ostig‘a kiruvi uchun ko‘b tanqidchilar tomonidan tanqid etiluvi yoxud bir necha tuzatuvchilar tomonidan yaxshi tekshirilib, maydong‘a otiluvi kerak bo‘ladur. Busiz maydong‘a otilg‘an bir ishning, albatta, kamchilik erlarining bo‘lishi mumkindur. Shuning uchun boshqa kimsalarning tomonidan ko‘riluvchi va tanqid etilib, uning buzuq erlarini tuzatib beriluvi o‘rinlidur. Yolg‘izgina ko‘rib, uning ishlovchisiga “barakalla” desa yoxud jimjitgina qolib ketmoq kelishmaydur. Bu choqda ishlovchining ishig‘a ko‘mak beruv emas, unga zararni istagangina bo‘ladur”.

O‘z davrining etuk adabiyotshunosi sanalgan Fitrat masal janri haqida voqealar ko‘proq hayvonlar orasida tasvirlanishi, o‘quvchilarga qanday bo‘lsa-da, bir ibrat berish tilagi bilan yozilishini aytib o‘tadi. “Bizning adabiyotimizda Navoiyning forsiydan ko‘chirgani “Lison ut-tayr” kitobi kattakon bir masal bo‘lg‘oni kabi Gulxaniy shoirning “Zarbulmasal”ida bir masal, zamonamizda esa masalchilik yo‘lida Elbekning oncha xizmatlari bo‘lib turadir”. Elbekni shunday e’tirof etgan Fitrat shu asarida uning “Ikki tulki” masalini misol tariqasida keltiradi. Darhaqiqat, Elbek masalchilik bilan jiddiy shug‘ullangan. Dunyo adabiyotidagi shu janrdagi sara asarlarni tarjima qilgan, o‘rgangan, shu bilan birga, Sharq falsafasini, xalq og‘zaki ijodini o‘zaro uyg‘unlashtira olgan.

Elbek 1921, 1923-yillarda chop ettirgan “Armug‘on” masallar to‘plamiga 18 ta masal kiritilgan. To‘plamning ikkinchi nashri jiddiy qayta ishlangan va badiiylik nuqtai nazaridan ancha pishitilgan. Shuni ham qayd etish kerakki, Mashriq asarlarida xalq og‘zaki ijodining turli motivlari o‘z aksini topadi. Elbek masallarni bolalar uchun yozgan bo‘lsa-da, unda chuqur ijtimoiy muammolar, shoirning dard-alamlari yashirin ramzlar vositasida o‘z aksini topadi. Shoir o‘zining “Ot ila odam”, “Qaysi biri bo‘ri?”, “Sichqonxonning qiz uzatishi”, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa”, “Ikki tulki”, “Kampirning tovuqlari”, “Fil va laycha” kabi masal va ertak-masallari orqali nozik kulgu va yumor vositasida zamonasining dolzarb muammolarin ochib bera olgan. Masalan, “Olaqarg‘a bilan qurbaqa” masalida olaqarg‘a qo‘liga tushib, emakka aylangan qurbaqaning hiyla bilan undan qutulib qolishi tasvirlangan. YA’ni qurbaqa olaqarg‘ani ko‘kka ko‘tarib maqtab, uning tovushining dunyoda tengi yo‘qligi va bir sayrab bersa, maza qilib tinglasa, armonsiz ketishini aytib, qarg‘a sayrayotgan mahal qochib qoladi. Shu kabi motivlar o‘zbek va boshqa xalqlar ertaklarida ko‘p uchraydi. Bu erda aynan olaqarg‘aning tanlanishi sababi esa uning ovozining o‘ta yoqimsizligi va yomonlik xabarchisi ekanidadir. Qarg‘a qanchalik xunuk va yoqimsiz bo‘lmasin, maqtovga uchib, o‘zining ovozini tengi yo‘q ekaniga ishonadi va sayrashga tushadi. Oqibatda o‘ljani qo‘ldan chiqaradi. Shuningdk, “Sichqonxonning qiz uzatishi” ertak-masali ham xalq og‘zaki ijodidan olingan ertak asosida juda yaxshi ifoda etilgan. Masal ritmi, qofiyasi jihatidan mukammal

bo‘lmasa-da, shoir asl mazmun-mohiyatni bolalar uchun tushunarli tarzda go‘zal ifoda eta olgan. Sichqonxonning qiziga kuyov izlab, dunyo kezib, oxiri o‘z qavmidan munosib nomzod topishida “Teng tengi bilan”, “Peshonaga yozilganidan qutulib bo‘lmaydi” kabi naql va xalq maqollari mujassam.

“Ot ila odam” masalida ham e’tiborni tortadigan jihatlar bisyor. Unda o‘z yaylovida toza o‘tlardan eb, tiniq buloqlar suvin ichib, rohat-farog‘atda, eng muhimi, erkinlikda yashab kelayotgan ot bir kuni nogoh yaylovida bir ho‘kizning o‘tlab yurganini ko‘rib qoladi. Bundan jahli chiqib, uni haydab yuborish uchun odamdan yordam so‘raydi. Odam esa piyoda uzoqqa borolmasligini bahona qilib, otni no‘xtalab, minib oladi. Ot maqsadiga erishadi. Ho‘kiz yaylovdan quviladi. Ammo uning ustiga chiqib, jilovini qo‘liga olgan odam otni ozod qilishni xayoliga ham keltirmaydi. Asl vaziyatni, odamning maqsadini anglab qolgan otning yolvorishlari bekor ketadi: …Otning bunday yalinishlarin ko‘zga ilmay, Uning shunday holig‘a hech rahm qilmay, Qamchi bilan aylantirib to‘rt-besh urdi: Ho‘kiz bilan birga qo‘shib bog‘lab qo‘ydi...

Shoir izohda “Buning asli xalq ertaklaridan olinmishdir”, degan bo‘lsa-da, unda o‘sha zamon siyosiy tuzumi yaqqol akslanadi. Masal yozilgan vaqtda, ya’ni 1921-yili mustamlaka siyosati mustahkamlanib, xalq masaldagi yordam so‘rab qo‘lga tushgan ot kabi “qoziqqa bog‘lagan” – erki va huquqlaridan mahrum etilgan palla edi. Rossiya va Buyuk Britaniyaning O‘rta Osiyo uchun kurashi hammamizga ma’lum. Ularning hech biri yordam qo‘lini cho‘zganda samimiyat bilan ittifoq tuzish uchun emas, o‘ziga bo‘ysundirish va yo‘rig‘iga yurgizish uchun harakat qilgan. Shu jumladan, ruslar bosqini ham o‘sha davrda hashpo‘shlanib, ayrim tarixchilar tomonidan agar Rossiya bo‘lmaganda, O‘rta Osiyo Angliyaga qaram bo‘lib qolardi, Rosiya bizni boshqa bir davlat bosqinidan qutqarib qoldi, degan qarashlar bilan tarixni o‘zgacha talqin etishga urinilgan. O‘shanday qaltis vaziyatda Elbek ushbu masali bilan xalqning ko‘zini ochishni, mustamlaka sababi va oqibatini tushuntirishni maqsad qilgan bo‘lsa ne ajab.

Ayni shunday mustamlaka siyosatining achchiq oqibatlari “Qaysi biri bo‘ri?!” masalida yanada aniqroq ochib berilgan. Bo‘rining qo‘liga tushgan qo‘y o‘zining o‘lishini bilib, g‘amga botib turganda bir kishi shovqin solib kelib, bo‘rini quvadi va qo‘yni undan xalos etadi. Bechora qo‘yning quvonchi ichiga sig‘masdan “sakradi, suyundi, shodlandi”. Ammo... Ul kishi ham qo‘yni uyiga keltirib Pichoq bilan qo‘ydi uni tez so‘yib. Ana, fojia qayerda? Bir zolimning qo‘lidan xalos bo‘lgan qo‘y “xaloskori”ning qo‘lida o‘lim topadi. Joni chiqar mahal tipirchilar ekan, shunday deydi: “...Ey kishi, Bo‘rimi yo, aytgil, endi kim vahshiy? Qutqarding sen meni bo‘ri ilgidan, Hamda qo‘rqinch shu o‘limning vahmidan. Eng so‘ng o‘zing bo‘ridan-da o‘zdirding, Ko‘rdim, endi chin bo‘ri ham sen bo‘lding”.

Yuqorida aytganimizdek, qattol mustamlaka tuzumini oqlash uchun to‘qib chiqarilgan turli vaj-karsonlar, tarixni buzib ko‘rsatishga urinishlarga qarshi javob tarzida bitilgan bu masal o‘z davri uchun g‘oyatda kuyunib yozilgan, shu bilan birga, katta yurak bilan, yuksak jasorat va isyon o‘laroq bitilgan desak, xato bo‘lmaydi. Elbek masallarini kuzatar ekanmiz, nafaqat, xalq og‘zaki ijodi, Sharq mumtoz adabiyoti, balki rus va Yevropa adabiyoti ta’siri ham yaqqol seziladi. Jumladan, Karel Chapekda qo‘ylar tilidan aytilgan ajoyib masal bor: “So‘yishsa

so‘yaverishsin, bo‘ri daxl qilmasa bo‘lgani. Yoki Krilovning “Qo‘ylar va itlar” masalida qo‘ylarni bo‘rilardan asrash uchun itlar sonini oshirishadi. Natijada itlar shunchalik ko‘payib ketadiki, ularni boqish uchun qo‘ylarni bir-bir so‘yishga to‘g‘ri keladi. Nihoyat masal so‘ngida “Bor yo‘g‘i besh olti qo‘y qolgan edi – Ularni ham itlar eb bitirishdi”, deya yakunlanadi. Yoki Krilovning “Bo‘ri va cho‘ponlar” masalida bir bo‘ri qo‘ton yonidan o‘tib ketayotganda cho‘ponlarning eng semiz qo‘chqorni bemalol bo‘g‘izlayotganiga ko‘zi tushadi va o‘zicha shunday deydi: “Agar bu ishni men qilganimda – Ko‘tarar edingiz qanchalik shov-shuv”.

Qalbim

Xayolim qo‘limdan kapalak kabi
Uchqinib yo‘qoldi, bilmadim qayga,
Uni axtararkan, qalbim nazari
Tashlandi yaltirab turuvchi oyga.
Hoy, so‘yla oy! Mening xayolim qayda,
Yo sen o‘g‘irlab olib qo‘ydingmi?
Hoy qalbim, aytgil sen, u qaysi joyda?
Yoki sen ham axtarishdan to‘ydingmi?
Angladim, tushundim, xayolim mening
Shu chiroyli oyning qo‘yniga qochgan.
Balki qalbim senga, ko‘zlaring sening
Uni ko‘ra olgan, oy sirin ochgan.

Elbek she’riy va nasriy asarlarida o‘zbek xalqining yaqin tarixidan olingan, shu jumladan, shoirning kechmish-kechirmishi bilan bog‘liq voqealar tasviri muhim o‘rinni egallaydi. U tarixiy o‘tmishga murojaat etganida ham, zamonaviy mavzularda qalam tebratganida ham ibratli voqealarni tasvirlashga, zamondoshlarining, ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi va axloq-odobini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni ko‘tarishga intilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T oshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – B. 63.

2. *“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” газетаси, 2021 йил 5 ноябрь.*

3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. –Toshkent:. Ma’naviyat, 2000.B. 105.

4. Elbek. Tanlangan asarlar. –Toshkent: “Sharq”, 1999. -B.165.

5.https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/karel-chapek-1890-1938-chexiya/karelchapek-masallar.

Shavkat BOBOMURODOV
O‘zDSMI mustaqil izlanuvchisi

CHO‘LPON VA FITRATNING MATNI TOPILMAGAN PYESALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadid намояндалари, xususan, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat kabi taniqli dramaturglarning sahna uchun yozilgan va o‘ynalgan, ammo matni topilmagan asarlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *jadidlik, pyesa, san’atshunoslik, sahna, tadqiqot, g‘oya, qatag‘on.*

Abstract*. This article talks about works written and performed for the stage, but the text of which has not been found, by famous playwrights such as Abdulhamid Cholpon, Abdurauf Fitrat.*

Key words: *jadidism, play, art studies, stage, research, idea, repression.*

Bugun mamlakatimizda davlat siyosati darajasida faol targ‘ib qilinayotgan, milliy g‘oyamizga asos g‘oya o‘laroq ko‘rilayotgan, Uchinchi Renessansning debochasi sifatida e’tirof etilayotgan jadidlik harakati xalqni cho‘ng maqsadlar atrofida birlashtirish, davlatchilik, maorif, matbuot va boshqa sohalarda samarali islohotlar o‘tkazish vazifalaridan tashqari jamiyatda madaniyat va san’at sohalarining ahamiyatini munosib baholash, u orqali milliy o‘zlik g‘oyalarini faol singdirish kabi funksiyalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan harakatga undovchi kuchdir.

Darhaqiqat, jadidlar o‘zlarining xalqni uyg‘otish g‘oyalarini aynan san’at, xususan, teatr san’ati vositasida amalga oshirishga uringani ham bejiz emas. Ta’kidlash joiz, mamlakatimizga Yevropa tipidagi professional teatrning kirib kelishiga aynan jadidlar ulkan hissa qo‘shdi, faol xizmat ko‘rsatdi.

Jadidlik harakati namoyandalari xalq turmush tarzini, ijtimoiy muammolarini o‘zida aks ettiruvchi dramatik asarlarni hali milliy drama truppalari shakllanmay turib yoza boshlashdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” (1911), A.Samadovning “Mahramlar” (1910) kabi asarlari shular jumlasidan. Mahalliy teatr truppalarimiz o‘z faoliyatini milliy dramalarimiz namoyishi bilan (1913-yil Samarqand, 1914-yil Toshkent) boshlagani ham jadidlar g‘oyasining naqadar xalqona ekanini anglatadi.

Taassufki, davr talato‘plari, ayniqsa stalin qatag‘oni degan qora nom bilan tarixda qolgan o‘tmishimizning eng ayanch kunlarining rutubati bois jadid allomalarining bir qancha sahna asarlari yo‘qotildi, boshqa mualliflar nomida qolib ketdi, etarlicha saqlab qolinmadi. Bu pyesalarning nomi haqida o‘sha paytda chop etilgan gazeta-jurnallar orqali bilishimiz mumkin, ammo matni bilan tanishishning imkoni yo‘q. Keyingi yillarda adabiyotshunoslik va san’atshunoslik ixtisosliklari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ayrim ana shunday asarlar shaxsiy va davlat arxivlaridan qidirib topildi, e’lon qilindi. Jumladan, Cho‘lponning “Yana uylanaman” komediyasi matni ilmiy va adabiy jamoatchilikka ma’lum emas edi. 2021-yilgi qidiruvlarga ko‘ra Cho‘lponning “Yana uylanaman” komediyasi matni professor D.Quronov tomonidan “Rossiyskiy gosudarstvenniy arxiv literaturi i

isskusstvo” (RGALI)ning VTO Kabinet internatsionalnix narodov SSSR bo‘limi (inv.№59/IV)da borligi aniqlandi va qo‘lga kiritildi. Mazkur komediya rus tilida bo‘lib, yozuv mashinkasida yozilgan, 33 betdan iborat. Asar muallifi Cho‘lpon ekanligi birinchi betda qayd etilgan. Sarlavhasi dastlab o‘zbek tilida “Pul undirish” ili “Yana uylanaman” deb yozilgan, so‘ngra qavsda “Snova xochu jenitsya” deb yozib qo‘yilgan. Professor D.Quronovning keyingi aniqlashiga ko‘ra L.Sverdlinning shaxsiy arxivida “Xochu jenitsya” nomli pyesaning yana bir varianti mavjudligi ma’lum bo‘ldi [1, 129].

Yuqoridagi ma’lumotning o‘ziyoq san’atshunoslar va adabiyotshunoslar oldida hali ochilmagan katta qo‘riq turganini anglatadi. Xususan, Abdulhamid Cho‘lponning yigirmaga yaqin sahna asarlari, Abdurauf Fitratning xorij safari paytida yozgan va bizgacha etib kelmagan pyesalari, boshqa jadid allomalarining dramatik asarlarini topish, tadqiq etish bugungi kunning faol g‘oyasi bo‘lgan jadidlik harakatini teranroq anglashga, o‘sha davr muhitini chuqurroq his etishga ko‘mak beradi.

Cho‘lponning “Yana uylanaman” komediyasi sahnada o‘ynalgani haqida aytilsa-da, bu haqda etarlicha faktlar mavjud emas edi. Filologiya fanlari doktori Dildoraxon Abdullayeva hamda Andijon viloyati tarixi va madaniyat davlat muzeyi katta ilmiy xodimi Iskandarshoh Madgaziyevlarning olib borgan izlanishlari natijasida “Yana uylanaman” komediyasining sahnada namoyish etilishi haqida “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1928-yil 13-yanvar juma kungi (913) 11-sonida e’lon berilgani aniqlangan. Pyesaning e’lon matni quyidagicha: “O‘zbek davlat truppasi tomonidan ma’lum Yusuf qiziq hikoyasidan Cho‘lpon asari o‘ynaladi: “Yana uylanaman”. Biletlar hozirdan boshlab sotilur. Bilet baholari 40 tiyindan bir so‘m 50 tiyingacha” [1, 129]. Anglashiladiki, asar faqat pyesa sifatida yozilibgina qolmay, sahnada ham muvaffaqiyatli o‘ynalgan, o‘z davrining tomoshaga o‘ch odamlarining adabiy didiga, fikriy jo‘shqinligiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Mazkur sahna asarining so‘ngida quyidagicha izoh yozilgan: “Bu pyesa o‘zbek shoiri, dramaturg, O‘zbek davlat drama teatrining adabiy xodimi Cho‘lpon (Sulaymonov) qalamiga mansub. Asar teatr studiyasiga oid shaklda yozilgan va sahnalashtirilgan. Postanovkachi Sverdlin. Pyesa 1927-28-yildagi teatr repertuariga kiritilgan, asar matniga postanovkachi va badiiy rahbar Tixonovich tomonidan o‘zgartirishlar kiritilgan. Keyinchalik asar repertuardan olib tashlandi, boz ustiga muallif qatag‘onga uchragan va teatr xodimlari safidan, dramaturgiyadan chiqarib yuborilgan edi” [2, 33].

“Yana uylanaman” komediyasi o‘zbek adabiyoti, o‘zbek dramaturgiyasi uchun yangi topilma hisoblanadi. Asarni ilmiy va adabiy jamoatchilikka etkazish, uni tahlil va talqin qilish zarurati bor. Cho‘lponshunoslikka oid adabiyotlarda “Buxoro jallodlari”, “Ov”, “Siniq oyna”, “Ikki dunyo”, “Oktyabrgacha o‘n yil” asarlari ham Cho‘lponga nisbat beriladi. Biroq ularning Cho‘lpon qalamiga mansubligiga doir fakt va materiallar etarli emas [1, 131].

Yana bir matni topilmagan asar 1916-yilda yozilgan “Begijon” pyesasi bo‘lib, ushbu dramatik asar XX asr boshlarida Xorazmda madaniyat va ma’rifatga oid ko‘pgina asarlarni to‘plab, nashr qilish bilan birga, bu yo‘nalishda tadqiqot ishlarini ham olib borgan jadid etakchilaridan biri Mulla Bekjon Rahmon haqida yozilgan.

Istanbul seminariyasida o‘qigan Mulla Bekjon 1913–1918-yillarda Turkiyada diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallab, Ismoil G‘asprali boshchiligidagi yosh turklar harakati bilan yaqindan tanishadi. Natijada Xivaga qaytgach, yosh xivaliklar harakati safiga qo‘shilib, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qila boshlaydi.

“Jadid” gazetasining 2024-yil 3-maydagi 19-sonida san’atshunoslik fanlari nomzodi Botir Matyaqubov shunday ma’lumot keltiradi: “Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Bekjon Rahmon o‘g‘li Abdurauf Fitratning yaqin maslakdoshi bo‘lgan. Adabiyotshunos olim, professor, H.Boltaboyevning ta’kidlashicha, Fitratning Buxoro amirligining o‘sha paytdagi tuzum va hayoti tanqidiy yoritilgan “Begijon” (1916) pyesasi aynan Bekjon Rahmon o‘g‘liga bag‘ishlangan ekan. Ammo bu asar ham bizgacha etib kelmagan” [3].

O‘zbek teatr san’atining dastlabki milliy asari va ilk milliy dramamiz haqida so‘z borganda mutaxassislar “Padarkush” dramasi bilan birga “Mahramlar” asarini ham tilga olishadi. Hatto “Mahramlar”ning avvalroq yozilganini ta’kidlashadi. Bu o‘rinda taniqli akademik Naim Karimovning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2011-yil 29-sonida chop etilgan “O‘zbek teatrining to‘ng‘ich asari” maqolasida, jumladan, shunday deyilganini keltirish o‘rinli: “Milliy teatrimizning tamal toshi haqida so‘z borganda birinchi milliy dramatik asarimiz sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari tilga olinadi. Jadidchilik harakati va adabiyotini boshlab bergan kishining teatrga, san’atning xalq ommasiga o‘sha vaqtda eng katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turiga e’tibor qaratmasligi mahol edi. O‘zining tarix oldidagi missiyasini chuqur his qilgan adib 1911-yili birinchi o‘zbek dramasi – “Padarkush”ni yozib, Turkistonda yangi adabiyot va san’at turiga tamal toshini qo‘ydi. Shuni ham unutmaslik lozimki, 1911-yili, Behbudiy asaridan bir oz avval qo‘qonlik muallim Abdurauf Samadovning “Mahramlar” pyesasi risola shaklida nashr etilgan. Bu tarixiy fakt, ayrim ijodkorlar nazarida, Behbudiyni o‘zbek dramaturgiyasining otasi, “Padarkush”ni esa birinchi o‘zbek dramasi deyishimizga monelik qiladi. Lekin “Mahramlar”ning dastlab “O‘liklar” nomi bilan tatar tilida yozilgani, muallifning o‘zi ham tatar millatiga mansub bo‘lgani, ayniqsa, mazkur asarning “Padarkush”dan keyin namoyish etilganini nazarda tutsak, Behbudiyning o‘zbek teatr san’atiga, xususan, o‘zbek dramaturgiyasiga asos solgan ijodkor ekanligi kundek ravshan bo‘ladi. Qolaversa, “Mahramlar”ning sahnalashtirilishi Turkiston xalqlari madaniy hayotida “Padarkush” namoyishidek ulkan tarixiy voqea bo‘lmagan” [4]. Ammo pyesa Turkistonda ilk dramalarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi bilan qimmatlidir.

Shuningdek, Cho‘lponning nomlari ma’lum, lekin matni topilmagan quyidagi dramatik asarlari haqida ham qisqacha ma’lumotlar mavjud:

1. “Boy” (1914), Cho‘lpon dramatik asarlarining birinchisi sifatida ko‘rsatiladi.

2. “Cho‘rining isyoni” (1919-20), O.Sharafiddinov mazkur pyesaning 1926-yilda sahnaga qo‘yilganini “Qizil O‘zbekiston” gazetasi (1926-y. 5-iyun)dagi “So‘nggi kunning bo‘lib o‘tgan tomoshalari” nomli maqola orqali aniqlaydi.

3. “Cho‘pon sevgisi” (1921) pyesasi she’riy drama shaklida yozilgan.

4. “Xalil farang” (1921). Ushbu 4 pardali dahshatli fojia 1921-yil 24-martda “Andijon eski shahar “Sharq yulduzi” teatri binosida Andijon okrug o‘zbek davlat

diram truppasi” tomonidan qo‘yilganligi aks etgan afisha Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida saqlanadi.

5. “O‘ldiruvchi” (1922). Cho‘lpon dramalari nashridagi izohlarda adibning 1920-yillarga qadar bo‘lgan davrda yozilgan kichik pyesalari qatorida mazkur asar “O‘ldirguvchi” shaklida zikr etiladi.

6. “Uzun quloq bobo” (1923). Asarni oqqa ko‘chirish uchun truppa artisti olib, uni yo‘qotib yuborganini Cho‘lponning o‘zi ham ta’kidlab yozadi.

7. “Qorovul uyqusi” (1927). Cho‘lpon bu pyesani “so‘zsiz o‘yin” deb ataydi.

8. “O‘rtoq Qarshiboyev” (1928-29).

9. “Hijrat” (1936-1937).

10. “Avaz” (1936). Ushbu dramani Sirojiddin Ahmad nashrga tayyorlab, “San’at” jurnalida chop ettiradi [6].

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin, jadid dramaturgiyasining ilk namunalari ko‘proq o‘rganilishi, bu borada izchil tadqiqotlar olib borilishi jadidlik g‘oyasini chuqurroq o‘rganishda, ilm-fanga, madaniyat va san’atga tashna ajdodlarimizning boy tafakkur merosi bilan yaqindan tanishishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa san’atshunoslar va adabiyotshunoslar oldiga mas’uliyatli vazifalar qo‘yadi. Zero matni topilgan har bir dramatik asar biz uchun tengsiz adabiy boylikdir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Abdullayeva D. I.Madgaziyev. Cho‘lpon dramaturgiyasi: noma’lum dramalari va yangi topilgan komediyasi haqida. Adabiy meros ilmiy jurnali, 2022-y. 2-son. 129-131-betlar.

2. Cho‘lpon A. Asarlar. 3 jildlik. I jild. – B. 196-198. 33-b.

3. “Jadid” gazetasining 2024-yil 3-may, 19-soni.

4. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2011-yil 29-son

5. Cho‘lponning badiiy olami. – Toshkent: Fan, 1994. 132-b.

6. Ahmad S. “Avaz” dramasi. – Toshkent: “San’at” jurnali. 1990. №5.

Xilola NYUTONOVA,
Urganch Ranch texnologiya
universiteti o‘qituvchisi

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING “PADARKUSH” DRAMASI MAZMUNINI ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘RGANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmudxo ‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi zamonaviy ta’lim texnologiyalari yordamida o‘rganilishi, o‘quvchilarda vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash va axloqiy ongni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Behbudiy, jadidchilik, maqola, Padarkush, ma’rifat, jaholat, maktab, usuli jadid, texnologiya, didaktik usullar.*

Abstract. *This article discusses the study of Mahmudkhoj Behbudi's drama "Padarkush" using modern educational technologies, its role in the formation of patriotism, social activism, independent thinking and moral awareness in students.*

Key words: *Behbudi, Jadidism, article, Padarkush, enlightenment, ignorance, school, Jadid method, technology, didactic methods.*

O‘zbekiston xalq ma’naviyati tarixida alohida o‘rin tutgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi nafaqat adabiy, balki didaktik hamda taribiyaviy jihatdan beqiyos manbadir. Bu asarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘rganish o‘quvchilarda yangicha tafakkur, tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘usini shakllantiradi [1].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta’lim tizimiga asos solgan, millat ozodligi, xalq farovonligi uchun kurashgan barcha jadidlarga, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyga ehtirom ko‘rsatib, yoshlarga o‘rnak qilib ko‘rsatish hamda ma’naviy merosini chuqur o‘rganish bo‘yicha oqilona va adolatli ishlar qilinayotgani yaxshi ma’lum. 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada davlatimiz rahbari “...2020 yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi”, deya ta’kidladi [3]. Bu buyuk allomaning millatimiz va davlatimiz oldidagi tengsiz xizmatlari e’tirofidir, albatta.

Haqiqatdan ham, jadidlar yuqorida ko‘rsatib o‘tilganligi va musulmon mutaassibligi kuchli bo‘lishiga qaramay, jamiyatda tub madaniy taraqqiy burilish yasashga muvaffaq bo‘ldilar. Turkistonda milliy tafakkur o‘zgardi, millat ijtimoiy g‘aflat uyqusidan uyg‘onib, siyosiy va ma’rifiylashdi. Millat adabiyoti yangilandi, milliy teatr, maorif va maktab, matbuot, madaniy-ma’rifiy uyushma (jamiyat) va siyosiy partiyalar paydo bo‘ldi. Padarkush asari hozirgi kunda ham nafaqat yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasi va ma’naviy kamolotiga, balki kattalarning dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsata oladigan drama sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Targ‘ibot-tashviqot ishlarida, turli tadbirlarda ushbu asar bilan bog‘liq muhokamalar va munozaralar o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, o‘qimagan bolaning holi, kelajakda qanday bo‘lishi Padarkushda to‘la namoyon bo‘lgan. U ayni chog‘da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targ‘ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo‘ldi [5].

“Padarkush” dramasi yoshlarni ongi, vijdoni, e’tiqodi bilan millatga xizmat qilishga da’vat etadi. Undagi tragedik syujet – otani o‘ldirgan farzand

obrazining ochilishi orqali ma'naviy inqiroz, jaholat va xoinlikning oqibatlari ko'rsarilib, yosh avlodga ibratli saboq bo'la oladi.

"Padarkush" dramasini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'rganish imkoniyatlari:

1.Insert texnologiyasi: matn o'qish davomida o'quvchilar o'z fikrlarini belgilar yordamida ifodalaydilar (bilaman, bilmayman).

2.Debat usuli: Otani o'ldirish"ning sababi va oqibatlari: Bunday og'ir jinoyatga nima sabab bo'lgan?

3.Klaster texnikasi: Asardagi asosiy tushunchalar (vatan, xiyonat, onglilik, ma'rifat) kabi tushunchalar bo'yicha klaster yaratish [6].

Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarni egallaydilar:

- Tanqidiy va tahliliy fikrlash;
- Axborotni izlab toppish va tahlil qilish;
- Axloqiy-ijtimoiy muammolarni hal etish;
- Jamoaviy muloqotda qatnashish.

"Fikrlar jarchisi"	Asar syujeti asosida bahsli fikrlar orqali mulohaza qilish	Tanqidiy fikrlash
"Rolga kirish"	Asardagi sahnalardan taetr sahnalashtirish	Badiiy-estetik dunyoqarash
"Baliq skeleti"	Muammo (Padarkushlik sabablari)	Muammoni tahlil qilish

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, "Padarkush" o'tmish saboqlari orqali bugunning muammolarga javob izlovchi, yosh avlodni vatanparvarvarlik, fidoylik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalovchi asardir. Uni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'rganish o'quvchilarning faolligini oshirib, ularda mustahkam mafkuraviy, axloqiy va ma'rifiy immunitet shakllantiriladi. Dars jarayonida raqamli vositalar, interfaol usullar, integratsiyalashgan yondashuvlar asosida o'rganilsa, asarning tarbiyaviy kuchi yanada oshadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Akram, X. Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida vatan tushunchasining millat tili va tarixi bilan bog'liq badiiy konseptlari. Principal issues of scientific research and modern education, 2022.1(4).

2. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) – oriftolib.uz THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES International scientific-online conference 200

3. Xaliqova, N. J., & Tojiboyeva, G. A. Q. Jadid adabiyotida ayollar timsoli. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021.1(4), 1495-1502.

4. Mavlonova R. A., Normurodova B., & Rahmonqulova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. T.: Tib-kitob. 2010.

5. https://fayllar.org/z-m-bobur-nomidagi-andijon-davlat-universitetiv4.html

Gulnoza BOBONAZAROVA,
“O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zDSMI

XX ASR BOSHLARIDAGI MILLIY UYG‘ONISH ADABIYOTI VAKILI: MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning XX asr boshlaridagi milliy uyg‘onish adabiyotiga qo‘shgan hissasi, uning adabiy faoliyati, teatr va matbuotdagi yuksak xizmatlari tahlil etiladi. Behbudiyning "Padarkush" dramasi, "Oyna" jurnalining tashkil etilishi va jadid maktablari asosidagi ma’rifatparvarlik ishlari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, milliy uyg‘onish, adabiyot, pedagogika, drama, "Padarkush", "Oyna" jurnali, jadid maktablari, ma’rifatparvarlik, matbuot, adabiy tanqid, teatr, Turkiston, siyosat, ta’lim, adabiyotshunoslik.*

Annotation. *This article analyzes the contribution of Mahmudhoja Behbudi to the national revival literature of the early 20th century, his literary activity, and his significant roles in theater and journalism. It discusses his drama "Padarkush", the establishment of the "Oyna" journal, and his efforts in creating Jadid schools.*

Key words: *Mahmudhoja Behbudi, national revival, literature, pedagogy, drama, "Padarkush", "Oyna" journal, Jadid schools, enlightenment, press, literary criticism, theater, Turkestan, politics, education, literary studies.*

XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining ibtidosi buyuk ijodkorlar nomi bilan bog‘liq. Ular murakkab va fojiaviy davrda yashab ijod qilgan bo‘lib, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz tarixida muhim o‘rin egallaydi. Ana shunday ulug‘ allomalardan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lib, u o‘zining sermahsul ijodi va ma’rifiy faoliyati bilan alohida e’tiborga sazovor bo‘lgan.

Behbudiy nafaqat adib, balki yirik siyosiy arbob, ma’rifatparvar va taraqqiyparvar sifatida ham tanilgan. U o‘z oldiga ikki asosiy maqsadni qo‘ygan edi: birinchidan, o‘zbek xalqini bosqinchilikdan ozod qilish, ikkinchidan esa adabiyotni

milliy zamin asosida taraqqiy ettirib, yangi davr ma’rifatchilik g‘oyalari asosida rivojlantirish. Ana shu ezgu intilishlar tufayli milliy adabiyotimiz yangi bosqichga qadam qo‘ya boshladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning adabiy va ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati Turkiston uyg‘onish davrining uch asosiy sohasiga – maorif, matbuot va jamiyat hayotiga bevosita bog‘liqdir. U maorif sohasida islohotlar olib borib, zamonaviy ta’lim tizimini joriy etishda, matbuot vositalarini tashkil etishda va ijtimoiy ongni uyg‘otishda faol ishtirok etdi.

Taniqli olim Naim Karimov ta’kidlaganidek, Behbudiyning nasabi turkiy xalqlarning buyuk allomasi Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. Onasi tomonidan esa Xorazm xonligidan bo‘lgan ajdodlari keyinchalik Samarqandga ko‘chib kelgan. Behbudiyning ota-bobolari ham diniy, ham dunyoviy bilimlarga chuqur e’tibor bergan, bu esa uning shaxsiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Yozuvchi Tohir Malik o‘zining “Oqaliylik mulki” nomli asarida aytganidek, “olimlar – Payg‘ambar vorislari”dir. Shu jihatdan Behbudiyni ham zamonasining etuk olimi sifatida e’tirof etish mumkin.

O‘sha davr odatlariga ko‘ra, ilm olish istagida bo‘lgan yoshlar hayotining katta qismini ilm va ma’rifat yo‘liga bag‘ishlaganlar. Behbudiy ham otasining hayoti davomida Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Keyinchalik 18-19 yoshlarida Chashmaob qishlog‘ining qozisi, so‘ngra Kobud volostida mirza sifatida faoliyat yuritgan. Bu jarayonda u xalqning og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan yaqindan tanishdi. 1899–1900 yillarda haj safariga borib, qator mamlakatlarda bo‘ldi, u erda madaniy va ma’rifiy hayotni o‘rganib, boshqa xalqlarning taraqqiyoti haqida chuqur tasavvur hosil qildi.

Behbudiy hayotining bu davri uning dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, o‘sha yillarda Qrim va Volga bo‘yidagi tatarlar orasida tarqalgan ilg‘or pedagogik g‘oyalar uning e’tiborini tortdi. Bu xalqlar maktab va madrasalarni zamonaviylashtirish yo‘liga o‘tgan edi. Behbudiy ham bu islohotlardan ilhomlanib, Xalvoyi va Rajabamin qishloqlarida yangi usul (usuli savtiya) asosida maktablar ochdi.

1904-1909-yillar oralig‘ida u bu maktablar uchun “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy”, “Risolai jug‘rofiyai Rusiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Tarifi islom” kabi o‘quv qo‘llanmalarini yozdi. Behbudiy qisqa vaqt ichida yoshlarni savodli qilish va ularni ilm-fan olamiga olib kirish mumkinligini amalda isbotlab berdi.

Afsuski, uning maktablari va ilg‘or g‘oyalari ayrim johil va qoloq toifadagi kishilar tomonidan qattiq qarshilikka uchradi. Hatto Behbudiy o‘z vaqtida “kofir” deb ham ataldi. Shunga qaramay, u o‘zining fidoyi pedagoglik faoliyati bilan g‘alaba qozondi.Mahmudxo‘ja Behbudiy xalq va jamiyat hayotiga yangi g‘oyalarni olib kirib, uni madaniy va ma’rifiy qoloqlikdan olib chiqish yo‘lida beqiyos xizmatlar ko‘rsatdi. Shuning uchun ham u ilg‘or ma’rifatparvar sifatida e’tirof etiladi.Biroq uning bu faoliyati johil rahbarlar va nodon kishilar tomonidan yoqtirilmadi. Natijada, unga nisbatan bosimlar kuchaydi va uni nafaqat ma’nan, balki jismonan ham yo‘q qilish harakatlari boshlandi.

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi sifatida tanilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yil bahorida noma’lum sharoitda o‘ldirilgani haqida tarqalgan xabar butun ilg‘or ziyolilar qatlamini larzaga soldi. Bu mudhish voqeaning tafsilotlari yillar davomida aniqlashtirilishga urinishlariga qaramay, uning o‘limi haqidagi aniq ma’lumotlar va dafn etilgan joyi hanuzgacha noma’lumligicha qolmoqda.

Allomaning fojiali taqdiri va sirli o‘limi bugungi kunda ham tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolmagan. Behbudiy shaxsi va faoliyatiga qaratilgan ilmiy va adabiy qiziqish so‘nmagan, balki kuchayib bormoqda. Uning hayoti va adabiy merosi ko‘plab manbalarda yoritilgan bo‘lib, xususan, 2004-yilda nashr etilgan Begali Qosimov boshchiligidagi mualliflar jamoasining “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligida Behbudiy faoliyati chuqur tahlil qilingan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida ma’rifatga erishish faqat maktab ta’limi bilan cheklanib qolmasligi, xalqni butun dunyodagi voqealardan ogoh qilish uchun matbuot zarurligini chuqur anglagan edi. Shu ehtiyoj uni zamonaviy teatr va matbuotni tashkil etish g‘oyasiga olib keldi.

1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yilda nashr qilindi. Garchi bu asarning nashri va keng ommaga etib borishi oson bo‘lmagan bo‘lsa-da, u o‘zbek dramaturgiyasining ilk namunasi sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi. Muallif asarni “milliy fojia” deb atagan. Asarda nodonlik va jaholat sabab o‘z otasini o‘ldirgan o‘g‘il obrazida xalqning ma’naviy tanazzuli yoritiladi. Ushbu dramatik voqea orqali muallif jiddiy xulosa chiqaradi: jaholat har ikki avlod – ota va farzand hayotini vayron qiladi.

“Padarkush” dramasi 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda ilk bor sahnalashtirilganida katta qiziqish uyg‘otdi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1914-yil 27-fevralda Abdulla Avloniy boshchiligidagi “Turon” teatr truppasi ushbu asarni Toshkentdagi “Kolizey” teatrida namoyish qildi. Spektakl oldidan mashhur ma’rifatchi Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida nutq so‘zlagan. Asarda boy rolini Abdulla Avloniy o‘zi ijro etgan. O‘sha paytdagi vaqtli matbuot bu voqeani “tarixiy kun” deb atagan.

1913-yildan boshlab Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuot sohasidagi faoliyatini boshladi. O‘sha yili, aprel oyidan boshlab, u tomonidan nashr etilgan “Samarqand” gazetasi turkiy va forsiy tillarda hafta ikki marta chop etila boshlandi. Gazeta dastlab ikki, keyinchalik to‘rt sahifalik shaklda chiqarilgan. Biroq moddiy qiyinchiliklar sababli 45-sonidan so‘ng uning nashri to‘xtatildi.

1913-yil 20-avgustdan boshlab Behbudiy “Oyna” jurnalini nashr eta boshladi. Bu jurnal asosan o‘zbek tilida chop etilgan bo‘lib, ayrim maqolalar fors tilida, e’lonlar esa rus tilida berib borilgan. Jurnal dastlab haftada ikki marta chiqdi, keyinchalik har 15 kunda bir marta nashr qilina boshlandi va 20 oy davomida faoliyat olib bordi. “Oyna” nafaqat mahalliy o‘quvchilarga, balki yaqin Sharq mamlakatlariga ham tarqatilgan va jadidlar orasida mashhur matbuot nashriga aylangan.

Bu yillarda Behbudiy nashrchilik sohasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirdi. U “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini tashkil etdi. Fitratning “Bayonoti sayyohi Hindi” asarini ruschaga tarjima qilib, 1913-yilda nashr

ettirdi. Shuningdek, Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqardi, kutubxona faoliyatini yo‘lga qo‘ydi.

1914-yil 29-mayda Behbudiy ikkinchi marotaba arab mamlakatlariga safar uyushtirdi. Unga tegishli “Sayohat xotiralari”ning birinchi qismi 1914-yil 14-iyun kuni “Oyna” jurnalining 34-sonida chop etildi. Ushbu xotiralar nafaqat ma’rifiy, balki adabiy-estetik jihatdan ham ahamiyatlidir. Ular XX asr boshidagi o‘zbek adabiyotida tarixiy-memuar janrining yorqin namunasi hisoblanadi. Muallif bu xotiralarda yo‘l taassurotlariga, uchrashgan mashhur va oddiy insonlarning ibratli jihatlariga alohida e’tibor qaratadi. Quddusdagi muqaddas masjidlarda namoz o‘qib, qalbining tubidan iltijolar qiladi.

“Oyna” jurnali ma’rifat va madaniyatni targ‘ib qilishda katta rol o‘ynadi. Unda millat taqdiri, tarixiy xotira, til va adabiyot masalalari, xalqaro vaziyat haqidagi maqolalar, munozaralar muntazam yoritib borildi. Behbudiy har doim til o‘rganishning ahamiyatini ta’kidlab kelgan.

Behbudiy adabiy tanqid masalasiga ham katta e’tibor qaratgan. Alisher Navoiydan keyingi uzoq sukunat davridan so‘ng u adabiy tanqidning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, uning adabiyotdagi teng huquqliligini ko‘tarib chiqqan. “Tanqid – saralamoqdir” sarlavhali maqolasi bu boradagi eng muhim tahliliy ishlardan biri hisoblanadi.

Behbudiy publitsist sifatida ham yuksak iste’dod egasi edi. U umr bo‘yi yuzlab maqolalar yozib qoldirdi. Uning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u faqat adib yoki pedagog emas, balki XX asr boshidagi Turkistonning etuk siyosiy arboblaridan biri edi. Masalan, 1906-yil 10-oktabrda “Xurshid” gazetasida chop etilgan “Ishlarning yaxshisi o‘rtasidadur” nomli maqolasi katta e’tibor uyg‘otgan. Bu maqola orqali Behbudiy o‘sha davrdayoq sotsialistik ta’limotga qarshi pozitsiyani bildirgan va uning amaliyotda qo‘llanilishiga qarshi chiqqan edi.

U o‘z faoliyati davomida tajribali pedagog sifatida ham ko‘plab darsliklar yaratdi. Ular orasida “Qisqacha umumiy geografiya”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” singari asarlar mavjud bo‘lib, ularning umumiy nomi “Kitobi muntaxabi jug‘rofiya” edi. Bu darsliklarda erning shakli, quyosh atrofida aylanishi kabi ilmiy tushunchalar sodda va tushunarli tilda bayon etilgan.

Behbudiy siyosiy masalalarga ham faol aralashgan. U mavjud boshqaruv tizimlarini tahlil qilib, ularni turlicha toifalarga ajratgan va ular ustida chuqur mulohazalar yuritgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining keng qamrovli ijodi va faoliyati bilan XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg‘onishning poydevorini qo‘ydi. U nafaqat adabiyotda, balki ta’lim, matbuot, siyosat va madaniyat sohalarida ham sezilarli iz qoldirdi. Behbudiy adabiyot va san’atni xalqni ma’rifatga, taraqqiyotga chaqiruvchi vosita sifatida ishlatdi. U o‘z faoliyatida jadidchilik g‘oyalarini amalga oshirgan holda, maktablar ochib, ilm-fan, adabiyot va san’atni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. “Padarkush” dramasidan tortib, “Oyna” jurnaligacha, uning barcha asarlari va tashabbuslari yangi davrning ma’rifiy harakatiga xizmat qildi. Behbudiyning ijodi nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham katta ilhom manbai bo‘lib qoldi. Uning o‘limi esa sirli

va fojiali bo‘lishi bilan birga, uning ishlari va merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning adabiy merosi. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 1977.
2. Avloniy A. "Turon truppasi va teatr." Samarqand jurnalining yangi sahifalari. 1914.2(3) B. 45-58.
3. Qosimov B. & boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti. 2004.
4. Samoylovich, A. "Dramaticheskaya literatura sartov." Vestnik N. Petrograd, 1917. 17(2): 35-40.
5. Malik, T. Oqaliylik mulki. Toshkent: Yangi nashr. 1997.
6. Behbudiy, M. Padarkush. Toshkent: Matbuot. 1913.
7. Behbudiy, M. Sayohat xotiralari. Oyna jurnali, 1914-y. 14-iyun soni. B. 102-105.
8. Behbudiy, M. (1913). Oyna jurnali. https://www.behbudiy.org (kirish sanasi: 14-may, 2025.
9. Fitrat I. Bayonoti sayohi hindi. Moskva: Behbudiy nashriyoti. 1913.
10. Qodiriy, A. Baxtsiz kuyov. Samarqand: Samarqand Nashriyoti. 1921.
11. Sayfiddinov, T. Mahmudxo‘ja Behbudiy va turkiy xalqlarning adabiy aloqalari. Toshkent: Fan. 2001.
12. Shuhrat, S. Jadidchilik va uning adabiyati. Toshkent: O‘zbekiston xalq nashriyoti. 1994.

Gulnura TO‘LIBOYEVA,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

BADIIY OBRAZ – MILLIY RUH IFODAChISI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada obraz va milliy ifoda haqida so‘z boradi. Obrazlar orqali ifodalangan milliy ohang va ijodkor g‘oyasi ta’sirli va badiiy mukammal asar ekanligi Cho‘lpon she’rlari misolida ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Badiiylik, obraz, ramz, milliy ruh, iste’dod, mahorat, ijodkor, ta’sir, shakl va mazmun.*

Abstract. *This article discusses the image and national expression. The fact that the national tone and creative idea expressed through imaGES are an impressive and artistically perfect work is shown on the example of Cholpon's poems.*

Key words*: Artistry, image, symbol, national spirit, talent, skill, creator, influence, form* and content.

Badiiy adabiyot obrazli tafakkur hosilasi bo‘lib, inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlarini ochib beruvchi, uning ichki dunyosini anglashga yordam beruvchi nozik san’at turi sanaladi. Badiiy obraz – adabiyotning asosi. Obrazli tafakkur bo‘lmagan joyda adabiyot ham bo‘lmaydi. Chinakam ijodkor asarlari obrazning qabariqligi, yorqinligi bilan alohida ajralib turadi. Cho‘lpon she’riyati buning yorqin misoli. Ulug‘ shoir yaratgan obrazlar she’riyat muhiblari ong-u shuurida mudom yashab kelayotgani sababi ham ularning o‘quvchi ko‘ngliga yaqinligida, kitobxon ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘la olishidadir. “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksi” [1, 90] ekani e’tiborga olinsa, shoir obrazlarining yashovchanlik siri ayon bo‘ladi.

Vatan haqida yozmagan shoiru adibni topish mahol. Biroq Cho‘lpon hech kimga o‘xshatmay yoza olishi, bu obraz zamiriga teran mohiyatni joylay bilishi, sirli ruhni mujassam etish salohiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu tuyg‘u mavhumlashib, yurtimizni bosib olgan mustabidlar zamini Vatan deya talqin etilgan, ba’zan esa bu tushuncha tilga olinganda ta’qiqqa uchragan murakkab bir zamonda “Xalq” she’rining paydo bo‘lishi she’riyat muxlislari qalbiga chaqmoqdek ta’sir qildi.

Badiiy obrazdan ayri holda adabiyot ham, uning eng faol shakli sanalgan she’riyat ham mavjud bo‘la olmaydi. Zero, obraz – badiiy adabiyotning mavjudlik sharti, obrazli tafakkur esa, ijod jarayonining asosiy omilidir. Milliy ruh ifodasida badiiy obrazning tutgan o‘rni, ayniqsa, alohida. “Adabiyotshunoslik lug‘ati” mualliflarining yozishicha: “Avvalo, badiiy obraz – individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo‘ladi. Voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan uning o‘zigagina xos xususiyatlar mujassamdir. Narsahodisaning umumiy xususiyatlariga tayanuvchi abstrakt tafakkurdan farqli o‘laroq, obrazli tafakkur uning individual xususiyatlariga tayangan holda fikrlaydi” [2, 43]. Cho‘lpon she’riyatining obrazlar olami ana shu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Xalq tushunchasi, tashqaridan qaraganda, umumiy ma’noni ifodalagandek ko‘rinsa ham, shoir lirikasida aniq obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodkor she’riyatidagi xalq obrazi aynan individuallashtirilgan umumlashma o‘laroq motiv obraz darajasiga ko‘tarilganini ta’kidlash kerak. Cho‘lonning aksar asarlarida faol qo‘llanadigan bu obraz milliy ruh ifodasining asosiy omillaridandir.

Haqsizlik shahrining qon hidli eli
Armonim gulidan bir yaproq uzub,
Bahorsiz cho‘llarga sovurib qo‘ydi.
U nozli yaprog‘im so‘lib sarg‘ayib,
Yo‘qsul qolganlarday ha yon yugurdi .

“Qon” obrazi Cho‘lpon ijodida ham o‘ziga xos poetik ma’no tashuvchi, xalq dardini ifodalovcho obraz hisoblanadi.

Yoki bo‘lmasam “bulut” obrazini olaylik:
El yo‘lini to‘sib turgan eski bulutlarni
Yondirib qo‘y, yirtib tashla, barchasin yo‘q et.

O‘z fikrlarini obrazlar, ramzlar qatiga yashirishga majbur bo‘lgan ijodkorlar o‘zlari anglamagan holda yangi o‘zbek she’riyatiga yangicha ruh olib kirganlar, To‘g‘ri mumtoz davr adabiyoti ham obrazlar, jimjimador o‘xshatishlar, yashirin ma’nolar tiliga qurilgan adabiyotdir, lekin Fitrat va Cho‘lpon obrazlari mumtoz davr adabiyotidan keskin farq qiladi. Ular tabiatda hodisalari orqali o‘y-fikrlarini bayon etishga urinadi. Fitrat va Cho‘lpon ijodida oddiygina “samon parcha”ning ham o‘z o‘rni bor, birgina “bulut” timsoli oq va qora ranglarda bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi ma’noni ifodalaydi.

Kuchsiz, titroq, oppoq, kichik tomchilar,
Turmay, tinmay tuproq uza yog‘adur.
El bizlarni, bilmam, nechun qamchilar?!
Ko‘klarda ham ayozlikdan oqarg‘an
Bir ko‘z bormikim, Yoshi
Bizning alam, o‘lim bilan sug‘orilgan
Erimizning ko‘chigiga oqadir.
Bu kichkina, o‘ksuz, oppoq bebaklar,
Ucha-ucha etmay qolg‘an tilaklar
Eskan elning qo‘llarig‘a o‘zini
Tashlab qo‘yar, borlig‘ini unitar. (Qor)

“Qor” obrazi orqali xalqning oppoq orzulari ifodasini berarkan shoir, ucha-ucha maqsadiga etmay shamolda sovrilgan tilaklarni o‘ziga xos tarzda tasvirlashga urinadi.

Cho‘lpon o‘zining “Tortishuv tongi” she’rida esa qor obraziga o‘zgacha ma’no yuklaydi:

Qayg‘uringiz:
Kishanlarni yasovchi “ustalar”,
Boshqalarni “tubanlar” deb atovchi xo‘jalar:
Sizning uchun yoz boshining qoridek
Eruv kunlar keladur,
Sizning uchun olbostining zoridek
yig‘lar kunlar keladir
Chiqadigan quyoshni siz behuda
Etak bilan to‘smoq uchun tirishmang,
Ahmoq bo‘lib, Azroilning oldida
Jon talashing to o‘lguncha berishmang!

Har ikkala ijodkor tabiat hodisalaridan o‘rinli foydalana olgan. Real hayotda yuz berayotgan voqealarni ko‘ngil prizmasidan o‘tkazib, yangi obrazlar qatiga joylashda har ikki ijodkorning ham mahorati tahsinga loyiq.

Cho‘lpon ijodida qon obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning *she’rlaridagi “Har kimdan ko‘p qon yig‘lagan sen eding”, “Ko‘pdan ichib kelgan qonlarin uning”, “Quyuq bulut to‘dasi qonli yosh to‘kib yig‘lar?”, “G‘olib G‘arbning qonga to‘lgan ko‘zidek”, “Zo‘r dengizning to‘lqinida, bag‘rida, Yuz yillarning qonli,qo‘rqinch izi bor;”* kabi misralar orqali yurtning ayanchl ahvoli, xalq boshiga tushgan mislsiz jabr-zulmlar, otalarning faryodi, onalarning fig‘oni, go‘daklarning ohu-nolasi, beva-bechoralarning alamli ko‘z-yoshalari aks etgan. Cho‘lpon ijodida

“bulut” obrazi ham o‘ziga xos poetik ma’no tashiydi. *“Bulut ko‘zidan esa erga og‘u- yosh sochilar.” ,” Mening o‘yimmi qora? Yoki yurt ko‘kida bulut?”, “Qora bulut to‘dasikim, ko‘klarni, Sharqni yopgan parda yanglig‘ yopmishdir” “Qop-qora dev kabi bulut yig‘ini, Qoplab oldi yana quyosh yuzini”, “Ko‘k yuzida qop-qora, Ko‘mir kabi qator-qator bulutlar”* kabi misralar orqali yurtimiz boshiga kelgan balolar, xalqimiz hayotini ayanchli ahvolga olib kelgan ofatlar bulut obrazi orqali gavdalantiriladi.

“O‘zgarish zarurati nechog‘li dolzarb bo‘lmasin, jadid shoirlarning ijodiy izlanishlari eng avval mumtoz she’riyat an’analari negizida kechganini ham ta’kidlash kerak. Bu tabiiy ham negaki, jadid shoirlarning bari milliy madaniy zaminda etishganlar. Xuddi vazn bobidagi izlanishlar aruzdagi jonli tilga eng muvofiq o‘lachovlarni saylab ishlatishu aruz imkoniyatlarini kengaytirishdan boshlangani kabi, ifoda sohasidagi izlanishlar ham mumtoz she’riyatdagi poetik obrazlarga yangicha mazmun yuklashdan boshlandi” [3, 78]. Cho‘lpon she’riyatida davrga hamohang tarzda g‘oya va mavzularida o‘zgarish va yangilanishlar sodir bo‘lganidek, uning ramz, majoz va timsollar olamida ham o‘zgarish va yangilanishlar yuzaga keldi. O‘z she’rlarida mumtoz she’riyatimizdagi an’anaviy poetik obrazlarni avvalgi g‘oyaviy-badiiy mazmunlarini saqlagan holda ulardan ko‘proq davr va hayotning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy masalalarini talqin qilish uchun foydalandi. Uning quyidagi she’riga e’tibor bersak an’anviy bulbul va gul obrazlariga ijtimoiy ma’no yuklaganing guvohi bo‘lamiz. “Yupanmoq istagi” she’ri:

Yoki ko‘z yoshidan yig‘ilgan bir ko‘l
Bo‘yida egilgan tolda bir ***bulbul***
Sayrasa, yig‘lasa; ma’shuqasi ***gul***
Kulganda yupatgay ko‘ldagi hurlar?
Yoki: “Tun” she’rini olaylik
Tunning yashirin quchoqlarida
O‘limlar, qonlar to‘lgandir.
Uning aldamchi bog‘larida
Qancha yosh ***gullar*** *so‘lgandir.*

Cho‘lpon, e*l – shamol, qon, bulut, ko‘lanka, yo‘lchi, yulduz, tong, tun, quyosh* timsollarini yangi-yangi hayotiy haqiqat va maqsadlar uchun xizmat qildira olgan simvolist shoirdir”. Lekin Cho‘lpon simvolizmi real zaminda turadi, chunki ramzlari – obrazlari hayotdan, tabiatdan olingandir. Shu bois ham shoir “Qushning hadigi’ni tasvirlash orqali jamiyatda erksizlik kuchayayotganini, “Binafsha” orqali inson qadriyu shani toptalyotganini, “somon parcha” orqali jamiyatda shaxlik maqomi bekor bo‘layotgani haqidagi tshvishu alamlarni ifodalay oldi. Ya’ni u chinakam sa’natkor sifatida analogiyalar yordamida obrazli tafakkur qildi va shu tufayli ham o‘z ijodi bilan she’riyatni san’at tomon burdi” [4, 232]. Shuni alohida qayd etish kerakki, obrazda yangilik qilish shakldagiga **qaraganda** birmuncha murakkab hodisa sanaladi, lekin she’riyatning chin ma’noda yuksalishi va yangilanishi ana shu poetik hodisaga ko‘proq bog‘liqdir.

“Ijtimoiy ongning tozarishi milliy ruh va tuyg‘ularga ta’sir qilib, millat badiiy tafakkuruning ham yangilanishiga olib keldi” [5, 174]. O‘zbek mumtoz adabiyoti xoslarning ko‘nglini uyg‘otishni mo‘ljal qilgan bo‘lsa, yangi o‘zbek adabiyoti

ommaning fikrini uyg‘otishni maqsadga aylantiradi. Fikrni uyg‘otishning birdan bir yo‘li esa ma’rifat tarqatish edi. Yangi o‘zbek adabiyoti yaratilishidanoq, butun ommani ma’rifatli qilishga yo‘naltirilgan. Hattoki ishqiy g‘azallarda ham ma’rifatli bo‘lish targ‘ib etilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2018. – B.90
2. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.43
3. Afaqova N. O‘zbek jadid adabiyotida she’riy shakllar taraqqiyot tamoyillari: Filol. fanlari doktori ... dis. – T.: 2006 – B.78
4. Hamdamov U.Yangi o‘zbek sheriyati. – T.: Adib. 2012. B. 232.
5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. T:.2006. T.: Yangi asr avlodi. – 174 b.

Farog‘at DADABAYEVA,
“O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zDSMI

ABDURAUF FITRAT SHE’RLARIDA TAHLIL VA TALQIN

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yorqin namoyandalaridan bo‘lgan Abdurauf Fitrat ijodi, xususan, o‘zbek she’riyati va uning o‘zbek dramaturgiyasi rivojidagi o‘rni haqida so‘z boradi. Fitratning ijodidagi asosiy mavzu, yurt qayg‘usi va xalqning dardida yonib yozgan she’rlardan iboratdir.*

Kalit so‘zlar: *jadid, drama, vatan, dramaturgiya, ijod.*

Abstract. *This article describes about the work of Abdurauf Fitrat, one of the brightest representatives of the Jadid movement, in particular about Uzbek poetry and its place in the development of Uzbek dramaturgy. The main theme of Fitrat’s work is poems written on the grief of the country and the pain of the people.*

Key words*: jadid, drama, motherland, dramaturgy, creativity.*

O‘zbek jadid adabiyotida millat taqdiri va uning kelajagi hamda taraqqiyotini o‘zida aks ettirgan shoir va yozuvchilarimiz orasida Abdurauf Fitratning asarlari alohida ajralib turadi. Fitrat o‘zbek jadid adabiyotida she’rlari, nasriy, dramatik, adabiy-tanqidiy, publitsistik asarlari bilan katta hissa qo‘shgan. Fitrat ijodining mazmunida millat taqdiri, istiqlol mavzusi, yurt qayg‘usi, Vatan tuyg‘usi tashkil qiladi. Jadid adabiyotining etuk vakili hisoblangan Fitrat go‘zal she’rlari bilan barmoq vazniga asos solgan. Uning “Yurt qayg‘usi”, “Kim deyay seni?”, “Bir oz kul”, “Achchig‘lanma degan eding”, “Mirrix yulduziga”, “Ovunchoq”, “Yana

yondim”, “Shoir”, “Behbudiyning sag‘anasin izladim”, “O‘git”, “Sharq”, “O‘qituvchilar yurtiga”, “Qor”, “Mening kecham” she’rlari shular jumlasidandir. Fitratning “Behbudiyning sag‘anasini izladim” she’ri millatning otasi va fidoyisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning vafoti munosabati bilan yozilgan. She’r quyidagi:

Cho‘kmishdi er uzra olam to‘sug‘i,
O‘ksuklik boyqushi qanot qoqardi.
Botuvda qizarib turgan bulutdan
Ezilgan ko‘nglima motam yog‘ardi, misrlar bilan boshlangan.

Shoir aytadiki, butun olam er yuziga cho‘kkan, ko‘nglimda o‘ksuk, g‘amginlik hukumrondir. U boyqush kabi qanot qoqadi, ya’ni boyqushday joylashib olgan. (Hammamiz bilamizki, boyqush yomonlik xabarchisi). Ko‘nglimning to‘rlarida ozgina bo‘lsada qolgan (bo‘lgan) umiddan ya’ni u ham botib ketayotgan bulutday, ezilgan ko‘nglimga yanada motam bo‘lib yog‘iladi.

Haqsizlik shahrining qon hidi eli
Armonim gulidan bir yaproq uzub,
Bahorsiz cho‘llarga sovurib qo‘ydi.
Ul nozli yaprog‘im so‘lib, sarg‘ayib,
Yo‘qsul qolg‘anlarday har yon yugurdi.

Mustabid tuzumning haqsizligidan qon hidlari sezilib turibdi, dunyo qadar bo‘lgan ishonchimning katta bir qismini uzib tashladi. Bu armonimni gulsiz, quruq cho‘llarga aylantirdi. Ko‘nglimdagi nozik bo‘lgan o‘sha yaprog‘im so‘lib, sarg‘aydi. Uning o‘zi yolg‘iz qolganidan har tamonga o‘zini o‘rib, yuguradi, chopdi.

Zolimlar, mazlumlar, zulumlaring-da,
Qayg‘ular, alamlar, o‘lumlaring-da
Bariga uchradi, barchasin ko‘rdi,
O‘z yo‘qotqonin izladi, so‘rdi.
Bir darak topmagach, birdan bir tikildi.

Milliy zulmga uchragan millatga nisbatan mustabid tuzumning ko‘rsatgan zolimliklari, mazlumlarga nisbatan ularning ko‘rsatgan tahqirliklari, ular millatning jonidan o‘tkazib yuborgan qayg‘ularining barchasini ko‘rdi, bariga chidadi, hatto, millatning o‘limlarini ham boshdan o‘tkazdi(1898-yilgi Dukchi eshon qo‘zg‘oloni; 1916-yil Jizzax qo‘zg‘oloni). *Ammo, o‘zi yo‘qotganin ya’ni millat haqni-huquqini izladi, qidirdi, so‘radi, topdi, kurashdi. Millatdan bir madad kelmadi, Muxtoriyatda ham haqiqat amalga oshmaganidan keyin arosatda bir nuqtaga tikildi. Najotni topolmay to‘xtadi, turdi. Zolim mustamlakaning zulmidan to‘ydi. Bor kuchini to‘pladi. Zolimning taxtini titratgan bir tovush Qichqirdi: - Otamning qabrini qay erga yoshurding?! Bot so‘yla!.. Kirli toj ko‘b qo‘rqdi botur tovushdan, Seskanib, titrab ..yoshrundi Bir javob bermasdan.*

Ich-ichidan bor kuchini yig‘di, to‘pladi. Vujudlari junbushga keldi. Mustamlakachi zolimga qarshi, uning taxtiga qarshi, uni yuqotmoqchi bo‘lgan zulmga mag‘rur ovoz bilan baqirdi, qichqirdi. Millatning otasi qabrini qayerlarga berkitding?! Nega yashirding?! Nega uni yo‘qotding! Javob ber.

Abdurauf Fitratning she’rlarida millatning taqdiri, ozor chekkan millat, milliy zulum, yurtning qayg‘usi o‘ziga xos ravishda tasvirlanadi. Uning “Yurt qayg‘usi

(sochma)", "Yurt qayg'usi (bir o'zbek tilidan)", "Yurt qayg'usi (Temur oldinda)" shular jumlasidandir.

"Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" she'rlar ruknning sarlavhasidan ko'rinib turganidek, yurt – Vatan qayg'usiga bag'ishlangan. Zamon inqiloblar zamoni edi. Chor hukumati quladi. Epchil millatlar darhol istiqlol rejalarini ko'ra boshladilar. Turkistonning taqdiri qanday bo'ldi? Ayniqsa, so'nggi asrlarda zalolatga botgan, dunyodan uzilib, fisqu fujurga qo'milgan, o'z qiyofasini yo'qota boshlab, o'zga millat etoviga tushgan Turkistonning. Fitratni qiynaydigan dard – shu!.

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?
Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?
Temur bila Chingiz qoni toshdi tomirimizdan,
Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?
Yov suqg'ali kelgach qilichini yuragingga,
Tush oldiga, ol ko'ksumi – qalqonmi kerakdir?
Boq, boq, mana turk tengizi toshqun qila qoldi,
Turon èvini quvg'ali to'fonmi kerakdir?
Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg'a,
Yurtda qorovul qo'yg'ali arslonmi kerakdir?

"Milliy uyg'onish o'zbek adabiyoti"da bu she'r to'g'risida: ―She'rda muxtoriyat g'alabasining nash'u namosi balqib turibdi. Uyg'ongan xalq bilan birgalik tuyg'usi, otalar sharafi va ular ruhi oldidagi burch, el-yurt xizmati sururi yaxshi ifodalangan Qo'shimcha qilib aytish lozimki, lirik qahramon onasi ya'ni bu – Turkiston. U mustabidlikda, qaramlikda. Uni qutqarmoq uchun millatning joni, nomusi, vijdoni, imoni kerak. Lirik qahramon millatga qarata aytadiki, mening tomirlarimda Temur va Chingizlarning qoni oqmoqda, toshmoqda. Men millat uchun jasorat qilishga shaylanganman.Turkistonni qutqarish uchun qon zarur bo'lsa, qon berishga ya'ni kurashib ulmoqqa ham roziman. Agar seni ko'ksingga dushman o'z qilichini yuragingga urgani kelgan bo'lsa, men unga ko'ksimni tutaman, qalqon bo'laman.

Ey, millat atrofingga boq, dushman Turkiston dunyosini, uning sabr-kosasini dengizday to'ldirib, toshqinlatib yubordi. O'lkada o'rnashib olgan bunday dushmanni yo'qotish, uni yo'q qilish uchun to'fon kabi katta kuch bo'lishi lozim. Turkistonim millating chor atrofiga qarasin, oyoqqa tursin, kurashga otlansin. Yurtni, o'lkani dushmandan himoyalash, tozalash uchun butun yurtni qo'riqlaydigan arsloni bo'lishi kerak!

Abdurauf Fitratning ijodida nasriy va dramatik asarlari ham millat taqdirini ko'rsatuvchi, yoritib beruvchi tomonlari bilan ham alohida ajralib turadi. Uning "Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilgan munozarasi" muallifning qayd etishicha, 1909-yili yozilgan. Muallif asarning muqadimasida: Buxoroning najib (yorug') millati bo'lgan vatandoshlarim, birmuncha vaqtdan beri jadid va qadim o'rtasida ixtilof chiqqani ba'zi millat xoinlarining xato va fasodlaridan boshqa narsa emasdir. Muqqadas vatanimizni parchalab, uning ahli jamoasini jadid va qadim unvonlari ostida ikki firqaga ajratib, ularning birini ikkinchisiga dushman qilib qo'ydilar.

Shuningdek, Fitratning “Chin sevish”, “Hind ixtilochilari” asarlari davrning voqealari ataylab boshqa mamlakatga ko‘chirib qalamga olinadi. Ammo, asarning ruhi va mazmunidagi ichki kechinmalar, botiniy ma’no, Turkistonda millatning ko‘zini ochishga yo‘naltiriladi. Muallifning “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni” asarlarida ham voqealar ya’ni harakatlar o‘tmishga ko‘chirilib, o‘tmishdagi voqealarni millatga ko‘rsatish orqali Turkiston o‘lkasida o‘rnatilgan ijtimoiy-siyosiy tuzum yoritib ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 46-93.

2. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabièti. Darslik. Toshkent: ―Ma’naviyat‖, 2004. – B.368.

3. Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar. Sadoyi Farg‘ona. 1914-y. 6-iyun.

4. Indamas. Madaniyat to‘lqinlari. Sadoyi Farg‘ona. 1914. 11-may.

5. “Xalq so‘zi” gazetasi. 1998.17-iyun.

Gulbahor QUSHAQOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ZAVQIY ASARLARIDA SIFATLASHLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Sifatlash (epitet) tasviriy vositalarning xarakterli ko‘rinishi bo‘lib, u voqelik, tuyg‘u va predmetning o‘ziga xos tomonlarini, sifatlarini aniqlab, ta’kidlab, ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatadi. Ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakili Ubaydulloh Solih o‘gli Zavqiy ijodida epitetning lisoniy, poetik o‘rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Zavqiy ijodi, epitet, poetik obraz, g‘oyaviy pozitsiya, leksik-sintaktik trop, atributiv birikmalar, badiiy matn*

Abstract. *Adjective (epithet) is a characteristic form of figurative means, which identifies, emphasizes, distinguishes, and exaggerates the specific aspects and qualities of reality, feelings, and objects. This article reveals the linguistic and poetic role of epithet in the work of Ubaydullah Salih oglu Zavqi, a prominent representative of the Kokand literary environment.*

Key words: *Zavqi’s work, epithet, poetic image, ideological position, lexical-syntactic trope, attributive combinations, literary text.*

Ma’lumki, “sifatlash badiiy aniqlovchi” [7, 19] sanaladi. Shoirona did bilan topilgan epitet poetik obraz elementi sifatida, asosan, she’r g‘oyasini ochib berishga, so‘ngra shoir shaxsi, uning olami, ijodiy individulligi haqida ma’lum

tasavvur tug‘dirishga qodir bo‘ladi. Bunday epitetga qarab ko‘p narsani - shoirning g‘oyaviy pozitsiyasini, estetik qarashlarini, iste’dodi va she’riy uquvini, emotsional va intellektual iqtidorini tadqiq qilsa bo‘ladi [1, 21].

XIX asr oxiri XX asr boshlari adabiyoti, xususan, Zavqiy she’riyatida sifatlashlar original tasvir yaratish, keng ko‘lamda ma’no ifodalash singari bir necha muhim funksiyalarni yaqqolroq namoyon etadi.

I.V.Arnold epitetni leksik-sintaktik trop, deb beradi [2, 71]. Bunda badiiy sifatlashning, asosan, ko‘chim asosida yuzaga kelishi nazarda tutiladi. L.Boboxonova epitetning stilistik usul sifatidagi mohiyatiga e’tibor qaratadi. “Epitet – ikki leksik ma’no, ya’ni asosiy-mantiqiy va ko‘chma ma’nolarning o‘zaro munosabatiga asoslangan stilistik usuldir. Epitet tasvirlanayotgan kishi, narsa, hodisa yoki voqelikning ajratib ko‘rsatilayotgan biror belgisiga, xususiyatiga, sifatiga asoslangan ifodalash vositasidir, ya’ni ular atributiv so‘zlar yoki so‘z birikmalari shaklida, tasvirlanayotgan kishi, narsa, voqelikni o‘zi qanday idrok etsa, xuddi shunday juz’iy tasvirlaydi. Epitet doim emotsional ma’noga yoki emotsional bo‘yoqqa ega bo‘ladi” [4, 57].

“Tilshunoslikda atributiv birikmalar, badiiy matnlar tahlilida epitetli birikmalar deb ataladigan sintaktik birliklarning hosil qilinishi ma’lum ma’noda ijodiy jarayondir. Ijodkorlar bunda til fondida mavjud bo‘lgan tayyor jumlalardan foydalanishdan ko‘ra o‘zlarining badiiy-estetik idealiga mos keladigan yangi birikuvlarni yaratishni afzal ko‘radilar” [5, 111]

Sifatlashlar narsa, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi xususiyatlarini aniqlab ko‘rsatish, tavsiflashga xizmat qiladi, fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Ular “she’r misralari uchun yo‘l ko‘rsatkich” [6, 354]dir.

Sifatlovchi so‘z aniqlanmish so‘z bilan birikib, o‘z “xislat” – belgilarini unga ko‘chirgan taqdirdagina muayyan hodisaning u yoki bu tomonlarini aniqlaydi. Shoir bu vosita orqali tasvirlanayotgan hodisaning u yoki bu “xislati”ga kitobxonning diqqatini tortadi, unda hayajon uyg‘otadi. Sifatlash tasvir ifodaga obrazlilik va ta’sirchanlik baxsh etuvchi badiiy aniqlovchidir.

A.N.Tolstoyning fikricha, sifatlash zudlik bilan ko‘zga tashlanadigan fotokameradagi “lip” etgan nurdek narsa-buyumni g‘oyatda aniq va yaqqol yoritishi kerak. Sifatlash yordamida narsa-buyum idrok etiladigan va ko‘zga tashlanib turadigan tarzda tasvirlanadi [3, 207].

Zavqiy ijodida ham epitetning o‘rinli va o‘ziga xos tarzda qo‘llanilishi orqali shoir badiiy mahoratining alohida qirralari ko‘rinadi. Buni shoirning “Saylanma” (Ajab zamona. – Sharq, 2003.)sidan joy olgan she’rlari misolida ko‘rish mumkin.

Masalan, shoirning “Vah, na xushdur” muxammasi o‘ziga xos mazmun va poetik ifodalar bilan boyitilgan bo‘lib, sifatlashlar o‘rinli qo‘llanilgan. Muxammasning

Yeshibon zarrin kamar, nozuk belin qilsam xalos,

Tortibon gulgunbaqo, sarvi sahi raftoridan (Ajab zamona, 84).

bandida lirik qahramon yorning yo‘llarining to‘sib, bazm qilishga, nozik belidagi tilla kamarini echib, xalos qilishga shayligini bayon etadi. Bunda shoir *zarrin kamar, nozuk bel, sarvi sahi raftor* kabi sifatlash ifodalaridan unumli foydalanadi.

Ma'lumki, Zavqiyning ijtimoiy tanqidiy ruhdagi asarlarida aksariyat oddiy inson qadr-qimmati masalasiga murojaat qilinadi. Inson erki, farovonligi, mehnatiga yarasha rohat ko'rishi, xorlanmaslik masalalari badiiy talqin qilinadi. Shoir xalqchil hayot og'riqlarini og'rinib kuylaydi va mavjud huquqsizlik, oddiy xalq uchun mashaqqatli hayot talablari uning yuragini larzaga soladi. Shu bois ham shoir o'z ko'zi bilan ko'rgan razillik va qabih ishlarni qattiq qoralab, ijod qiladi. Mavjud ijtimoiy hayotning chirkin tasvirini berishda sifatlash vositasi shoirga qo'l keladi. Masalan:

Qarg'ishga nishon benomusu beor muncha ko'p!
Aytmay desang, munosibi ash'or muncha ko'p! (Ajab zamona, 138).

Ushbu baytda ezilayotgan odamlar tomonidan qarg'alib, Xudoga solinayotgan benomus va orsiz (kishi)lar, aslida, davrni xarob, xalq hayotini qora qilgan kimsalar ekanligiga ishora qiladi.

Shuningdek, shoir asarlari, ayniqsa, g'azallarida mumtoz adabiyotimizga xos an'naviy sifatlashlar ko'p uchraydi: *siymtan, gulpiraxan, nozukbadan zebo, sarvqadlar sarvari, sumanbar, ko'zi xumor, pistadahon* kabi ifodalar shular jumlasidandir. Bunday sifatlashga aloqador lisoniy vositalar Zavqiy yashab ijod etgan davr ijodkorlari, xususan, Furqat, Muqimiy asarlarida ham uchraydi.

Shoir o'zi ko'ngil qo'yib, aziz bilgan yorini sarv kabi tik qomati, hamisha yosh va navqiron qiyofasini ta'rif tavsif etadi. Bu husnda pesha yorning bir oshiq g'aribning kulbasiga kirib kelishidan ko'p umidvor bo'ladi:

Sarvqadlar sarvaridursan, ayo nozuknihol,
Orzu aylar edim, kulbamga shonim kelsa deb. (Ajab zamona, 13)

Oshiqning ma'shuqasi shunchaki go'zal yor emas, uning alohida sifatlari talaygina. Masalan, yor bo'lmish dilbar xusnda oy talashganlarning avlodidan, kumush tanli, gul yuzli, nozik va zeboligi esa ta'rifga sig'maydi:

To'rt maxi siymo uchun avlodidin nozofarin,
Siymtan, gulpiraxan, nozukbadan, zebo ko'ru (Ajab zamona, 16).

Shoirning maqsadi yor timsolini shunchaki maqtash, ta'riflash va unga barchaning e'tiborini qaratish emas. U o'ziga xos badiiy ifodalar orqali Sharq ayolining ayricha nazokati, go'zalligi va latofatini, ibosini tarannum etadi. Qancha oshiqlar yo'lida xor zor bo'lsa da o'zini arzon baholamasligi, oriyat va mag'rurlikni ustuvor bilishidan faxrlanadi. Garchi shoir lirik qahramoni ham ma'shuqaning e'tiborsizligidan qattiq iztirobga tushsa da, bu shirin azobni bosh ustiga qabul qiladi va yor ishqida sarmastlikda davom etadi. Mazkur tuyg'ularni bayon etish uchun shoir bir biriga hamohang sifatlashlarni mahorat bilan ishlatadi:

Rahm etmaslar parilar oshiqi bechorag'a,
Moxtal'atlar, sumanbarlar, ko'zi xumorlar (Ajab zamona, 18)

Badiiy matnda sifatlarning birin-ketin kelishi, yohud epitet vositalarining uyushib kelishi ham kuzatiladi. Zavqiy ijodida ham sifatlash vositalarining ko'p o'rinlarda uyushib keladi va go'zal tasviriy ifoda yaratilishiga erishiladi.

Ul shakarlab maxvashi shirinzabonim qaydadur?
So'zlari shaxdu shakar, pistadahonim qaydadur? (Ajab zamona, 19)

yoki

Nozanin dildorlar, mahbubi gulruxsorlar,
Ikki dildori muvofiq, shakkarin guftorlar. (Ajab zamona, 18)
kabi misralarni buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Shoirning “Qaydadur?” radifli g‘azalida sifatlashlarning yuqoridagidek go‘zal namunalari uchraydi: *shakkardahonim, ruhi ravonim, shirinzabonim* kabi.

Xulosa qilib aytganda, Zavqiy ijodi badiiy tasvir vositalarining yorqin ifodalariga juda boy. Shoir o‘z badiiy maqsadini oydinlashtirish, fikr mazmunining ta’sirchanligini oshirishda sifatlashlardan ham o‘rinli foydalana olganligi uning yuksak badiiy qimmatga ega bo‘lgan g‘azal, muxammas va hajviyalarida yaqqol aks etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Akramov B. She’riyat gavhari. – Toshkent, 1979.
2. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. Учебник для вузов. – М.: Наука, 2002.
3. Boboev T. She’r ilmi ta’limi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
4. Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
5. Ganiev S. Minhojiddin Mirzo she’riyati lingvopoetikasi. Filol.fanl.b.fals.d-ri diss. –Toshkent, 2022.
6. Озеров А. Мастерство и волшебство. – М., 1972.
7. Sharafuddinov O. Zamon – qalb – poeziya. – Toshkent, 1962.

Zilola ERGAShEVA,
“O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zDSMI

JADID ADABIYOTIDA QO‘LLANGAN OBRAZLI IFODALAR XUSUSIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jaded adabiyotining ikki yirik namoyandasi – Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon ijodida uchraydigan obrazli ifodalarning badiiy, ijtimoiy, va ma’naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu ifodalarning xalq qalbida qanday chuqur iz qoldirgani va ular orqali millat uyg‘onishiga qanday xizmat qilgani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, mazkur ifodalar yosh avlod tafakkurining shakllantirishdagi roli haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *obrazli ifoda, lo‘nda milliy uyg‘onish, ma’nodor, badiiy ifoda ta’sirchan, tahlil.*

Abstract. *This article analyzes the artistic, social, and spiritual significance of figurative expressions found in the works of two major representatives of jaded literature - Abdulla Qodiriy and Chulpon. It shows how these expressions left a deep mark on the hearts of the people and how they served the awakening of the*

nation. It also discusses the role of these expressions in the formation of the thinking of the younger generation.

Key words: *figurative expression, national awakening in the abstract, meaningful, artistic expression, impact, analysis.*

Jadid adiblari o‘z asarlarida qisqa, ma’nodor va ta’sirchan ifodalarni keng qo‘llaganlar. Bunday ifodalar nafaqat xalqni ilmga undash, balki milliy g‘oyani rivojlantirishda muhim vositalardan bo‘lgan. Ushbu ifodalar bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan.

Jadidlar o‘z asarlarida qisqa va lo‘nda ifodalardan keng foydalanganlar. Bu ifoda o‘sha davrda millatni uyg‘otish, lm-fan va madaniyatni rivojlantirishga chaqirish uchun juda muhim edi. Ular xalqning ongida yangi g‘oyalarni shakllantirishda, o‘qish va ilm olishga bo‘lgan intilishni kuchaytirishda katta rol o‘ynagan.

Jadidchilik harakati o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida etgan. Bu harakatning maqsadi ilm-fan, madaniyat va adabiyotda yangiliklarni joriy etishdan iborat edi. Ushbu maqolada, jadidchilik harakatining ikki buyuk vakili – Abdulla Qodiriy va Cho‘lponning asarlarida qo‘llangan obrazli ifodalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotining tamal toshlarini qo‘ygan, jadidchilik davri ruhini yuksak badiiy vositalar orqali aks ettira olgan ulug‘ adibdir. Uning 1925-yilda yozilgan “O‘tkan kunlar” romani nafaqat o‘zbek romanchiligining boshlanishi bo‘lgan, balki millatning ma’naviy uyg‘onishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu romanda qo‘llangan *“Siz o‘shamu?”* ifodasi bugungi kunda xalq orasida keng tarqalgan, ko‘p hollarda ramziy, falsafiy va hissiy ma’noda ishlatiladigan “qanotli ibora”ga aylangan.

“Siz o‘shamu?” ifodasi asarda bosh qahramon Otabekning seviklisi Kumush bilan uzoq vaqt ajralib turib, nihoyat yana ko‘rishgan lahzasida aytiladi. Bu savol nafaqat bir insonni tanishga qaratilgan oddiy jumla, balki vaqt, kechmish, sog‘inch, hasrat va muhabbatni o‘zida mujassam etgan chuqur hissiy ifodadir.

Bu borada Otabekning Kumushga bo‘lgan ishonchi, dardli sog‘inchi va uzoq ajralishdan so‘ng his qilgan taajub va zavqi jamlangan. Shu sababdan “Siz o‘shamu?” qanotli iborasi oddiy tanishuv so‘rog‘I emas, balki:

- *Orzularning ro‘yobini ko‘rgan quvonch.*
- *Ajrashishdan tug‘ilgan ishonchsizlik.*
- *Sevgi oldidagi hayrat.*
- *Yillar o‘tib, tanish qalbni topish zavqi* sifatida talqin qilinadi.

Adabiy jihatdan bu ibora:

- *suhbatning ifoda kuchini oshiruvchi vosita;*
- *yuzma-yuz holatda sodir bo‘ladigan hayajonli lahzani muhrlovchi ibora;*
- *sevgi va sog‘inch drama**si**ni* qisqa jumlada aks ettiruvchi badiiy topilmadir.

Falsafiy jihatdan esa:

- Inson hayoti, sevgi, vaqt va ajralikning o‘tkinchiligi haqida o‘yga cho‘mdiradi.

- Bu ibora vaqt o‘tgani sayin o‘zgarib boradigan insoniy munosabatlarga ishora qiladi.
- Har bir inson o‘z hayotida kimnidir uzoq vaqt kutib, uchratganida, ehtimol shu jumlani qalbida aytgan bo‘lishi mumkin: “Siz o‘shamu?”

Bugungi kunda “Siz o‘shamu?” qanotli iborasi:

- romantik suhbatlarda, sog‘inchli vaziyatlarda;
- teatr, kino va adabiyotda;
- shjtimoiy tarmoqlarda, hatto memlar (mem) shaklida ham tez-tez uchraydi.

Bu ibora xalq og‘zaki nutqiga kirib, xalq tilining bir bo‘lagiga aylangan. Odamlar uni hazil, kinoya, romantic ohangda yoki jiddiy holatda ishlatishadi.

Masalan, ko‘p hollarda ushbu qanotli ibora o‘zini tanishtirayotgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda o‘zini tanishtirayotgan shaxsni taniydigan kishidek qabul qailinayotganligini obrazni ifodalaydi va to‘liq vaziyatni hosil qiladi.

“Siz o‘shami?” – bu oddiy so‘zlar yig‘indisi emas. Bu ibora o‘zbek adabiyotining his-tuyg‘ular, sog‘inch, muhabbat va vafoga boy bo‘lgan chuqur qatlamlarini ochib beruvchi abadiy jumaladir. Abdulla Qodiriyninifodasi orqali xalq qalbiga kirib borganini inkor etib bo‘lmaydi. Bu jumla – “O‘tkan kunlar” asarining yuragi, o‘zbek sevgi adabiyotining yuragi, xalq ruhining bir parchasidir.

Xurshid Davronning ushbu asardan ilhomlanib yaratgan va xonanda Shuhrat Qayumov tomonidan ijro etilgan “Siz o‘shamu?” qo‘shig‘ining yaratilishi mazkur qanotli iborani yanada keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Ushbu qo‘shiqda obrazli iqtibos sifatida olingan *“Siz o‘shamu?”* qanotli iborasi qo‘shiqning asosini tashkil qiladi.

*“O‘tkan kunla*r” asarida qo‘llangan “*Ilmsiz kishi – qamchi bilan qo‘zg‘atilgan tuya kabi”* obrazli qiyoslash o‘sha davrda ilning ahamiyatini kuchli ifodalaydi. Bu ifoda orqali Qodiriy ilmni insonning haqiqiy erkinligi va mustaqilligini olishning yagona vositasi sifatida ko‘rsatadi. U ilmni qadrlashni, uni o‘zlashtirishni millatning yuksalishi uchun zarur deb bilgan.

Shuningdek, “O‘tkan Kunlar” da *“Ilmsizlik o‘zini o‘zi zulm qilishdir”* degan hikmatli ifoda ham o‘quvchiga ta’limning qadrini anglatadi va xalqni ilm olishga chaqiradi. Qodiriyning bu obrazli ifodalari ijtimoiy va madaniy uyg‘onishning asosiy vositasi bo‘lib, ularni o‘qigan har bir kishining dunyoqarashi o‘zgarishiga olib kelgan.

Cho‘lpon (1897-1938) – jadidchilik harakatining yorqin vakillaridan biri. U o‘z asarlari yordamida jamiyatni ijtimoiy, ma’naviy va siyosiy jihatdan yangilashga harakat qilgan. Cho‘lponning asarlarida qo‘llangan obrazli ifodalar o‘zining yangilikka bo‘lgan ehtiyojni, mustaqillikka intilishni va milliy o‘zlikni anglashni ifodalaydi.

Adib *“Kecha va Kunduz”* asaridagi *“O‘tmish – quldorlik, kelajak - erkinlikdir”* degan ifodasi aynan shu maqsadga qaratilgan. Bu jumla o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini aks ettirgan va xalqni erkinlikka, o‘zining haq-huquqlarini himoya qilishga undagan. Cho‘lponning bu so‘zlari o‘quvchini ilm olishga, o‘z tarixini anglashga va millatning kelajagi uchun kurashishga chaqiradi.

Shuningdek, Cho‘lponning *“Erkinlik uchun kurash – millatni ozod qilishning yagona yo‘li”* ifodasi juda kuchli g‘oyaviy fikrni ifodalaydi. Ushbu ifoda xalqini erkinlikka intilish va bu yo‘ldagi kurashda qat’iyatli bo‘lishga undaydi. Cho‘lpon asarlarida qo‘llangan bu kabi ifodalar yoshlarni faollikka va o‘z haq-huquqlarini anglashga chaqirgan.

Qodiriy va Cho‘lponning asarlarida qo‘llangan obrazli ifodalar, bir tomondan, ilm-fanga, madaniyatga va yangi dunyoqarashga bo‘lgan ehtiyojni bildiradi, ikkinchi tomondan esa, o‘zbek millatining taraqqiyot yo‘lidagi o‘zgarishlarga bo‘lgan intilishni aks ettiradi. Mazkur qisqa, ma’nodor, obrazli ifoda o‘sha davrda millatni uyg‘otish, yangi g‘oyalarni qabul qilish va o‘zligini anglashda kuchli vosita bo‘lgan.

Masalan, Cho‘lponning *“Qayg‘u”* sh’ri va Qodiriyning “O‘tkan Kunlar” asari orqali o‘quvchi ilm olish va yangi dunyoqarashni qabul qilish zarurligini anglagan. Bu adiblarning ifodalari o‘sha davrda ijtimoiy muhitni o‘zgartirishga, xalqni yangi davrga tayyorlashga yordam berdi.

Jadidlarning, xususan, Qodiriy va Cho‘lponning asarlarida qo‘llangan obrazli ifodalar bugungi kunda faol qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Ular ilm olish, ma’rifatni rivojlantirish, millatni o‘zligini anglash va mustaqillikka intilish g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Hozirgi kunda ham yoshlar, ayniqsa, bu iboralar orqali yangi g‘oyalar va ilm-fan yo‘lida ilhom olishadi.

Jadidchilik harakati va uning vakillari, xususan, Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon asarlari lo‘nda, ma’nodor, ta’sirchan ifodalarga boydir. Bu obrazli ifodalar nutqda faol qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Ular xalqni ilm olishga, milliy g‘oyani rivojlantirishga va erkinlik uchun kurashishga undashgan. Jadidlarning asaridan olingan obrazli ifoda bugungu kunda ham millatni yangilanish va rivojlanish yo‘lida ilhomlantiruvchi kuchga ega. Ularning bu g‘oyalarini hayotga tadbiq etish, zamonaviy o‘zbek jamiyatida yana bir bor yangilanishni ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodiriy Abdulla. O‘tkan Kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994. –B. 320.
2. Cho‘lpon Abdulhamid. Tanlangan asarlar (2jildlik). – 2-jild. Toshkent: Yangi asar avlodi, 2013. B. –304.
3. G‘aniyev A. Jadid adabiyoti: taraqqiyot va tafakkur manbai. – Toshkent: Fan. 2006. –B. 216
4. Yo‘ldoshev M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – 2-kitob. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000. –B. 352.
5. Rasulov N. “Abdulla Qodiriy romanlarida milliy uyg‘onish g‘oyalari”. Adabiyotshunoslik ilmiy jurnali, 2010. –B. 45-52.

Yusuf ESHMURZAYEV,
"Folklor va etnografiya" kafedrasi o'qituvchisi
O'zDSMI

JADIDLARNING O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDAGI O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining o'zbek musiqa san'atiga ko'rsatgan ta'siri tahlil etiladi. Maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadid arboblarining musiqiy merosi, ularning pedagogik va estetik qarashlari, shuningdek, musiqa ta'limi va sahna san'atini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, o'zbek musiqa san'ati, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat, Abdulla Avloniy, xalq musiqasi, musiqa ta'limi, milliy uyg'onish, san'at islohoti, madaniy meros.*

Abstract. *This article analyzes the impact of the Jadid movement that emerged at the beginning of the 20th century on Uzbek musical art. The article highlights the musical heritage of Jadid figures such as Hamza Hakimzoda Niyozi, Abdurauf Fitrat, and Abdulla Avloni, their pedagogical and aesthetic views, as well as their efforts to develop music education and performing arts.*

Key words: *Jadidism, Uzbek musical art, Hamza Hakimzoda Niyozi, Fitrat, Abdulla Avloni, folk music, music education, national revival, art reform, cultural heritage.*

XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy uyg'onishida beqiyos rol o'ynadi. Jadidlar faqat ta'lim, adabiyot yoki siyosat bilan cheklanib qolmay, san'atning turli sohalariga, jumladan, musiqa san'atiga ham o'zlarining ilg'or g'oyalari va islohiy qarashlarini olib kirdilar. Ularning maqsadi — o'zbek musiqiy merosini asrab qolish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish va xalq ongida san'at orqali ma'rifiy yuksalishni shakllantirish edi. Ushbu maqolada jadidlarning o'zbek musiqa san'atidagi o'rni, ularning madaniy siyosati va musiqa orqali amalga oshirilgan islohotlari tahlil qilinadi.

Jadidlar faoliyatining yana bir muhim jihati – milliylik bilan zamonaviylikni uyg'unlashtirish edi. Ular o'zbek musiqasining qadimiy ildizlarini chuqur hurmat qilgan holda, yangi pedagogik, ijodiy yondashuvlarni olib kirdilar. Bu o'zbek musiqiy madaniyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi. Masalan, notaga yozish texnikasini o'zlashtirish va uni o'zbek musiqasiga tatbiq etish, xor va ansambllarni shakllantirish, musiqiy asboblar turlarini kengaytirish kabi ishlar jadidlar tashabbusi bilan amalga oshdi. Bu o'z navbatida musiqaning ommaviylashuvi va yuksalishiga zamin yaratdi.

Jadidlar musiqa san'atiga nafaqat milliy madaniyat elementlarini saqlash vositasi sifatida, balki zamonaviylashtirish va xalqning ma'naviy taraqqiyoti uchun vosita sifatida qarashgan. Ularning g'oyalarida musiqa – bu xalqning ongini o'stirish, milliy ruhiyatni mustahkamlash uchun qudratli vosita edi. Shu bois, ular

musiqiy ijodni faqat an'anaviy shaklda emas, balki yangi janrlar, yangi uslublar va pedagogik metodlar orqali rivojlantirishga intildilar.

Jadidlar ayniqsa musiqiy ta'limning ahamiyatini ta'kidlab, bolalar maktablarida musiqiy bilim berishni joriy qilishga katta e'tibor qaratdilar. Ularning fikricha, musiqa ta'limi bolalarda estetika va etika asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli jadidlar nafaqat an'anaviy xalq qo'shiqlari va cholg'ularini o'rgatish, balki yangi usullar orqali musiqiy savodxonlikni oshirishga harakat qildilar.

Jadidlar san'atga, ayniqsa musiqaga, shunchaki estetik hodisa sifatida emas, balki xalqni tarbiyalovchi va uyg'otuvchi vosita sifatida qaraganlar. Ular musiqa vositasi orqali savodsizlik, jaholat va ijtimoiy befarqlikka qarshi kurashishni maqsad qilganlar. Bu qarash, ayniqsa Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi jadid ijodkorlar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Jadidlarning musiqa sohasidagi eng yorqin namoyandalaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy bo'lgan. U san'atni xalq orasida tarqatish, uni targ'ib qilish va ijtimoiy ongni shakllantirishda samarali vosita deb bilgan.

Hamzaning spektakllari uchun yozilgan qo'shiqlar, kuylar o'zbek musiqiy teatrining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. U o'zining "Milliy ashulalar", "Qo'shiqlar devoni" kabi ishlanmalarida xalq kuylarini jamlab, ularni sahna san'ati va ta'lim tizimiga olib kirishga intilgan. Hamza, shuningdek, xotin-qizlar ishtirokidagi musiqiy chiqishlarni tashkil qilgan ilk ijodkorlardan biri bo'lib, bu orqali ayollarning jamiyatdagi o'rnini san'at orqali ko'rsatishga harakat qilgan.

Abdurauf Fitrat ham jadidlar orasida musiqa nazariyasi bilan jiddiy shug'ullangan kam sonli ziyolilardan biridir. U musiqa tarixi, Sharq va G'arb musiqa madaniyatlarini taqqoslagan holda, o'zbek musiqa san'atining o'ziga xosligini ilmiy asoslashga harakat qilgan.

Fitratning "Sharq musiqasi haqida", "Turkiy xalqlarning musiqiy merosi" kabi ishlari zamonaviy musiqa ta'limi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. U milliy cholg'ularni notaga tushirish, an'anaviy maqomlarni saqlab qolish va ularni yangicha tahlil qilishga alohida e'tibor qaratgan.

Jadidlar xalq kuy-qo'shiqlarining ichki go'zalligini, undagi tarixiy va madaniy qatlamlarni chuqur tushunganlar. Ular xalq musiqasini og'zaki ijoddan yozma shaklga o'tkazish, maktablarda musiqa fanini joriy etish, yosh avlodni milliy musiqiy meros bilan tanishtirish kabi sa'y-harakatlarni amalga oshirganlar.

Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida san'at, xususan musiqa tarbiyada qanday o'rin tutishi haqida yozib, musiqa orqali inson axloqi, estetik dunyoqarashi shakllanishini alohida ta'kidlaydi. Bu fikrlar, albatta, zamonaviy musiqiy tarbiyaning asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadi.

Jadidlar musiqani o'qitish jarayoniga ham yangicha yondashdilar. An'anaviy usullar bilan bir qatorda, ular Yevropa musiqiy pedagogikasidan ham foydalanishni targ'ib qildilar. Notaga asoslangan o'qitish, xor va ansambl faoliyati, musiqiy bilimlarning nazariy asoslarini berish – bular jadidlar tomonidan joriy qilingan innovatsion metodlar edi.

Turkiston jadid maktablarida musiqa fanining joriy qilinishi, bolalar uchun maxsus qo‘shiqlar yozilishi, milliy bayramlar va teatr sahnalarida musiqaning asosiy vosita sifatida qo‘llanilishi bunga yaqqol misoldir.

Bugungi kunda o‘zbek musiqa san’ati taraqqiyotida jadidlarning merosi katta ahamiyatga ega. Ularga xos bo‘lgan:

- milliy musiqani asrab-avaylash,
- uni zamonaviy shaklda rivojlantirish,
- musiqa orqali jamiyatni tarbiyalash g‘oyalari bugungi musiqa ta’limi va amaliyotida o‘z aksini topmoqda.

Jadidlarning mehnati tufayli, musiqiy teatrlar, bolalar musiqiy maktablari, milliy konsert dasturlari shakllandi. Ularning ruhidagi milliy va ma’rifiy g‘oyalar hozirgi o‘zbek kompozitorlari, bastakorlari va ijrochilari ijodida davom etmoqda.

Jadidlar o‘zbek musiqa san’atini faqat estetik ifoda vositasi sifatida emas, balki ma’naviy va ijtimoiy uyg‘otuvchan kuch deb baholaganlar. Ular orqali musiqa:

- xalqni ma’rifatga etaklovchi vosita,
- madaniy o‘zlikni ifodalovchi til,
- va eng muhimi, jamiyatni uyg‘otuvchi kuchga aylandi.

Bugungi kunda o‘zbek musiqa san’atining asoslari aynan jadidlar tomonidan qo‘yilganligini tan olish va ularning ilmiy, nazariy, va amaliy yondashuvlarini o‘rganish — madaniyatimiz taraqqiyoti uchun zaruriy shartlardan biridir.

Aabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov M. Jadidlar va o‘zbek madaniyati. Toshkent: Fan, 2001. – 256 b.
2. Nazarov O. O‘zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: Sharq, 1998. – 312 b.
3. Mirzayev S. Hamza Hakimzoda Niyoziy: hayoti va ijodi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2010. – 198 b.
4. Sobirov D. Jadidchilik va musiqa tarbiyasi. – Toshkent: Ma’rifat, 2005. – 144 b.
5. Islomov A. O‘zbek musiqa san’atining rivojlanish yo‘llari. Toshkent: Adabiyot va san’at, 2012. – 220 b.
6. Qodirov F. Fitrat va uning musiqiy nazariyalari. –Toshkent: Ilmiy nashrlar, 2015. – 160 b.
7. Abdullayev J. Milliy musiqa va zamonaviylik. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2008. – 180 b.
8. Raximov T. Jadidlar ta’lim tizimidagi innovatsiyalar. Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 134 b.

Nilufar RO‘ZIYEVA,
Kutubxona axborot faoliyati
kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zDSMI

AXBOROT-RESURS MARKAZLARIDA JADIDCHILIK TARIXINI O‘RGANISH UCHUN YARATILGAN ELEKTRON RESURSLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Axborot-resurs markazlarida (ARM) jadidchilik tarixini o‘rganishga qaratilgan elektron resurslar tahlili yoritiladi. Ushbu markazlar orqali talabalar va tadqiqotchilarga jadidlar faoliyatini o‘rganishda yaratilayotgan imkoniyatlar, mavjud elektron platformalar va ularning afzalliklari xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ma’lumotlar bazalari, raqamlashtirilgan manbalar va ulardan samarali foydalanish yo‘llari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, Axborot-resurs markazi, elektron resurs, raqamli ma’lumotlar, kutubxona, ma’naviy tarbiya, tahlil, ma’lumotlar bazasi.*

Abstract. *This article presents an analysis of electronic resources dedicated to the study of the history of the Jadid movement within Information Resource Centers (IRCs). It discusses the opportunities being created for students and researchers to explore the activities of the Jadids through these centers, the available electronic platforms, and their advantaGES. Additionally, the article examines databases, digitized sources, and effective methods for utilizing them.*

Key words: *jadidism, Information Resource Center, electronic resource, digital data, library, spiritual education, analysis, database.*

Xalq ma’naviyatini yuksaltirish, tarixiy merosni asrab-avaylash va uni yangi avlodga etkazishda jadidlar faoliyati beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda yuzaga kelgan ma’rifatparvarlik harakati bo‘lib, xalqni uyg‘otish, zamonaviy bilimlar va islohotlar orqali taraqqiy ettirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat yuritib kelayotgan Axborot-resurs markazlari jadidchilik tarixini elektron resurslar yordamida chuqur o‘rganish imkonini bermoqda.

Zero, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida elektron kitoblar, raqamlashtirilgan arxivlar va onlayn ma’lumotlar bazalari orqali jadidlar merosini tez va samarali o‘rganish imkoniyati yaratildi. Ushbu maqolada ARMlardagi ana shunday elektron platformalar tahlil qilinib, ularning o‘rganish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Jadidchilik tarixini o‘rganishdagi ehtiyoj va ARMning vazifasi

Ma’lumki, jadidlar – o‘z zamonasining buyuk ma’rifatparvarlari bo‘lib, xalqni ilm-ma’rifatga chorlagan, zamonaviy ta’lim usullarini ilgari surgan. Ularning asarlari, publitsistik merosi va ijtimoiy fikrlari bugungi avlod uchun muhim ma’naviy boylikdir. Ushbu boy merosni o‘rganishda Axborot-resurs markazlari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

ARMlar jadidlarga oid manbalarni jamlash, ularni raqamlashtirish va keng ommaga taqdim etish orqali zamonaviy o‘quvchi va tadqiqotchilar uchun qulay muhit yaratib beradi. Xususan, kutubxonalardagi elektron platformalar talabalarga mustaqil izlanish olib borish, ma’ruzalarga tayyorgarlik ko‘rish, ilmiy ishlar yozish imkonini beradi. Shu bois, jadidchilik tarixi bilan bog‘liq materiallar ARMlarda maxsus to‘plam sifatida shakllantirilishi zarur.

ARMlarda mavjud asosiy elektron resurslar turlari. Hozirgi kunda Axborot-resurs markazlarida jadidchilikka doir elektron resurslar turli shakllarda taqdim etilmoqda. Quyida ushbu resurslar turlari va ularning mazmuniy yo‘nalishlari jadval shaklida keltirilgan:

Elektron resurs turi	**Tavsifi**
Elektron kitoblar	Jadidlar asarlari, she’rlar, dramalar
Elektron jurnal maqolalari	Ilmiy tahlillar, ocherklar, tadqiqot natijalari
Raqamlashtirilgan arxiv hujjatlari	Mustaqillik yillaridan oldindagi jadidlarga oid manbalar
Multimedia materiallar	Hujjatli filmlar, intervyular, prezentatsiyalar
Onlayn ma’lumot bazalari	"Ziyonet", "Kitob.uz", "IAC" elektron platformalari

Keltirilgan jadvaldan ko‘rinadiki, turli shakldagi elektron resurslar jadidchilikni o‘rganishda har tomonlama yordam bermoqda. Ular orqali talabalar faqat matn bilan emas, balki tasvir, ovoz va video formatlarida ham ma’lumot olish imkoniga ega bo‘ladilar.

Mavjud elektron platformalar tahlili

Jadidchilik merosini elektron tarzda o‘rganishda qator platformalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan eng faollari quyidagilar:

ZiyoNET. ZiyonET ta’lim portali jadidlarga oid ko‘plab elektron materiallar bilan boyitilgan. Bu erda jadidlar asarlari, referatlar, tadqiqot maqolalari, mavzular bo‘yicha slaydlar va multimedia shaklidagi materiallar joylashtirilgan. Qulay izlash tizimi orqali foydalanuvchi kerakli materialni oson topa oladi.

Kitob.uz. Ushbu elektron kutubxonada jadid ziyolilarining asarlari, she’rlari va dramalari to‘plangan. Platforma mobil qurilmalarda ham ishlaydi, bu esa undan foydalanish imkoniyatini kengayttiradi. Ushbu platforma yoshlar o‘rtasida juda ommalashgan.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Milliy kutubxonada jadidlar faoliyatiga oid ko‘plab tarixiy hujjatlar va gazeta maqolalari raqamlashtirilgan holda taqdim etilgan. Bu manbalar ilmiy tadqiqotchilar uchun juda qimmatli hisoblanadi.

Xalqaro platformalar. Cyberleninka, Google Books, JSTOR kabi xalqaro platformalarda ham o‘zbek jadidlariga oid maqolalar va tahlillar mavjud. Ushbu manbalar xalqaro tajriba bilan tanishish va solishtirma tahlil qilish imkonini beradi.

E**lektron resurslardan foydalanish holati (so‘rovnoma natijalari)**

2024-yilda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalar va kitobxonlar jadidchilik merosini o‘rganishda quyidagi platformalardan foydalanishda afzal ko‘rmoqda:

- 45% – ZiyonET portalidan muntazam foydalanadi;
- 30% – Kitob.uz orqali jadidlar asarlarini o‘qiydi;
- 15% – Milliy kutubxona arxividan foydalangan;
- 10% – boshqa platformalar (Cyberleninka, Google Books va h.k.).

Bu ma’lumotlardan kelib chiqib, elektron resurslardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilganini va bugungi kunda talabalar orasida jadidlarga oid ma’lumotlarga qiziqish ortib borayotganini ko‘rish mumkin.

Muammolar va takliflar

Elektron resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotgan bo‘lsa-da, hali ham bir qator muammolar mavjud:

- Barcha jadid asarlari raqamlashtirilmagan;
- Ayrim platformalarda izlash tizimi mukammal emas;
- Manbalarga ilmiy sharhlar va yo‘llanmalar etarli emas;
- Elektron resurslar ARMlarda yaxlit tizim sifatida joriy qilinmagan.

Takliflar:

- Yagona "Jadidchilik elektron portali"ni yaratish;
- ARMlarda tematik ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- Jadidchilik tarixini o‘rganish bo‘yicha multimediaviy ta’lim kurslari tashkil etish;
- Elektron kitoblarga sharh, lug‘at va QR-kodli tavsiyalar joriy etish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish jadidchilikni o‘rganish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko‘rinadiki, Axborot-resurs markazlari jadidlar merosini saqlash, targ‘ib etish va o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Ular orqali talabalar va tadqiqotchilar jadidlarning boy merosiga oson va qulay etishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Elektron resurslar bilimni mustaqil o‘rganish, izlanish va tadqiqot olib borishda muhim vositaga aylandi.

Shu bois kelgusida mazkur yo‘nalishda maxsus platformalarni yaratish, mavjud manbalarni yaxlitlashtirish, yangi texnologiyalardan foydalangan holda jadidlar asarlarini ommalashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy qadriyatlarni tiklashda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Turon zamin, 2023. – 96 b.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkalonlarimiz. Toshkent: Akademnashr, 2021. – 312 b.
3. Rahimov A. Jadidchilik harakati: tarix va tahlil. 2022. 10 may.
4. ZiyonET – https://ziyonet.uz
3. Kitob.uz elektron kutubxonasi – https://kitob.uz
4. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi – https://navi.uz
5. Cyberleninka – https://cyberleninka.ru

6. JSTOR – https://www.jstor.org

Ziyodaxon USMANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

PORTRET TASVIRIDA BADIIY USLUBNING NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning jadid adabiyotining buyuk namoyondasi A.Qodiriy ijodidan, ta’sirlanib yozgan she’rlari tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *A.Qodiriy, she’riyat, jadid adabiyoti, yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi va takomili.*

bstract. *In this article, the poems written by the national poet of Uzbekistan Khurshid Davron, influenced by the work and image of A. Qadiri, a great representative of modern literature, are analyzed.*

Key words: *A. Qadiri, poetry, modern literature, formation and development of new Uzbek literature.*

Xurshid Davron ijodida jadidchilik mavzusi keng o‘rin egallagan mavzulardan biri hisoblanadi. Shoirga jadid adabiyoti namoyondalarining jasorati, ilm-fan yo‘lida qilgan fidoyiliklari, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishdagi say’-harakatlari, yaratgan qahramonlari siymosida jamiyat hayotining mudhish va ayanchli hayotini to‘la aks ettirishi, ziyoli qatlamning ijtimoiy muammolarga munosabati, ijodkorlar ongi va tafakkurida XX asr boshlarida yuz bergan o‘zgarishlar o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Xurshid Davron xotira janrida barakali ijod qilgan. She’r markazida badiiy xotira turadi. Ijodkor Qodiriy surati zamirida o‘tmish bilan tillashadi, o‘zligini anglashga harakat qiladi. She’rdagi “so‘nggi surat” ifodasi Qodiriyga tegishli bo‘lsa-da, umumiy tarzda barcha millatparvar ziyolilarning so‘nggi nafaslariga qadar xalq ozodligiga, milliy mustaqilligiga ishonchining ramzi sanaladi. Shuning uchun shoir “tirik” insonlarning emas, “jonsiz” suratning suhbatiga oshiqadi.

Buncha alam,
Buncha muhabbat…
Qorachiqda yonar hasrati.
Sen nimani tilaysan mendan,
Qodiriyning so‘nggi surati? [1, 7].

Ijodkor Qodiriyning so‘nggi suratiga murajaat tarzida avvalo o‘z vijdoniga murojaat qilmoqda. Bu satrlar lirik qahramonning yuragidagi ziddiyatli tuyg‘ularni ochib beradi. Alam va muhabbat bir vaqtda mavjud: inqilobdan milliy ozodlikni ko‘zlagan ezilgan xalqning ahvolidan alamzadalik, milliy ozodlikka bo‘lgan intilish va muhabbat yurakning zohiriy ifodasi bo‘lgan qorachiqda mujassam. Ruhiy

kechinma, ichki ziddiyat, muhabbat va alam, sog‘inch va umidsizlik tarixiy-estetik xotira bilan uyg‘unlashib ketgan. Qodiriy qalbidagi muhabbat va alam bir butun bo‘lib, uning nigohida (“qorachiqda”) doimiy yonuvchi bir hasratga aylanadi. She’r yakunidagi murojaat tarzidagi “Qodiriyning so‘nggi surati” degan satrlar individuallikdan chiqib, butun xalqning dard-hasratiga ulanib ketadi.

Yoki so‘ylab bermoqchimisan
Kumushbibi, Otabek dardin,
Yo o‘z darding so‘ylamoqchisan,
Qodiriyning so‘nggi surati.

Shoir Qodiriy shaxsiyatini tarixga muhrlagan asari “O‘tgan kunlar” romani qahramonlari Kumush va Otabek obrazlari vositasida muallif taqdirining falsafiy, ramziy ma’nolarini ham yoritishga harakat qiladi. Otabek shunchaki bir obraz emas, u jamiyat hayotini izga solishga harakat qilayotgan ilg‘or fikrli shaxsni ifodalaydi. Roman qahramonlari taqdiri misolida ijtimoiy adolat tarozisining buzilishi oqibatlaridan, millat fojiasidan so‘z ochadi. Kumushbibi va Otabekning dardi – bu nafaqat sevgi fojiasi, balki o‘zbek xalqining intellektual uyg‘onishi bilan ijtimoiy zulm to‘qnashuvidir. She’r Abdulla Qodiriyning ijodi va shaxsiyatiga berilgan yuksak poetik yodnoma sifatida baholanishi mumkin. Bu erda surat ramziy ma’no tashiydi. Surat detal obrazlar sirasiga kiruvchi motiv bo‘lib, unda shoir jadidlarning umumiy qiyofasi va so‘nggi umidlarini gavdalantiradi. Odatda obrazning bu turiga adabiyotshunoslikda quyidagicha ta’if beriladi. “Detal obrazlar (tafsilotlar, narsa-buyumlar, portret, peyzaj)dan badiiy reallikning ikkinchi qatlami – ichki yoki tashki harakatdan tarkib topuvchi voqea-hodisalar obrazidan o‘sib chiqadi. Ya’ni badiiy reallik g‘ishtchalardan – butunni tashkil qiluvchi unsurlardan

tashkil topadi, bu unsurlar o‘zaro predmetlilik darajasi, tasvir ko‘lami jihatidan farqlanadi” [2, 47].

Tunlar jimjit,
Uzundir garchand,
Tugamaydi dillar suhbati.
She’r o‘qisam tinglaysan o‘ychan,
Qodiriyning so‘nggi surati.

Tunlarning uzun va jimjitligi ifodasida tungi sukunat va vaqtning cho‘zilishi orqali dard, sog‘inch, o‘y-fikr holatini tasvirlaydi. “Tun” – bu ko‘pincha falsafiy va ruhiy iztirob manzarasi bo‘lib kelgan timsol. Jimjit tun – o‘zlik bilan yuzma-yuz qolgan insonning ruhiy holatini anglatadi. Shunday uzun tunda “Dillar suhbatining tugamasligi” psixologik yaqinlik, ichki muloqot, millat xotirasi bilan yashash, xalq dardini his qilishga ishora qiladi. Suhbat faqat dillar o‘rtasida bo‘layotgani yo‘q. U Xurshid Davron va Qodiriy, ilhom va qalb og‘rig‘i, iztirob va ilinj o‘rtasidagi muloqotdir. Shoir she’r o‘qiydi, surat o‘ychan tinglaydi. Aslida surat jonsiz predmet bo‘lgani uchun unda o‘ychanlik bo‘lmaydi. Ammo bugunning dardi shunchalik teranki, u o‘tmish ajdodlarning ruhini ham bezovta qila olar darajada kuchga ega. Xalq og‘ir damlarida o‘tmish ajdodlarning ruhidan panoh istashi tabiiy holat.

Yo‘llarimda uchrasa xato,
Qiynab qo‘ysa elim hasrati,
Kelib sendan tilayman panoh,

Qodiriyning so‘nggi surati.

She’r shoir ijodining tongotarida yozilgan bo‘lishiga qaramay, unda dard to‘la ohanglar, buyuk salaflar yo‘lidan borishdagi jur’at va qat’iyatning keskin ifodalanishi o‘zbek adabiyotiga zabardast qadamlar bilan yangi avlodning kirib kelayotganidan darak edi. Lirik qahramon xato qilishdan qo‘rqmaydi, el dardiga elka tutadi, bu yo‘lda qiynalgudek bo‘lsa, panoh istab boruvchi ustozlari borligiga qat’iy ishonch bildiradi.

“Xatolar” deganda shoir odamzodning hayot yo‘lida uchraydigan adashuvlarini nazarda tutadi. Ammo bu shunchaki oddiy hayotiy xato emas. Bu – milliy ong yo‘lida, xalq xizmatida, Vatan oldidagi burchda yo‘l qo‘yilgan ruhiy og‘ish. Lirik qahramon bu yo‘ldagi adashishlarda o‘zini aybdor his qilmoqda. Bu ichki iztirob, bu vijdon azobi uni chuqurlikka etaklaydi.

“Qiynab qo‘ysa elim hasrati...” – bu satrda xalq, vatan, millat dardi o‘ziga xos badiiy ifodani topgan. Bu hasrat – yurtni sog‘inish emas, balki xalq uchun biror narsa qila olmaslik dardi, ajdodlarga munosib bo‘la olmaslik azobi. Shoir o‘zini xalq oldida javobgar his qiladi va bu tuyg‘u uning qalbini ezadi. Va nihoyat, ikki og‘ir satrdan so‘ng shoir najot istab buyuk daho yoniga kelishini yana bir bor ta’kidlaydi. Bu erda Qodiriy surati – oddiy portret emas. U – vijdon timsoli, milliy uyg‘onish ruhining sokin, ammo tirik nigohi. Shoir bu suratga qarab, o‘ziga yo‘l topmoqchi. Go‘yo suratdagi ko‘zlar orqali Qodiriy unga: “Yo‘ling to‘g‘ri bo‘lsin, xalqingni sev!” deb najot yo‘lini ko‘rsatmoqda. Bu panoh - ruhiy, ma’naviy, axloqiy panohdir.

Adabiyot – bu makon va zamondan qat’iy nazar yaqin darddosh ko‘ngillarni, fikriy yaqin insonlarni birlashtiruvchi maydondir. Xalq taqdirini qalbida his qilgan ijodkorlar esa bu maydonda birlashadi, uning aks-sadosiga quloq tutadi, kerak bo‘lsa shu yo‘lda jon beradi. Ularning timsoli, ruhi ba’zida bir she’rda, ba’zida esa birgina suratda abadiyatga muhrlanadi. Xurshid Davronning “Qodiriyning so‘nggi surati” nomli she’ri ham aynan shunday ilohiy sukunatni tasvirlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin: she’rlar, rivoyatlar, tarjimalar. – T.: “Sharq”, 1997.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: “Akademnashr”, 2013.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.

Farrux USMONOV,
Ashula va raqs mutaxassisligi 1-kurs magistranti
O‘zDSMI

ABDURAUF FITRATNING MAQOM SAN’ATIGA OID ILMIY YONDASHUVI: TARIXIY-MADANIY MEROSI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek musiqa madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan jadid ma’rifatparvari Abdurauf Fitratning maqom san’atiga oid qarashlarini ilmiy tahlil etadi. Xususan, u yaratgan "O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asari asosida Shashmaqom tizimi, uning estetik-falsafiy qatlamlari, milliy o‘zlik bilan bog‘liqligi va bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati yoritiladi.*
Kalit so‘zlar: *Abdurauf Fitrat, maqom san’ati, Shashmaqom, estetik tafakkur, milliy xotira, musiqashunoslik, madaniy meros, pedagogik ta’sir, metodologik asos.*

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the views of Abdurauf Fitrat, a modern enlightener who made a great contribution to Uzbek musical culture, on the art of maqom. In particular, based on his work “Uzbek classical music and its history”, the Shashmaqom system, its aesthetic and philosophical layers, its connection with national identity and its significance in today's education system are highlighted.*
Key words: *Abdurauf Fitrat, maqom art, Shashmaqom, aesthetic thought, national memory, musicology, cultural heritage, pedagogical impact, methodological basis.*

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati nafaqat siyosiy yoki ta’limiy sohalarda, balki musiqa nazariyasida ham katta burilish yasadi. Ushbu harakatning etakchi arboblaridan biri Abdurauf Fitrat bo‘lib, u nafaqat adabiyotshunos, balki musiqashunos olim sifatida ham yurtimiz ilm-faniga bebaho hissa qo‘shgan. U “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927) nomli asarida maqom san’atini nazariy, estetik va falsafiy jihatdan tizimlashtirdi.

Fitrat yondashuvida “Shashmaqom” tizimi. Fitrat maqomni oddiy musiqa janri sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri va ruhiy kechinmalarining musiqiy ifodasi deb hisoblagan. Uning fikricha, “Maqomlar – bu millatning musiqiy tarixda qoldirgan izidir. Har bir ohang o‘z zamonining tafakkuri va ruhiyati bilan sug‘orilgan.” (Fitrat, 1927)

Fitrat Shashmaqom”ni 6 asosiy maqomdan iborat tizim deb qaraydi

Har bir maqomning ichki tuzilmasini tahlil qiladi. Shashmaqom”ning bu qat’iy tizimlashtirilgan tuzilmasi orqali Fitrat Sharq musiqiy merosini g‘arbiy ilmiy tahlil mezonlariga yaqinlashtirishga uringan.

Jadval 1. Shashmaqom maqomlari va Fitrat izohi

Maqom nomi	Fitratcha mazmuni
Buzruk	Ruhiy uyg‘otuvchilik, hayot falsafasi
Rost	Falsafiy mushohada, axloqiy tarbiya
Navo	Ichki iztirob, ruhiy kurash

Maqom nomi	Fitratcha mazmuni
Dugoh	Umid va armon orasidagi ohang
Segoh	Harakatga da'vat, tafakkur jilvasi
Iroq	Haqiqat va imonning musiqiy timsoli

Fitrat maqomni nafaqat musiqiy, balki ruhiy-ma'naviy tuzum deb talqin etgan holda, bu janrni pedagogik vosita sifatida ham baholagan. Uningcha, maqom orqali axloqiy tarbiya, milliy o'zlik, tarixiy ong va estetik did shakllantiriladi.

Fitrat musiqa san'atiga salmoqli hissa qo'shgan serqirra ijodkor hisoblanadi. U 2-sentyabr 1920-yilda Buxoro amirligi qulagandan so'ng, bir yilga bormasdan Buxoroda "Sharq musiqa maktabi"ni tashkil qilgan;

Ikkinchisi, Rossiyadan musiqashunos va kompozitor Viktor Uspenskiyni Buxoroga taklif qilib, Buxoro shashmaqomini notaga oldirishga va uni Moskvada chop ettirishga bosh-qosh bo'lgan. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida shashmaqom 1924-yilda nashr etilgan. Bu jarayonda Fitratning o'zi mas'ul muharrir bo'lgan;

Uchinchisi, bu xalq musiqa merosini, mumtoz asarlarini shunchalik yaxshi bilganligidan hatto san'atkorlar ham uning zehniga tahsin aytishgan. Shu bois risola ham yaratgan. Risola nomi "O'zbek xalq musiqa tarixi va qonunlari" deb atalgan;

To'rtinchidan, Buxoro shashmaqomini shunchalik mukammal darajada bilganligidan "Buxoro shashmaqomi bilimdoni" deya e'tirof etilgan hofiz hamda ustozi Otajalol Nazirovdan "Segoh" maqomida hali mavjud bo'lmagan savtni bastalashni iltimos qilgan va natijada Otajalol Nazirov segoh maqomiga savt bastalagan. Hozirgi kunda ushbu asar segoh maqomi tarkibidagi savt hisoblanib, "Savti Jaloliy" deb nomlanadi. Biroq ushbu asar faqat, Buxoroning o'zida ijro etiladi.

Fitrat qarashlarining zamonaviy musiqa ta'limidagi ahamiyati. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda maqomshunoslik yo'nalishi bo'yicha rasmiy ta'lim institutlari faoliyat yuritmoqda:

- 1 ta Respublika maqom markazi (Buxoro)
- 4 ta oliy o'quv yurti qoshida maqom kafedralari
- 6 ta kollejda maqom sinflari
- 1000 dan ortiq talabalar (2023-yil holatiga ko'ra)

Shunga qaramay, Madaniyat vazirligining 2022-yilgi ijtimoiy so'rovi natijalariga ko'ra, maqom tinglovchilari orasida yoshlarning ulushi atigi 12% ni tashkil etadi. Bu esa Fitrat ta'kidlaganidek, ruhiy-estetik yondashuvning ta'lim tizimida etarlicha ifoda topmaganidan dalolat beradi.

"O'zining maqomlariga begona millat go'yo onasini tanimagan boladek ojizdir." (Fitrat, 1927)

Bugungi musiqa ta'limida Fitratning metodologiyasi, ya'ni maqomni tizimli tahlil qilish, uning estetik-falsafiy qatlamlarini o'rgatish, ijro texnikasi va didaktik yondashuvlarni uyg'unlashtirish bo'yicha izchil ishlar olib borilishi kerak.

Fitrat asarlarining bugungi dolzarbligi. Fitrat maqomni milliy meros sifatida qabul qilgan holda, uni universal musiqiy tafakkur doirasida ko'rgan. Sharq va G'arb musiqasini solishtirib, maqomni xalqaro musiqiy muhitga olib chiqish

zarurligini aytgan. Bu yondashuv bugungi UNESCO siyosatida ham aks etmoqda. Masalan:

- UNESCO 2003 yilda Shashmaqomni Insoniyat nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etdi.
- O'zbekiston Prezidenti 2021-yilda maqomni milliy boylik sifatida muhofaza qilish bo'yicha PF-6241 farmonni imzoladi.

Bundan tashqari, Fitratning maqomni "axloq sabog'i" deb talqin qilgani ham dolzarbdir. Maqom vositasida yosh avlodni estetik did, ruhiy uyg'unlik va milliy g'ururga tarbiyalash zarurati ta'lim va madaniyat siyosati doirasida yana-da chuqurroq amalga oshirilishi lozim.

Xulosa o'rnida ushbu jadid bobokalonimiz qanday islohatlarni amalga oshirdi degan savolga: Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli ilmiy asarini yozdi (1927). Bu asar Fitratning musiqashunoslikdagi eng yirik va tarixiy ishlardan biridir.

- Asarning mazmuni:

Shashmaqomning kelib chiqishi, mazmuni va tuzilmasi haqida ilmiy-tarixiy tahlil beradi.

O'zbek klassik musiqa tizimining nazariy asoslari, cholg'ular, maqomlar, ijrochilik va kompozitsiya an'analari haqida yozadi.

Sharq musiqasi va G'arb musiqasi o'rtasida taqqoslamali metod bilan yondashadi.

Bu asar o'zbek musiqa nazariyasini milliy asosda tizimlashtirishga qaratilgan birinchi urinishlardan biridir.

Milliy musiqa maktabining asoschilaridan bo'ldi. Fitrat o'zbek musiqiy ta'limini milliy asosda tashkil qilish, musiqa sohasini ilmiy asosda o'rganish zarurligini birinchi bo'lib ilgari surgan olimlardan edi. U musiqa san'atini faqat amaliyot emas, nazariya va metodika bilan ham bog'lash kerakligini uqtirgan. Fitrat o'z asarlarida maqom musiqasini xalq ongi va estetik didini shakllantiruvchi vosita sifatida tahlil qiladi.

Sharq musiqasining xalqaro maqomini ko'tarishga harakat qildi. Fitrat o'z maqolalarida va chiqishlarida turkiy va forsiy musiqiy merosni faqat madaniy emas, balki ilmiy-ijtimoiy qadriyat sifatida tan olinishiga xizmat qildi. Sharq musiqasi G'arbdan kam emas, balki o'z ichki tizimi va murakkab strukturasi bilan o'ziga xos ekanligini ilmiy asosda isbotlagan.

Musiqa va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratdi. Fitrat musiqani faqat badiiy zavq emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy qudratga ega vosita sifatida ko'rdi. U musiqaning ma'naviy yuksalishdagi o'rni, milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati haqida fikr yuritdi. Sharq musiqasini yozma ravishda sistemalashtirdi.

Fitrat birinchi bo'lib o'zbek musiqa an'analarini:

- tizimli ilmiy terminlar bilan ifodalashga urindi (masalan, maqom, usul, ijro),
- maqom qismlarini (nasr, gardun, savt, ufar va h.k.) yozma ravishda tahlil qildi, maqom san'atining tarixiy shakllanishini xronologik tarzda ko'rsatdi.

Abdurauf Fitratning maqom san'atiga bo'lgan yondashuvi bugungi avlod uchun nafaqat ilmiy-ma'naviy meros, balki ruhiy-axloqiy mezon hamdir. Uning qarashlari orqali biz nafaqat Shashmaqomning nazariy asoslarini, balki xalqning

qalb haroratini, tarixiy xotirasini va estetik didini musiqiy ifodada ko‘ramiz. Fitratning maqomga bergan bahosi, uni milliy ong va g‘ururni shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘rganligi bugungi o‘zgaruvchan zamonda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Maqom san’ati – bu shunchaki ohang emas, balki millat ruhining tovushlardagi aksidir. Fitrat bu haqiqatni o‘z asarlari, ilmiy izlanishlari va tashabbuslari orqali isbotlab berdi. Endilikda bizga – yosh avlodga, ilm ahli va musiqashunoslarga – bu bebaho merosni chuqur o‘rganish, rivojlantirish va uni kelajak avlodlarga etkazishdek muqaddas burch yuklatilgan. Fitrat merosi bizni ogohlikka, o‘zlikni anglashga, musiqani faqat san’at emas, balki ma’naviy va pedagogik kuch sifatida qadrlashga da’vat etadi. Maqomni anglash Fitratni anglashdir. Fitratni anglash esa – o‘zligimizni anglash demakdir.

Mavzu yuzasidan takliflar:



Adabiyotlar ro‘yxati

1. Fitrat, A. 1927. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent: O‘rta Osiyo Davlat nashriyoti. 1927.

2. Fitrat, A. Sharq musiqasi haqida mulohazalar. "Turon" jurnali. 1923.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyundagi PF-6241-sonli Farmoni.

4. Jalilov T. Maqomlar haqida maqola va risolalar. Toshkent: Maqom. 2001.

5. Matjon, O. Shashmaqom san’ati: tarix va zamon. Buxoro: Ma’naviyat. 2014.

6. Saidova, G. Fitratning estetik-falsafiy qarashlari. Toshkent: Fan. 2018.

7. UNESCO. Traditional Music of Uzbekistan: Cultural Heritage Reports. Paris. 2020.

8. Uspenskiy, V. Musiqa nazariyasining asoslari. Moskva. 1965.

9. Karomatov. X. O‘zbek musiqa merosi: maqomlar tahlili. Toshkent: San’at. 1998.

10. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. Yoshlar va maqom san’atiga munosabat: Sotsiologik tahlil hisobotlari. Toshkent. 2022.

Kamola ABZALOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti magistranti

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA “TURON” TEATRI
(“Teatr nadur?” maqolasi xususida)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik harakati doirasidagi ma’rifiy faoliyati, ayniqsa, o‘zbek teatrining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni yoritilgan. Maqola teatrni faqat ko‘ngilochar emas, balki tarbiyaviy vosita sifatida talqin qilish orqali Behbudiyning san’atga bo‘lgan ilg‘or qarashlarini ochib beradi.*
Kalit so‘zlar: *dramaturgiya, sahna san’ati, ma’rifat, teatrshunoslik, milliy uyg‘onish, rejissura, aktyorlik, adabiy tanqid.*

Annotation. *The article highlights Mahmudkhoja Behbudi’s educational activities within the framework of the Jadid movement, particularly his role in the formation and development of Uzbek theater. The article reveals Behbudi’s progressive views on art by interpreting theater not merely as entertainment, but as a means of moral and educational influence.*
Keywords: *dramaturgy, stage art, enlightenment, theater studies, national awakening, directing, acting, literary criticism*

Mahmudxo‘ja Behbudiy – Turkistonda jadidchilik harakatining “otasi” hisoblanadi. U Samarqanda birinchilardan bo‘lib 1904-yilda usuli jadid maktabini tashkil qiladi. Mana shu maktab uchun bir qancha darsliklar yozadi. Buhbudiy maktab va ta’lim tarbiya to‘g‘risida “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiya”, “Tujor”, “Xurshid”, “Shuxrat”, “Osiyo”, “Turon”, “Hurriyat”, “Oyna”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ulug‘ Turkiston”, “Najot”, “Vaqt” va boshqa matbuot sahfalarida ko‘plab maqolalar bilan chiqishlar qiladi. Masalan “Taxsil oyi”, “Ehtiyoji millat”, “Samarqand usuli jadid maktabi xususida”, “Majlis imtihon”, “Tarix va Jug‘rofiya”, “Samarqand kitobxona va matbaaxona”, “Buxoroda usul jadida” kabi ilmiy-ommabop maqolalarida yangi usul maktablari, uning ahamiyati, o‘qitish tizimi, yangi maorif ma madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning foydasi, komil insonning tarbiyasi to‘g‘risidagi muhim ma’rifiy fikrlarni kuzatish mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘saga’asida yangi zamon o‘zbek madaniyatining eng yirik namoyondasi sifatida maydonga chiqadi. Tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab bir davrida yashagan Mahmudxo‘ja Behbudiy yangi davr o‘zbek madaniyatining asoschisi, Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek (yozma) dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatr tashkilotchisi, noshir, jurnalist sifatida e’tirof etib kelinadi. Shu bilan birga “Oyna” (1914-1915) jurnalining noshiri va muharriri, islom dini tarixini puxta biluvchi ulamo “Risolai

asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1095), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Muxtasari tarixi islom” (1909) singari kitoblarning muallifi hamda etuk jamoat arbobidir.

Behbudiy yangi o‘zbek teatrining etakchi targ‘ibotchilaridan, dunyo teatrlaridan xabardor, teatrning taraqqiy etgan mamlakatlat ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o‘rnini o‘rgangan, shulardan xulosa chiqarib, Turkiston o‘lkasi, umuman islom olamida teatrni himoya va targ‘ib qilgan san’at darg‘asidir. U o‘zi muharrirlik qilgan “Oyna” jurnalida teatrni davlat miqyosida madaniyatning muhim sohasi ekanligini isbotlash ularning Yevropa mamlakatlaridagi mavqeyini ko‘rsatish maqsadida teatrlar soni va qancha aholiga bir teatr to‘g‘ri kelishi ko‘rsatib beradi.

U ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasligini, zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerakligini insonlar ongiga singdirishga harakat qildi. U millat uchun qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra oladigan oyna kerakligini ilgari suradi. Man shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr sari etaklaydi. U 1914-yil “Oyna” jurnalining 29-sonida chop ettigan “Tetar nadur?” maqolasida xalqning ma’rifatga etaklamoq, ko‘zini ochmoq uchun teatrning o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligini keltiradi. “Teatr nadir?” savoliga shunday javob beradi: “Teatr ibratnamodur, teatr va’zxonadur, teatr ta’zir adabdir. Teatr oynadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rib, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur”. Behbudiy mazkur maqola orqali teatrning ibratxona ya’ni insonlarga ma’naviyat, ma’rifat ulashadigan ulug‘ dargoh ekanligini asoslab beradi.

Teatr – bu tarbiya joyi, fikr almashuvchi bir manba, adabiy bir minbar, hayotimizning oynagi bo‘lib, tomoshabinlar voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi va qulog‘i bilan eshitadi, yomon odatlarni fosh qiladi, u haqiqatni yuziga qaramay aytadi. U yomon ishni tanqid qilib yangilikka chaqiradi, shu bilan birga insonlarni kayfiyatini ko‘taradi, xursand qiladi va dam oldiradi. Har bir davr inson ongiga o‘zining ta’sir qiladigan quroliga ega bo‘lganidek, teatr xuddi shunday muassasadir… Kitob va romanlarda kishilar hayotni va axloq masalasini o‘qib biladilar, teatr esa shu voqealarni sahnada hatti-harakatlarda ko‘rsatadi, shuning uchun uning ta’siri kuchli bo‘ladi. Bundan tashqari, teatr savodsiz kishilar uchun ham tushunarli bo‘ladi, shunday qilib u o‘z yo‘lida bir maktabdir.

Behbudiy teatrni tomoshagoh, yoinki ko‘ngil oluvchi maskan deb aytadi. Turli davrlarda turli nazariyotchilar teatrga o‘ziga xos yondoshdilar. Kimdir teatrni faqat ko‘ngilochar maskan hisoblasa, kimdir taqlidxona deyishdi, shular qatorida nayrangxona deguvchilar ham topildi. Behbudiy esa tomosha orqali o‘git berish teatrning asosiy vazifasi ekanligini, taraqqiy qilgan millatlar ushbu maskanni ulug‘lar uchun maktabi adab va ibratxona atashligini ko‘rsatib o‘tadi. Taraqqiy qilishning eng birinchi sababini teatrga bog‘laydi. Teatr jamiyatdagi yaxshi odamlarning targ‘ibotchisi bo‘lsa, yomon illatlarning tanqid qiluvchisidir. Uning ta’biricha: teatrga tashrif buyurgan har bir tomoshabin asar voqealari va aktyorlar ijrosidan ta’sirlanib, o‘zidagi kamchilik va nuqsonlarni, yomon odatlarni tark etib, o‘z kuch-qudratini jamiyat ravnaqi yo‘lida safarbar etishni maqsad qilsin. Uning sahna san’atiga yondoshuvida dunyo teatrlarini yaxshi o‘rganganligi, spektakl xususiyatlarini chuqur o‘zlashtirganligi namoyon bo‘ladi. U o‘zbek teatri milliy urf-

odatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida shakl topishi maqsadga muvofiqligini ilgari suradi.

Muallif bu maqolada teatrning janrlari, dramaturgiya, aktyorlik san'ati spetsifikasi to'g'risida,shuningdek evropa mamlakatlarida teatr san'atining taraqqiyoti va ulardagi aktyorlar tayyorlaydigan maxsus maktablar mavjudligi to'g'risida ham to'la ma'lumotlar beradi. Yevropa teatrlarida yangi bir asar namoyish etilishini, ba'zi bir asarlar tomoshabinlarni zeriktirmasligi, qayta-qayta, yigirma, o'ttiz, hattoki yuz marotaba qo'yilayotgan asarlar borligini keltirib o'tadi. Albatta, har bir spektaklning jamoatchilik ko'rigi bo'lishi, spektaklning nuqsonli tomonlari, kamchiliklari teatrshunoslar (jadidlar) tomonidan tanqid qilinishi, tanqidshunoslar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar spektakl rejissorini xursand va yo g'amgin qilishligini yozadi. Shuning bilan birga teatr uchun rejissorning chuqur bilimga, keng tajriba va salohiyatga ega ekanligi aktyorlar (hodisani ko'rsatuvchilar) uchun shunday vazifalar talab qilinishi, yurtimizda ham ijodkorlarni tarbiyalaydigan maktablar zarurligiga ham to'xtalib o'tadi.

Behbudiy maqola davomida quyidagilarni yozadi: "teatr xonalari mazxarabozxona bo'lmay, balki ibratxononadur va anda mushaxxis (akytor) bo'laturgonlar "o'yinchi va mazxaraboz" bo'lmagay balki mushaxxis va muallimi axloqdir". Muallif shu vaqtgacha teatrga mazxarabozlik deb qaralib kelinayotgan fikrlar noo'rin ekanligini, aslida bu maskan tarbiya o'chog'i va hayotiy oyna bo'lib, bu joyga tashrif buyurgan har bir tomoshabin o'z aksini ya'ni kamchilik va xatosini ko'rib, spektakl voqealaridan ibrat olishga undashini keltirib o'tadi. Eng muhimi, Behbudiy har bir millat teatrining rivoji va taraqqiyotida teatrshunoslarning alohida o'rni borligiga ham to'xtalib o'tadi. Dastlab Samarqandda sahnalashtirilgan "Padarkush" spektaklini kelib ko'rganlar asarning kamchiliklarini, biz ahamiyat bermagan joylarini matbuot orqali tanqid qilsalar. Keng jamoatchilikning fikri albatta, spektaklning kamchiliklardan isloh bo'lishiga xizmat qiladi. Ammo bugungi kungacha muhtaram qalam ahli "Padarkush" asaridagi kamchiliklarni ko'rsatmay maqtov ohangidagi taqriz va tabriklarni e'lon qildilar. Biz ulardan minnatdormiz, ammo asarimizdagi kamchiliklarni aytgan kishilarga alohida tashakkurlarimizni bildiramiz. Zero so'ylaguvchini ayb etmaguncha, so'z tuzalmaydi" deb yozadi. Bundan ko'rinadiki, Behbudiy tanqidiy yondoshuv ijodiy jarayonning mukammal shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib beradi.

M.Behbudiy va uning izdoshlari teatr haqidagi fikrlarini bayon etish, shunday san'at turini o'z mamlakatlarida ko'rish orzusi bilangina yashamadilar. Balki, uni yaratish va hayotga joriy qilishni maqsad qilib oldilar. Bu ishning boshida turgan M.Behbudiy karvonboshi sifatida birinchi o'zbek yozma dramasi – "Padarkush" tragediyasini yaratadi. Pesa jadidlar diqqat markazida turgan jaholat va bilimsizlik, farzand – avlod tarbiyasi, vatan va xalq xizmati mavzuyini yoritadi. Asar voqeasi boyning uyida, uch-to'rt soat davomida sodir bo'lib, uning fojeasi bilan yakun topadi. Asarda mahalliy xalq orasida hali nodonlik va jaholat kabi unsur, xulq-atvor, kayfiyatlar mavjudligiga urg'u beriladi. Drama "milliy fojea" bo'lib uch parda, to'rt manzaradan iborat dastlabki o'zbek Milliy dramaturgiyasi hisoblanadi. Asar dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida, keyin 27-fevralda Toshkentda Abdulla

Avloniyning “Turon” truppasida ozrabayjon teatri rejissori Aliasqar Asqarov tomonidan sahnalashtirib, “Kolizey” binosida namoyish qilinadi.

M.Behbudiy o‘zbek teatri, uning g‘oyaviy asosi bo‘lmish milliy dramaturgiya namunasini yaratib beribgina qolmay, uni hayotga joriy etib, karvonboshilik qilgan siymo sifatida tarixga kirdi.

Mustaqillik tufayligina jadidlarimiz, Behbudiy kabi vatanparvarlarimizning orzusi ushaldi. Yurtdoshlarimizni bugungi ozod va obod Vatanda, tinch-xotirjam, osuda kunlarga etib kelishida Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi ma’rifatparvarlarimizning beqiyos hissasi borligini unutmasligimiz zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmonov M. Hamza. (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi.) Birinchi kitob (1914 – 1960 yillar). – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
2. Rahmonov M., To‘laxo‘jayeva M. T., Muxtorov I. A. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T., 2003.
3. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Tursunboyev S. Teatr tarixi. – T.: Bilim, 2005.
5. Qodirov M. Mehr va sehr. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
6. Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1998.
7. Туляходжаева М. Режиссура узбекского драматического театра. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.

Shohsanam XOSHIMOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi

“YORQINOY” DRAMASINING JADID ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasi orqali muallifning ideal ayol tushunchalari ochib berilgan. Yorqinoy obrazidagi mardlik, haqiqat va adolat uchun kurashuvchanlik xislatlari tahlil qilingan. Asarda Cho‘lpon uchun Yorqinoy tomirida To‘marislar qoni oqayotgan ayol edi. Shuningdek, maqolada asarning umumiy mazmun-mohiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yorqinoy, mard ayol, erk, adolat, haqiqat, muhabbat.*

Abstract. *The article reveals the author's ideal female concepts through Shepherd's drama "The Bright Moon". The qualities of courage, fighting for truth and justice in Yarkinay image were analyzed. In the work was a woman*

with the blood of the Tomaris flowing in the vein of Bright For Shepherd. The article also summarizes the general content of the work.
Key words: *Yarkinay, Brave Woman, Freedom, Justice, Truth, Love.*

Kirish. Jadid adabiyoti Turkistonda XX asr boshlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, bu davrda yoshlarning muayyan soha bo‘yicha yuqori malakali mutaxassis bo‘lib etishishi qiyin edi. Shuning uchun jadidlarning oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa – o‘zbeklarni yaqin kelajakda rus va Yevropaning ilg‘or xalqlariga o‘xshagan yuqori madaniyatga erishib, yaxshi hayot kechirishi uchun yangi avlodni tarbiyalab, o‘stirish bo‘lgan. Ular yoshlarni nafaqat Turkistonda, balki boshqa mamlakatlarga ham borib, eng kuchli pedagoglardan bilim olib, qaytishini maqsad qilishgan. Mana shu kabi hurfikr g‘oyalarni ilgari surgan Turkistondan etishib chiqqan jadidlarimiz orasida Abdulhamid Cho‘lpon ham bor edi.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning onasi Oysha aya o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining jonli xazinasi edi. Cho‘lpon ham ko‘plab ijodkorlar kabi so‘z san’atiga muhabbatni onasi aytgan alla va ertaklardan olgan.

Asosiy qism. Adabiyotshunos Naim Karimov “Cho‘lpon” risolasida shu xotiradan parcha keltiradi: “U Istanbuldagi panturkistlar markazidan panturkistlar va panislomistlar ta’limotini tarqatish uchun to‘xtagan bir guruh edi. U meni turli-tuman muammolar bilan birinchi marta tanishtirib, menda siyosiy va adabiy ishga qizg‘in havas uyg‘otgan. Men Qur’onni yodlashdan iborat saboqlardan so‘ng hamma narsani unutib, ko‘chaga yugurar va yangi ro‘znomalarni sotib olar edim. Ammo mudarrislik qilish o‘rniga men milliy o‘zbek yozuvchisi bo‘lishga ahd qildim…” [5. 79]. Shundan keyin u Andijondagi rus-tuzem maktabida o‘qishni davom ettirgan, dunyoviy fanlar bilan tanishgan. Cho‘lpon dramaturgiya sohasiga ham salmoqli hissa qo‘shdi. “Boy” (1914), “Xalil farang” (1917), “Yorqinoy” (1920), “Cho‘pon sevgisi”, “Cho‘rining isyoni”, “Mushtumzo‘r”, “O‘rtoq Qarshiboyev”, “Hujum”(V.Yan bilan hamkorlikda) kabi sahna asarlari yozgan, lekin ularning aksariyati bizgacha etib kelmagan. Lekin, ayrimlarining mazmun va yo‘nalishi haqida qaydlar bor. Jumladan, “Yorqinoy” dramasining 3 jildlikdagi nashri 1926-yilgi Moskva bosmasida amalga oshirilgan. Ozod Sharafiddinovning aniqlashicha, o‘zbek drama teatri repertuarida eng uzoq salkam 10 yil saqlangan asarlardan hisoblanadi. Asarning markazida Yorqinoy obrazi turadi. U xonning sarkardasi O‘lmas botirning yakka-yu yagona qizi. O‘lmas botir qizini o‘g‘ilday tarbiya qilgan, yoshligidan qilichbozlik hunarini o‘rgatgan. Qiz otasining bog‘boni Po‘latni sevadi. Po‘latning unda ham ko‘ngli bor bo‘lib, O‘lmas botir esa qizini xonning o‘g‘liga bermoqchi bo‘ladi. Bu orada esa Nishabsoy hokimi ham Yorqin uchun odam qo‘yadi. Asardagi shu vaziyatlardan boshlab, muallif asar voqealariga ijtimoiy bo‘yoq beradi. Qizning otasi bilan Po‘lat o‘rtasida o‘tib bo‘lmas choh bor edi. Po‘latning barcha qarindoshlari xon va uning sarkardasi O‘lmas botir tomonidan o‘ldirilib, o‘zi xizmatlorlikka olingan, xonlik saltanati bilan xalq o‘rtasidagi nizo avj pallaga ko‘tarilib, xalq ko‘tarilgan bir sharoitda Po‘lat xalq ishonchini Yorqinoyga muhabbatidan ustun qo‘yib, ular bilan tog‘larga chiqib ketadi va O‘lmas botir qo‘shiniga qarshi urushga kiradi. “Urush orqasida”gi voqealar ham shiddatli kechadi. Nishabsoy hokimi vaziyatdan foydalanib, makr-

hiyla bilan Po‘latning nomini o‘rtaga qo‘yib, qizni qo‘lga tushiradi. Yorqinoy tadbirkorlik bilan Nishabsoy hokimidan o‘zini qutqaradi. Bugina emas, xalq bilan xon orasidagi urushni yarashga aylantiradi. Po‘lat xon bo‘ladi, adolat qaror topadi. Xo‘sh, asar syujetidan qanday ma’no anglashiladi, muallif bu orqali nima demoqchi?

“1927-yildan juda ko‘p ayollar maktablarda o‘qish, jamoat ishlarida qatnashish, fabrikalarda ishlash uchun paranji tashlashadi. Bu, ayniqsa, dindor qatlamga yoqmaydi. Aholini, xususan, xotin-qizlarni qo‘rqitish uchun Tursunoy, Nurxon kabi sahnaga chiqqanlar o‘ldiriladi. Masalan, Nurxonni o‘z akasi 36 joyiga pichoq urib o‘ldirgan” [3. 103]. Bu kabi holatlarga jadidlar sabab bo‘lyapti, deb ularni qoralashgan. Xalqda jadidlarga nisbatan nafrat shakllangan. Muallif asarning bosh qahramoni Yorqinoy obrazi orqali xalqni, xususan, ayollarni jamiyatdagi zulmlardan qutqarish, ularga qarshi kurash kabi g‘oyalarni ilgari suradi, mustaqillikka da'vat etadi. Yorqinoy obrazi ko‘pgina o‘zbek eposlarida uchraganiday erk yo‘lida kerak bo‘lsa erkaklar bilan tenglasha oladigan matonatli ayol sifatida tasvirlangan.

Asardagi asosiy qahramonlardan yana biri Po‘latdir. Po‘lat yo burch, yo sevgi deganda, ikkilanmay burchni tanlaydigan qahramon. Unda ona yurtga, vatanga bo‘lgan muhabbat kuchli. U Yorqinoyni sevadi, lekin uning uchun burchi ustun. Xalqi uchun, uning mustaqilligi uchun kurashadi.

O‘lmas Botir ismli sarkardaning qarorgohida bog‘bonlik qilgan Po‘lat bilan

uning yakka-yu yagona qizi Yorqinoy o‘rtasida muhabbat shabadasi esa boshlaydi.

Po‘lat bu uyning oddiy xizmatkori, Yorqinoy esa xonzodalarga mos qayliq bo‘lgani uchun bog‘bon yigit o‘z sevgisining baxtli natija bilan tugashi mumkinligiga ishonmay O‘lmas Botir xonadonidan ketmoqchi bo‘ladi. Shu payt Po‘latni Yorqinoy bilan tanholikda uchratib qolgan Botir uni benomuslikda, ko‘rnamaklikda ayblaydi. Yorqinoyni ham or-nomusni unutib, faqir bir xizmatkor bilan uchrashgani uchun o‘ldirishga tayyor ekanligini aytadi. Yorqinoy esa haq yo‘lida o‘limga ham tayyor.

O‘lmas Botir va unga o‘xshash kimsalar uchun haq ikki xil bo‘lgan: o‘zlari uchun va o‘zgalar uchun. O‘zlari uchun mavjud bo‘lgan haq uni o‘zining yolg‘iz qizini jazolashga imkon bermaydi, lekin o‘zgalar uchun haq tushunchasi uni shu lahzaning o‘zida Po‘latni qatl etish uchun yo‘l ochadi. Ana shunday e’tiqod bilan yashagan O‘lmas Botirning halol inson emas, balki zolim va qonxo‘r sarkarda ekanligi ma’lum bo‘ladi. U bilan ilk bor to‘qnashgan va yuzma-yuz olishishga majbur bo‘lgan Po‘lat o‘zining va otasining kim ekanligini undan so‘rab bilmoqchi, o‘z ajdodlarining taqdiri to‘g‘risida xabar topmoqchi bo‘ladi. Lekin kutilmaganda bu narsa O‘lmas Botirning eng dahshatli siri ekanligi oshkor bo‘lib qoladi.

Agar biz Cho‘lpon ijodi va ijtimoy faoliyatining negiz-negiziga nazar tashlasak, uning uchun faqat bir sajdagoh bor ekanligini ko‘ramiz. Bu xalqdir. Xalq qayerda bo‘lsa, haq ham o‘sha erda bo‘ladi. Shuning uchun ham Cho‘lpon otasi orzu qilgan mudarrislik kasbini tanlamay, o‘zini xalq baxt-saodati yo‘lida mashaqqat va azoblar bilan to‘la kurashga bag‘ishlagan edi. Yorqinoyning ham

“hunari go‘rkovnikidan ham yomon” otasidan voz kechib, Po‘lat sarkardasi bo‘lgan xalq bag‘riga otilishida Cho‘lpon tushungan hayot ma’nosi yotadi.

Yorqinoy Po‘latga ruhan yaqin bo‘lgani, uni nafaqat or-nomusli, irodali yigit,

balki haqiqat yo‘lida kurashga tayyor bo‘lgani uchun ham sevadi. Yorqinoy otasining qonli ishlaridan xabardor bo‘lgach, undan voz kechib, Po‘lat olib borgan

kurashga qo‘shiladiki, biz uning vujudida To‘marisning qoni jo‘sh urib turganiga ishonch hosil qilamiz.

Po‘lat o‘z do‘stlari – qashshoq xalq vakillari bilan birga hamda yoshlikdan jangovarlik an’analari asosida tarbiya ko‘rgan Yorqinoy yordamida xon qo‘shinlarini engib, saltanat tepasiga keladi. Ammo Yorqinoy uchun toj-u taxt emas, uni sevuvchi, unga butun hayotini bag‘ishlovchi Po‘lat kerak edi. U Po‘latning saltanat ishlaridan ortgan daqiqalarinigina huzurida, yana horigan holda o‘tkazayotganini ko‘rib g‘azablanadi, toj-u taxtdan ham nafratlanib ketadi. Shunda

Po‘lat Yorqinoyga bunday javob beradi: “Toj-u taxt. toju taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor. uni o‘ylash kerak. uning g‘amini eyish kerak”. Bu alangali so‘zlar asarda tasvirlangan voqealardan kelib chiquvchi mantiqiy xulosadir. Ko‘ramizki, Cho‘lpon ushbu asarida xalq – qahramonlik dostonlari an’analaridan istifoda etgan holda zamonaviy muhim g‘oya bilan sug‘orilgan asarni yaratgan.

“O‘z davrida ulkan muvaffaqiyat qozongan ushbu drama ilk bor Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnalshtirilib, 1920-yilning 24-noyabr kuni tomoshabinlarga taqdim etilgan. “Yorqinoy” dramasini ikkinchi marta tataristonlik taniqli rejissiyor Kamol 1926-yil sahnalashtirdi. Uchinchi marta bu spektaklga yana Mannon Uyg‘ur murojaat qildi va 1927-yili sahnalashtirdi. Bu safar Yorqinoy rolini Moskvada tahsil olib qaytgan taniqli aktrisa Zamiraxonim Xidoyatova ijro etdi” [4. 124].

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy ta’kidlaganidek, “Teatr – bu ibratxonadir”. Jadidlarimiz tomonidan yaratilgan ko‘plab sahna asarlari, jumladan, “Yorqinoy” dramasida ko‘tarilgan erk, adolat, mardlik, haqiqat kabi masalalar doimo dolzarbdir. “Yorqinoy” ishq-muhabbatni bir afsona tarzida bayon etuvchi romantik ertak emas, Umumbashariy muammolar haqida baxs yurutuvchi, erk, muhabbat, adolat mardlik va nomus masalalaridan naql qiluvchi, kopgina goyalari bugungi kunda ham qiymatini yoqotmagan ijtimoiy-falsafiy drama darajasiga ko‘tarilgan asar. Cho‘lponning folklor syujetga xos bo‘lgan “Yorqinoy” dramasi xalqni jamiyatda o‘z o‘rniga, huquqlariga ega bo‘lishga, o‘z orzu-istaklarini amalga oshirishga undovchi nodir asardir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Cho‘lpon – Asarlar. Uch jildlik. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot Toshkent I, II jildlar. 1994-1995.

2. Cho‘lpon – yana oldim sozimni. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.

3. Karimov N. Cho‘lpon. – T.: Fan, 1991.

4. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. –T.: Ma’naviyat, 2004.

5. Karimov N. Cho‘lpon va uning badiiy olami. –T.: Ma’naviyat, 1994.

Maftuna JALOLOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1- bosqich talabasi
JDPU

SAID AHMAD ASARLARIDA MILLIY UYG‘ONISH VA JAJADCHILIK G‘OYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Said Ahmadning hayoti va asarlaridagi jadidchilik an’analari yoritiladi. Jadid adabiyotining asosiy g‘oyalari – ma’rifatparvarlik, xalqparvarlik, tanqidiy tafakkur va milliy uyg‘onish Said Ahmad ijodida qanday davom etgani tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik harakati, o‘zbek adabiyoti, realizm, xalqparvarlik, ma’rifatparvarlik, tanqidiy tafakkur, mustaqillik davrida yaratilgan asarlar,hikoyanavislik.*

Abstract. *This article examines the Jadid traditions in the life and works of Said Ahmad, one of the great representatives of Uzbek literature. It analyzes how the main ideas of Jadid literature — enlightenment, nationalism, critical thinking, and national awakening — were continued in Said Ahmad's work.*

Key words: *Jadid movement, Uzbek literature, realism, nationalism, enlightenment, critical thinking, works created during the period of independence, storytelling.*

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati o‘zbek jamiyatining uyg‘onish bosqichi sifatida tarixda muhim o‘rin tutadi. Jadidlar zamonaviy bilimlarni yoyish, millatni ma’rifatga etaklash, adabiyot orqali ongni o‘zgartirish g‘oyasini ilgari surgan edilar . Ushbu harakat ta’siri faqat XX asr boshidagina emas, balki keyingi davrlarda ijod qilgan ziyolilar faoliyatida ham davom etdi. Shunday adiblar sirasiga Said Ahmadni kiritish mumkin. U o‘z asarlarida jadidchilikka xos xalqparvarlik, ijtimoiy tanqid, ma’naviy uyg‘onish va millat taqdiri kabi masalalarni ko‘tarib chiqqan ijodkordir

Said Ahmad 1920-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. U o‘zbek adabiyotiga jurnalist, dramaturg, nasriy adib sifatida xizmat qilgan. Yozuvchining hayotida jadid adiblarining ta’siri katta bo‘lgan: u Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat ijodini chuqur o‘rganadi. Jumladan, u o‘z xotiralarida shunday yozadi: "Jadidlarning ma’rifat va adolat yo‘lidagi kurashi menga kuch, ilhom bergan. Adabiyotning eng oliy vazifasi — xalq qalbini uyg‘otish ekanini men ulardan o‘rgandim"

Said Ahmad hikoyanavis sifatida tanilgan. Uning „Cho‘l burguti“, „Lochin“, „Bo‘ston“, „To‘yboshi“, „Jimjitlik“, „Turnalar“, „Hayqiriq“, „Alla“, „Muhabbatning tug‘ilishi“, „Qorako‘z Majnun“ singari o‘nlab hikoyalarida sadoqat, mehr, odamgarchilik, ishonch, e’tiqod singari ma’naviy qadriyatlar ta’sirchan aks ettirilgan. Adib hikoyalarida inson ruhiyati tovlanishlarini ko‘rsatishga katta e’tibor berganligi uchun ham bitganlari zavq bilan o‘qiladi va u prozaning shoiri hisoblanadi. Yozuvchi hajviy hikoyalar yaratish bo‘yicha Qahhor an’analarini

davom ettirgan ijodkordir. Uning „Sobiq“, „Qoplon“, „O‘rik domla“, „Mening do‘stim Babbaev“, „Muzey“, „Bo‘ri ovi“, „Xandon pista“ kabi ko‘plab hajviyalarida inson tabiatidagi qusurlar badiiy tatqiq etiladi. Said Ahmad hajviy so‘z jilolarini nozik payqaydi va undan mohirona foydalanadi.Said Ahmadning birinchi hikoyalar to‘plami "Tortiq" (1940), "Er yurak" (1942), "Farg‘ona hikoyalari" (1948), "Cho‘l burguti" (1960), "Cho‘l oqshomlari", "Odam va bo‘ron" to‘plamlariga kirgan hikoyalarida zamondoshlarining murakkab taqdiri, ruhiy kechinmalari ehtiros bilan aks ettirilgan. Qirq besh kun“, „Hijron kunlari“ (1964), „Ufq bo‘sag‘asida“ (1969) romanlaridan iborat „Ufq“ trilogiyasi, inson qismati turg‘unlik davri qabohatlari fonida tasvirlangan.

Roman adib ijodida alohida o‘rin tutadi."Ufq” trilogiyasi o‘zbek xalqining XX asr boshidagi murakkab tarixiy bosqichlarini badiiy tahlil qilgan yirik asardir. Asarda xalqning ichki uyg‘onishi, zamon bilan yuzma-yuz turishi aks etadi. Bu jihatlari bilan trilogiya jadidlarning tarixni, o‘zligini anglashga qaratilgan g‘oyaviy yo‘nalishiga juda yaqin. Tadqiqotchi T. Alimova bu trilogiya haqida shunday yozadi: "Said Ahmad “Ufq” orqali o‘z xalqining ichki uyg‘onishini, ongli harakatga intilishini, tarixni bilish orqaligina kelajak qurilishi mumkinligini jadidona uslubda ko‘rsatdi"

„Ufq“ romani XX asr millat hayotining o‘n yillik davri – Ikkinchi jahon urushi, urush va urushdan keyingi yillar voqealarini o‘z ichiga oladi. Trilogiyada o‘sha yillari xalq boshiga tushgan musibatlar, odamlar ko‘ksidagi armonlar, shu musibatlarni engishga qodir mislsiz matonat va shijoatlar yozuvchi iste’dodiga xos ehtiros, o‘ziga hos ilhom bilan aks ettirilgan. Asarda Ikromjon, Jannat, Azizxon, Dildor, Asrora kabi teran, xalqchil, yorqin milliy obrazlar yaratilgan.

“Jimjitlik” (1988) romanida sirtdan tinch, sokin ko‘ringan sho‘ro davrining ichki dramalari, tuzum inqirozi butun keskinligi, shiddati bilan ko‘rsatilgan. Asardagi deyarli barcha etakchi personajlar fojiyaviy qismat egalaridir. “Jimjitlik” axloqiy tanqid va ijtimoiy befarqlikka qarshi pozitsiya. Bu asarda yozuvchi befarqlik, loqaydlik, riyo, ichki jimlik va axloqiy inqirozni ochib tashlaydi. Jadid adiblari jamiyatdagi illatlarni tanqid qilish orqali ma’rifiy uyg‘onish g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa, Said Ahmad “Jimjitlik”da ayni g‘oyani zamonaviy vositalar orqali ifodalaydi. "Jimjitlik aslida jamiyatdagi ruhiy qurg‘oqlikdir. Bunday holatni adabiyot tashxis qo‘yib, tuzatishga harakat qilishi kerak", — deb yozadi adib o‘zining "Tanlangan asarlar"ida.

Said Ahmad istiqlol yillarida ham hayotdagi o‘zgarishlar haqida ko‘plab maqola, badialar yozdi, avvalgidek quvnoq yumoristik, jo‘shqin lirik hikoyalar yaratdi. "Xandon pista" (1994), "Bir o‘pichning bahosi" (1995) hajviy to‘plamlari, "Yo‘qotganlarim va topganlarim" (1998), "Qorako‘z majnun" (2001), "Kiprikda qolgan tong" (2003) kitoblari, 3 jildli „Tanlangan asarlari“ (2000) chop etildi. „Yo‘qotganlarim va topganlarim“da G‘afur G‘ulom, Oybek, Mirtemir, Shayxzoda, Saida Zunnunova va boshqa bir qator zabardast o‘zbek yozuvchi va shoirlarining jonli qiyofasini badiiy bo‘yoqlarda ifodalab berdi. Istiqlol tufayli odamlar qismati va ruhiyatidagi emirilishlar haqida bahs qiluvchi "Qorako‘z majnun", "Ot bilan suhbat", "Azroil o‘tgan yo‘llarda" hikoyalari, qatag‘on davri xotiralari bilan bog‘liq. "Borsa kelmas darvozasi", "Taqdir, taqdir...", "Oftoboyim" hikoyalari, adibning o‘zi

yaqindan muloqotda bo‘lgan ustoz adiblar, tengdoshlari, shogirdlari va nihoyat, o‘z hayot va ijod yo‘li haqidagi xotira esselari mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida muhim hodisa bo‘ldi.

Shunday betakror asarlardan biri "Qorako‘z Majnun" hikoyasiga to‘xtalib o‘tamiz. O‘zbek onasi har qanday holatda farzandini o‘ylaydi. Nafaqat o‘zbek onasi, balki dunyodagi jamiki onalar shunday yaratilgan. O‘zbek onasi uchun iymon-e’tiqod, o‘z ona tili va vatani muhim. Agarda bolasi o‘z e’tiqodidan kechib, o‘z tili-yu vatanini unutsa, bunday farzandni o‘lgan sanab, shu kundan aza tutadi. Hikoyada Bo‘rixon o‘zga dindagi qizga uylanib, ham e’tiqodidan ham oilasidan kechadi. Hattoki o‘z tilini, vatanini hamda oilasini unutadi. Bo‘rixon tirik qolgan bo‘lsa-da, aslida o‘lib bo‘lgan edi. Mening fikrimcha, Saodat aya Bo‘rixonning o‘zga dinga o‘tishi-yu bola-chaqali bo‘lishini eshitmasdan, balki baxtsiz hodisa tufayli o‘lganini eshitganda bunday tushkunlikka tushmasdi. Saodat ayaga o‘z farzandidan ko‘ra Qorako‘z ko‘p qayg‘urdi. Saodat ayani bir zum ham yolg‘iz qoldirmadi. Har doim birga bo‘ldi. Hattoki kasalxonada yotganida o‘z farzandlari onda-sonda esga olishgan bo‘lsa-da, Qorako‘z bir oy kasalxonada uni kutib yotdi. Farzandning onaga bir kuchukchalik mehr berolmasligi ayanchli hodisa. Yozuvchi it obrazi orqali ona va o‘g‘il munosabatlarini, mehr-oqibat tuyg‘usining 70-yillar tuzumi tufayli yo‘qolib borganini, oxir oqibat, Bo‘rixon singari minglab o‘zbek yigitlari ana shu tuzum qurboniga aylanganligini badiiy voqelik asosida ifodalagan.

Ma’lumki, xalqimiz uchun islom dini, ona vatan tuyg‘usi, ona tilimiz milliy qadriyat hisoblanadi. Xalqimizda agar biror bir farzand o‘z dinidan kechsa, o‘z tilini unutsa unga o‘zligini yo‘qotgan deb qarashadi. Bu esa ma’naviy jihatdan manqurtga aylanadi. Lekin u yashayveradi. Aslida insonning o‘zligini yo‘qotishi haqiqiy fojiadir. Xulosa sifatida aytish mumkinki, adib "Qorako‘z Majnun" hikoyasi orqali 70-yillar tuzumi oqibatlarining xalqimiz taqdiriga ta’siri, ana shu davrdagi siyosiy-ijtimoiy muammolar, Bo‘rixon singari minglab o‘zbek yigitlarining davr qurboniga aylanganligi o‘ziga xos tarzda tasvirlangan.

Said Ahmad o‘z asarlari orqali xalqga xizmat qilgan, uning dardi, tashvishi, orzu-umidini aks ettirgan yozuvchidir. Bu jihatdan u faqat badiiy obrazlar emas, balki ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi g‘oyalarni ilgari surgan. Aynan mana shu pozitsiyasi uni jadidlar qatoriga qo‘yadi. “U o‘zbek xalqining kechasi va ertasi haqida o‘ylab ijod qilgan. Uning asarlarida jadidlikning ruhiy barq urishi bevosita seziladi”, – deb yozadi filolog olima D. Jo‘rayeva. Said Ahmad o‘zbek adabiyotida jadidchilik ruhining so‘nmagan nigohi, davomchisi va zamonaviy timsolidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Said Ahmad. Ufq. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1980.
2. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 5-jild. Toshkent: Sharq, 2002.
3. Karimov A. Jadidchilik tarixidan saboqlar. Toshkent: Akademnashr, 2011.
4. Abdullayeva N. O‘zbek adabiyotida jadidlik an’analari. Toshkent: Fan, 2016.
5. Alimova T. O‘zbek nasrida tarix va zamon. Toshkent: Fan, 2004.
6. Ergashova M. O‘zbek adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: O‘zbekiston, 2009.

7. Jo‘rayeva D. Said Ahmad adabiy merosida ma’naviyat va milliy uyg‘onish dissertasiyasi . Toshkent, 2010.

Sevinch ORTIQOVA,
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteteti,2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: ***A.U. Muydinova,***
ChDPU

ABDULLA AVLONIYNING "BIRINCHI MUALLIM" ASARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” asarining ta’limiy va tarbiyaviy jihatlari tahlil etiladi. Asarda ilgari surilgan ilm-fan, vatanparvarlik, axloqiy poklik kabi g‘oyalar tahlil qilinadi. Asardan namunalar keltirilib, har bir fikr asoslanadi. Shuningdek, maqolada Avloniyning ma’rifatparvarlik qarashlarining bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmaganligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Avloniy, Birinchi muallim, ta’lim, tarbiya, ma’rifat, milliy uyg‘onish.*

Abstract. *This article analyzes the educational and upbringing aspects of Abdulla Avloni's work "The First Teacher". The ideas put forward in the work, such as science, patriotism, and moral purity, are analyzed. Examples are given from the work and each idea is substantiated. The article also highlights the fact that Avloni's enlightened views have not lost their relevance even today.*

Key words: *Abdulla Avloni, First Teacher, education, upbringing, enlightenment, national awakening.*

XXasr boshlarida O ‘rta Osiyo xalqlar hayotida ma’naviy-ma’rifiy uyg ‘onish davri boshlandi. Bu davrda xalqni jaholatdan, savodsizlikdan qutqarish, ilm-fan sari etaklash harakati o‘z ifodasini adabiyotda ham topdi. O ‘zbek adabiyotida o‘zining boy ma’naviy-ma’rifiy merosi bilan alohida o‘rin tutgan Abdulla Avloniy ana shunday zamon farzandi bo‘lib, o‘z asarlari orqali xalqning ma’rifatlanishi uchun fidoyilarcha kurashdi. Uning “Birinchi Muallim” asari ham o‘zbek adabiyoti va ma’rifatparvarlik tarixida muhim o‘rin egallaydi. Asar zamonasining dolzarb muammolarini ochib berib, ta’lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida chuqur mulohaza yuritadi. "Birinchi muallim" hikoyasi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-ma’rifiy muhitni tasvirlaydi. "Birinchi muallim" kitobi o‘z ichiga bolalar uchun mo‘ljallangan axloqiy hikoyalar, o‘gitlar va ta’limiy g‘oyalarni oladi. Asardagi hikoyalar orqali bolalarga halollik, mehnatsevarlik, sabr-qanoat, rostgo‘ylik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar singdiriladi. Har bir hikoyada ma’rifat va axloqiy tarbiyaning muhimligini ko‘rsatishga intilish seziladi. Asarning ta'limiy ahamiyati:

1. Ilm va ma’rifatning zarurligi;

Avloniy ilm olishni inson kamolotining asosiy omili sifatida ko‘rsatadi. Yozuvchi ilm-fan insonni haqiqiy baxtga etaklovchi kuch ekanini ta’kidlaydi. Boisi, ilmli inson axloqli, to‘g‘ri so‘zli vax ush fe’lli bo‘ladi va bunday insonning ishlari doimo ko‘zlaganidek bo‘lib, atrofida ma’naiyatli- ma’rifatli insonlar jamlanadi. Birinchi muallimda ilm va maktabning ahamiyati haqida shunday deyiladi: "Dunyoda eng baxtli bolalar o‘qumak, yozmakni bilgan bolalardir.".

2. Savodsizlikka qarshi kurash;

Asarda savodsizlik jamiyat taraqqiyotining dushmani sifatida ko‘rsatiladi. Hikoyalarda bolalar bilim olishga undaladi, qoloqlik va johillik qoralangan:

"Bolalarning ko‘zi ochilmas ekan, bu millat bosh ko‘tarmas.".

Bu fikr orqali Avloniy xalqni o‘z farzandlarini maktabga yuborishga da’vat etadi. Zero xalq ilm o‘rganib savod, chiqarar ekan, jamiyat hayotida bo‘lyotgan ishlarni, vaziyatni ko‘ra oldiva uni tahlil etadi. ko‘r-ko‘rona kimgadir ergashib ketmasdan o‘z taqdiri uchun harakat qiladi. Bu harakat esa jamiyat rivojlanishi va siljishi uchun ham bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Asarning tarbiyaviy ahamiyati:

1. Vatanparvarlik va milliy iftixor.

Asarda bolalarda vatan sevgisi, xalq uchun xizmat qilish ruhini shakllantirish ustuvor o‘rin tutadi. "Vatan" bo‘limida quyidagicha deyilgan: "Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur, sening darding boshqa dardni tortib olur.".

Bu satrlar vatan tuyg‘usining inson qalbidagi oliy o‘rni haqida hikoya qiladi. Zero o‘z vatanini sevgan, uni qadrlagan inson vatan taqdirini o‘z taqdiri bilan bog‘lab ko‘radi, o‘zini uning taqdiriga daxldor sanaydi. Yurtida, o‘lkasida bo‘lyotgan “o‘zgarishlar”ga shunchaki chetdan tomoshabin bo‘lib o‘tirish uchun esa ilmdan ma’naviyatdan yiroq inson bo‘lishi darkor.

2. Axloqiy qadriyatlar.

"Birinchi muallim"dagi hikoyalar orqali Avloniy bolalarni nafaqat ilmu-marifatga chorlaydi balki, ularda isnsoniy qadriyatlar shakllantirishni ham ko‘zda tutadi. Yosh avlodni rostgo‘ylik, adolatparvarlik va mehr-shafqat kabi yuksak axloqiy fazilatlarga chaqiradi. Masalan, "Yomonliq jazosi" hikoyasida noto‘g‘ri yo‘lga kirgan bolaning fojiaviy qismati tasvirlanadi:

"Ey bolalar! Ko‘rdingizmi, yomonning yomonligi o‘z boshiga etdi.".

Bu orqali bolalarda yomon odatlardan tiyilishga da’vat kuchaytiriladi. Har narsaning, zero, yaxshilikning javobi bo‘lgandek, yomonlik ham javobsiz qolmasligini ko‘rsatib beradi.

3. Qanoat va saxovat

Asarda qanoat va saxiylik fazilatlari alohida ta’kidlanadi. Inson har narsada sabr-u toqatli bo‘lishi lozimligi eslatiladi va "Qanoat" hikoyasida Ali va Vali misolida qanoatli insonning baxtga erishishi ko‘rsatiladi:

"Qanoat birla qorun to‘ydirursiz, qanoat bo‘lmasa ko‘p och qolursiz.".

Saxiylik esa "Saxiylik" hikoyasida Said obrazi orqali aks etib, yuqori qadrlanadi, ochlarga yordam ko‘rsatishning savobi yoritiladi.

Asardan namunalar asosida baholash

Avloniy hikoyalari oson, sodda va ta'sirchan tilda yozilgan bo'lib, yosh bolalar ongiga chuqur singdiriladigan tarbiyaviy g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Hikoyalarning oxiridagi xulosalar esa bolalarni mustahkam ma'naviy poydevorga tayantirishga xizmat qiladi:

"Yaxshilik qilsang, bo'lur joning omon, yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.".

Bunday ta'limotlar yosh avlodni barkamol inson etib etishtirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, Abdulla Avloniy o'zining "Birinchi muallim" asari orqali o'z davrining dolzarb muammolariga dadil murojaat qildi. asari o'z zamonasida xalqni ilmga chaqirgan, bolalarni bilim va ma'rifatga etaklagan bebaho ma'rifiy asardir. U ilm-fan, axloqiy tarbiya va vatanparvarlikni jamiyatning poydevori sifatida ilgari surdi. Asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, ta'lim va tarbiya sohasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ilm, ma'rifat insoniy xislatlar va vatanparvarlik g'oyalarini singdirgan bu asar, yosh avlodni barkamol inson bo'lib etishishiga katta hissa qo'shadi. Avloniy merosi har bir zamon uchun ham ma'rifat manbai va tarbiya maktabidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Avloniy. Birinchi muallim. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. .

2. Qodirov, Sh. "Ma'rifatparvarlik va uning o'zbek adabiyotidagi ifodasi." Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.

3. Qosimov, B. "Abdulla Avloniy hayoti va ijodi." Toshkent: Fan nashriyoti, 2008.

4. Sharifxo'jayev, M. "XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti". Toshkent: Fan, 1996.

Navbahor HAMITOVA,
O'zDSMI Kutubxona axborot
faoliyati yo'nalishi 3-bosqich talabasi

XX ASR O'ZBEK SHE'RIYATINING YO'LCHI YULDUZI: CHO'LPON VA UNING ADABIY MEROSI

Anotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning hayoti, adabiy faoliyati va milliy uyg'onishdagi o'rni yoritilgan. Cho'lponning jadidchilik harakati etakchilaridan biri sifatida tutgan o'rni, adabiy shakllanishi, oila muhitining unga ta'siri hamda zamonaviy madaniy va siyosiy jarayonlarga munosabati asosli dalillar bilan tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Cho'lpon ,Jadidchilik, Milliy uyg'onish, Vatan, Millat, Istiqlol, Erkinlik, O'zbek she'riyati, Adabiy islohot, Fitrat, Munavvar qori, Oybek, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon.*

Anotation. *This scientific article covers the life, literary work and role in the national awakening of Chulpan, the son of Abdulhamid Sulaiman, one of the major figures of Uzbek literature. Chulpan's role as one of the leaders of the jadidism movement, his literary formation, the influence of the family environment on it and his attitude to modern cultural and political processes are analyzed with reasonable evidence.*

Key words: *Chulpan, Jadidism, national awakening, Homeland, nation, Independence, Freedom, Uzbek poetry, literary reform, Fitrat, Munavvar qori, Oybek, Rauf Parfi, Shavkat Rahman.*

Cho‘lpon jadidchilik harakati etakchilaridan biri bo‘lgan edi. U 1917-yilgacha “Tarjimon” gazetasi bilan muntazam aloqada bo‘ldi. Bulardan tashqari u “Shalola”, “Turk yurdi”, “Shahbal”, “Tarjimon”, “Vaqt”, “Iqbol”, singari nashrlarni doimiy mutolaa qildi.

Cho‘lponning otasi Sulaymon bazzoz bozordagi narx-navoni bilish uchun gazetalarga ehtiyoj sezardi. Shundan ko‘rinadiki, jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va yangi g‘oyalarni Turkistonga kirib kelishida mahalliy savdo ahlining xizmatlari katta bo‘ldi.

Cho‘lpon 1912-yili Zaki Validiyning Qozonda nashr qilingan “Turk va teatr ta’rixi” kitobini o‘qib u bilan yaqinroqdan tanishish xohishini bildirgan. Taklifdan foydalanib Validiy Andijonga kelib Cho‘lponning otasi bilan tanishadi. Sulaymon bazzoz o‘zbek va fors adabiyotidan yaxshi xabardor bo‘lganligi uchun Rasvo , Volai Rasvo taxalluslari bilan hajviy g‘azallar yozgan, andijonlik shoir, xonanda va sozandalar bilan aloqada bo‘lgan.

Cho‘lponni ijodkor sifatida shakllanishida nafaqat otasi, balki “totli va boy tili bilan” ertaklar aytib bergan onasi Foiqa aya ham muhim rol o‘ynadi. XX asr boshlarida Volga bo‘yidan Turkistonga kelib, Andijonga o‘rganib qolgan tatarlar bilan Cho‘lpon muloqot qilib, ularning madaniyatidan bahramand bo‘lgan. Cho‘lpon rus yozuvchisi V.Yan bilan suhbatda ikki turk yigiti bilan bo‘lgan suhbatini eslagan va ulardan ko‘p fikr eshitgan.

Cho‘lponning otasi yakkayu-yagona o‘g‘li mudarris bo‘lishini xohlagan, lekin u ikki turk afandi ta’siri ostida Toshkentga ketib qolgan va Munavvar qori rahbarligidagi Toshkent jadidlari muhitidan o‘z o‘rnini egallagan.

Cho‘lpon 1917-yil inqilobi arafasida ona yurtiga qaytib borganda Andijondagi adabiy muhit o‘z rahbariga ega emas edi. Cho‘lpon o‘zining yorqin iste’dodini, boy zamonaviy bilimi va adabiyot sohasidagi faol harakati bilan o‘sha muhitning rahbari bo‘lib qoldi.

Cho‘lponning buyukligi shundaki, u XX asr o‘zbek adabiyotini yangi bir pog‘onaga ko‘tardi, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaq topishiga ulkan hissa qo‘shdi. Boshqacha aytganda, xalqimizda ozodlik, hurriyat kelajjakga ishonch tuyg‘ularini uyg‘otdi.

Cho‘lponning 1917-1923 yillardagi hayoti nihoyatda siyosiy voqealarga boy bo‘ldi. Bu voqealar, tabiiyki, shoir tabiatli Cho‘lponga juda qattiq ta’sir qildi. Ana shu murakkab sharoitda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga harakat qildi.

1921-yilning Navro‘z kuni Cho‘lpon Toshkentda qutlug‘ ayyomni qarshi olib do‘stlari bilan suhbat quradi. Suhbat chog‘ida kimlar qatnashgani noma’lum. Lekin shu narsa aniqki, suhbat mavzusi milliy istiqlol uchun kurash masalasiga borib taqaldi, kimdir bu kurash natija berishga shubha bildiradi va sovetlar bilan hamkorlik qilishini taklif, etadi. Chamasi gurungda qatnashayotganlarning aksariyati bu fikrga qo‘shiladi. Faqat Cho‘lponga bu fikr yoqmaydi.

Cho‘lpon 1933-yili rus yozuvchisi V.Yan bilan suhbatida Fitratni o‘zbek she’r tuzilishining islohotchisi, deb aytgan. “Islohotchi” deganda, uning arabiy-forsiy shakl va qoliplaridan voz kechib, jonli xalq tili bilan xalq she’riyati vaznlarida yoza boshlaganini nazarda tutgan. Uning o‘zi Fitrat boshlagan ana shu islohotni muvaffaqiyat bilan davom ettirdi va yakunlab, o‘zbek she’riyati taraqqiyoti tarixida yangi davrni boshlab bergan. Hozir bu davr XX asr o‘zbek adabiyoti deb atalmoqda.

Cho‘lpon nomi bilan bevosita bog‘liq bu o‘zgarishlar nimadan iborat, degan savol tug‘iladi. Uning she’riyatimiz ravnaqiga qo‘shgan hissasi nimada ko‘rinadi? Bu savollarga javob berish uchun Cho‘lpon “bir xil, bir xil, bir” , deb ta’riflangan adabiyotga nazar tashlash joiz.

Cho‘lponning she’riy merosi uncha katta emas. “Uyg‘onish” (1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” (1926) va “Soz” (1935) singari to‘plamlarida nashr etilgan she’rlarini hisobga olganda 300 taga etadi.

Bu she’rlarning hammasida bir xilda baland saviyada emas. Ana shu sanoqdagi she’rlarning uchdan bir qismigina yuqori badiiy qimmatga ega. Uning XX asr o‘zbek she’riyati ravnaqiga turtki bergan shu she’rlarida Cho‘lpon favqulodda buyuk she’riy iste’dodini to‘la namoyish etdi.

20-yillarda Cho‘lpon she’riyati tufayli xalqning bir qismida Vatan, Millat, Hurriyat, Istiqlol va Milliy taraqqiyot tushunchalar paydo bo‘ldi. Uning she’rlari shu davrda ham, keyin ham katta ijtimoiy maqsadga xizmat qildi. Boshqacha aytganda, uni she’riyati xalqqa, uning hayotiga, qalbiga, iztiroblari, azoblari, orzu va umidlaridan iborat ruhiy olamiga yaqinlashtirgan. Bu Cho‘lpon she’riyatiga xos bo‘lgan birinchi xususiyatdir. Ikkinchi xususiyat shundaki, u nozik qalb va nozik ta’b shoir sifatida tuyg‘uning, hissiyotning she’riy asardagi kuchini benihoya oshirdi. Nihoyat, uchinchi xususiyat shuki, Cho‘lpon o‘zbek she’riyatida yangi vaznning mustahkam o‘rin olishiga, uning yangi janr va shakllar bilan boyishiga, uning tilini soflash, soddalashtirish va yorqinlashtirish ishiga katta hissa qo‘shdi.

Cho‘lpon she’riyatiga xos bo‘lgan ana shu tamoyillar boshqa shoirlarimiz tomonidan turli tarixiy-madaniy davrda davom ettirildi.

Cho‘lponning XX asr o‘zbek she’riyatiga ta’siri ikki xil ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Birinchisi Cho‘lponning hayotlik paytidagi ta’siri. U 20-yillar adabiy jarayoniga juda katta ta’sir qildi. Ayniqsa, Oybek adabiyot olamiga Cho‘lponning sodiq izdoshi sifatida kirib keldi. Uning 20-yillardagi ko‘pgina she’rlarida Cho‘lponning “hid”I ufurib turadi.

Cho‘lponning lirik qahramoni, asosan, jamiyat farzandi sifatida gavdalangan bo‘lsa, Oybekning lirik qahramoni tabiat farzandi sifatida namoyon bo‘ladi. Cho‘lponga nisbatan bir oz erkin yashagan. Oybek ko‘zlariga panjara ko‘rinmaydi. Shuning uchun ham u va uning lirik qahramoni tabiat manzaralaridan voqelikdagi go‘zallikdan bahra oladi. Uning uchun eng katta baxt – shu go‘zallikni butun

farzandi, deb his etish. Cho‘lpon uchun esa eng katta baxt erkinlik, ruhning hurligidir. Cho‘lpon va Oybek lirikasi o‘rtasida shunday nozik farq bo‘lishiga qaramay, Oybekdagi go‘zallik tuyg‘usining “ildizlari” Cho‘lpon lirikasiga borib taqaladi.

Oybek Cho‘lponlar, Abdulla Qodiriylar “xalq dushmani” deb e’lon qilingan va ularning asarlarini hatto o‘qish jinoyat hisoblangan uzoq yillar davomida ham she’riyatda, ham nasrda Cho‘lpon bilan yosh adabiy avlodlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajardi.

Hozirgi paytda o‘zbek she’riyati o‘z ta’rixining yangi davrga qadam qo‘ydi. Istiqlol davri she’riyatiga xos muhim xususiyatlardan biri shundaki, milliy ranglarga ega bo‘lish va milliy qadriyatlarni sharaflash bilan birga milliy haqiqatni kashf etish, inson qalbini yaqindan his qilish, uning teran qatlamlariga nazar tashlash, undan ezgu va zaif jihatlarini nurlantirish orqali tomoshaga o‘ch olomonni xalq darajasiga, o‘z g‘ururini bilgan, kelajakka yorug‘ yuz bilan intilgan xalq darajasiga ko‘tarishdir.

XX asr o‘zbek she’riyatidagi Cho‘lpon nomi bilan bog‘liq manzaralar shulardan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Cho‘lpon. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
2. Fitrat A. Adabiyot yoxud milliy she’riyat. – Toshkent: “Fan”, 1993.
3. Sharof Rashidov. Cho‘lpon – buyuk shoir va mutafakkir. // “Sharq yulduzi”, 1987, №4.
4. G‘aniyev S. Cho‘lpon hayoti va ijodi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2005.
5. Mamajonov A. Jadidlar adabiyoti va Cho‘lpon. // O‘zRFA Til va adabiyot instituti materiallari, 2010.
7. Qo‘chqor Norqobil. O‘zbek she’riyati taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2016.
8. Said Ahmad. Cho‘lpon – el-yurt fidoyisi. // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1991, №25.

Nigora BOYNAZAROVA

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘zDSMI

JADIDLAR BADIIY MEROSINI O‘RGANISHNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Abstract. *His article talks about the need for today's young generation to study the scientific and spiritual heritage of Jadids, who lived and created at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century.*

Kalit so'zlar: *islohot, milliy g'oya, yoshlar, jadidlar, taraqqiyot.*

Abstract. *His article talks about the need for today's young generation to study the scientific and spiritual heritage of Jadids, who lived and created at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century.*

Key words: *reform, national idea, youth, modernity, development.*

Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi islohotchilik harakati murakkab, ko‘p qirrali rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Jadidlar boshqa davlatlarning taraqqiyotiga erishish va islohotlar bo‘yicha to‘plangan tajribalariga tayanib bu amaliyotni o‘lkaga tatbiq etishga harakat qilishdi. Bu jarayon osonlik bilan kechmadi, binobarin ijtimoiy taraqqiyotga erishish ziddiyatlar manbaiga aylantirgan edi. Mustaqillik uchun kurashning bosh g‘oyasi ana shunday murakkab sharoitda shakllandi. Bugungi kunda yurtimiz keng qamrovli, turli xil o‘zgarishlarga boy, tarixiy va yaratuvchanlik davrini boshidan kechirmoqda. Mazkur davr iqtisodiy munosabatlar tizimiga, keng jabhali iqtisodiyotga asoslangan, mustaqil milliy iqtisodiyotni barpo etish davri deb haqqoniy baholanmoqda.

Bozor munosabatlarini takomillashtirish zaruriyati tamomila yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirishni g‘oyat dolzarb vazifaga aylantirib qo‘ydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerakligi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi”.

Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur” [2,4]. degan edi davlatimiz rahbari. Yangi tarzdagi iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda o‘zbek xalqiga o‘rganish uchun arzigulik ilmiy asoslar mavjud. Jumladan, jadidlarning ilmiy-ma’naviy merosidan milliy istiqlolni mustahkamlash, iqtisodiyotimizni ravnaq toptirish, xalqimizning yangi jamiyat qurish yo‘lidagi vazifalarni amalga oshirishda dasturulamal sifatida foydalanish mumkin.

Jadidchilik harakati milliy mafkura, milliy g‘oya, milliy iqtisodiyotning shakllanish tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biridir. Shu nuqtai nazardan mustaqilligimiz fidoyilari bo‘lgan jadidlarning ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish bugungi kunda katta ahamiyatga egadir. Jadidlar davlat, tuzum, boshqaruvni o‘sha davr muhitidagi iqtisodiy hayotni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni o‘lkada bozor iqtisodiyotini yaratish hamda jahon mamlakatlari bilan integratsiyalashuvi masalalarini maqsad qilib qo‘ygan g‘oyalarni ishlab chiqdilar. Bunday inqilobiy o‘zgarishlarning aniq amaliy tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan ilmiy konsepsiya yaratdilar [2,4].

Jadidlar jahon sivilizatsiyasida katta rol o‘ynagan Turkiston singari ulkan tarixiy bir makonda, ko‘p asrlar davom etib kelgan hayotning Sharqona tarzini saqlagan holda, uni Yevropa sivilizatsiyasi natijalari bilan yanada rivojlantirishni ko‘zlagan fikrlarni ilgari surgan edilar. Shuningdek, ular XX asr boshidan yangicha hayot tarzini vujudga keltirish usullarini qidirdilar va istibdod sharoitida o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo‘lida kurashga kirishishi kerakligini uqtirgan edilar.

Ma’rifatparvarlar o‘zlarining asosiy e’tiborlarini millatning o‘qimishli, bilimdon va kasb-hunarli bo‘lishiga qaratib, uni dunyoning ilg‘or millati bo‘lishiga chaqirdilar, aks holda, abadiy qoloqlik iskanjasida qolishlari mumkinligi haqida qayg‘urdilar. Jadidlar o‘lkada birinchilardan bo‘lib chorizm hukmronligi sharoitida sanoat infratuzilishi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish biryoqlama xarakterga ega bo‘lganligini, mustamlakachilik tartiblari og‘ir oqibatlarga olib kelganligini ko‘rsatib berdilar. Ular “Oyna”, “Al-isloh”, “Al-izoh” jurnallari, “Turon” “Najot” “Kengash” “Hurriyat” va boshqa gazetalarda e’lon qilingan maqolalarida chorizm hukumronligi davrida mahalliy xalqlarning og‘ir ahvolini, ularning milliy manfaatlari e’tiborga olinmaganliklarini ko‘rsatishib, davlat mustaqilligi, maorif va madaniyat sohalarida jiddiy ijtimoiy-siyosiy talablar bilan chiqdilar. Jumladan, jadidlar harakatining taniqli arboblari M.Behbudiy, A.Fitrat, F.Xo‘jayev, A.Cho‘lpon A.Avloniy, S.Mirjalilov, O.Mahmudov va boshqalar o‘z maqolalarida chorizm mustabid hokimiyati o‘lkaning iqtisodiy ahvolini og‘irlashtirib, mahalliyxalqlarning milliy qadr-qimmatlari erga urilganligini iztirob bilan ko‘rsatib o‘tdilar.

Tabiiyki, jadidlar Turkistonni iqtisodiy rivojlangan, qudratli davlat sifatida ko‘rishni istarlar. Ular o‘zlarining iqtisodiy g‘oyalarini ham ishlab chiqqan edilar. Jadidlar iqtisodiy g‘oyalari markazida iqtisod ilmini o‘rganish zarurligi, ihroj va a’mol sanoati, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar masalasi, iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni, ilg‘or texnika va texnologiyalarni jalb etish, Turkistonda banklar faoliyatining o‘rni va ahamiyati, savdo-tijorat ishlarini ilmiy asosga qurish, tadbirkorlik, agrar iqtisodiyot samaradorligini oshirish masalalari muhim o‘rin

tutadi. Jadidlar, ya'ni yangiliktarafdorlari ma'rifat va ilm tizimida iqtisod ilmining millat ravnaqi uchun ahamiyati alohida ekanligini qayta-qayta ta'kidlaganlar.

Jadidlarning etuk arboblaridan biri Abdulla Avloniy bu haqda shunday degan edi: "Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz erga bir tiyin sarf qilmas, o'rni o'mni ayamas. Sahovatning ziddi bahillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrofdir..." [3,5].

Keltirilgan lavhada juda chuqur iqtisodiy ma'no yaishringan: birinchidan, muallif pulni ne'mat, ya'ni mehnat bilan yaratilgan ma'lum qiymat uning ifodasi degan ilmiy fikrni bildiradi; iyusinchidan, pul tadbirkorni, ishbilarmonni yoqtirishi, faqat ana shunday kishilar qo'lida pul, mol-dunyo to'planishini uqtiradi. Har zamonda insonning maqsadi erkin va farovon yashashdir. Ayniqsa, "... bu zamonda maqsadga etmak uchun, - deb yozadi Abdulla Avloniy, - o'z millatiga hizmat qilmoq maqbul bo'lmak uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklardandur. Har erda boy millatlar og'ir kelub, faqirlarga engil kelub qul va asir bo'lib qoladur...". Iqtisod ilmidan bohabar bo'lgan kishilar har doim qiladigan sarf-xarajatlarining samara berishini oldindan hisob-kitob qiladilar. Olim misol keltirib aytadiki, ilmdan yaxshi xabardor bo'lgan AQSh va evropaliklar iqtisodiy bilimliklari tufayli to'q, farovon yashaydilar. U yozgan edi: "Bobolarimizning bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar" zamonlari o'tub, o'rniga "bilg'on bitar, bilmagan yitar" zamoni keldi. AQShliklar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Yevropaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga 25 tiyinga soturlar" [4,2].

Abdurauf Fitrat ham iqtisod ilmini egallashga, yoshlarimizni tijorat va savdo ishlariga o'qitishimiz lozimligiga da'vat qilgan edi. U vatandoshlariga, millatdoshlariga murojaat qilib shunday deb yozgan edi: "Sizlar o'z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib, savdo ishiga o'qitingiz, chunki begonalar (xorijiy savdogarlar - muallif) tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz"[5,3].

Yuqoridagi tahlillar shundan dalolat beradiki, jadidlar Vatanimiz ozodligi va mustaqilligining moddiy va ma'naviy asosini yaratish, ana shu asosda millatning o'z mustaqilligi uchun kurashini ilmiy darajaga ko'tarish maqsadini ko'zlaganlar. Shuningdek, mulkdor bo'lmoq, milliy iqtisodiyotni yaratmoq, millat va Vatan ravnaqini ta'minlamoq uchun iqtisod ilmini egallash dolzarb masaladir. Bu masalaning dolzarbligi bizning bugungi bozor munosabatlarini jadallik bilan shakllantirayotgan davrimizda yaqqol ko'zga tashlanmoqda va jadidlarni mazkur masaladagi ilg'or g'oyalarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish uni jamiyat, davlat va millat istiqbolini yaratishdagi o'ziga xos manba sifatida qarashga undaydi. Mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tilishi tabiiy ravishda iqtisodiy tafakkurni boyitish, yangicha iqtisodiy fikrlashni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. 2020-yil 29-dekabr.
2. Jabrdiyda yozuvchilar adabiy merosi mustaqillik xizmatida. – Toshkent. Fan nashriyoti, 2013-yil, – B.125.
3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 1-jild.Toshkent, 1998. – B.37.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1967. – B. 33-34.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-jild. Hind sayyoqi bayonoti. Toshkent, 2000. – B.167.

Muborak XAKIMOVA
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zDSMI

JADID KUTUBXONALARINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyati, milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etilganlari haqidagi turli yondashuvlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jadid, ma’rifatparvar, jaholat, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, Matbaai – Isxoqiya, kutubxona, qiroatxona, mutolaa madaniyati.*

Abstract. *The article analyzes various approaches to the exemplary work of our enlightened ancestors, who left a deep mark on the history of the Central Asian region, and perhaps the entire Muslim world and the Turkic world, and how they mobilized all their strength and capabilities to realize the idea of national revival and national development.*

Keywords: *jadid, enlightened, ignorance, mosques, madrasas, khanaqahs, Matbaai - Iskhokiya, library, reading room, reading culture.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida XX asr boshlarida shakllanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz

qoldirgan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini chuqur tadqiq va targ‘ib qilish ustuvor vazifa ekanligini ta’kidlagan edilar.

Jadid ma’rifatparvarlari xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy bilimlarni egallashda deb bilganliklari uchun milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Ma’lumki, X1X asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston shahar va qishloqlarida masjidlar, oliy, o‘rta va quyi madrasalarning kutubxonalari musulmon jamoalari ommaviy foydalanishi uchun mo‘ljallangan kutubxonalar, xonaqohlar qoshidagi kutubxonalar faoliyat ko‘rsatishda davom etdi. Ularning aksariyati xayr-ehsonlar hisobiga kun ko‘rardi. XIX asrning 80-90 yillarida masjidlar, madrasalar qatorida xonaqohlar qoshidagi kutubxonalar ham iqtisodiy inqirozga uchradi.

Bunga mustamlachi ma’murlarning vaqf erlari va boshqa mol-mulkning katta qismini Markaziy Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan axoliga berish bo‘yicha qo‘llagan chora-tadbirlari sabab bo‘ldi. Masjidlar, madrasalar, xonaqohlarni qo‘llab quvvatlovchi moliyaviy ajratmalarning keskin qisqarishi natijasida XI-XIII asrlarda vujudga kelgan o‘rta asrlar kutubxonachilik ishi tizimiga putur etdi. Kutubxonachilik ishini davlat tomonidan tartibga solish va rahbarlik qilish tizimi mavjud bo‘lmaganligi uchun omma madaniyat va ma’rifatdan yanada uzoqlashtirildi.

1870-yilda Toshkentda tashkil etilgan Turkiston ommaviy kutubxonasi faqat amaldorlar, harbiylar va savdagorlargagina xizmat ko‘rsatar edi. Shuning uchun ham Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tamonlarini yangilash harakati aynan ta’lim, madaniy, mafkuraviy, siyosiy bilimlar berish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb vazifalarni hal qilishdan boshlashni talab qilar edi. Jadid namoyondalari o‘z xonadonlarida maktablar ochish, o‘quvchilar uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yozish, teatr truppalari, turli jamiyatlar, gazeta va jurnallar, kutubxonalar tashkil etish orqali ko‘p yillik orzular amalga oshishining tamal toshini qo‘ydilar.

Ular keng xalq ommasiga, ayniqsa yoshlarga bilim tarkatish maqsadida dastlabki ommaviy kutubxonalarni tashkil etish haqida ham qayg‘ura boshladilar. 1908 yilda Namangan uyezdining To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida Is’hoqxon to‘ra Junaydullayev (Ibrat) tomonidan “Matbaai - Isxoqiya” nomli ilk nashriyot 1910-yilda Namanganga ko‘chirilib, uning qoshida “Kutubxonai- isxoqiya” nomli kutubxona tashkil etildi.

Kutubxonada o‘zbek, fors-tojik, rus, tatar va turk tillaridagi adabiyotlar, darsliklar va ko‘llanmalar, ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq adabiyotlar, o‘sha yillarda nashr etilgan rus va musulmon matbuoti namunalari mavjud edi.

Ibrat ushbu kutubxonaga mudir tayinlab, kitoblarni va ulardan foydalanganlarni tartib bilan yozib borishni yo‘lga qo‘ydirgan.

Xuddi shu davrlarda Buxoroda yosh buxoroliklar tomonidan “Ma’rifat” kutubxonasi tashkil etilgan. Uning fondida mamlakat va xorijda chop etilgan yangi adabiyotlar, gazeta va jurnallar, jumladan, Istanbulda chop etilgan “Hikmat”, “Sirotil Mustaqim”, “Ta’rifi muslimin” jurnallari, Rossiyada chop etilgan “Tarjimon”, “Irshod”, “Vaqt” gazetalari va “Sho‘ro” jurnali, Turkistonda chop etilgan jadid matbuoti namunalari mavjud edi.

Noshirlik faoliyati, kitob savdosi va kutubxonachilik ishi bilan shug‘ullanuvchi birinchi kitob uyi-“Ma’rifat” shirkati jadidchilik harakatining ashaddiy tarafdorlaridan biri noshir R.Rasulzoda tashabbusi bilan 1912-yilda ochildi. Ikkinchi kitob uyi “Madora” 1914-yilda Qo‘qonning Beshariq mahallasida ma’rifatparvar Ibrohim Davron tomonidan tashkil etildi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy qisqa vaqt ichida ikkita-“G‘ayrat” (1915) va “Birlik” (1916) kitob uylarini tashkil etdi. Shu davrda kitob noshirligi va savdosi, ayrim hollarda kutubxonalar va qiroatxonalar tashkil etish bilan o‘sha davrdagi boshqa shirkatlar ham shug‘ullangan.

Ular orasida Toshkentdagi “Nashriyot” (1914), “Maktab” (1916), “Nashri maorif”, Buxorodagi “Barakat” (1914), Samarqanddagi “Zarafshon” shirkatlari mavjud edi.

Ushbu shirkatlarning ta’sis shartnomasida ularning maqsadi musulmon aholi o‘rtasida Yevropa madaniyatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyish, kutubxonalar va qiroatxonalar ochish orqali aholi o‘rtasida ma’rifat urug‘ini sochishni maqsad qilib qo‘yganligi takidlab o‘tilgan edi.

Turkiston jadidlarining otasi deb nom olgan Maxmudxo‘ja Behbudiyning marifatparvarlik faoliyati alohida ahamiyatga molikdir.

Bexbudiy tomonidan Samarqandda tashkil etilgan ommaviy kutubxona shaharning ruslar yashaydigan qismida joylashgan bo‘lib, “Kutubxonai- Behbudiya” nomi bilan atalgan.

Kutubxonadan tashqari shu erda mutolaa qiluvchilar uchun keng va shinam qiroatxona ham tashkil etilgan va yangi tipdagi ushbu kutubxonani kutubxona-do‘kon deb ham atash mumkin edi. Chunki, ushbu muassasaga tashrif buyurgan har bir kishi kutubxonaning alohida fondidan o‘z mablag‘iga sotib olishi va uzi bilan birga olib ketishi mumkin edi. Boshqalarning qiroatxonada kitob o‘qishlariga sharoit yaratilganligidan tashqari xotirasi va miyasiga quvvat bo‘lishi uchun shakarli qaynoq choy ham berilgan. Ushbu kutubxona fondida joylashgan kitoblarning bir qismini Maxmudxo‘ja Behbudiy o‘zining 1899-1900 yillardagi va 1914-yildagi haj safarlarida bo‘lganida keltirilgan, qolgan kitoblar esa Turkistonning turli burchaklaridan, Rossiya imperiyasining Cankt-Peterburg, Qozon, Bog‘chasaroy,

Boku, Orenburg shaharlaridan, shuningdek, Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Hindiston, Misr, Livandan kutubxona manziliga yuborilgan edi. Bunday uzoq mamlakatlar va shaharlardan kitob keltirish hisobiga kutubxona va qiroatxona fondini to‘ldirish omilkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik uquvidan tashqari keng xalqaro aloqalarni va albatta kattagina mablag‘ni tashkil etar edi. Shunga ko‘ra Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuot sahifalarida e’lon qilingan ko‘plab maqolalarida savdo va ishlab chiqarish vakillarini boshlangan xayriya ishlarini moddiy jihatdan qo‘llab quvvatlashga da’vat qiladi. U shunday maqolalardan birida “Millatga dalda berish, maktablar islohi, yoshlarimizni Yevropa oliy o‘quv yurtlariga kirishlarga tayyorlash, umummilliy ishlarni amalga oshirish uchun bizga “Xayriya jamiyatlari”, kutubxonalar, jamg‘armalar, turli to‘garaklar, gazetalar, jurnallar, nashriyotlar va hakazolar kerak” deb yozgan edi.

Umuman olganda “Kutubxonai-Behbudiya”ning kitob fondi barcha manbalar miqdoriga ko‘ra Turkistondagi eng boy kutubxonalardan biri bo‘lgan. Kutubxona fondida Qur’oni Karimning har xil nashrlari, hadislar to‘plamlari, fan va bilimning turli sohalariga oid dunyoviy mazmundagi turkiy, fors, turk, arab, rus, nemis, fransuz, ingliz tillaridagi kitoblar to‘plangan.

Faqat birgina tarixga oid adabiyotlar ichida “Buyuk umumiy tarix”, uch jildli “Madaniyat tarixi”, “Tarixiy istiqbol”, “Islom tarixi” , “Islom olami va Ovrupo XX asrda”, “Turkiy xalqlar tarixi”, “Madaniyat tarixi”, “Shohlarning g‘alabalar kitobi”, “Usmoniylar saltanati ko‘zgusi”, “Islom madaniyati tarixi”, “Amir Temur”, “Islom tarixi”, “Buyuk Eron tarixi”, “Amerikaning kashf etilishi tarixi” kitoblari bor edi.

Demak, XX asrning dastlabki o‘n yilliklari mobaynida jadidlarning ma’rifatparvarlik mazmunidagi yangicha adabiyotlarni o‘zida jamlagan kutubxonalari Turkiston o‘lkasining deyarli har bir yirik shahrida faoliyat ko‘rsatdi.

Jadidlar bir tamondan istiqlol bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni olib borgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan diniy va dunyoviy kitoblar fondiga ega bo‘lgan kutubxonalar tashkil etdilar. Jadidlar ushbu yo‘nalishdagi faoliyatlarini izchil davom etdirdilar.

Ularning asosiy maqsadlarini Abdulla Avloniyning “Madaniyat to‘lqunlari” nomli maqolasini o‘qish orqali to‘la anglash mumkin. U quyidagicha yozadi: “Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o‘qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta’limga mohir olim va olima, adib va adibalarimiz etushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo‘lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar etushub, zamonga muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik “Dorul-yatim”-yetimxonalar, “Dorul-ojizin” - kambag‘alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkat (tovorishestvo)lar barpo qilinsa, yuqorida dedegimiz kabi, xalqimiz orasida zamonga loyiq ulum va fununda bohabar ulamolarimiz ko‘paysa, och va yalang‘och kishilarimizning mashaqqatlarini tuzatmak uchun

harakat qilinsa, o‘qutilsa, ahloq va odob o‘rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo‘stonig‘a yuzlangan hamda madaniyat to‘lqinlaridan qutulub salomatg‘a chiqg‘an bo‘lur edik”.

Yuksak g‘oyalarni amalga oshirish yo‘lidagi faoliyatning izchil amalga oshirishi natijasida 1913-yilda Toshkent shahrida Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy boshchiligida 1909 yilda tuzilgan “Jamiyati xayriya” negizida “Turon” xayriya jamiyatini tashkil etdilar. Ushbu jamiyatning faoliyat doirasi kengayib borgani sari yosh ziyolilar saflari kengayib bordi.

Ammo 1917-yil oktabr to‘ntarilishi sodir bo‘lishi bilan “Turon” jamiyati atrofida uyushgan jadidlar parchalanib ketadilar. A.Avloniy boshliq bir guruh jadidlar sho‘ro hokimiyati tarafiga o‘tib “Turon” jamiyati ixtiyoridagi o‘zbek tilida yaratilgan sahna asarlarini to‘plab, bo‘lajak kutubxonaga poydevor quradilar. Shu tariqa 1918 yilda “Turon” kutubxonasi bunyod bo‘ladi.

O‘sha yilning boshlarida Toshkentga Sho‘ro hukumati siyosatining O‘rta Osiyoda so‘zsiz amalga oshirilishini ta’minlash uchun kelgan, Turkiston jumhuriyati Mudofaa shtabining a’zosi etib tayinlangan Orif Klibleyev 1918-yil iyunida “Ishtirokiyun” gazetasini tashkil etadi va uning dastlabki muharriri bo‘ladi. O‘sha yilning 20 iyunida Orenburg frontidan kelgan Ahmad Donskoy bilan Vali Allamov ham “Ishtirokiyun” gazetasi tahririyatiga ishga olinadi. Oradan bir hafta o‘tgach, 27 iyulda O.Klibleyev muharrirlikni Donskoyga topshirib, o‘zi Jizzaxga maxsus topshiriq bilan boradi va o‘sha erda kasallanib vafot etadi.

Sho‘ro hukumatining O‘rta Osiyoga “keng vakolatlar” bilan kelgan bu ishonchli vakilini dafn etish marosimi katta siyosiy tadbir sifatida o‘tkazilgan. Turkiston Xalq Komissarlari Sho‘rosining qarori bilan marhum bolshevik nomini adabiylashtirish maqsadida “Turon” kutubxonasiga Orif Klibleyev nomi berilgan. Kutubxona fondini kengaytirish va ta’mirlash ishlari uchun 10 000 so‘m hajmda mablag‘ ajratilgan. Shundan keyin kutubxona Turkiya, Tatariston, Boshqirdiston, Ozarbayjon va Moskvada chop etilgan turli-tuman davriy nashrlar va kitoblarni olib turish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

1918-1922 yillarda kutubxona, bir tomondan, o‘z a’zolari va tashkilotchilari bo‘lmish sobiq jadidlar yordami bilan, ikkinchi tomondan, ma’rifatparvar kishilarning vaqf qilib qoldirgan kitoblari hisobiga oyoqqa turdi, uchinchi tomondan esa, berilgan mablag‘ tufayli markazda va xorijda chiqib turgan davriy nashrlar va kitoblar bilan boyidi.

191- yil 14 aprelda esa barcha xalq kutubxonalari qatori “Turon” ham davlat ixtiyoriga o‘tkazildi.

“Turon” kutubxonasi va qiroatxonasi Sag‘bon, Chorsu, Shayx Xovand Toxur, Xadra, Chig‘atoy, Oqlon, Xastimom mavze va mahallalari uchun o‘rtaliq xisoblangan Eski Jo‘vada tashkil etilgan edi. Kutubxona fondida Qozon, Qrim,

Tiflis, Orenburg, Istanbulda nashr etilgan gazeta va jurnallar, noyob kitoblar mavjud bo‘lib, ko‘pgina ziyolilarning asosiy vaqti shu erda o‘tar edi.

Jadidchilik harakatining faol a’zolari bo‘lgan aka-uka Karimbek va Komilbek Norbekovlar, Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayevlar xayriya jamiyati nizomida ko‘rsatilganidek, halqimizni “sog‘lom tomosho”, madaniy xordiq chiqaruvga yaqinlashtirish, teatrlar, kutubxonalar, qiroatxonalar yordamida madaniyat olamiga olib kirishga alohida e’tibor qaratdilar. Ular “Maktab kutubxonasi” shirkatini tashkil etib, maktab darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari nashr etish ishiga ham o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘shdilar.

Shu o‘rinda “Turon” kutubxonasida ko‘p yillar davomida ishlab, uning har tamonlama rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan Akbarbek Dolimov faoliyati haqida to‘xtalib o‘tishi zarur.

Jadidchilik harakati muhitida ulg‘aygan Akbarbek Dolimov 1927-1929 yillarda kutubxonachilik kursida o‘qib, uni tugatgach o‘zi ko‘p yillar davomida kitob fondidan foydalanib kelgan “Turon ” kutubxonaiga ishga kiradi. Turmush qiyinchiliklari va mashaqqatlariga qaramasdan 1932-yildan o‘qishini Toshkent davlat pedagogika institutining kutubxonachilik fakultetida davom ettiradi. A.Dolimov kutubxonadagi ishini pedagog sifatida davom ettirib, tez vaqt ichida kutubxona derektori lavozimiga ko‘tariladi.

Akbarbek Dolimov Fayzulla Ubaydullayev bilan hamkorlikda “Mukammal ilmiy bibliografiya” kitobini yaratib, unda 1920-1934 yillarda o‘zbek tilida nashr etilgan uch mingga yaqin kitobning bibliografik tasnifi va tasvirini berganlar. Bibliografiya sohasida yaratilgan ushbu birinchi kitob 1934-yilda O‘zbekiston davlat nashriyotida chop etilgan.

Sobir Soliyev bilan hamkorlikda esa 1937-yili respublika kutubxonachi va bibliograflariga metodik yordam sifatida “O‘nli klassifikasiya” asarini nashr ettirdi. Har ikkala asar ko‘p yillar davomida bo‘lajak kutubxonachilar va bibliograflar uchun asosiy o‘quv qo‘llanma vazifasini bajarib keldi.

Bundan tashqari Akbarbek Dolimov 30-yillarda Xoji Muin, Shukurullo, Abduqodir Shakuriy, Po‘latjon Qayumiy, Abduvaxob Ibodiy, Abdulla Avloniy, Muhibulqori Orifiylar yordamida “Oyina”, “Sadoyi Farg‘ona” jurnallari, “Turkiston” to‘plami taxlamlarining etishmayotgan va qattiq shikastlangan qismlarini to‘ldirdi va ba’zi manbalarning fotonusxasini yaratdi.

Bu manbalar bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida va Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasida saqlanmoqda.

Jadid ma’rifatparvarlarining millat taraqqiyotini umummillat ma’naviyati, ma’rifati yuksalib, illatlardan xalos bo‘lishi bilan bog‘liq deb hisoblaganliklari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ayniqsa, ma’naviy makonni

to‘siq bo‘lib turgan illatlarni baprtaraf etish masalasi ko‘ndalang bo‘lib turgan sharoitda ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasida yozganidek: “Bizni qiladurg‘on aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, xatna bu ikki balo shundog‘ qattiq bir illatki, o‘lmag‘uncha qutulib bo‘lmaydur. Shaharlarda o‘rtahol, ya’ni o‘tirarg‘a xona va bog‘i bor bir kishi nikox uchun ikki ming so‘m sarf etar va o‘g‘il xatnasi uchun hech bo‘lmaganda ming so‘m, har bir kishi benavo bu mavridlarga 200 so‘mdan, 1000 so‘mgacha sarf etar. Boy va zo‘raki boylar esa besh ming, o‘n minglab sarf etar”. Bugun isrofgarchilik bilan o‘tkazilayotgan to‘ylar va marosimlar davom etayotganligidan tashqari xaj va umradan qaytish bilan bog‘liq bo‘lgan dabdabali holatlar, o‘tmishda kitobxon bo‘lgan millatning, ayniqsa yoshlarning “o‘qimaslik illati”ga yo‘liqqanligi bugungi kundagi mavjud bo‘lgan illatlardir.

Davlatimiz rahbari Anqarada Turkiya respublikasi prezidenti huzuridagi xalq kutubxonasining ochilish marosimida ta’kidlaganidek, “Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qadrlidir. Bunday engilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti-kitob va kutubxonalarda” deb ta’kidlaganida jadidlarning bilim olish va mutolaaga bo‘lgan munosabatlarining mantiqiy davomini tushunishimiz mumkin.

Shu o‘rinda yoshlar o‘rtasida mutolaani zaiflashganligi borasida ma’lum bir mulohazalarni bildirib o‘tish mumkin. Yoshlarda mutolaaga nisbatan ishtiyoq uyg‘otish ularning bolalik davridan boshlanshi zarur. Lekin, bolalar uchun ular qiziqib o‘qiydigan, rang-barang, sarguzashtlarga boy asarlar deyarli mavjud emas. Agar jadidlarning faoliyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ular o‘z tashabbuslari bilan kutubxonalar tashkil etibgina qolmasdan ularning fondini to‘ldirish, foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali insonlarni madaniyat doirasiga tortishga harakat qilganlar.

Jadid bobolarimizning o‘z davrida qo‘llagan tajribalarini chuqur o‘rganib, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish va mutolaa madaniyatini shakllantirish ajdodlarimiz oldidagi burchimizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr.- Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – 440 bet.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020-456 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni xalq kutubxonasining tantanali ochilishi marosimidagi nutqi “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazeta, 2020 yil 21 fevral.

4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Odob bo‘stoni va axloq gulistoni. M.Hasaniy tarj.-Toshkent: Fan, 1994.-297 b.

6. Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur: Donishmandlarning bisotidan hikoyatlar, o‘gitlar, hikmatlar. Tarjima va to‘plovchi: Shorasul Zunnun nashrga tayyorladi. Saidbek Hasanov.- Toshkent: Adabiyot va san’at nashr, 1988. – 272 b.

7. Fitrat, Abdurauf. Oila va oila boshqarish tartiblari. Mas’ul muharrir: D.A.Alimov. Tarj.SH.Vohidov.-Toshkent: Ma’naviyat, 1998.-112 b.

8. Farobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Tuzuvchi M.Mahmudov.-Toshkent: Xalq merosi, 1993.-224 b.

9. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin/Mukammal asarlar to‘plami, 8-jild-Toshkent:Fan, 1991, 70-71 betlar.

10. Abdurahmon Jomiy. Gulshaningda so‘lmasin gul.-Toshkent: Fan, 2008. 311-bet.

11. Avloniy, Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq.-Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 31-bet.

12. Jadid: adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazetalari/

Munavvar QARSHIYEVA
Kutubxona-axborot faoliyati ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
O‘zDSMI

JADIDLAR MA’NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidlarning adabiyot va san’at sohasidagi tub burilishi yasagan fikrlari, bugungi kunda o‘zbek madaniyatining ajralmas qismi sifatida qadirlanishi hamda yoshlar tarbiyasi uchun ma’naviy - madaniy islahotlarini amalga shirish haqidagi fikrlari bugungi kunda ham dolzarb ekanligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *milliy identitet, global madaniyat, san’at, teatr, ta’lim, jadid maktabi, ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik.*

Abstract. *The article discusses the period of the Jadids' fundamental turning point in the collection of literature and art, their appreciation as an integral part of today's Uzbek culture, and the role of spiritual and educational education in the upbringing of young people.*

Keywords: *national identity, world culture, art, theater, education, jadid school, enlightenment, patriotism.*

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Ma’rifatparvar bobolarimiz “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oyasini hayotini shiorimizga aylantirib, bilim va ma’rifat dunyoviy taraqqiyatga erishish uchun bor kun va imkoniyatlarimiz safarbar qilishimiz zarur. Jonajon Vatanimiz barqaror taraqqiyotini ta’minlash yo‘lida hech qanday og‘larsiz, sobitqadamlik bilan oldinga intilsak, ko‘zlagan maqsadlarimizga albatta erishamiz” [1, 176]. Jadidlarning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.

Adabiyotda, xususan, O‘zbek adabiyotida jadidlar ijtimoiy masalalar – ta’lim, tenglik, milliy o‘zlik va boshqa muammolarni ta’riflashga ko‘proq e’tibor bergani bejiz emas edi. Ularning asarlarida, o‘zbek millatchiligi va demokratiya g‘oyalari yuksak o‘rin oldi. Jadid adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari Mahmud Xo‘ja Behudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy , Fitrat, Abdulla Qodiriy , Hamza Hakimzoda Niyoziy kabilardir. Jumladan Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi yozuvchilar o‘z asarlarida qahramonlarning shaxsiy o‘sishi va ijtimoiy adolatni ko‘rsatishga intilishdi. Jadid adabiyotida yangi janrlar, masalan, hikoya, dramalar va poeziya janrlari shakllantirildi. Jadidlar asarlarını ko‘pida millat qiyofasini, tarixiy merosini va an’analarini saqlab qolish mavzulari ko‘tarildi.

Shuningdek jadidlar San’atda yangi yo‘nalishlarni rivojlantirdilar. Teatr sahnasini yangilashda va musiqada innovatsion yondoshuvlar kiritishdi. O‘zbek teatrida, masalan, "O‘zbek drama" janri paydo bo‘ldi. Ular sahna san’atida milliy qadriyatlarni ko‘tarish, bir vaqtning o‘zida zamonaviy muammolarga e’tibor qaratish maqsadida turli xil asarlar yaratdilar. Musiqa sohasida esa, juda ko‘p yangi kompozitsiyalar, qo‘shiqlar yaratildi. Ijtimoiy va siyosiy ta’sirlar doirasida nafaqat xalqni o‘z huquqlari haqida ogoh qilishga intildilar, balki istilyochilarga qarshi

kurashni ham maqsad qildilar. Jadidlar o‘z so‘zlari va asarlari orqali mustaqillik, erkinlik va adolat talablarini ilgari surdilar.

Jadidlarning asosiy maqsadi xalqni uyg‘otish, yoshlarni milliy ozodlik, vatanparvarlik ilm-ma’rifatga intiluvchi o‘tmishdagi buyuk ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalashga qaratilgan edi. Bunda iymon-e’tiqodi but, xalqning emin-erkin, dasturxoni to‘kin, jahondagi taraqqiy topgan xalqlar kabi ma’rifatli bo‘lishini astoydil istovchi ilg‘or guruhi jadidlar bo‘lib, ular johil ruhoniylarga, xonliklardagi bosh boshdoqliklarga va mustamlakachilikka qarshi edilar, Ular xalqning milliy ongini oshirish va o‘zligini anglatishni eng avvalo ma’rifat, ilmu urfondan qidirdilar, Millat, xalq qayg‘usi bilan yashovchi ziyolilar xalqni uyg‘otishni ma’rifatdan boshlashga qaror qildilar, Millati qrim-tatar bo‘lgan Ismoil G‘aspirali (1851-1914) jadidchilik harakatining asoschisidir, 1904-yilda Buxoroda kelib amir bilan muzokaralar olib bordi. Natijada amir uning otasi nomi bilan ataluvchi Muzaffariya jadid maktabiga asos solindi, 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla 2-jadid maktabiga asos soldi, 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903 - yilda Turkiston o‘lkasida 102 ta boshlang‘ich va 2 ta o‘rta jadid maktablari bor edi. Asr boshida jadidlar ziyolilarining butun bir vatanparvar avlodini tarbiyalab berishdek og‘ir ishga fidoyilik bilan kirishdilar. Ularning boshida M.Behbudiy, S. Ayniy, A. Avloniy, A. Fitrat, Munavvarqori, Bobooxun Salimov va boshqa ko‘plab taraqqiyparvar insonlar turar edilar. Jadidlar harakati yoshlar ongiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Bu yoshlar aqliy salohiyat jihatdan rivojlangan va Turkistonning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotgani sabablarini tushunib etgan insolar edilar. Bu qoloqlikdan qutilishning to‘g‘ri yo‘li ma’rifatparvarlik deb qattiq ishonar edilar. Ular oldingi falsafa yutuqlariga asoslandilar. Jadidlar o‘zlarini ushbu falsafaning tahlilchilari va targ‘ibotchilari sifatida ham namoyon qildilar. Ma’lumki, mashhur ma’rifatparvar Ahmad Donish, shoirlar Muqimiy, Furqat, Hamza, Ubaydulla Zavqiy, Muhammad Bayoniy, Abay Qo‘nonboev va olim Cho‘qon Valixonov islohotning hassos tarafdorlari bo‘lganlar, ular boshi berk ko‘chadan chiqishni nafaqat ma’rifatda, qolaversa, turkiy xalqlar birligida ko‘rganlar. O‘tmishdoshlaridan ancha oldinlab ketgan va ma’rifatparvarlikdan siyosatga o‘tgan jadidlar turon zamindan etishib chiqqan edilar. Jadidlarning maorif sohasidagi faoliyati. Jadidlar tomonidan birinchi marta partalarda o‘tirish, darslarda xarita va rasmlardan foydalanish joriy qilingan. U keyinchalik hozirgi zamonaviy maktab uchun asos bo‘lgan. Ular tomonidan yaratilgan qo‘llanma va darsliklar: Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqorining «Adibi avval», “Adibi Soniy”, «Havoyiji diniya» («Shariat qonunlari to‘plami»), «Usuli hisob», “Tarixi anbiyo”, «Tarixi islom», Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» va Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Qisqa umumiy geografiya», «Islomning qisqacha tarixi», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi»,

Hamzaning "Yengil adabiyot", "O‘qish kitobi", "Qiroat kitobi", kabi darsliklari. va boshqalar.

Jadidlar harakatida matbuot va jurnalistika. Matbuot va jurnalistika sohasi. XX asr boshlarida jadidlarning quyidagi matbuotlari mavjud bo‘lgan: Toshkentda Ismoil Obidiy «Taraqqiy» (1906), Munavvarqori Abdurashidxonov «Xurshid» (1906), Abdulla Avloniy «Shuhrat» (1907), Saidkarim Saidazimboev «Tujjor» (1907), Ahmadjon Bektemirov «Osiyo» (1908), Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev «Sadoi Turkiston» (1914 - 1915) gazetalari, shuningdek, Abdurahmon Sodiq o‘g‘li (Sayyoh) «Al-Isloh» (1915) jurnalini nashr etishga muvaffaq bo‘ldilar. Samarqandda esa Mahmudxo‘ja Behbudiy “Samarqand” (1913) gazetasi va «Oyna» (1913 - 1915) jurnalini, Qo‘qonda Obidjon Mahmudov “Sadoi Farg‘ona” (1914) gazetalarini chiqardi. Jadidlar insonlar ongini o‘zgartrishga erisha oldilar. Jamiyatni o‘zgartirishga harakat qildilar. Ilg‘or jadidlar adabiyot, dramaturgiyaga asos soldilar. Turkistonda birinchi teatrni ishga tushirdilar. Ta’limning yangi shakllarini yaratdilar. Bu yangi madaniyat edi. Ular insonlar ongida ayollarga nisbatan oz bo‘lsa-da, hurmatni ko‘tarishga harakat qildilar, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Abdurauf Fitratning oila haqidagi kitobi asosiy qismi ayolga, uni qanday hurmat qilish va unga qanday munosabatda bo‘lishga bag‘ishlangan. O‘sha kitobda "Qiz bolalar o‘qishi kerakmi?" degan bo‘limi mavjud. U kitobda Abdurauf Fitrat, insonning intellektual holati, oladigan ta’limi ko‘p jihatdan ayollarga, onalarga bog‘liq. Uning yozishicha, erkak tirikchilik uchun egulik - ichgulik topish bilan band, ayol esa erkakdan ko‘ra ma’lumotliroq bo‘lishi shart, chunki u, asosan, bolalar bilan shug‘ullanadi. Darhaqiqat shunday. Ayollar maktablari ochilgan va ularda Sharq mumtoz adabiyoti o‘qitilgan. Jadidlar ta’limoti o‘z zamonasining progressiv ta’limoti bulib, u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki ilg‘or fikrlovchi yoshlarni hamda barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira oldi. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni xorijga o‘qishga yuborish, turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop qilish, xalkning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurishni nazarda tutganlar. Jadidlarning asosiy maqsadi xalqni uyg‘otish, yoshlarni milliy ozodlik, vatanparvarlik ilm-ma’rifatga intiluvchi o‘tmishdagi buyuk ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalashga qaratilgan edi. Bunda xalqning emin - erkin, dasturxoni to‘kin, jahondagi taraqqiy topgan xalqlar kabi ma’rifatli bo‘lishini astoydil istovchi ilg‘or guruhi jadidlar bo‘lib, ular johil ruhoniylarga, xonliklardagi bosh boshdoqliklarga va mustamlakachilikka qarshi edilar. Ular xalqning milliy ongini oshirish va o‘zligini anglatishni eng avvalo ma’rifat, ilmu urfondan qidirdilar, Millat, xalq qayg‘usi bilan yashovchi ziyolilar xalqni uyg‘otishni

ma’rifatdan boshlashga qaror qildilar, Asr boshida jadidlar ziyolilarining butun bir vatanparvar avlodini tarbiyalab berishdek og‘ir ishga fidoyilik bilan kirishdilar. Ularning boshida M.Behbudiy, S. Ayniy, A. Avloniy, A. Fitrat, Munavvarqori, Bobooxun Salimov va boshqa ko‘plab taraqqiyparvar insonlar turar edilar, bugungi kunda jadidlar harakati O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyoda madaniy, ta’limiy va ijtimoiy hayotda muhim o‘rin tutayotgan an’analar va g‘oyalarni shakllantirishda hamohang davom etmoqda. Ularning merosi va asosiy qadriyatlari mamlakatning rivojlanishida, xalqning ma’rifatini oshirishda va milliy o‘zlikni mustahkashda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Quyida jadidlarning bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rib chiqamiz:

1. Jadidlar harakati ta’limni rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega. Ularning ta’limga bo‘lgan e’tiborlari va yangi ta’lim metodlarini joriy etish g‘oyalari bugungi kunda ham muhimdir. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimi yangilanib, yangi standartlarga va zamonaviy pedagogik uslublarga asoslanmoqda. Bu jarayonda jadidlarning ma’rifiy g‘oyalari va zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilish tarafdori sifatida ko‘rishimiz mumkin.

2. Jadidlarning adabiyot va san’at sohasidagi merosi bugungi kunda o‘zbek madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. O‘zbek adabiyotidagi ko‘plab zamonaviy yozuvchilar va shoirlar jadidlarning ijtimoiy adolat, tenglik va ta’lim masalalariga oid g‘oyalaridan ilhomlanib, yangi asarlarni yaratmoqdalar. Ularning asarlari o‘zbek madaniyatini va tarixiy merosni yangi avlodga etkazish borasida muhim rol o‘ynaydi. Asosiy maqsadlaridan biri xalqqa zamonaviy bilimlar va ma’rifatni taqdim etish edi. Hozirgi kunda O‘zbekistonning global madaniyat bilan integratsiyasi davom etmoqda.

3. Jadidlar milliy o‘zlikni kuchaytirishga qaratilgan faoliyatlarida o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy asoslariga keng e’tibor qaratdilar. Bugungi kunda bu g‘oyalar O‘zbekistonning mustaqillik g‘oyalari bilan birlashtirilgan holda, milliy qadriyatlarni, urf - odatlarni va an’analarni saqlash va rivojlantirishda davom etmoqda. Xulosa o‘rnida aytish joizki, jadadidlar insonlar ongini o‘zgartirish orqali jamiyatni o‘zgartirishga harakat qildilar. Ilg‘or jadidlar adabiyot, dramaturgiyaga asos soldilar. Turkistonda birinchi teatrni ishga tushirdilar. Ta’limning yangi shakllarini yaratdilar. Bu yangi madaniyat edi. Ular insonlarlar ongida ayollarga nisbatan oz bo‘lsada, hurmatni ko‘tarishga harakat qildilar, shuning uchun ham ularning asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev. Sh. M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston [Matn] / Sh. M. Mirziyoyev.- Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024 - 560 b.

2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq / Avloniy. A. Toshkent: Adabiyot, 2018. –128 b.

3. Cho‘lpon A. Asarlar. 4 jildlik. II jild. Roman, hikoyalar. Kecha va kunduz. Toshkent: Akademnashr, 2016. – 274 b.

4. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Sharq nashriyoti, Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2012.– 238 b.

5. Hamza. To‘la asarlar to‘plami 2-tom Toshkent: Fan, 1989.– 99 b.

6. Nasriddinov A. Davr-Buyuk Ma’rifatparvar Taqdirida. "O‘zbekiston falasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent: 2022.– 117 b.

7. Cho‘lpon A. Asarlar. 4 jildlik. I jild. She’rlar, mansuralar, she’riy xatlar. Toshkent: Akademnashr, 2016. – 60 b.

8. Jadid: [adabiy, ilmiy - ma’rifiy va ijtmoiy haftalik gazeta] / 2024-yil 27 - sent. № 32

Gavhar QALANDAROVA, Sevinch TURDIMURODOVA

Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari

CHDPU

JADIDLARNING O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI RIVOJIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchilik harakati vakillarining o‘zbek tili va adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Jadidlarning til va adabiyotga oid qarashlari ularning milliy uyg‘onish konsepsiyasining ajralmas qismi bo‘lgan. Ular o‘zbek adabiy tilining xalqchil adabiyot yaratish va ta’lim orqali milliy ongni shakllantirishga alohida e’tibor qaratganlar. Maqolada Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori kabi jadidlarning asarlari va ularning til siyosatidagi roli tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, adabiyot, milliy uyg‘onish, til siyosati, usul-i jadid, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov.*

Abstract. *This article explores the significant contribution of Jadidism to the development of the Uzbek language and literature. The Jadids’ approach to language and literature was central to their concept of national awakening. Emphasis was placed on the standardization of literary language, creation of accessible literature, and the formation of national identity through education. The*

paper analyzes the works and language-related policies of key figures such as Avloni, Behbudi, and Munavvarkori.

Keywords: *Uzbek language, literature, national awakening, language policy, usul-i Jadid, Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Munavvarkori Abdurashidkhanov.*

XX asr boshlarida Turkiston xalqlari taraqqiyoti yangi bosqichga kirar ekan, madaniy va ilmiy sohalarda jadidchilik deb atalgan islohatchi harakat yuzaga chiqdi. Ushbu harakatning asosiy g‘oyasi milliy o‘zlikni tiklash, xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy ta’lim vositalarini joriy etish orqali yangi jamiyat barpo etish edi. Jadidlar bu maqsadlarga erishishda til va adabiyotning rolini beqiyos deb bilganlar va bu sohalarga alohida e’tibor qaratganlar. Jadidchilik harakati milliy tafakkur va madaniyatning taraqqiyotida tub burilish yasagan voqelikdir. Bu harakat o‘zbek tili va adabiyotini rivojlantirish, ta’lim tizimini isloh qilish va xalq ongini ilm-ma’rifat orqali uyg‘otishga yo‘naltirilgan edi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangicha o‘quv metodlari va darsliklar, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan ma’rifiy g‘oyalar o‘z davrining taraqqiyotga olib boruvchi harakatlaridan biri sifatida baholanadi. Jadid maktablarining paydo bo‘lishi va metodik yangiliklar yuzasidan shuni ta’kidlash mumkunki: an’anaviy maktab tizimini isloh etish maqsadida “usul-i savtiya” — tovush asosida tez o‘qitish usuli tatbiq etildi. Bu metod yordamida bolalar qisqa muddatda savod chiqara boshladilar. Diniy va dunyoviy fanlar birgalikda o‘rgatila boshlandi, bu esa o‘quvchilarning keng qamrovli bilimga ega bo‘lishiga xizmat qildi. Jadid maktablari to‘rt (boshlang‘ich) hamda etti yillik edi. Masalan Munavvarqori Abdurashidxonovning etti yillik maktabini bitirgan yoshlar dunyoviy ilmlarni, rus tilini yaxshi o‘zlashtirgan holda jadid maktabida o‘qituvchi, maschitlarda imom bo‘lish, madrasa va hattoki, xorijdagi dunyoviy oliy o‘quv yurtlarida o‘qish, savdo va boshqa korxonalarda kotib bo‘lib ishlash malakasiga ega bo‘lganlar. Bunday etti yillik maktablar Toshkentdan tashqari, Qo‘qon, Samarqand kabi yirik boshqa shaharlarda ham ochiladi. Maktablar asosan, 1 - 4 sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1 - bosqichi tahziriy (boshlang‘ich) sinflar, 2-bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan,M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A.Shukuriyning Samarqanddagi va A.Ibodievning Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5 - 6 sinf) ham ish boshlagan. Maktab ochgan jadidlar dastur, qo‘llanma va darsliklarni ham o‘zlari yaratdilar. Jadid maktablarining ochilishiga rus amaldorlari, musulmon mutaassiblari qarshilik qiladilar. Jadidlar katta matonat va fidoyilik bilan eski maktablarga tegmay namuna sifatida jadid maktablarini

tashkil etib, omma orasida katta obro‘ qozondilar. Jadid maktablari qat’iy nizom va dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo‘lib, jadidlar o‘quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo‘yishni joriy etdilar. O‘quvchilar sinfdan - sinfga o‘tish va bitirish uchun jamoatchilik oldida ochiq chorak, yillik va bitiruv imtihonlarini topshirganlar. Maktab ochgan jadidlar dastur, qo‘llanma va darsliklarni ham o‘zlari yaratdilar. Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Tajvid” (Qur’onni qiroat bilan o‘qish usuliga oid qo‘llanma), “ Havoyiji diniya” (Shariat qonunlari to‘plami), “Yor yuzi”, “ Usuli hisob”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islom”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yohud ahloq“, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Qisqacha umumiy geografiya”, “Bolalar maktubi”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Amaliyoti islom”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” va boshqalar shular jumlasidandir. Jadid maktablari ochilishi bilan ba’zi joylarda qadim va maktablari bo‘shab qoldilar. Natijada qadim va jadid maktabdorlari o‘rtasida jiddiy qaramaqarshiliklar paydo bo‘ldi. Bunga mutaassib qozi mulla va ulamolar ham qo‘shildilar. Jadid maktablarining jami soni va ular qaerlarda ochilib faoliyat yuritganligi haqida hozircha to‘la ma’lumot yo‘q. Jadid maktablari M.Behbudiyning yozishicha, 15 - 20 yil ichida jami Kavkaz mamlakatlari, Eron, Hind, Misr, Hijoz va boshqa joylarida ham joriy bo‘ldilar.

Yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishi bo‘yicha Ona tili, Adabiyot, Tarix, Geografiya va boshqa fanlarga doir darsliklar jadid ziyolilari tomonidan ishlab chiqildi. Ular orasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi mutafakkirlar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu darsliklar xalqning o‘z tiliga, tarixiga va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Jadidlar faqat ta’lim bilan cheklanmay, balki ommaviy axborot vositalari, spektakllar, sahna asarlari va jurnallar orqali jamiyatni uyg‘otish, isloh qilishga intildilar. Ayniqsa ayollar ta’limiga e’tibor qaratib, teng huquqlilik g‘oyasini ilgari surdilar. Jadidchilik harakati sovet hokimiyati tomonidan mafkuraviy tahdid sifatida baholanib, ko‘plab jadidlar qatag‘onga uchradi. Shunga qaramay, ular qoldirgan ma’naviy meros, xususan til va adabiyot sohasidagi faoliyatlari, hozirgi zamon taraqqiyotida muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki: Jadidlar o‘zbek xalqining ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onishida, zamonaviy adabiyot va til siyosatini shakllantirishda beqiyos xizmat ko‘rsatganlar. Ularning innovatsion ta’lim metodlari, milliy madaniyatga tayanilgan darsliklari va jamiyatni uyg‘otishga qaratilgan faoliyatlari bugungi o‘zbek ma’naviyatining poydevorini tashkil etadi. Jadidchilik harakati — tarixiy o‘zgarishlar va zamonaviy tafakkur shakllanishining muhim bosqichidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobojonov, Sh. *Jadid maktablari tarixi.* Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
2. Karimov, M. *O‘zbek adabiyoti va jadidlar*. Toshkent: Fan, 2012.
3. Saidov, A. *Usul-i jadid va o‘zbek maktabchiligi.* Samarqand: Noshir. 2020.
4. "World of Philology" Scientific Journal. Volume 3 Issue 1 / March, 2024.
5. Bekmurodov M. *Jadid adabiyoti: tahlil va izohlar*. Toshkent: Ilm Ziyo, 2017.

Munisa ABDIJAVLIYEVA
O‘zbek tili va adabiyoti ta'lim yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: A.U. Muydinova
F.f.b.f.d (PhD), dotsenti v.b.
ChDPU

JADID ADABIYOTIDA MILLIY UYG‘ONISH G‘OYASI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadid adabiyoti vakillarining milliy uyg‘onish g‘oyalarini qanday ilgari surgani, ularning adabiy-estetik qarashlarida bu g‘oya qanday ifodalanganligi hamda zamonaviy badiiy tafakkurda ushbu g‘oyaning qay tarzda davom etayotgani tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *jadid adabiyoti, milliy uyg‘onish, ma’rifatchilik, zamonaviy adabiyot, milliy g‘oya, ijtimoiy tafakkur.*

Annotation. *This article analyzes how the representatives of Jadid literature put forward the ideas of national revival, how this idea was expressed in their literary and aesthetic views, and how this idea continues in modern artistic thought.*
Keywords: *Jadid literature, national revival, enlightenment, modern literature, national idea, social thought.*

Jadid adabiyoti o‘zining tarixiy-madaniy missiyasi bilan o‘zbek milliy adabiyoti taraqqiyotida beqiyos o‘rin egallaydi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan jadidlar – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvar adiblar millatning intellektual uyg‘onishi, milliy o‘zlikni anglash va zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borishi uchun adabiyotni kuchli ijtimoiy vosita sifatida ishlatdilar. Ularning asarlarida mustamlakachilik siyosatining salbiy oqibatlari, jaholat, xurofot,

qoloqlikka qarshi kurash va millatni uyg‘otish zarurati asosiy g‘oya bo‘lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda bu g‘oya o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, globallashuv, madaniyatsizlik tahdidi, axborot xuruji sharoitida milliy ong va madaniyatni asrash masalasi yana dolzarb tus olmoqda. Shu bois jadidlar ilgari surgan milliy uyg‘onish g‘oyasini zamonaviy adabiy tafakkurda qanday aks etayotgani, yosh adiblar va olimlar tomonidan qanday talqin qilinayotganini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolani yozishda tarixiy-adabiy yondashuv bilan birga komparativ tahlil, kontent tahlili, zamonaviy diskurs tahlili metodlaridan foydalanildi. Birinchi navbatda, jadid adabiyoti namoyandalarining asarlari, ularning adabiy-estetik qarashlari, publitsistik va dramatik ijodi tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston mustaqillikdan keyingi davr adabiyotshunosligida ushbu mavzuga doir yozilgan ilmiy manbalar ko‘rib chiqildi.

Jadidlar adabiyotining asosiy ideologik ustunlaridan biri bu – milliy uyg‘onish g‘oyasidir. Bu g‘oya ilm-ma’rifat, madaniyat, til, tarix, tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirish orqali amalga oshirilishini ularning barcha asarlarida kuzatish mumkin. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasi orqali ilmga yot bo‘lgan muhitni tanqid qilsa, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yosh avlodni axloqiy-ma’naviy tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi.

Metodologik jihatdan biz milliy uyg‘onish g‘oyasining zamonaviy adabiy jarayondagi talqinini baholashda intertekstual yondashuv va adabiy qadriyatlar izchilligini aniqlashga harakat qildik. Bu orqali jadidlar boshlab bergan yo‘l hozirgi adabiyotda qanday shaklda davom etayotgani ochib berildi.

Jadid adabiyotidagi milliy uyg‘onish g‘oyasi ikki asosiy yo‘nalishda kuzatiladi: birinchisi – xalqni ilmga, ma’rifatga, madaniyatga undash orqali millatni uyg‘otish; ikkinchisi esa milliy mustaqillik, o‘zlikni anglash va siyosiy erkinlik g‘oyalarini ilgari surish. Bu ikki yo‘nalish bugungi kunda zamonaviy adabiyotda ham davom ettirilmoqda. Ayniqsa, XXI asr ijodkorlari, jumladan, U. Normatov, I. Xoldor, E. A’zam kabi yozuvchilar asarlarida ma’naviy uyg‘onish, milliy qadriyatlarni tiklash, o‘zligini anglash kabi g‘oyalar ustuvor mavzulardan biridir.

Jadval 1.

Jadid adiblarining milliy uyg‘onish g‘oyasini ifodalovchi asarlari

Jadid adibi	**Asar nomi**	**Milliy uyg‘onish g‘oyasi mazmuni**
M. Behbudiy	Padarkush	Ilmga yot muhit tanqidi, milliy ongni uyg‘otish

Jadid adibi	Asar nomi	Milliy uyg‘onish g‘oyasi mazmuni
A. Avloniy	Turkiy guliston yoxud axloq	Tarbiya va axloq orqali jamiyatni ma’naviy uyg‘otish
A. Fitrat	Hind ixtilochilari	Mustamlakachilikka qarshi kurash, siyosiy uyg‘onish
Munavvarqori Abdurashidxonov	Maktab islohoti haqida	Ta’lim islohoti orqali jamiyatni yangilash

Jadval 2.

Zamonaviy adabiyotda milliy uyg‘onish g‘oyasining davomiyligi

Zamonaviy adib	Asar nomi	G‘oyaning talqini
Usmon Azim	Daryo bo‘yidagi uy	Tarixiy xotira, milliy ong, o‘zligini anglash
Erkin A’zam	Jahongashta	Milliy qadriyat va tashqi madaniyat to‘qnashuvi
Iqbol Mirzo	She’riy to‘plamlar	Vatan tuyg‘usi, millat dardini ifodalash
Muhammad Ali	“O‘zbeklar” qissasi	Milliy o‘zlikni anglash, tarixga qaytish zarurati

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadidlar tomonidan boshlab berilgan milliy uyg‘onish g‘oyasi, faqat tarixiy qadriyat emas, balki zamonaviy adabiyot uchun ham etakchi ma’naviy dastur sifatida saqlanib qolmoqda.

Yuqorida olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: jadid adabiyoti o‘zbek milliy uyg‘onishining muhim bosqichlaridan biri sifatida, o‘z davri uchun dolzarb bo‘lgan ma’naviy va ma’rifiy vazifalarni bajarish barobarida, bugungi zamonaviy tafakkur shakllanishida ham o‘z o‘rnini saqlab qolgan. Jadidlar asarlaridagi uyg‘onish g‘oyasi avvalo ilmga, madaniyatga, o‘zligimizni anglashga va milliy g‘ururga asoslangan bo‘lib, u zamonaviy adabiyotda ham ayni g‘oyaviy yo‘nalishlarda davom ettirilmoqda.

Shuningdek, zamonaviy adiblar ham jadidlardan meros qolgan milliy uyg‘onish g‘oyasini hozirgi ijtimoiy-siyosiy va madaniy kontekstda qayta talqin qilib, uni yangi shakl va mazmunda ifoda etishga intilmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek adabiyotining uzviyligi, g‘oyaviy izchilligi va tarixiy-madaniy davomiyligini tasdiqlaydi.

Kelajakdagi ilmiy izlanishlar milliy uyg‘onish g‘oyasini nafaqat badiiy asarlar orqali, balki pedagogik, siyosiy va madaniy kontekstda ham chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, jadidlar asarlarining zamonaviy yoshlar dunyoqarashiga ta’siri, ularni ma’naviy jihatdan uyg‘otishdagi roli bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Padarkush. Toshkent: “Fan”, 2000. B. 24-45.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent:“Sharq”, 1992. B.14.
3. Fitrat A. — Hind ixtilochilari. — Toshkent: “Fan”, 1995. — B. 33–60.
4. Abdurashidxonov M. — Maktab islohoti haqida. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2022. B. 10-28.
5. Normatov U. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Yozuvchi”, 2021. B. 55-80.
6. A’zam E. Jahongashta. Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 2022. B. 120-135.
7. Mirzo I. Ko‘zlaring bilan. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. B. 40-65.
8. Muhammad Ali. O‘zbeklar. Toshkent: “Adabiyot”, 2020. B. 5–35.
9. Nazarov Q. Jadidlar va ularning madaniy merosi. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2007. B. 98-120.
10. Po‘latov A. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida g‘oya va obraz. Samarqand: “SamDU nashriyoti”, 2022. B. 60-90.

Mushtariybonu XABIBULLAYEVA
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
University of Business and Science

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSI VA JADIDLAR HARAKATIDA ILM-FAN, TA’LIM VA TARBIYA MASALALARI

Annotatsiya. *Mahmudxo‘ja Behbudiy – buyuk ma’rifatparvar yozuvchi, publitsist, dramturg va jamoat arbobi, jadidchilik harkatining etakchilaridan biri. U adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullangan.*

Kalit so‘zlar: *rahnamo, “Oyna” jurnali, dramaturgiya, maqolnavis, “usuli savtiya”, lug‘at, ajnabiy, Ismoil Gaspiriksiy.*

Annotation. Mahmudhaja Behbudiy is a great enlightened writer, publicist, dramturg and public figure, one of the leaders of jadidism Harkat. He was seriously involved in political science, as well as literature, history.

Keywords: leader," window " magazine, dramaturgy, maqolnavis, "usuli savtiya", dictionary, alien, Ismail Gaspiriksiy.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyondasi, yangi davr o‘zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardari, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, noshir va jurnalist [1, 90]. U tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab bir davrda yashagan XVI asrdan boshlab inqiroz, o‘zaro janjal va mahalliy nizolar millatni holdan toydirgan edi. Bu paytdan unumli foydalangan Rossiya zo‘r berib, uni turg‘un va tutqun saqlashga urunar edi. Mana shunday sharoitda Vatanni butunlay yo‘q bo‘lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Mahmudxo‘ja Behbudiy boshliq fidoyilari zimmasiga tushdi.

Turkistonda "Usuli jadid", "Usuli savtiya" nomilari bilan shuhrat topgan yangi maktabni jadidlar tashkil qilib, shular birinchi bo‘lib zamonaviy maktab g‘oyasini ilgari surdilar. Ular o‘zlari yonlaridan mablag‘ sarflab, maktablar ochib, yosh avlodni istiqiloliga tayyorladilar, she’r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakillantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini bolalarga singdirishga urindilar. Behbudiy 1914-yilda "Samarqand" gazetasini chiqaradi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida haftada ikki marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy etishmovchilik tufayli nashr to‘xtatiladi. Xuddi shu yili "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi. Jurnalda e’lon va o‘zbekcha she’rlar chiqa boshladi, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1914-yilda qilgan sayohati davomida Istanbulga borib, Ismoil Gasprinskiy bilan uchrashadi, so‘ngra yana sayohatini davom ettiradi. Sayohat tafsilotlarini "Oyna" jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, tili va adabiyoti masalalarig, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiy tanqidga katta e’tibor berdi. Uning xususiyatlarini belgilashga urindi. Boshqa adabiy janrlar bilan teng huquqligi masalasini ko‘tardi. Millatimiz sha’nini oyoqosti qiluvchi fikr va qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o‘z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatda alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga etdi. Bundan tashqari, Mahmudxo‘ja Behbudiy Abdurauf Fitratning "Bayonoti sayyohi hindi" asarini rus tiliga tarjima qildirib nashr ettirdi.

Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo‘lga qoydi. O‘sha davr vaqtli matbuotidan "Behbudiy kutubxonasi" haqidagi xabarlar chiqa

boshlagan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy til masalasiga ham katta e’tibor qaratgan. Adib taraqqiyot va turmushda Yevropadan va osmon qadar uzulib qolgan Turkistonning fojiali ahvolidan so‘z ochgan edi. Sadriddin Ayniyning “har millat o‘z tili ila faxr etar” maqolada boshqa tillarni o‘rganish qatorida har bir millat o‘z tilining muhofazasi bilan shug‘ullanishi shart, degan fikr juda ko‘p dalillar bilan isbot qilib berilgan. “Agarda til va adabiyotimiz muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarini qo‘shaversak, biroz zamonda tilda va milliyatimizni yo‘qoturmiz” – deb yozdi muallif va “Bas, biga tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur” – deb xulosa chiqaradi. Mutafakkirning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va merosi alohida ahamiyatga loyiq. XX asr o‘zbek adabiyoti va san’atida ijtimoiy – siyosiy jarayonlaridan faol ishtirok etgan, millat ma’rifati, ozodligi, hurligi yo‘lida mardonavor kurashgan bu ulug‘ allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o‘rin egalladi, avlodlar uchun ibrat maktabi bo‘lib qoldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yilning bahori 25-martda Shahrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning vafoti haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxt bo‘lgan Samarqandga rosa bir yildan keyin ma’lum bo‘ladi. 1920-yilning aprel oyida butun Turkiston ahli motam tutadi va o‘nlab marsiyalar yoziladi [2, 53].

Maxmudxo‘ja Behbudiy ilm-fan, adabiyot, san’at, teatr va musiqa ilmlariga katta hissa qo‘shgan, u o‘z asarlarida o‘zbek xalqining ijtimoiy va madaniy muammolarini ko‘tarib chiqqan. Biz bunday ajdodlarning avlodi ekanligimizdan faxrlanamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Otaboyev A. //Mahmudho‘ja Behbudiy – Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi // “Uzbek scholar” journal, 2023-yil.

2. Akbarova Sh. // Mahmudho‘ja Behbudiy merosi va jaded matbuotini yoritishning dolzarb masalalari // Proceeding of International conference on Modern Science Studies, 2024-yil 19-mart.

Intizor XO‘JANIYAZOVA
Ilmiy rahbar: ***Mo‘ydinova Arofat***
CHDPU

DUNYONI ANGLASH YO‘LIDA: O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA INSONIYLIK VA HAYOT FALSAFASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi asosiy g‘oya va falsafiy qarashlar tahlil qilinadi. Asar o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan bo‘lib, unda hayotning murakkabligi, insoniylik, mehr-oqibat, adolat, taqdir va sabr kabi tushunchalar chuqur yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, mentalitet, badiiy mahorat, lirik-falsafiy uslub,monolog, metafora, metafizik,gilam paypoq.*

Annotatio. *This article analyzes the main ideas and philosophical views reflected in O‘tkir Hoshimov’s novel Dunyoning ishlari. The novel holds a special place in Uzbek literature, vividly portraying the complexities of life, human values, compassion, justice, destiny, and patience.*

Key words: *O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari,mentality, artistic mastery, lyric-philosophical style, monologue, metaphor.*

O‘zbek adabiyotida hayotiylik, insoniylik va milliylik masalalarini badiiy vositalar orqali chuqur tahlil qilgan yozuvchilar safida O‘tkir Hoshimov alohida o‘rin egallaydi. Uning “Dunyoning ishlari” asari nafaqat badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan, balki unda o‘zbek xalqining hayot falsafasi, ichki kechinmalari, ijtimoiy munosabatlari, ruhiy holati va milliy mentaliteti teran ifoda etilgan. Asar qahramonlari – oddiy insonlar. Ularning hayoti orqali muallif katta ijtimoiy haqiqatlarni ochib beradi. Qishloq hayotining oddiy epizodlari, go‘yo kulgili holatlar ortida jamiyatdagi chuqur ma’naviy inqiroz, murosasizlik, yolg‘on va ikkiyuzlamachilik muammolari yotadi [1].

Muallif asarda til va uslub jihatdan nihoyatda xalqona yo‘l tutadi. Ko‘plab maqollar, xalq iboralari, kulgili-yu achchiq dialoglar asarga hayotiylik bag‘ishlaydi. Tilning soddaligi esa asarni keng kitobxonlar ommasiga yaqinlashtiradi[2]. Shu bilan birga, yozuvchi metaforadan mahorat bilan foydalangan. O‘tkir Hoshimovning badiiy mahorati, avvalo, uning xalq tiliga bo‘lgan e’tiborida, oddiy holatlarni katta umumlashmaga olib chiqish qobiliyatidadir.

“Dunyoning ishlari” – bu faqat bir oilaning yoki bir qishloqning emas, balki butun bir xalqning, millatning ahvolini badiiy ko‘rinishda aks ettirgan asardir. Uning badiiy kuchi obrazlar, til, voqealar dinamikasi va ichki falsafasida namoyon bo‘ladi. O‘tkir Hoshimov o‘ziga xos lirik ironiyali, sodda, ammo chuqur ma’no yuklangan uslubda har bir o‘quvchining yuragiga etib boradi. Aynan shu jihatlar sababli bu asar nafaqat adabiy, balki pedagogik va axloqiy nuqtai nazardan ham juda muhim manba hisoblanadi [3].

O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi “Gilam paypoq” hikoyasi onaning farzandi uchun cheksiz fidoiyligi, insoniy sabr-toqat, mehr, va hayotning achchiq haqiqatlari haqida chuqur falsafiy mushohadalarni o‘zida jamlaydi[4]. Muallif oddiy bir voqea – gilam paypoq sovg‘asi orqali o‘quvchini o‘ta chuqur tuyg‘ular olamiga olib kiradi.

Hikoyaning boshlanishi juda oddiy va kundalik hayotiy voqelikda boshlangan bo‘lsa-da, voqealar rivoji orqali bu oddiylik tagida ona mehri, fidoyilik va hayotda ba'zida yashiriladigan haqiqatlar ochiladi. Onaning oyoq og‘rig‘i nafaqat keksalik, balki bolasi hayotini saqlab qolish uchun qordan oyoqyalang yurib, qurbonlik qilgan oqibatidir. Bu erda og‘riq – mehrning va fidoyilikning belgisi sifatida tasvirlanadi. Asarda ona o‘z azobini boshqalardan yashiradi, qo‘ni-qo‘shniga ham, hatto bolalariga ham og‘rini keksalik deb ko‘rsatadi. Ammo buni "men bilaman" degan satr orqali muallif ichki dunyo, anglash, hayotga chuqur qarash falsafasini ochib beradi. Bu esa muallifning asosiy maqsadi – insoniylikni, mehr-oqibatni, ona fidoiyligini ko‘rsatish bilan birga, hayotning murakkab, ko‘p qatlamli mohiyatini ochishdir.

Shuningdek, Hoji buvi timsolida xalq tabobati, xalq donishmandligi, va ayollarning mehrga asoslangan kuchi ham namoyon bo‘ladi. “Qarg‘aning miyasini chaqib surmasangiz, choloq bolib qolasiz” [5] kabi ifodalar esa xalqona tasavvurlar, qadimiy ishonchlar orqali milliy ruhni uyg‘otadi. Asarda og‘riq va azob timsolida ko‘rsatilgan ona obrazi, bolani saqlab qolish yo‘lida o‘zining oyoq sog‘lig‘idan voz kechganligi – chinakam insoniy fidoiylik namunasi sifatida o‘quvchida kuchli hissiy rezonans uyg‘otadi. Bu hikoya orqali O‘tkir Hoshimov “dunyoning ishlari” degan tushunchani oddiy, ammo teran hayotiy misollar orqali tahlil qiladi. Asarda insoniylik, mehr, fidoyilik, sabr-toqat, va ba'zida yashirin haqiqatlar orqali hayot falsafasi o‘z ifodasini topadi.

O‘tkir Hoshimovning “Kitob” nomli hikoyasi – inson va ona o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlik, fidoyilik, mehr va hayotiy qadriyatlar haqida chuqur falsafiy mulohazalarga yo‘g‘rilgan asardir. Hikoyaning shakli oddiy xotira tusida bo‘lsa-da, unda badiiy psixologizm va ichki kechinmalar ustalik bilan tasvirlanadi.

Asar birinchi shaxs og‘zidan hikoya qilinadi. Har bir yangi kitobining chiqishini muallif onasiga bag‘ishlab, “Birinchi o‘qituvchim – onamga!” [6] degan so‘zlar bilan yozuv qoldiradi. Bu ibora o‘zida chuqur minnatdorchilik, mehr, onaning hayotdagi o‘rni va ta’sirini anglatadi. Ona – bu erda faqatgina farzandni dunyoga keltirgan inson emas, balki uni tarbiyalagan, ruhlantirgan, ma’naviy tayanch bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlanadi.

Asardagi dramatik burilish – kitob nusxasining nonvoyxonada, sarg‘aygan, titilgan holatda ko‘rilishi orqali yuzaga keladi. Bu voqea yozuvchining ichki dunyosida sinish, ranjish, e’tiroz hissiyotlarini uyg‘otadi. Biroq bu holat onaga

nisbatan emas, balki u orqali o‘zining mehrni tushunmagan yoshlik tuyg‘usiga nisbatan yo‘naltirilgandek tuyuladi. Asarning kulminatsion nuqtasi — onaning vafoti. “Tog‘im to‘satdan qulab tushdi” [6] degan ibora muallif ruhiyatidagi bo‘shliq, tayanch yo‘qotish holatini ifodalaydi. Bu erda ona real shaxs bo‘lishdan chiqib, timsolga aylanadi: u hayotdagi suyanadigan tog‘, mehr manbai, baraka va ilhomning ramzidir.

Adabiy-nazariy jihatdan, hikoya badiiy psixologizm, ramz va metafora vositalaridan keng foydalanilganligi bilan ajralib turadi. “Tog‘” metaforasi tayanch, ishonch, barqarorlik ramzidir. “Oltmish ming nusxa” – bu moddiy emas, balki ruhiy bag‘ishlovning ulkan ko‘lami, chin dildan bergan ehtirom timsolidir.

Hikoyadagi syujetning oddiyligi — undagi chuqur falsafiy mazmunni kuchaytiradi. Asarda nutqning soddaligi orqali obrazlarning tabiiyligi ta’minlanadi. O‘quvchi o‘zini ushbu voqeaning guvohi sifatida his qiladi. Bu esa muallif uslubining kuchli jihatlaridan biridir: soddalikda kuchli ifoda, sokinlikda chuqur hayajon. “Kitob” hikoyasi hayotning o‘zagi bo‘lgan ona va farzand munosabatlarining eng samimiy va teran qirralarini ko‘rsatadi. Yozuvchi o‘z ijodini onasiga bag‘ishlash orqali nafaqat shaxsiy ehtiroslarini, balki butun jamiyatning, har bir o‘quvchining qalbidagi eng nozik tuyg‘ularni aks ettiradi. Bu hikoya orqali O‘tkir Hoshimov “dunyoning ishlari” degan tushunchaga – mehr, fidoyilik, tavoze, minnatdorchilik, va yo‘qotish falsafasini singdiradi.

Bahorning boshqa talqini: “Oq marmar, qora marmar” hikoyasi asosida hayot, o‘lim va ona timsolining badiiy tahlili o‘tkirlik bilan ta’svirlab berilgan.

O‘tkir Hoshimovning “Oq marmar, qora marmar” hikoyasi inson hayoti, onalik, tavba, e’tirof va kechikkan mehr mavzulariga bag‘ishlangan chuqur falsafiy, psixologik, ijtimoiy va estetik g‘oyalarni o‘zida jamlagan asardir. Hikoya qabrlar, bahor va ona obrazlari orqali jamiyatdagi ruhiy va axloqiy muammolarni badiiy tarzda yoritadi.

Bahor – hayotning yangilanishi degan odatiy tushunchaga qarshi turadi. Muallif bu erda bahorning boshlanish nuqtasini boshqa joyda, ya’ni go‘ristonda ko‘rsatadi. Bu poetik kontrast – hayot o‘limdan boshlanadi, yangilanish xotiradan unadi, degan falsafiy fikrni ilgari suradi. Onalar timsoli hikoyaning markazida turadi. Yozuvchi qabrtoshdagi yozuvlarga e’tibor beradi: “Onajon, sizni to abad unutmaymiz”, “Xotirangiz qalbimizda mangu yashaydi”… Bu iboralar marhum onalarga nisbatan bildirilgan eng rost, eng chin yurakdan chiqqan so‘zlar sifatida talqin qilinadi. Biroq yozuvchi ushbu e’tiroflar qachon, qayerda, qaysi holatda aytilgani haqida o‘quvchini o‘ylantiradi: "Ular hayotlik chog‘ida onasiga mehr bera oldimi?" Bu savol o‘quvchining yuragiga tegadi, uni vijdonan o‘zini tekshirishga majbur qiladi. “Qiziga atlas ko‘ylak, o‘g‘liga velosiped olgan farzand onasiga paypoq olib berishni unutmadimikan?”[7] degan jumlalar bilan yozuvchi

jamiyatdagi muhim muammoni – keksaygan onaga befarqlik, mehrsiz munosabatni ochiq fosh etadi.

Oq marmar va qora marmar – oddiy tosh emas, ular hayot bilan o‘lim, rost so‘z bilan kechikkan tavbaning timsollaridir. Ular silliq, sovuq, jonsiz, ammo ustidagi yozuvlar – yurakdan chiqqan hayotiy iztiroblardir.

Asar boshida va oxirida “Bahor go‘ristondan boshlanadi” [7] degan ibora ikki marta takrorlanadi. Bu ramziy davriylikni, bahorning tabiat emas, ruhiy yangilanish belgisi ekanini anglatadi.

Uslubiy jihatdan asarda monologga yaqin lirik-falsafiy uslub mavjud. Yozuvchi o‘z kechinmalarini o‘quvchi bilan bo‘lishadi, lekin bu o‘zgaruvchan ichki monolog orqali ko‘pchilikning yuragidagi haqiqatni ifodalaydi.

Yozuvchi hikoya yakunida marhum onalarning ham onaligicha qolishini alohida urg‘u bilan ta’kidlaydi. Bu esa o‘zida kuchli metafizik (ya’ni o‘limdan keyingi barhayotlik) g‘oyasini aks ettiradi. Onalik – bu faqat biologik yoki jismoniy holat emas, bu abadiy tuyg‘u, mehr, bag‘rikenglik timsolidir.

Bu hikoya estetik jihatdan juda nozik, ruhan og‘ir, lekin hayotiy jihatdan muhim saboq bo‘ladigan asar sifatida o‘quvchini o‘z vijdoni bilan yuzlashtiradi. Yozuvchi kinoya qilmaydi, ayblamaydi, balki ohangdor, og‘ir, sokin, ammo yurakni titratadigan satrlar bilan kechikmasdan mehr ko‘rsatish kerakligi haqida ogohlantiradi. “Oq marmar, qora marmar” – bu ona izmidagi barakani, hayotdagi eng rost so‘zlarni aytish kechikmasligi kerakligini eslatadigan estetik-falsafiy asardir. U o‘zida onalikka doir muqaddaslikni, farzandlik burchini, mehr va xotira g‘oyalarini jamlab, zamonaviy o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi.

Xulosa. O‘tkir Hoshimovning “Kitob”, “Oq marmar, qora marmar” va “Iltijo” kabi hikoyalari ona mehrining ulug‘ligini, hayotdagi eng sadoqatli, fidoyi inson bo‘lmish onalar timsolini yurakni larzaga soluvchi badiiy ifodalar bilan ochib beradi. Bu asarlarning har biri nafaqat ona va farzand o‘rtasidagi rishtalar, balki insoniylik, vijdon, e’tibor, qadrlash va kechikkan armonlar haqida chuqur falsafiy mushohadadir. Har bir hikoya o‘zida sodda voqeani ifodalasa-da, uning ortida butun bir avlodning, bir jamiyatning tarbiyaviy ruhiyati, axloqiy qadriyatlari mujassam. O‘tkir Hoshimov o‘ziga xos xalqona uslubda, chuqur hayotiy haqiqatlarga asoslangan badiiy mahorat bilan oddiy so‘zlar orqali murakkab tuyg‘ularni tasvirlaydi. U onaning duosi, uning ko‘z nuri, sukutli mehrini shunday kuchli ifodalarki, o‘quvchi har safar o‘z hayotiga nazar solishga, o‘z onasi haqida o‘ylab ko‘rishga majbur bo‘ladi. Ayniqsa, bu hikoyalar bugungi yoshlar uchun saboq va tarbiya manbaidir. Umuman olganda, bu hikoyalar O‘tkir Hoshimov ijodining yurakdan chiqib, yurakka etib boruvchi, samimiy va hayotiy namunalaridir. Ularning har biri o‘quvchiga o‘z onasini, o‘z bolaligini, orqaga

qarab armon bilan emas, minnatdorchilik va e'tibor bilan boqish zarurligini eslatadi. Shu bois bu asarlar hamisha dolzarb va qadrlidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Axmedova, M. "O'tkir Hoshimov hikoyalarida ma'naviy-tarbiyaviy g'oyalar." // Filologiya masalalari, 2018, 1(3), – B.45–48.
2. Xudoyberdiyev, N. O'zbek nasrida insoniylik timsollari. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 160 b.
3. Raxmonov, B. Hozirgi o'zbek nasrida ruhiy-psixologik holatlarning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 2015. – 132 b.
4. Sobirova, N. "O'tkir Hoshimov ijodida milliylik va universallik." // Zamonaviy adabiyot nazariyasi, 2020, №2, 30–33.
5. Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari" "Gilam paypoq" hikoyasi. –Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2005. – B. 205-206.
6. Hoshimov O'. "Dunyoning ishlari" "Kitob" hikoyasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. – B. 35-36.
7. Hoshimov. O'. "Dunyoning ishlari" "Oq marmar,qora marmar" hikoyasi.- Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019. – B. 252-253.

Durdonaxon MADAMINOVA

Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi

JADID ADABIYOTI VA UNING BUGUNGI YOSH AVLODGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadid adabiyotining shakllanishi, uning asosiy vakillari va ilgari surgan g'oyalari hamda ushbu adabiy yo'nalishning bugungi yosh avlodga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy-tahliliy, taqqoslov, sotsiologik so'rov, badiiy-lingvistik tahlil va eksperimental metodlar asosida jadid adabiyotining yoshlar tafakkuri, ma'naviyati va intellektual salohiyatiga ta'siri o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *jadid adabiyoti, milliy o'zlik, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat, tanqidiy fikrlash, ma'rifatparvarlik, modernizatsiya, milliy uyg'onish.*

Abstract. *This article explores the development of Jadid literature, its main representatives, and their core ideas, as well as the influence of this literary movement on today's youth. Using historical-analytical, comparative, sociological,*

artistic-linguistic, and experimental methods, the study examines how Jadid literature impacts the younger generation's thinking, spirituality, and intellectual potential.

Keywords: *Jadid literature, National identity, Youth education, Spirituality, Critical thinking, Enlightenment, Modernization, National awakening.*

Adabiyot har qanday jamiyatning ma’naviy va madaniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek adabiyoti tarixida esa jadid adabiyoti alohida o‘rin tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan bu adabiy yo‘nalish xalqni ilm-ma’rifat sari etaklash, milliy ongni uyg‘otish va taraqqiyot sari yo‘naltirish kabi buyuk maqsadlarga xizmat qilgan. Jadidlar o‘z davrida faqat adabiyot emas, balki ta’lim, siyosat va ijtimoiy hayotga ham katta ta’sir ko‘rsatgan islohotchilar bo‘lishgan.

Jadid adabiyotining asosiy vakillari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar – o‘z asarlari orqali xalqning savodxonligini oshirish, yangi dunyoqarash shakllantirish va milliy o‘zlikni anglashga xizmat qilishgan. Ularning asarlari bugungi kun uchun ham juda ahamiyatli bo‘lib, yosh avlodning ma’naviy shakllanishida muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy globalizatsiya sharoitida yoshlar turli axborot oqimlariga duch kelmoqda. Shunday paytda milliy adabiyot, ayniqsa jadidlarning g‘oyalari, yoshlarning dunyoqarashi va ma’naviyatini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada jadid adabiyotining asosiy g‘oyalari va uning bugungi yosh avlod tarbiyasiga ta’siri tahlil qilinadi.

Bugungi kunda jadid adabiyoti va uning ilgari surgan g‘oyalari yoshlarning ma’naviy rivojlanishida va zamonaviy hayotga moslashishda katta ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari va globalizatsiya jarayonlarining rivojlanib borayotgan davrida, jadidlarning milliy o‘zlikni saqlash va intellektual taraqqiyotga erishishga bo‘lgan intilishlari yoshlar uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada jadid adabiyotining bugungi yosh avlodga ta’sirini kengaytirilgan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ushbu tadqiqot jadid adabiyotining bugungi yosh avlodga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi metodologik yondoshuvlardan foydalanildi:

1. Tarixiy-tahliliy usul – Jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari va uning adabiy merosi tahlil qilindi. Ushbu metod orqali jadidlarning o‘z zamonida qanday ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitda faoliyat yuritganliklari va ular tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar to‘plandi.
2. Taqoshlash usuli – Jadid adabiyotining asosiy g‘oyalari zamonaviy adabiyot va yoshlar orasida mashhur bo‘lgan adabiy oqimlar bilan taqqoslandi. Ushbu taqqoslash orqali jadid adabiyotining bugungi kunda qanchalik dolzarb ekanligi

aniqlanib, uning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri baholandi. Jadidlarning fikrlash tarzlari va adabiy uslublari zamonaviy yozuvchilarning asarlari bilan solishtirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi.

3. Sotsiologik so‘rov usuli – Yosh avlod orasida jadid adabiyoti haqidagi tushuncha, unga bo‘lgan qiziqish darajasi va bu adabiyotning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovlar natijalari yoshlarning adabiyotga bo‘lgan munosabati, ularning o‘qish odatlari va jadidlarning asarlariga bo‘lgan qiziqishini o‘lchashga qaratildi.

4. Manba tahlili – Jadid adabiyoti bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, maqolalar va boshqalar o‘rganildi. O‘zbek va xorijiy olimlarning jadidchilikni tahlil qilgan asarlari to‘plandi va ularning ta’siri o‘rganildi.

5. Linguistik va badiiy tahlil – Jadid yozuvchilarining asarlarida ishlatilgan til, uslub, ma’naviy va ijtimoiy g‘oyalar chuqur tahlil qilindi. Asarlar mazmuni orqali jadidlarning yoshlar ongiga ta’sirini baholash maqsadida lingvistik va badiiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Jadidlarning uslubi va o‘ziga xos adabiy tilining yoshlar tafakkuriga qanday ta’sir ko‘rsatganligi, ularning fikrlash tarzini qanday shakllantirganligi tahlil qilindi.

6. Eksperimental usul – Yoshlar orasida kichik eksperimentlar o‘tkazilib, jadid asarlarini o‘qigan va o‘qimagan guruhlar orasidagi farqlar kuzatildi. Ushbu metod orqali jadid asarlari ta’sirida yoshlarning tafakkurida qanday o‘zgarishlar yuz berishi o‘rganildi. Eksperimentlar yordamida yoshlarning ma’naviy va intellektual rivojlanishi qanday shakllanayotganligi tahlil qilindi.

Jadid adabiyotining bugungi yosh avlodga ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi yo‘nalishlarda kengaytirilgan natijalarni ko‘rsatdi:

1. Milliy o‘zlikni anglash kuchaymoqda – Jadid adabiyotining g‘oyalari yoshlarni milliy qadriyatlarni anglashga undaydi. Milliy ma’naviyatga bo‘lgan qiziqish ortgan. Jadidlarning asarlari orqali yoshlar o‘z tarixini, madaniyatini va o‘zligini chuqurroq anglashga erishmoqda.

2. Zamonaviy bilimga intilish kuchaymoqda – Jadidchilik harakati yoshlarni ilm-ma’rifatga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qilgan. Yoshlar orasida zamonaviy bilim olish, ta’lim olishga intilish kuchaymoqda. Jadidlarning asarlari ilmiy va ta’limiy g‘oyalarni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

3. Tanqidiy fikrlash rivojlanmoqda – Jadidlarning tanqidiy fikrlashga bo‘lgan g‘oyalari yoshlar orasida keng tarqalgan. Yoshlar mustaqil fikrlashga, ijtimoiy muammolarni tahlil qilishga, har bir voqeaga alohida nuqtai nazardan qarashga o‘rganyapti.

4. Innovatsion tafakkur shakllanmoqda – Jadid adabiyoti yoshlarni yangi g‘oyalar va innovatsion fikrlashga undaydi. Zamonaviy ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy rivojlanish sohalarida yangi g‘oyalarni qabul qilish va amalga oshirishga

bo‘lgan qiziqish ortmoqda. Jadidlarning ilm-fanga bo‘lgan qarashlari va ilmiy-tadqiqot ishlaridagi yondashuvlari yoshlar uchun ilhom manbai bo‘lishi mumkin.

Jadid adabiyotining bugungi yosh avlodga ta’siri haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati o‘z davrida qanday ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham uning g‘oyalari yoshlarning fikrlash tarziga va ijtimoiy ongiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Jadidlarning ilgari surgan g‘oyalari, ayniqsa, ilm-ma’rifatga bo‘lgan qarashlari, milliy o‘zlikni saqlashga intilishlari va ijtimoiy adolatni ta’minlashga bo‘lgan harakatlari hozirgi kunda ham yoshlar uchun muhimdir.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda jadid adabiyotining asosiy g‘oyalari yoshlarni ilmga, ma’naviyatga, mustaqil fikrlashga va tanqidiy tafakkurga undaydi. Jadidchilik harakati o‘z davrida milliy uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan bo‘lsa, bugungi kunda bu g‘oyalar yoshlar orasida ma’naviy barkamollik va intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, jadidlarning asarlari, zamonaviy ta’lim tizimida o‘rganilishi, yoshlarni ilg‘or ilm-fan va texnologiyalarni qabul qilishga, yangi g‘oyalarni yaratishga undaydi.

Jadid adabiyoti va uning g‘oyalari XX asr boshlarida butun Markaziy Osiyo va xususan, O‘zbekistonni ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishda muhim bosqichga olib kelgan. Jadidchilik harakati o‘z davrida xalqni ilm-ma’rifatga, taraqqiyotga va zamonaviy dunyoqarashga yo‘naltirishga xizmat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda ham uning ta’siri davom etmoqda. Jadidlarning asarlari va g‘oyalari zamonaviy yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda, ularning fikrlashini rivojlantirishda va intellektual taraqqiyotda muhim rol o‘ynamoqda.

Jadid adabiyoti yoshlarni milliy o‘zlikni anglashga, tarixiy va madaniy qadriyatlarni saqlashga, o‘zligini hurmat qilishga undaydi. Buning natijasida, yoshlar o‘z xalqi va madaniyatining boy merosini chuqurroq tushunib, mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkur orqali jamiyatdagi muammolarni tahlil qilishga o‘rganmoqda. Jadidchilik g‘oyalari milliy o‘zlikni saqlash, o‘zligini anglash va ma’naviy qadriyatlarni hurmat qilishga yo‘naltirgan bo‘lsa, bugungi kunda bu g‘oyalar yoshlarni mustaqil fikrlashga undaydi va ular o‘z joyida ijtimoiy muammolarga echim topishga qiziqmoqda.

Shuningdek, jadidlarning ilmiy-tarixiy merosi yoshlarni zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishga undaydi. Jadidchilik harakati ta’lim, ilm va madaniyatga qaratilgan islohotlar bilan ajralib turadi. Bu g‘oyalar zamonaviy ta’lim tizimida yoshlarni ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga, global miqyosda taraqqiyotga erishishga, texnologiyalarni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Jadid adabiyotining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni nihoyatda muhimdir, chunki u yoshlarga ilm, ma’rifat va ilmiy izlanishga bo‘lgan ishtiyoqni shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, innovatsion tafakkur va yangicha yondashuvlar bilan muammolarga echim topish ham jadidlarning asarlaridan olingan saboqlardan biridir. Jadid adabiyotining asosiy g‘oyalaridan biri xalqni ilmga undash, yangiliklarni qabul qilishga tayyorlash edi. Hozirgi kunda yoshlar o‘zlarining fikrlarini ifodalashda, o‘zlarini yangiliklar yaratishda, tanqidiy fikrni rivojlantirishda jadidchilik g‘oyalariga tayanmoqdalar.

Shu bilan birga, jadidlarning ta’lim sohasidagi faoliyati nafaqat ilmiy merosni, balki ijtimoiy hayotga yangi qarashlarni kiritganligi bilan ham ahamiyatlidir. Jadidchilik harakati ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, ta’limdan tortib, siyosat va ijtimoiy tenglikni ta’minlashgacha bo‘lgan masalalarda yangicha yondashuvlarni ilgari surgan. Bu g‘oyalar bugungi yoshlar uchun o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan va ular orqali yoshlar ijtimoiy tenglikka, erkinlikka, adolatga bo‘lgan talablarini yanada kuchaytirishmoqda.

Jadid adabiyoti va uning g‘oyalari yoshlar ongida yangi g‘oyalarni rivojlantirishga, milliy ma’naviyatni yuksaltirishga, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga, va zamonaviy jamiyatning o‘zgarishlariga tayyor bo‘lishga yordam beradi. Jadidlarning asarlari bugungi kunda yoshlar orasida ilmga, san’atchilikka, ma’naviyatga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, yangi qarashlarni ilgari surish va ularni ijtimoiy hayotda amalga oshirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyoti yoshlar ongida nafaqat o‘z tariximiz va madaniyatimizni anglashga, balki zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga ham muhim ta’sir ko‘rsatadi. Jadidlarning adabiy g‘oyalari, ilm-fan, ma’rifat, ijtimoiy rivojlanish va yangilikka bo‘lgan ishtiyoq yoshlarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jadid adabiyotining bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati davom etmoqda, bu esa milliy ongni yuksaltirish va yangi zamon talablariga mos keladigan jamiyatni yaratish uchun zarurdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Cho‘lpon A. Kecha va kunduz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000.

2. Alimova D. Jadidchilik va uning tarixiy o‘rni. – Toshkent: Universitet, 2001.

3. Nozimov S. Jadid adabiyoti va uning ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2005.

4. Abdurahmonov A. Jadidchilik va uning ijtimoiy roli. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.

5. Iskandarov M. Jadid adabiyoti va uning zamonaviy hayotga ta’siri. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

6. Azizov A. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. – Toshkent: Sharq, 2010.

7. Sultonov X. Jadid adabiyoti: Tarix va hozirgi kun. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.

8. Safarov F. Jadidchilik harakati va uning o‘zbek adabiyotiga ta’siri. – Toshkent: O‘zbekistan, 2000.

9. Usmonov T. Jadid adabiyoti: Tahlil va tafsir. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. 13. Muminov J. Jadid adabiyoti va uning bugungi yoshlar ongiga ta’siri. – Toshkent: Ilm, 2008.

10. Karimov O. Jadidlar va o‘zbek adabiyotining rivojlanish yo‘llari. – Toshkent: Yangi avlod, 2015.

Sevinch ORTIQOVA
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteteti,2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: ***A.U. Muydinova****,*
ChDPU

ABDULLA AVLONIYNING "BIRINCHI MUALLIM" ASARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” asarining ta’limiy va tarbiyaviy jihatlari tahlil etiladi. Asarda ilgari surilgan ilm-fan, vatanparvarlik, axloqiy poklik kabi g‘oyalar tahlil qilinadi. Asardan namunalar keltirilib, har bir fikr asoslanadi. Shuningdek, maqolada Avloniyning ma’rifatparvarlik qarashlarining bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmaganligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Avloniy, Birinchi muallim, ta’lim, tarbiya, ma’rifat, milliy uyg‘onish.*

SOME COMMENTS ON ABDULLA AVLONI'S WORK "THE FIRST TEACHER"

Abstract. *This article analyzes the educational and upbringing aspects of Abdulla Avloni's work "The First Teacher". The ideas put forward in the work, such as science, patriotism, and moral purity, are analyzed. Examples are given from the work and each idea is substantiated. The article also highlights the fact that Avloni's enlightened views have not lost their relevance even today.*

Keywords: *Abdulla Avloni, First Teacher, education, upbringing, enlightenment, national awakening.*

XXasr boshlarida O ‘rta Osiyo xalqlar hayotida ma’naviy-ma’rifiy uyg ‘onish davri boshlandi. Bu davrda xalqni jaholatdan, savodsizlikdan qutqarish, ilm-fan sari etaklash harakati o‘z ifodasini adabiyotda ham topdi. O ‘zbek adabiyotida o‘zining boy ma’naviy-ma’rifiy merosi bilan alohida o‘rin tutgan Abdulla Avloniy ana shunday zamon farzandi bo‘lib, o‘z asarlari orqali xalqning ma’rifatlanishi uchun fidoyilarcha kurashdi. Uning “Birinchi Muallim” asari ham o‘zbek adabiyoti va ma’rifatparvarlik tarixida muhim o‘rin egallaydi. Asar zamonasining dolzarb muammolarini ochib berib, ta’lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida chuqur mulohaza yuritadi. "Birinchi muallim" hikoyasi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-ma’rifiy muhitni tasvirlaydi. "Birinchi muallim" kitobi o‘z ichiga bolalar uchun mo‘ljallangan axloqiy hikoyalar, o‘gitlar va ta’limiy g‘oyalarni oladi. Asardagi hikoyalar orqali bolalarga halollik, mehnatsevarlik, sabr-qanoat, rostgo‘ylik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar singdiriladi. Har bir hikoyada ma’rifat va axloqiy tarbiyaning muhimligini ko‘rsatishga intilish seziladi. Asarning ta'limiy ahamiyati:

1. Ilm va ma’rifatning zarurligi;

Avloniy ilm olishni inson kamolotining asosiy omili sifatida ko‘rsatadi. Yozuvchi ilm-fan insonni haqiqiy baxtga etaklovchi kuch ekanini ta’kidlaydi. Boisi, ilmli inson axloqli, to‘g‘ri so‘zli vax ush fe’lli bo‘ladi va bunday insonning ishlari doimo ko‘zlaganidek bo‘lib, atrofida ma’naiyatli- ma’rifatli insonlar jamlanadi. Birinchi muallimda ilm va maktabning ahamiyati haqida shunday deyiladi: "Dunyoda eng baxtli bolalar o‘qumak, yozmakni bilgan bolalardir.".

2. Savodsizlikka qarshi kurash;

Asarda savodsizlik jamiyat taraqqiyotining dushmani sifatida ko‘rsatiladi. Hikoyalarda bolalar bilim olishga undaladi, qoloqlik va johillik qoralangan:

"Bolalarning ko‘zi ochilmas ekan, bu millat bosh ko‘tarmas.".

Bu fikr orqali Avloniy xalqni o‘z farzandlarini maktabga yuborishga da’vat etadi. Zero xalq ilm o‘rganib savod, chiqarar ekan, jamiyat hayotida bo‘lyotgan ishlarni, vaziyatni ko‘ra oldiva uni tahlil etadi. ko‘r-ko‘rona kimgadir ergashib ketmasdan o‘z taqdiri uchun harakat qiladi. Bu harakat esa jamiyat rivojlanishi va siljishi uchun ham bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Asarning tarbiyaviy ahamiyati:

1. Vatanparvarlik va milliy iftixor.

Asarda bolalarda vatan sevgisi, xalq uchun xizmat qilish ruhini shakllantirish ustuvor o‘rin tutadi. "Vatan" bo‘limida quyidagicha deyilgan: "Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur, sening darding boshqa dardni tortib olur.".

Bu satrlar vatan tuyg‘usining inson qalbidagi oliy o‘rni haqida hikoya qiladi. Zero o‘z vatanini sevgan, uni qadrlagan inson vatan taqdirini o‘z taqdiri bilan bog‘lab ko‘radi, o‘zini uning taqdiriga daxldor sanaydi . Yurtida, o‘lkasida

bo‘lyotgan “o‘zgarishlar”ga shunchaki chetdan tomoshabin bo‘lib o‘tirish uchun esa ilmdan ma’naviyatdan yiroq inson bo‘lishi darkor.

2. Axloqiy qadriyatlar.

"Birinchi muallim"dagi hikoyalar orqali Avloniy bolalarni nafaqat ilmu-marifatga chorlaydi balki, ularda isnsoniy qadriyatlar shakllantirishni ham ko‘zda tutadi. Yosh avlodni rostgo‘ylik, adolatparvarlik va mehr-shafqat kabi yuksak axloqiy fazilatlarga chaqiradi. Masalan, "Yomonliq jazosi" hikoyasida noto‘g‘ri yo‘lga kirgan bolaning fojiaviy qismati tasvirlanadi:

"Ey bolalar! Ko‘rdingizmi, yomonning yomonligi o‘z boshiga etdi.".

Bu orqali bolalarda yomon odatlardan tiyilishga da’vat kuchaytiriladi. Har narsaning, zero, yaxshilikning javobi bo‘lgandek, yomonlik ham javobsiz qolmasligini ko‘rsatib beradi.

3. Qanoat va saxovat

Asarda qanoat va saxiylik fazilatlari alohida ta’kidlanadi. Inson har narsada sabr-u toqatli bo‘lishi lozimligi eslatiladi va "Qanoat" hikoyasida Ali va Vali misolida qanoatli insonning baxtga erishishi ko‘rsatiladi:

"Qanoat birla qorun to‘ydirursiz, qanoat bo‘lmasa ko‘p och qolursiz.".

Saxiylik esa "Saxiylik" hikoyasida Said obrazi orqali aks etib, yuqori qadrlanadi, ochlarga yordam ko‘rsatishning savobi yoritiladi.

Asardan namunalar asosida baholash

Avloniy hikoyalari oson, sodda va ta’sirchan tilda yozilgan bo‘lib, yosh bolalar ongiga chuqur singdiriladigan tarbiyaviy g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi. Hikoyalarning oxiridagi xulosalar esa bolalarni mustahkam ma’naviy poydevorga tayantirishga xizmat qiladi:

"Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon, yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.".

Bunday ta’limotlar yosh avlodni barkamol inson etib etishtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimanki, Abdulla Avloniy o‘zining “Birinchi muallim” asari orqali o‘z davrining dolzarb muammolariga dadil murojaat qildi. asari o‘z zamonasida xalqni ilmga chaqirgan, bolalarni bilim va ma’rifatga etaklagan bebaho ma’rifiy asardir. U ilm-fan, axloqiy tarbiya va vatanparvarlikni jamiyatning poydevori sifatida ilgari surdi. Asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, ta’lim va tarbiya sohasida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ilm, ma’rifat insoniy xislatlar va vatanparvarlik g‘oyalarini singdirgan bu asar, yosh avlodni barkamol inson bo‘lib etishishiga katta hissa qo‘shadi. Avloniy merosi har bir zamon uchun ham ma’rifat manbai va tarbiya maktabidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Avloniy. Birinchi muallim. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990. .

2. Qodirov, Sh. "Ma’rifatparvarlik va uning o‘zbek adabiyotidagi ifodasi." Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.

3. Qosimov, B. "Abdulla Avloniy hayoti va ijodi." Toshkent: Fan nashriyoti, 2008.

4. Sharifxo‘jayev, M. "XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti." Toshkent: Fan, 1996.

Charos XUDOYSHUKUROVA
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi
CHDPU

SOTSIOLINGVISTIKADA PSIXOLINGVISTIK VA SOTSIOLINGVISTIK TUSHUNCHALAR MAZMUNI

Annotatsiya. *Sotsiolingvistika, psixolingvistika va sotsiologiya tilni jamiyatdagi o‘rni, shaxs va guruh identifikatsiyasini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqola, tilning ijtimoiy va psixologik tomonlarini, uning jamiyatdagi kuch tuzilmalariga ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada tilning ijtimoiy aloqalarni shakllantirishdagi roli, shuningdek, tilning psixologik va ijtimoiy darajalarda ta'sirlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *guruh va shaxs aloqalari, sotsiolingvistika, tilshunoslik, psixolingvistika, ijtimoiy aloqalar, psixolingvistika.*

Annotation. *Sociolinguistics, psycholinguistics, and sociology play an important role in the study of language's role in society, identity, and group identity. This article analyzes the social and psychological aspects of language, its influence on power structures in society. The article examines the role of language in the formation of social ties, as well as the effects of language on psychological and social levels.*

Keywords: *group and personality relations, sociolinguistics, linguistics, Psycholinguistics, social relations, Psycholinguistics.*

Til – bu nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki insoniyatning ijtimoiy va psixologik jarayonlarini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. U jamiyatdagi turli guruhlar, sinflar, madaniyatlar va ideologiyalar o‘rtasidagi aloqalarni

shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. «Bizning ko‘p millatli Vatanimizning yaxshi Fuqarosi bo‘lmoq uchun o‘z ona tilini, o‘z milliy madaniyatini sevish va bilish juda muhimdir. Kishi o‘z tug‘ilgan uyini qanday sevsa, ona tilini ham shunday sevmog‘i zarur..." (A.A.Leontev, filologiya va psixologiya fanlari doktori, professor). Chunki til-muloqot vositasi, insonni o‘zligini tanitadigan, milliy g‘ururi, uni boshqa millat va elatlardan ajratib turadigan yordamchi.

Tilshunoslik fanining turli sohalari, xususan, sotsiolingvistika, psixolingvistika va sotsiologiya, tilning jamiyatdagi o‘rnini va uning shaxs va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni qanday belgilashini o‘rganishda o‘ziga xos yondashuvlarga ega.

Sotsiolingvistika, tilni jamiyatning ijtimoiy tuzilmalari va guruhlar o‘rtasidagi farqlar kontekstida tahlil qiladi, psixolingvistika esa tilning individning psixologik jarayonlari, xotirasi va ongiga qanday ta'sir qilishini o‘rganadi. Sotsiologiya esa tilni jamiyatdagi kuch tuzilmalari, ijtimoiy me'yorlar va ideologiyalar bilan bog'laydi. Ushbu sohalar o‘rtasidagi o‘zaro bog'liqlik tilni nafaqat ma'lumot uzatish vositasi sifatida, balki ijtimoiy va psixologik tuzilmalar aksidir, degan fikrni ilgari suradi.

Tilning jamiyatdagi ahamiyatini, shaxs va guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarini, shuningdek, tilning psixologik va ijtimoiy darajadagi ta'sirlarini chuqur tahlilqilish zarur. Bu orqali tilning inson hayotidagi markaziy o‘rnini, uning shaxsning ichki dunyosiga ta'sirini va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi rolini yanada aniqlashga intilamiz.

Tilshunoslik filologiya ilmining ilmiy-nazariy asosini tashkil qiluvchi ijtimoiy fandir. U dastlab til qurilishini o‘rganuvchi fan sifatida paydo bo‘lgan. Asrlar osha bu fanning o‘rganish obyekti, predmeti o‘zgarib kelayotir. Eramizdan oldin III-IV asrlarda qadimgi Hindistonda uning "poydevori" tiklangan bo‘lsa, XX1 asrga qadar bu fanning mundarijasi necha bor o‘zgardi, kengaydi. Nihoyat, XX asrning birinchi choragi oxiri va uning keyingi choraklarida tilshunoslik jahon miqyosida mustaqil fan sifatida rivojlandi. Ta'limning barcha bosqichlarida tilning ichki qurilishi bilan bog‘liq masalalari o‘rganildi va bu an'anaviy tilshunoslik sifatida baholandi hamda qadrlandi. Endilikda, ayni mana shu zamonda tilshunoslik fani "ichdan bolaladi". Uning ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yangidan-yangi tarmoqlari ("go‘daklari") paydo bo‘la boshladi. Tilshunoslik ixtiyorida intralingvistika, psixolingvistika, mentalingvistika, etnolingvistika, paralingvistika, energolingvistika, lingvosinergetika va yana boshqa-boshqa nomlar bilan ataluvchi o‘zicha mustaqil oraliq tarmoqlar paydo bo‘ldi. Sotsiolingvistika--til ilmining makrolingvistika, ya'ni tashqi tilshunoslik deb ataluvchi keng tarmoqli sohalari tarkibiga kiruvchi mustaqil yo‘nalishlardan biri. Bu yo‘nalish tilning ichki qurilishini o‘rganuvchi intralingvistika bilan uning xalq tarixi, turmush tarzi, diniy va ma'naviy e'tiqodini o‘rganuvchi jamiyatshunoslik fani oralig‘ida paydo bo‘lgan. Shu bois

Sotsiolingvistika tom ma'nodagi sof tilshunoslik ham, ijtimoiy fanlarning asosini tashkil qiluvchi falsafa ham emas. Tilshunoslikning zamonaviy bu tarmog‘i ijtimoiy tilshunoslikdir, ya'ni sosiolingvistikadir. Sotsiolingvistika, darhaqiqat, yangi tarmoq. U tilning, aniqrog‘i, til qurilishining til jamoasining tarixi, kasb-kori, intilishi, boshqa til jamoalari bilan aloqasi va ularga munosabati, qiziqishi, turmush tarzi, adabiyoti, madaniyati, ma'naviyati, diniy e'tiqodi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan bevosita yoxud bilvosita bog‘liq tomonlarini o‘rganuvchi yangi fandir. Universitet yoxud pedagogika oliy o‘quv yurtlarida tahsil olgan va olayotgan har bir kishi o‘z tilining shu til jamoasi mansub bo‘lgan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq tomonlarini bilmasdan turib, o‘z ona tilining ijtimoiy mavqei va nufuzi bilan chin ma'noda tanish bo‘la olmaydi. Shu bois Sotsiolingvistika shaxsni har tomonlama barkomal va mukammal ziyoli bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Bu fanning ahamiyati ham asosan ana shu maqsadni ko‘zda tutganligida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida, garchi "Sotsiolingvistika" atamasi doirasida qaralmagan bo‘lsa-da, broshyura, maqola, risola xarakteridagi ba'zi ishlar yo‘q emas. Sotsiolingvistikaning falsafa faniga qarashli tomonlari bo‘yicha katta ishlar ham qilingan. Masalan, O‘zbekistonda prof. Q.Xonazarovning yirik hajmdagi ishlarida "kommunizm davri"ga xos kelajak tili haqida ko‘p narsalar aytilgan, biroq ularning barchasi Kommunistik partiya va Sovet davlati siyosati, mafkurasi ta'sirida yozilgan tagi puch xomxayollardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, G‘.Abdurahmonov, F.Abdullaev singari professorlarning sotsiolingvistikaning lingvistik aspekti nuqtai nazaridan yozilgan broshyuralari, maqolalari ham mavjudki, unda o‘zbek tilining so‘nggi yillar taraqqiyot taqdiri rus tilining ta'siri bilan bog‘langan. Himoya qilingan bir qator dissertatsiyalar va yozilgan monografiyalarda ham rus tilining davrning "qudratli til"ligiga imtiyozli urg‘u beriladi. Hozirgi vaqtda u "ish"larning ilmiy va amaliy ahamiyati puchga chiqqan. Xullas, aytilgan bu fikrlar sotsiolingvistikaning muayyan bir mamlakatning siyosiy tuzumi va uning mafkurasiga xizmat qiluvchi sinfiy fan tarmog‘i ekanligiga dalolatdir. Sotsiolingvistika – tilshunoslikning kam o‘rganilgan alohida tarmog‘i. Bu tarmoq fanda hozircha o‘z mustaqil o‘rniga ega bo‘lmagan boshqa bir qator yo‘nalishlar bilan ham bog‘lanadi. Til ichki va tashqi tomonlarga ega murakkab hodisadir. Uning ichki tomonini sof lingvistika o‘rganadi, bu intralingvistika yoki immanent tilshunoslik deb ataladi. Tilning qurilishi, grammatik xususiyatlari va boshqa tilga xos jihatlar uning ichki tomoniga kiradi. Tilning tashqi tomoniga esa til jamoasi, jamiyat bilan aloqador jihatlar kiradi va u tashqi tilshunoslik tomonidan o‘rganiladi. Tashqi tilshunoslik makrolingvistika yoki ekstralingvistika deb ham ataladi. Sotsiolingvistika bu tashqi tilshunoslikka kiruvchi mustaqil tarmoq bo‘lib, til va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi. Sotsiolingvistika tilning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq jihatlarini tahlil qiladi. Sotsiolingvistikaning alohida fan

sifatida shakllanishi 20-asrning 70-yillaridan boshlangan. Ushbu davrda dunyo bo‘ylab sotsiolingvistika masalalariga bag‘ishlangan bir qator xalqaro anjumanlar o‘tkazilgan, masalan, 1972-yilda Boloneda bo‘lib o‘tgan X1 Xalqaro Lingvistik Kongressi va 1974-yilda Torontoda o‘tkazilgan VIII Umumjahon Sotsiologik Kongressi. Sobiq Ittifoqda sotsiolingvistikaning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan bir qator monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgan. V.A. Avrorinning "Problemi izucheniya funktsionalnoy storoni yazika" (1975), L.B. Nikolskiyning "Sinxronnaya Sotsiolingvistika" (1976) va A.D. Shveytserning "Sovremennaya Sotsiolingvistika" (1976) kabi asarlar sotsiolingvistikaning asosiy masalalarini yoritadi. Sotsiolingvistika fani universitetlar va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari o‘quv rejasiga kiritila boshlandi. Bu fan avval rivojlangan mamlakatlarda, keyinchalik esa boshqa mamlakatlar, shu jumladan, O‘zbekiston filologik fakultetlarida ham o‘qitila boshlandi. Biroq, sotsiolingvistikaning hozirgi paytda shakllangan dasturi yoki darsligi mavjud emas, chunki u hali shakllanayotgan va turli xil yondoshuvlar mavjud. Shunday qilib, sotsiolingvistika — tilshunoslik fani doirasidagi eng "yosh" fan bo‘lib, uning rivojlanishi davom etmoqda. Bu fan til va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi til farqlarini, tilni ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatlarda tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Yuqorida ham aytilganidek, Sotsiolingvistika--tilshunoslikning eng yosh tarmog‘i. Bu tarmoqni nomlovchi atama, ya'ni Sotsiolingvistika termin sifatida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. Uni 1952-yili Amerika tadqiqotchisi X.Karri tavsiya etgan. Sotsiolingvistika tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida shakllanga qadar uning obyekti masalasida har xil qarashlar hukm surdi. Chunki sotsiolingvistikaning asosiy masalalari jamiyat va uning siyosiy hamda iqtisodiy shart-sharoitlari bilan bog‘lanadi. Bir mamlakat jamiyati boshqa mamlakat jamiyatidan Farqlanuvchi o‘z davlati, uning siyosiy tuzumi va mafkurasiga ega bo‘ladi. Shu sababli sotsiolingvistikaga turli jamiyatda turlicha tus beriladi. Zero, Sotsiolingvistika o‘rganadigan asosiy masalalar sinfiy va mafkuraviy xarakterga ega bo‘ladi. **Psixolingvistika** – bu til va ongning o‘zaro ta'sirini o‘rganadigan fan bo‘lib, u tilni insonning psixologik jarayonlari, xususan, fikrlash, tushuncha va eslab qolish bilan qanday bog'liqligini aniqlaydi. Psixolingvistikada tilning ishlatilishi va uni qabul qilish jarayonlari inson psixologiyasi va ongi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Sotsiolingvistika esa tildagi ijtimoiy omillarni, ya'ni tilni jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, sinflar, etnik guruhlar va madaniyatlar bilan qanday bog'liqligini o‘rganadi. Bu soha tilda ijtimoiy farqlar, tilni ishlatishdagi o‘zgarishlar, tilning jamiyatdagi roli va uning ijtimoiy vazifalariga qaratilgan. Sotsiolingvistika til va jamiyatning o‘zaro aloqasini o‘rganadi. Psixolingvistika va sotsiolingvistika tilshunoslikning ikki asosiy yo‘nalishi bo‘lib, har biri o‘zining o‘ziga xos

yondashuvlari orqali tilni turli jihatlari bilan o‘rganadi. Ular tilning insonning ongiga, fikr yuritishiga, ijtimoiy roli va madaniy ahamiyatiga qanday ta'sir qilayotganini tahlil qiladi. Har ikkala soha bir-birini to‘ldiradi, chunki til nafaqat psixologik, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham rivojlanadi va faoliyat yuritadi.

Psixolingvistika tilni o‘rganishda individual nuqtai nazardan yondashadi. Bu soha, tilning miyaning ishlashiga, odamning nutq qobiliyatiga qanday ta'sir qilishini o‘rganadi. Masalan, til o‘rganish jarayoni, xotira va diqqatni boshqarish, tushunish va muloqot qilishdagi psixologik mexanizmlar psixolingvistikaning tadqiqot doirasiga kiradi. Psixolingvistikani o‘rganish orqali, tilni qanday va nima uchun anglash, yodlash, nutqni shakllantirish va uni o‘zgartirish jarayonlari haqida ko‘proq ma'lumot olish mumkin.

Sotsiolingvistika esa tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda o‘rganadi. Bu soha tilning ijtimoiy funktsiyalarini, turli ijtimoiy guruhlar orasidagi til farqlarini va til o‘zgarishini tahlil qiladi. Sotsiolingvistik tadqiqotlar jamiyatdagi o‘zgarishlar, gender, etnik guruhlar, yoshlar, sinf va boshqa ijtimoiy faktorlarga asoslangan tilning turli shakllarini aniqlaydi. Bu soha, masalan, shahar va qishloq joylaridagi til farqlari, aksentlar, tillararo aloqalar va boshqa ijtimoiy parametrlar orqali tilni o‘rganadi.

Shu tariqa, psixolingvistika va sotsiolingvistika bir-birini to‘ldiradi, chunki til nafaqat insonning psixologik jarayonlari bilan bog'liq, balki jamiyat va madaniyat bilan ham chambarchas bog'langan. Har bir soha tilni o‘rganish uchun o‘ziga xos metodlar va yondashuvlarni qo‘llaydi, ammo ularning maqsadi bir-birini mukammal tarzda to‘ldirishdir. Psixolingvistika tilda individning psixologik xususiyatlarini tushunishga yordam beradi, sotsiolingvistika esa tilni ijtimoiy guruhlar va ularning madaniyatlari o‘rnida tahlil qiladi. Shunday qilib, bu ikkala soha birgalikda tilni ham ichki, ham tashqi kontekstdagi jarayonlarda chuqurroq o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/10/15/NamDU-ARM-13442-Sotsiolingvistika.pdf

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika

3.https://www.researchgate.net/publication/358242350_DElova_GSafarova_SOTSIOLINGVISTIKA

4.https://www.sciencebox.uz/Sotsiolingvistika sohasining taraqqiyot yo‘nalishlari haqida

5. https://lib.bimm.uz/items/download/7399

6.https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/sotsiolingvistika-tarixi

Хуснора НОРБОЕВА
Студентка Государственного института
искусств и культуры Узбекистана
Научный руководитель: ***Фарогат Дадабаева***
Преподаватель ГИИКУз

Жизненный путь и деятельность Мунаввар Кары Абдурашидханова в сфере просвещения и национального возрождения

Аннотация: *Данная статья посвящена исследованию жизни и деятельности выдающегося узбекского педагога, литератора и общественного деятеля Мунаввар Кары Абдурашидханова. Анализируется его вклад в развитие системы образования в Узбекистане, изучается литературное наследие и общественно-политическая активность. Особое внимание уделяется педагогическим реформам, литературным произведениям и влиянию его идей на развитие национального самосознания и культуры.*
Ключевые слова: *Мунаввар Кары Абдурашидханов, педагогика, национальное образование, литература, общественная деятельность.*

Abstract. *This article explores the life, educational philosophy, and public activities of Munavvarqori Abdurashidkhanov, a prominent Uzbek educator, writer, and social reformer. It highlights his significant contributions to the development of a national education system, his literary heritage, and his socio-political engagement during a time of profound historical change. Using historical, literary, and sociocultural methods, the study reveals the deep impact of his pedagogical reforms and intellectual legacy on the formation of national identity and the cultural landscape of Uzbekistan.*
Keywords: *Munavvarqori Abdurashidkhanov, pedagogy, national education, literature, public activity.*

История развития педагогики в Узбекистане неразрывно связана с личностями выдающихся просветителей и педагогов, среди которых особое место занимает Мунаввар Кары Абдурашидханов. Он жил и творил в период значительных социальных и политических преобразований, когда образование становилось ключевым фактором национального возрождения и модернизации. Понимание роли таких личностей позволяет лучше осмыслить

исторические процессы формирования образовательных систем в условиях смены эпох и идеологий.

Мунаввар Кары Абдурашидханов родился в конце XIX века в традиционной семье, где были глубоки национальные и культурные корни. Его детство и юность совпали с эпохой русской колонизации Средней Азии, что наложило отпечаток на мировоззрение и жизненный путь. Пребывая под влиянием национально-освободительных идей и просветительского движения, он стремился к созданию системы образования, отвечающей требованиям времени и национальной идентичности.

Целью статьи является комплексный анализ жизни, педагогической и общественной деятельности Мунаввар Кары Абдурашидханова, выявление особенностей его педагогических подходов и литературного наследия, а также оценка их влияния на развитие национального образования и культуры в XX веке.

Для достижения целей исследования применялись следующие методы:

1. Исторический метод — анализ архивных документов, биографических сведений и периодической печати того времени позволил восстановить ключевые этапы жизни и деятельности Мунаввар Кары Абдурашидханова.

2. Литературный анализ — исследование содержания педагогических и литературных произведений, выявление идейных и стилистических особенностей, которые отражали национальные и культурные тенденции.

3. Социокультурный анализ — изучение влияния его деятельности на общественную жизнь, образовательные реформы и формирование национального самосознания.

4. Сравнительный анализ — сопоставление педагогических методик Абдурашидхонова с современными подходами в образовании, выявление устойчивых педагогических принципов и новаторских идей.

5. Интерпретативный подход — толкование философских и идеологических оснований педагогики и творчества Мунаввар Кары с учетом исторического контекста и современного состояния педагогической науки.

Применение комплексного методологического аппарата обеспечило глубокий и всесторонний подход к изучению объекта исследования.

В ходе написания данной статьи использовались методы анализа и синтеза, сопоставления,

Особое внимание было уделено изучению архивных материалов, научных трудов, монографий и статей, посвящённых деятельности Мунаввар Кары Абдурашидханова.

Также применялись методы сравнительно-исторического анализа для выявления вклада учёного в развитие просветительства и национального

самосознания в Средней Азии. Исследование проводилось на основе принципов объективности, научности и системности. Автор опирался на материалы, представленные в узбекской, русской и зарубежной литературе, что позволило обеспечить многосторонний подход к изучаемой теме. Кроме того, как студентка Государственного института искусств и культуры Узбекистана, автор смогла интегрировать теоретические знания, полученные в ходе обучения, в структуру научного исследования.

Исследование позволило выявить следующие основные результаты:

Педагогическая деятельность. Мунаввар Кары Абдурашидханов стал одним из пионеров реформирования национального образования, стремясь создать систему, которая сочетала бы традиционные национальные ценности и современные образовательные требования.

В своих трудах он подробно рассматривал методы индивидуального подхода к обучающимся, необходимость формирования творческой личности и воспитания гражданина с высоким уровнем нравственности и культурного сознания.

Особое внимание он уделял вопросам повышения квалификации педагогов, систематизации учебных программ и адаптации иностранных методик с учетом местных условий. Его педагогика основывалась на принципах гуманизма, уважения к культуре и языку народа, что позволяло сохранить национальную идентичность в условиях колониального давления и политических изменений.

*Литературное творчество***.** В литературе Абдурашидханов проявил себя как талантливый писатель, журналист и публицист. Его произведения посвящены просветительской тематике, национальному возрождению и социальным проблемам того времени. Через художественные и публицистические тексты он распространял идеи национального самосознания, образования и необходимости культурного развития.

Его творчество отличалось яркой национальной окраской, использованием фольклорных мотивов и глубоким проникновением в проблемы современного общества. Это способствовало формированию литературной школы и поддерживало просветительское движение в регионе.

Общественно-политическая активность

Мунаввар Кары активно участвовал в общественной жизни, выступая за реформирование образования и защиту национальных интересов. В период советизации Средней Азии он занимал позиции, направленные на интеграцию традиционной культуры с новыми политическими реалиями, стремился к сохранению языка и культурного наследия.

Его деятельность включала участие в создании просветительских организаций, педагогических институтов и культурных центров. Абдурашидханов оказывал значительное влияние на формирование национальной образовательной политики, несмотря на сложные политические условия и ограничения.

Рассмотренные результаты свидетельствуют о том, что Мунаввар Кары Абдурашидханов был не только педагогом и литератором, но и стратегом национального образования. Его педагогические идеи актуальны и в современном контексте, поскольку он сумел объединить классические образовательные ценности с инновационными методами.

Современные исследования подтверждают необходимость более глубокого изучения его педагогического наследия, особенно в условиях глобализации и цифровизации образования, когда вопросы сохранения культурной идентичности становятся первоочередными. Методики Абдурашидханова могут служить примером эффективного внедрения национального компонента в учебный процесс.

Также важно отметить, что его литературное наследие, благодаря своему национальному содержанию и просветительской направленности, продолжает вдохновлять новых поколений исследователей и педагогов. Включение его произведений в образовательные программы может значительно обогатить содержание национальной педагогики и литературы.

В контексте политической активности Абдурашидханов продемонстрировал умение балансировать между традициями и новаторством, что было критически важно для сохранения национальной культуры в сложные периоды исторических изменений.

Роль Мунаввар Кары Абдурашидханова в истории узбекского просвещения и национального возрождения невозможно переоценить. Его деятельность в качестве педагога, публициста и реформатора сыграла ключевую роль в формировании нового типа мышления среди молодежи начала XX века.

Особенно важно отметить его усилия по внедрению джадидских методов обучения, которые стали фундаментом для дальнейшего развития системы образования в Узбекистане. Его школа «Хадича» не только способствовала повышению грамотности среди детей, но и воспитанию новой интеллигенции.

Сравнение с другими представителями джадидизма, такими как Исмаил Гаспринский, показывает, что Мунаввар Кары не просто следовал общей тенденции, а адаптировал идеи реформ к местным условиям, что говорит о его глубоком понимании культурного контекста. В своих статьях и речах он

поднимал вопросы языка, литературы, национальной идентичности и этики. Эти темы остаются актуальными и сегодня, особенно в условиях глобализации и культурных трансформаций.

Также стоит подчеркнуть его вклад в развитие женского образования. В условиях патриархального общества того времени, создание школ для девочек было революционным шагом, требующим не только интеллекта, но и мужества.

Таким образом, деятельность Мунаввар Кары Абдурашидханова можно рассматривать как многогранную: она сочетает педагогическую, просветительскую, культурную и общественно-политическую составляющие. Сегодня его идеи могут служить вдохновением для современных педагогов, историков и культурологов. Изучение его наследия позволяет глубже понять процессы формирования национального самосознания узбекского народа и развития общественной мысли.

Мунаввар Кары Абдурашидханов — выдающийся представитель узбекской педагогики, литературы и общественной жизни, чье наследие имеет значительное историческое и культурное значение. Его вклад в формирование национальной образовательной системы и развитие просветительского движения остается актуальным и востребованным в современной педагогике.

Результаты исследования подчеркивают необходимость широкого применения его педагогических идей в образовательной практике, сохранения и популяризации литературного наследия, а также углубленного изучения его общественно-политической деятельности. Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой современных методик, опирающихся на опыт Мунаввар Кары, и адаптацией его идей к условиям XXI века.

Список литературы

1. Абдурашидханов М. "Педагогические труды". Ташкент, 1950.
2. Каримов, Ш. "История образования в Узбекистане". Самарканд, 2008.
3. Султанов, И. "Национальная педагогика и культура". Ташкент, 2015.
4. Мустафина, Л. "Литературное наследие Мунаввар Кары Абдурашидханова". Журнал "Наука и образование", 2019, №3.
5. Хасанов, Д. "Общественно-политическая деятельность в период советизации Средней Азии". Ташкент, 2010.
6. Назаров, Ф. "Современные подходы к педагогике". Москва, 2020.

Mufassal Shokirova
"Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ***Oybek Qulmurodov***
O'zDSMI mustaqil izlanuvchi

PROFESSIONAL O'ZBEK QO'G'IRCHOQ TEATRINING AN'ANAVIY TEATR IJROCHILIGI NEGIZIDA SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Bu maqolada an'anaviy qo'g'irchoq teatridan professional qo'g'irchoq teatr jarayonlariga o'tishning tarixiy ildizlari hamda dramaturgiyaga asoslangan teatr spektakllari haqida yoritilgan.*
Kalit so'zlar: *teatr, san'at, shodir jamol,chodir hayol, spektakl, qo'g'irchoq teatri.*

Abstract. *This article discusses the historical roots of the transition from traditional puppet theater to professional puppet theater processes and theatrical performances based on dramaturgy.*
Keywords*: theater, art, shadir jamol, chadir hayol, performance, puppet theater.*

"Osiyo qo'g'irchoq teatri bu shunchaki ermak o'yin emas, balki bir qit'a xalqlarining falsafasi, dini adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san'ati va albatta, tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy hodisadir" [1]. Teatrshunos olim Muhsin Qodirovning ushbu jumlalari qo'g'irchoq teatri san'atining naqadar boy tarixga ega ekanligini ifoda etadi. Osiyo xalqlarining madaniyati, san'ati, urf-odati, qadriyatlarini mujassam etuvchi o'zbek qo'g'irchoq teatri marosimlar, xalq o'yinlari, ko'cha tomoshalari negzida shakllanib kelgan bo'lib, uning professionallashuvi boshqa san'at turlariga qaraganda bir oz kechroq yuz berdi. Bu vaqtgacha yozma dramaturgiyaga asoslangan va maxsus bino ichida namoyish etiladigan yangi uslubdagi zamonaviy o'zbek qo'g'irchoq teatri san'atning o'rnini an'anaviy xalq qo'g'irchoq teatri egallab keldi. San'atshunoslik fanlari doktori, professor M.Qodirovning (S.Qodirova bilan hammualliflikda) "O'zbek qo'g'irchoq teatri tarixi" risolasida qadimdan yashab kelgan an'anaviy qo'g'irchoq teatri to'g'risida dastavval, Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom, Nizomiy, Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy singari allomalarning ijodida sochma tarzda ma'lumot berilganligi va ushbu ma'lumotlar shu mavzuda yaratilingan ulkan tadqiqotlarga zamin hozirlab berganligi to'g'risida mulohazalar olib boriladi.

O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining ilk tadqiqodchilari sifatida P.A.Komarov, M.F.Gavrilov, L.A.Perepelitsina singari olimlar o‘zlarining tadqiqotlarida an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri to‘g‘risidagi dastlabki umumiy ma’lumotlarni beradi.

Rus havaskor etnografi P.A.Komarov 1906-1909 yillarda o‘zbek qo‘g‘irchoq teatr tarixini o‘rganish va qo‘g‘irchoqlar kollektsiyasini yig‘ish bo‘yicha samarali izlanishlar olib bordi. Olimnining izlanishlari o‘laroq u to‘plagan materiallar keyingi yaratilgan ko‘plab tadqiqodlarga zamin hozirladi. Ayniqsa, tadqiqochi to‘plagan qo‘g‘irchoqlar kollektsiyasi “Chodir jamol” va “Chodir Xayol” teatri tomoshalarini va ulardagi voqealar, mavzu va g‘oyasini o‘rganishga imkon yaratdi. Shu narsa e’tiborliki, P.A.Komarov rahbarligida tomosha matnlari yozilgan bo‘lib ilk bor og‘zaki qo‘g‘irchoq dramaturgiyasi to‘g‘risida ma’lumot berganligi bilan ahamiyatlidir.

M.F.Gavrilovning rus tilidagi 1928-yilda nashrdan chiqqan “Kukolniy teatr Uzbekistana” (“O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri”) kitobi ham P.A.Komarovning materiallariga tayangan holda yozilgan bo‘lib, qo‘g‘irchoq yasash va boshqarish usullari, qo‘g‘irchoqbozlar mahorati va faoliyati hamda an’anaviy repertuar va uning namunalari to‘g‘risida atroflicha ma’lumot beradi. M.F.Gavrilovning izlanishlari natijasida hozirgi kungacha “Chodir hayol” teatri dramaturgiyasiga oid birgina “Sarkardalar” komediyasi etib kelgan. Olim mazkur pesani 1927-yilda qo‘g‘irchoqboz Y.Tursunboyevdan yozib olishga muyassar bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda “Chodir jamol” tomoshasiga xos bo‘lgan “Kachal Polvon” pesasini ilk bor yozib olgan va fanga tadqiq etgan.

L.A.Perepelitsinaning 1959-yilda bosilib chiqqan “Uzbekskiy narodniy kukolniy teatr” (“O‘zbek xalq qo‘g‘irchoq teatri”) kitobi mavjud tadqiqodlardan farqli o‘laroq qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xos spetsifikasi, tomoshalarining mohiyati va qo‘g‘irchoqbozlarning mahorati to‘g‘risida ma’lumot beradi. Teatrshunos olim M.Qodirovning ta’kidlashicha, “P.A.Komarov bilan M.F.Gavrilov (ularga ergashib L.A.Perepelitsina va boshqalar ham) asosan Toshkent viloyati materiallariga tayangan holda qo‘g‘irchoqbozlarning ko‘proq ijtimoiy ahvoli, qo‘g‘irchoqlarning tuzilishi va tomosha texnikasi xususida fikr yuritgan”. Shu boisdan ham olim O‘zbekiston bo‘ylab uyuushtirilgan ko‘plab ekspeditsiyalarda faol qatnashib, 1972-1979 yillarda o‘zbek va rus tillarida bosilib chiqqan “Xalq qo‘g‘irchoq teatri” hamda “Uzbekskiy traditsionniy teatr kukol” monografiyalari orqali an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri to‘g‘risida etarlicha ma’lumot berdi. Ushbu monografiyalar qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasi va ijrochilik uslublari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berishi bilan qadrlidir.

Mustaqillik yillariga kelib bolalar teatrlari faoliyatini o‘rganishga qaratilgan jarayonlar jadal tus oldi. Bu borada ko‘plab olimlar o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining yutuq va muammolarini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar olib bordi. O‘zbek

qo‘g‘irchoq teatri tarixi va og‘zaki dramaturgiya, ijrochilik uslublari, xalq aktyorlarini aniqlash va faoliyatini yoritish bo‘yicha M.Qodirov samarali izlanishlar olib bordi. Bu borada olimning “O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixi” (S.Qodirova bilan hamkorlikda, 2006) hamda “An’anaviy teatr dramaturgiyasi” (2016) “Xalq qo‘g‘irchoq teatri” (2022) tadqiqotlari ulkan ahamiyatga ega.

“Temuriylar davri tomosha san’atlari” (2007) monografiyasida tarixiy va adabiy manbalarda sochilgan malumotlar asosida qo‘g‘irchoq tomoshalarining qadimgi turlari, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga erishildi. Monografiyaning “Qovurchoq o‘yin” nomli bo‘limida shu haqda so‘z boradi.

Olimning “Qo‘g‘irchoq teatri tarixi” darsligida o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining an’anaviy ko‘rinishidan tortib, zamonaviy qiyofasigacha tahlil etiladi. “Chodir jamol”, Chodir xayol”, qo‘g‘irchoqbozlar faoliyati, hayoti va ijodi bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri tarixining yaxlit qiyofasi gavdalanadi.

“Xalq qo‘g‘irchoq teatri” (2022) kitobida “Qo‘g‘irchoqboz va mahorat” nomli bo‘limda qo‘g‘irchoqbozlar faoliyati va o‘ziga xosligi to‘g‘risida so‘z boradi. Ushbu bo‘lim an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrining aktyorlik mahorati to‘g‘risida so‘z yuritganligi bilan ahamiyatlidir.

Professor Maryam Ashurovaning “Mehrdan yaralgan olam” nomli risolasi, Shermat Hayitbayevning “Qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi” hamda Iroda Turdiyevaning “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari” nomli risolalarda asosiy e’tibor qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasi, rejissurasi va qo‘g‘irchoq boshqarish texnikasiga qaratilgan. Venera Yusupovaning “Kuklovojdeniye rabota s pertatochnoy kukloy” (2020), jahon adabiyotlaridan, N.I.Smirnovaning “Iskusstvo igrayushix kukol” (1983), I.N. Salomonikning “Traditsionniy teatr kukol” singari risolalardagi masalalar qo‘g‘irchoq aktyorligi mahorati bilan bog‘liq bo‘lganligi bois tadqiqot ishimizni yoritishda muhim rol o‘ynaydi.

Qo‘g‘irchoq teatri san’ati hech vaqt san’atshunos va teatrshunoslarning diqqat markazidan tushgan emas. Matbuot sahifalarining deyarli har bir sonida qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosligi, yutuq va kamchiliklari, janr xilma-xilligi muammosi to‘g‘risidagi turli yo‘nalishdagi maqolalar chop etiladi. Bundan tashqari muntazam ravishda yosh izlanuvchilar tomonidan ilmiy ish sifatida mazkur san’atning turli xil masalalari va muammolari o‘rganiladi. Xususan, Arslonova Gulbahor Qurbon qizining “O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik san’atining shakllanish bosqichlari” (Respublika qo‘g‘irchoq teatri misolida), To‘ychiyeva Nodira Baxtiyor qizining “Qo‘g‘irchoq teatrida obraz yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari” (Respublika qo‘g‘irchoq teatri misolida) (2010-2017-y.y) nomli dissertatsiyalari mavzu va yo‘nalishi jihatidan tadqiqot ishimizga yaqin hisoblanadi.

Qo‘g‘irchoq teatri ifoda vositalarining o‘zgachaligi bilan boshqa san’at turlari orasida ajralib turadi. Qo‘g‘irchoq teatri spetsifikasining o‘ziga xosligi

shundaki, sahna markazida aktyor emas, balki qo‘g‘irchoq harakatlanadi. Barcha komponentlar qo‘g‘irchoq imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yaratilinadi. Teatrdagi qo‘g‘irchoqlar oddiy qo‘g‘irchoqlardan farq qiladi. Ular sahnada jonlanib tilga kiradi, kuladi, yig‘laydi, iztirob chekadi, raqsga tushadi, tomoshabin bilan dardlasha oladi. Qo‘g‘irchoqlar bolalarni teatrga maksimal darajada yaqinlashtirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ijodkorlaridan ulkan mashaqqatni talab etadi. Jonsiz qo‘g‘irchoqni spektakl qahramoniga aylantirish, tomoshabin qarshisida gavdalantirish bir so‘z bilan aytganda jonlantirish qo‘g‘irchoq teatri aktyorining zimmasidadir. Qo‘g‘irchoq – qahramonning ishonarli obraz yarata olishi bevosita aktyorning mahoratiga bog‘liq. Bir vaqtning o‘zida turli xil his-tuyg‘ular, hatti-harakatlar va ovoz intonatsiyalari orqali asar voqealari va undagi mushohadalar silsilasini qo‘g‘irchoqlar yordamida jajji tomoshabinga etkazib berish, ushbu san’atning o‘ziga xos spetsifikasini ifoda etadi.

O‘z ishini sevadigan aktyorlar ham novator rejissyorlar singari kamyobdir. Shu boisdan ham bugungi kunda qo‘g‘irchoq aktyorlarini tarbiyalash, ustoz shogirdlik an’nalarini yo‘lga qo‘yish masalalari dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, viloyat teatrlarida kadrlar masalasi hanuzgacha o‘z echimini kutmoqda. Vaholanki, har yili qo‘g‘irchoq aktyorligi yo‘nalishini tamomlab kelayotgan aktyorlar talaygina. Ammo, jonini shu sohada fido qilishni hohlagalari juda oz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirov M., Qodirova S. O‘zbek teatri tarixi. Darslik. “Niso poligrag” 2019-yil.
2. Ashurova M. Mehrdan yaralgan olam. T.:“Zamon poligraf” – 2018 y.
3. Mo‘minova M. Bolalik dunyosida ezgulik uyg‘otib yoxud qo‘g‘irchoq teatridan katta teatr sari. Yuz.uz rasmiy sayti. 2021-yil 09-noyabr.
4. Mamatqulov B. Bolalarni tarbiyalashda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1 / March 2022
5. Hayitbayev Sh. Qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi.T.: A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti, 2007 y.
6. Turdiyeva I. Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari. T.:Zamon poligraf, 2015 y.

Сагдуллаев Абдуллох

студент факультета «Народное творчество»

Научный руководитель: Мукаддам Садыкова,

старший преподаватель ГИИКУз

МУЗЫКА КАК ВИД ИСКУССТВА В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *Обучение английскому языку — это сложный, но увлекательный процесс, требующий системного подхода и мотивации. Одним из самых действенных и популярных методов является использование музыки. Музыкальные произведения, помимо эмоционального воздействия, содержат богатый лексический и грамматический материал, способствующий лучшему усвоению языка. В данной статье рассматриваются эффективные методические способы использования музыки в обучении английскому языку.*

Ключевые слова: *интонация, произношение, восприятие, эффективность, упрощение, мотивация, эмоциональная вовлеченность, воплощение, зрительная и слуховая память.*

MUSIC AS AN ART IN LEARNING THE ENGLISH LANGUAGE

Abstract: *Teaching English is a complex but exciting process that requires a systematic approach and motivation. One of the most effective and popular methods is the use of music. Musical works, in addition to their emotional impact, contain rich lexical and grammatical material that contributes to better language acquisition. This article discusses effective methodological ways of using music in teaching English.*

Key words: *intonation, pronunciation, perception, efficiency, simplification, motivation, emotional involvement, embodiment, visual and auditory memory.*

Изучение иностранного языка — задача не из лёгких которая часто ассоциируется с учебниками, грамматикой и заучиванием слов. Однако существуют методы, которые делают этот процесс более увлекательным и эффективным. И одним из самых приятных и эффективных способов погружения в язык – это музыка. Музыка способна не только улучшить восприятие языка на слух, но и способствует более глубокому запоминанию новых слов, словосочетаний, выражений и грамматических конструкций. Песни на иностранном языке могут существенно ускорить и упростить процесс обучения благодаря своей эмоциональной насыщенности, ритму и повторяемости.

Именно музыка является инструментом развития слуха и произношения. Слушая песни на английском языке, студенты постепенно привыкают к естественному темпу речи, различным акцентам и интонациям. Это особенно важно, поскольку разговорный английский часто сильно отличается от формального языка, используемого в учебниках. Повторяя за исполнителями,

человек интуитивно осваивает правильное произношение и мелодику речи. Многие песни содержат повседневную лексику, фразовые глаголы и устойчивые выражения, которые редко встречаются в академических материалах. Через музыку можно выучить сленг и разговорные обороты, что делает речь более живой и аутентичной. Повторение припевов и любимых строчек также способствует долговременному запоминанию слов и выражений. Музыка как эффективный инструмент изучения иностранного языка вызывает сильные эмоции, а эмоциональная вовлеченность напрямую влияет на эффективность обучения. Песни вызывают ассоциации, вызывают интерес, помогают расслабиться или наоборот – сосредоточиться. Когда студенты поют любимую песню, они не замечают, что занимаются языком. Музыка играет важную роль в изучении английского языка по нескольким причинам – она помогает не только развивать языковые навыки, но и делает процесс обучения более интересным и эмоционально вовлекающим. Имеются ключевые аспекты, которые подчеркивают её значение и улучшает восприятие на слух.

Музыка помогает улучшать восприятие английской речи на слух. Слушая песни, учащиеся привыкают к различным акцентам, интонациям и ритмам английской речи. Песни помогают развивать навык восприятия речи на слух, поскольку содержат естественную, разговорную лексику. Даже если слова поются быстро или с акцентом, регулярное прослушивание позволяет уху привыкнуть к звучанию языка и которое дает возможность обогащает словарный запас.

Музыкальные тексты насыщены фразеологизмами, идиомами и разговорными выражениями, которые редко встречаются в учебниках. Песня может стать источником десятков новых слов, особенно если сопровождать прослушивание чтением текста и переводом. Песни содержимая разнообразную лексику, включая разговорные выражения, фразовые глаголы и идиомы развивают навыки умения разучивать произношение и ритм иностранного языка самостоятельно. Повторяя тексты песни и слов в припеве, студенты практикуют произношение, ударение в словах и ритм английской речи, что помогает говорить более естественно и способствует их запоминанию. Формируется правильное произношение и интонацию. Подпевание помогает улучшить произношение, интонацию и ритм речи, приближая речь изучающего к носителям языка и закрепляет грамматические структуры.

Грамматические конструкции, которые трудно запомнить в теории, легко усваиваются через повторяющиеся фразы в песнях. Музыка помогает лучше запомнить порядок слов, времена и устойчивые выражения. Через

тексты песен можно изучать модальные глаголы, конструкции типа *wish*, *if only*, и другие грамматические явления в контексте. Всем хорошо известно, что многие песни не всегда соответствуют строгим грамматическим нормам, они помогают "почувствовать" структуру английского языка. Некоторые композиции можно использовать как практический материал для анализа грамматических конструкций: времён, условных предложений, модальных глаголов и прочего.

Музыка – мощный эмоциональный стимул повышающий мотивацию и эмоциональную вовлеченность. Изучение языка через любимые песни способствует внутренней мотивации. Музыка вызывает эмоции, а это, в свою очередь, способствует лучшему запоминанию. Любимая песня может стать сильным стимулом к изучению языка. Студенты, которым нравится песня, будут слушать её снова и снова, не замечая, что при этом он повторяют фразы, запоминают произношение и усваивают грамматику. Они охотнее участвуют в заданиях, основанных на интересных музыкальных произведениях.

Через музыку студенты знакомятся с культурой англоязычных стран, что помогает лучше понять контекст использования языка. Изучение культуры через музыку – это глубокий и увлекательный способ понять историю, ценности и мировоззрение народа.

Чтобы использовать музыку в обучении иностранному языку следует выбирать песни по уровню знания языка. Начинающим подойдут простые и медленные песни, например, детские или поп-хиты с повторяющимся припевом. Более продвинутые могут выбирать рэп, рок, фолк, или примеры классики.

Чтение и перевод текстов способствуют конкретному пониманию содержания песни, тем самым появляется возможность освоение смысла каждой строки и новых выражений. Это активирует и зрительную, и слуховую память. Одним из важных этапов в освоении иностранного языка – это-петь вслух, то есть повторение. Подпевание укрепляет артикуляцию и уверенность в речи.

Эффективные практические рекомендации и методические способы в изучении английского языка через музыку:

Чтобы получить максимальную пользу от музыки при изучении английского языка, рекомендуется следующие меры усвоения нового материала:

- выбирать песни с понятной артикуляцией;
- читать тексты песен и переводить незнакомые слова;
- петь вслух для тренировки произношения;

К тому же музыка помогает развивать навыки восприятия речи на слух, то есть, через аудирование песни. Слушая англоязычные песни, учащиеся

учатся различать интонацию, ритм и произношение. Чтобы усилить методический эффект, преподаватели используют нижеследующие приёмы:

- *gap-fill* задания (пропуски в тексте песни) — обучающиеся вставляют пропущенные слова, слушая песню;

- *выделение ключевых фраз* – студенты находят в тексте устойчивые выражения, идиомы или глагольные формы;

- *повторное прослушивание* – помогает закрепить материал и улучшить понимание, изучение лексики и идиом.

Песни содержат повседневную лексику, фразовые глаголы и сленг, что делает их ценным источником живого языка. В процессе изучения лексики применяются следующие методики:

- словарные карточки по песням — создание карточек с новыми словами и примерами из песен;

- контекстуальный анализ – обсуждение значений слов в контексте конкретной песни;

- тематика – подбор песен по определённым темам (любовь, дружба, свобода, природа и т.д.), чтобы пополнять словарный запас тематически.

Обучение иностранному языку через музыку способствует развитию навыков чтения и письма. Работа с текстом песни развивает навыки чтения, а создание собственных песенных строчек или переводов — письма. Эффективными являются следующие подходы:

- анализ текста песни – разбор грамматических структур, времён, синтаксиса;

- перевод песен – студенты переводят песни с английского на родной язык или наоборот;

- сочинение собственных песен или куплетов — творческое задание, развивающее письменную речь;

- караоке и пение - караоке помогает улучшить произношение, интонацию и уверенность в устной речи;

- пение в классе – групповое или индивидуальное исполнение песен, которое способствует сохранения дружественной атмосферы среди студентов;

- соревновательные формы — викторины, музыкальные батлы, "угадай песню".

Музыка – мощный помощник в изучении английского языка. Она делает процесс обучения интересным, живым и эмоционально насыщенным. В сочетании с другими методами, песни могут значительно ускорить прогресс и помочь не только в понимании языка, но и в любви к нему.

Музыка – это не только удовольствие, но и мощный образовательный ресурс. Она делает процесс изучения иностранного языка живым,

эмоциональным и гораздо более эффективным. Если включить любимые песни в ежедневную практику, можно добиться значительного прогресса без скуки и стресса. Музыка является одним из востребованным инструментом в арсенале преподавателя английского языка. Она позволяет соединить познавательные и эмоциональные компоненты обучения, стимулируя интерес и способствуя более глубокому усвоению материала.

Эффективное использование музыки требует методической гибкости и учёта индивидуальных особенностей учащихся, но результаты того стоят: язык становится не только предметом изучения, но и частью культурного и личностного опыта.

Список литературы

1. Browne, C., & Ryle, M. (2016). English for Special Purposes: Theatrical Arts Education. TESOL Quarterly, 50(3), 612-630.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Longman.
4. Byram, M. (2004). The Intercultural Dimension in Language Teaching. Language Teaching, 37(3), 1-17.
5. Kramch, M., & Masny, D. (2002). The Role of English in Theatre Education: A Global Perspective. Journal of Language and Communication, 15(2), 45-58.

Shohinur SOATOVA, *O‘zDSMI talabasi*
Ilmiy rahbar: ***Dilfuza ABDUXALIKOVA***
katta o‘qituvchi

JADID AYOLLARNING O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA SAN’ATI RIVOJIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchilik davrida faoliyat yuritgan ayollar – shoiralar, aktrisalar va muallimalarning o‘zbek tili, adabiyoti va san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Ilk o‘zbek ayol shoiralari va aktrisalarining ijodiy faoliyati, ularning jamiyatdagi o‘rni va madaniy merosi ilmiy manbalar va tarixiy iqtiboslar asosida yoritiladi. Ayollar matbuoti, teatr san’ati va adabiyotdagi*

ishtiroki orqali o‘zbek milliy madaniyatining taraqqiyotida muhim burilishlar yuzaga kelgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *jadid ayollari, o‘zbek adabiyoti, sahna san’ati, ayol shoiralar, jadid teatri, milliy uyg‘onish, ayollar matbuoti, ma’rifat.*

Abstract. *This article explores the role of Jadid women – poets, actresses, and educators – in the development of the Uzbek language, literature, and art. It analyzes the creative contributions of the first Uzbek female poets and stage actresses, highlighting their cultural legacy and societal roles through historical sources and quotations. The study emphasizes how women’s participation in press, theater, and literature became a turning point in the evolution of Uzbek national culture.*

Key words: *Jadid women, Uzbek literature, performing arts, female poets, Jadid theater, national awakening, women's press, enlightenment.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy va siyosiy uyg‘onish sifatida, balki madaniy-ma’naviy taraqqiyotning ham poydevorini yaratdi. Bu harakat ichida erkak ziyolilar bilan bir qatorda ayollar ham faol ishtirok etib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intildilar. Jadid ayollarning o‘zbek tili, adabiyoti va san’atiga qo‘shgan hissasi hozirgi kunda chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzulardan biridir. Jadid ayollar tilni ona tilida ta’lim berish orqali rivojlantirdilar. Ma’rifatparvar ayollar tomonidan ochilgan maktablarda o‘zbek tilida darslar o‘tilib, xalq tiliga yangicha yondashuv paydo bo‘ldi. O‘sha davrning ma’lum ayol muallimalari, masalan Xalfa Bibixonim tuman va qishloqlarda maktablar ochib, “ilm ayollar uchun ham farzdir” degan fikrni ilgari surganlar.

Til – millatning ruhi. Ayol ona bo‘lishi bilan birga, ona tilining asrori ham bo‘lishi lozim. Tilning millat hayotidagi o‘rni va ayolning jamiyatdagi mas’uliyati chuqur ahamiyat kasb etadi. Til millatning ruhi bo‘lishi – u orqali xalqning tarixi, qadriyatlari, dunyoqarashi avloddan avlodga o‘tishi kerakligini anglatadi. Ayol esa nafaqat farzand tarbiyalovchi, balki madaniyat, ma’naviyat va tilni saqlovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo’ladi. Demak, har bir ayol farzandiga nafaqat jismoniy hayot, balki ma’naviy boylik, til va ruhiyatni ham ato etuvchi – millat ruhining asosi bo‘lishi kerak. Shu bois ayollarimiz o‘z ona tilimizga e’tiborli, uni sevuvchi va avlodlarga to‘g‘ri etkazuvchi bo‘lsalar, millat ruhi abadiy saqlanadi.

Shuningdek jadid ayollar ta’lim berish orqali chegaralanib qolmay O‘zlarini she’riyat sohasida xam sinab ko‘rganlar. Jadid davrining ilg‘or fikrli shoiralari o‘z she’rlari orqali ayolning ijtimoiy faolligini ham targ‘ib qilganlar. Ozod, Dilshod, Robiya kabi ayollar o‘z taxalluslari bilan jadid matbuotida she’rlar e’lon qildilar.

Ular jamiyatdagi tengsizlik, ilmga chanqoqlik va ijtimoiy adolat mavzularini yoritgan. Masalan, Ozod taxallusi bilan ijod qilgan shoira 1914-yilda “Oyina” jurnalida quyidagi satrlarni yozgan edi: “Bilim sirin shirinlikdur, undan bahramand bo‘la bilmak har bir insonga haqdurdur.”

Ayollar uchun mo‘ljallangan ilk matbuot nashrlarida – “Oyina” (1913–1915) va “Ishtirok iyun” (1918) – ayollar tilida soddalikka, ravonlikka va ma’naviy uyg‘otuvchanlikka urg‘u berilgan. Bu jarayon o‘zbek adabiy tilining uslubiy boyishini ta’minladi. “Ayollar jurnali nafaqat xotinlar, balki butun millat ko‘zgusidir”. Mahmudxo’ja Behbudiy tomonida asos solingan va uning muharrirligi ostida nashr qilingan bu jurnal orqali Turkustondagi tub aholini zamonaviy ilmu urfondan,ma’rifatdan bahramad etish , jamoatchilik o’rtasida ham diniy ham dunyoviy ilmlarni o’rgatuvchi manba sifatida foydalanilgan.

O‘zbek teatr san’atining ilk taraqqiyoti jadid harakati bilan bog‘liq bo‘lib, sahnaga ilk ayol aktrisalar chiqishi bu jarayonning muhim bosqichi bo‘ldi. 1920-yillarda Toshkent, Qo‘qon, Farg‘ona teatrlarida ayol ro‘llarini erkaklar emas, ayollar ijro eta boshladilar. Jadid davrida ayollar tomonidan yaratilgan qo‘shiq, ertak, matal va kashtachilik mahsulotlari san’atning uzluksiz rivojiga sabab bo‘ldi. Qo‘shiqchilikda Shirinoy, Muharramxonim, Oysara opa kabi hofizalar xalq orasida mashhur bo‘lgan.

Jadidchilik harakati nafaqat erkak ziyolilarning ma’rifiy va ijtimoiy islohotlarga oid tashabbuslari bilan, balki ayol ziyolilarning ham faol ishtiroki bilan ajralib turadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sahnaga chiqqan jadid ayollar – shoiralar, muallimalar, jurnalistlar va aktrisalar – o‘zbek tili, adabiyoti va san’ati rivojida muhim bosqichni boshlab berdilar. Ular o‘zbek ayolining ovozini ilk bor jamoatchilikka eshittira oldilar va ijtimoiy tenglik, bilim, ma’naviyat, san’at orqali milliy uyg‘onishga xizmat qildilar. Ularning ijodi va faoliyati orqali o‘zbek tilining adabiy va og‘zaki shakllari boyidi, adabiyotda yangi ayol obrazlari vujudga keldi, sahna san’atida ayol aktrisalar faoliyati orqali teatr milliylashdi. Ayniqsa, ayollar matbuoti va shoiralarning she’riy merosi o‘z davrining ruhiy holatini, ayollar ijtimoiy o‘zgarishlarga bo‘lgan ehtiyojini ifoda etdi.Shunday qilib, jadid ayollar faqatgina ma’rifatparvarlik timsoli emas, balki o‘zbek milliy madaniyatining taraqqiyotida faol ishtirok etgan tarixiy shaxslardir. Ularning merosi bugungi kunda ham ilmiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda chuqur o‘rganilishi, qadrlanishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qayumov A. Jadidlar faoliyati va adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1994.
2. Karimova M. Ayollar matbuoti taraqqiyoti. – Toshkent: Matbuot, 2012.
3. Oyina jurnali. 2-son. – 1914.
4. O‘zbek adabiyoti ensiklopediyasi. – Toshkent: Fan, 2000.

5. Alimova D., To‘xtayeva N. O‘zbekiston ayollari tarixi sahifalarida. Toshkent: Sharq, 2000.

Nilufar NAZAROVA *O‘zDSMI talabasi*
Ilmiy rahbar: ***Dilfuza ABDUXALIKOVA***

JADIDLARNING O‘ZBEK MA’DANIYATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Jadidlar harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan islohatchilik harakati bo‘lib, uning asoschilari o‘zbek ma’daniyati, adabiyot va san’atining yangi boshqichga olib chiqishda muhim rol o‘ynaganlar.Ular milliy o‘zlikni anglash, ma’rifatparvarlik va zamonaviy bilimlarni yoyish orqali o‘zbek tilining adabiy meyorlarini mustahkamlashga xizmat qildilar. Jadid adabiyoti jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritib, realism, tanqidiy tafakkur va yangicha poetik shakllarni targ‘ib qildi.*

Kalit so‘zlar: *jadidlar, o‘zbek adabiyoti, san’ati, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, realizm, zamonaviylik, teatr, manbuot, ta’lim islohoti. Cho‘lpon, Fitrat, Avloniy, Munavvarqori, jadid adabiyoti.*

Abstract*. The Jadid movement was a reform movement that emerged in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries. Its founders played an important role in bringing Uzbek culture, literature, and art to a new level. They served to strengthen the literary standards of the Uzbek language through awareness of national identity, education, and the dissemination of modern knowledge.*

Key words: *jadids, Uzbek literature, art, enlightenment, national revival, realism, modernity, theater, material, educational reform.*

Jadidchilik harakati namoyondalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib etgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 191-1920; 1921-1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Jadidlar orasida etuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari etishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, turli

ma’rifat jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidlarning asosiy g‘oya vamaqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqtish. Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash. Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod vafarovon jamiyat qurish. Barqaror, milliy valyutani joriy qilish fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Ayollarni o‘qitishga bo‘lgan urinishlari: Jadidlar orasida ayollar ta’limiga alohida urg‘u berganlar bo‘lgan, lekin bu faoliyat ko‘pincha jiddiy qarshilikka uchragan. 1911-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy ayollar maktabi ochmoqchi bo‘lgan, ammo bu tashabbus diniy konservatorlar va rus ma’murlari tomonidan bostirilgan. Shunga qaramay, Toshkentda va Farg‘onada yashirin tarzda ayollar uchun darslar o‘tilgan. Hozirgi kunda yurtimizda xotin-qizlarning o‘rni , ularning jamiyat hayotida nufuzini har tomonlama oshirish, ularning nufuzini har tomonlama oshirish, ularning ta’lim olishi, ularning ish bilan ta’minlash, ularning mavqeini oshirish masalasida samarali ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida xotin-qizlar masalasiga to‘xtalar ekan, shunday fikrlarni bildiradilar: ‘‘Onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minlash, opa-singillarimizning og‘irini engil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini davom ettrishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz deb bilamiz’’ [1, 12].

Jadidlar farzandlar tarbiyasi ayollar qo‘lida ekanligi alohida ta’kidlangan. Sadriddin Ayniy bu haqidaquyidagi fikrni bildirgan edi: ‘‘Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, savodli bo‘lsa, farzandini ham tarbiyat qilib taraqqiylik odami qiladur’’ [3, 5].

O‘zbekiston Mustaqilligidan keying talqin: Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka ‘‘burjua-liberal harakat’’ deb ta’rif berilgan. SSSR parchalanib ketganidan keyin jadidchilik harakati va uning namoyondalari nomi qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san’atshunos va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy me’rosini o‘rganishda dastlabki natijalarni qo‘lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy 2 jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Siddiq Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy,

So‘fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo‘jayev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashxur vakili kiritilgan ‘‘Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyondalari” (Toshkent,1999) albom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo‘llanmalarga kiritildi.

1999-yil 16-1-sentabrda Toshkentda ‘‘Markaziy Osiyo 20-asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik)” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazilin, unda AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hisdiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqlolchilik harakatlari to‘g‘risida jahon ilm-fanida to‘plangan so‘nggi xulosalar yuzasidan o‘zbekistonlik hamkasblari bilan o‘zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e’tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi.

Adabiyoti va san’ati: 1904-1905-yillardagi rus-yapon urushi, 1905-1907-yillarda bo‘lgan 1-rus inqilobi, 1905-1911-yillardagi Eron inqilobi 1908-yil Turkiyada bo‘lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsandi. Jadidlar o‘z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr trupalari tevaragida to‘planishar edi. Ularning ko‘pchiligi shu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari shoir-u yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyat yaratdilar. 1910-yildayoq ma’rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Adabiyotga ‘‘millat“ va ‘‘vatan” tushunchalari kirib kelgan. Milliy she’rlarga rag‘bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi. Publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O‘zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti deb davrlashtirildi. Jadidlar o‘zbek xalqi hayotiga tom ma’nodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo‘lga qo‘yila boshlandi.

Yevropa ko‘povozli musiqa san’ati bilan tanishgan jadidlar o‘zbek an’anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga da’vat etishgan. 1919-yilda Toshkentning eski shahar qismi (hozir ‘‘Turon” kutubxonasi yonidagi binoda) jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (eski shahar) bo‘limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san’at vositasi bilan millat qadrini ko‘tarish, san’atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar. ‘‘O‘zbekiston Respublikasi” maxsus jildining tegishli bo‘limlariga-adabiyoti, teatri, musiqasiga jadidchilikning aksar vakillari yoshlarga dastavval diniy ta’lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o‘qitish masalasini kun tartibiga qo‘ydilar. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy va boshqalar yangi usul maktablari uchun darsliklar yozib, nashr etishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida], Toshkent, 2000.
2. 2-kitob O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida, Toshkent, 2000.
3. Yusupov P., Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar), Urganch, 2000.
4. Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti, Toshkent, 2000.
5. Abdurashidxonov M., Xotiralarimdan, Toshkent, 2001.
6. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari, Toshkent, 2001.
7. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash, Toshkent, 2001.

Dilbar ABDUQAYUMOVA
Gumanitar fanlar fakulteti,2-kurs talabasi
lmiy rahbar: ***A.U. Muydinova***
f.f.b.f.d (PhD), dotsent v.b.,
ChDPU

FURQAT LIRIKASIDA YOR TIMSOLIGA TAVSIF

Anontatsiya*. Ushbu maqolada o ‘zbek xalqining o‘chmas siymosi va publisistika asoschisi marifatparvar shoir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat lirikasi va lirikasida yor timsoliga semantik tahlil aks etadi.*
Kalit so ‘zlar: *Furqat lirikasi, yor timsoli, oshiq-mashuq, g‘azal, she’riy san’atlar, badiiy vosita, istiora, tashbeh , metafora.*

Abstract. *This article presents a semantic analysis of the image of the beloved in the lyrics and lyrics of Furqat, the indelible figure of the Uzbek people and the founder of journalism, the enlightened poet Zakirjon Kholmuhammad oglu.*
Keywords: *Furqat lyrics, symbol of love, lover, beloved, ghazal, poetic arts, artistic means, allegory, simile, metaphor.*

O‘zbek adabiyotining zabardast vakili, ma’rifatparvar shoir, publisistika asoschisi Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat XIX asrning uchinchi choragida

adabiyotimiz maydoniga kirib keldi.O‘zbek xalqining buyuk siymolaridan biri G‘afur G‘ulom Furqat lirikasi haqida shunday fikrlarni bayon qiladi: “Furqatning lirikasida ichki dard, sog‘inch, iztirob va intilish juda tabiiy va hayotiy ifodalangan”. Bu fikrlar isboti o‘laroq, u o‘zbek adabiyotida gumanistik lirikaning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan adib hisoblanadi.Furqat lirikasi o‘zbek adabiyotining eng go‘zal va nodir namunalari hisoblanadi . U ehtiros to‘la g‘azallar, erkka tashna musaddaslari, iztirob va hijron barq urib turgan she’riy maktublari bilan adabiyotimizga sof , samimiy satrlar olib kirdi.

Furqat ijodini o‘rganar ekanmiz, ijodiy me’rosini naqadar boyligi , janrlar xilma-xilligiga guvoh bo‘lamiz. Furqat lirik shoirdir. Uning ijodida g‘azal, muxammas, musaddas, manzuma, masnaviy kabi janrlar etakchi o‘rin egallaydi.

Xususan, Furqat o‘z ijodida eski adabiyotning an’anaviy shakllaridan foydalanib ,yangi mazmun va g‘oyalarni ifodalagan. U o‘ziga g‘oyibona ustoz deb buyuk siymolar Navoiy va Fuzuliyni biladi . U ijodiy jarayoni mobaynida “Furqat” hamda olim Sharifxo‘ja eshon tavsiyasi bilan “Farhat” taxalluslarini qo‘llaydi . Furqat she’rlarida ona yurt tabiati, bahor go‘zalligi, jo‘shqin sevgi-muhabbat va chin insoniy fazilatlar, hayot shodliklaridan quvonish va turmush tashvishlaridan shikoyat qilish , umuman odam va olam kishilarining ma’naviy dunyosi , mehri va qahri yaqqol tasvirlangan . Shoir ijodining asosiy me’rosini g‘azallar tashkil qiladi, ularning soni 200 ga yaqindir. Shoir she’rlarining asosiy mavzularidan biri bo‘lgan ishq mavzusi shoir ijodida salmoqli o‘ringa ega. Furqat lirikasida ishq mavzusi etakchi o‘rin egallaydi, an’anaviy yor timsoli, oshiq, ma’shuq, ishq, hijron kabi timsollar doim dolzarb. Furqat she’riyatining asosiy motivlaridan biri yor timsolidir Yor timsoli - shoirning ichki kechinmalari, iztiroblari va orzu intilishlarini o ‘zida mujassamlashtiradi. Yor obrazi Furqat ijodida ba’zan ilohiy go‘zallikni, ba’zan esa insoniy mehr va sadoqatning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Furqat yorni tasvirlar ekan, uning jismoniy go‘zalligidan tashqari, ruhiy go‘zalligiga ham alohida urg‘u beradi. Yorning ko‘zi, qomati, yuzi kabi tashqi go‘zalligi tasvirlanishi bilan birga, uning vafodorlik, samimiyat kabi ichki sifatlari ham yaqqol baholanadi. Furqat yor timsolini tasvirlashda suvrati hamda siyratiga alohida e’tibor qaratadi.

Ko‘ngil olgan gul andin , G‘am g ‘ussani yod qilmas

bu misrada shoir yorni ko‘ngilni zavqlantiruvchi, ruhni poklovchi kuch sifatida tasvirlaydi.

Furqat ijodida ba’zan yor sof tasavvufiy ma’nolar bilan boyiydi, yor allohni jamoliga ishora qiluvchi, ilohiy muhabbatni anglatuvchi obraz sifatida talqin qilinadi. Bu uslub Furqat ijodida yorni oddiy dunyoviy sevgi emas balki ilohiy oshuftalikning timsoli sifatida ko‘rsatishga imkon beradi. Bundan tashqari Furqat yorni tasvirlashda metafora, istiora, tashbeh kabi badiiy vositalardan mohirona

foydalanadi. Yor ko‘pincha oydek, guldek, pari, hur kabi timsollar bilan tasvirlanadi. Bu esa obrazni yanada maftunkor va jozibali qiladi:

Yuzing shirin,so ‘zing mo ‘tabar,Gulsan,ammo g ‘amimdek g ‘amzabar

Bu misra orqali shoir yorning yuzini go‘zalliging, so‘zining azizligini, “Gulsan” so ‘zi esa istiora hisoblanadi. “G‘amzabar” so‘zini tahlil qiladigan bo‘lsak, “zabar” arab yozuvida satr usti belgisi hisoblanadi. “G‘amzabar” so‘zidagi “zabar” esa g‘amni ko‘taruvchi va g‘amni ustiga olgan degan ma’nolarni anglatadi. Endi keling, Furqatning ishqiy mavzuda bitilgan “Surmadin ko ‘zlar qaro…” g‘azalidan bir bayt olib, uni ilmiy, badiiy hamda semantik jihatdan tahlilini ko‘rib chiqamiz:

Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar xinodun lolarang,

G‘o‘zadin yuzlarda to‘bu o‘smadin qoshlar tarang.

G‘azalning asosiy g‘oyasi yorning go‘zalligini, uning husni jamolini san’atkorona uslubda maqtash , sevgining shirin azob va uqubatlarini tasvirlash bilan birga, ma’shuqaning go‘zalligi oldida inson aqlining ojizligini ko‘rsatadi. G‘zalda go‘zallikning kuchi va unga bo‘lgan oshiqona muhabbat lirik usulda aks etadi. G‘azalning umumiy semantik strukturasini belgilovchi asosiy semantik ma’noviy g‘oya husn va ishq mavzularining o‘zaro bog‘liqligi va ulardan kelib chiqadigan ruhan azoblanish va sevgiga taslim bo‘lish holatlaridir .

G ‘azal ikkita asosiy semantik qismdan iborat:

Ma’shuqaning husni va jamoli tasviri;

(Birinchi baytlarda)

Ishq azobining oshkor etilishi va oshiqning ruhiy holati;

(Ikkinchi qismda)

“Surmadin ko ‘zlar qaro…” bilamizki, sharq adabiyotida surma ko‘zni yanada jozibador ko‘rsatadi, bu erda shoir ma’shuqaning ko‘zlarini maftunkor qilib tasvirlamoqda.

“Qo‘llar xinodun lolarang…” qo‘llar xino surtilgan va lola kabi qip qizil“G‘o‘zadin yuzlar to‘bu…” bu erda shoir yorning yuzi g ‘o‘za kabi silliq va tovlanuvchi nihoyatda go ‘zal demoqchi

“O‘smadin qoshlar tarang…” qoshlarning ingichka va tarang ya’ni kamonning yoyidek.

Bu baytda qo‘llar lolarang, yuzlarda to‘bu kabi birikmalar tashbih san’atini yuzaga chiqaradi. Bu birgina bayt Furqatning ijodiy mahoratining yorqin dalilidir.

Xulosa qilib aytganda, Furqat o ‘zining barkamol ijodiy lirikasi, jozibali nasri va publisistikasi bilan milliy adabiyotimizrivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Furqat o‘zbek adabiyotining mashhur siymosi sifatida qadrlanadi. Shoirning ijodi o‘zbek adabiyotining nodir namunalari hisoblanadi. Shoir ijodida bunday mahorat bitilgan baytlar, o‘qiguvchi qo ‘liga etib bormagan satrlar talaygina. Shoir ijodi ko‘pgina

adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Hozir biz sizga bayon qilganlarimiz ummondan bir tomchi desak , balki mubolag‘a bo‘lur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. "O‘zbek adabiyoti tarixi" — 1-tom, Tahrir hay’ati: A. Hayitmetov va boshqalar, Toshkent: Fan, 1977.

2. Fitrat. "O‘zbek adabiyoti namunalari haqida mulohazalar" - Toshkent: Fan, 1990.

3. Oybek. "Furqat" maqolasi, Adabiyot va san’at jurnali, 1957-yil.
(Oybekning Furqat lirikasiga bergan baholari.)

4. Hamid Olimjon. "Furqat she’riyati haqida", Guliston jurnali, 1939-yil.
(Hamid Olimjon tomonidan Furqatning lirik asarlari sharhi.)

5. Sirojiddin Sayyid. "O‘zbek mumtoz adabiyoti" — Toshkent: Akademnashr, 2017.

6. G‘afur G‘ulom. "She’riyat va hayot", maqolalar to‘plami — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1960.
(Furqat lirikasining tabiiy va hayotiylik xususiyatlari haqida.)

Fayyoza DOLIYEVA & Nilufar KENJAYEVA
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich talabalari
CHDPU

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY DRAMATURGIYASIDA MA’RIFATCHILIK RUHINING IFODASI: “PADARKUSH” ASARI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining etuk vakili, ma’rifatparvar dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy g‘oyalar, ilm va tarbiya masalalariga munosabat, jamiyat taraqqiyotida ma’rifatning tutgan o‘rni tahliliy yondashuv asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma’rifat, Padarkush, dramaturgiya, tarbiya, axloq, ilm, oila tarbiyasi.*

Abstract. *This article analyzes the drama Padarkush written by Mahmudkhoja Behbudi, a prominent representative of the Jadid movement and one of the*

founders of Uzbek dramaturgy. The study explores the spiritual and moral values expressed in the play, as well as issues of youth education, the role of science and enlightenment in social development, through a scholarly and theoretical approach.

Keywords: *Jadid movement, enlightenment, Padarkush, Uzbek drama, education, morality, knowledge, family values.*

Jadidchilik harakati Turkistonda ma'rifiy uyg'onish jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lgan. Ushbu harakatning etuk vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) o'zining publitsistik, pedagogik va dramaturgik faoliyati bilan xalqni ilm va taraqqiyot sari etaklagan [1]. Behbudiyning 1911-yilda yozilgan "*Padarkush"* nomli dramasi o'zbek dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi [2]. Asar ikki yildan so'ng kitob holida nashr qilinib, "Turon" truppasi tomonidan Farg'ona vodiysining ko'plab shaharlarida sahnalashtirilgan [4].

"*Padarkush"* asarining sahnadagi uzoq umr ko'rishi uning dolzarb ijtimoiy mavzularni yoritganidadir. Asarda millatni ma'rifat sari etaklash, xalqni qoloqlikdan xalos etish, ta'lim va tarbiyaning rolini yoritish kabi masalalar markazda turadi. Dramaning qahramonlaridan biri Ziyoli quyidagicha deydi: *"Hozir yangi zamon. Bu zamonda ilm va hunarsiz xalq boyligini, axloq va obro'sini ham yo'qotadi, hattoki dini ham zaiflashadi"* [5]. Asarda sodda, ammo ta'sirli dialoglar orqali Turkistonliklar hayotiga xos muammolar yoritilgan. Toshmurodning ilmsizligi, tarbiyasizligi, ota-onasiga hurmatsizligi, nihoyatida otasini o'ldirishi orqali muallif ma'rifat etishmasligining qanday fojealarga olib kelishini ko'rsatadi. Boy obrazining ilmga befarqligi, ma'rifatli kishilarni kamsitishi esa bu fojianing asosiy sabablaridan biri sifatida yoritiladi. Domla va Ziyoli obrazlari esa ilm va tarbiyaning hayotiy zarurati timsolidir [2].

Mahmudxo'ja Behbudiy yurtni, millatni, yoshlar kelajagini, ularning ilm olishlari, vatanning taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shilishi uchun bor kuchi bilan harakat qildi. Bu maqsadlar yo'lida hatto asarlar, maqolalar va dramalar nashr ettirdi. Mana shunday dramalaridan bir "Padarkush" dramasidir. Ushbu asar 1911-yilda yozilgan. Oradan ikki yil o'tgach kitob holatda chop etiladi. "Turon truppasi 1914-1916-yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqdi. "Padarkush" Turkistonni junbushga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi tomondan professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi. Asar qahramonlaridan biri - "Ziyoli" aytganidek: "Hozir yangi boshqa zamondir.

Bu zamonda ilm va hunarsiz xalqning boyligi, axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo‘lur”. Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas'uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta'sirli ifodalangan. Asarda ilk bora turkistonliklarga o‘z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar ochiqchasiga gapirilgan. Ilmsizlik, jaholat, to‘g'ri yo‘ldan adashish, oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta'sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini jumbushga keltirdi. dramachiligining hamma tan olgan birinchi na’munasidir. Bir. Behbudiy “Milliy fojia” deb nomlagan 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda boy va dolzarbligi bilan hammaga birdek maqbul bo‘ldi desak adashmaymiz. Mahmudxo‘ja Behbudiy “ Padarkush “ (yoki “O‘qimagan bolaning holi”) dramasini yozish bilan adabiyotda o‘ziga xos yangilik yaratdi. Avvalo, shuni aytish joizki, “Padarkush” dramasida inqilobiy g‘oyalar emas, ma’rifatchilik, komillik qarashlari ilgari suriladi. U jaholat va nodonlikni o‘qimagan bolaning mutloqo noto‘g‘ri yo‘llarga kirib, o‘z otasinining qotiliga aylanganligi haqida so‘zlaydi. Muallifning o‘zi ixcham “Milliy tragediya” deb ta’riflagan bu asari millatning o‘z farzandlarini o‘qitish, ma’rifatli qilish, o‘zi yashayotgan jamiyatni har jihatdan rivojlantirish, bu ezgu amallarni bajarishdan bosh tortgan kishilarning qismati haqida so‘z yuritadi. Behbudiy asar g‘oyasini keskin konfliktlar, to‘qnashuvlar, xarakterlar kurashi asosida ko‘rsatishdan ko‘ra, dramaning ayrim qismlarida ta’lim-tarbiya orqali mamlakatni rivojlantirish mumkinligini hamda turkistonlik yoshlarning ilm olishdan bosh tortishlari yomon oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatishga, ya’ni didaktik tasvirga urg‘u bergan. Shu bilan birgalikda “Padarkush” dramasi orqali o‘zbek teatriga tamal toshi qo‘yildi. Bu asarda u ilmsizlik, jaholatning qanday fojealarga sabab bo‘lishi mumkinligi haqida aytib o‘tadi. Dramada Boy, uning o‘g‘li Toshmurod, yangi fikrli Domla, ruscha tahsil olgan Ziyoli, boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili bo‘lgan Tangriqul va boshqa obrazlar qatnashadi. Ushbu dramaning dastlabki satrlaridanoq Toshmurodning tarbiyasiz ekanligi aniq sezilib turadi. Uning beadablarcha otasi va domla gaplashib o‘tirgan xonaga besalom kirib kelishi, otasini mensimay gapirishi, ilmsizlik og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligining yaqqol namunasidir. Toshmurodning bunday ahvolga tushib qolishida boyning hissasi katta. Uning ilmga befarqligi, ilm ahlini kamsitishi, albatta, bizda boy haqida yaxshi taassurot qoldirmaydi. Uning bu harakatlari esa oxir-oqibat nodon o‘g‘li uning o‘limiga sabab bo‘lishiga olib keladi. Asarda ilm olish zarurligi va uning foydalari Domla hamda Ziyoli obrazlari orqali yoritib berilgan. Behbudiy Boy obrazini pul, mol-dunyoga ega bo‘lgan, ammo farzand tarbiyasi va ilmiga e’tibor bermagan kimsa sifatida aks ettiradi. Dramadagi

boyning eng katta xatosi Ziyoli va Domlaning gapiga quloq solmaganligidadir. Behbudiyning ushbu dramasi orqali shuni bilib olish mumkinki, oilada axloqiy tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgandagina shaxsga xos quyidagi salbiy odatlar: behurmatlik, manmanlik, kibrlilik, ko‘ngli qoralik, sabrsizlik, bilimsizlik, e’tiqodsizlik, adolatsizlik, kattalarni hurmat qilmaslik kabi axloqiy sifatlar shakllanishining oldi olinishiga erishiladi. Oila tarbiyasi bu yuqarida ta’kidlab o‘tilganidek, ota - onalar yoki inson kamoloti uchun mas’ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarini har tomonlama etuk, sog‘lom, bilimli etib tarbiyalashga qaratilgan. Shu o‘rinda aytish joizki, haqiqiy oila bu axloq, tarbiya, ilmlilik asosida qurilgan bo‘lishi, insonlar o‘rtasidagi munosabat va muloqotlarda o‘ta muhim va insonlarning fe’l-atvori, yurish-turishida alohida o‘ringa ega. Agar oilada farzandlar Vatanga muhabbat va oilasiga mehr – oqibatli bo‘lish ruhida tarbiyalanishsa, bu his-tuyg‘u unga butun hayoti davomida hamroh bo‘ladi.

Xulosa. *Padarkush* – o‘zbek dramaturgiyasining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, unda inqilobiy emas, balki ma’rifiy g‘oyalar ilgari suriladi. Behbudiy bu asari bilan sahna san’ati taraqqiyotiga ham tamal toshi qo‘ydi [1]. “Padarkush” dramasi orqali Mahmudxo‘ja Behbudiy xalqni ilmga, tarbiyaga chaqiradi. Asarda jaholat, ilmsizlik qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishi ko‘rsatilgan. Muallif yoshlarni o‘qishga undaydi va ota-onalarni farzand tarbiyasiga jiddiy qarashga chaqiradi. Asar bizga ilmli, tarbiyali bo‘lishning naqadar muhimligini eslatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimov B. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.–T.:Ma’naviyat, 2009.
2. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – T.: O‘qituvchi, 2002.
3. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari.–T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik.–Toshkent: Ma’naviyat

Sevara URAZBEKOVA
O‘zbek tili adabiyoti 23-2 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Sohiba Arzikulova
Adabiyotshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi
CHDPU

ABDURAUF FITRATNING ILMIY MEROSI VA MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek ma’rifatparvar adibi, mutafakkiri va olimi Abdurauf Fitratning boy ilmiy merosi, milliy uyg‘onish davridagi faoliyati,*

ma'naviy-axloqiy qarashlari haqida tahliliy fikrlar bayon etilgan. Fitrat asarlaridagi xalqni uyg'otishga, ma'naviy kamolotga etaklashga qaratilgan g'oyalar, axloqiy qadriyatlar va zamonaviy tafakkur asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Uning ta'lim, adabiyot, falsafa va islohotlar borasidagi fikrlari milliy o'zlikni anglash jarayonidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Fitrat, jadidchilik, ma'naviyat, axloq, uyg'onish, ilmiy meros, milliy tafakkur, ma'rifat, o'zlikni anglash.*

Abstract. *This article presents analytical thoughts on the rich scientific heritage, activities during the period of national awakening, and spiritual and moral views of the Uzbek enlightener writer, thinker, and scientist Abdurauf Fitrat. The ideas, moral values, and foundations of modern thinking in Fitrat's works aimed at awakening the people and leading them to spiritual perfection are scientifically analyzed. The role of his thoughts on education, literature, philosophy, and reforms in the process of understanding national identity is highlighted.*

Keywords*: Fitrat, jadidism, spirituality, morality, awakening, scientific heritage, national thought, enlightenment, self-awareness.*

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: "Xalqning aniq maqsad sari harakatb qilishi , davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq"

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda tavallud topgan. Ilk tahsilini eski usuldagi maktabda boshlagan Fitrat, keyinchalik Istanbulda zamonaviy bilimlarni egallaydi. Uning ilk asarlari ham Istanbulda boshlangan bo'lib, o'zbek, turk va fors tillarida yozilgan. Fitrat jadidchilik harakatining ilg'or namoyandalaridan biri bo'lib, Turkiston, Buxoro va Xorazmda o'tkazilgan ma'rifiy islohotlarda faol qatnashgan. Fitratning hayoti va faoliyati o'zbek milliy uyg'onish davri bilan chambarchas bog'liq. U Buxoro jumhuriyati tashkil topgan davrda vazirlik lavozimida ishlagan, "Chig'atoy gurungi" adabiy to'garagi orqali o'zbek tilining rivoji uchun xizmat qilgan. Ilmiy merosi va fanning turli sohalariga qo'shgan hissasi Fitratning ilmiy merosi keng qamrovli bo'lib, u tilshunoslik, tarix, falsafa, pedagogika, adabiyotshunoslik kabi ko'plab sohalarda qimmatli asarlar yaratgan. "O'zbek tilining sarf ilmi", "O'zbek adabiyoti namunalari", "Eng eski turkiy she'rlar",

“Munozara” kabi asarlari til va adabiyotga bag‘ishlangan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi ilk ilmiy izlanishlar sirasiga kiradi. Fitrat o‘z tadqiqotlarida xalq tili, milliy adabiyot va tarixni o‘rganish orqali o‘zlikni anglashga da’vat etadi. U ilm-fan va ta’limning asosiy vositasi sifatida ona tilini ilgari surgan. Ma’naviy-axloqiy qarashlari Fitratning asarlarida axloqiy-pedagogik g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. U yosh avlodni vatanparvarlik, halollik, sabr-toqat, bilimga intilish kabi fazilatlarda tarbiyalash tarafdori bo‘lgan. “Munozara” asarida qadimgi va yangi maktablar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni muhokama qilarkan, zamonaviy, ilmiy asosda qurilgan ta’lim tizimini yoqlaydi. Bu orqali u faqat tashqi islohotlarni emas, balki inson ichki dunyosining poklanishi, ma’naviy yuksalishini ham nazarda tutadi. Fitrat axloqiy qadriyatlarni milliy o‘zlikning asosiy unsurlaridan biri deb hisoblaydi. U millat taraqqiyotini xalqning ma’naviy yuksalishi bilan bog‘laydi: “Millatning saodati – axloqiy komillikdadir”, deya ta’kidlaydi u. Fitratning pedagogik qarashlari Abdurauf Fitrat o‘z pedagogik qarashlarida bolaning mustaqil fikrlashi, ijodkorlik va axloqiy tarbiyani birinchi o‘ringa qo‘ygan. Uningcha, maktab faqatgina bilim beradigan emas, balki shaxs kamolotini shakllantiradigan muassasa bo‘lishi kerak. U eski maktabdagi yodbozlik, darsliksiz ta’limga qarshi chiqqan va zamonaviy metodikani ilgari surgan. Fitrat ta’limni xalqning ongini o‘zgartirish vositasi deb hisoblagan. “Millatni uyg‘otish uchun avvalo maktabni isloh qilish kerak,” degan fikri uning pedagogik qarashlarining mohiyatini ochib beradi. Fitrat merosining bugungi dolzarbligi Bugungi kunda Abdurauf Fitratning merosi yoshlarni vatanparvarlik, ma’naviy poklik, ilmga intilish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning islohotparvarlik g‘oyalari, xalqni uyg‘otishga qaratilgan faoliyati, milliy qadriyatlarga tayanib taraqqiyotni yoqlagan pozitsiyasi mustaqillik davridagi ma’naviyat siyosatiga hamohangdir. Fitratni o‘rganish nafaqat tarixiy xotira, balki zamonaviy o‘zlikni anglash, ma’naviy yuksalish yo‘lidagi muhim qadamdir. Abdurauf Fitratning boy ilmiy merosi va ma’naviy-axloqiy qarashlari o‘zbek xalqining ma’rifatga, taraqqiyotga intilishi yo‘lida muhim o‘rin tutadi. U xalqni zulmatdan nurga olib chiqishga harakat qilgan buyuk jadid bo‘lib, bugun ham biz uchun ibrat manbaidir. Fitratning ilmiy va ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, uni amaliy hayotda qo‘llash – jamiyatimiz ma’naviy yuksalishining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurauf Fitrat. “Munozara”. – T.: Fan, 1990.
2. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Mirvaliyev B. “Fitrat – o‘zbek milliy tafakkurining buyuk namoyandasi”. – T.: O‘zbekiston, 2017.

4. Rasulov B. “Jadidlar merosi va mustaqillik mafkurasi”. – T.: O‘zbekiston, 2001.
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. 3-tom. – T.: Fan, 1978.

Oltinoy HASANOVA
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: ***Komilova Gulmira***
CHDPU

LINGVISTIK VA SOTSIOLINGVISTIK TUSHUNCHALAR: TILNI JAMIYATDA TUSHUNISH VA TAHLIL QILISH

Annotatsiya. *Ushbu tezisda tilning jamiyatdagi o‘rni va uning ijtimoiy, madaniy, psixologik jihatlaridan qanday tahlil qilinishini o‘rganadi. Tezisda til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, tildagi ijtimoiy tafovutlar va tilni tanlashdagi omillar o‘rganiladi. Shuningdek, til va madaniyatning bir-biriga ta'siri, tilning ijtimoiy guruhlar, gender, yosh va etnik jihatlar bilan bog'liq ravishda qanday o‘zgarishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvistik tushunchalar, sotsiolingvistika, til va jamiyat, ijtimoiy tafovutlar,til va madaniyat, o‘zaro aloqadorlik, ijtimoiy kontekst.*

Annotation. *This thesis examines the role of language in society and how it is analyzed from social, cultural, and psychological perspectives. It explores the interactions between language and society, social differences in language, and the factors influencing language choice. Additionally, the influence of language and culture on each other is analyzed, as well as how language chanGES in relation to social groups, gender, age, and ethnic aspects.*

Key words*: Linguistic concepts, sociolinguistics, language and society, social differences, language and culture, interconnection, social context.*

Til – insoniyatning eng boy va murakkab vositalaridan biri bo‘lib, o‘zida nafaqat o‘ziga xos tizimni tashkil etadi, balki jamiyat har bir a’zosining o‘zaro aloqalarini, madaniyatini va ijtimoiy hayotini shakllantiradi. U so‘zlar, grammatik tuzilmalar va talaffuzlardan iborat bo‘libgina qolmay, balki har bir guruhning, har bir sinfning o‘ziga xos o‘zaro muloqoti va aloqalari uchun zarur vositadir. Tilni o‘rganish, uning jamiyatdagi roli va o‘zgaruvchan dinamikasini tushunish, lingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi.Til nafaqat

axborot uzatish vositasi sifatida ishlatiladi, balki ijtimoiy mavqelarni belgilash, guruhlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish, madaniy kodlarni shakllantirish va barcha jamiyat a'zolarining o‘zaro munosabatlarini ifodalovchi kuchdir. Har bir so‘z, har bir grammatika qoidasi, har bir talaffuzning o‘ziga xos ma'nosi bor va bu ma'no jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, hatto shaxslar o‘rtasidagi aloqalar orqali shakllanadi va o‘zgaradi.

Lingvistik tushuncha – tilni o‘rganish va tahlil qilishning asosiy nuqtalaridan biridir. Bu tushuncha, avvalo, tilning grammatik tuzilishi, fonologiyasi, sintaksisi (so‘zlar va ularning o‘rni) kabi strukturaviy xususiyatlariga asoslanadi. Lingvistika, tilni o‘rganishda uning shakli, tuzilishi va grammatik normalarini, ya'ni tilning "ichki" qoidalari va me'yorlarini aniqlaydi. Bu soha tilni, uning fonetik va morfologik xususiyatlarini, sintaksik (so‘z va gap tuzilishi) tizimini va leksik (so‘zlar va ularning ma'nolari) tarkibini o‘rganadi.

Sotsiolingvistik tushuncha esa tilni jamiyatning ijtimoiy va madaniy kontekstida o‘rganishga qaratilgan. Bu yondashuv tilning jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy guruhlar orasidagi farqlarni qanday aks ettirishi, tilning mavqeini va uning o‘zgarishini tahlil qiladi. Sotsiolingvistika, tilning jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirni va munosabatlarni o‘rganadi. Bu soha tilni nafaqat grammatik yoki fonologik nuqtai nazardan, balki uning jamiyatdagi roli va funktsiyalaridan, ijtimoiy sinflar, jins, yosh va boshqa omillar bilan aloqasidan tahlil qiladi.

Lingvistik tushunchalar tilning grammatik tuzilishi, fonologiyasi va sintaktik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, sotsiolingvistik yondashuv esa bu xususiyatlarni jamiyatning ijtimoiy va madaniy kontekstiga bog‘laydi. Ijtimoiy kontekst — bu til yoki boshqa harakatlarning amalga oshirilishi va qabul qilinishi jamiyatning ijtimoiy sharoitlari va madaniy omillari bilan bog'liq bo‘lgan muhitni anglatadi. Bu kontekstda, biror til birligi (so‘z, ibora, jumla) yoki harakat ijtimoiy guruhlar, munosabatlar, urf-odatlar, qadriyatlar, kelib chiqishi, jinsiy, yosh, etnik guruhlar va boshqa ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda shakllanadi va tushuniladi.

Masalan, biror so‘zning ma'nosi yoki maqsadi faqat uning o‘zi bilan cheklanib qolmaydi, balki u qayerda, kimlar bilan va qanday sharoitda ishlatilayotganiga bog'liq. Ijtimoiy kontekst tilni qaysi guruh, mintaqa yoki davrda ishlatilayotganini tushunishga yordam beradi va uning ma'nosini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash nuqtasida rivojlanayotgan sotsiolingvistika misol bo‘la oladi. **Sotsiolingvistika** (lot societas — jamiyat va lingvistika) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida

tutgan o‘rni bilan bog‘liq ko‘plab muammolar majmuini o‘rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi. Sotsiolingvistika termin sifatida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. Uni 1952-yili Amerika tadqiqotchisi X.Karri tavsiya etgan. Sotsiolingvistikaga berilgan talqindayoq uning obyekti masalasidagi noaniqlikni sezsa bo‘ladi. Ayniqsa, sotsiolingvistikaning lug‘atda qayd etilgan ikkinchi talqinida uning obyektiga daxlsiz boshqa narsa haqida gapirilgan. Negaki, tilning hududiy shakllari lahja va sheva atamalarni anglatadigan lisoniy tushunchalar sanalib, tilshunoslikka qarashli Dialektologiyaning o‘rganish obyekti sanaladi. Zamonaviy sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri bo‘lgan amerikalik tadqiqotchi U.Labov sotsiolingvistikani "tilni uning ijtimoiy kontekstida” o‘rganadigan fan sifatida belgilagan. Boshqacha qilib aytganda, sotsiolingvistlar tilga ham, uning ichki tuzilishini o‘rganishga ham e’tibor qaratmaydilar. Ular, asosan, u yoki bu jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanishlarini tadqiq etadilar. Bunda tilga ta’sir qiluvchi barcha ijtimoiy omillar: muloqotga kiruvchilarning yoshi, jinsi, madaniyati va bilim darajasi, kasbidan tortib, to aniq nutqiy aktning xususiyatlarigacha hisobga olinadi.

U.Brayt fikricha, sotsiolingvistik tadqiqotlar til va jamiyat munosabatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq bunday qarash ham noaniqlikni keltirib chiqaradi. Agar biz bunga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, unda til va jamiyat shunchaki qandaydir birliklarning majmuyi emas, balki ular struktura hisoblanadi. Mazkur holatda sotsiolingvistning vazifasi til strukturasidagi va ijtimoiy strukturadagi o‘zaro munosabatlar tizimini ochib berish bo‘ladi. Ya’ni sotsiolingvistlarning vazifasi lingvistik strukturaning sistematik qo‘shma variatsiyalashuvini ko‘rsatib berish, hatto, u yoki buy o‘nalishning tasodifiy aloqasini ochib berishdan iboratdir. Sotsiolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri mazkur variatsiyalarning haqiqatan ham “erkin” emasligi, ularni sistematik, sotsial farqlar bilan o‘zaro aloqada ekanligini ko‘rsatib berishdir. Til farqliligini ana shunday keng planda tushunish sotsiolingvistikaning asosiy obyekti sanaladi. Fransuz tilshunoslarining fikriga ko‘ra, diskurs tahlili, til me’yori, variantlilik, diglossiya kabi muammolar sotsiolingvistikaning obyekti hisoblanadi.

Tilni o‘rganish va tahlil qilishda lingvistik va sotsiolingvistik tushunchalar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, har biri tilning turli jihatlarini yoritadi. **Lingvistik** yondashuv, avvalo, tilning "ichki" strukturaviy jihatlarini, ya'ni grammatik tuzilishini, fonologiyasini, sintaksisini va leksikasini o‘rganadi. Bu yondashuv tilni o‘zida mavjud bo‘lgan qoidalar, me'yorlar va tuzilmalardan iborat tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Lingvistika tilni, uni yaratgan individual va jamoaviy qoidalar asosida o‘rganadi, so‘zlar, gaplar va ularning tuzilishi qanday shakllanayotganini, qanday normalarga mos kelishini tahlil qiladi.

Sotsiolingvistik yondashuv esa tilni jamiyatning ijtimoiy va madaniy kontekstida o‘rganishga qaratilgan. Bu yondashuv tilni nafaqat grammatik yoki fonologik jihatdan, balki uning ijtimoiy funktsiyasi, jamiyatdagi o‘rni va o‘zgarishi nuqtai nazaridan ham tahlil qiladi. Sotsiolingvistikada tilning turli ijtimoiy guruhlar, sinflar, madaniyatlar va hatto demografik omillar (masalan, yosh, jins, ta'lim darajasi) bilan qanday bog‘langanligi va qanday o‘zgarishlarga uchragani o‘rganiladi. Tilning jamiyatdagi o‘zgaruvchanligi va uning ijtimoiy qatlamlar orasidagi farqlari, bu yondashuvning markazida turadi.

Ikkala yondashuv ham tilning mohiyatini tushunishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. **Lingvistik** tahlil tilning tuzilishini, uning so‘z va gaplar yordamida qanday ifodalanishini o‘rganadi, ya'ni tilni o‘z "ichki" jihatidan tahlil qiladi. **Sotsiolingvistik** yondashuv esa tilni jamiyatda qanday ishlashini, ijtimoiy kontekstda qanday rol o‘ynashini va guruhlar o‘rtasidagi farqlarni qanday aks ettirishini tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, tilni chuqurroq tushunish uchun har ikki yondashuv bir-birini to‘ldiradi.

Birgalikda, lingvistik va sotsiolingvistik tushunchalar tilning har tomonlama murakkab tabiatini ko‘rsatadi. Birinchisi tilning shakl va tuzilishini o‘rganib, uning ichki mexanizmlarini ochib beradi, ikkinchisi esa tilning jamiyatdagi o‘zgarishlari va ijtimoiy aloqalaridagi roli haqida muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Bu yondashuvlar birgalikda tilning nafaqat grammatik, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ishlashini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sotsiolingvistika tili va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganadigan muhim fan sohasidir. Uning asosiy vazifasi – tilning ijtimoiy omillar ta’sirida qanday o‘zgarishini aniqlashdir. U.Labov hamda U.Brayt kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar sotsiolingvistikaning ilmiy asoslarini belgilab berdi. O‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalish hali to‘liq rivojlanmagan bo‘lsa-da, mavjud lisoniy vaziyatni o‘rganish va tahlil qilish ushbu fan sohasini kengaytirish imkonini beradi. Hozirgi globallashuv davrida til siyosati, til variantlari, kasbiy til va tilning ijtimoiy funksiyalari kabi masalalar sotsiolingvistik tadqiqotlar uchun dolzarb sanaladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, madaniyat va tafakkurni aks ettiruvchi kuchdir. Lingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar tilni o‘rganishda bir-birini to‘ldiruvchi muhim yondashuvlardir. Lingvistik yondashuv tilning ichki tuzilishi, grammatik qoidalari va fonetik jihatlarini tahlil qilsa, sotsiolingvistik yondashuv tilning jamiyatdagi o‘zgarishlar, guruhlar o‘rtasidagi farqlar va ijtimoiy funktsiyalarni o‘rganadi. Bu ikki yondashuv birgalikda tilning har tomonlama murakkab tabiatini, uning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi roli hamda o‘zgarishini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, tilni to‘liq tushunish uchun

faqat uning strukturaviy jihatlari emas, balki jamiyatdagi o‘zgarishlar va ijtimoiy aloqalar ham e'tiborga olinishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Erkaboyeva Nargiza. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent: ”Yosh kuch”, 2023

2. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/10/15/NamDU-ARM-13442-Sotsiolingvistika.pdf

3. file:///C:/Users/user/Downloads/13351.pdf

4. https://renessans-edu.uz/files/books/2024-11-27-05-15-17_2413a6c7b245c8af4235e53e9a5d03dd.pdf

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika.

Yulduz QO‘ZIYEVA
Kutubxona-axborot faoliyati
fakulteti 3-bosqich talabasi
O‘zDSMI

JADIDCHILIK, KUTUBXONALAR VA MUTOLAA – MA’NAVIY UYG‘ONISHINING TAMAL TOSHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakatining o‘zbek tili, adabiyoti va san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Jadidlar tomonidan olib borilgan islohotlar, xususan, yangi usulda o‘qitish tizimining joriy etilishi, ona tilida darsliklar va matnlarning yaratilishi, milliy adabiyotda ma’rifiy va ijtimoiy g‘oyalarning ilgari surilishi hamda san’atning turli sohalarida amalga oshirilgan yangilanishlar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy adabiyot, ma’rifatparvarlik, ta’lim islohoti, madaniy meros, Yangi O‘zbekiston, zamonaviylik.*

Abstract. *This article explores the contribution of the Jadid movement, which emerged in Turkestan at the beginning of the 20th century, to the development of the Uzbek language, literature, and arts. The study highlights the educational reforms introduced by the Jadids, including the implementation of new teaching methods, the creation of textbooks in the native language, and the promotion of enlightenment and social ideas in national literature.*

Keywords: *national literature, enlightenment, educational reform, cultural heritage, New Uzbekistan, modernization.*

O‘zbekiston tarixida jadidchilik harakati xalqimizning ma’naviy uyg‘onish sari tashlagan eng jasoratli va sermazmun qadamlardan biri bo‘lgan. XX asr boshlarida shakllangan bu harakat Turkiston o‘lkasida ilm-ma’rifat, madaniyat va tafakkur yuksalishining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Jadidlar xalqni jaholat botqog‘idan qutqarish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va taraqqiyot sari etaklashni bosh maqsad qilib oldilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida bejizga bu harakatni milliy uyg‘onishning manbai sifatida baholamadi. Darhaqiqat, Is’hoqxon to‘ra Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlar yurtda xalq ma’naviyatini yuksaltirish, yangi bilimlarni yoyish, matbuot, maktab va eng muhimi – kutubxonalar orqali ma’rifatparvarlik ruhini tarqatishga harakat qildilar.

Xalqni ma’naviy boyitish yo‘lida tashkil etilgan kutubxonalar alohida ahamiyat kasb etdi. “Kutubxonai-Behbudiya”, “Ma’rifat”, “Turon” kabi nashriyot kutubxonalari xalq orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirdi. Ayniqsa, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhitda jadidlar o‘z xonadonlarida maktablar ochib, jamoat kutubxonalarini barpo etganlari xalqimiz tafakkurida o‘ziga xos inqilob yasadi. Bu kutubxonalar nafaqat kitob beruvchi maskan, balki ma’naviy uyg‘onish, savodxonlik va taraqqiyot maydoniga aylandi.

Ammo bu harakat oson kechmadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda mavjud bo‘lgan madrasalar va masjidlardagi kutubxonalar mustamlaka siyosati ta’sirida moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldi. Rossiya imperiyasi tomonidan vaqf erlari tortib olinishi, iqtisodiy manbaalar keskin qisqarishi natijasida o‘sha kutubxona tizimlari izdan chiqdi. Jadidlar aynan ana shunday og‘ir sharoitda yangicha yondashuv – xalq uchun ochiq, zamonaviy kutubxonalar g‘oyasini ilgari surdilar.

Jadidchilik davri kutubxonachiligiga asos solgan eng mashhur arboblardan biri – Is’hoqxon to‘ra ibrat edi. U 1908-yilda Namangan uezdining To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida "Matbaai Is’hoqiya" nomli nashriyotga asos solib, uni 1910-yilda Namanganga ko‘chirdi va uning qoshida “Kutubxonai Is’hoqiya”ni tashkil etdi. Bu kutubxona o‘zbek, fors-tojik, rus, tatar va turk tillaridagi adabiyotlar, darsliklar, matbuot namunalarini jamlagan. Is’hoqxon to‘ra kitoblarni tartib bilan yuritish, kutubxona faoliyatini muvofiqlashtirish uchun alohida mudir tayinlagan bo‘lib, bu holat o‘z zamonasi uchun ilg‘or boshqaruv shakli edi.

Buxoroda yosh buxoroliklar tomonidan tashkil etilgan “Ma’rifat” kutubxonasi ham jadidchilik harakatining yorqin namunasi bo‘ldi. Kutubxona fondida Istanbulda chop etilgan “Hikmat”, “Sirotul Mustaqim”, “Ta’rif-ul-muslimin” jurnallari, Rossiyada chop etilgan “Tarjimon”, “Irshod”, “Vaqt” gazetalari, “Sho‘ro” jurnali va Turkistondagi jadid matbuoti namunalari jamlangan. Bu kutubxona yosh avlodni yangicha fikrlashga, dunyoqarashi keng inson bo‘lib etishishiga xizmat qilgan.

Jadidlar faqatgina kutubxonalar emas, balki kitob uylari va nashriyotlar orqali ham ilm-ma’rifatni yoyishga intildilar. 1912-yilda R.Rasulzoda tashabbusi bilan ochilgan “Ma’rifat” shirkati, 1914-yilda Qo‘qonda Ibrohim Davron tomonidan tashkil etilgan “Madora” kitob uyi, Hamza Hakimzoda Niyoziy asos solgan “G‘ayrat” (1915) va “Birlik” (1916) kitob uylari bu borada katta xizmat qilgan.

Toshkentda “Nashriyot” (1914), “Maktab” (1916), “Nashri Maorif”, Buxorodagi “Barakat” (1914), Samarqanddagi “Zarafshon” shirkatlari kutubxonachilik, qiroatxonalar, nashriyot va kitob savdosi bilan faol shug‘ullangan. Ularning ta’sis hujjatlarida aniq ko‘rsatib o‘tilganidek, ularning asosiy maqsadi – musulmon aholiga Yevropa madaniyatini ommalashtirish, matbuot, kitob va qiroatxonalar orqali ma’rifat urug‘ini sochish bo‘lgan.

Jadidlarning etakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan Samarqandda tashkil etilgan “Kutubxonai Behbudiya” esa nafaqat kutubxona, balki o‘ziga xos madaniy-ma’rifiy markazga aylangan. Bu erda keng o‘quv zallari, qiroatxona, hatto kitob do‘koni ham faoliyat yuritgan. Kitobxon istasa, kitobni o‘sha erda mutolaa qilishi yoki sotib olib uyiga olib ketishi mumkin edi. Bu esa o‘z zamonasi uchun noyob tajriba bo‘lib, keyingi kutubxonachilik an’analariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu kutubxonaning fondlari juda boy edi. Behbudiy Turkiya, Hindiston, Rossiya, Afg‘oniston, Misr va Eron kabi mamlakatlardan kitoblar olib kelgan. Bunday keng qamrovli faoliyat bu kutubxonani o‘z davrining ilg‘or ilmiy markaziga aylantirgan.

Jadidlarning kutubxonachilik faoliyati – bu oddiygina kitob saqlash emas, balki xalqni uyg‘otish, ma’naviyatni yuksaltirish, ilmga chanqoqlikni qondirish yo‘lidagi izchil va qat’iy harakat edi. Ular qurgan kutubxonalar va qiroatxonalar o‘sha davr yoshlariga yangi dunyo eshigini ochib berdi. Bugungi kunda biz ushbu ma’rifatparvarlik harakatini chuqur o‘rganib, ulardan o‘rnak olishimiz, zamonaviy kutubxonachilik ishiga dadil tatbiq etishimiz zarur.

Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilari o‘z maqolalarida kutubxonalarni ochish, ularni rivojlantirish, yoshlarni ma’rifatga etaklashni ustuvor vazifa deb bilganlar. Avloniy o‘zining “Madaniyat to‘lqinlari” maqolasida shunday deydi:

“Millatga dalda berish, maktablar islohi, yoshlarimizni Yevropa oliy o‘quv yurtlariga kirishga tayyorlash... bizga kutubxonalar, jamg‘armalar, gazetalar, jurnallar, nashriyotlar kerak.”

1913-yilda Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy tomonidan “Turon xayriya jamiyati” tuzildi. 1918-yilda bu jamiyat asosida “Turon kutubxonasi” tashkil etildi. Keyinchalik ushbu kutubxonaga shoʻro arbobi Orif Klibleyev nomi berilib, davlat tomonidan moddiy koʻmak ajratildi.

Mutolaa inson ongini kengaytiradi, bilim va tafakkur doirasini oshiradi. Jadidlar yosh avlodni oʻqishga, ilm olishga va doimiy ravishda oʻzini takomillashtirishga chaqirdi. Kitoblar orqali dunyoqarashni kengaytirish, oʻz millati, tarixi va madaniyatini anglash harakatlari jadidchilik harakatining asosiy maqsadi boʻldi.

Jadidchilik, kutubxonalar va mutolaa oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik milliy ma’naviyat va ma’rifatning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻldi. Jadidlar oʻz harakati bilan xalqimizning bilim olishga boʻlgan intilishini oshirdi, kutubxonalar esa ushbu bilimlarni jamiyatga etkazish vositasi boʻldi. Mutolaa esa har bir insonning shaxsiy va ma’naviy oʻsishida muhim qadam boʻlib xizmat qildi.

Jadidlarning bu boradagi sa’y-harakatlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Ularning har bir qadamida bugungi zamon kutubxonachiligiga asos boʻladigan tamoyillar mujassam: ommaboplik, zamonaviylik, yoshlar bilan ishlash, axborotga erkin kirish imkoniyati yaratish. Aynan shuning uchun ham jadidlar tomonidan asos solingan kutubxonachilik an’analari – bu nafaqat tarixiy meros, balki kelajakka yoʻnaltirilgan strategik tamoyillardir.

Bugun biz jadidlarning boy ilmiy-ma’naviy merosiga tayangan holda, kutubxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishimiz, ularni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan uygʻunlashtirishimiz lozim. Zero, jadidlarning eng muhim saboqlari – mutolaa, tafakkur va ma’rifatdir.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. – Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti, 2022.- 440 b.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonishi. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida. 2017 yil, 12 yanvar.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida. 2017-yil, 13-sentabr.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oʻzbekiston Respublikasi aholisiga axborot - kutubxona xizmati koʻrsatishni yanada shakllantirish toʻgʻrisida. 2019-yil, 7-iyun.

5. Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.-128 b.
6. Melenteva Ye.P. Obщaya teoriya chteniy. Moskva, Nauka, 2015.-230 s.
7. Melenteva Ye.P. Chtenie: yavlenie, protsess, deyatelnost. Moskva, Nauka, 2018. – 282 s.
8. Chudinova V.P. Razvitie natsiy chitateley v raznix stranax mira: issledovaniya, strategii, proekti, praktiki. Moskva, Kniga, 2014.-344 s.
9. Umarov A.O. Mutolaa madaniyati: Shaxs, jamiyat, taraqqiyot.-Toshkent: Fan, 2004. – B. 194.
10. Falsafa: Qomusiy lug‘at.-Toshkent: “Sharq”NMAK Bosh tahririyati, 2004.-469 b.

Kamola ABLOQULOVA

Kutubxona-axborot faoliyati yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

O‘zDSMI

JADID ADABIYOTI VA ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRINING ILDIZLARI

Anotatsiya:*O‘zbek adabiyoti o‘zining uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida ko‘plab muhim bosqichlarni boshidan o‘tkazgan. Bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Xususan, jadidchilik harakati o‘zbek adabiyotining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Jadid adabiyoti, 19-20-asrning oxirlarida ilm-fan, ma’naviyat va madaniyat sohalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek nasrining zamonaviy shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Jadid yozuvchilari o‘z davrida faqatgina ijtimoiy va siyosiy yangiliklarni emas, balki o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda ham katta ta’sir ko‘rsatdilar.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, jadid adabiyoti, o‘zbek nasri, zamonaviy o‘zbek adabiyoti, ma’rifatparvarlik, ilm-fan va ta’lim, milliy uyg‘onish, ijtimoiy islohotlar, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ismoilbek Gasprinskiy, adabiy janrlar, milliy o‘zlik, o‘zbek tili rivoji, ijtimoiy adolat.*

Annotation: *Uzbek literature has undergone numerous significant stages throughout its long historical development. Each of these stages is distinguished by its unique characteristics. In particular, the Jadid movement played a major role in the development of Uzbek literature. Jadid literature, associated with the changes in science, spirituality, and culture at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, played an important role in shaping modern Uzbek prose. The Jadid*

writers of their time had a significant impact not only on social and political reforms but also on shaping the moral and spiritual worldview of the Uzbek people.

Keywords :*Jadidism, Jadid literature, Uzbek prose, modern Uzbek literature, enlightenment, science and education, national awakening, social reforms, Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloniy, Ismail Gasprinski, literary genres, national identity, development of the Uzbek language, social justice.*

Jadidchilik harakati o‘zining tarixiy rivojlanishida ikki asosiy omilga tayanadi: bular ilm-fan va madaniyat sohasida yangiliklarga erishish hamda musulmon jamoasining o‘zining ijtimoiy va siyosiy hayotidagi o‘zgarishlarga yangicha yondashuv. Jadidchilik, ayniqsa, Turkiston viloyatlarida, xususan O‘zbekiston hududida, o‘zining yangicha ma’rifatparvarlik yondashuvlari, zamonaviy o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi va ijtimoiy masalalarga yondoshuvi bilan ajralib turdi. Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalaridan biri, millatning kelajagi uchun ma’rifat va bilim olishning ahamiyatini ta’kidlash edi. Bu g‘oya, avvalo, qator jadid yozuvchilarining asarlariga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning asarlarida yangi fikrlar, o‘zgarishlar va jamiyatda rivojlanishga qaratilgan chaqiriqlar ko‘rinish oldi. Bunday yondashuvlar zamonaviy o‘zbek adabiyotining poydevorini yaratishga asos bo‘ldi. Jadidchilik harakati XIX-asrning oxirlaridan XX-asr boshlariga qadar, xususan, Rossiya imperiyasining turkiston hududidagi mustamlakachilik siyosati va shu bilan birga diniy, ilmiy va ijtimoiy yondashuvlardagi islohotlar orqasidan rivojlangan. Jadidchilik o‘zining avangard g‘oyalari bilan butun musulmon dunyosiga, shu jumladan O‘zbekistonga, katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning asosi – ta’lim va madaniyatni yangilash, zamonaviy ilm-fan va ma’rifatga tayanib, eski mustabid tizimga qarshi kurashish edi. Jadidchilik harakati asosan yangi, ilg‘or ta’lim usullari, ma’rifatparvarlik, ijtimoiy islohotlarni talab qilishga qaratilgan edi. Bularning barchasi o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalari musulmon jamiyatini ilm-fan, axloq, va madaniyat jihatidan rivojlantirish edi. Jadidchilik harakati quyidagi asosiy g‘oyalarga asoslangan: Jadidchilik ta’limni yangilashni asosiy g‘oya qilib olgan. Eski maktablar va madrasalardagi an’anaviy ta’lim usullari o‘rniga, yangicha ta’lim tizimlarini joriy etish va yoshlarni dunyoqarashi keng bo‘lgan, ilm-fan va texnologiyalarni biladigan shaxslar sifatida tarbiyalashni ko‘zlagan. Ilm-fanga e’tibor qaratish ya’ni Jadidlar ilmiy bilimlarga e’tibor qaratib, an’anaviy diniy ta’limdan tashqari, matematika, astronomiya, tarix, geografiya kabi fanlarni ham o‘rgatishga urg‘u berishdi. Ular shuningdek, ilm-fan va texnologiyalarni o‘rganish orqali musulmon jamiyatining rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan bilimlarni tarqatishga harakat qilishdi. Milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik Jadidchilik harakati milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlikni ilgari surdi. Ular o‘z xalqining tarixiy va madaniy merosini

qadrlash, milliy qadriyatlarni himoya qilishga chaqirdilar. Bu g‘oya, o‘z navbatida, o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash va uni rivojlantirishga, turtki berdi. Ijtimoiy va siyosiy islohotlar: Jadidchilik harakati jamiyatda tenglik va erkinlikni ta’minlashni, feodalizm va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashishni maqsad qilgan. Jadidlar o‘z asarlarida ijtimoiy adolat, inson huquqlari va erkinligi haqida yozdilar. Jadid adabiyotining shakllanishi va uning o‘zbek nasriga ta’siri, Jadidchilik harakati o‘zining g‘oyalarini faqat ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan cheklamadi, balki adabiyotda ham o‘z izini qoldirdi. Jadid adabiyoti eski klassik adabiyotdan farqli ravishda, yangi va ilg‘or g‘oyalarni, ta’lim va ilm-fan yangiliklarini tarqatishga qaratildi. Jadid yozuvchilari adabiyotni faqat san’at emas, balki jamiyatni o‘zgartirish, yoshlarni ma’rifatparvar va bilimdon shaxslar sifatida tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rdilar.

Jadid yozuvchilari o‘z asarlarida an’anaviy tildan farqli ravishda sodda va tushunarli tilni ishlatdilar. Ular o‘zbek tilini ilg‘or va zamonaviy bilimlarni tarqatish vositasi sifatida ishlatishga harakat qilishdi. Jadid yozuvchilari, ayniqsa, o‘zbek tilining boyligini, naqshli va ifodali imkoniyatlarini kengaytirishga e’tibor berdilar. Bu o‘zgarishlar o‘zbek nasrining yangi shakllarini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Jadid yozuvchilari o‘z asarlarida faqat ijodiy yoki romantik mavzularni emas, balki jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy, siyosiy masalalarni ham yoritdilar. Ularning asarlarida ijtimoiy adolatsizliklar, ta’limdagi nuqsonlar, an’anaviy jamiyat tuzilmalari va ularning zararli oqibatlari haqida so‘z yuritildi. Jadidchilik harakati ilm-fan va ma’rifatni rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida qo‘ygan bo‘lsa, bu g‘oya jadid yozuvchilarining asarlarida yaqqol aks etdi.

Abdulla Avloniyning "Mahbub ul-qulub" asari va Mahmudxo‘ja Behbudiyning asarlari o‘zbek tilida yangi ilmiy va ma’rifatparvar g‘oyalarning tarqatilishiga xizmat qildi. Ular o‘z asarlarida ilm-fan va ta’limning milliy taraqqiyotdagi muhimligin, ta’kidlashgan. Jadid adabiyoti o‘zining shakllanishi davomida eski adabiyotning ko‘pgina qoidalarini buzdi. Jadid yozuvchilari yangi janrlarni va shakllarni qo‘lladilar, jumladan, qissalar, hikoyalar, dramalar va ese yozish kabi janrlarni rivojlantirdilar. Bu o‘zbek adabiyotining yanada boyishiga va turli shakllarga ega bo‘lishiga olib keldi. Jadid yozuvchilari o‘z asarlarida o‘sha davr ijtimoiy masalalarini ko‘tarishdi. Ular feodalizm va patriarxal tuzilmalarga qarshi chiqib, tenglik va adolatni targ‘ib qildilar. Shuningdek, ayollar huquqlarini himoya qilish va ta’lim sohasida teng imkoniyatlar yaratish g‘oyasini ilgari surdilar. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek adabiyotining ijtimoiy fukarolik va feminist g‘oyalarga yo‘naltirilgan yangilanishiga olib keldi. Jadidchilik va zamonaviy o‘zbek adabiyoti Jadidchilik harakatining ta’siri zamonaviy o‘zbek adabiyotida ko‘rinadi. Jadidlarning ilg‘or g‘oyalari o‘zbek nasrining shakllanishi va uning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishida mustahkam zamin yaratdi. Bugungi kunda o‘zbek adabiyotida

jadidchilikning ijtimoiy maqsadlari, ilm-fanga e'tibor, ta'lim tizimini isloh qilish, milliy qadriyatlarni qayta tiklash kabi g'oyalar davom ettirilmoqda. Jadidchilik harakatining ta'siri nafaqat adabiyotda, balki ijtimoiy hayotda, siyosat va ta'lim tizimida ham sezilmoqda.

Jadidchilik harakati o'zining ilm-fan, ta'lim, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy islohotlarga bo'lgan yondashuvlari bilan o'zbek adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Jadid yozuvchilari nafaqat adabiyotda yangi shakllar va uslublarni yaratdilar, balki o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy taraqqiyotiga ham hissa qo'shdilar. Ularning asarlarida aks etgan g'oyalar va yondashuvlar zamonaviy o'zbek adabiyotining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Jadid yozuvchilari va o'zbek nasrining va Jadid yozuvchilari o'z asarlarida nafaqat ijtimoiy, balki ma'naviy-axloqiy masalalarni ham o'rtaga tashladilar. Ularning yozuvlarida o'zbek tilining nafis va boyligi, uning tabiiy va an'anaviy jihatlari saqlanib qolgan holda, zamonaviy ilmiy va madaniy so'zlashuvga oid yangiliklar ham joriy etildi. Shu tariqa, jadid adabiyoti o'zbek nasrining birinchi yirik namunalari sifatida shakllana boshladi. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning va Ismoilbek Gasprinskyning asarlarida o'zbek milliy madaniyatini rivojlantirish va ilm-fan sohasida yangiliklarni tarqatishning ahamiyati ko'rsatilgan. Behbudiyning "Turkiston" gazetasi va uning "Tuhfa" jurnalidagi maqolalari yoshlarni yangi fikrlar bilan tanishtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jadid yozuvchilari orasida eng mashhur nomlardan biri bo'lgan Abdulla Avloniy "Mahbubul-qulub" asarida ilm-fan va ma'rifatni oshirishning zarurligini va uning xalqni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlagan. Jadidchilikning ijtimoiy tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri, ta'lim tizimini isloh qilish, yoshlarni yangi ilmiy bilimlar bilan tanishtirish va diniy an'analarni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish edi. Bu g'oya zamonaviy o'zbek nasriga ayniqsa ta'sir ko'rsatdi, chunki yangi adabiy va ilmiy tushunchalar nasrda keng qo'llanildi.

Zamonaviy o'zbek nasri jadidchilikdan oldingi adabiyot bilan qaraganda, ko'plab yangiliklar va o'zgarishlarga duch keldi. Jadid yozuvchilarining maqsadi, jamiyatni zamonaviy ilm-fan, axloqiy tarbiya va mustaqil fikrga asoslangan holda shakllantirish edi. Bu maqsadlar o'zbek nasrining shakllanishida asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.Jadid adabiyoti o'zbek nasrida tilni rivojlantirishga, undagi so'zlashuvni va mazmunni yengillashtirishga katta e'tibor qaratdi. Jadid yozuvchilari o'z asarlarida o'zbek tilining an'anaviy elementlarini saqlagan holda, tilni ilmiy va madaniy so'zlashuvlarga moslashtirdilar. Buning natijasida, o'zbek nasri faqat adabiy jihatdan emas, balki ijtimoiy va ma'naviy nuqtai nazardan ham yangi bosqichga ko'tarildi shuningdek Zamonaviy o'zbek nasrining shakllanishida jadid yozuvchilarining asarlari katta rol o'ynadi. Ularning asarlari o'zbek yozuvchilari uchun yangi ijodiy va ilmiy g'oyalarning manbai bo'ldi.

Jadidchilikning ta’siri nafaqat o‘zbek nasrining shakllanishida, balki adabiyotning boshqa janrlarida ham sezildi. Xususan, Abdulla Qodiriy, Cholpan, Hamza kabi yozuvchilar jadidchilik g‘oyalarini adabiy an’anaga aylantirib, o‘z asarlarida zamonaviy o‘zbek jamiyatining muammolarini ko‘rsatdilar. Jadidchilik harakati, o‘zining ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ilm-fan, madaniyat va adabiyotga oid yondashuvlari bilan o‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. XIX-XX-asrlar oralig‘ida Turkistonning turli hududlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy islohotlar o‘zgarishlar jadidchilik harakatining kuchayishiga olib keldi. Bu harakat, o‘zining yangicha fikr va g‘oyalari bilan o‘zbek adabiyotini yangilashga, zamonaviylashtirishga va jamiyatni yangi fikrlarga yo‘naltirishga intildi. Jadid adabiyoti o‘zbek nasrining rivojlanishida kengroq shakllangan va uning bugungi zamonaviy shakllariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Jadid adabiyotining ta’siri, asosan, yangi janrlar va shakllarning joriy etilishi, tilning rivojlanishi, ijtimoiy masalalar va jamiyatning o‘zgarishiga qaratilgan g‘oyalar bilan bog‘liq.Jadid adabiyotining o‘zbek nasriga ta’sirining asosiy jihatlariZamonaviy til va uslubning joriy etilishiJadidchilik harakati o‘zbek adabiyotiga yangi til va uslubni kiritdi. Avvalgi klassik adabiyotda ko‘proq og‘zaki va noaniq tildan foydalanilsa, jadid yozuvchilari o‘z asarlarida aniq va sodda tilni ishlatishga harakat qildilar. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek tilining zamonaviy ilmiy va madaniy maqsadlarga moslashishini ta’minladi. Jadidlar o‘z asarlarida tilni to‘g‘ri va aniq ishlatib, uni ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishda vosita sifatida ishlatdilar. Bu ta’sirni Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ismoilbek Gasprinskiy kabi adiblar o‘z asarlarida ko‘rsatdilar. Ijtimoiy mavzularni yoritishJadid yozuvchilari, faqat adabiy ijod bilan cheklanmay, balki jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy masalalarni ham o‘z asarlarida yoritdilar. Jadidchilik harakati o‘zining ijtimoiy islohotlar bilan tanilgan bo‘lsa, bu g‘oyalar o‘zbek nasrida ham keng tarqaldi. Jadid yozuvchilari adabiyotda jamiyatning o‘zgarishlari, ta’lim tizimidagi muammolar, ayollarning huquqlari, feodalizmning zararli oqibatlari haqida so‘z yuritdilar. Jadidchilikning bu ta’siri, o‘zbek nasrida ijtimoiy masalalar haqida fikr yuritadigan yozuvchilarni yaratishga yordam berdi. Abdulla Qodiriy, Cholpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi yozuvchilar jadidchilikning ijtimoiy va ma’rifatparvar g‘oyalarini o‘z asarlarida aks ettirdilar. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O‘tgan kunlar" asari zamonaviy o‘zbek jamiyatining o‘zgarishlarini va o‘sha davrning ijtimoiy muammolarini tahlil qiladi. Jadidlarning "yangi dunyoqarash"ni targ‘ib qilishdagi roli, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan noqulay sharoitda bo‘lgan yoshlar va ayollarga katta ta’sir ko‘rsatdi.Janrlarning rivojlanishi va yangi shakllarning paydo bo‘lishi Jadidchilik harakati o‘zbek adabiyotiga yangi janrlarni, jumladan, qissa, hikoya, drama va esse kabi shakllarni olib keldi. Jadid yozuvchilari o‘z asarlarida adabiy janrlarni yangilab, yangi mazmunlar bilan to‘ldirdilar. Bu esa, o‘z navbatida,

zamonaviy o‘zbek nasrining rivojlanishiga turtki berdi. Abdulla Avloniyning “Mahbub ul-qulub” asari va Hamza Niyoziyning “Fazliddin” dramasi, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotiga, odamlarning yashash sharoitlariga oid yangicha yondashuvlarni namoyish etgan. Yangi janrlar orqali jadid yozuvchilari faqat ijtimoiy g‘oyalarni targ‘ib qilmay, balki o‘zbek adabiyotining turli shakllarini boyitdilar. Ilm-fan va ta’limga bo‘lgan e’tibor Jadidchilik harakati o‘zining ilmiy ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan o‘zbek adabiyotiga ta’sir ko‘rsatdi. Jadid yozuvchilari ta’limning jamiyat rivojidagi ahamiyatini ta’kidlashgan va yoshlarni ilmga, bilimgirlikka da’vat qilganlar. Ular o‘z asarlarida ta’lim va ma’rifatning muhimligini ko‘rsatishgan, shuningdek, mustahkam ilmiy asosga tayanishning zarurligini targ‘ib qilganlar. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Tuhfa" gazetasida ilm-fan, ta’lim, ma’rifat va diniy bag‘rikenglik kabi masalalar muhokama qilinadi. Bu esa o‘zbek adabiyotining ilm-fan va ma’rifatparvarlikka bo‘lgan e’tiborini yanada oshirishga yordam berdi. Milliy o‘zlikni anglash va milliy qadriyatlarni rivojlantirishJadidchilik harakati o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglash va uni saqlashga qaratilgan edi. Jadid yozuvchilari o‘z asarlarida o‘zbek milliy madaniyati va an’analarini hurmat qilishga chaqirdilar. Buning natijasida, zamonaviy o‘zbek nasrida milliy qadriyatlar va o‘zlikni anglash muhim mavzulardan biriga aylandi. Zamonaviy o‘zbek nasrining shakllanishida jadidchilikning milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga bo‘lgan intilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Cholpon va Hamza kabi yozuvchilar o‘z asarlarida milliy o‘zlik va milliy madaniyatni yangi jamiyat tuzish jarayonida davom ettirish zarurligini ko‘rsatdilar. Jadidchilik harakati o‘zbek adabiyotini yangilash va zamonaviylashtirishga katta hissa qo‘shgan. Jadid yozuvchilari tilni, adabiy shakllarni va janrlarni yangilab, ijtimoiy-siyosiy masalalarga bo‘lgan yondashuvlarini ilgari surdilar. Ular o‘z asarlarida ilm-fan, ta’lim, milliy o‘zlik, ayollar huquqlari va jamiyatdagi o‘zgarishlarni yoritdilar. Bu g‘oyalar zamonaviy o‘zbek adabiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynadi va jadidchilik harakatining ta’siri bugungi kunda ham o‘zbek adabiyotining eng asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy, M. (1991). Tanlangan asarlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Gasprinskiy, I. (2006). Rus-Turkiy lug‘at va maqolalar tanlovi. Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Qodiriy, A. (1990). O‘tgan kunlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

5. Salohiy, M. (2008). Jadidchilik harakati va uning adabiyotimizdagi o‘rni. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Karimov, I. (1997). Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
7. Zunnunova, M. (2015). Jadid adabiyoti va milliy uyg‘onish. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
8. Usmonov, S. (2009). Jadidlar va jadidchilik. Toshkent: Sharq.
9. Hamidov, A. (2010). XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Rashidov, R. (2007). O‘zbek nasri taraqqiyoti. Toshkent: Akademnashr.
11. Jalilov, M. (2012). Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
12. Rizaev, B. (2014). O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-qism. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

Durdonaxon MAHMUDALIYEVA
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi

JADIDLARNING O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI RAVNAQI YO‘LIDAGI HARAKATLARI

Annotatsiya. *O‘zbekiston tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak demokratiyalash, milliy mustaqillik uchun kurash jarayonlari jadidlik bilan chambarchas bog’liqdir. Ular o‘z asarlarida boy tariximizni ta’lim -tarbiyani isloh qilish masalalarini dadillik va kuyinchaklik bilan ilgari surdilar va xalqimizni jaholatga botmasligi yo‘llarini izladilar.*

Kalit so‘zlar: *jadid, fenomen , innovatsiya, Turkiston, jadidchilik adabiyoti, sheriyat, ziyolilar*

Abstract. *If we look at the history of Uzbekistan, the processes of democratization and the struggle for national independence are closely related to Jadidism. In their works, they boldly proposed reforming our rich history of education and upbringing and sought ways to prevent our people from sinking into ignorance.*

Keywords: *jadid, phenomenon, innovation, Turkestan, Jadidism literature, Sharia, intellectual*.

"Jadid" so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, "yangi" degan ma'noni bildiradi. Shu boisdan ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchilik faoliyat bilan shug‘ullangan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda "jadid" degan nomga musharraf bo‘lishgan. Ularning harakati esa tarixda jadidchilik deb nom qoldirgan. Bu harakatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi o‘sha vaqtdagi ichki muhit hamda tashqi xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy va demokratik yangilanishlar bilan bog'liq edi. Turkiston diyorida jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida ushbu insonlar turardi: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O‘sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm). Ushbu kishilar Turkiston o‘lkasida Jadidchilik harakatini rivojlantirishda ulkan hissa qo‘shgan kishilardir. Ular o‘z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to‘planishar edi. Ularning ko‘pchiligi shu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari shoir-u yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910-yillardayoq ma’rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Adabiyotga „millat“va „vatan“ tushunchalari kirib keldi. Milliy she’rlarga rag‘bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O‘zbekiston mustaqilligidan keyin milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti deb davrlashtirildi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib etgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o‘rnashib olishi kuzatiladi. U o‘z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini

ko‘zlaydi. Ayni chog‘da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi. O‘sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o‘z „Xitobnoma“sida (1898) yaxshi bayon qilgan.

Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitdaTurkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand yaqinidagi Siyob volostining Baxshitepa qishlog‘ida imom-xatib Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li xonadonida tug‘ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasining buvasi Niyozxo‘janing asli kelib chiqishi urganchlik bo‘lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko‘chib kelgan[2]. 1868-yilda rus askarlari Samarqandga bostirib kirgandan keyin otasi Behbudxo‘ja oilasini olib Baxshitepa qishlog‘iga ko‘chib o‘tgan va shu qishloqda imomlik qilgan. Behbudiyning onasi esa muftiy Odil Mansur o‘g‘lining singlisi bo‘lgan.

Avloniy 1878-yil 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida to‘quvchilar oilasida tug‘ilgan. Oilasidagi moddiy etishmovchiliklar sababli bolaligidan suvoqchilik, g‘isht quyish, pechkachilik, binokorlik, duradgorlik kabi kasblar bilan shug‘ullangan Bularning ortidan „Imoratchi usta“degan nom oladi. U tarjimai holida bu haqida shunday yozgan: "12 yoshimdan O‘qchi mahallasidagi madrasada dars o‘qiy boshladim. 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor bo‘lib ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o‘qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o‘sha zamonga muvofiq har xil she’rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda „Tarjumon“ gazetasini o‘qib, zamondan xabardor bo‘ldim". O‘qchidagi eski maktabda, so‘ng madrasada o‘qigan (1885—1895). Madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug‘ullandi. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib brogan.

Fayzulla Ubaydullayevich Xo‘jayev (shuningdek, *Fayzulla Xo‘ja o‘g‘li;* 1896-yil 1-iyun, Buxoro, Buxoro amirligi, Rossiya Imperiyasi – 1938-yil 15-mart, Moskva, SSSR) – atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi, „Yosh buxoroliklar“ partiyasining rahbarlaridan biri. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Nozirlar Kengashi raisi. Shuningdek, keyinchalik O‘zbekiston SSRning rahbarlaridan biri sifatida faoliyat yuritgan.

Jadidlar Turkiston xalqini sovet hukumatiga bo‘yin egish xavfidan qutqarishning birdan-bir to‘g’ri yo‘li avval tarbiya va ma’rifat, so‘ng islohot ekanligini juda yaxshi anglab etdilar va quyidagi me’zonlarni yaratdilar:

1.Agar mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy jihat ustunroq bo‘lgan bo‘lsa, jadid adabiyotida bularning o‘rtasida o‘zaro tenglik ya’ni diniy-dunyoviylik qaror topdi.

2 Jadid adabiyot mumtoz adabiyotdan farqli ravishda g’arb adabiyotidagi esse, drama, roman hikoya va barmoq vazniga asoslangan she’riyat kabi badiiy janrlar ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Proza va publitsistika paydo bo‘la boshladi.

3. Jadid adabiyoti bevosita ijtimoiy-siyosiy va mar’rifatchilik mafkurasi, milliy-ozodlik xususiyatiga ega edi. Unda mazlum xalq hayoti bevosita o‘z ifodasini topdi. Badiiy asarlar jonli xalq tilida yozildi. Ijtimoiy faollik va milliy ruh bu yangi adabiyotning eng muhim xususiyatiga aylandi.

1904–1905-yillardagi rus yunon, 1905–1907-yillarda bo‘lgan 1-rus inqilobi, 1905–1911-yillardagi Eron inqilobi, 1908-yil Turkiyada bo‘lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar o‘z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to‘planishar edi. Ularning ko‘pchiligi shu davrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari shoir-u yozuvchilar edi. Ular o‘z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910-yillardayoq ma’rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Adabiyotga „millat“ va „vatan“ tushunchalari kirib keldi. Milliy she’rlarga rag‘bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi, publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Mirmuhsin) rivojlandi, realistik proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O‘zbekiston mustaqilligidan keyin *milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti* deb davrlashtirildi.

Biz ushbu maqolada mamlakatimiz hududida jadidchilik oqimining yuzaga kelishi va uning ma’rifatparvarlik sohasidagi faoliyatiga to‘xtaldik. Jadidchilik harakatining ijtimoiy –siyosiy qarashlari, milliy mustaqillik va davlatchilik g’oyalari (Munavvarqori, Behbudiy, Polvonniyoz Yusupov, Fitratning dasturlari), bu boradagi amaliy harakatlari va kurashlari aloxida katta mavzudir. Xulosa qiladigan bo‘lsak, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g’oyaviysiyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma’naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg’usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab etganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni

tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g’ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ’ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini o‘uncha ko‘p anglab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch” Toshkent 2012.
2. Xusanova Dilafruz: D.Alimova, A.Rashidova. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent: Akademiya nashriyoti, 1999 – B. 7.
3. N. To‘xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – B. 84.

D. Baxronov
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o`qituvchisi,
tarix fanlari nomzodi
I.Saidova
Kafedra o`qituvchisi
Toshkent Fan va texnologiyalar universiteti

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING TURKIY XALQLAR TARIXIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning bosqichlari, ma’rifatparvarlik, jadid maktablari, ta’lim jarayoni, jadidchilikning asosiy g’oya va maqsadlari, yoshlarni chet mamlakatlarga o’qishga yuborishdan ko’zlangan maqsad, shuningdek jadidchilik milliy harakatining tarixiy ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Rossiya imperiyasi, Turkiston, jadidchilik, maorif, jadid maktablari, ozodlik.*

Abstract. *This article discusses the emergence of the Jadid movement in Turkestan, its stages, enlightenment, Jadid schools, the educational process, the main ideas and goals of Jadidism, the purpose of sending young people to study abroad, as well as the historical significance of the Jadid national movement.*

Keywords: *Russian Empire,* Turkestan, Jadidism, education, Jadid schools, freedom.

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o’lkasining zabt etilishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan ko‘p

sohalarda orqada qolib ketishiga, milliy qadriyatlarning toptalishiga olib keldi. Maorif sohasida ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqib, mahalliy aholini savodsizlikda, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat rus imperiya siyosati maqsadiga juda mos edi. Turkistonga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholining ochiq kurash olib borishiga imkon bermas edi. Shuning uchun ham Vatan, millat, xalq qayg‘usini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yagona yo‘l bu – xalqni ma’rifatli qilish deb bildilar. Ular xalqni ma’rifatli qilmasdan turib, mustaqillikni qo‘lga kiritib bo‘lmaydi, deb hisoblaganlar. Ziyolilar xalq orasida ilg‘or g‘oyalarni tarqatishda maorif tizimini asosiy vosita deb bildilar. O‘lka milliy ziyolilarining jamiyatni yangilashga va isloh qilishga qartilgan harakatlari tariximizda jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati vujudga keldi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o‘ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatini quyidagi uch bosqichdan iborat ekanligini ko’rsatmoqdalar:

1) XIX asr oxirlaridan 1915-yilgacha-ma’rifatchilik;

2) 1915-yildan – 1918-yil fevraligacha-muxtoriyatchilik;

3) 1918-yil fevralidan – 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik rus mustamlaka siyosatiga qarshi milliy demokratik xarakat bo’lib, u o’sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy isloxotlar o’tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g’oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o’z oldiga qo’ygan edi. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o’rganish, fan yutuqlaridan foydalanish, hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashish va Turkiston yoshlarini har tomonlama ilmli bo’lishga chaqirishgan edi.

Mamlakatimizda Turkiston jadidchilik harakati rahnamolarining hayoti, millatimiz taqdiri yo’lida amalga oshirgan say harakatlarini xolisona o’rganishga keng e’tibor qaratildi. Shu o’rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” dasturidan yoshlarimizni sog’lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o’rin egallashi tabiiydir. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o’g’il qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug’ ajdodimiz nima deb yozganlar: Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo’lishi, baxtli bo’lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo’lishi yoki zaif bo’lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o’zgalarga tobe va qul, asir bo’lishi ularning o’z ota-onalaridan bolalikda olgan

tarbiyalariga bog'liq" [1]. Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar! deganlarida jamiyat taraqqiyoti uchun tarbiyaning va ta'limning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edilar. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar o'z xalqlarini ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar. Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan Ismoil G'aspirali (1851–1914) butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini o'rgangan edi. O'zi egallagan bilimlar asosida Sharq va G'arb dunyosini taqqoslab, turkiy xalqlarning taraqqiyotga erishish yo'llarini izlaydi. Ismoil G'aspirali 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos soldi. U o'zi tuzgan ta'lim dasturi asosida darslik tayyorladi. Shu dastur bo'yicha 40 kunda 12 ta o'quvchining savodi chiqarildi.[2] Bu usul "usuli savtiya»– harf tovushi usuli, ya'ni «usuli jadid» nomi bilan keng tarqaldi. Uning 1888-yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh"» kitobi chop etildi. Unda yangi usul maktablarining ta'lim tizimi, dars o'tish va uning tashkil qilinishi, o'quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta'tillar, imtihonlar bayon etilgan. Jadidlar Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan xalqlarni, eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta'lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o'qitish zarur deb bildilar. Jumladan diniy ta'lim, arab, fors va rus tillari, tibbiyot, kimyo kabi fanlar o'qitilishi zarurligi g'oyasini ilgari surdilar.

Turkiston o'lkasida millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Jadidchilik g'oyalarining keng yoyilishida "Tarjimon" gazetasi muhim o'rin tutdi. Ismoil G'aspiralining 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi ma'rifatparvarlik g'oyalarining keyingi rivojiga turtki bo'ldi. 1893-yilda Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi. 1898-yilda Qo'qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabi ochdi.1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkenda Mannon qori jadid maktabini ochib, ko'plab o'quvchilarning yangi usulda ta'lim olishlariga erishdilar. Rus maktablari bilan allaqachon tanish bo'lgan tatar ma'rifatparvarlari ta'lim sohasida o'z ona tillarida "Yangi usul" (Usuli jadid) maktablarini tashkil qilmoqchi bo'ldilar va shu asnoda ularni "Usuli Qadim" maktablaridan farqli tomonlarini ko`rsatib berdilar. Og'ir diniy ta'lim ostidagi an'anaviy musulmon maktablari o'rniga Bog'chasaroy, Qrim, Qozon, Boku, Toshkent, Xiva, Samarqand va Buxoroda zamonaviy ta'limga ega "Yangi usul" jadid maktablarining tez tarqalishida Ismoil Gaspirinskiyning ta'siri juda katta bo'ldi. Rasmiy manbalarga ko`ra 1898-1908 yillarda Chor Rossiyasi Turkiston general-gubernatorligida 102 ta yangi usuldagi boshlang'ich maktab va ikkita yangi usuldagi o'rta maktab, Buxoro amirligida

oltita, Xiva xonligida oltita “yangi usul” boshlang‘ich maktablari bor edi. Buxoro ma’rifatparvar ziyolilari va tadbirkorlari “Yangi usul” maktablarini qo‘llab quvvatlash maqsadida 1909 yil mart oyida “Shirkati Buxoroi Sharif” (“Asl Buxoro shirkati”) shirkatiga asos solib, o‘zini savdo shirkati sifatida ko‘rsatsada, aslida siyosiy tashkilot edi [3]. Bu shirkat “Yangi usul” jadid maktablarini yashirincha darsliklar va boshqa jihozlar bilan ta’minlab turdi.

Yangi usul maktablarida ta’lim jarayonida Yevropa standartlari mezon qilib olingan edi. Arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik asoslari singari fanlar bilan bir qatorda islom ta’limoti asoslarini o’rganishga ham katta e’tibor berilgan.Toshkent, Buxoro, Andijon, Qo’qon, Xiva shaharlari jadidchilik markaziga aylandi.

O‘rta Osiyo jadidlari ma’rifatparvarlik yo‘lida qrim ziyolilari tajribalarini o‘rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg‘or g‘oyalaridan ham foydalandilar. O‘rta Osiyo taraqqiyparvarlik harakati ishtirokchilarining yoshi boshqa mamlakatlar jadid vakillaridan ajralib turgan. 1910-yilda ularning eng yoshi Abdulhamid Cho‘lpon – 13 yoshda, eng kattasi Mahmudxo‘ja Behbudiy – 36 yoshda bo‘lgan. Mashhur jadidshunos olim, professor Begali Qosimov “Milliy uygonish”- deb nomlangan kitobida “jadidchilik” istilohining kelib chiqishi haqida to‘xtalib, shu munosabat bilan uning mohiyati to‘g‘risida ham fikr bildiradi:“Jadidchilikning” asosida “jadid” so‘zi yotadi. “Jadid”ning ma’nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo‘lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur“, «yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan.[4] Jadidchilikning asosiy g’oya va maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- Turkistonni o’rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish;
- “Usuli qadim”ni inkor etgan holda o’lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo’liga olib chiqish
- Milliy davlat bunyod etish;
- Konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish;
- Turkiy tillarga davlat tili maqomini berish;
- Milliy pul birligi va milliy qo’shin tuzish.

Jadidlar yoshlarni chet ellarga o’qishga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar. Ko’pgina umidli yoshlar Germaniya, Misr, Turkiya va Rossiyaning markaziy shaharlariga o’qishga yuborildi. Turkiston taraqqiyparvar sarmoyadorlari yoshlarni chet ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqqa foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg‘urgan jadidlarni qo‘llab-quvvatladilar. Andijonlik Mirkomil Mirmo‘minboyev o‘z hisobidan ana shu ishga katta miqdorda mablag‘ ajratgan. 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo‘ja Mehriy, Usmonxo‘ja va Muhammaddin maxdum kabilar «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») jamiyatini tashkil qilib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani Turkiyaga o‘qishga yuboradilar.

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma’rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil

davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surganlar. Jadidlar Turkistonda milliy matbuootga asos soldilar. Munavvar qori 1906 yilda “Xurshid”(“Quyosh”) jurnalini tashkil etib, unga o’zi muharrirlik qildi.Ushbu jurnal xalqning haq-huquqlarini tanishga, milliy uyg’onishga xizmat qildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ham millat taraqqiyoti uchun hayrli ishlarni amalga oshirdi. U 1908 yil 11-sentyabr kuni shaharning “Yangi rasta” qismida “Behbudiya kutubxonasi”ni ochdi. Kutubxonani yo’lga qo’yishda unga safdoshlari Hoji Muin, Vasiliy Samarqandiy va mullim Abdulqodir Shakuriylar ko’maklashdi. 1913-yilda “Samarqand gazetasi” va “Oyna” jurnalini chiqara boshladi.[5]

Turkistonda XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi.

Jadidlar millatimizning haqiqiy rahnamolari sifatida ma’rifat jamiyatning qudratli kuchi ekanligini isbotlay oldilar. Bugun biz ana shunday qudratli kuch egalarining qoldirgan ma’naviy meroslarini organishimiz, shu bilan birga o’sib kelayotgan yosh avlodni ma’rifatparvarlik ruhida tarbiyalashimiz, zamonaviy ilmlarni ularga o’rgatishimiz, yurtimiz taqdiriga daxldorlik , vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishimiz yanada muhim ekanligini teran anglashimiz va bu yo’lda harakat qilishimiz lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi ma’ruzasi. 08-dekabr 2016.

2. Usmonov Q.,. Sodiqov M., Sodiqova S. O’zbekiston tarixi. T.:“Iqtisod-Moliya”. B. 244.

3. Ayni S. 1963. “Bukhara Inqilabi Tarikhi Uchun Materiallar” (Materials for the 206 TIMUR KOCAOGLU history of Bukharan revolution). In Asarlar, 1: 3–260. Tashkent: OzSSR Davlat Badiiy Nashriyati.

4. Qosimov B. Milliy uygonish. – T.:Ma’naviyat, 2002. B. 5.

5. Behbudi M. Jadidlar. T.:Yoshlar nashriyot uyi, 2022. B. 64.

6. Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari. // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam. 1999. №1.

MUNDARIJA

1	***Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich***	Jadid ma'rifatchiligi g'oyalari – uchinchi Renessans poydevori	4
2	***Normurod Avazov***	Jadid adiblarining ijodida millat talqini	7
3	***Ma'rufjon Yo'ldoshev, Muyassarxon To'xtaboyeva***	Jadid ziyolilarining til va ta'lim to'g'risidagi qarashlari	13
4	***Abduxalil Mavrulov***	Jadid ma'rifatparvarlarining madaniyat haqidagi qarashlariga doir	18
5	***Sayyora To'ychiyeva***	Jadidlar: marifiy-ilmiy qarashlar uygunligi	38
6	***Inomjon Azimov***	O'zbek adabiy tili imlo qoidalarining yaratilishida Qayum Ramazonning o'rni	43
7	***Ikromiddin Ostonaqulov***	Salohiddin Soqib va uning "Ma'muloti soqibiy" risolasi haqida	49
8	***Guzalxon Isakova***	Mahmudxo'ja Behbudiyning "sart" so'zi borasidagi qarashlari	54
9	***Qo'chqor Norqobil***	Teatr ko'zgusida jamiyat aks etadi	58
10	***Матлуба Муродова***	Образование как ключ к просвещению	61
11	***Bo'ri Kadirov***	Ashurali Zohiriy: ma'rifatparvarlik va til sofligini saqlash yo'lida kurashchi	63
12	***Xamdamjon Ismoilov***	Jadidlar – birinchi o'zbek ziyolilari – milliy ozodlik uchun kurashchilar	67
13	***Muxtorjon Amonov***	Mahmudxo'ja Behbudiyning xat yozish qoidalari xususidagi qarashlari	71
14	***Ziyodullo Isokov***	Turkiston jadidlarning milliy teatr rivojiga qo'shgan hissasi	73
15	***Zulfiya Marufova***	Abdulla Qodiriy publitsistikasida xalq iboralarining qo'llanishi	76
16	***Dilrabo Andaniyozova***	O'zbek tili punktuatsiyasi taraqqiyotida aded matbuotining o'rni	80
17	***Вера Мухамеджанова***	Джадиды о невежестве и просвещении женщин	85
18	***Musallam Abdujabbarova***	Ayollar ma'rifati va ijtimoiy faolligi jadidlar orzusida (Zebo G'anieva timsoli)	88
19	***Шоира Рамазанова***	Великая заслуга джадидов и их оваторские идеи	91
20	***Sevara Mahmudova***	Abdulla Avloniy darsliklarining maorif islohida tutgan o'rni	96
21	***Nargiza Pazlitdinova***	Jadidchilik harakatida Botuning o'rni	100
22		Usuli jadid maktablari va ular uchun	103

	Мирали Махмуов	o‘quv adabiyotlar: shakllanishi va rivojlanish tarixini ba’zi masalalari	
23	***Faxriddin Abduvohidov***	Ma’rifatparvarlarning milliy teatr va teatr tanqidchiligini shakllantirishdagi harakatlari	107
24	***Машхура Юлдошева***	Behbudiyning “Padarkush” dramasida ijtimoiy maqom va til birliklarining sotsiopragmatik ifodasi	114
25	***Xurshida Xashimova***	Jadidchilik harakati va uning mohiyatida cho‘lponning o‘rni	118
26	***Aliboy Qahramonov M. Zokirova***	Jadid matbuoti va til madaniyati: til islohoti va ommaviy axborot vositalari rivoji	121
27	***Dilnoza Jumayeva***	Hamid Olimjon – ilk Fitratshunoslardan biri	125
28	***Marufjon Karimov, Muxtasar Begmatova***	“O‘tkan kunlar” romanidagi sinekdoxaning badiiy funksiyasi va tarjimalarda aks etish masalasi	128
29	***To‘ychi Bayturayev***	Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik qarashlari tahlili	132
30	***Zulfiya Marufova, Mashhura Olimova***	Jadid madaniyatida ayollar masalasi	134
31	***Mirsoat Isxakov***	Jadidchi ma’rifatparvarlarning kutubxona pedogogikasi sohasiga qo‘shgan hissasi	140
32	***Цай Ирина Константиновна***	Книгоиздательская и библиотечная деятельность джадидов в средней Азии: цели, реализация, наследие	147
33	***Islombek Moksudov***	Jadidchilik harakatining o‘zbek xalqi tafakkuri rivojidagi ahamiyati	152
34	***Mukaddam Sadikova***	The influence of jadidism on the development of foreign languages	156
35	***Sohiba Arzikulova***	Jadid adabiyotdagi yangilanishlar	160
36	***Дильфуза Абдухаликова***	Роль и вклад Исмаила Гаспринского в развитие культуры и просвещения мусулман	163
37	***Marhabo Ismoilova***	Abdurauf Fitratning “Oila” asari orqali talabalarning axloqiy madaniyatini takomillashtirishga doir innovatsion yondashuvlar	166
38	***Xumora Usmanova***	Abdurauf Fitrat she’riyatida ramzlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	169
39	***Hikmat Hikmatov***	Zullisonayn shoir – Amir Umarxonning tojik tilidagi asarlarida uslubiy va badiiy izlanishlar	172

40	***Dilbar Nasriyeva***	Jadidlarning millat ma'naviyati rivojlanishida tutgan o'rni	175
41	***Adhamxo'ja Abdullaxo'jaev***	Is'hoqxon To'ra Ibrat g'oyalarining yangi O'zbekistondagi islohotlar bilan uzviyligi ("tarixi madaniyat" asari misolida)	178
42	***Dilbar Shomuradova***	The role of jadids in language education: a historical and pedagogical perspective	183
43	***Madina Axmadjanova***	Turkistonda til va grammatika (aded olimlari tadqiqotlari misolida)	187
44	***Umida Gafurova***	Jadidchilik harakati: tarixiy zarurat va ma'naviy yangilanish manbasi	191
45	***Nargiza Palvanova***	Jadid adabiyotini lingvopoetik tahlili asosida o'rganish	193
46	***D.Baxronov, Dildora Raximova***	Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	198
47	***Людмила Муминходжаева***	Вклад джадидских просветителей в культурную и информатsionную сферу Туркестана	202
48	***Marg'uba Qodirova***	Elbek (Mashriq Yunusov): xx asr boshlaridagi O'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi, masalchilik janrining rivoji	207
49	***Shavkat Bobomurodov***	Cho'lpon va Fitratning matni topilmagan pyesalari	212
50	***Xilola Nyutonova***	Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi mazmunini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'rganishning didaktik imkoniyatlari	215
51	***Gulnoza Bobonazarova***	XX asr boshlaridagi milliy uyg'onish adabiyoti vakili: Mahmudxo'ja Behbudiy	218
52	***Gulnura To'liboyeva***	Badiiy obraz – milliy ruh ifodachisi sifatida	222
53	***Farog'at Dadabayeva***	Abdurauf Fitrat she'rlarida tahlil va talqin	226
54	***Gulbahor Qushaqova***	Zavqiy asarlarida sifatlashlarning o'rni	229
55	***Zilola Ergasheva***	Jadid adabiyotida qo'llangan obrazli ifodalar xususida	232
56	***Yusuf Eshmurzayev***	Jadidlarning o'zbek musiqa san'atidagi o'rni	236
57	***Nilufar Ro'ziyeva***	Axborot-resurs markazlarida jadidchilik tarixini o'rganish uchun yaratilgan	239

		aded on resurslar tahlili	
58	***Ziyodaxon Usmanova***	Portret tasvirida badiiy uslubning namoyon bo‘lishi	242
59	***Farrux Usmonov***	Abdurauf Fitratning maqom san’atiga oid ilmiy yondashuvi: tarixiy-madaniy merosi va zamonaviy ahamiyati	244
60	***Kamola Abzalova***	Mahmudxo‘ja Behbudiy va “Turon” teatri (“*Teatr nadur?” Maqolasi xususida*)	249
61	***Shohsanam Xoshimova***	“Yorqinoy” dramasining aded adabiyotidagi o‘rni	252
62	***Maftuna Jalolova***	Said Ahmad asarlarida milliy uyg‘onish va jajadchilik g‘oyalari	256
63	***Sevinch Ortiqova***	Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” asari haqida ayrim mulohazalar	259
64	***Navbahor Hamitova***	XX asr o‘zbek she’riyatining yo‘lchi yulduzi: Cho‘lpon va uning adabiy merosi	261
65	***Nigora Boynazarova***	Jadidlar badiiy merosini o‘rganishning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati	264
66	***Muborak Xakimova***	Jadid kutubxonalarining shakllanishi	268
67	***Munavvar Qarshiyeva***	Jadidlar ma’naviy-madaniy islohotlar haqidagi qarashlari	275
68	***Gavhar Qalandarova, Sevinch Turdimurodova***	Jadidlarning o‘zbek tili va adabiyoti rivojidagi o‘rni	280
69	***Munisa Abdijavliyeva***	Jadid adabiyotida milliy uyg‘onish g‘oyasi va uning zamonaviy talqini	283
70	***Mushtariybonu Xabibullayeva***	Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidlar harakatida ilm-fan, ta’lim va tarbiya masalalari	286
71	***Intizor Xo‘janiyazova***	Dunyoni anglash yo‘lida: O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida insoniylik va hayot falsafasi	288
72	***Durdonaxon Madaminova***	Jadid adabiyoti va uning bugungi yosh avlodga ta’siri	293
73	***Sevinch Ortiqova***	Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” asari haqida ayrim mulohazalar	298
74	***Charos***	Sotsiolingvistikada psixolingvistik va	301

	Xudoyshukurova	sotsiolingvistik tushunchalar mazmuni	
75	***Хуснора Норбоева***	Жизненный путь и деятельность Мунаввар Кары Абдурашидханова в сфере просвещения и национального возрождения	306
76	***Mufassal Shokirova***	Professional o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining an‘anaviy teatr ijrochiligi negizida shakllanishi	311
77	***Абдуллох Сагдуллаев***	Музыка как вид искусства в изучении английского языка	314
78	***Shohinur Soatova***	Jadid ayollarning o‘zbek tili, adabiyoti va san’ati rivojidagi o‘rni	319
79	***Nilufar Nazarova***	Jadidlarning o‘zbek ma’daniyati taraqqiyotidagi o‘rni	322
80	***Dilbar Abduqayumova***	Furqat lirikasida yor timsoliga tavsif	325
81	***Fayyoza Doliyeva, Nilufar Kenjayeva***	Mahmudxo‘ja Behbudiy dramaturgiyasida ma’rifatchilik ruhining ifodasi: “Padarkush” asari tahlili	328
82	***Sevara Urazbekova***	Abdurauf Fitratning ilmiy merosi va ma’naviy-axloqiy qarashlari	331
83	***Oltinoy Hasanova***	Lingvistik va sotsiolingvistik tushunchalar: tilni jamiyatda tushunish va tahlil qilish	334
84	***Yulduz Qo‘ziyeva***	Jadidchilik, kutubxonalar va mutolaa – ma’naviy uyg‘onishining tamal toshi	388
85	***Kamola Abloqulova***	Jadid adabiyoti va zamonaviy o‘zbek nasrining ildizlari	342
86	***Durdonaxon Mahmudaliyeva***	Jadidlarning o‘zbek tili va adabiyoti ravnaqi yo‘lidagi harakatlari	348
87	***D. Baxronov, I.Saidova***	Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning turkiy xalqlar tarixidagi ahamiyati	352

Litsenziya AI № 032465 / 15.07.2022
Bosishga ruxsat etildi: 11.06.2025 Ofset qog‘oz.
Qog‘oz bichimi 64x84 1/16 Times garniturasi. Shartli bosma tobog‘i 34.5 Nashr hisob tobog‘i 32,08. Adadi 50

«ZAMON POLIGRAF» OK
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Bobodehqon mahallasi, 45 uy.